MILLIY ADABIYOT SHAKLLANISHIDA JADIDCHILIKNING O‘RNI

ISBN 978-9910-716-77-5

MILLIY ADABIYOT SHAKLLANISHIDA JADIDCHILIKNING O‘RNI

MILLIY ADABIYOT SHAKLLANISHIDA JADIDCHILIKNING O‘RNI

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

2025-yil, 20–21-may, Termiz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MILLIY ADABIYOT SHAKLLANISHIDA JADIDCHILIKNING O‘RNI

(Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari)
2025-yil, 20–21-may, Termiz

Muharrir nashriyoti
M N
Toshkent – 2025

UO‘K 821.512.133.09(06)
KBK 83.3(5O‘)
M 50

Milliy adabiyot shakllanishida jadidchilikning o‘rni (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2025-yil 20–21-may, Termiz) [Matn] / nashrga tayyorlovchi N.Egamqulova; muharrir Sh. Hakimova. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2025. – 532 b.

ISBN 978-9910-716-77-5

Tarixiy haqiqatlarga boy Turkiston jadidchilik harakati va uning natijasida yuzaga kelgan jadid adabiyoti dunyo ilm ahli e’tiborida bo‘lib kelgan. Mazkur adabiyotning buyuk namoyandalari yaratgan asarlar ilm-ma’rifatni targ‘ib etish, insoniy kamolotni ulug‘lagan ideallarni kuylash orqali jahon badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga beqiyos xizmat qilgan.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi “Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi tegishli buyrug‘iga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Termiz davlat universiteti rektorining 2025-yil 22-apreldagi buyrug‘iga ko‘ra 2025-yil 20-21-may kunlari “Milliy adabiyot shakllanishida jadidchilikning o‘rni” mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat.

To‘plam materiallari jadidchilik tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimlar, ilmiy tadqiqotchilar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Maqolalarning ilmiy asoslari, keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’ul.

UO‘K 821.512.133.09(06)
KBK 83.3(5O‘)

ISBN 978-9910-716-77-5

© “Muharrir nashriyoti”,
Toshkent, 2025

Tashkiliy qo‘mita

Dr. Toshqulov A.H	Termiz davlat universiteti rektori
Dr. Shaydullayev A.Sh.	Termiz davlat universiteti
Dr. Shofiyev O.B.	Termiz davlat universiteti
Dr. Tog‘ayev G‘.E.	Termiz davlat universiteti
Dr. To‘rayev R.N.	Termiz davlat universiteti
Dr. Axmedov H.Y.	Termiz davlat universiteti
Dr. Arslonov A.K.	Termiz davlat universiteti
Dr. Eshmuminov A.A	Termiz davlat universiteti
Dr. Omonturdiyev N.	Termiz davlat universiteti
Dr. Abdirashidov Z.Sh.	Anqara Hoji Bayram Vali universiteti
Dr. Yelok V.S.	Anqara Hoji Bayram Vali universiteti
Dr. Karkınlı R.	Otaturk universiteti
Dr. Yavuz C.	Olmaota Menejment universiteti
Dr. Binnatova A.U.	Ozarbayjon Ilmlar akademiyasi
Dr. Yuldashev N.T.	Termiz davlat universiteti
Dr. Murtazoyev B.X.	Termiz davlat universiteti
Dr. Raimova S.Z.	Termiz davlat universiteti
Dr.Egamqulova N.B.	Termiz davlat universiteti

Ilmiy hay'at

Dr.Hakim Ahmedov (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Abdumurod Arslonov (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Asqar Eshmuminov (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Nurali Omonturdiyev (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Zaynabidin Abdirashidov (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Vali universiteti
Dr. Veli Savaş Yelok (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Vali universiteti
Dr.Bahodir Karimov (O‘zbekiston)	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Dr.Normat Yuldashev (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Ibrahim Atabey (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Vali universiteti
Dr.Bobonazar Murtazoyev (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr. Sayyora Raimova (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Nodira Egamqulova (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Sarvarbek Tuliboyev (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Eshnazar Jabborov (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Muhayyo Xamrayeva (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Go‘zal Ximmatova (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Hurriyat Xudoymurodova (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Feruza Sultonqulova (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Yulduz Xaitova (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Zoir Yallaqayev (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Nilufar Abdullayeva (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Feruza Hafizova (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Shuhrat Lolayev (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Ulug‘bek Hamdamov (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Alibek Omonturdiyev (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Mahfuza Muxtorova (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Botir Oqbo‘tayev (O‘zbekiston)	Termiz davlat universiteti
Dr.Almaz Ulvi Binnatova (Ozarbayjon)	Ozarbayjon Ilmlar akademiyasi
Dr.Aynur O‘z O‘zcan (Turkiya)	Anqara universiteti

Dr. Dildora Rahmonova (O‘zbekiston)	Toshkent davlat yuridik universiteti
Dr. Dilmurod Quronov (O‘zbekiston)	Andijon davlat universiteti
Dr. Hamidulla Boltaboyev (O‘zbekiston)	O‘zbekiston Milliy universiteti
Dr. Nurboy Jabborov (O‘zbekiston)	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Dr. Orzigul Hamrayeva (O‘zbekiston)	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Dr. Qo‘ldosh Pardayev (O‘zbekiston)	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Dr. Sayyora Halimova (O‘zbekiston) Ommaviy kommunikatsiyalar	O‘zbekiston Jurnalistika va universiteti
Dr. Timur Kocao‘g‘li (Amerika)	Michigan universiteti
Dr. Yavuz Akpinar (Turkiya)	Egey universiteti
Dr. Yilmaz O‘zkaya (Turkiya)	Egey universiteti
Dr. Shahid Taslim (Hindiston)	Jamiya Milliya markaziy universiteti
Dr. Shermuhammad Amonov (O‘zbekiston)	Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

MUNDARIJA

Tabrik so‘zi 9

I. JADID ADABIYOTI VA MATBUOT

Sirojiddin AHMAD. Xodimul millat 14
Nurboy JABBOROV. O‘zbek jadid matbuotida millat va milliyat g‘oyasi talqini 25
Almaz ÜLVİ BİNNATOVA. Türküstanda cədidçilik hərəkati və Mahmudxoca Behbudinin mətbuat fəaliyyəti 34
Qo‘ldosh PARDAYEV. “Al-Isloh” jurnalida ta’lim islohi masalasining yoritilishi 41
Sayyora HALIMOVA. Jadid publisistikasida milliy adabiyot masalasi 50
Murod ZIKRULLAYEV. Turkiston diniy-ma’rifiy matbuoti sahifalarida jadid adabiyoti namunalari 55
Gulzoda SOATOVA. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida she’riyat 66
Gulrux DONIYOROVA. O‘zbek jadid matbuotida ayollarga bag‘ishlangan nashrlarning o‘rni. (“Yangi yo‘l” jurnali misolida) 76

II. JADID ADABIYOTI VA ADABIY ALOQALAR

Zaynabidin ABDIRASHIDOV. Jadidchilik harakatining shakllanishida Ismoil Gaspiralining “*Rossiyada musulmonlar*” asarining o‘rni 86
İbrahim ATABEY. Kasim Tinistanuulu’nun (Tinistanov) kirgiz türkçesi eğitimine katkilari 100
Dildoraxon ABDULLAYEVA. Cho‘lponning yangi aniqlangan tarjimasi: “Kvartet” masali 118
Normat YULDASHEV, Go‘zal XİMMATOVA. Cho‘lpon ijodiga jahon adabiyotining ta’siri masalalari 129
Dilrabo QOZOQBOYEVA. Abdurahmon Sa’diy va Abdurauf Fitrat asarlarida murakkab strukturali janrlar tadqiqi 141
Dilafro‘z JABBOROVA. Turkistonda jadidchilikning ilk qadamlari 148
Айсел ШЕЙДАЕВА. Возрождение в литературе: на примере традиционной и новаторской поэзии 157
Zoyir YALLAQAYEV. Jadid adabiyoti va transmilliy adabiy tarmoqlar 167
Sarvarbek TULIBOYEV. Turk matbuotining Turkiston madaniy hayotiga ta’siri 172
Hurriyat XUDOYMURODOVA. Jadid adabiyoti va G‘arb ma’rifatchiligi 183
Hasan BEKİROĞLU. İsmail Gaspirali’nin ve avrupali düşünürlerin eğitim görüşlerinin karşilaştirilmasi 187
Atilla SÜLEYMANLI. Mahmudxoca Behbudi və Azərbaycan maarifçiləri: ortaq ideyalar və paralel yol 202

Aziza SAFAROVA. Ismoilbek Gaspiralining "Dorur rohat musulmonlari" asarida jamiyat ideali 209

III. ADABIY TANQID VA JADID ADABIYOTI

Qozoqboy YO'LDOSHEV. Davr va jadid adabiyoti 219
Hamidulla BOLTABOYEV. Jadidchilik uchinchi renessansning milliy poydevori sifatida 229
Dilmurod QURONOV. "O'tkan kunlar"da akslangan voqelik haqida 241
Bahodir KARIMOV. Jadidlar merosini o'rganish muammolariga doir ayrim mulohazalar 248
Veli Savaş YELOK. Türkistan'in millî uyanış dönemi edebiyatina yansimasi.....255
Orzigul HAMROYEVA. "Devon-u lug'ot" so'zlari uchun fihrist"ning yaratilishi va asos manbasi 263
Nasriddin MIRZAYEV. Homidxo'ja Buxoriy – jadid adibi sifatida 278
Obidaxon FAYZULLAYEVA. Jadid she'riyatida turkumlilik 287
Shermuhammad AMONOV. Jadid adabiyoti namunalarini tadqiq qilish tamoyillari 293
Dildora RAXMONOVA. Jadid dramalarida milliy tanazzul masalalari talqini 307
Iskandar MADG'OZIYEV. Fozilbek Otabek o'g'li – jadid muarrixi va tarjimoni 314
Nodira EGAMQULOVA. Behbudiyni tanish 324
Babanazar MURTAZAYEV, Nilufar ABDULLAEVA. "Devoni Foniy"ga Fitratning qarashlari 328
Manzura JO'RAYEVA. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qasdi safar" asari poetikasi 336
Muhayyo XAMRAYEVA. Xurshid Do'stmuhammadning "Qazo bo'lgan namoz" hikoyasida davr va shaxs talqini 345
Muborak ATANIYAZOVA. XX asrning 20–30-yillari adabiyotshunosligi .. 351
Abdimurod ARSLONOV. Behbudiy va islom: ma'rifat orqali ummatning yuksalishi yo'lidagi harakat 357
Oybek BARZIYEV, Lochinbek SOTVOLDIYEV. Zoriy, Zavqiy, Hofiz ijodida Andijon zilzilasi tafsilotlarining mushtarak jihatlari 363
Rustam UMURZAKOV. Cho'lponning ramzlardan foydalanish mahorati 367
Muslimbek ALIJONOV. Jadid taraqqiyparvari G'ozi Yunusning XX asr boshlaridagi o'zbek teatr tanqidchiligiga qo'shgan hissasi 374
Feruza SULTONQULOVA. Usmon Azim ijodida jadidchilik harakati g'oyalarining badiiy ifodasi 381

Sohibaxon ISLOMOVA. Cho‘lponning shaxsiy arxivlaridagi qo‘lyozma manbalar 385
Habibulla JO‘RAYEV, Parizoda AXRORXO‘JAYEVA. Cho‘lponning “Zamona xotini” dramasida ayollar erki tasviri 393
Sevara BABAYEVA. Zamonaviy o‘zbek nasrida Munavvarqori obrazi 402
Mehriniso KENJAYEVA. Cho‘lpon she’riyatida yo‘lsizlikdan yo‘l izlash timsollari 406
Shuhrat LOLAYEV. Jadid adabiyotida davr ruhiyati va hayot haqiqati 411
Jamila BADALOVA. Usmon Azimning “Kunduzsiz kechalar” dramasida Cho‘lpon obrazi 418
Boburjon BOYMATOV. Nozimaxonim jadid shoirasi va publisisti..... 423
Nigora ELMURODOVA. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” hamda “Qor qo‘ynida lola” hikoyasida ayollar obrazi 428
Ulug‘bek HAMDAMOV. Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarining avtobiografik xarakteri 434
Sevara ABDUNAZAROVA. Usmon Azim she’rlarida jadidlar obrazi... 440

IV JADID PEDAGOGIKASI VA MILLIY ADABIYOT. MILLIY TIL VA IMLO MASALASI

Nasiba BOZOROVA. “Kitobat ul atfol”ni yozishdan ko‘zda tutilgan maqsad 446
Eshnazar JABBOROV. Navoiy, Fitrat, Cho‘lpon asarlarida ma’rifatparvarlik motivlari..... 454
Umida KUDRATOVA. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari..... 462
Yulduz XAITOVA. Mahmudxo‘ja Behbudiy publisistikasida yoshlar ma’rifati masalasi 470
Emina ACHILOVA. Adabiy ta’limning jadid pedagogikasida tutgan o‘rni ... 476
Dilnavoz NAJIMOVA. Jadidchilikning o‘zbek bolalar adabiyoti rivojiga ta’siri 480
Hakim AHMEDOV. Jadidlarning milliy til haqida qarashlari..... 492
Urak LAFASOV. Jadidlarda vatan va milliy til masalasi. 496
Nor Aniza AHMAD. Dilorom KARIMOVA Central Asian Jaded Efforts to Enlighten the Nation 504
Akram XUDAYBERDIYEV. O‘zbek jadid she’riyatida “Vatan” va “millat” badiiy konseptlari..... 515

Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan "Milliy adabiyot shakllanishida jadidchilikning o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchilariga

TABRIK SO'ZI

Abduqodir TOSHQULOV,
Termiz davlat universiteti rektori, professor:

Assalomu alaykum, hurmatli, konferensiya ishtirokchilari, hurmatli mehmonlar, ustozlar va talabalar!

Bugun, Termiz davlat universiteti mezbonlik qilayotgan, Turkiston jadidchilik harakatining buyuk namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan **"Milliy adabiyot shakllanishida jadidchilikning o'rni"** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga xush kelibsiz va men, mamnuniyat bilan mazkur konferensiyani ochiq deb e'lon qilaman!

Turkiston jadidchilik harakati va bu harakat natijasida yuzaga kelgan jadid adabiyotiga qiziqish uning kishilik jamiyati taraqqiyotida muhim o'ringa egaligi, tarixiy haqiqatlarga to'laligi tufayli hamisha katta bo'lgan. Jadid adabiyotining buyuk ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlar ham diniy, ham dunyoviy ilm-ma'rifatni targ'ib etish, inson kamoloti bilan bog'liq ideallarni kuylash orqali insoniyat badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotiga xizmat qilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir".

Yangi O'zbekistonning g'oyaviy va ma'naviy negizini jadidlarning milliy g'oya xususidagi qarashlari asosida shakllantirishga siyosat darajasida e'tibor qaratilmoqda: "Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga

to‘g‘ri javob” topish uchun ularning g‘oyalarini chuqur o‘rganish, xolis baholashimiz kerak bo‘ladi. Shu ma’noda, “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorning qabul qilinishi jadidlarning davlatchilik g‘oyalari va huquqiy qarashlarining targ‘ibiga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlari orasida katta shuhrat qozongan va ularni birlashtirishga intilgan yirik shaxsdir. Hoji Muin ta’riflaganidek, “Bizdagi yangilik rahbarlarining biri va balki birinchisi, shubhasiz Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Behbudiy afandi uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti tarixida birinchi o‘runni olurg‘a loyiq bir zotdur...”.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining rahbari sifatida xalq uchun manfaati bor amaliy ishlar bilan qizg‘in shug‘ullandi: jadid maktablari tashkil etishda bosh-qosh bo‘ldi, teatr san’atiga asos soldi, gazeta-jurnal chop qildi, nashriyot hamda kutubxona tashkil etdi. U siyosiy, ma’rifiy-madaniy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda birdek xizmat qildi. M.Behbudiydan 200 dan ortiq ilmiy-publisistik maqolalar, 6 ta darslik, “Sayohat xotiralari” kitobi, “Padarkush” dramasi meros bo‘lib qoldi. Ulug‘ alloma “Sart so‘zi majhuldir”, “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Haq olinur, berilmas”, “Bizni kemiruvchi illatlar”, “Ehtiyoji millat”, “Yoshlarg‘a murojaat”kabi maqolalarida o‘z davrining og‘riqli masalalarini talqin etdi.

Turkiston jadidlarning birlashishi va keng qanot yozishida Behbudiyning xizmatlari beqiyosdir. Milliy mustaqillikka erishish uchun Behbudiy tanlagan siyosiy-mafkuraviy yo‘l, idora usuli, Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishi, diplomatik faoliyati, huquqiy qarashlari bugungi murakkab davrda o‘ta muhim dasturul amal hisoblanadi. Behbudiy boshchiligidagi jadidlarning dasturidagi muhim nuqtalardan biri – bu ta’lim edi. Ular ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilish, diniy ilmlar yonida dunyoviy ilmlarni ham o‘qitish, yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish masalasiga jiddiy e’tibor qaratishdi. Bugungi ta’lim tizimimizni aynan jadidlar taklif qilgan dastur bilan uyg‘unlashtirishimiz zarur. O‘tgan asr boshlari Turkistonda mavjud yangi usul maktablari tashkil etishda ham Behbudiy bosh-qosh bo‘ldi. XX asr boshlaridagi milliy pedagogikamizning tamal toshini


qo‘yishda jadidlar, xususan, Behbudiy amalga oshirgan ishlar, yangi usul maktablari uchun nashr qilgan darsliklari, yangicha ta’limning o‘ziga xos tomonlari, o‘qitish tizimi, hukumat va mahalliy xalq munosabati kabi masalalar atroflicha bayon qilingan publitsistik maqolalari bugungacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda.

Bugun siyosiy minbarlarda yangrayotgan “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi renessans”ni yaratishga bo‘lgan intilishlar bevosita yaqin tariximiz bo‘lgan jadidchilik harakati va ularning siyosiy-milliy g‘oyalarini yodga soladi. Ushbu muhim vazifalarni sobitqadam bo‘lib amalga oshirishda esa, jadidlarimiz ta’kidlaganidek, “Har kim o‘zgarishi kerak. Har kim o‘zgarishni o‘zidan boshlashi kerak”.

Hurmatli, konferensiya ishtirokchilari!

Oflayn va onlayn tarzda kechadigan bugungi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkiliy qo‘mitasiga **60 dan ortiq** maqolalar taqdim etilgan bo‘lib, ular orasida jahon va respublikamizning yetuk adabiyotshunos olimlari, professor-o‘qituvchilari va ilmiy xodimlarining ilmiy tadqiqot natijalari muhokamasi ko‘zda tutilgan.

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada Behbudiy asos solgan jadid adabiyotining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti, jadid adiblari ijodiy merosining yoshlar ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyati muhokama qilinadi, amaliy xulosalar va takliflar beriladi deb ishonch bildiraman.



I SHO‘BA

JADID ADABIYOTI VA MATBUOT

ХОДИМУЛ МИЛЛАТ

Сирожиддин АҲМАД,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими,
санъатшунослик фанлари номзоди
(Ўзбекистон)

Улуғ мутафаккир Маҳмудхўжа Беҳбудий миллий матбуот масаласига миллат вазифаси деб қаради. Шу боис 1903 йилдан турли матбуот нашрларида иштирок эта бошлайди. Жумладан, «Туркистон вилоятининг газети»да «Самарқанддан мактуб» («Письмо из Самарканда») унвонида унинг илк мақоласи эълон қилинади. Кейинчалик «Улфат», «Вақт», «Шўро», «Иршод», «Тоза ҳаёт» нашрларида мақолалари билан иштирок этади. 1904 йилдан бошлаб «Таржимон» газетасида «Ваҳдати лисон – дил бирлиги» каби бир нечта жиддий мақолалари босилади [Абдирашидов, 2011] (Ҳожи Муъиннинг айтишича, вақтли матбуотда Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг 18 нашрда 200 га яқин мақоласи босилган ["Зарафшон", 1923:32]. Кези келганда, Беҳбудийнинг «Воқеал арз шулки, маним одатим ёзғон мақолаларимни охириға имзони билдируб ёзарман (таъкид бизники – С. А.), мусулмони жаридаларға Самарқанддин ёзилган ҳар навъ мақолани, модомики, остиға маним имзом йўқдур, мандин билмасунлар» деган сўзига амал қилган ҳолда унинг асарларини танлаб ёндашганимизни эслатишга бурчлимиз).

Беҳбудий Туркистон ва жаҳон матбуоти тимсолида матбуотнинг жамият ҳаётида тутган тарихий ролини яхши тушунгани боис, маҳаллий ватанпарвар муаллифлар учун эркин нашр майдони яратмоқ ниятида ўзи газета ва журнал ташкил этди. 1913 йил 14 февралда Самарқанд вилоят ҳарбий губернаторига ўзбек ва тожик тилида «Самарқанд» газетасини нашр этиш учун рухсат берилиши тўғрисида «Илтимоснома» беради ва газетанинг йўналишини кўрсатувчи мундарижасини тақдим этади:

«1) ҳукумат фармойишлари;

2) бош мақола;

3) хориж хабарлари;

4) дохилий хабарлар;

5) ахборотлар;

6) ўлка бўйлаб маҳаллий ва савдо хроникаси;

7) рус ва хорижий матбуот янгиликлари;

8) зироат;

9) фельетон, адабий ва илмий бўлим;

10) мухбирлар ва хусусий телеграммалар;

11) умумимперия халқ судьялари ва, хусусан, қозиларнинг суд ҳисоботлари;

12) театр;

13) эълонлар;

14) идорадан жавоблар;

15) безак ва расмлар;

16) аралаш» [Ўзб.Р.МДА. 8752: 12-в.].

Мундарижанинг давомида газетани нашр этишдан мақсадини қуйидагича изоҳлайди: «Баён қилинганларга шуни қўшимча қилиш шарафига муяссардурманки, нашрдан мақсад, рус маданиятини ва Оврупо билимини маҳаллий аҳоли ўртасида тарқатмоқ ва мусулмонларни руслар билан яқинлашмоғига саъй кўрсатмоқдир. Қисман ушбу мақсад меним томонимдан Самарқанд шаҳрида ташкил этилган усули жадид мактабларига дарсликлар нашр этиш орқали амалга оширилади» [Ўзб.Р.МДА. 8752: 12-в.].

Босма ҳарфда ёзилган ушбу матн остида Беҳбудий рус тилида: «Бундан ташқари, 6-, 10- ва 13-бўлимларни газетада рус тилида чоп этишга рухсат беришингизни сўрайман», – деб имзо чеккан. Шунингдек, таржимон Ҳусаинов томонидан таржима қилинган «Мен, муҳаррир сифатида нашрнинг босилиши хусусида бутун масъулиятни ўз зиммамга оламан, буни ўз имзоим билан тасдиқлайман. 1913 йил апрелнинг 2-куни. Махмудхўжа Беҳбудий» [Ўзб.Р.МДА. 8752: 12-в.] сўзи ёзилиб, ўзбек алифбосида имзо қўйилган.

Самарқанд шаҳар полицмейстери подполковник Шведов Беҳбудийнинг номаи аъмолини обдан ўрганиб, 1913 йил 8 апрелда №5190 рақамли ёзишмада ТРОО ва ҳарбий губернаторга:

«Илтимосчи Беҳбудий, Самарқанд аҳолисидан... 1907 йилда Давлат Думасига сайланиш тўғрисидаги низомнинг 10-моддаси 1–4-, 6–8-бандида кўрсатилган жиноятларда айбланган эмас» [Ўзб.Р.МДА. 8752: 13-в.] деган хулосани тошширади. Ушбу хулоса натижаси ўлароқ, 1913 йил 10 апрелда ўзбек ва форс тилида, Абдулла Авлоний таъбири билан айтганда, «хийли халқнинг кўзини очишга боис бўлган» [«Туркистон», 1924: №295.] «Самарқанд» газетасини нашр этишга «Гувоҳнома» олади. Шу йил 24 апрелда Самарқанд вилоят бошқармасига «Самарқанд» газетасида рус тилида материаллар чоп этиш учун рухсат берилди [Ўзб.Р.МДА. 8752: 17-в.]. Газетани нашр этиш учун берилган «Гувоҳнома»да газета Русиянинг барча шаҳарларида тарқалиши таъкидланади [Ўзб.Р.МДА. 8752: 14-в.]. Аммо иқтисодий қийинчилик сабабли Мирзоҳид Мироқилий, Акобир Шомансур ўғли, Убайдулла Хўжаев, Мунаввар қори Абдурашидхонов ва бошқалар қўллаб-қувватлашига қарамай газета бир йил умр кўрмай, 1913 йил 17 сентябрда фаолиятини тўхтатди. Бироқ Беҳбудий Самарқанд ҳарбий губернаторига 1913 йил 23 майда «Янги Самарқанд» ва «Самарқанди нав» газетасини ўзбек, тожик ва рус тилларида нашр этиш учун рухсат сўрайди [Ўзб.Р.МДА. 8752: 38-в.]. Бироқ бу газетанинг атиги битта сони чиққан, холос. Шу йил 1 майда Беҳбудий Самарқанд ҳарбий губернаторига рус, ўзбек ва тожик тилида «Ойина» журналини нашр этиш учун рухсат сўраб «Илтимоснома» беради. «Илтимоснома»да журнал мундарижасини қуйидагича белгилайди:

«1) ҳукумат фармойишлари;
2) бош мақола;
3) хорижий воқеалар шарҳи;
4) дохилий воқеалар шарҳи;
5) хабарлар;
6) ўлка бўйича маҳаллий ва савдо ҳақида умумий хабарлар;
7) рус ва хорижий матбуот шарҳи;
8) зироат;
9) фельетон, адабий ва илмий бўлим;
10) агентлар ва хусусий телеграммалар;

11) умумимперия халқ судьялари ва, хусусан, қозиларнинг суд ҳисоботлари;

12) театр;

13) эълонлар;

14) идорадан жавоблар;

15) безак ва расмлар;

16) сатира ва аралаш» [Ўзб.Р.МДА. 8752: 28-в.].

Матбуот ишлари бўйича бош бошқарма «Ойина» журналини нашр этиш учун 1913 йил 11 майда №9474 рақамли гувоҳнома беради.

1913 йил 13 ноябрдан уч тилда[1] нашр этилувчи «Ойина» – «Кўзгу» – «Миръот» – «Зеркало» журналини обуначи ва матбуот мухлисларига тақдим этади. Туркистон Ҳарбий Округининг ҳарбий цензура комиссияси бўлими штаб бошлиғи 1914 йил 19 августда журнални тафтиш қилиб боришни штабс-капитан Атаевга[2] топшириш ҳақида махфий топшириқ беради [Ўзб.Р.МДА. 8752: 51-в.]. Журнал иқтисодий танглик туфайли икки йилга яқин муддат фаолият кўрсатиб, тўхтайди.

«Самарқанд» газетаси ва «Ойина» журналини ташкил қилишдан асосий мақсад, халқни маърифий оқартув бўлса-да, иккинчи томондан, Остроумов назоратидан халос бўлиб, ўзи ва сафдошларининг, қолаверса, бутун туркистонлик зиёлиларнинг ўз фикрини эркин эълон қила оладиган нашрга эга бўлиш эди. Остроумов Туркистон матбуотига махсус қўйилган цензорлардан ҳам устунроқ назоратчи эди. Шу боис биз адиб нашрларига эътибор билан қарасак, халқимиз учун фойдали бўлган илмий-фанний янгиликлар, ихтиролардан ташқари миллат эътиборини халқаро майдонларда содир бўлаётган қонли урушлар, сиёсий жангларга, ўзининг миллий давлатчилигини тиклаш ва қудратини ошириш учун ҳаёт-мамот жангини турли жабҳаларда олиб бораётган каттаю кичик мамлакатларнинг аҳволига эътибор тортилганининг, миллий маданиятнинг устун томонларига,

---

[1] Материаллар асосан ўзбек ва тожик тилида бўлиб, айрим эълонлар рус тилида чоп этилган.

[2] *Капитан Атаев* – асли туркман. Н.Остроумовнинг шогирди. 1009-фондда унинг устозига ёзган хатлари бор.

маҳаллий фан, адабиёт ва дин арбоблари фаолиятига эътибор қаратилганининг гувоҳи бўламиз.

Журналда Русия ва Туркия ҳарбий муносабатлари ҳақидаги хабарлар, мақолалар, таҳлилий шарҳларга кўзимиз тушади. Болқон уруши салбий оқибатлари, ислом давлатларининг ҳарбий, сиёсий жиҳатдан бой беришлари ва унинг оқибатлари кенг ёритилган. Муаллиф турли газеталардан, хусусан, «Таржимон» газетасидан Болқон уруши ҳақидаги материалларни кўчириб босар экан, ўзининг диний ва қон-қардошлик туйғуларини яширмайди. Масалан, «Эдирна» мақоласида ушбу шаҳарнинг иттифоқчилар қўлига ўтиши ва қайтариб олиниши ҳақидаги мақолани айтиб ўтиш мумкин.

Ҳар бир халқ ўз миллий эҳтиёжи, сиёсий тикланиши учун халқнинг оёқ-қўлини узоқ йиллар мобайнида ипсиз чамбарчас боғлаган бидъатлардан холис бўлиши лозим. Бу миллатнинг ўз эрки учун сиёсий урушдек бир гап. Чунки кераксиз бидъат (мода, расм-русум) миллатнинг миллатлигини унуттирган, иқтисодий-маънавий тиз чўктирган, сиёсий мустақиллигини ўғирлаттирган асосий унсурлардан биридир. Шу боис катта маърифат, мактаб-мадраса ислоҳи учун кураш, умумтаълим мактабларини ташкил этиш, жаҳон андозасидаги олий дорулфунунларни барпо қилиш, илм-фанга кенг йўл беришгина қўламдор сиёсий мақсадни амалга ошириш учун ҳаётбахш тупроқ бўлиши мумкин эди. Шу боис бухоролик шоир ва журналист Ниёзий Ражабзода «Шодлиқ» шеърида халқни фаол ишлашга, Ватан манфаати учун хизмат камарини қаттиқ боғлашга чақирди:

Қўлимиздан кишан, занжир олинганда
Қўзғолайлук, афандилар, бизлар тезрак» [«Ойина», 1914. №38].

1917 йил февраль, декабрь воқеалари арафасида адиб ва сафдошлари томонидан амалга оширилган ишлар, сиёсий лойиҳалар, маърифий босма ва оғзаки чиқишлар ўша тоза, ҳаётбахш, унумдор тупроққа айланиб улгурган эди. Шу боис зикр этилган тарихий паллада Туркистон халқи ҳарбий-сиёсий жиҳатдан кучсиз бўлса-да, аммо ўз эрки учун сиёсий бирлашмоққа ва курашмоққа куч топа олди.

Февраль воқеасидан кейин Тошкентда бўлиб ўтган йиғилишлар, мажлисларда Муваққат ҳукумат вакиллари Туркистон учун мухторият бериш масаласи тўғрисида ҳам ўз фикрларини баён этган эдилар. Маҳаллий халққа мухторият олиши учун рухсат ҳам берилган. Умуман, Туркистонга мухторият берилиши мавзуси Маҳмудхўжа Беҳбудийга янгилик эмас эди.

«Ойина»да босилган «Исмоилбек билан суҳбат» мақоласида суҳбат гўё икки киши – Маҳмудхўжа Беҳбудий ва Исмоил Гаспринский ўртасида ўтгандек таассурот қолдиради, аммо агентура маълумотларига қараганда, суҳбатда кўпчилик қатнашган ва шу масала кўтарилган. Бу тўғрида «Муҳаррир» лақаблик жосус қуйидагича хабар беради: «1912 йилда Константинополга Гаспринский ва самарқандлик Маҳмудхўжа Беҳбудий келди. Русиядан бу таниқли кишиларнинг келишлари билан номлари юқорида тилга олинган уч нафар республикачилар уларга мурожаат қилиб, ўз фикрларини баён қилишди. Гаспринский уларнинг фикрига жавоб бериб, «яқин йилларда панисломизм ва пантуркизм ғояларини амалга ошириш қуруқ хаёлдан иборат, агар Русия туркий халқлари мустақиллик учун бир оз чиқиш қилсалар-да, бу Европа давлатлари олдида оддий намойиш тарзида кўзга ташланади, шу боис бир арзигулик натижани кўзда тутиб бўлмайди ва бундан барча туркий халқлар учун умуман ҳеч қандай фойда йўқдир. Ҳаммалари Европа томонга ўтишади. Туркистонда республика қуриш учун Туркиядан ёрдам кутиш ҳам фантазиядан ўзга нарса эмас. Туркия бу масалада ёрдам бера олмайди. Агар орзу қилган ғояларингизни амалга оширишни ўзингиз учун муқаддас иш деб билсангиз, сизларга Туркияда ҳеч қандай иш қолмайди. Ўзингиз учун фойдали замин топа олмайсиз. Ватанингизга қайтиб фикрларингиз қанчалик тўғри эканлигини текшириб олинг. Агар Туркистонда ўзингиз учун зарур таянч топа олмасангиз, Русия марказига бориб ўқишга киринг, яъни яхши маълумот олинг... Умуман, туркий халқларнинг мустақиллик олишларининг истиқболи бор...» Туркистонлик уч республикачи Туркия ҳудудини абадий тарк этишга келишдилар ва ватанларига қайтишди. Булар: марғилонлик Муҳаммад Ризо, қўқонлик Абдураҳмон Исмоилзода ва хўжандлик Муҳаммад

Саидхўжа (Саид Аҳрорий)».[3] Ана шу мажлисда хонлик, республикачилик, автономия масалалари ҳам кўтарилгани агентура маълумотидан сезилади. Бинобарин, Беҳбудий ўша даврда бу масаланинг истиқболсиз эканини тушуниб етган бўлса-да, аммо умид қилган эди. Муваққат ҳукуматнинг раҳбари А.Ф.Керенский, унинг Туркистондаги вакиллари бу умидни амалга ошириш учун рухсат бериб, адибнинг ишончини мустаҳкамлаган эдилар.

Беҳбудий 1917 йил 25–29 ноябрь кунлари Қўқон шаҳрида бўлиб ўтган 4-умуммусулмон съездида қатнашди. Ана шу съездда Туркистон Мухторияти эълон қилинди. Ҳукумат йиғилишида Беҳбудий президиум аъзоси этиб сайланади. Мухториятнинг асосий мафкураси «Турк адам марказият (федералистлар)» партияси низом ва маромномасини Мунаввар қори Абдурашидхонов, Камолхон домла Раҳмонбердиев ва бошқалар билан ҳамкорликда ишлаб чиқди. Программани ишлашда қатнашган айрим қозиларга нисбатан унинг билим ва басирати кенгроқ бўлгани учун большевиклар программасига нисбатан инсонийроқ маромнома ишлаб чиқилдики, бу тарихий ҳужжатда яққол сезилади.

Беҳбудий бировларнинг турткисисиз зиммасидаги вазифани юракдан ҳис этгани боис Қўқондан Самарқандга қайтиб келгач, «Ҳуррият» газетасида мухториятга бағишланган бир неча мақолалар эълон қилди. Мухториятга маҳаллий зиёлилар ёндашувини очиқ ёзди. 1917 йил 19 – 22 декабрда ёзган «Туркистон мухторияти» мақоласида мухториятнинг барпо этилиш жараёни, миллий, фирқавий таркиби, сиёсий йўли, большевиклар йўлидан фарқи, уламоларнинг муносабатини очиқ баён этди. Мухторият сабабли қон тўкилмаслиги, барча муаммолар сулҳ йўли билан ҳал этилишини маълум қилди. Аммо бу ҳолат миллат бирлашган тақдирда, ўзбек, қозоқ, қирғиз, тожик, туркман бирлашган, ҳамжиҳатликда иш олиб борган тақдирдагина амалга ошиши мумкинлиги ҳақида огоҳлантирди («Қозоқ қариндошларга

[3] Манба эълон қилинмайди. *Муҳаммад Ризо* (1878 – 1936), *Абдураҳмон Исмоилзода* (1897 – 1923) драматург, педагог ва рассом, *Саид Аҳрорий* (1895 – 1931) педагог, драматург, актёр ва жамоат арбоби, собиқ талабалар, 1911 йилда Туркияда талабалар ўртасида ташкил этилган «Турон нашри маориф» жамияти аъзолари.

очиқ хат», «Ҳақ олинур, берилмас»): «Бутун Туркистон халқи иттифоқ этса, қон тўкилмас». Шу билан бирга, «ер ва амлокнинг тақсими устида, албатта, узуқ қон тўкурсан» деб огоҳлантирди [«Ҳуррият», 1917: 22 декабрь]. Туркистон Мухториятининг фаол ишлашини ташкил этиш масаласи тўғрисидаги фикр-мулоҳазаларини кейинроқ маълум қилишини айтиб ўтади.

Афсуски, Мухторият қонга ботирилиб, тугатилди. Бу ҳолат Беҳбудий ва маслакдошларинигина эмас, балки барча Туркистон халқини миллий қайғуга солди. Лекин маънавий ва жисмоний синдира олмади. Миллий-сиёсий қаршилик кўрсатиш ҳаракати бошланиб кетди. Шу билан бирга, махфий ҳаракат ҳам жунбиш олди...

Буюк мутафаккир замон ва унинг талабига тик қарай олди. Шу боис янги шароитда, янги мақсадларни амалга ошириш учун 1917 йилда дўстлари Муҳаммадқули Ўринбоев, Мардонқул Шоҳмуҳамедов (М.Расулий М.Шокарвонов деб атайди), Акобир Шомансуров билан ҳамкорликда «Зарафшон» ширкатини таъсис этади. Шу йили номлари саналган шахслар ва Сиддиқий-Ажзий ҳамда Абдурауф Фитрат билан бирга Самарқандда нашр этилган «Ҳуррият» газетасининг муассиси бўлди. Газета 1918 йил июнь ойигача нашр этилиб, совет ҳукуматининг сиёсати билан чиқиша олмай фаолиятини тугатгунга қадар миллий манфаат учун баъзан очиқ, баъзан махфий кураш олиб борди.

1918 йил 22 июлда Туркистон Автоном Республикаси Миллий ишлар комиссарлигида Т.Ашурхўжаев, Н.С.Ликошин, В.Н.Кучербаев, М.Беҳбудий, Кабир Бакир иштирокида давлат тили масаласи кўриб чиқилади. «Улуғ Туркистон» газетаси хабарига қараганда, «Туркистон мусулмонлари учун қаю тил давлат лисони саналурға тейиш?» масаласи музокараға қўйилди. Бу саволга қарши Н.С.Ликошин Туркистон мусулмонлари орасинда бунга қадар энг маъруф бўлиб келган бир лисон Тошкентда сўйлашиладигон ўзбек тили бўлғонлиғини сўйлади: «Бунга қадар расмий қоғозлар кўбрак ўзбек тилинда ёзилиб келдилар. Бу тилни қозоқлар-да, туркманлар-да англаб келдилар. Биноаналайҳ агар бу лисон давлат лисони эълон этилса, ҳар ким буни англаяжак», – деди.

Маҳмудхўжа Беҳбудий: «Туркистон ўлкасиндаги халқнинг

кўбраги ўзбек, қирғиз-қозоқ ҳам туркман халқларидан иборат. Бошқалар бўлса-да оз, биноаналайҳ ўзбек (сартия) учун ўзбек тили (баъзи шевалари) расмий тил саналурға тейиш», – деди [«Улуғ Туркистон», 1918: 27 июль].

Кабир Бакир: «Бир Туркистондағина тугул, бутун Русияда бўлгон мусулмонлар ўзларининг тилларини «туркий тил» деб биладилар... Шунликдан Туркистон мусулмонлари учун давлат лисони бўлғон тил «туркий тили» деб эълон этилурға тейиш», – деди. Шу мажлис ҳосиласи ўлароқ Туркистонда рус тили билан баробар турк-ўзбек тилига давлат мақоми берилди.

Беҳбудийнинг бу сафари ҳам изсиз кетмади. Мухторият қонга ботирилгандан кейинги ҳукумат ва пойтахт кайфияти, ташкилотнинг режалари билан танишди. Автоном республиканинг ҳақиқий хўжайинлари билан турли масалаларда тўқнашади. Баъзан сўзи ўтди, баъзан сўзи ўтмади.

Ўша даврда Самарқандда, Тошкентда, Фарғонада ҳам хориж матбуотини ўқийдиганлар, ҳатто Абдурашид қози Иброҳимовнинг айтишича, маҳаллий кишилар орасида немис тилида сўзлашадиганлар бор бўлган, аммо ҳамма ҳам элга бурилиш вақти келганини, ўзида «ходимул миллат» деган масъулиятни ҳис этишидадир. Афсуски, ҳамма ҳам «миллат вазифаси»ни бажариш ҳар бир миллат раияси ва зиёлисининг эътиқодий бурчи эканини юракдан ҳис қилавермаган. Бир зиёли сифатида ўзининг жамиятдаги тарихий ўрни ва вазифасини фаҳмлайвермаган. Беҳбудий эса ўзининг ҳаётдаги тарихий вазифасини юракдан ва ақлан ҳис қилгани учун икки жабҳада кураш олиб боришга мажбур бўлди. Аввало, Самарқанд ижроқўмининг иккинчи раиси, маориф комиссари, фақатгина шаҳарнинг эмас, ўлканинг энг нуфузли ва донишманд одами сифатида Туркистон большевик ҳукуматининг тадбирларига фаол аралашди. Аскар олиш масаласи бўладими, очлик балосига қарши кураш, нон савдо-сотиғи, аҳолидан дон-дун йиғиш бўладими, барча ижтимоий-сиёсий масалаларда қизғин фаолият олиб борди. Аммо большевиклар ҳукуматининг Туркистон миқёсида олиб бораётган миллий камситиш сиёсати, шиорлар, минбарлар, матбуот орқали берилган ваъдалар пуч ва ёлғон эканига иқрор бўлди.

Миллат қаҳрамони Маҳмудхўжа Беҳбудий «ихтиёрий сургун»ни (Мунаввар қори ибораси) хоҳламади. Аммо курашдан ҳам тўхтамади...

Адиб илм ва матбуотнинг, жаҳон савдо-саноат, фан тараққиётининг Ватан ва халқ ижтимоий-маънавий ҳаётида тутган ўрнини таҳқиқ қилиш билан кифояланмади. Адабиёт ва санъатга катта эътибор қаратди. У турк тилига таржима қилинаётган ва қилинган Оврупо, хусусан, француз адабиёти намуналари билан танишади. Бу адабиётда XIX аср охири – XX аср бошларига хос бўлган танқидий реализм асарлари, романтик асарлар – юксак маънавиятли, виждони пок, инсоний номусини, қадр-қийматини ҳар нарсадан юксак қўйган қаҳрамонлар ҳаёти тўғрисида ҳикоя қилувчи бадиий асарлар эътиборини жалб этади. Шу боис «Оқ елпиғичли хоним» ва «Бир вафодорлик заифа хусусида ҳикоя»ларини туркистонлик ватандошлари эътиборига ҳавола қилади.

Биз юқоридаги муаммоларга Беҳбудийнинг муносабатини имконият даражасида ёритар эканмиз, шуни қўшимча қилмоқчимизки, Беҳбудий ҳақиқат ахтармади, одамларни мавҳум ҳақиқатни топиш учун ундамади. У бор Ҳақ ва ҳақиқатни халққа матбуот, адабиёт ва санъат орқали кўрсатди, миллат, аввало, ўз жаҳолатини енгиши, сўнг ҳақиқатни тиклашга, мустамлакачилар сиртмоғидан катта маърифат қуроли билан тортиб олишини уқтирди: «Ҳақ берилмас, олинур».

Мутафаккир Маҳмудхўжа Беҳбудий Ҳазрати Умар (р.а.) айтганларига амал қилиб, яъни фиқҳдан сўнг қалбини ҳикматга тўлдириб Оллоҳга яқин бўлиб яшади, шу сабабли қайси соҳада иш олиб бормасин, у доимо Ватан, миллат ва дин учун самимий ишлади. Бу машаққатли меҳнати вақти келиб авлодлар томонидан юксак баҳоланишига астойдил ишонди: «Ўзимиз ўтган сўнг, албатта, мадҳ этиб, раҳматлар ўқурлар ва ҳозирги кишилар ҳам нияти хайриямизни билганда, албатта, хурсанд бўладурлар».

Буюк адиб шу йўлда яшади, фаолият кўрсатди ва азиз умрини фидо қилди, келажак авлодни шу мусаффо иймон-эътиқод тоза тупроғидан унган тараққиёт ҳамда истиқлол йўлини ушлашга даъват қилди ва мудом даъват этмоқда. Бинобарин, Маҳмудхўжа

Беҳбудийга ўлим йўқ. Чунки у ХОДИМУЛ МИЛЛАТ. Демак, у барҳаёт!

Адабиётлар рўйхати

1. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние. – Ташкент, 2011.
2. «Зарафшон». 1923 йил 25 март. №32.
3. Ўзб.Р.МДА. 18-фонд, 1-рўйхат, 8752-йиғма жилд.
4. «Туркистон». 1924 йил 24 июнь. №295.
5. «Ойина». 1914. №38.
6. «Ҳуррият». 1917 йил 22 декабрь.
7. «Улуғ Туркистон». 1918 йил 27 июль.

O‘ZBEK JADID MATBUOTIDA MILLAT VA MILLIYAT G‘OYASI TALQINI

Nurboy JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada jadid matbuotida millat va milliyat masalalari yetakchi mavzu bo‘lgani, jadidlar Turkiston ozodligi va taraqqiysi g‘oyasini ayni masala bilan uyg‘un ko‘rgani tahlil etilgan. Millat va milliyat g‘oyasining jadid adabiyotida yoritilishi: 1) millat va uning taraqqiysi masalasi; 2) Vatan va Millat tarixiga doir qarashlar; 3) milliy axloqni saqlash zaruratiga doir chiqishlar tarzidagi tasnif asosida tadqiq qilingan. “Taraqqiy”, “Oyna”, “Sadoi Farg‘ona” singari Turkiston, shuningdek, “Tarjimon”, “Sho‘ro” singari qardosh xalqlar matbuoti materiallari tahlili natijasida millat va milliyat g‘oyasining bugungi kun uchun ham ahamiyati katta ekaniga doir xulosaga kelingan.

Tayanch so‘zlar: jadid, jadidchilik, millat, milliyat, taraqqiyot, tarix, milliy axloq.

Аннотация. В статье анализируется, что вопросы нации и национальности были ведущей темой в джадидской прессе, как джадиды рассматривали идею свободы и прогресса Туркестана в гармонии с этим вопросом. Освещение идеи нации и национальности в джадидской литературе исследовалось на основе: 1) вопроса о нации и ее развитии; 2) взглядов на историю Отечества и Нации; 3) классификации речей о необходимости сохранения национальной нравственности. В результате анализа материалов Туркестанской прессы, таких как «Прогресс» («Тараккы»), «Зеркало» («Ойна»), «Эхо Ферганы» («Садои Фергана»), а также печати братских народов, таких как «Переводчик» («Таржимон»), «Советы» (“Шуро”), был сделан вывод о том, что идея нации и национальности на сегодняшний день также имеет большое значение.

Ключевые слова: джадид, джадидизм, нация, национальность, прогресс, история, национальная нравственность.

Annotation. The article analyzes how the issues of nation and nationality were leading themes in Jadid press, and how the Jadids viewed the idea of Turkestan's freedom and progress as closely intertwined with these issues. The reflection of national and ethnic ideas in Jadid literature is studied through the following classification: 1) the issue of the nation's development; 2) views on the history of the Homeland and the Nation; 3) discourses on the necessity of preserving national ethics. Based on the analysis of materials from Turkestan publications such as Taraqqiy, Oyna, Sadoi Farg'ona, as well as from the press of kindred peoples such as Tarjimon and Sho'ro, the study concludes that the ideas of nation and nationality remain highly relevant today.

Keywords: Jadid, Jadidism, nation, nationality, progress, history, national ethics.

"Millat" atamasi ikki xil – e'tiqodiy va etnik birlik ma'nolarida tushunilgani ma'lum. Bu so'z Qur'oni karimda o'n besh marta, tabiiyki, e'tiqodiy birlik mazmunida, aksar "millati Ibrohim" tarzida qo'llangan. Alisher Navoiy asarlarida Abdurahmon Jomiy *nur ul-millati vad-din*, Shayx Iroqiy *faxr ul-millati vad-din*, Xavofiy *zayn ul-millati vad-din*, Xoja Hofiz Sheroziy va Pahlavon Muhammad *shams ul-millati vad-din* deya ulug'lanadi. Hazrat Navoiyning nisbasi *nizomul-millati vad-din* bo'lgani ayon. Bunda din – e'tiqod manbai, millat – shu asosda birlashgan qavm ma'nosini anglatgani sir emas. Jadidlarda bu so'z dastlab har ikki ma'noda ham birdek faol qo'llangan. Keyinchalik etnik birlik ma'nosi kuchayib borgani kuzatiladi.

"Milliyat" – millatning asl xususiyatlarini saqlash va shu asosda yaxlit bir vujudga aylanishini nazarda tutuvchi tushuncha. Vatan va Millat taraqqiysini bosh maqsad qilganlari uchun ham jadidlar Millat va milliyatni hayot-mamot masalasi deb bildilar. Jadid adabiyoti shakllanishining dastlabki kezlardanoq asosiy e'tibor shunga qaratildi. Millat va milliyat masalalarining jadid adabiyotida yoritilishini quyidagi tasnif asosida ko'rib chiqamiz:

1. Millat va uning taraqqiysi masalasi.
2. Vatan va millat tarixiga doir qarashlar.
3. Milliy axloqni saqlash zaruratiga doir chiqishlar.

Ilk milliy gazeta "Taraqqiy" deb nomlanishidayoq jadidlarning bosh maqsadi aks etgan. Gazetaning birinchi sonida tahririyat nomidan e'lon qilingan maqolaga: *"Biz musulmonlarni(ng) hurriyatda haqlari bormu? Yo'q! Qarindoshlar, yuz marotaba yo'q!"* degan so'zlar epigraf sifatida tanlangan. Gazeta bosh muharriri Ismoil Obidiy buning sabablarini quyidagicha izohlaydi: "...bu ikki yil ichida hama xalq tortishdi va kurashdi, musulmonlar uxlashdi. Demak, o'tgan yillarda Peterburx, Moskvadagi kurashlar, jang-jadallar va hama mamlakatlarda ish tashlamoqlig'lar; Dog'iston, Lahiston va Bahri Boltiq kanorlarinda bo'lg'on harakat va tortishlar; tarixlarning har sahifalarinda hama millatlardan hurriyat uchun xizmat etuvchilar bo'ldi". Boshqalar kurash yo'liga kirib, so'z, matbuot va vijdon erkinligini beruvchi manifest e'lon qilinishiga erishdilar. Muallifning ta'kidicha, "...bunda biz musulmonlarning hissamiz deyarli yo'q. Muallif bu holatdan chiqmoq zarurligini uqtiradi. Uning mana bu so'zlari "Taraqqiy"ning asosiy maslagini ifoda etgani jihatidan ahamiyatlidir: "Gazetamiz "Taraqqiy" isminda o'lub, bora-bora jismi ham ismiga muvofiq o'lub, millatimizni keyin qolmog'ig'a, jaholat va g'aflati oliyda o'lub, boshqa millatlardan kam darajada qolmog'ig'a aslo rozi emasmiz... Binoan alayh gazetamizning najotimizg'a, dunyo va oxiratda mas'ud o'lmoqimizg'a yolg'uz ilm bobidir, demak, birinchi vazifasidur" [5, 121-b]. Millat va milliyat masalalariga alohida diqqat qaratilgani uchun ham "Taraqqiy" – birinchi milliy gazeta, uning muharriri esa Ismoil Taraqqiy degan nom oldi [8, 59-b].

Munavvarqorining gazetaning 1- va 2-sonlarida bosilgan "Bizning jaholat – jahli murakkab" maqolasida taraqqiyotdan ortda qolishimiz sabablari haqida so'z boradi. Uningcha, millatning jaholatda qolishiga asosiy sabab ta'lim-tarbiya usulining zamon talablariga javob bermasligi. Shu bois o'qitish usulini isloh etish hayotiy ehtiyoj.

Millat taraqqiysi masalasini kun tartibiga qo'ygan jadidlar bunda milliyat tuyg'usining o'rnini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmasligi haqidagi xulosaga kelganlar. Tatar ma'rifatparvari Yusuf Oqchuraning mana bu so'zlari ham shunga dalolat qiladi: "Milliyat fikriga, bu azim quvvatga hech bir kuch bas kela olmadi. Yuz minglarcha haybatli qo'shin bu fikr qarshisida yengildi. Milliyat atalmish bu buyuk qudratga bugun to'p va miltiq bas kela olmaydi..."

Darhaqiqat, milliyat tushunchasi jadidlarga ruh berdi. Ularni, garchi muayyan bo'linishlar bilan bo'lsa-da, yagona mafkura atrofiga birlashtirdi. Vatan va millat taraqqiysi uchun, milliy ozodlik uchun kurashga boshladi. Ular qalbida jasorat, ma'rifat va fidoyilik tuyg'usini paydo qildi. "Milliyat tushunchasi birlikni talab qildi, – deb yozgan edi jadidshunos Begali Qosimov. – Birlik deyilganda, asosan lisoniy, irqiy, diniy mushtaraklik ko'zda tutiladi. Shular asosida millatning uyg'onishi, o'z-o'zini anglashida muhim rol o'ynagan, lekin so'ngroq asossiz ravishda ayblov vasiqasiga aylantirilgan panislomizm, panturkizm, panturonizm, mahalliy millatchilik kabi tushuncha va atamalar paydo bo'ldi. Ularning ayrimlari o'z davrida milliy g'oya darajasiga ko'tarildi, lekin siyosiy jihatdan amalga oshirish imkoniyati bo'lmagani uchun zamon qatlarida qolib ketdi" [8, 68-b].

Ismoilbek Gaspralining "Tarjimon" gazetasida bosilgan "Dor-u-rrohat musulmonlari" asarida ta'kidlanishicha, islom dunyosi, xususan, turkiy xalqlar "faqir holda. Va bu faqirlik, nochorlik birgina mulkda, sarmoyada emas, ilmda, fanda, maorifda, san'at va hunarda" hamdir. Muallif millatni Ovrupo ilmini egallashga chaqiradi. Biroq buning muhim bir sharti borligi, o'zlikni anglash va saqlash zarurligi haqida yozadi. Yaponlarni misol keltiradi. Chala-chulpa o'qimaganliklarini, yuz-yuzlab Ovrupo, Amerika universitetlarida tahsil olganliklarini, madaniyat atalmish qozonda armonsiz qaynaganliklarini, ishtirokiyunchilikni ham obdan ko'rganliklarini, biroq "maslaki milliyalarini, tarixlarini bo'lar-bo'lmas xayollarga fido etmagan"liklarini uqtiradi. "Nom, shuhrat, rohat, saodatni **milliyat**lari doirasida hal qilish, vujudga keltirish uchun kurashgan"liklarini qayd etadi.

Millatning millatligi, birinchi navbatda, tilida namoyon bo'ladi. Milliy matbuotda til masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Saidrizo Alizodaning "Oyna" jurnali 1914-yil 11-sonida e'lon qilingan "Har millat o'z tili ila faxr etar" sarlavhali maqolasi buning yorqin dalili. Muallif til sofligi masalasini kun tartibiga qo'yadi. Ruscha kalimalarning xalq tilida tez-tez tilga olinuvi, hatto drama, vaqtli matbuot tilida ham ruscha, arabcha va tojikcha so'zlarning aralashuvini tanqid qiladi: "Ushbu Turkistonimizda qaysi bir rus yo qaysi bir arman o'z tilini qo'yib bir-birovi ila turkcha so'ylaydur. Ammo bizning so'zlashganimiz vaqtda har bir jumlada bir kalima

rus so‘zi eshitilur... Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘shabersak, bir oz zamonda til va millatimizni yo‘qoturmiz. Millatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta yo‘qolur” [1, 836-b].

“Oyna”ning dastlabki sonidayoq “Ikki emas, to‘rt til lozim”ligiga diqqat qaratgan Mahmudxo‘ja Behbudiy “Til masalasi” [3, 632-b] maqolasida tilga doir munozaraga munosabat bildiradi. Uning fikricha, tillar bir-biridan so‘z olishi tabiiy. Eng boy tillardan bo‘lgan inglizcha ham “o‘n minglar ila begona lug‘atlarni majburan olganligi”ni bunga dalil sifatida keltiradi. Muallif asosiy e’tiborni adabiy til, til birligi masalalariga qaratadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy til masalasiga alohida diqqat qaratgan. XX asr avvalida Turkiston, Rossiya, Kavkazorti va boshqa hududlardagi turkiy xalqlar ziyolilari o‘zaro faol aloqada bo‘lgani ma’lum. Ziyo Saidning “Oyna” jurnali haqida: “Kafkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevilib o‘qildi” [6, 44-45-b.], degan fikrlari ham o‘sha davrda matbuotning xalqaro miqyosda, ayniqsa, turkiy dunyo o‘rtasida tarqalish darajasi nechog‘liq keng bo‘lganini ko‘rsatadi. O‘z navbatida, Turkiston jadidlari Orenburgda chop etilgan “Sho‘ro” jurnali va “Vaqt” gazetasi, Bog‘chasaroyda bosilgan “Tarjimon” gazetasi, Ozarbayjonda nashr qilingan “Mulla Nasriddin” jurnali bilan doimiy ravishda tanishib borgan. Akademik Naim Karimovning yozishicha: “Shu yillarda shakllana boshlagan mahalliy ziyolilar... Tatariston, Ozarbayjon, Hindiston va Misrda nashr etilgan gazeta va jurnallarga ham mushtariy bo‘lib, ularni ham muntazam ravishda o‘qib turganlar” [7, 31-b].

Mazkur matbuot nashrlarida Turkiston mavzusi yetakchi o‘rin tutgan. Buxoro amirining tarjimoni Bahrombek 1911-yilda “Sho‘ro” jurnaliga “Biz, Turkiston va Buxoro xalqining turkligi ma’lum bo‘lib turub... na uchun sart ataydurlar?” degan savol bilan murojaat qiladi. Jurnalning 19-sonida Behbudiyning “Sart so‘zi majhuldur” degan javobi bosiladi. 19-sonida Behbudiyning “Sart so‘zi majhuldur” degan javobi bosiladi. 24-sonida esa samarqandlik Baqoxo‘ja “Sart so‘zi aslsizdur” degan maqola bilan chiqadi. Bu bilan bahs bosil-

ganday bo‘ladi. Biroq oradan 2–3 yil o‘tib, “Sadoyi Farg‘ona”ning 1914-yil 30-sonida Mulla Abdullabek degan kishining “Sart so‘zi ma’lumdir” degan maqolasi bosiladi. Tabiiyki, Behbudiy undan qanoatlanmaydi, chunki unda mavzuga doir biror yangi gap aytilmagani holda, “ma’lum” deb da’vo qilingan edi. Shu sababli Behbudiy “Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi” degan maqola yozib, “Sadoyi Farg‘ona”ga yuboradi. Biroq gazeta maqolani bosmaydi. Shundan so‘ng muallif maqolani o‘z jurnalida (1914-yil 39-son) berishga majbur bo‘ladi. Mazkur bahs-munozaralar jadidlar uchun millat va milliyat masalasi nechog‘liq muhim bo‘lganini ko‘rsatadi.

Abdurauf Fitrat keyinroq “Ishtirokiyun”da bosilgan maqolasida ona tilimizga ta’rif berar ekan, uning «dunyodagi eng boy va eng baxtsiz til» bo‘lganini ta’kidlaydi. Buni, birinchidan, shu til vakili bo‘lgan mutafakkirlarning o‘zga tilda asarlar yozgani, ikkinchidan, tilga nisbatan loqaydligimiz bilan izohlaydi. Bu loqaydlik, taassuflarki, bugun ham qaysidir darajada davom etayotir.

“Turkiston tarixi kerak” maqolasida Behbudiy mana bunday yozadi: “... bizning o‘z shevamizda Turkistonda o‘tgan bobolarimizning maishiy, siyosiy ahvolig‘a doir “Turkiston tarixi” bor bo‘lgonda, oni ko‘z oldimizda qo‘yub, burung‘i qahramon bobolarimizning na yo‘l ila taraqqiy va madaniyat davrig‘a kirub va nima sababdan oxiri munqariz bo‘lub ketganlarini o‘qub, bilub, xeyli ibrat olar eduk. O‘shandoq hozirgi holimizni bobolarimiz davridagi hollarg‘a bir daraja muqoyasa etmak ila barobar o‘z-o‘zimizdan bir infioli daruniy (ichki hayajon) his edub, yuzlarimiz qizarar edi. Holo, biz turkistoniylar marhum bobolarimiz ahvoli ham Turkiston voqeoti tarixiyasidan butun g‘ofil va bexabardurmiz”.

Ma’lumki, Behbudiyga qadar juda ko‘p tarixiy asarlar yozilgan. Ko‘plab muarrixlar Turkiston tarixining eng qadimgi davridan to o‘z zamonlarigacha bo‘lgan voqealarni xronologik tarzda yozib qoldirganlar. Xo‘sh, unda Behbudiy nima sababdan Turkiston tarixi yaratilmagan, degan fikrni ilgari surmoqda?

Allomaning o‘zi bunga quyidagicha izoh beradi: “Chunki hanuz Turkiston tarixi haqinda yangi tadqiqot ila yozilgan, tartibli va istifodali mukammal bir asar vujudg‘a kelgani yo‘q. To‘g‘risi, munday tarix yozuvchi kishi turk o‘g‘lonlaridan hanuz maydonga

chiqg‘oni yo‘qki, bu esa turk bolalarining noxalaf bo‘lub, chin o‘g‘ul emasliklarig‘a dalildur. Bu so‘zlardan tarixsizligimiz anglashilmasun. Bizning tariximiz bor”.

Demak, Behbudiy zamon talablari darajasida, “yangi tadqiqot ila yozilgon”, mukammal “Turkiston tarixi”ni orzu qilmoqda. Uning fikricha, ruslar va boshqa ovrupoyilar foydalanayotgan Turkiston tarixiga bag‘ishlab burungi asrlarda yozilgan turkiy, forsiy va arabiy tillardagi kitoblar “muxtalif tillarda yozilgan”. Ya’ni ularda bir hodisa turlicha talqin etilgan, bir-biriga zid, qarama-qarshi fikrlar ko‘p. Behbudiy ana shu farqli jihatlar tadqiq etilgan mukammal tarixni yaratish zaruratini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bu juda dolzarb muammo edi. Binobarin, Behbudiyning fikricha, haqqoniy tarixdan xabardor bo‘lmasdan turib, hech bir millat o‘z ahvolini tahqiq eta olmaydi. O‘z tarixidan g‘ofil va bexabar millat esa taraqqiyotdan ortda qolishi aniq.

Afsuski, Behbudiyning bu orzusi amalga oshmay qoldi. Millatning fidoyi farzandlari qatori allomaning o‘zini-da mahv etgan totalitar tuzum millatni tarixidan, ajdodlari kechmishidan imkoni boricha uzoqlashtirish siyosatini olib bordi.

Mustabid Chor Rossiyasi, undan keyin sho‘ro istibdodi hukm surgan murakkab va ziddiyatli bir davrda milliy axloqni saqlash masalasi kun tartibida turgan dolzarb masalalardan edi. Jadidlar milliy axloqni milliyatning asosi deb bildilar. “Taraqqiy” gazetasining 16-sonida Rossiyaning arkoni davlatlari bo‘lgan ma’murlar (amaldorlar) to‘g‘risida maqola chop etilgan. Maqolada buzuq axloqni Turkistonda ana shular joriy etgani ta’kidlanadi: “Jami axloqi fosida (buzuq axloq)ni bular nashr etdilar... Zulm qilmoq, fuqaroning huquqini toptamoq, ilm-fanga sad tortmoq, muxtalif millatlar orasig‘a adovat solmoq kabi “asbobi madaniyat” bo‘lg‘on hunarlarga ham mahorat kasb etdilar... Sulh va do‘stliq uzra yashamoqqa oncha ma’murlar yo‘l bermayurlar. Jam’iyatdan ba’zi bir zotlar mazkur marizlarg‘a iloj qilmoqqa kirishsalar ham, bu muqaddas ishga kirishmaklari ila barobar, jam’iyatning ko‘zindan g‘oyib bo‘lurlar... Bularni qilg‘on ishlarini mulohazag‘a olinsa, olarni vijdonsizlik, insoniyatsizlik ila hukm qilmoqg‘a, alarg‘a byuroqrot... nomini bermoqqa majbur etadur”.

Cho‘lpon “Sadoi Farg‘ona” gazetasining 1914-yil 6-iyun sonida bosilgan “Vatanimiz Turkistonda temiryo‘llar” maqolasida mana bunday yozadi: “Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro‘poning mo‘dosidin, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarg‘a bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatg‘a o‘xshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmog‘ingiz lozimdur. Ovro‘poning mo‘dosi, shishasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir, qul qiladur. Bundan saqlaningiz!

Ovro‘poning maktab, madrasa, ilm-fan, sanoat, hunarg‘a o‘xshash madaniyatlari sizlarni obod, ma’mur, olim qilub, johillikdan, asorat qullikdin qutulturadur. Birodarlar, ko‘zlaringizni ochib, yaxshi o‘ylanglar!” [9, 26-b].

Rus akademigi V.V.Bartoldning yozishicha: “Yerli aholi ruslar bilan yaqinlashishi, rus tilini o‘rganishi natijasida rus hayotining asosan tashqi, salbiy tomonlarini o‘zlashtirdilar. Fahsh hayot kechirishga, vino, pivo ichishga o‘rgandilar. Hatto ulamolar, din ahllari ham shunday yaramas hayot kechira boshladilar” [2, 345-b].

Jadidlar ana shu axloqiy tanazzulning oldini olishga jiddu jahd qildilar. Afsuski, o‘sha zamondagi tarixiy vaziyat bunga yo‘l bermadi. Biroq ma’rifatparvar jadidlarning millat va milliyat borasida urgan bonglari fikri ochiq ziyolilarimizni hanuz ogohlikka, Vatan va millat taraqqiysi yo‘lida birdamlikka da’vat etib kelayotir.

Adabiyotlar:

1. Ализода Саидризо. Ҳар миллат ўз тили ила фахр этар. // Oyna, 1914, 11-сон.

2. Беҳбудий, Маҳмудхўжа. Тил масаласи. //Oyna, 1915, 11-12-сонлар.

3. Бартольд В.В. Сочинения. II том (част I), Издателство восточной литературы, М., 1963.

4. Гаспринский, Исмоилбек. Дору-р-роҳат мусулмонлари. / Ҳаёт ва мамот масаласи (Таржимон, тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: Бегали Қосимов, Зайнобидин Абдирашидов). – Тошкент: Маънавият, 2006.

5. Дўстқораев, Бойбўта. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2009.

6. Зиё Саид, Танланган асарлар. – Тошкент, 1974.

7. Каримов, Наим. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2008.

8. Қосимов, Бегали. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.

9. Чўлпон. Ватанимиз Туркистонда темир йўллар. // Садои Фарғона, 1914 йил 6 июнь, № 26

TÜRKÜSTANDA CƏDİDÇİLİK HƏRƏKATI VƏ MAHMUDXOCA BEHBUDİNİN MƏTBUAT FƏALİYYƏTİ

Almaz ÜLVİ BİNNATOVA
Filologiya elmləri doktoru, professor
AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun
"Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi
əlaqələr" şöbəsinin müdiri, Azərbaycan, Bakı,
+994 50 382 74 59; almazulvi1960@mail.ru
orcid iD – 0000-0001-7991-3969
(Ozarbayjon)

Xülasə. Bu məqalədə XIX əsrin sonu – XX əsrin əvvəllərində Türküstanda formalaşmış cədidçilik hərəkatı, onun məqsədləri və əsas nümayəndəsi Mahmudxoca Behbudinin fəaliyyəti araşdırılmışdır. "Səmərqənd" qəzeti və "Ayna" jurnalının cəmiyyətin modernləşməsindəki rolu, eləcə də bu nəşrlərin Azərbaycan mətbuatındakı "Molla Nəsrəddin", "İrşad" və "Füyuzat" ilə müqayisəsi aparılmışdır. Nəticədə, cədidçilik və Azərbaycan maarifçiliyinin ortaq və fərqli cəhətləri müəyyən edilmişdir.

Açar sözlər: *cədidçilik, Mahmudxoca Behbudi, maarifçilik, "Səmərqənd" qəzeti, "Ayna" jurnalı, Azərbaycan mətbuatı, "Molla Nəsrəddin", "İrşad", "Füyuzat"*

Abstract. This article examines the Jadidism movement, which emerged in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, its objectives, and the activities of its key figure, Mahmudkhodja Behbudi. The role of the Samarkand newspaper and Ayna magazine in modernizing society is analyzed, as well as their comparison with Azerbaijani publications such as Molla Nasreddin, Irshad, and Füyuzat. The study highlights both the similarities and differences between the Jadidism movement and Azerbaijani enlightenment efforts.

Keywords: *Jadidism, Mahmudkhodja Behbudi, enlightenment, Samarkand newspaper, Ayna magazine, Azerbaijani press, Molla Nasreddin, Irshad, Füyuzat*

Резюме. В данной статье рассматривается движение джади-

дизма, возникшее в Туркестане в конце XIX – начале XX века, его цели и деятельность ключевой фигуры Махмудходжи Бехбуди. Анализируется роль газеты Самарканд и журнала Айна в модернизации общества, а также их сравнение с азербайджанскими изданиями, такими как Молла Насреддин, Иршад и Фююзат. Исследование выявляет как общие черты, так и различия между движением джадидов и азербайджанским просветительским течением.

Ключевые слова: *джадидизм, Махмудходжа Бехбуди, просвещение, газета Самарканд, журнал Айна, азербайджанская пресса, Молла Насреддин, Иршад, Фююзат*

Giriş

Cədidçilik XIX əsrin sonu – XX əsrin əvvəllərində Türküstanda formalaşan və əsas məqsədi müsəlman cəmiyyətini maarifləndirmək, Avropa elmi biliklərini yaymaq və islahatlar aparmaq olan intellektual hərəkat idi. Cədidçilər, o cümlədən Mahmudxoca Behbudi, xalqın savadlanmasım, milli şüurun yüksəldilməsini və dini fanatizmdən uzaq, müasir dünyagörüşünün inkişafını əsas hədəflər kimi görürdülər.

Əsas hissə

Mahmudxoca Behbudi cədidçiliyin əsas ideoloqlarından biri kimi təsis etdiyi "Səmərqənd" qəzeti və "Oyna" ("Ayna") jurnalı vasitəsilə cəmiyyətin modernləşməsinə çalışmışdır. Onun mətbuat fəaliyyəti yalnız maarifçiliklə məhdudlaşmır, həm də siyasi və sosial islahatlar üçün bir platforma rolunu oynayırdı.

Türküstanda cədidçilərin əsas məqsədi təhsilin modernləşdirilməsi və cəmiyyətin geridə qalmış ənənələrdən qurtarılması idi. Bu hərəkatın əsas ideya bazası aşağıdakı istiqamətləri əhatə edirdi:

- Təhsilin yeni metodlarla inkişaf etdirilməsi – cədidçilər "usuli cədid" ("yeni metod") adlı təhsil sistemini tətbiq etməyə çalışırdılar. Bu sistemdə tədris dünyəvi biliklərə əsaslanır və Qərb elmləri ilə inteqrasiya edilirdi.
- Müasir dünyagörüşün formalaşdırılması – cəmiyyətin dini fanatizmdən uzaqlaşdırılması, elmin və rasional düşüncənin inkişaf etdirilməsi əsas hədəflərdən idi.

➢ Qadınların ınaarifləndirilməsi və sosial rolu – qadınların təhsil alması və cəmiyyətdə fəal iştirak etməsi cədidçilər üçün önəmli idi. Bu fikir xüsusilə Mahmudxoca Behbudinin yazılarında vurğulanırdı.

➢ Milli kimliyin qorunması və inkişafi – Osmanlı və Tatar cədidçilərinin təsiri ilə Türküstanda da milli şüurun gücləndirilməsi əsas məsələlərdən birinə çevrilmişdi.

"Səmərqənd" qəzeti Behbudinin cədidçilik ideyalarını geniş kütləyə çatdırmaq üçün yaratdığı ən mühüm mətbuat orqanlarından biri idi. Qəzetin məqsədi – cəmiyyətin siyasi və iqtisadi problemlərini işıqlandırmaq, maarifçiliyi və yeni təhsil sistemini təbliğ etmək, Qərb elmlərini və texnologiyalarını tanıtmaq, qadın hüquqları və gender bərabərliyi haqqında maarifləndirmə aparmaq, müsəlman xalqlarının birlik ideyasını yaymaq idi.

"Səmərqənd" qəzeti cədidçi məktəblərin yayılmasına böyük təsir göstərmişdir. Burada yazılan məqalələr müəllimlər və ziyalılar üçün yol göstərici rolunu oynayırdı. Eyni zamanda, qəzet vasitəsilə Behbudi və digər cədidçi yazarlar hökumətin avtoritar siyasətini tənqid edir, ictimai problemlərə toxunur və cəmiyyəti daha fəal olmağa çağırırdılar. Nümunə olaraq bəzi məqalələrin adlarını qeyd etmək olar: "Milli məktəblərimiz nə üçün zəifdir?", "Biz niyə Avropadan geri qalırıq?, "Qadınlarımızın təhsil alması vacibdir" və s.

Onu da qeyd edək ki, o zamanlar "Səmərqənd" qəzeti çar Rusiyası tərəfindən senzura altında idi. Qəzetin bəzi məqalələri "hökumətə qarşı təxribat" kimi qiymətləndirilərək qadağan olunurdu. Bu isə M.Behbudinin – redaksiyanın işini çətinləşdirirdi.

"Oyna" ("Ayna") jurnalı Behbudinin əsas diqqət yetirdiyi sahələrdən biri olan uşaq və gənclərin təhsili üçün nəzərdə tutulmuşdu. Cədidçilər təhsilin erkən yaşlardan başlamasının vacibliyini vurğulayırdılar. M.Behbudi də bu ideyanı rəhbər tutaraq, uşaqların dünyagörüşünü genişləndirmək üçün "Ayna" jurnalını yaratmışdır.

Jurnalın əsas mövzuları – təhsil və bilik sayəsində uşaqların elm və texnologiyaya marağını artırmaq, əxlaq dərsləri vasitəsilə yaxşı və pis davranışları ayırd etməyi öyrətmək, milli kimliyi dərk etdirərək öz tarixi və mədəni dəyərlərini tanıtmaq, dünya xalqları müstəvisində ayrl-ayrı millətlərin elmi və mədəni nailiyyətlərindən xəbərdar olmaq. Bu ideologiyanı təbliğ etmək etmək istəyən "Ayna" jurnalı

uşaqlar və müəllimlər arasında böyük maraq doğursa da, geniş yayılmaqda çətinlik çəkirdi. Bunun əsas səbəbi maliyyə problemləri və savadsızlığın yüksək səviyyədə olması idi.

Əslində İsmayıl bəy Qaspıralının "Dildə, işdə, fikirdə birlik" ideyasının səsi-sədası ilə böyük hərəkat kimi bütün Şərqi silkələmişdi. Bu hərəkat Azərbaycanda maarifçilik və mətbuat xətti ilə geniş yayılır, savadsızlığın ləğvi yolunda çar senzurasının təzyiqləri altında xalqı milli özünüdərkə səsləyirdilər.

Bu mövzu müstəvisində "Səmərqənd" qəzetini həmin dövrdə hansı Azərbaycan qəzeti ilə müqayisə etmək olar? Sualına çətinlik çəkmədən həmin dövrdə Azərbaycan mətbuatında "Molla Nəsrəddin" jurnalı və "İrşad" qəzeti ilə müqayisə edə bilərik

"Səmərqənd" və "Molla Nəsrəddin" nəşrləri maarifçilik, sosial ədalət, din və cəmiyyət arasındakı problemlər kimi mövzuları işıqlandırırdı. Cəlil Məmmədquluzadə, və Mahmudxoca Behbudi cəmiyyətin geriliyi, dini fanatizm və savadsızlıqla mübarizəyə çalışırdılar. Hər iki nəşr Qərb modernizminin müsəlman dünyasına uyğunlaşdırılmasını təbliğ edirdi. Çar Rusiyası hər iki mətbuat orqanına ciddi senzura tətbiq edir, bəzi məqalələri yasaqlayırdı. İdeya eyni olsa da fərqləri "Molla Nəsrəddin" daha çox satirik idi və xalq arasmda geniş yayılırdı. "Səmərqənd" isə əsasən elmi, təhsil və siyasi məsələlərə diqqət yetirirdi.

"Səmərqənd" və "İrşad" qəzetləri maarifçiliyin cəmiyyətin modernləşməsindəki rolunu vurğulayırdılar. Hər iki nəşr millətin öz kimliyini dərk etməsi və inkişaf etməsi üçün mübarizə aparırdı. Hər iki qəzet dini fanatizmi tənqid edir və İslamın rasional izahını müdafiə edirdi. Ideya eyni olsa da təbliğat yönlərində bəzi nüansları da göstərə bilərik: "İrşad" Azərbaycan türklərinin milli oyanışı və müstəqillik ideyalarına daha çox yer verirdi. "Səmərqənd" isə əsas diqqəti Türküstan müsəlmanlarının maariflənməsinə yönəldirdi. Bu nəşrləri ideoloji və islahatçılıq baxımından müqayisə etsək, "Səmərqənd" daha çox "İrşad" qəzeti ilə oxşardır. Əgər tənqidi yanaşma və ictimai satira baxımından yanaşsaq, onu "Molla Nəsrəddin" ilə müqayisə etmək mümkündür.

Bəs elə isə "Ayna" jurnalmı hansı Azərbaycan jurnalı ilə müqayisə, oxşar və fərqli xüsusiyyətlərini qeyd edə bilərik? "Ayna" jur-

nalını Azərbaycan mətbuatında "Füyuzat" jurnalı ilə müqayisə etmək olar. Hər iki jurnal maarifçilik ideyalarını yayır, milli şüurun formalaşmasına çalışır və Şərq cəmiyyətlərinin modernləşməsi üçün islahatlar təklif edirdi. Oxşar cəhətlərini qeyd etməli olsaq – maarifçilik və milli oyanış "Ayna" və "Füyuzat"ın əsas məqsədi olaraq xalqın savadlanmasını və milli kimliyinin güclənməsini qarşıya qoymuşdu. Hər iki jurnal dini fanatizmi tənqid edir, İslamın rasional izahını müdafiə edirdi. "Ayna" Türküstanda cədidçilik hərəkatını dəstəkləyirdisə, "Füyuzat" türkçülük və islam birliyi ideyalarına üstünlük verirdi. Hər iki jurnal qərb elmi və texnologiyasının təbliği – maarifçilik ideyaları çərçivəsində Qərb elminin və texnologiyasının Şərq dünyasına gətirilməsini təşviq edirdilər. Hər iki jurnal ədəbi əsərlərə yer verərək, xalq arasında mədəniyyətin inkişafına töhfə verirdi. Əgər maarifçilik və təhsil islahatı baxımından yanaşsaq, "Ayna" və "Füyuzat" eyni məqsədlərə xidmət edirdi. Lakin "Füyuzat" daha çox siyasi aspektlərə (türkçülük və panislamizm) fokuslanmışdı, "Ayna" isə cəmiyyətin modernləşməsi və dini reformlar üzərində dayanırdı.

Qeyd edək ki, "Füyuzat" jurnalının təsisçisi və baş redaktoru Əli bəy Hüseynzadə olub. Jurnal 1906-1907-ci illərdə Bakıda nəşr edilib və Azərbaycan mətbuatında mühüm rol oynayıb.

Nəticə

Türküstanda cədidçilik hərəkatı XIX əsrin sonu – XX əsrin əvvəllərində müsəlman cəmiyyətinin modernləşməsi, maarifçilik və sosial islahatlara yönəlmiş mühüm intellektual hərəkət idi. Mahmudxoca Behbudi və onun "Səmərqənd" qəzeti, "Ayna" jurnalı vasitəsilə bu ideyaların yayılmasına və tətbiqinə böyük töhfə vermişdir. Cədidçilər Qərb elmlərinin və yeni təhsil metodlarının tətbiqinə, qadınların maarifləndirilməsinə və milli kimliyin gücləndirilməsinə önəm vermişlər. Azərbaycan mətbuatında "Səmərqənd" qəzeti və "Ayna" jurnalının "Molla Nəsrəddin", "İrşad" və "Füyuzat" kimi nəşrlərlə müqayisəsi onların ortaq maarifçilik məqsədlərini və fərqli yanaşmalarını üzə çıxarır. Nəticə etibarilə, cədidçilik hərəkatı Türküstan və Azərbaycan cəmiyyətlərində milli şüurun formalaşmasına, dini fanatizmin tənqidinə və təhsilin inkişafına yönəlmiş mühüm ictimai proses olmuşdur.

Ədəbiyya

1. Abdullayev, İsmətulla. Türküstanda cədidçilik və onun ideoloji əsasları. – Daşkənd, 2005.

2. Allworth, Edward A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present, A Cultural History. Stanford: Hoover Institution Press, 1990.

3. Bayramlı, Əhməd. Azərbaycan Cədidçiliyi və Molla Nəsrəddin Məktəbi. – Bakı, 2006.

4. Boltaboyev, Hamidulla. Jadid matbuoti va uning tarixi ahamiyati. – Daşkənd, 2014.

5. Əliyev, Zaur– Azərbaycan və Orta Asiyada maarifçilik hərəkatları. – Bakı, 2021.

6. Erkinov, A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning matbuot faoliyati. – Daşkənd, 2015.

7. Əsədov, Kamran. XX əsr Azərbaycan mətbuatında maarifçilik ideyaları. – Bakı, 2019.

8. Fitrat, Abdurauf. Behbudiy va uning adabiy merosi. – Daşkənd, 1929.

9. Hacıyev, Tofiq– Azərbaycan və Türküstan ziyalılarımn ideya mübadiləsi. – Bakı, 2016.

10. Karimov, Bahodir. Mahmudxo'ja Behbudiy va jadidchilik harakati. – Daşkənd, 2001.

11. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.

12. Məmmədzadə, Mirzə Bala– İslam Modernizmi və Cədidçilik. – İstanbul, 1936.

13. Öztürk, Mustafa. Orta Asya'da Ceditçilik Hareketi ve Etkileri. – İstanbul, 2013.

14. Qasımlı, Musa. Cədidçilik və Türkçülük hərəkatları arasındakı əlaqələr. – Bakı, 2015.

15. Şamil, Vəliyev. Molla Nəsrəddin və Cədidçilik: Paralellər və Müqayisələr. – Bakı, 2011.

16. Sirojiddinov, Şuxrat. Mahmudxo'ja Behbudiy: Millatning uyg'onish yo'lida. – Daşkənd, 2020.

17. Tağızadə, Əjdər. "Füyuzat" jurnalı və onun ideoloji əsasları. – Bakı, 2010.

18. To'laganov, Nadirbek. Mahmudxo'ja Behbudiy va Oyna jurnali. – Səmərqənd, 2012.

19. Türkoğlu, İsmayıl. İrşad qəzeti və onun milli oyanışdakı rolu. – Bakı, 2017.

20. Zeynallı, Cahangir. Maarifçilik və Azərbaycan mətbuatı. – Bakı, 2012.

21. Абдурахманов, Полат. Туркестанские джадиды и их печатные органы. – Москва, 2018.

22. Ташкентский Исламский Университет. Джадидизм: истоки и эволюция. – Ташкент, 2010.

23. Юнусов, Ш. Туркестанская пресса и цензура в период Российской империи. – Ташкент, 2015.

"AL-ISLOH" JURNALIDA TA'LIM ISLOHI MASALASINING YORITILISHI

Qo'ldosh PARDAYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori
tel: +90 937-65-86
(O'zbekiston)

Rezyume. Turkiston xalqlari tarixining murakkab davrida nashr etilib turgan jadid ziyolilarining "Oyna", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" kabi nufuzli nashrlaridan "Al-Isloh"(1915–1918) jurnalidagi ta'lim islohiga doir she'riy asarlar va publitsistik maqolalar tadqiq qilingan. Materiallardagi yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, maktab va madrasalardagi o'qitish tizimi masalalari o'rganilib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: maqola, she'r, ta'lim-tarbiya, maktab, millat, milliy uyg'onish, ma'rifat va jaholat, matbuot, dars, eski usul, yangi usul.

Resume. The research focused on the poetic works and journalistic articles on educational reform in the journal "Al-Isloh" (1915-1918) from such influential publications of the new intelligentsia, such as "Oyna", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Ferghana", which were published during the difficult period of the history of the peoples of Turkestan. The issues of education and upbringing of the younger generation, the education system in schools and madrasas in the materials were studied, and scientific and theoretical conclusions were drawn.

Key words: article, poem, education, school, nation, national awakening, enlightenment and ignorance, press, lesson, old method, new method.

XX asr tongida millat ziyolilarining Turkiston xalqiga ma'rifat tarqatishdagi xizmatlari beqiyosdir. Ular ma'naviy-ma'rifiy ruhdagi, o'tkir publitsistik maqolalari bilan millatni uyg'otishga, jaholat iskanjasidan ma'rifat yuksakligiga olib chiqishga intildi. Yoshlar tarbiyasiga, maktablarni isloh qilishga katta ahamiyat qaratdi. Jumladan,

Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" dramasida ilmsizlik oqibati xorlik ekani g'oyasini ilgari surdi. Munavvarqori Abdurashidxonov esa 1903-yildan jadid maktablari ochib dars berish barobarida "Adibi avval" (1907), "Adibi soniy" darsliklarini yozdi. Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" (1909), "Ikkinchi muallim" (1912) nomli darsliklari, "Turkiy guliston yoxud axloq", "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" kabi qo'llanmalari ham ayni maktab islohiga qaratilgan edi.

Shubhasiz, "Al-Isloh" jurnali ham bu vazifadan chetda turgan emas. Jurnal sahifalarida ta'lim islohi mavzusida va ma'rifatga targ'ib etuvchi turkum maqolalar, she'riy va nasriy asarlar e'lon qilingan. Jumladan, Mahmud Alizoda Toshkandiyning "Milliy aloqa" she'rida bunday yozilgan:

Bizda ko'p jahl-u g'azab, arbobi g'aflat ichra biz,
Ma'rifat ilm-u funun aylab kirom isloh qil...
To'y uchun sarf aylagaymiz necha yuz dinorlar,
Rusum deb isroflar ming-ming diram isloh qil.
Masjid-u maktab madoris sori qilg'il nazar,
Onlari ilm-u odobda muntazam isloh qil. [Ал-Ислох, 1916, №3:12].

Shoirning ushbu misralarida Turkiston xalqi hayotidagi qoloqliklarni, ma'rifatsizlikni isloh qilish g'oyasi mujassam. To'ylarni ortiqcha xarajatlar bilan dabdabali o'tkazishga zo'r berilayotgani, yana buning urf-odat deya talqin etilayotgani uning haqli e'tiroziga sabab bo'ladi. Ma'rifat targ'ibi, maktablar islohi muammosi Saidahmad Vasliy ijodida ham alohida o'rin tutadi. Jumladan, "Al-Isloh" jurnalining 1916-yil 5-sonida olimning "Har musulmonning arab tilig'a oshno bo'lishi zarur" nomli maqolasi e'lon qilingan. Maqolada Turkiston aholisining arab tilini o'rganishi, Qur'on va hadis ma'nolarini tushunishi, ota-bobolarimizning bu tilda yozilgan kitoblarini o'qib, ma'rifat hosil qilishi zarurati ta'kidlanadi. U kuyunchaklik bilan yozadi: "Katta-katta shaharlarimizda, buyuk-buyuk madrasalarimizda xiyli talabalar kamoli ixloslari ilan sarfi umru sarfi aqcha qilub, oxir qasd etub tahsil qiladurg'on darslaridin va o'qub yurgan ilmlaridin bir durustroq nimarsa hosil qilmasdan, ko'ngillari qorayub, xafaliklaridin ikki uch yil badalida boshqa bir ish ixtiyor qilurlar..." [Ал-Ислох, 1916, №5:123]. Muallif yosh avlodning aziz vaqtini

behuda o‘tkazib, ko‘cha changitib, ot choptirib yurishidan, boylarning farzandlari maktab va madrasalarni pora berib tamomlashidan, oqibatda o‘z oilasiga fojia keltirishidan iztirobga tushadi. Vasliy birgina diniy bilimlar bilan chegaralanib qolmay, dunyoviy bilimlarni ham o‘rganish zarurligini uqtiradi. Jaholatda qolgan “qora xalqning oqarishi”da birdan-bir vosita ma’rifat ekanini alohida ta’kidlaydi. Vasliyning “Al-Isloh” jurnali 1915-yil 17-sonida chop etilgan “Islohi tadris haqinda” sarlavhali musaddasi bu jihatdan diqqatga sazovordir.

She’rda dars islohi din-u shariat jismiga jon bag‘ishlashi, dars “ko‘ngillar ichra toza ruh hosil aylashi” haqidagi teran fikr betakror badiiyat bilan ifodalanadi. “Dars isloh o‘lmasa, o‘lmas biza fayz-u futuh” deya o‘sha vaqtda Turkistonda ta’lim tizimi zamon talablariga javob bermay qolganidan iztirob chekadi. Ayniqsa, shoirning “Bu zamonda olim o‘lmoqg‘a kerakdur umr-u Nuh” degan so‘zlari bu iztirobning naqadar cho‘ng ekanini ko‘rsatadi. Vasliy kuyinish bilangina cheklanmaydi. Bu holatdan chiqish choralarini izlaydi. Natijada, “Osmoni ilm uchundir nardbon islohi dars” degan xulosaga keladi:

Necha toliblarni ko‘rdim – o‘zlari as’hobi ilm,
Bo‘lmamishlar sa’yu ko‘shish aylabon arbobi ilm,
Ming tashakkurlar qilurdim har na bu tullobi ilm,
Bu kabi toliblaradur, izz-u sha’n islohi dars,
Osmoni ilm uchundur nardbon islohi dars.

Boshqa jadid bobolarimiz kabi Vasliy Samarqandiy ham Turkistonning o‘sha davrdagi holatiga tanqidiy nazar bilan qaraydi. “Ishlari darsxonalarda “iyob ila zihob” – kelmag-u ketmakdangina iborat bo‘lgan, asosiy vazifasini – bilmag-u bildirmakni unutgan tolibi ilmlarni ko‘rib, ularning holiga achinadi. “Aylasak islohi tadris, ey guruhi mustatob, Bo‘lmas erdi holati avlodimiz bo‘yla xarob” deya taassuf qiladi. Jaholatdan najot topmoqning yagona chorasi darsni – ta’lim tizimini isloh qilish ekanini ta’kidlaydi.

Musaddasning so‘nggi bandida shoir ilm-ma’rifat yo‘lida beg‘araz xizmat qilayotgan tahamtanlar – pahlavonlar borligi uchun shukr aytadi. Islohi dars ikki dunyo naf’iga xizmat qilishini aytib, shunga da’vat etadi:

Ori-ori bor erur yuzdan biri ahli kamol,
Aylayur xizmat shariatning yo‘lida qadri hol,

Shu tahamtanlar baqoi shar' uchun aylar xayol,
Bu sharaflik fikr ilan, isloma yondoshmaz zavol.
Alg'araz islom uchundur pushtbon islohi dars,
Ikki dunyo naf'ig'adur bahri kon islohi dars.

Ta'kidlash joizki, "Al-Isloh" jurnalida ta'lim islohi masalasida eng faol eshtirok etgan muallif Vasliydir. Uning "Al-Isloh" 1915-yil 13-sonida "Himmat ur-rajo" nomli maqolasi e'lon qilingan. U maqolada maktab va madrasalarning qurilish reja loyihasidan tortib, dars xonalarining ichki jihoz uskunalarigacha, dars necha yil bo'lishi kerak, bir kunda necha fan o'qitilishi zarur, talabalarning darslarni o'zlashtirishi va imtihon olish usuli qanday bo'lmog'i lozimligi haqida batafsil to'xtaladi. Turkiston ziyoli va ulamolariga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

"1. Muddati tahsil necha sana bo'lmog'i kerak?

2. Har sanada necha oy tahsil ayyomi bo'lur?

3. Har haftada necha kun dars o'qilur?

4. Har tahsil kunlari necha dars o'qilsa nofi' bo'lur?

5. Bir sana o'qitilmish kitobning necha darsg'a taqsim bo'lmog'i lozim?

6. Har darsning miqdori necha satru va yoki necha sahifa bo'lmoq vojib?

7. Shogirdlarning tushunmaklari lozimmu? Yoki darsxonaga kirib chiqsa bo'lurmi?

8. Madrasalarg'a jahd ila shogirdni ma'lumotli qilmaklari vojibmu? Yoki kun o'tkarub, shogirdlarni boshqa ishlarg'a mardikor qilsalar joizmu?

9. Ijozat olib xatmkarda bo'lmak uchun rusumiy darslarni bilmak, ulum va funung'a olim bo'lmak lozimmu? Yoki bir vaqti jamoag'a sherik al-dars bo'lib, kelib-ketib, uch-to'rt so'm berib, mullajaloli javon bo'lsa kifoyami?

10. Har kim o'z boshicha umr kechurub, vaqflarni yeb, mudarris men deb yursa bo'lurmu? Yoki ulug' ulamolarning hukumat taraflaridan nazorat va tahqiqi farzmi?" [Ал-Ислох, 1915, №13:86] Saidahmad Vasliyning savollari yosh avlod kamoli, millat istiqboli bilan bog'liq ekani ayon ko'rinib turibdi. "Al-Isloh" bu muammoga asosiy e'tiborni qaratganini ta'kidlash kerak. Bu masalaga boshqa zi-

yolilar ham befarq qaragan emas. Ular ham muhokama va munozarada faol ishtirok etdi. Aynan yuqoridagi Vasliy savollariga javoban buxorolik Ziyovuddin qori jurnalning 1915-yil 17-sonida "Insonning bir necha vazifasi va saodati" sarlavhali maqolasini e'lon qildi. Muallif fikricha, tahsil o'n besh yilga mo'ljallangan bo'lib, yigirma bir xil darsni ko'zda tutadi. Bir yilda to'qqiz oy o'qish, haftasiga besh kun, har kuni ikki fan o'qilishini ta'kidlaydi. Ya'ni iqtidorli talabalar ta'limni o'n ikki yilda yakunlashini uqtiradi. U yozadi: "Saidahmad Vasliy janoblari bir maqola yozib, ommaning sa'yu g'ayratini va ham fikrlarini "Al-Isloh" vositasi ila maydong'a qo'ymoqlarina rajo etmishdur... Biz ham fikrimizni bayon edub, ba'zi savollarina javob beramiz, lekin bizning fikrimiz hammadan avval jadval bo'yladur:

№	**Peshindan avval**	**Peshindan so'ng**
1	Birinchi yil – sarf	Odobi ta'lim va munozara
2	Ikkinchi yil – nahv	Tarixi umumiy
3	Uchinchi yil – nahv	Tarixi umumiy
4	To'rtinchi yil – mantiq	Hisob
5	Beshinchi yil – mantiq	Handasa
6	Oltinchi yil – hikmat	Hayot
7	Yettinchi yil – hikmat	Nujum
8	Sakkizinchi yil – balog'at	Aruz
9	To'qqizinchi yil – balog'at	Qofiya
10	O'ninchi yil – usul	Farz ul-ashara
11	O'n birinchi yil – usul	Ilmi qiroat
12	O'n ikkinchi yil – aqoid	Fiqh
13	O'n uchinchi yil – aqoid	Fiqh
14	O'n to'rtinchi yil – tafsir	Hadis
15	O'n beshinchi yil – tafsir	Hadis"

Shu kabi ta'lim olish jarayonini jadval asosida ko'rsatadi. Maqola so'ngida Turkiston ulamolariga xitob qilib, maktab va madrasalarning ayanchli ahvoliga kuyinib, quyidagicha bong uradi: "Ey! Ustoz va ulamolar, endi vaqtni zoye etmangiz, bizlarning va o'zlaringizning moziy (o'tgan zamon) va istiqbolimizni tushuningiz: kim eduk, na

o‘lduk, na o‘lajag‘miz, fikr eytingiz! Vatan va millat avlodining ta’lim-tarbiyati sizlarning hamiyat va g‘ayratingizg‘a bog‘lidur” [Ал-Ислоҳ, 1915, №17:516].

Ta’kidlash joizki, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi masalasida ulamolarning fikrlari turlicha bo‘lgan. Ba’zilari eski usul barobarida yangi usul jadid maktablarining ham tarafdori edi. Ayrimlari esa jadid maktablariga tanqidiy fikr bildirgan. Bu toifa yevropa madaniyati musulmon bolalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishidan saqlanmoq zarur, deb hisoblagan. Saidahmad Vasliy “Sadoyi Farg‘ona” gazetasida chop etilgan “Usuli jadid” maqolasida yangi usuli eski o‘qitish tizimidan afzal ekanini sodda va tushunarli qilib quyidagicha bayon etadi: “Emdi yangi tartibda o‘qitmoqni ma’nosi shulki, maktabga kirgan bolaga saboq berish bilan bir vaqtda harflarni yozib ko‘rsatur. Yangi tartibda o‘qigan bola 4–5 oyda o‘qimoq va yozmoqni o‘rganur...” Vasliy ushbu maqolasida 10–12 yil o‘qigan mullalar eng muhim ilmlardan bexabar qolganlarini ta’kidlash bilan birga, ularning madrasalarda o‘rgangan bilimlari amaliy hayot ehtiyojlaridan juda uzoq bo‘lgani hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmay, amaliyotdan ajralib qolgani haqida muhim ijtimoiy-siyosiy masalani ham ilgari surgan edi”. [Абдуазизова, 2000:166.]

“Al-Isloh”ning 1915-yil 8-sonida chop etilgan mulla Abdulg‘afforxo‘janing “O‘quv va yozuvlarning haqiqiy boislari” nomli maqolasi ham ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada insonlarning ta’lim-tarbiya olishi nechog‘lik muhim ekani ta’kidlanadi. Talabalarning yuqori darajada o‘quv va yozuv salohiyatiga ega bo‘lib, kamolotga erishishi zarurligini falsafiy fikrlar bilan tushuntiradi. Ong, aql va ilm insonlar bilan hayvonni bir-biridan ajralib turishini, ilmli va ilmsiz kishining turmushidagi yashash sharoiti misolida so‘z yuritib bunday yozadi: “O‘quv va yozuvlarning insonlarg‘a zarur ekanligi har kimga ma’lumdur, na uchunkim, o‘quv va yozuv bilgan odam ila bilmagan odam miyonasida har vajdin osmon ila yercha farq bordur...” [Ал-Ислоҳ, 1915, 8:234.] deb nihoyatda asosli so‘zlarni keltirib yozadi u.

Jurnalda xuddi shu mazmundagi maqolalar ketma-ket chop etilgan. Jurnalning 1915-yilgi 13-sonida nashr qilingan Zuhriddin Fathiddinzodaning “Musulmonlarga rajo” sarlavhali maqolasida ham

o‘lkada kechayotgan jadid va qadimchilar munozaralari haqida so‘z boradi. Maqoladan bilinadiki, muallif masalaga xolis yondashgan. Uningcha, ziyoli va ulamolar ittifoq bo‘lib ish tutishi, bir-biri bilan yaxshi munosabatni tiklab, yoshlar ta’lim-tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratishi zarur. Vatan va millat istiqboli shuni taqozo etadi.

Bunday qarashlar Mullo Hoshim Hayratiy asarlariga ham xosdir. U Turkiston xalqining ma’rifatsizligini, ta’lim tizimining talabga javob bermay qolgani, ziyolilar ta’lim masalasida bir tan-u bir jon bo‘lib ish ko‘rmayotgani, jaholat botqog‘iga botishining bosh sababi jadid-qadim munozaralari deb bildi. Ayni shu masalada jurnalning 1917-yil 14-sonida chop etilgan “Munosib zamon” nomli she’rida bunday yozadi:

Qayda rahmat bizni Turkistonni bu kirdorig‘a,
Doimo qo‘ygay qadam bir-birlarin ozorig‘a,
Gina molin keltirur nafsoniyat bozorig‘a,
Ittifoq o‘lmay diyorin berdilar ag‘yorig‘a,
To bu dam voqif emas bu qissani asrorig‘a... [Ал-Ислох, 1917, 14:331].

Shoir ittifoq haqida fikr bildirar ekan, mustamlakachilik davrida bu ishda muvaffaqiyatlarga erishishning birdan-bir yo‘li o‘lkada o‘zaro ixtiloflarga barham berib, ahillik bilan ilm-fanni rivojlantirish ekanini aytadi. Xalqning ittifoqsizligi natijasi o‘laroq, millatning shunday ayanchli ahvolga, mustamlakachilik girdobiga tushib qolganini ta’kidlaydi. Bu jihatdan Vasliyning “Ittifoq xususinda” deb nomlangan she’ri ham diqqatga molik:

Naf’i shaxsiy ayladi doim parishon holingiz,
Bu sababdin ketdi sizdin davlat-u iqbolingiz,
Bo‘lmadi naf’i umumiy g‘oyai a’molingiz,
Bas emasmu ushbu urush-u janjolingiz... [Ал-Ислох, 1917, 20:234]

Vasliyning fikri ham yuqoridagi qarashlarga mutanosib. Uningcha ham, hukumat boshqa millat qo‘liga o‘tishining bosh sababi – ittifoqsizlik. Qachon millat ittifoq bo‘lib ish ko‘rsagina, yosh avlodni tarbiyalash, millatni uyg‘otish, Vatanni ozod qilish, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, turmushini farovonlashtirish mumkin, degan fikrni ilgari surdi.

Bunday ma’rifatsizlikdan iztirob ifodasi Mubashshirxon asarlari-

da ham namoyon bo‘ladi. Jurnalning 1916-yil 6-sonida chop etilgan muxammasida shoir hayron: nega bizning millatimiz g‘aflat uyqusini bunchalar suyadi, vahshiylikdan, ilmsizlikdan ne yaxshilik ko‘rdi ekanki, ajralgisi kelmaydi:

Zillat ermasmu sanga bir ittibo‘ing bo‘lmasa,
Sunnati payg‘ambara bir amsoling bo‘lmasa,
Vojiboti nafsinga bir ihtizoring bo‘lmasa,
Doimo bid’atni istab imtino‘ing bo‘lmasa,
Ey zamona, zillating jam o‘ldi, kam o‘lg‘oncha yo‘q.

Mubashshirxonning jaholat, qorong‘ulik qurboni bo‘lgan Turkiston xalqiga yuragidan achinib ularni uyg‘otishga, ya’ni jamiyatda o‘zining munosib o‘rinlarini topishga, ilm olishga, taraqqiyga undab yozgan bu she’ri o‘sha kurashli yillarning marshidek jaranglaydi:

Qodir Olloh senga verdi, sen ango hech bermading,
Gustarildi sango rohing, sen ango hech kirmading,
Dunyoviy taxvif ila ogohlanaring bilmading,
Oxirat sahrosida sarson o‘loring bilmading,
Ey zamona, zillating jam o‘ldi, kam o‘lg‘oncha yo‘q. [Ал-Ислох, 1916, 6:186]

Shoir davr hayotida yuz berayotgan voqealarni, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini she’riyat oynasida haqqoniy aks ettirdi, davr va sharoit taqozo etgan talablarni ko‘tarinki ruhda, shior-chaqiriqlar vositasida keng ommaga yoyishga harakat qildi. “Dunyoviy taxvif ila ogohlanaring bilmading” deya u faqat ilm-fanni o‘rganish yo‘li bilangina jaholat-u xudbinlikdan qutulish mumkin, deb o‘ylaydi. Shuning uchun ham xalqni, avvalo yoshlarni kitob-jurnal o‘qib, ilm cho‘qqilarini egallab, dunyo voqealaridan voqif bo‘lishga undaydi.

XX asr boshlaridagi ma’rifatchilik harakati jamiyat hayotini isloh qilish masalasini kun tartibiga qo‘yar ekan, bunda yosh avlod ta’limi muammo darajasiga ko‘tarildi. “Al-Isloh”dagi she’riy asarlar va publitsistik maqolalar ayni shu muammo yechimiga qaratilgani ham buning tasdig‘idir.

Umuman, “Al-Isloh” jurnali milliy uyg‘onish davrining boshqa nashrlari qatori millatni asriy jaholat girdobidan olib chiqish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga ko‘tarilishi kabi zamonning eng dolzarb va hech qachon eskirmaydigan vazifasi yo‘lida xizmat qildi.

Adabiyotlar

1. Маҳмуд Ализода Тошкандий. //Ал-Ислоҳ, 1916, 3-сон. – Б. 12.

2.Саидаҳмад Васлий . //Ал-Ислоҳ, 1916, 5-сон. – Б. 123.

3. Васлий. //Ал-Ислоҳ, 1915, 13-сон.

4. Зиёвуддинхўжа. //Ал-Ислоҳ, 1915, 17-сон. – Б. 516.

5. Абдуазизова Н. Туркистон маътбуоти тарихи. Т: Академия, 2000. – Б. 166.

6. // Ал-Ислоҳ, 1915, 8-сон. – Б. 234.

7. Мулла Ҳошим Ҳайратий. //Ал-Ислоҳ, 1917-йил, 14-сон. – Б. 331.

8. Саидаҳмад Васлий. //Ал-Ислоҳ, 1917, 20-сон. – Б. 234.

9. Мубашширхон. // Ал-Ислоҳ, 1916, 6-сон, – Б. 186.

JADID PUBLISISTIKASIDA MILLIY ADABIYOT MASALASI

Sayyora HALIMOVA,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti "Media nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston)

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid publisistikasida milliy adabiyot masalasi, Ismoil Gasprinskiy qarashlarining Turkiston milliy matbuotida aks etishi, xususan, 1914-yilda nashr etilgan "Sadoyi Turkiston" gazetasi misolida tahlil etilgan. Ularda ilgari surilgan dolzarb muammolar, ilg'or g'oyalarning mazmun-mohiyati Cho'lponning "Adabiyot nadur" maqolasi asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, maorif, ruhiyat, millat, avom, Turkiston, ruslashtirish, "Tarjumon".

Adabiyot millatning ko'zgusi, ruhiy, ma'naviy boyligi, tafakkur rivojining beqiyos xazinasidir. XX asr boshlarida milliy uyg'onish davri jadid publisistikasi milliy adabiyot masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Ular adabiyotni taraqqiyotning beshigi, o'zlikni anglash, ruhiy poklanish vositasi deb bilishgan. Davlatimiz rahbari Adiblar xiyoboni ochilishiga bag'ishlangan uchrashuvda so'zlagan nutqida bu mavzuga alohida e'tibor qaratgani ham bejiz emas: "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak" [Adabiyot xalqning yuragi, 2021:3]. Darhaqiqat, globallashuv jarayoni avj olgan bugungi texnika asrida millat ruhiyatini, qadriyatlarini, tili va madaniyatini adabiyotgina asrab qola oladi. Jadidshunos olim Zaynabidin Abdirashidovning "Buyuk ma'rifatparvar" maqolasida milliy adabiyot masalasiga doir ilg'or qarashlari o'quvchini chuqur mulohazaga chorlaydi [Abdirashidov, 2005:113]. Maqolada yosh Cho'lponning Ismoil Gasprinskiyga yo'llagan maktubi keltiriladi: Bu maktub "Tarjumon" gazetasida "Andijondan kelgan savolga javob"

deb nomlanadi ["Tarjimon" g., 1913:261]. Endigina matbuot olamiga kirib kelayotgan yosh iste'dod sohibi Cho'lpon ma'rifat darg'asiga quyidagicha savol yo'llagan:

"Muhtaram ustozimiz Ismoilbek janoblari! Andijonning ba'zi buyuklari (ya'ni din peshvolari – A.Z.) menga deydilar: Sen "Shalola", "Turk yurdu", "Shahbal", "Tarjimon", "Vaqt" va "Iqbol" o'qiysan, nega "Mirzo Bedil", "Xo'ja Hofiz"larni o'qimaysan? Bu savolga javob berish uchun hech narsa deya olmadim. Agar javob bo'lsa, "Tarjumon"da berilishini qayta-qayta iltimos qilaman. Agar javobi yo'q bo'lsa, bu "yangi adabiyotni" suvga, o'tga otib, vaqtim yetganicha "Mirzo Bedil" ila "Xo'ja Hofiz" mutolaasidan ayrilmayman.

Sulaymonzoda Abdulhamid Yunusov

Berilgan savol mazmunidan ayonki, Turkiston ikki yoqlama zulm ostida qolgan edi. Chor imperiyasining ruslashtirish mustabidlik zulmi hamda Ismoil Gasprinskiy boshlagan yangi islohot tarafdorlarini qabul qila olmayotgan qadimchilar – yangi zamonaviy taraqqiyot omillariga to'siq bo'lgan mahalliy ulamolar edi. Anglashiladiki, ular hatto gazeta o'qish, dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lishni ham taqiqlashga harakat qilganlar. "Har sohadagi islohotlarning Turkistonda tomir otishiga qattiq qarshilik ko'rsatdilar" ["Tarjimon" g., 1913:261]. Bu esa Z.Abdirashidov haqli ta'kidlaganidek, Rossiya musulmonlari orasida kechroq uyg'onishimizga sabab bo'ldi. Ismoil Gasprinskiy Cho'lponga ziyraklik va chuqur mushohada bilan shunday javob beradi: Qardoshim, "adabiyot" o'tda yoqiladigan narsalardan emas, ruju' ila tavba qiling! Mirzo Bedil, Shayx Sa'diy, Xo'ja Hofiz o'qitiladi, o'qitilishi kerak. Lekin ularda bo'lmagan narsalarni o'qimoq, o'rganmoq lozim emasmi?" Quyidagi fakt, tahlil I.Gasprinskiyning dunyo ahvolidan, taraqqiyotidan nechog'li xabardorligini ayon etgan: "Zamonamizning tijorati, raqobati, idorasi va siyosatidan, ehtiyoji va zaruratidan, urushi va talashidan xabar va ma'lumot Mirzo Bedil yoki Hofizda yo'q. Bularni bilish kerak bo'lsa, "Iqbol", "Tarjumon", "Vaqt", "Turk yurdu" va boshqalarni o'qimoq lozim. Agar kerak bo'lmasa, boshingizni yuqori ko'tarib, yulduzlarga, sayyoralarga boqqaningizcha turavering! Lekin "adabiyotni" yondirmang – ayb". Olim Z.Abdirashidov "Ismoilbekning Cho'l-

pon savoliga bergan javobi naqadar keskin, naqadar teran, naqadar tushunarli. Bu bilan I.Gasprinskiy islom olami, musulmonlar uchun yangilanish, yangi adabiyotni mutolaa qilish qanchalik zarur ekanini qadimchilarga yana bir bor uqtirdi, deya xulosa qiladi. Haqiqatan, Turkiston musulmonlari uchun yangi adabiyot zarurmidi? Albatta, zarur va muhim edi. Bir paytlar ilm-u urfon darbozasi bo'lgan bu muqaddas zamin jaholat botqog'ida dunyo tamaddunidan ortdi qoldi. Shu bois, mustabidlik, zulm va zo'ravonlik qurboniga aylandi. Adabiyot esa millat ruhiyatining poklanishi, milliy matbuot esa "Adabiyotning vazifasi mamlakat ehtiyojotini kuzatmak va maydonga chiqarub qo'ymak, eng muhim mavzularni aholi nazariga arz etmak" ekanini juda to'g'ri ko'rsatib berdi: "Mumkin qadar fikrsiz xalq ishiga aralashub muloyimona nasihatlarda bo'lub va millatning eng qorong'u burchaklariga ketub nurli chirog' bo'lub millatning jarohatli uzvlariga da'vo solish" ga chaqiradi [Jalolov, 1993:82]. Yirik jadidshunos olim Begali Qosimov o'zining "Milliy uyg'onish" kitobida: "Jamiyatni tarbiyalashda adabiyotning buyuk rolini jadidlarimiz yaxshi anglagan", deb yozadi [Qosimov, 2002:123]. Bu fikrlar, shubhasiz, I.Gasprinskiy o'z izdoshlariga ilg'or g'oyalarini anglata olganidan dalolat beradi. 1914-yilda "Sadoyi Turkiston" gazetasida Cho'lponning o'sha mashhur "Adabiyot nadur?" maqolasi behuda dunyo yuzini ko'rmadi.Yosh qalamkash ustoz saboqlaridan atrofga o'zgacha nigoh, teran mushohada bilan qaray boshladi. U adabiyot bahonasida Turkistonning istiqboli haqida qayg'uradi, xalqning kelajagini ta'minlaydigan omillar to'g'risida mulohaza yuritadi: "Tanimizga suv, havo ne qadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdur. Adabiyot yashasa – millat yashar" [Abduazizova, 2000:137]. Gazeta 1914-yilgi 3-sonida "Idoraga maktub" ruknida 15 yoshli Cho'lponga oq yo'l tilaydi. "Turkistonli qardoshlarimizga" nomli she'rini chop etadi. Cho'lpon kabi yoshlarni "Millatning saodati, rivoji va taraqqiysi uchun tug'ilgan qahramonlar", deb ataydi. Haqiqatan ham, yosh Cho'lponning "Adabiyot nadur?" maqolasi uyg'onib kelayotgan Turkiston bolalarining kurashchan shijoati va teran idroki bilan hamnafas edi. Cho'lpon yozadi: "Adabiyot, chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qoralangan, o'chgan, majruh yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas,

qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladurg'on chang va tuprog'lar to'lgan ko'zlarimizni artib tozalaydurg'on buloq suvi bo'lg'onligidan bizlarga g'oyat kerakdur". Bu fikrlar o'z davri, nafaqat o'z davri, balki bugungi milliy mustaqillik davrida yashayotgan yangi avlod uchun ham zarurdir. Cho'lpon haqli ta'kidlaganidek: "Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotning taraqqiysiga cholishmagan va adiblar yetishdirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur". Ushbu jumlalar, internet tarmog'i rivoj topgan XXI asrda barchamizni hushyorlikka chorlaydi. Negaki, bugungi avlodimizni ijtimoiy tarmoqlar shaydosiga aylantirib qo'ymoqdamiz. Milliy adabiyot ularni bu falokatdan qutqarishi uchun Ismoil Gasprinskiy ta'kidlagan "zamonamiz siyosati, raqobati, kurashini" aks ettiruvchi, Cho'lpon aytganidek, millat ruhini poklaguvchi, qalbni isloh etguvchi adabiyot zarur. Bunday adabiyot namunalariga moddiy ko'mak, targ'ibotiga ittifoq etmog'imiz juda muhimdir. Millat qaddini, ruhini ko'taruvchi mavzular ijtimoiy tarmoqlarimizda muhokama va tahlil etilsa, ajdodlarimiz ruhi oldida ham o'z burchimizni ado etgan bo'lamiz. Professor Nazira Abduazizova haqli ta'kidlaganidek, jadid matbuoti "Adabiyotni jamiyat yangilanishiga ta'sir qiluvchi g'oyaviy bir kuch, g'oyaviy qurol sifatida tasavvur etdi [Abduazizova, 2000:137]. Shuning uchun ham Abdulla Avloniy: "Maorufdan, funun va madaniyatdan mahrum qolg'on xalq jaholat panjalarining orasida xamir kibi ezilganidek, nodon kishini tirik o'luk deyurlar", deb yozdi ["Sadoyi Turkiston: g., 1914, 18 iyun]. Milliy matbuot mana shunday "tirik o'luklar"ga qarshi kurashdi, u adabiyot ham shu g'oyaga xizmat qilishi shart deb talab etdi. Jadid ma'rifatparvarlari milliy adabiyotni real voqealikda, jamiyat hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy, madaniy o'zgarishlar talqinida ko'rdi. Yoziladigan har bir asar xalq turmushining yaxshilanishiga, o'quvchi ongi, tafakkurida ilg'or g'oyalarni kamolga yetkazishga xizmat qilishi zarur deb hisoblagan. Shuning uchun ham ijtimoiy hayotdagi kamchiliklarni badiiy asar vositasida fosh etishdek mas'uliyatni ular yuksak baholagan: "Imzosiz, chuvalangan, ma'nosiz va uzun" asarlar joyi jarida emas, "sabatdur", deya qat'iy talab qo'ygan ["Sadoyi Turkiston" g., 1915-

yil, 63-son]. Jadid ma'rifatparvarlarining milliy taraqqiyotimiz uchun muhim bo'lgan ilg'or g'oyalaridan o'rinli va unumli foydalanishimiz zarur. Zero, "Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot – xalqning yuragi. – T.: Adabiyot nashriyoti, 2021.
2. Ismoil Gasprinskiy va Turkiston. – T.: Sharq nashriyoti, 2005.
3. Andijondan bo'lgan savolga javob // "Tarjimon", 1913-yil 27-noyabr.
4. Jalolov A., O'zganboyev H. O'zbek ma'rifatparvar adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o'rni. –T.: Fan, 1993.
5. Qosimov B. Milliy uyg'onish. –T.: Ma'naviyat, 2002.
6 .Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi. –T.: Akademiya, 2000.
7. "Sadoyi Turkiston". 1914, 18 iyun.
8. "Sadoyi Turkiston", 1915-yil, 63-son.

ТУРКИСТОН ДИНИЙ-МАЪРИФИЙ МАТБУОТИ САҲИФАЛАРИДА ЖАДИД АДАБИЁТИ НАМУНАЛАРИ

Мурод ЗИКРУЛЛАЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи директорининг илмий ишлар бўйича ўринбосари.
Телефон: 998 90 942 92 35, E-mail: mzf1974@rambler.ru
(Ўзбекистон)

Аннотация: Маълумки, XX аср бошларидаги Туркистон тарихининг ҳаққоний манзарасини ёритишда ўша даврда миллий зиёлилар, маърифатпарвар жадидлар томонидан чоп этилган матбуот нашрлари – газета ва журналлар бирламчи манба сифатида муҳим аҳамият касб этади. Хусусан, XX асрда Туркистонда вужудга келган ва янги замон миллий адабиётимизнинг шаклланишида тамал тоши вазифасини ўтган жадид адабиёти вакиллари учун ҳам вақтли матбуот ўз ижод намуналарини кенг халқ оммасига тақдим этишларида ўта самарали восита вазифасини ўтаган. Мазкур мақолада, XX аср бошларида тараққийпарвар уламолар, "Уламо" ҳамда "Фуқаҳо" жамиятлари томонидан чоп этилган диний-маърифий йўналишдаги "Ал-Ислоҳ", "Ал-Изоҳ", "Изҳор-ул-ҳақ", "Баён-ул-ҳақ" журналларида эълон қилинган жадид шеърияти намуналари мухтасар таҳлил қилинган. Бир қатор жадид адабиёти намояндаларининг диний-маърифий, ижтимоий-сиёсий мавзулардаги шеърларига оид маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: Туркистон, жадидлар, адабиёт, матбуот, "Уламо" жамияти, "Фуқаҳо" жамияти, "Ал-Ислоҳ", "Ал-Изоҳ", "Изхор-ул-ҳақ", "Баён-ул-ҳақ", ҳуррият, миллий давлатчилик, диний маърифат.

Annotation: As it is known, the press publications – newspapers and magazines – published by national intellectuals and enlightened Jadids of that period play an important role as primary sources in shedding light on the true picture of the history of Turkestan in the

20th century. In particular, the contemporary press served as a very effective means of presenting their creative works to the broad public, for representatives of modern literature, which emerged in Turkestan in the 20th century and served as a cornerstone in the formation of our modern national literature. This article briefly analyzes examples of Jadid poetry published in the religious-enlightenment journals "Al-Islah", "Al-Izah", and "Izhar-ul-Haq", "Bayan-ul-haq" published by progressive scholars, "Ulama" and "Fuqaha" societies in the 20th century. Information is provided on the poems of a number of Jadid literary figures on religious-enlightenment, socio-political themes.

Key words: Turkestan, Jadids, literature, press, "Ulama" society, "Fuqaha" society, "Al-Islah", "Al-Izah", "Izhar-ul-Haq", "Bayan-ul-haq" freedom, national statehood, religious enlightenment.

Туркистон миллий матбуоти XX аср бошларидаги ўлка ижтимоий-маънавий ҳаётидаги янгиланишларнинг ўзига хос бир кўриниши сифатида намоён бўлди ва миллатнинг уйғонишида муҳим роль ўйнади. Зеро, миллий газета ва журналлар ўзбек миллати учун илм-маърифат ва тараққиёт жарчисига айланди, миллат бирлиги, ислоҳот ва тараққиёт, диний маърифат учун фаол тарғиботчилик вазифасини бажарди.

Таъкидлаш жоизки, Туркистон матбуоти ўлка аҳолисининг турмуши, бу ердаги диний аҳвол, одамларнинг турли хурофотларга берилиб кетгани ва миллий тараққиёт билан боғлиқ масалаларни кўтариб чиқди ва уларнинг ечимини топишга интилди [Қосимов, 2002:36]. "Садойи Туркистон" газетасининг фаол мухбирларидан бири Абдурауф Музаффарзоданинг таъбири билан айтганда, "Миллатда бўлган қўрқинчли касалларни ҳар вақтда маъояна[4] қилиб, аларға шифо изламак миллий матбуот вазифаси"га айланди.

Бу борада Туркистоннинг диний-маърифий нашрлари бўлган "Ал-Ислоҳ", "Ал-Изоҳ", "Изҳор-ул-ҳақ", "Баён-ул-ҳақ" журналлари ўз саҳифаларида диний ва дунёвий масалаларни ёритгани билан Ўзбекистон тарихини ўрганишда муҳим аҳамият касб

[4] Маъояна – аён қилмоқ, аниқламоқ

этади. Бинобарин, мазкур журналлар саҳифаларида Туркистон халқлари тарихидаги муҳим воқеаларга оид муносабат ёритилган бўлиб, уларни тадқиқ этиш тарихимизни мукаммалроқ билишга ёрдам беради.

Мақоланинг асосий мазмунига ўтишдан аввал юқорида зикр этилган журналлар хусусида қисқа маълумотлар бериш, албатта, ўринлидир.

Улардан дастлабкиси – "Ал-Ислоҳ" журнали Абдураҳмон Сайёҳ ва Мунаввар қори Абдурашидхоновлар ташаббуси ва саъй-ҳаракати билан илк бор 1915 йил 14 январда Тошкент шаҳрининг Ўрда даҳасида Г.Я.Яковлев типо-литографиясида чоп эттирилди. Журнал араб имлосидаги эски ўзбек тилида, 1915–1918 йиллар мобайнида чиқиб турди.

Журнал муаллифлари: Абдураҳмон Сайёҳ, Васлий, Олимхон Тўра, Садриддинхон Аълам, Ҳамза Ҳакимзода, Фазлулваҳҳоб қори ва бошқалардир.

Ўз даврининг йирик уламолари имом Лутфулла Фахриддинов, Мубашширхон Маҳдум, Муҳаммад Ализода Тошкандий, Саййид Аҳмад Васлий, Муҳаммад Сафо Маҳдум, Мулла Олимхон, Абдаширҳожи, Иброҳим Тоҳирий, Зафархон Маҳдум, Муҳаммад Қосимхожи, Ашурали Зоҳирийлар журналда ўз мақолалари билан фаол иштирок этганлар.

"Ал-Ислоҳ" ўз саҳифаларини қизиқарли, ўқимишли қилиш учун барча усуллардан фойдаланди. Шундай бўлишига қарамасдан у ўз фаолиятини узоқ давом эттира олмади. «Ҳурриятдан сўнг бир оз давом этуб, маънавий ва моддий жиҳатлар сабаби ила бекитилди ["Жамият ва бошқарув", 1998:№2]». "Ал-Ислоҳ" қисқа умр кўрган бўлса-да, Туркистон ижтимоий-сиёсий, диний-маърифий ҳаётида муҳим ўрин эгаллай олди.

1917–1918 йилларда Тошкентнинг "Уламо" жамияти томонидан нашрдан чиқарилган "Ал-Изоҳ" журнали ҳам Туркистоннинг ижтимоий-сиёсий, маданий ва диний ҳаётини ўрганишда муҳим манбалардан бири саналади.

Журналнинг тўлиқ номи "Ал-изоҳул маромий ликулли аномий" бўлиб, барча инсонларга шариат ҳукмлари бўйича батафсил, маромига етказиб изоҳ берувчи, деган маънони англатади.

Унинг ноширн ва масъул мудири Абдумалик ҳожи Абдунабиев эди. Журналнинг биринчи сони 1917 йил 19 июнда чиқди. У Тошкентдаги Ғулом Орифжонов босмахонасида тошбосма усулида, араб алифбосига асосланган эски ўзбек тилида чоп этилган. 1917 йилда унинг 20 та сони (1-20-сонлари) ва 1918 йилда 11 та сони (21-31-сонлари), жами 31 та сони нашр этилган.

Журнал ўз саҳифаларида даврнинг долзарб муаммоларини, диний-аҳлоқий, сиёсий, маданий, иқтисодий ва ижтимоий масалаларни ёритиб борди ["Ўзбекистон тарихи" ж.,1999 №4:26].

Афсуски, 1918 йил май ойида Туркистон Совет Республикасининг Халқ комиссарлари совети қарори билан тугатилди.

Қисқа таҳлилий маълумот бермоқчи бўлган навбатдаги нашр 1918 йил 10 августда Тошкентда ташкил этилган "Фуқаҳо" жамиятининг расмий органи бўлган ҳафтада бир марта чиқадиган диний, илмий, адабий, сиёсий нашри – "Изҳор-ул-ҳақ" журналидир.

Журналнинг биринчи сони 1918 йил 20 февралдан чиқа бошлаган. Унинг ноширн ва масъул мудири Мулла Садриддинхўжа муфтий Ибн Шарифхўжа Эшон эди. Бу журнал ҳам "Ал-Ислоҳ" ва "Ал-Изоҳ" сингари ўз саҳифаларида даврнинг долзарб муаммоларини, диний-ахлоқий, сиёсий, маданий, иқтисодий ва ижтимоий масалаларни ёритиб борди. Шунингдек, унда ўзбек тилида турли мавзулардаги шеърлар, эълонлар, савол-жавоблар, турли кўринишдаги ташаккурномалар ҳам чоп этилган.

Журналнинг 15 та жузъи "Изҳор-ул-ҳақ" номи билан чоп этилган ва 15-жузъдан сўнг "Баён-ул-ҳақ" деб ўзгартирилган. Кўп ўтмай ушбу журналнинг чоп этилиши ҳам ман этилган.

Туркистоннинг ушбу матбуот нашрларида даврнинг долзарб ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий муаммолари, маданий-маърифий, диний-ахлоқий масалалар ёритиб борилган. Журналларнинг адабиёт саҳифаларида эълон қилинган жадид шеърияти намуналари эса алоҳида эътиборга лойиқдир. Бинобарин, жадид адабиёти XX асрнинг бошларида ўзбек халқининг миллий ва сиёсий манфаатларини ифода этиб, Туркистондаги ҳаётнинг турли соҳаларини, ўлкада рўй бераётган ижтимоий-сиёсий, иқтисодий жараёнларни ва маданий воқеаларни ёритишда, айниқса, миллий онгнинг уйғониши ва жамият тараққиётида муҳим рол ўйнади.

Ушбу журналлар саҳифаларида Сирожиддин махдум Сидқий, Васлий Самарқандий, Тавалло, Исҳоқхон Ибрат, Сидқий Хондайлиқий, Тошкандий Камий, Шукрий Шариф, Ғурбатий сингари қатор шоирларнинг ижод намуналари эълон қилинган. Мазкур таниқли шоирлар билан бирга ўша даврда ижод этган, бироқ ижоди атрофлича ўрганилмаган мулла Содиқ Иймонқулий, Мубашширхон Маҳдум ал-Башарий, мулла Муҳаммад Юсуф (Рамзий) Тошкандий, Ал-Муътариф мулла Абдулқодир Тошкандий сингари шоирларнинг турли мазмундаги шеърлари берилган.

Жадид шоирлари ушбу журналларнинг чиқишини қутлаб ўзига хос шеърий табриклар битганлар. Бу шеърларда эса нашрнинг моҳияти, мақсади ва вазифалари, жамият учун қай даражада зарурият экани каби сифатлар тараннум қилинган.

Жумладан, “Ал-Ислоҳ” журналининг 1915 йил 14 январдаги 1-сонида чиққан тожик тилидаги “Тарихи таасиси мажаллаи мубажжалаи Ислоҳ аз Мулла Саййид Аҳмад Васлий мударрис Самарқандий” [29-саҳифа] номли шеърда журналнинг очилиши, унинг моҳияти, Туркистон аҳлини турли масалаларда ислоҳ қилиш мақсад қилингани ҳақида таърифу тавсиф берилган.

Шу сонда “Тарихи ҳурри муфт шудан мажаллаи Ислоҳаз табъизод мулозими идораи ислоҳ хидматгорзор уламои дини мубаййин камтарин Сирожиддин махдум Сидқий Искандарий Хондайлиқий табъаи Тошқанд” номли тожик тилидаги шеъри [31-саҳифа] ҳам “Ал-Ислоҳ” журналининг очилиши билан боғлиқ, шоир Тошкандий Камийнинг “Тарихи ҳувайдо шуд Ислоҳ аз мулла Камий Тошкандий” шеъри [30-саҳифа] ҳам айнан шу мазмундадир.

“Ал-Ислоҳ” журналининг 1915 йил 3 мартдаги 4-сонида “Муҳтарам қози Исҳоқхон тўра Ибратдан Ислоҳға” сарлавҳали шеър эълон қилинган [128-саҳифа]. Шеърнинг муаллифи унинг номида аён бўлади. Қуйидаги мисралардан бу шеър ҳам “Ал-Ислоҳ” журналига бағишлангани англашилади.

Аҳли Туркистон бу кунда шукр бе ислоҳ эмас,
Интишори маърифат хаттида бе ислом эмас.
Миллатимизда маориф ўрниға ваҳшат эди,
Маданият таълимин эткай энди бе иншо эмас.

Боби канз маърифат[5] бизлар учун масдур[6] эди,
Фотихи йўқ эрди фатхи боби нусратда эмас.
Кўрдим Ал-Ислоҳ журналин чиқибдур Шошдан,
Шукрлар айтдим йўлиндан халқ бепарво эмас.
Маслакин кўрдим шариатдин тажовуз этмаган,
Халқни ислоҳа тарғиб айлаган бадҳаво эмас.

Сирожиддин махдум Сидқий эса "Ибрози садоқат" шеърида "Ал-Изоҳ" журнали васфини келдиради:

Шукри Аллоҳ чиқди бул ҳангом "Изоҳ-ул маромир",
Қилди тангрим бизлара инъом "Изоҳ-ул маромир".
Хизмати шаръи набийда кўргузуб саъйи балиғ,
Ботил ишни айлагай иъдом (нобуд) "Изоҳул маромир".

Журналга самимий тилак, ишига муваффақиятлар, унинг тўлиқ номи "Ал-изоҳул маромий ликулли аномий" бўлгани ҳам ушбу шеърдан англашилади.

То қиёмат ҳуррият майдонида сайр айласун,
Қолмасун ғам бирла андардом "Изоҳул маромир".
Эй закоат аҳли ҳар шаҳар ва қурода олубон,
Айлангизлар иззату икром "Изоҳул маромир".
Тошканд олимларин жамияти билиттифоқ,
Қўйдилар топиб муносиб ном "Изоҳ-ул-маром" ["Ал-Изоҳ", 1917:№4:62].

"Изҳор-ул-ҳақ" журналининг 1918 йил 21 мартдаги 5-сонининг эълонлар қисмида "Шоир, муҳаррир ва котиб жамияти тарафидан эълон" сарлавҳали шеърий эълон берилган. Муаллиф сифатида "Иҳтиром ила "Шоир, муҳаррир ва котиблар жамияти" аъзоси, Мулла Сирожиддин Махдум "Сидқий" Хондайлиқий", деб қайд этилган.

Сизлара мужда ўлсин эй миллат,
Котиб ва шоир очти жамият.
Тушубон ўртага муҳаррир ҳам,
Бўлдилар иттифоқ аҳли қалам.

Аввалambор, Тошкентда 1918 йилда бундай жамиятнинг очилгани қизиқ бир факт. Иккинчидан, очилгани тўғрисидаги эълон-

[5] Маърифат хазинаси эшиги
[6] Ёпиқ, пардаланган

нинг бу каби шеърий йўл билан оммага маълум қилиниши ҳам қизиқ ҳол.

Маълумки, жадидчилик ҳаракатининг бош ғояси миллатни маърифатли, илмли қилишдан иборат эди. Бунинг учун, албатта, биринчи галда, таълимни ислоҳ қилиш зарур бўларди. Мазкур даврнинг долзарб масаласи ҳам жадид шоирларининг ижодини четлаб ўтмаганини икки мисол билан далиллаймиз. Василий Самарқандийнинг "Ал-Ислоҳ" журнали 1915 йил 15 сентябрдаги 17-сонида чиққан "Ислоҳи тадрис ҳақинда" шеъри [514–516 саҳифалар] мактаблардаги дарс жараёнини янгилаш замирида қанчалик муҳим иш ётганини таъкидлайди.

Эй фазилат аҳли, айлангиз баёни ислоҳи дарс,
То баёнингиз илан ўлғай аён ислоҳи дарс.
Сарфи илму фазл учундур бўстон ислоҳи дарс,
Жисму дину шаръға албатта жон ислоҳи дарс.
Юлдузи ислом учундур осмон ислоҳи дарс,
Ҳуру ғилмон тараққийиға жанон ислоҳи дарс.
Дарс ҳосил айлағай кўнгиллар ичра тоза руҳ,
Дарси ислоҳ бўлмаса, ўлмас биза файзу футуҳ.

Шаҳрихонлик Мулла Ҳошим Муҳаммад Солиҳ махдум ўғли ўзининг "Инсоф ва истинсоф" номли шеърида эса янги ва эскича таълим можаросига нисбатан фикр билдирилади. "Ал-Ислоҳ" журналининг 3-жилди 16-сонида босилган мазкур шеърда [494–495-саҳифалар] муаллиф янги усул мактабларининг ташкил этилишига монелик қилаётган, эскича таълим тизимининг сақланиб қолишидан манфаатдор бўлган кимсаларга мурожаат қилиб, жадид мактабларига бориб ўқитиш шароитлари, дарс жараёнларини кўришларини, камчиликлар бўлса, танқидий фикрларини билдириб, ҳамжиҳатликда бартараф этишда кўмакдош бўлишларини сўрайди. Агарда бу масалада иккига бўлинса, ҳолимиз хароб, машфваратда ислоҳ қилинса, саодатимиз бўлишини изҳор этади:

Таъарриз айлангиз холисан эрур бу сўзим,
Бу ишни ўрниға йўқму бўлак муаммоси.
Ўқушка ики бўлунсак, на бўлғуси аҳволи,
Ким анда олғуси бўлса ҳуқуқ Шўроси.

Шикоят айлама Ҳуррият ҳамиша бу мунвол
Бўлуб тамомиға еткай Худони дунёси.

Юқорида қайд этилганидек, “Ал-Ислоҳ”, “Ал-Изоҳ”, “Изҳор-ул-ҳақ”, “Баён-ул-ҳақ” журналлари Туркистон миллий матбуотидаги диний-маърифий йўналишдаги нашрлардан бўлгани учун диний-ахлоқий мавзулардаги шеърлар ҳам чоп этиб борилган. Хусусан, “Ал-Изоҳ” журналининг қатор сонларида Сирожиддин махдум Сидқийнинг “Таронаи ислом”, Ғурбатийнинг “Муножот”, Абдулқодир Тошкандийнинг “Шариатга иқболи саодат ва андин иърозу шақоват” каби шеърлари шулар жумласидандир.

Хусусан, Васлий Самарқандий “Ал-Изоҳ” журналининг 1917 йил 22 октябрдаги 14-сонида эълон қилинган “Намоз ҳақинда” номли шеърида ислом динининг беш арконидан бири бўлган намознинг афзалликлар баён қилинади. Шоир намоз “ҳар ёмонликни қилғудур нобуд” яна “банданинг хулқини қилар зебо”, деб ёзади.

Ўз шеърини:

“Ўлур обод олами ислом,
Эр-хотин ўқусалар намоз.
Васлий ўз тажрибаси ила деюр,
Боиси ислоҳ ҳар диёр намоз”, деган сатрлар билан якунлайди.

Маълумки оила, никоҳ масаласига ислом ақидаларида алоҳида эътибор берилади. Васлийнинг “Ал-Изоҳ” журналининг 1918 йил 6 январдаги 20-сонида босилган “Никоҳ ҳақинда” номли ғазалида никоҳнинг исломий ақида бўйича моҳияти, эркак ва аёл орасидаги муқаддас ришта экани, авлодлар тарбияси учун ўта зарур омиллиги баён қилинади:

Ҳазрати Ҳақ жонибидан бандаға неъмат никоҳ,
Кетма-кет навъи башар ибқосиға ҳикмат никоҳ.
Шаръи анвар айлади тарбияти авлод учун,
Эр-хотун ўртасиға риштаи суннат никоҳ.

Мазкур журналларнинг адабиёт саҳифасидаги шеърларда 1917–1918 йилларда Туркистонда кечган мураккаб сиёсий жараёнлар, ижтимоий ҳодисалар, ўлка халқининг бошига тушган фожеаларга муносабат ҳам ўз аксини топган.

Сайидаҳмад Васлий Самарқандийнинг “Ер ва сув ҳақида”

номли ғазали ана шундай ижтимоий-сиёсий воқеалардан бири таъсирида ёзилган, десак муболаға бўлмайди. Мазкур ғазал "Ал-Изоҳ" журналининг 1917 йил 11 декабрдаги 18-сонида босилган.

Маълумки, 1917 йилда зўравонлик билан ҳокимиятни эгаллаган большевиклар томонидан хусусий мулкчиликни йўқ қилиш сиёсати юритилган. Мазкур жараён этиқодлари бўйича дахлсиз деб ҳисоблаган хусусий мулкларини, оилалари учун тирикчилик манбаи бўлган ер сувларини ўзгаларга беришни истамаган деҳқонларнинг кучли норозилиги ва қаршилигига сабаб бўлган.

Фикримизча Васлий "Ер ва сув" ғазалини айнан ушбу жараёнга муносабат тарзида ёзган.

Ер ва сувни ғайрға бермак раво эрмас, маҳол,
Ким берур боиси бақойи жавидондур ер ва сув[7].
Ер ва сув бўлмас эса қайдан бўлур деҳқончилик,
Ҳар нечук оламға мисли жисму жондир ер ва сув.

Сирожиддин Маҳдум Сидқийнинг "Изҳор-ул-ҳақ" журналининг 1918 йил 20 февралдаги 8-сонида эълон қилган "Қимматчилик ҳақинда муножот" шеърида ҳам Туркистонда ўша даврда кечган яна бир аянчли аҳвол – очарчилик балоси ёритилган.

Қилди замона аҳлини ҳайрона қимматчилик,
Ҳар кўчаларда айлади гирён қимматчилик.
Танг айлади ва қилди бағир қон қимматчилик,
Солди жаҳонга турфа бир афғон қимматчилик.
Қўйди маъишат ўрнига тўфон қимматчилик,
Ҳар гўшаларда англашулур оҳ ила фиғон,
Ёш болалар фиғон ила дер, яъни оҳ, нон,
Бир пора нонни ҳажрида сарғорди чун хазон,
Ё Раб, замона офатидин эмди бер омон,
Ким топар унурга қўймади дармон қимматчилик.

Сидқийнинг "Сайловга даъват" номли шеъри эса унинг Туркистон жамиятининг сиёсий ҳаётига кўп жиҳатдан таъсир кўрсатган йирик ижтимоий-сиёсий воқеалардан бири – 1917 йилнинг июль-сентябрь ойларида ўтказилган шаҳар Думасига сайловлар-

[7] Ушбу мисрада шоир ер ва сувни ғайрлар (ўзгалар)га бериш раво кўрилмайдиган қийин иш эканини, берган кимсалар эса гўёки ўзларининг абадий дунёларини берилишига сабабчи бўлишларини таъкидлайди.

га бўлган муносабатини ифодалайди. Сидқий ушбу тадбирнинг нақадар муҳимлигини таъкидлаб, халқни ўз ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилмоқ учун сайловларда фаол иштирок этишга чақиради. Бу ишда сустлик қилинса, бирдамлик билан ҳаракат қилинмаса, келажак авлоднинг тақдири аянчли бўлишини куйинчаклик билан ёритади:

Эшитмоқдасиз ушбу сайлов ишин,
Етушти бу иш фурсати бас яқин,
Келингизлар етиб тоғ ила боғдан,
Бу сўзга қулоқ солинг, эй аҳли дин.
Керак ушбу вақт ичра олмоқ ҳуқуқ,
Деманг-ким бу ишни қилурмиз кейин,
Бу иш ўтса, йўқтур қазоси анинг
Ки, авлодимизға бўлур иш қийин ["Ал-Изоҳ". 1917: №4].

Юқорида келтирилган мисралар маъносига ҳамоҳанг тарзда Шукрий Шариф ўзининг "Ихтилоф" радифли ғазалида ўша даврдаги зиддиятли вазиятни, тараққийпарвар зиёлилар билан ислом аҳкомлари ва шариат қонунларининг софлигини сақлашга ҳаракат қилган уламолар ўртасидаги муросасизлик, ўзаро ихтилофнинг салбий оқибатларини тасвирлаб қуйидагича ёзади:

Оҳким, оламда этди бизлари хор ихтилоф,
Этмади ислом аҳлини бир-бира ёр ихтилоф.
Бирин саъйига бири монеъ этуб ҳар лаҳзаи,
Этди бу дам бизни ҳажв аҳли куффор ихтилоф.
Бирни эски фикр ва бирни янги фикр исми ила,
Икки муслимни этар бир-бирига ағёр ихтилоф.

Мазкур шеърий мисраларни ўқиб, таҳлил қилиш натижасида нафақат муаллифнинг қалб туғёнларини, балки халқнинг турмуш-турмушини, орзу-истакларини, ижтимоий-сиёсий жараёнлар ифодасини кўришимиз мумкин.

Хулоса ўрнида шуни қайд этиш лозимки, матбуот XX аср бошларидаги Туркистон ижтимоий-маънавий ҳаётидаги янгиланишнинг ўзига хос бир кўриниши сифатида намоён бўлди ва миллатнинг уйғонишида муҳим рол ўйнади. Шу боис бўлса керак, ислоҳотчилик ғояларининг тарқалиш манбалари бўлиб, матбуот хизмат қилган, десак, янглишмаган бўламиз. Бу ўринда

эса “Ал-Ислоҳ”, “Ал-Изоҳ”, “Изҳор ул-ҳақ” журналлари мусулмонларнинг диний-маърифий савияларини тараққий эттиришда, ислоҳотчилик ғояларини тарғиб қилишда катта рол ўйнаган.

Ўйлаймизки, Туркистон тарихини ёритувчи асл манбалар сирасига кирувчи мазкур журналлар саҳифаларидан ўрин олган шеърларни ўқиб-ўрганиш адабиётшунос, тилшунос, тарихчи мутахассислар билан бирга ўзбек шеъриятига қизиқувчи кенг китобхонлар учун ҳам фойдали бўлади.

Мазкур шеърларни мазмунан тадқиқ этиш фақатгина XX аср бошларида Туркистондаги шоирларнинг ижодини ўрганиш эмас, балки ўша даврдаги бир қатор тарихий воқеаларнинг ҳаққоний манзараларини аниқлашга хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Б. Қосимов. Миллий уйғониш. – Тошкент, 2002.
2. Чўлпон. Туркистонда матбуот // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 1998. -№2.
3. Т. Қозоқов: “Ал-Изоҳ” тарихий манба сифати”, “Ўзбекистон тарихи” журнали, – Т., 1999 йил, 4-сон.
4. Сирожиддин махдум Сидқий. Ибрози садоқат // “Ал-Изоҳ”, 1917 йил 15 июль. 4-сон.
5. Сирожиддин Сидқий. Сайловга даъват // “Ал-Изоҳ”. 1917 йил 15 июль. №4.

"MAORIF VA O'QITG'UVCHI" JURNALIDA SHE'RIYAT

Gulzoda SOATOVA

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi
soatovagulzoda001@gmail.com, +998977496984
(O'zbekiston)

Rezyume. Maqolada "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida nashr etilgan she'rlar statistikasi va ularning qisqacha annotatsiyali bibliografiyasi keltiriladi. She'rlar mavzu jihatidan tasniflangan. Shuningdek, "Dala yo'llaridan", "Turmushmi bu?", "Dengiz", "Adabiyot", "Telefon", "Munozara", "Mashina" kabi she'rlarning tahliliga ham to'xtalib o'tilgan, shaxsiy mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar. "Maorif va o'qitg'uvchi", she'rlar, Elbek, Kazbek, Elburs, paranji, erk.

Resume. The article presents the statistics of the poems published in the "Maarif va okitguvchi" magazine and their brief annotated bibliography. Also, the analysis of such poems as "Field Roads", "Is this Life?", "Sea", "Literature", "Telephone", "Discussion", "Machine" were discussed, and personal comments were made.

Keywords. "Maarif va okitguvchi", verse, Elbek, Kazbek, Elburs, parandji, freedom.

Резюме. В статье представлена статистика стихотворений, опубликованных в журнале «Маариф ва окитгувчи», и их краткая аннотированная библиография. Также был обсужден анализ таких стихотворений, как «Полевые дороги», «Жизнь ли это?», «Море», «Литература», «Телефон», «Дискуссия», «Машина», и даны личные замечания.

Ключевые слова. «Воспитатель и тренер», стихи, Эльбек, Казбек, Эльбурс, паранджи, свобода.

XX asr 20-yillaridagi boshqa vaqtli matbuot nashrlariga qaraganda "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida adabiyot materiallari hajm jihatidan

ko‘pligi bilan ajralib turadi. “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 1925–1929 yillarida Cho‘lpon, N.Rahimiy, Elbek, G‘ulom Zafariy, Rahim Ali, Abdulla Alaviy, Botur, Bektosh, Oydin, G‘ayratiy, Hamid Olimjon, Shokir Sulaymon, Botu, Oltoy, Gulbek, Mirtemir, Uyg‘un, Said Ahroriy, Majidiy, M.Alaviya, Mirhodiy, Yashin, Yo‘qsil, Oybek, I.Usmoniy, Nodi Mirza kabi ijodkorlarning nasriy va nazmiy asarlari nashr etilgan. Nazmiy asarlar 189 ta (7 tasi tarjima) bo‘lib, ular ma’rifiy, tabiat tasviri, vatan tuyg‘usi, ayollar ozodligi singari turli mavzulardadir. Mazkur she’riy asarlarning muallifi va ularning qisqacha annotatsiyasiga to‘xtalishga harakat qilamiz.

Ushbu jurnalda chop etilgan adabiy asarlar tasnifiga o‘tishdan oldin, shuni aytib o‘tish kerakki, bu adabiyot namunalarining barchasi ham yuksak badiiyat talablariga javob bera olmaydi. Shundan kelib chiqib, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalidagi adabiyot materiallarini badiiy saviyasiga ko‘ra ikki guruhga tasnif etish mumkin. Birinchisi badiiyat, g‘oya jihatidan nomukammal asarlar, ikkinchisi badiiyat va g‘oya jihatidan mukammal asarlar. Birinchi yo‘lga mansub asarlar ijodkor bo‘lmagan, adabiyotdan uzoq va havaskor hamda o‘qituvchilar tomonidan yaratilgan asarlardir. Bunday asarlarga F.Rahmonning “Nash’ali damlar” she’ri, “Chin turmushg‘a endi chiqdim” hikoyasi Hasan Sodiqning “Suyun endi sen” she’ri, Sabohatoyning “Istagim” she’ri, Rukniddinning “Bahor” she’ri, Tangriberdining she’riy parchalarini kiritsak bo‘ladi. Bu she’rlarning asosiy qismini inqilob sabab ozodlik va hurlikka erishish g‘oyasi tashkil etadi. Zero, ilk inqilob davrida zabt etilgan davlatlar anchagina erkin edi.

G‘oya va badiiyat jihatidan mukammal asarlarga Cho‘lponning “Ulug‘ hindiy”, “ Tagur va tagurshunosliq” nomli maqolalari, “Bahorni sog‘indim”, “Kuz yomg‘iri”, “Zangbu” kabi she’rlari, Elbekning “Sham”, “Kapalak”, “O‘tmishim” kabi she’rlari va “Qishloqqa sayohat” hikoyasi, Botuning “Yaralangan qush”, “Adabiyot”, “Haqiqat” she’rlari, N.Rahimiyning “Suv”, “Kelingiz”, “Qish manzaralari” she’rlari, Bektoshning “Ko‘rsam”, “Ayriliqda” “Istamas” kabi taniqli ijodkorlarning asarlari kiradi. Ayniqsa, bu jurnal Cho‘lpon, Elbek, Botu, N.Rahimiy, Bektosh, A.Alaviy kabi adabiyot namoyondalarining yuksalishi, sayqallanishi uchun zamin yaratdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jurnalda keltirilgan she'rlarni mavzuiga ko'ra quyidagicha tasnif etish mumkin:

a) ma'naviy-ma'rifiy she'rlar; "Yosh ishchilarga "(N.Rahimiy), "Istash" (Cho'lpon), "Erk nima?", "Turmushmi bu?" she'rlari (Elbek), "Adabiyot" (Botu), "Yigirmanchi asr" (Gulbek), "Oy" (Rashid Abdulla).

b) Ijtimoiy-siyosiy she'rlar: "Qutlash" (Oltoy), "Tutqun qizg'a" (Gulbek), "Ozod xotun so'zi" (Botur), "Kurash" (Botu), "Oktyabr arafasida" (A.Alaviy), "Paranji" (Cho'lpon), "O'n bir yil" (N.Rahimiy), "Dengiz" (Mirtemir), "Erk yo'lida" (M.Alaviya), "Yorug' yulduz" (Ibrohim Usmoniy).

v) Maishiy mavzudagi she'rlar: "Kimdan o'rganding, dedingiz" (Bektosh), "Ish" (N.Rahimiy), "Qizlar o'yini" (Oydin), "Dehqon o'g'li" (Botur), "Cho'pon" (Elbek).

g) Tabiat va muhabbatning go'zal his-tuyg'ularini kuylovchi she'rlar: "Tong", "Yog'ochlar, ko'katlar" (N.Rahimiy), "Oqshom" (Bektosh), "Bahor" (Uyg'un), "So'nggi muhabbat" (Sh.Sulaymon), "Yozgi tong" (Mirtemir), "Bahor oqshomi" (Qosimjon Hoshim), "Dala qizi" (Siddiq Salim), "Bahor" (Rukniddin), "Tong" (Yog'du).

Jurnalda jami 5250 misra she'r chop etilgan bo'lib, shulardan 1796 misrasi o'rganilmagan. 1925–1926-yillarda chop etilgan she'rlarning bandlari ancha besaranjom, tartibsiz. Bitta she'rning har bir bandi har xil misralardan tashkil topgan, to'rtlik, oltilik, sakkizlik, hattoki, o'n yettilik, yigirma birlik kabi. 1927-yildan she'rlarning bandlar bo'yicha formasi tartibga solib borilgan, to'rtlik, oltilik shaklida. 1928–1929-yillarda bosilgan she'rlarning band, bo'g'in, misra, ma'no bo'yicha anchagina mukammallashgan. Nashr etilgan she'rlarning deyarli barchasi o'zbekcha, faqat Lermontovning "Munozara", "Yer" she'rlari, S.Churaning "Tog' botiri" she'ri, R.Thokurning "Hoy yo'lovchi qiz" she'ri rus tilidan tarjima qilingan. Shulardan 2 tasi she'riy doston (G'.Zafariy "Yoshlar endi berilmas", "Rashk" N.Rahimiy), 4 tasiy nasriy-sochma she'r (Sh.Sulaymon, "Qul", "Qullikda", "Yukchilar"; S.Rajab, "To'lqin"), 1 ta she'riy parcha (Tangriberdi, "Parcha"), 1 tasi she'riy tarjimai hol (Elbek, "O'tmishim"), 1 ta nazira (G'ayratiy Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga" she'riga nazira bog'lagan), 1 tasi Hodi Zarif tomonidan yozib olingan Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosidagi "Oktabrdi quttayman" qo'shig'idir. Qolganlari har

bandi to‘rt, olti qatordan iborat, asosan, barmoq vaznida yozilgan she’rlardir.

Cho‘lponning “Dala yo‘llaridan” [Маориф ва ўқитғувчи, 1925. № 5-6:93-94] she’ri suvning tilidan jaranglaydi. She’r Andijonda yozilib, ilk bor “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida nashr etilgan. Mazkur she’r Cho‘lponning uch jildlik “Asarlar to‘plami” [Чўлпон, 1994:170] va “Ko‘klam ruhi” [Чўлпон, 2019:143] kitobida ham bosilgan.

Q.Norxo‘jayevning ta’kidlashicha, Cho‘lpon 1926–1927- yillarda “Dala yo‘llarida” deb nomlangan yana bir she’riy to‘plam hozirlagan. Lekin bu to‘plam nashr qilinmasdan qo‘lyozmaligicha qolgan va keyinchalik yo‘q qilib yuborilgan. Bu she’r ham o‘sha to‘plamga kiritilgan namunalardan deb taxmin qilinadi [Чўлпон, 1994:439]. She’rda suv dala yo‘llaridan har bir yaproqni o‘ziga yelpig‘ich qilib, shamolga yuzini tutib oqib borishi, shahar shovqini ichida uning ovozi eshitilmay qolishidan arz qiladi va kimsasiz yerlarga ham tuganmas ma’no baxsh etishi ta’kidlanadi. She’rdagi kimsasiz yerlarga ham tuganmas ma’no baxsh etuvchi suv obrazi go‘yoki Cho‘lponning ozodlik yo‘lidagi metin irodasidir.

Kichkina ariqning pastak shovvasi,
Mayin tovush bilan “shov”lab turadir.
“Ey, qo‘pol shaharning janjal g‘ovg‘asi,
Dala yo‘llarida men bormen” deydir.

Elbekning **“Turmushmi bu?”** [Маориф ва ўқитғувчи, 1926. № 4:18] she’rida esa eski turmushga tanqidiy nazar bilan qarab, yangisini istaganlarni, yosh qizga uylanib, uning ko‘z yoshlarini sababsiz oqizuvchilar qoralanadi. Turmushi mustahkam bo‘lishi uchun qahramonlarcha turmush o‘rtog‘ining yonida bo‘lishi lozimligi obrazlar orqali tasvirlanadi. Muallif she’rda ko‘p xotinlilikka qarshi, bu eskilik sarqiti ekani, turmushni mustahkam saqlash, unga xiyonat qilmaslik haqida kuyunchaklik bilan yozadi. She’r 1926-yilda yozilgan. Shoirning “Tanlangan asarlar”ida [Элбек, 1999:72] uchraydi.

Chin turmush qurmoqni istagan har yosh
Yozuqsiz ko‘zlardan oqizmaydi yosh!
Eskiliklarni buzib chiqishda,
Bo‘lur u ularga qahramon yo‘ldosh!

Oydin (Manzura Sobirova)ning Samarqandda yozilgan **“Bahor**

kechalari" [Маориф ва ўқитғувчи, 1928.№ 5-6:34] she'rida bahor faslining sokin tuni tasvirlanadi. Bu tunda Oyning nuri yorug'ligidan kechami yoki kunduzmi, bilib bo'lmasligi, kuchli tabiat ozod qo'llari bilan borliqni maysalar bilan bezagani, suvlarning shildirashi, maysalarning xushbo'yligi yurakni o'ynatishi, qo'lida ketmon bilan bir bobo kelib, suvning o'ynab oqishidan shodlangani mohirona tasvirlanadi:

Oh, qanday go'zal,
Erkin bu choqlar.
Allalab, kuylar,
Sevib erkalar!

Mirtemirning **"Dengiz"** [Маориф ва ўқитғувчи,1927.№ 7-8:33] she'rida esa dengiz misolida muallif xalqini ko'radi. Jaholat iskanjasida yotmasdan qo'zg'alishi, toshishini, jaholat qal'asini ostiga bosib, zolimlar dunyosini bitirishini so'raydi. Muz ostida, zulm ostida tinch yotavermasdan qaynab, zolimlar kemasini ostiga bosishini istaydi. Ushbu she'r Mirtemirning "Saylanma" va "Tanlangan asarlar"ida uchramaydi. She'r Cho'lponning "Xalq" she'rini eslatadi:

Tinch dengiz, tinch dengiz, qo'zg'al, qo'zg'al, bas!
Ovchilar kemasin irg'it ko'ksingdan.
Yovuzlar dunyosin yo'qot ustingdan,
Ustingda o'ynatma, ost tomong'a bos!

Cho'lpon she'rlaridan ta'sirlanish Mirtemirning "Ana, bog'lar" [Каримов, 2012: 73] she'rida ham uchraydi. Undagi "Kulib turgan shu hayotdan haqqing ol, Sen ham inson, sen ham inson, sen inson!" misralari Cho'lponning "Tiriksan, o'lmagansan, Sen-da odam, sen-da insonsen: Kishan kiyma, bo'yin egma, Ki sen ham hur tug'ilg'onsen" degan buyuk satrlarini yodga soladi.

Botuning **"Adabiyot"** [Маориф ва ўқитғувчи, 1925. № 9-10:70] she'rida esa muallif borliqdan dunyo ko'nglidan darak berishini so'raydi, "falak" unga g'avg'olar-u savdolarni baxsh etishini aytib, yana u borliqdan ko'ngil erkini qo'riqlovchi "malak"ning qayerda ekanini so'raydi. Shoirning baxti faqat istagining ka'basi(qalbi)da ekanini so'zlaydi: "O'z jannatimda javlon aylasam, ko'ngil amriga bo'ysunib yov baxtini sahrolarda sarson qilsam osiylikmi?" deb kitobxonga murojaat qiladi. Yashash maydonidagi kurashlardan qochmasdan unga o'z nurini sochishini, qancha g'avg'o, qancha savdo kelsa-da, ko'ngilni ko'ngilga qo'ygan "ti-

lak"dan minnatdorligini aytadi. She'rning boshlanishidan oldin "(Eski yo'lda, eski kuyda)" degan jumla keltirilgan.

Mazkur she'r Botuning she'riy to'plamlari va "Tanlangan asarlar"ida uchraydi.

Kuchli borliq sirli dunyo ko'nglidin ber eying:
Ko'pmi g'avg'o, ko'pmi savdo menga baxsh aylar "falak"?
Qaysi tog'da, qaysi bog'da, qaysi chog'da eying
Erka ko'ngil erkini tun-kun qo'riqlovchi "malak".
Istagimning ka'basida aylanar baxt, naylasam?
Kim so'kar, kim shodlanar arshimda javlon aylasam?
Osiymanmi, ko'kragimda qaynag'an "kuch"amriga
Bo'ysunub yov baxtini cho'llarda sarson aylasam?

Men yashash maydonida qo'rqib kurashdanmi qochay?
Yovg'a yor bo'lg'on amalga men o'zim nurmi sochay?
Qancha g'avg'o, qancha savdo kelsa kelsun, bir ko'ray:
Ko'ngilga ko'ngilni qayd etgan "tilak"dan o'rgilay.

Botuning ushbu she'ridan so'ng jurnal mutasaddilari tomonidan shoir haqida shunday so'zlar bitilgan: "Sevimli shoirimiz Botuning "Farg'ona" gazetida bosilg'on so'ngg'i she'ridir. Ma'no va uslub tomonidan to'lqunlana boshlag'an bu she'r, uch-to'rt oydan beri xasta bo'lg'on shoirimizning tuzala boshlag'onini mujdalaydir. Botuning sog'ayishini qutlag'on bo'lib ko'chirdik". Jurnalda she'rlari bosilgan ijodkorlarning hammasi ham taniqli emas. Havaskor shoirlar ham bor. O'rta Osiyo adliya texnikumi talabasi **Hasan Sodiq** shunday ijodkorlardan. Uning "Suyun endi sen" [Маориф ва ўқитғувчи, 1929.№ 5:10] she'ri shu yili o'qishni bitirgan o'zbek qizlariga bag'ishlanadi. She'rda o'zbek qizlari ko'p yillar davomida ezilib paranji tagida yuzlari sarg'aygani, ota-onalar yosh qizlarini yig'lab yolvorishiga qaramasdan oltinga sotishi, ko'p o'tmay bu xoqonlik yiqilib, shundan so'ng qizlar o'zligini tanib, erk qo'ynida g'unchadek ochilgani tasvirlanadi. Ushbu she'r jurnalda lotin alifbosida berilgan.

Ko'p o'tmay yiqildi ul buyuk xoqon,
Porladi mashriqdan qizil yulduzing.
Shunda tushunding-da, kim ekansan sen,
G'unchalandi shunda gullaring sening.

Bu mavzu Botuning **"Paranji"** she'rida [Маориф ва ўқитғувчи, 1925. № 2:52-54] ham o'z aksini topadi. She'rda oshiqning qiz chiroyini paranji sabab ko'rolmay ko'ziga yosh kelishi, qachon paranjini tashlab erkinlikka chiqishi, qiz javob berolmasdan sekin ketgani, oshiqning yuragi esa o'rtanayotgani ifodalanadi. Nihoyat, kunlar o'tib nurli zamon kelgani, natijada, qiz paranjisini tashlab, oshig'i bilan erkin so'zlashgani she'r misralarida tilga olinadi. She'r Botuning "Tanlangan asarlar"i[Боту, 2004:50]da uchraydi.

Ko'b kunlar o'tdi,
Yangi kuch tutdi,
Mazlum qo'lidan
Erksizlik turdi,
Odamga yurdi,
A'lam yo'lidan.

Oltoy (Bois Qoriyev) esa zamonasining taraqqiy etayotganidan bir nishona bo'lgan **"Telefon"** [Маориф ва ўқитғувчи, 1925.№ 7-8.:83-86] she'rida dunyo aylanishi, inson ham tinch turmay tinimsiz harakatda bo'lishi, buning natijasida, telefondek bir yangilik paydo bo'lganidan xursand bo'ladi. Telefon jom chalib kishini chaqirishi, u insonlarga ishlarini eslatib turishini, bino yonganida telefon orqali bir zumda qancha ofatning oldi olingani, agar telefon bo'lmaganda suv purkagich mashina o'rniga odamlarning suv tashishi juda qiyin va samarasiz ekani tasvirlanadi. She'r 1925-yil 25-iyunda Toshkentda yozilgan va mazkur jurnalda chop etilgan. She'r shoirning "Armug'on" she'riy to'plamida uchramaydi.

Ko'rinishidan,
Hamma chehralardan
Qo'rqinchliq yo'q bo'ldi.
Yana, telefon ching'irar ching'i!..

Zamonasining taraqqiy etishidan quvonib yozilgan she'rlardan yana biri Mirhodiyning **"Mashina"** [Маориф ва ўқитғувчи, 1928. № 1:39] she'ridir. She'rda har ishchi qo'liga mashina olishi turmushda yangilik bo'lgani, mashina jonsiz bo'lsa-da, quvvatli ekani, shu jonsiz narsa bilan ishchilar mashg'ul bo'lib, ishlarini yengil bitirishi, ishchining yo'ldoshi ekani ta'kidlanadi.

Mashina ul jonsiz,
Tabiiy bir quvvat.
U bilan shul sonsiz
Insonda harakat.

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida tarjima qilinib, nashr etilgan she'rlar ham bor. Erkin tomonidan tarjima qilingan Lermontovning **"Munozara"** [Маориф ва ўқитғувчи, 1925–1926. № 11-12:.85-86] she'rida ikki tog' Qazbek (Kazbek) va Elburs tog'lari o'rtasidagi munozara yoritiladi. Keksa tog' Elburs Qazbekka qarab: "Kishilar kelib, sening ustingga chiqib, uy qurishmoqda, niyatini bildingmi? Ular senda uy qurmasin, jilg'alaringga bolta urmasin, oltin izlab ko'ksingga tig' urmasin, yo'llar qurmasin, ulardan karvonlar o'tmasin, burgut bilan bulutdan bo'lak hech kim ko'rmagan tepangga odamlarni chiqarding. Bilib qo'y, ular ayyor bo'lishadi, ayniqsa, sharq odamlari", – deydi.

Bunga javoban Qazbek shunday deydi: "Hech qo'rqma sharqdan, chunki 900 yildan beri endi tinchidi... Ular ajdodlarining sukunatli zamonlarini yod etib, rohat qilib, yulduz sanab yotibdi. Bitgandir qari sharq, menga teng kela olmaydi", – deydi. Elbrus esa unga juda maqtanayotganini aytdi. Shunda birdan shovqin, to'palon bilan Ural qo'zg'aldi, Dun bo'ylari ko'pirib, oppoq tojlari yarqirab qo'shin ko'rindi. Olovlar yoqib, nog'oralar chalib Sharqqa hujum boshladi. Bundan Qazbek xafa bo'lib, o'z eli Sharqqa qaradi. Boshiga telpagini bostirib, mangu tindi.

Qor toshlarg'a to'lib,
Ho'qqayib qolg'on Qazbek.
Yovlarni sanag'udek
Bo'lib qarag'an edi.
Lekin sanay olmadi,
Xafalanib o'zining,
Elin ko'zdan kechirdi,
Qoshlarig'a telpagin
Bosib abadiy tindi.

Jurnalning "Adabiyot" bo'limida bolalar uchun atalgan she'rlar ham berib boriladi. 1926-yildan jurnalga bolalar adabiyoti ham qo'shilgani idora tomonidan rasman e'lon qilinadi. Bolalar uchun yozilgan

Elbekning **"Kapalak"** [Маориф ва ўқитғувчи, 1926–1927.№12:25] she'rida kapalakka murojaat qilib, uning tinib-tinchimasligi, sevgan yori gulg'uncha ekanligi, g'unchalar kelinchakdek ochilguncha ozgina kutib turishi, chiroyliligi sabab butun gullar unga zor, qish kelganda esa unga dunyo tor ekani aytilib, kapalakdan faqat tabiat bilan emas, bolalar bilan ham suhbatlashish iltimos qilinadi. U esa: "Sizlar meni tutib, oyog'imdan bog'lab qo'yasizlar" deb qochgani, bola esa hozir erkinlik zamoni kelgani, bunday ishlar qilinmasligini aytgani badiiy obrazlar bilan tasvirlanadi.

– O'rtoqjon, bunday dema,
Bo'sh-bo'shg'a g'am yema!
U zamon o'tib ketgan,
Erkinlik kelib yetgan!
Xo'b, bo'lmasa, o'ynashay,
Sizlar bilan kuylashay:
Erkimiz qutli bo'lsin,
Shodliq-la dunyo to'lsin!

Jurnalning 1925–1927-yillar sonlaridagi she'rlarda so'z erkinligi, o'z fikrlarini ochiq-oydin bayon qila olish harakatlari sezilib turadi va turmush muammolarini ko'tarib chiqish mavzularidagi she'rlar ham anchagina uchraydi. Ammo 1928–1929-yil sonlarida berilgan she'rlar siyosiylashib borgan. Bu she'rlarda inqilobga atalgan, qizil imperiyani ulug'lovchi, ularning g'oyalarini targ'ib qiluvchi she'rlar ham mavjud. Jurnalning 1930–1933-yillar sonlarida esa adabiyotga oid bo'limlar olib tashlanib, jurnal to'lig'icha ilmiy, pedagogik, metodik yo'lga o'tadi. Jurnalning ushbu yildagi sonlarida adabiyot materiallarini deyarli uchratmaymiz. Chunki jurnalxonlar bu jurnalning ta'limiy va tarbiyaviy jurnal bo'lishini istadilar. Sotti Husayn 1929-yil 25 fevralda "Yosh leninchi" gazetasida "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalining ayrim ruknlari haqida bir maqola nashr ettiradi. U tanqid uchun jurnalning 1928-yil 11-sonini asos qilib oladi. 1929-yil 4-sonida mahalliy xabarlar rukni ostida Davidov Aziz tomonidan yana bir maqola e'lon qilindi. Bu ikki muallifning asosiy talabi jurnaldagi ta'limiy va tarbiyaviy materiallarga ko'proq e'tibor qaratib, siyosiy va ijtimoiy masalalarni boshqa nashrlar zimmasiga yuklashni tashkillashtirish edi.

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida berilgan she'rlar qimmatli ada-

biy manba sifatida 20–30-yillar adabiy muhiti, shu davr she'riyatidagi yutuq va kamchiliklarni oydinlashtirishi jihatidan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Чўлпон. Дала йўлларидан. //Маориф ва ўқитғувчи. – Тошкент, 1925. – № 5–6. – Б. 93–94.

2. Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. (Нашрга тайёрловчи О. Шарафиддинов). – Т.: Хазина, 1994. – Б. 170.

3. Чўлпон. Кўклам руҳи. – Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – Б 143.

4. Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. (Нашрга тайёрловчи О.Шарафиддинов). – Т.: Хазина, 1994. – Б.439.

5. Элбек. Турмушми бу? //Маориф ва ўқитғувчи. – Самарқанд, 1926. – № 4. – Б.18.

6. Элбек.Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ,1999. – Б.72.

7. Ойдин. Баҳор кечалари. //Маориф ва ўқитғувчи". – Самарқанд, 1928. – № 5-6. – Б.34.

8. Миртемир. Денгиз. //Маориф ва ўқитғувчи. – Самарқанд, 1927. – № 7–8. – Б. 33.

9. Каримов Н. Миртемир маърифий-биографик роман. – Т.: MERIYUS, 2012. – Б 73.

10. Боту. Адабиёт. //Маориф ва ўқитғувчи. – Тошкент, 1925. – № 9-10. – Б.70.

11. Ҳасан Содиқ. Суюн энди сен. //Маориф ва ўқитғувчи. – Самарқанд, 1929. – № 5. – Б.10.

12. Боту. Паранжи. //Маориф ва ўқитғувчи. – Тошкент, 1925. – № 2. – Б.52–54.

13. Боту. Танланган асарлар. (Нашрга тайёрловчи Каримов Н. ва Турдиев Ш). – Т.: Шарқ, 2004. – Б 50.

14. Олтой. Телефон. //Маориф ва ўқитғувчи. – Тошкент, 1925. – № 7-8. – Б.83-86.

15. Мирҳодий. Машина. //Маориф ва ўқитғувчи. – Самарқанд, 1928. – № 1. – Б.39.

16. Лермонтов. Мунозара. //Маориф ва ўқитғувчи. – Тошкент, 1925–1926. – № 11–12. – Б. 85–86.

17. Элбек. Капалак. //Маориф ва ўқитғувчи. – Самарқанд, 192601927. – № 12. – Б. 25.

O'ZBEK JADID MATBUOTIDA AYOLLARGA BAG'ISHLANGAN NASHRLARNING O'RNI

("Yangi yo'l" jurnali misolida)

Gulrux DONIYOROVA,
Toshkent Ijtimoiy innovatsiya universiteti o'qituvchisi
E-mail: gulidoniyorova85@gmail.com
(O'zbekiston)

Annotasiya Yurtimizda jadidchilik harakati 1905–1929-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda jadidlar ko'plab sohalar: madaniyat, fan, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida faol bo'lib, yangiliklar kiritdilar. Matbuot rivojlandi. Yurtimiz xotin-qizlarining hayotiga bag'ishlangan nashrlar chop etila boshlandi. Maqolada 1924-yilda chop etila boshlagan "Yangi yo'l" jurnalining mazmun-mohiyati haqida so'z yuritiladi, maqolalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik harakati, xotin-qizlar hayoti, "Yangi yo'l" jurnali, ayollarga bag'ishlangan nashrlar, ozodlik.

Annotation: The Jadid movement in our country covers the years 1905-1929. During this period, Jadids were active in many areas: culture, science, all aspects of socio-political life, introducing innovations. The press developed. Publications dedicated to the lives of women in our country began to be published. The article discusses the content and essence of the magazine "Yangi Yo'l", which began to be published in 1924, and analyzes the articles.

Keywords: Jadid movement, women's lives, "Yangi Yo'l" magazine, publications dedicated to women, freedom.

XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati shu qadar keng qamrovli ediki, u deyarli hayotimizning har bir jabhasiga kirib nurlantirishni istagan, zulmatga botgan hayotni yoritishni maqsad qilgan shamchiroqqa o'xshardi. Avvaliga odamlar orasida savodsizlikni tugatish, matbuot, maorif ishlarini yaxshilashga qaratish bilan boshlangan jadidchilik harakati sekinlik bilan ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalarni ham qamrab oldi. Jadidlar olib borayotgan ishlar

mustabid tuzumga ham, oddiy xalq vakillariga ham ma'qul bo'lmagan. Chor hukumati millatni savodxon bo'lishidan cho'chiyotgan bo'lsa, xalqimizning asrlar davomidagi ayrim qoloq ko'nikmalariga ham ularning yangilik borasidagi ishlari ma'qul emasdi. Masalan, xalqimizda ayollarga parda ortidan qaralgan, ya'ni ularni ko'proq yashirishga bo'lgan qarashlar ustun bo'lgan. Ular ko'proq uy-ro'zg'or ishlari, farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishi kerak, degan qarashlar ustun bo'lgan. Jadid ziyolilari xotin-qizlar o'rtasida savodxonlik masalasini ko'tarib chiqqach, ayollarga faqat oila bekasi emas, jamiyatda ham o'z o'rni, fikriga ega shaxs sifatida qarashlar paydo bo'la boshladi. Jadid matbuotini kuzatar ekanmiz, bu mavzuda ko'plab maqolalar chop etilganiga guvoh bo'lamiz. "Ishtirokiyun" gazetasining 1918-yil, 16-avgust sonida muallif Masturaning "Toshkent xotin-qizlari orasida", 1919-yil 26-iyun sonida muallif Toshqinning "Bizning xotin-qizlarimizda nima uchun erk yo'q?", "Turkiston" gazetasining 1923-yil 10-mart sonida muallif Ramzning "Xotin-qizlarimiz erkli turmushga chiqsinlar" kabi ko'plab maqolalar fikrimiz isboti. Zahiriddin Faxriddinzoda "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914-yil 51-sonida chop etilgan maqolasida: "Agar bizlar xotun-qizlarimizni bu holda ilm va tarbiyadin mahrum qilayversak, o'zimizga zo'r zararlar kelturamiz... o'sadurg'on ajdodlarimizning johil va nodon qolishiga o'zimiz sabab bo'lurmiz..." [Sadoi Turkiston. 1914:51]-deydi.

Jadid adabiyoti davrida yaratilgan Cho'lponning "Kecha va kunduz", Hamzaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari", A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" kabi xotin-qizlar hayotini aks ettiruvchi, ularning orzu-maqsadlarini ifoda etgan asarlar, hikoya va she'rlar yozildi. Matbuotda ham bu mavzudagi ko'plab maqolalar ko'p uchrasa-da, unga bag'ishlangan birorta nashr yo'q edi. 1920-yillarda qo'shni Turkmaniston Respublikasida xotin-qizlar hayotiga bag'ishlangan "Ayollar turmushi" nomli jurnal chop etilardi. Bizning mamlakatimizda ham ana shunday nashrga ehtiyoj borligi sabab, 1924-yilda "Yangi yo'l" nomli gazeta nashr etila boshladi va bir yildan so'ng jurnalga aylantirildi.

O'zbek matbuotining paydo bo'lishi va shakllanishiga oid ma'lumotlarni Ziyo Saidning "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927)" risolasida ko'rishimiz mumkin. Bu risola o'sha davrga

oid yuzlab gazeta va jurnallarni tahlil qiladi, davr haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bundan tashqari, N.Abduazizovaning "Milliy jurnalistika tarixi" kitobida XX asr boshlaridagi gazetalar, adabiy-badiiy jurnallarning paydo bo'lishi, uslubi, tanlagan yo'nalishlari, B. Do'stqorayevning "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" kitobida yurtimizda matbuotning paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari haqida ko'plab ma'lumotlar o'rin olgan.

"Yangi yo'l" jurnalining 1920–1930-yillar davrini o'rganish va tahlil qilishda mazkur manbaning o'ziga murojaat qilgan ma'qul. Sababi, bu hali chuqur tadqiq qilinmagan, kam o'rganilgan jurnallardan biri hisoblanadi. Undagi maqolalar, xabarlar va turli qiziqarli sahifalar orqali tadqiqotchilar o'sha davrga oid ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, maqolalar tili ravon va uslubining soddalilgi ham oson tushinishga yordam beradi.

Yurtimiz xotin-qizlarining orzu-maqsadlarini o'zida aks ettirgan "Yangi yo'l" (hozirgi "Saodat") jurnali bir asrdan ortiq vaqt davomida uzoq shakllanish yo'lini bosib o'tdi. 1924–1934-yillarda "Yangi yo'l" nomi bilan chop etilgan bo'lsa, 1937-yil 1-yanvarga qadar "Yorqin turmush", 1937–1950-yillar davomida "Yorqin hayot", 1950–1965-yillarda esa "O'zbekiston xotin-qizlari" nomi bilan chop etilgan. Ayrim sabablar va urush tufayli jurnal 1934-yil apreldan 1936-yil iyulgacha, 1941-yil iyuldan 1950-yil oktabrgacha nashr etilmagan. Nihoyat, 1966-yildan hozirgi nomda, ya'ni "Saodat" nomi bilan chop etilmoqda. Unga turli yillarda O'zbekistonning taniqli adibalari va jamoat arboblari bo'lgan faol ayollar muharrirlik qilgan. Biroq jurnalning ilk sonlari chiqa boshlagan vaqtda taniqli shoir Elbek muharrir sifatida ushbu gazetani chiqarish, materiallarini tuzatish va tartibga solish bilan shug'ullanadi. Shu sababli, Ziyo Said jurnal haqida o'z fikrini bildirar ekan: "Xotinlar ichida yaxshi yozuvchilar bo'lmaganidan, bunga ko'pincha er muharrirlar qatnashdilar", deb yozadi. Bu fikr, albatta, bahstalab.[Ziyo Said. 1927] Negaki, bu holat uzoq davom etmaydi. Qolaversa, jurnalning hech bir sonida Elbek bosh muharrir sifatida qayd etilmagan. Dastlab Lola Sayfullina, Sobira xonim kabi ayollar bir oz muddat muharrir bo'lib ishlashadi. Undan so'ng Tojixon Shodiyeva (1927–29), Sobira Xoldorova (1930–31), Xosiyat Tillaxonova (1931–34), Saodat Shamsiyeva (1936–37), Fo-

tima Niyozova (1937–38), Iqbol Akbarxo'jayeva (1939–41), Oydin (M. Sobirova, 1951–53), Zulfiya (1953–85), Halima Xudoyberdiyeva (1985–94), Oydin Hojiyeva (1994–2014), Feruza Jalilova (2014–18) va 2018-yildan hozigi kunga qadar shoira Munavvara Usmonova kabi taniqli adiba va shoiralar, qalami o'tkir jurnalistlar muharrirlik qilib kelishmoqda.

"Yangi yo'l" jurnali dastlab 10 dan ortiq ruknlardan tarkib topgan bo'lib, yurtimiz xotin-qizlari uchun turli fan sohalari: tibbiyot, geografiya, geometriya, matematika kabi turli fanlardan berib borilgan ilmiy kashfiyotlar, ularning savodli bo'lishi bilan birga fan va dunyo yangiliklaridan bahramand bo'lishiga imkon yaratgan. Ziyo Said "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927)" risolasida gazetaga shunday ta'rif beradi: "Turkiston Ishtirokiyun firqa markazqo'mi qoshidagi xotinlar bo'limining fikr tarqatg'uchisi" [Ziyo Said. 1927]. Fikrini davom ettirib: "Oyida ikki topqir chiqa boshladi. Maqsadi xotin-qizlarni yangi bilim qurollari bilan qurollantirib, madaniyat olamiga chiqarish, ularni paranjidan qutqazib, amaliy ravishda erlar bilan teng huquqli qilish, har turli hunarxona va artellarda yig'ilib ishlash yo'llarini ko'rsatib... ularni tarbiyalashdan iborat", – deydi [Ziyo Said. 1927]. O'sha yillarda ayollarni savodli qilish, o'zlari tanlagan soha bo'yicha ishlarga yo'naltirish, ular orasidan faol, bilimdonlarini tanlab olib, rahbar kadrlar tayyorlash maqsadida "Xotin-qizlar qulublari" (Xotin-qizlar o'quv kurslari) tashkil etila boshlandi. Bu sa'y-harakatlar ijobiy natija berdi. Manbalarga ko'ra, 1926-yilda deputat ayollar soni 220 ta bo'lgan, 1927-yilga kelib 4000 nafarga yetdi. Shu tariqa Xotin-qizlar kurslarining soni ortib bordi, mamlakatimizning chekka hududlarida ham tashkil etila boshladi. 1927-yilda ularning soni 34 taga yetdi. Jurnalning 1927-yil 3-son 37–38-sahifalarida chop etilgan muallif M. Burnashning "Xotin-qiz ishchilari tayyorlash qursi" maqolasida yozilishicha, 1927-yil 28-yanvarda Samarqand shahrida Xotin-qizlardan ishchilar tayyorlash kursining ochilish marosimi bo'lib o'tadi. Kursga qabul qilingan o'quvchilar 48 nafar bo'lib, 42 ta o'zbek, 4 nafar tojik, qolganlari boshqa millat vakillaridan iborat bo'lgan 17–29 yoshdagi xotin-qizlar edi, deyiladi. "Bizning qursimizning maqsadi, qishloq uchun o'z huquqini talab qilishda charchamay ishlaydigan ishchilar tayyorlash-

dir. Ularni har bir bilim-hunar va sog'liqni saqlash ishlaridan xabardor qilish bilan barobar, ommaning ahvol ruhiyasini tushunadigan ijtimoiyatga foydaliq bo'lgan ishchilar tayyorlashdir", – deyiladi maqolada. Bundan tashqari, kurslarda ayollarning siyosiy, huquqiy, tibbiy ongini oshirishga qaratilgan suhbatlar ham o'tkazilgan. Haqiqatan ham, bu kurslarda tahsil olgan ko'pgina xotin-qizlar mamlakatimizning turli – qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, adabiyot, madaniyat, maorif kabi sohalariga o'z hissalarini qo'sha boshladilar. 1926–1927-yillarda savodsizlikni bitirish kurslarida 4605 nafar xotin-qizlar o'qigan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1928–1929-yillarga kelib 10 676 tani tashkil qildi. Bu o'sha davr uchun nihoyatda yuqori ko'rsatkich edi. Yana jurnalning 1926-yil 1-son 33 sahifasida chop etilgan "Xotin-qizlar qulubi va uning vazifalari", 1927-yil 3-soni 38-sahifasidagi muallif Ulfat Fayoz qizining "Qo'qonda xotin-qizlar qulubi", 1927-yil 8-son 19-sahifasidagi "Toshkent o'lka xotin-qizlar bilim yurti", 1928-yil 2-son 1-sahifada chop etilgan "Savodsizlikni bitirishga qanday ko'makchilik kerak" kabi maqolalari xuddi shu mavzuni davom ettiradi.

1920–1930-yillar oralig'ida mamlakatimizning maorif sohasida ko'pgina ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu sohada ham ayollar faolligi ortganini ko'rishimiz mumkin. "Yangi yo'l" jurnalining 1930-yil 1-son 3–5-sahifalarida chop etilgan muallif O'rtoq Obidovaning "5 yillik kurash va mehnatkash xotin-qizlarni chinakam ozodliqqa chiqarish" sarlavhali kattagina maqolasi chop etilgan. Unda muallif mamlakatimizdagi ko'plab sohalarda xotin-qizlar ishtirokining ortib borayotganini aniq dalillar va raqamlar bilan keltiradi. Davlat tomonidan soha rivoji uchun ajratilayotgan mablag'larni ham aniq raqamlar bilan ko'rsatib o'tadi. Maorif sohasidagi o'zgarishlar haqida muallif shunday yozadi: "Xotin-qizlar madaniy maorifi ham kun sayin ko'tarilmoqda. Jumladan, biri maktabgacha tarbiya uylarida 1928–1929-yilda 4000 bola bo'lsa, 1928–1929-yilda 8400 qiz bolalar tarbiya oldilar. Bu narsa 1928–1929-yilda 28000 ga chiqajaq. Bundan boshqa bizda kun sayin o'zbek muallimalar ham kun sayin ko'payatur. 1928–1929-yilda shahar va qishloqlarda 139 ta o'zbekcha muallimalar bor edi. 1926–1927-yilda xotin-qizlarg'a maxsus ochilg'on texnikumlar 5 ta bo'lib, 347 o'quvchini o'z ichig'a olg'on edi, 1929–1930-yilda xotin-qizlar texnikumi 8 ta bo'lib, 829 o'quv-

chini o‘z ichiga oldi”. Muallif 1928–1929-o‘quv yilini tahlil qilar ekan, o‘g‘il bolalar va qizlar aralash tahsil olayotgan texnikumlarda o‘zbek qizlarining soni sezilarli o‘sganini ta’kidlaydi va ular soni 215 nafarga yetganini aytadi. Jurnalning xuddi shu soni 17–18-sahifalarida chop etilgan “Madaniyat ishlarida xotin-qizlar. Besh yillik plan va xotin-qizlar maorifi”, 1930-yil 7-soni 13-sahifasida muallif Usmon Abdurahimning “Maktablarimizga sog‘lom tarbiya beraylik” nomli maqolalarida ham maorif sohasidagi o‘zgarishlar, yutuq va kamchiliklar tilga olinadi.

Jadidchilik harakati bilan boshlangan matbuot 1920–1930- yillarda ham to‘liq shakllanib ulgurmagan, “tetapoya bo‘lish” holatidagi bir jarayonda edi. Shu sababli, bugungi publitsistik janrlarning to‘liq talablariga javob bera olmaydigan ko‘plab maqola va she’rlarni uchratishimiz mumkin. Bu tabiiy hol, albatta. “Yangi yo‘l” jurnali faoliyatining dastlabki o‘n yilida publisistikaning voqeiy-informatsion shakllari, ya’ni xabar, reportaj, hisobot kabi turlari ko‘p uchraydi. Bunga 2 holatni sabab qilib ko‘rsatishimiz mumkin:

1. O‘sha davr siyosatidan kelib chiqqan holda yurtimiz xotin-qizlarini turli sohalarga yo‘naltirish, jamiyatda faollikka chaqirish va buni targ‘ib qilish kuchli bo‘lgan. Ana shu ishlar natijasini matbuotda yoritish, qilinayotgan ishlar hisobotini berib borish, joylardagi ishlar samarasini ko‘rsatib berishda ko‘proq xabar, reportaj, hisobot kabi janrlarga murojaat qilingan.

2. Yuqorida aytilganidek, bu davrda matbuot hali ham rivojlanish yo‘lini bosib o‘tayotgan, publisistik janr turlari xususan, badiiy-publitsistik: ocherk, felyeton, pamflet, yozuvchi maqolasi kabi janrlar to‘liq shakllanmagan edi. Matbuotga ko‘proq xabar berish vositasi nazari bilan qaralgan.

“Yangi yo‘l” jurnalida publisistikaning ocherk, felyeton, eying, yozuvchi maqolasi kabi janrlarining qo‘llanishi va sayqal topishi ko‘proq 1935-yillardan keyinga to‘g‘ri keladi. Bunda jamiyatdagi hodisalarni chuqur tahlil va tadqiq etish, ya’ni ijtimoiy-publitsistik tadqiqotlar orqali voqelikni kashf etish kabi maqolalar ko‘paya boshladi. Jamiyatdagi faol ayollarning olib borayotgan ishlari, erishayotgan yutuqlarini yoritib borish natijasida ocherk janri sayqallandi, rivojlandi. Jurnalning 1935-yillardan keyingi deyarli har bir sonida

ko‘plab paxtakor, mexanizator, pillakor, sportchi, san’atkor, maorif xodimalari bo‘lgan xotin-qizlarning hayoti va faoliyati, erishgan yutuqlari haqidagi maqola va ocherklarni uchratamiz.

Jurnalda “Adabiyot” (ba’zi sonlarida “Adabiyot bo‘limi”, “Adabiyot budir” nomlari ostida chiqqan) rukni bo‘lib, unda havaskor va ijodkor ayollarning she’riy, nasriy asarlari bosilib chiqqan. Shuningdek, chet el adabiyoti namunalaridan qilingan tarjimalar ham berib borilgan. A.S. Pushkin, M. Lermontov, M. Gorkiy, A. Chexov kabi adiblarning she’riy va nasriy asarlarining tarjimalari, turli millatlarning ertak va dostonlari ham berib borilgan. “Yangi yo‘l” jurnalining “Adabiyot” sahifasi ko‘pgina ayol ijodkorlarning shakllaninshida poydevor vazifasini o‘tadi. Xosiyat Tillaxonova, Muzayyana Alaviya, Manzura Sobirova (Oydin), Maryam Sarqulova, Fotima Niyozova, Tojixon Shodiyeva, keyinroq Zulfiya, Saida Zunnunovalarning dastlabki ijod namunalari mazkur jurnalda chop etilgan. Bundan tashqari, G‘.G‘ulom, G‘ayratiy, S.Abdulla, Oybek, Mirtemirlarning ham hikoya va she’rlari o‘rin olgan. “Adabiyot” sahifasida haqiqiy ijodkorlar bilan bir qatorda havaskor xotin-qizlarning she’rlarini ham ko‘p uchratamiz. Sababi, tahririyat xodimlari yosh ijodkorlarni kashf etish va ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida havaskor ayollarning ijodiy ishlarini muntazam chop etib borishgan. Masalan, jurnalning 1926-yil 1-soni 17-sahifasida muallif G‘aribning “Erk kuychisi”, Matlubaning “Yoshlar kuchi” nomli she’rlari, 18-sahifasida muallif E.M. ning “Yetakchi”, Kavkabning “Hoy qiz!” sochma she’rlari chop etilgan. Bu she’rda:

“... Mendan boshqa ham bir necha jigarporalar borkim, ular ham sening nozli uyqudan bosh ko‘tarishingni kutib o‘tiradilar!

Qo‘llarida erk mash’ali...

Senga bermak istaylar.

Tur, singlim!

Kishilar-maslakdoshlaring allaqachon turib

Yangi turmush qurish yo‘lida jonlarini qiynaylar...

Sen undan xabarsiz, uxlaysan!

Bilmaysanki, yangi hayot tuzuvchi yolg‘iz sendir, sen!

Hayotning erki sensiz tug‘ilmas!..” deb yozadi muallif va asrlar davomida g‘aflat uyqusida bo‘lgan qizga, aniqrog‘i, millatga mu-

rojaat qilar ekan, "...atrofingdag'i qalin-qora, mudhish pardalarini yirtib, dunyoni ko'r!" deya xitob qiladi. Uyg'onish ilm bilan ekanini ta'kidlaydi. XX asr boshlarida kirib kelgan she'riyatning sochma janri shunisi bilan farqliki, unda muallifning lirik kechinmalari sochma nutq shaklida ifoda etiladi. Jo'shqin ritmi bilan u nasriy she'r hisoblanadi. Garchi muallif shakl qonuniyatiga ko'ra misralararo bo'g'inlarning miqdori va qofiya tizimiga to'liq amal qilmagan bo'lsa-da, ma'no-mazmuni va o'sha davr sharoitidan kelib chiqqan holda uni ijobiy baholashimiz mumkin. "Yangi yo'l" jurnalida ana shu mavzu va mazmundagi she'rlarni ko'plab uchratamiz. Bu she'rlarni ma'no, vazn, qofiya jihatidan mukammal deya olmaymiz. Ahamiyatli jihati shundaki, unda davr nafasi ufurib turibdi. Yosh, kuyunchak ijodkor qizlarning tengdoshlarini o'z ortidan yetaklashga bo'lgan shijoat, millatning ertasiga bo'lgan fidoyilikni ko'ramiz.

XX asrning 20–30-yillaridan keyin barmoq vazni milliy she'riyatimizning asosiy vazni bo'lib qoldi. Ungacha adabiyotimizda aruz vaznі keng qo'llanilgan. Ya'ni, bu davr o'zbek mumtoz va yangi o'zbek adabiyoti o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lib xizmat qildi. Bunda adabiyotning ijodiy yo'nalishi, janrlar tizimi, badiiy tasvir prinsiplari yangilanib, mavzular ko'lami kengaydi. Bu matbuot uchun ham, adabiyot uchun ham yangilanishlar davri bo'lgan.

1926-yilda shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim Oybek tomonidan "Yangi yo'l" jurnalida chop etilgan o'zbek yosh shoiralarining she'rlaridan tashkil topgan "Erk kuylari" nomli mo'jaz to'plam nashr etilgan. To'plamga kiritilgan she'rlar o'ziga xos uslub va ritmga ega bo'lib, XX asr boshlarida kirib kelgan yangicha she'riy tizim elementlaridan tortib, obrazlarigacha yangilanishni aks ettirgan. Umuman olganda, jadidchilik davri o'lkamiz xotin-qizlari hayotida ham muhim o'zgarishlar davri bo'ldi. "Yangi yo'l" jurnali esa yurtimizning olis manzillarida yashovchi ko'plab iqtidorli xotin-qizlarni ijodkor sifatida shakllanishi uchun katta maktab vazifasini o'tagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyo Said. O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927). – Toshkent, Samarqand: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1927.

2. N. Abduazizova. Milliy jurnalistika tarixi. Birinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2008.

3. B. Do‘stqorayev. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. – Toshkent: G‘. G‘ulom, 2009.

4. To‘plam. Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta’siri (Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari). – Qarshi: Nasaf, 2023.

5. “Yangi yo‘l” jurnali, 1924–1930-yillardagi sonlari.

8. “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 51-soni.

9. “Jadid” gazetasi, 2024-yil 11-son.

10. https://president.uz/uz

11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Saodat

12. https://press.natlib.uz/ru/publications/saodat

13. www.saodat-gul.uz

II SHO‘BA

JADID ADABIYOTI VA ADABIY ALOQALAR

JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHIDA ISMOIL GASPIRALINING "ROSSIYADA MUSULMONLAR" ASARINING O'RNI

Zaynabidin ABDIRASHIDOV[8*]
(Turkiya)

Annotatsiya. Maqola Ismoil Gaspiralining "Rossiyada musulmonlar" asarining jadidchilik harakati shakllanishidagi muhim o'rnini tahlil qiladi. Gaspirali XIX asrda Chor Rossiyasi musulmon-turk xalqlari orasida islohot g'oyalarini targ'ib qilgan yetakchi shaxs sifatida ko'riladi. Uning dunyoqarashi Sharq va G'arb tajribalariga asoslanib, ta'lim orqali milliy ongni uyg'otish va zamonaviy turk-islom dunyosini yaratishga qaratilgan edi. "Rossiyada musulmonlar" asarida Gaspirali Rossiya hukumatining assimilyatsiya siyosatini tanqid qilib, musulmonlar uchun ona tilida ta'lim va teng huquqlar zarurligini ta'kidlaydi. Asar jadidchilikning dastlabki dasturi sifatida musulmonlarning aqliy uyg'onishi va jamiyatni modernlashtirish yo'lidagi vazifalarni belgilaydi. Maqola Gaspiralining ushbu asar orqali nafaqat Rossiya musulmonlari, balki butun turk dunyosining dunyoqarashini o'zgartirishga qo'shgan hissasini yoritadi. Uning g'oyalari jadidchilikning mafkuraviy asosini shakllantirib, keyingi ijtimoiy-siyosiy harakatlarga zamin yaratdi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, Ismoil Gaspirali, Rossiyada musulmonlar, milliy ong, ta'lim islohoti.

Abstract. The article examines the pivotal role of Ismail Gaspirali's work "Russian Muslims" in shaping the Jadidism movement. Gaspirali is recognized as a leading figure in promoting reformist ideas among the Muslim-Turkic peoples of the Russian Empire in the 19th century. His worldview, influenced by both Eastern and Western experiences, aimed to awaken national consciousness through

* Prof. Dr., Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi, Edebiyat Fakültesi, Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, ORCID: 0000-0002-6869-4315, zaynabidin.abdirashidov@hbv.edu.tr

education and establish a modern Turkic-Islamic world. In "Russian Muslims," Gaspirali critiques the assimilation policies of the Russian government, emphasizing the necessity of education in native languages and equal rights for Muslims. The work serves as an early manifesto of Jadidism, outlining tasks for intellectual awakening and societal modernization. The article highlights Gaspirali's contribution to transforming the worldview of not only Russian Muslims but also the broader Turkic world through this work. His ideas laid the ideological foundation for Jadidism, paving the way for subsequent social and political movements.

Keywords: Jadidism, Ismail Gaspirali, Russian Muslims, National consciousness, Educational reform.

Ismoil Gaspirali Chor Rossiyasi va uning hududidan tashqaridagi musulmon-turk xalqlari orasida islohotchilik, xususan, jadidchilik deb atalgan fikriy harakatning shakllanishi va rivojlanishida yer olgan eng muhim shaxslardan biridir (Kırımer, 2015, Devlet, 1988; Allworth, 1988, Fisher, 1988: 11-26, Lazzerini, 1988, 149–169, Kırımlı, 1996a: 392–395). O'z davrida Chor Rossiyasining rus bo'lmagan millatlarga qarshi qo'llagan siyosati uning musulmon-turk va Islom olami muammolariga qiziqishining ortishiga sabab bo'ldi. Yevropa va Istanbulda bo'lgan yillarida Sharq va G'arbni yaqindan tanishi uning dunyoqarashini yanada kengaytirdi. Ja'far Seydahmet Kirimer Gustav Le Bonning "Bir millatni yangi islohotlarga yo'naltirish uchun avval uning hayotga qarashini, buning natijasida esa fikrlash va faoliyat tarzini o'zgartirish zarur" degan so'zlariga tayanib, Ismoil Gaspiralini bu g'oyalarni juda yaxshi anglagan va bu borada eng samarali ish qilgan buyuk turk farzandi sifatida ta'riflagan edi (Kırımer, 2015: 29).

Jadidchilik turli davrlarda turlicha talqin qilindi. Jadidchilik o'z mohiyatiga ko'ra, aqliy uyg'onishni rag'batlantiruvchi, musulmonlarni o'zligini saqlab qolish sharti bilan Yevropa madaniyatiga yaqinlashtirish va jamiyatni zamon talablariga mos ravishda qayta shakllantirishni maqsad qilgan o'ziga xos aqliy, siyosiy va madaniy harakat edi (Validov, 1923: 74–85, İbrahimov, 1984: 262, 429). Biroq jadidchilik tarixshunosligida uni butun musulmon olami miqyosida

Islomning modernlashuvi yoki musulmon modernizmi sifatida ta'riflashga urinishlarni ham kuzatish mumkin (Lapidus, 1988: 557–623, Voll, 1982, Ruthven, 1984, Siddiqi, 1982). Jadidchilik dunyoviy sohada zamon sharoitlariga moslashish yoki yangilanish harakati sifatida talqin qilinishi bilan birga, diniy sohada ham islohot g'oyalarini qamrab oldi. Hatto keyinchalik siyosiy faoliyatni ham o'z ichiga oldi. Ya'ni Gaspirali tarafidan taklif etilgan va faoliyati yo'lga qo'yilgan usuli jadid, ya'ni yangi usul maktablari va buning asosidagi yangi maorif tizimi jadidchilik harakatining faoliyat yuritgan sohalaridan faqat bittasi edi. Boshqa tomondan, Gaspiralining bu sa'y-harakatlari "jadidchilik" tushunchasi vaqt o'tishi bilan umumiy nomga aylanib, barcha yangilik harakatlarini qamrab olganida ko'rish mumkin.

Islom olamida, xususan, Hindiston, Usmonli imperiyasi, Eron va Misrda XIX asr davomida ijtimoiy qadriyatlar bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, amerikalik tarixchi Adib Xolidning ta'kidlashicha, musulmonchilikning negizi bo'lgan Islom dinining zamonaviylik bilan murosaga keltirish maqsadini ko'zlagan edi (Khalid, 1998: 3-4). Shu ma'noda, Rossiya imperiyasidagi musulmonlar orasida vujudga kelgan jadidchilik harakati o'sha vaqtda butun Islom olamida keng tarqalgan islohot harakatlariga o'xshash xususiyatlarga ega edi. Ammo boshqa islomiy markazlaridan farqli o'laroq, Rossiyadagi jadidchilik davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi va dastlabki davrda o'z institutlariga ega emas edi. Faoliyatini deyarli bir o'zi boshlagan Gaspirali qisqa vaqt ichida jamiyatning turli qatlamlariga mansub ko'plab odamlarni o'z tarafiga, olib borayotgan faoliyati doirasiga jalb qila oldi. Gaspirali qisqa vaqt mobaynida nafaqat Rossiya musulmonlarining, balki qo'shni davlatlardagi musulmonlarning dunyoqarashini o'zgartirishga katta ta'sir ko'rsata oladigan tuzilma yaratishga muvaffaq bo'ldi (Gündoğdu, 2012: 11-24, Topsakal, 2018: 398-413, Ortak, 2022: 109-131, Yılmaz, 2022: 365-379, Sağlam, 2019: 437-457, İpek ve Güler, 2023: 129-158).

Ismoil Gaspiralining yangilikchi va jadidchi tafakkuri bevosita uning dunyoqarashi va ideallari bilan chambarchas bog'liq edi. Rossiya imperiyasida yashovchi musulmonlar dunyoqarashi va tafakkurini ta'lim vositasida o'zgartirish, shu yo'l orqali rivojlangan va zamonaviy turk-islom dunyosini yaratish Gaspiralining asosiy ideali edi.

XIX asr o‘rtalarida Rossiyada kuchli mafkuraga aylangan rus milliyatchiligi, ayniqsa, harbiy maktablarda juda katta ta’sirga ega edi. Bu maktablardagi yosh ruslar orasida keng tarqalgan irqchilik kayfiyati Ismoil Gaspiralida, Moskva harbiy litseyida o‘qish yillari u yerda ko‘rganlari va his qilganlari natijasida milliy o‘zlik tushunchasining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Yavuz Akpinarning ta’kidlashicha, Gaspiralining “Krit musulmonlariga yordam berish uchun maktabdan qochishi uning hayotidagi eng muhim voqealardan biri va kelajak taqdirini belgilovchi burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu voqea yosh Gaspiralida milliy ongning shakllana boshlagani va o‘z jamiyati uchun biror narsa qilish ehtiyoji paydo bo‘lganining yaqqol dalilidir” (Gaspıralı, 2022: 12).

Yosh Gaspiralining 1868–1871-yillarda Bog‘chasaroydagi Zinjirli madrasasidagi o‘qituvchilik tajribasi rus va musulmon ta’lim tizimlari, G‘arb va Sharq o‘rtasidagi fikriy farqlarni yanada yaxshiroq anglashiga, shu bilan birga, o‘zini jiddiy tarzda so‘roq qilishiga va milliy o‘zlik haqida chuqurroq o‘ylashga undadi. Akpinarga ko‘ra, Bog‘chasaroy tajribasi “musulmon-turk olamining har jihatdan zaifligi, jaholatga botganligi, G‘arbning, xristian-rus dunyosining esa ko‘p jihatdan bilimli va kuchli ekanligi Gaspiralining diqqatini yanada ko‘proq bu masalaning mohiyatini tushunishga va hal qilish uchun nimalar qilinishi kerakligi haqidagi fikrlarni shakllantirdi” (Gaspıralı, 2022: 13).

Gaspiralining 1871-yilda Yevropa sayohatiga chiqishi va G‘arb dunyosi ichida turib anglashga harakat qilishi, u yerdagi kuzatishlari natijasida olgan bilimlari 1881-yildan boshlab nashr eta boshlagan *“Rossiyada musulmonlar”, “Yevropa madaniyatiga betaraфona bir nazar”, “Farangiston maktublari”, “Dorurrohat musulmonlari”* kabi fikriy va adabiy asarlarida o‘z aksini topdi. Bu asarlarida u G‘arb madaniyatini dunyoga hukmron qilgan bilim va texnologiya ustunligi bilan birga iqtisodiy taraqqiyot, adolat va tenglik g‘oyalari ham muhim rol o‘ynaganini ta’kidlaydi.

Gaspirali 1881-yilda yozgan *“Bog‘chasaroy maktublari”*dagi g‘oyalarini yanada rivojlantirib, *“Rossiyada musulmonlar”* nomi bilan avval *“Tavrida”* gazetasida, so‘ngra alohida kitob sifatida nashr ettirdi. Bu asarida Rossiya hukumatining musulmon-turklarga qarshi assimilyatsiya siyosatiga qarshi chiqishi, boshlang‘ich ta’limda ona

tilining ahamiyati haqidagi fikrlari uning 1860-yillarning oxirlarida shakllana boshlagan milliyatchilik tushunchasining rivojlangan ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi.

G'arb jamiyatlari va davlatlarining kuchliroq bo'lishiga, jamiyat bilan davlatni birlashtirishiga, davlatning fuqarolariga qonunlar doirasida adolat va tenglik bilan muomala qilishiga jamiyatdagi fuqarolik ongi va buning natijasidagi milliyatchilik tuyg'usi sabab bo'lganini ta'kidlagan Gaspirali *"Rossiyada musulmonlar"* (Gasprinskiy, 1881) asarida bu fikrini quyidagicha izohlaydi: "Milliyatchilikka va bir davlat ichida yashovchi xalqlarning har jihatdan bir-biriga teng ekani g'oyasiga hurmat ko'rsatiladigan boshqa siyosiy tizimga murojaat qilinganda, bu tizim davlat birligini ta'minlashda eng asosiy omil ekanini ko'rish mumkin. Shu bilan bir qatorda, ushbu tizim ta'limga, rivojlanishga, mehnat va hayotni yaxshiroq tartibga solishga katta yordam beradi. Bu tizim o'zida haqiqat va adolatni mujassam qilgani bois juda jozibali bo'lib, dunyoning madaniy xalqlari tomonidan amalda qo'llanilmoqda" (Gaspıralı, 2019: 96–97).

Gaspirali ushbu asarida hukmron millat va hukumat siyosatini, ya'ni Rossiya idorasining musulmon xalqlarga, ularning tiliga, diniga va ta'limiga nisbatan yuritgan siyosatini tanqid qildi. Fikrlarini ketma-ket bayon qilgach, Rossiya musulmonlarining muammolariga oid qarashlarini ochiqladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, asarning davomida Chor Rossiyasi boshqaruvining musulmonlarga nisbatan olib borayotgan siyosatining ijobiy va salbiy tomonlarini izohladi, ruslashtirish siyosatining hech qachon muvaffaqiyatli bo'lmasligini turli misollar bilan ochib berdi; musulmonlar uchun ochilgan rus-tuzem maktablarining kutilgan natija bermaganini ta'kidladi; musulmonlarning o'z ona tillarida ta'lim olishi zarurligini urg'uladi va natijada rus boshqaruvining musulmon fuqarolariga ruslar bilan teng huquqlar berishi kerakligi fikrini ilgari surdi. Musulmonlar haqiqiy fuqarolik huquqlariga ega bo'lganda, ruslar bilan birlasha olishi va Rossiyani o'z davlati deb qabul qilishi mumkinligini yozdi. Gaspirali bu asari orqali hayotining so'ngiga qadar amalga oshiradigan ishlarining dasturini belgiladi, amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy g'oyalarni ilgari surdi. Bu shaklda, Gaspirali Rossiyadagi musulmon-turklar uchun puxta o'ylangan va rejalashtirilgan, keng qamrovli is-

lohot loyihasini taqdim etdi. Manifest mohiyatidagi *"Rossiyada musulmonlar"* asarining ta'siri va ahamiyati haqida Gaspiralining yaqin fikrdoshlaridan Yusuf Akchura Istanbulda nashr etilgan *"Turk yurdu"* jurnalida quyidagilarni yozgan edi:

"Ismoil bey Gasprinskiyning ilk asari bo'lgan *"Rossiyada musulmonlar"* 30–40 sahifadan iborat kichik risola bo'lsa-da, muallifning o'sha paytdagi fikrlarini ochiq bildirib, kelajakda tasavvur qilgan faoliyatining dasturi, qoidasi bo'lgani jihatidan e'tiborga molikdir. *"Rossiyada musulmonlar"* turk milliyatchiligi nuqtai nazaridan juda muhim voqeani, holatni kuzatish orqali katta masalani turk mutafakkirlarining e'tiboriga havola qiladi. Masalaning mohiyati shundan iboratdir: Osiyo va Yevropaning bir qismida yashovchi ko'p sonli xalq mavjud. Bu xalq musulmon-turklardir. Musulmon-turk millati boshqa millatlarga nisbatan ilm-u ma'rifat, boylik va madaniyat, qudrat va kuch jihatidan ancha orqada qolgan; agar shunday davom etsa, omon qolish qonunlari talabiga ko'ra, yo'q bo'lib ketadi, boshqa millatlar tomonidan yutib yuboriladi. Bu holatdan kelib chiqadigan savol esa shudur: Musulmon-turklarning bu zaifligiga, orqada qolishiga sabab nima? Musulmon-turk millatini yo'q bo'lib ketishdan qutqarish uchun nima qilish kerak?" (Akçura, 1911: 368).

Gaspiralining butun fikriy hayoti musulmon-turk millati uchun juda muhim masalalarga javob izlash, topish, hukumatga va jamiyatga taklif qilish, amalda qo'llash bilan kechdi. Darhaqiqat, Ismoil Gaspiralida jadidchilik g'oyasining paydo bo'lishidan umri oxirigacha bu g'oyaning shakllanish va rivojlanish tarixi, Akchura ta'kidlaganidek, "uning bu katta masalaga topgan turli javoblarining tarixi demakdir. Uning amaliy faoliyati tarixi esa bu javoblarga muvofiq jadidchilik harakatining tarixidir" (Akçura, 1911: 368), ya'ni Gaspiralining hayoti jadidchilikning tarixi demakdir.

"Rossiyada musulmonlar" asarida Gaspirali musulmonlarning hayotga yangidan ko'z ochishi yo'lida zudlik bilan hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarni quyidagicha belgiladi:

"Bugungi zaifligimizga sabab jaholatimiz, Yevropa ilmlari va ma'rifatidan bebahraligimiz, tabiat qonunlaridan bexabarligimizdir. Omon qolish uchun o'qishimiz, Yevropa ilmlari va g'oyalarini

o‘zlashtirishimiz kerak. Ammo Yevropa ilmlari va ma’rifatini musulmon-turklar orasiga faqat o‘z maktab va madrasalarida, o‘z tillari bilan olib kirish mumkindir. Shu sababli, Rossiyada yashovchi turklarning turkiy adabiyoti bo‘lishi kerak” (Akçura, 1911: 368).

Gaspirali Rossiya imperiyasining turk xalqlariga qarshi olib borgan ruslashtirish siyosatining noto‘g‘riligini tanqid qilar ekan, quyidagilarni yozadi:

“Uzoq yillar davom etgan faoliyat va sarflangan behisob xarajatlardan so‘ng qo‘lga kiritilgan natija nimadan iborat bo‘ldi: musulmonlarning aqliy jihatdan yakkalanishi, chidab bo‘lmaydigan jaholat, barcha sohalarni qamrab olgan tahlikali harakatsizlik, o‘zlari va yurtlarining tobora qashshoqlashishi va chegaralarda ko‘ringan halokatli ko‘chish! Rossiyalik hamvatanlarimiz bunday yomon natijalarni xohlamaganliklariga, hatto kutmagan va sezmaganliklariga, ular osiyoliklarni madaniylashtirish ishining muvaffaqiyatli ketayotganiga chin dildan ishonganliklariga imonim komil, faqat shunday bo‘lsada, haqiqatning achchiq yuzi hech qachon o‘zgarmaydi” (Gaspıralı, 2019: 80-81).

Gaspirali imperiyaning musulmon fuqarolariga qarshi olib borgan siyosatidagi muvaffaqiyatsizlikni tushuntirar ekan, o‘z fikrlarida haqli edi. Gaspiralidan boshqa ko‘plab jadid ziyolilar ham rus idorasi tomonidan musulmonlarga nisbatan olib borilgan siyosat faqat qarshilikka duch kelganini, musulmonlarni imperiyaning to‘laqonli bir parchasi sifatida jalb qilishdan uzoqlashtirganini ko‘p bora ta’kidladilar. Chor Rossiyasi qo‘l ostida yashovchi musulmonlarni tashqaridan kuzatgan mashhur sharqshunos Arminius Vamberi ham rus idorasi tomonidan qo‘llanilgan ruslashtirish va xristianlashtirish siyosatlarining natija bermaganini, hatto ruslarga nisbatan nafratni oshirganini ta’kidlagan edi. 1907-yili “*Vaqt*” gazetasida chop etilgan bu masalaga bag‘ishlangan maqolasida mashhur sharqshunos quyidagilarni yozgan edi:

“Hukmronligi ostidagi 25 millionga yaqin turkni ruslashtirib, ularning milliy o‘zligini yo‘q qilish uchun Rossiya hukumati uzoq vaqtdan beri olib borgan harakatlaridan hech qanday natija chiqmadi. Aksincha, bu harakatlar musulmonlarning ruslarga nisbatan nafratini oshirdi va madaniyat yo‘lida yanada orqada qolishlariga sabab bo‘ldi.

Bunday bo'lishi oldindan ma'lum edi. Ilminskiy va Budilovichlarning turklarning ona tilini rus harflari bilan o'qitishdan iborat ruslashtirish siyosatlaridan foyda ko'rilmadi..." (Profesör Vambery, 1907: 1).

Gaspirali Rossiya davlatining hukmronligi ostidagi musulmon-turklarga qarshi olib borgan siyosatini qisqacha "Hokim menman, soliqlaringizni to'lang, xohlaganingizcha yashang!" deb xulosaladi (Gaspıralı, 2019: 79). Rossiya hukmronligi haqidagi fikrlarini davom ettirar ekan, Gaspirali bu "hukmronlik musulmonlarni madaniyat va taraqqiyotga olib bormaganini"; "o'lik jasad bo'lgan Rossiya musulmonlari tanasiga yangi hayot, yangi fikr, yangi havas berib uni jonlantirishdan ojiz ekanini"; "haqiqatan ham, achinarli holatga aylangani"ni yozdi va "bundan tashqari, rus hukmronligi davrida msulmonlarning o'z maktablari va kitoblari orqali erishgan aqliy rivojlanishi biroz pastroq darajaga tushgani"ni ham qayd etdi (Gaspıralı, 2019: 83-84).

Rossiyaning, umuman olib qaraganda, sharqiy hududlarida olib borgan assimilyatsiya siyosati va bu siyosiy tizimning qo'llanilishiga qarshi chiqqan Gaspirali uning "qanchalik qattiq nazorat ostida, nafis bir shaklda yuritilsa yuritilsin, o'z xarakterida majburlashni" targ'ib qilganini ochiq aytdi (Gaspıralı, 2019: 91). Bu shaklda ruslashtirish siyosatini qoralagan Gaspirali bu siyosat musulmonlarga hech qachon ta'sir o'tkazmasligini ta'kidladi va bunday yo'l bilan Rossiya davlati, ruslar va musulmonlar o'rtasida birlik va birlashish bo'lmaydi, degan xulosaga keldi. Chor davrining yetakchi sharqshunos mutaxassislaridan Vasiliy Bartold "Xristianlik Rossiyada yangi ildiz ota boshlaganda, Islom allaqachon turklarning qoniga singib ketgan edi, missionerlarning bu borada biror narsa qilishi juda qiyin" deb yozgan edi (Abdiraşidov, 2022: 90). Bartoldning bu so'zlari ham ruslashtirish siyosatining qanchalik noto'g'ri ekanini ko'rsatadi.

Gaspirali bu masalani hal qilish uchun "Tenglik, erkinlik, ilm va ma'rifat zamirida birlashish va axloqiy yaqinlashish"ni taklif qildi va "bunga erishish birinchi qarashda ko'ringandek qiyin emas. Bunday ittifoq juda foydali bo'lishi mumkinligini va vatanimizning davlat va iqtisodiy hayotiga hech qanday yomon ta'sir qilmasligini, aksincha, ruslar va musulmonlar birlikda yashaydigan mamlakatning tezda aqliy va iqtisodiy muvaffaqiyatiga sabab bo'lishi"ni yozdi (Gaspıralı, 2019: 104-105).

Ismoil Gaspirali *"Rossiyada musulmonlar"* asarida Rossiya davlatining musulmon fuqarolari bilan munosabatlari va ularga nisbatan qo'llagan siyosati to'g'risida bildirgan fikrlari, qaydlari va kuzatishlarining xulosasi sifatida quyidagi takliflarni amalga oshirishni zarur deb topdi: "1) Rossiya musulmonlarining Rossiya bilan chin yurakdan yaqinlashishiga jaholat va buning natijasida kelib chiqqan ishonchsizlik to'sqinlik qilmoqda; 2) fuqarolik ongi va bilimlarni musulmonlar orasida rus tili orqali tarqatish hech qachon to'g'ri kelmaydi; rus ta'lim muassasalari oddiy xalqni bir chetga qo'yib turaylik, yuqori tabaqa musulmonlarning bir foizini ham jalb eta olmaydi; 3) musulmon madrasalarida asosiy fanlarning turk tilida o'qitilishi yo'lga qo'yilsa, bu davlatga hech qanday zarar keltirmaydi, aksincha, musulmon ommasi orasiga bilimning kirishini osonlashtiradi va din olimlari, o'rta tabaqaning aqliy darajasini tez fursatda oshirishga imkon yaratadi hamda ko'plab xurofotlarni yo'q qiladi; 4) musulmonlar orasida savodxonlar sezilarli darajada ko'p bo'lgani sababli turk tilida matbuot uchun zarur shartlarni osonlashtirish ular orasida zarur foydali va amaliy bilimlarni tez tarqatishga olib keladi; bu sababdan turk tillarida mavjud matbuotni himoya qilish va rag'batlantirish zarurdir; 5) musulmonlarni vatandan sovutadigan, katta yo'qotishlardan va ko'pincha davlat idoralarida duch kelinadigan balolardan xalos qilish uchun musulmon aholisi ko'p bo'lgan viloyatlardagi sudlarda doimiy ishlaydigan tarjimonlar bo'lishi juda foydalidir; zarur ko'rsatmalar va xabarlarning mahalliy nashrlarda ruscha matni yonida mahalliy tilga tarjima qilinib chop etilishi ham foydalidir; 6) bu choralar amalga oshirilsa na rus tilining, na rus davlatining manfaatlari hech qanday zarar ko'rmaydi" (Gaspıralı, 2019: 116–117).

Albatta, Gaspiralining bu g'oyalari va takliflari rus idorasi va amaldorlarining e'tiborini tortdi. Asarga birinchi munosabat Turkiston general-gubernatorligi markazi bo'lgan Toshkentdan keldi. Musulmonlarni xristianlashtirish va ruslashtirish siyosatini qo'llab-quvvatlovchilardan biri bo'lgan Mixail Miropiyev (1852–1919) Toshkent o'qituvchilar seminariyasining 1882-yil 30-avgustda o'tkazilgan yig'ilishida ma'ruza qildi. Oradan ikki yil o'tgach, Miropiyev bu ma'ruzasining sarlavhasini biroz o'zgartirib, "Rus" jurnalida chop ettirdi (Miropiyev, 1884: 24-41). O'qituvchilar seminariyasining yillik

yig'ilishi yangi o'quv yili oldidan zarur rejalarni tuzish va muhokama qilish uchun tashkil etilgan bo'lsa-da, yig'ilishda Ismoil Gaspiralining *"Rossiyada musulmonlar"* asari asosiy muhokama mavzusi bo'ldi. Miropiyev o'z nutqida "nihoyat katta tarixiy ahamiyatga ega Osiyo olamiga Yevropa madaniyatini singdirish" masalasini ko'rib chiqish vaqti kelganini aytdi. Uning fikricha, rus hukumatining rus bo'lmagan unsurlarga nisbatan siyosatining asosiy maqsadi "xristianlikning haqiqat, sevgi va rahm-shafqat kabi g'oyalari bilan yo'g'rilgan birlik" bo'lishi kerak edi. Miropiyev rus bo'lmagan unsurlarning ta'limi haqidagi fikrlarini bayon qilgach, u bilan bir xil qarashdagi odamlar tomonidan qabul qilingan asosiy maqsadni quyidagicha izohlaydi: "Musulmon fuqarolarimiz ta'limining birinchi va eng muhim tamoyili ularning ruslashtirilishi bo'lishi kerak" (Miropiyev, 1883: 134-145). Ko'rinib turibdiki, bu so'zlar Gaspiralining Rossiya hukumati musulmon fuqarolariga qarshi assimilyatsiya siyosati yuritmasligi kerak, degan fikriga ziddir va uning bu yo'nalishdagi takliflari va g'oyalarini rad etadi. Miropiyevning fikr va takliflari Turkistonda diniy ta'lim bermaydigan dunyoviy maktablar tashkil etishini maqsad qilgan rus siyosatini qo'llab-quvvatlamaydi. Keyinchalik ta'lim siyosatining yo'nalishini belgilovchi amaldorlar tarafidan rus hukmronligi ostidagi mahalliy xalqlarni "xristianlik g'oyalari orqali" Rossiyaga birlashtirish, ya'ni ularni xristianlashtirish orqali ruslashtirish siyosatini yanada kuchaytirish kerakligi haqida hukumatga takliflar berildi.

Gaspirali ruslarning Sharqqa qarab yurishining sababi va missiyasi haqida rus matbuotidagi fikrlarni tanqid qilar ekan:

"So'nggi yillarda Rossiyaning Sharqdagi katta madaniylashtirish missiyasi haqida tez-tez bir narsalarni o'qiyapmiz va eshitmoqdamiz. Yaxshi, lekin bu missiya qanday bo'lishi kerak? Bu missiya qozilarni tuman hokimlari bilan, noiblarni pristavlar bilan, beyliklarni oblast va guberniyalar bilan, desyatinlarni har bir kishidan olinadigan soliqlar va boshqa yig'imlar bilan, ipak xalatlar va sallalarni aristokrat yoqalari bilan almashtirishdan iboratmi va bundan boshqa hech narsa qilish kerak emasmi?" (Gaspıralı, 2019: 80) deb yozdi va ruslarning bu sivilizatorlik missiyasi borasida mavhumliklarni ochiqlashni taklif qildi.

Gaspirali Rossiya hukumatining Osiyo hududlaridagi "katta madaniyat missiyasi" bilan bog'liq tanqidlari va bu missiyaning Rossiya musulmonlarini haqiqiy taraqqiyotga va madaniyatga yaqinlashtirmagani haqidagi tushunchalari bilan ba'zi rus siyosatchilarining sha'niga tegib ketdi. Miropiyev nutqining oxirida do'stlariga "katta tarixiy ahamiyatga ega ishlarga, Osiyo olamida Yevropa madaniyatini yoyish ishiga kirishish"ga da'vat qildi. Hukmron millatning bosib olingan hududlarni va ikki narsani, fuqarolarining to'kilgan qoni hamda ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlashi kerakligini aytdi. Eng avvalo, Miropiyev mahalliy xalqlarni yutish orqali davlat birligini ta'minlovchi madaniyat missiyasi tarafdori ekanini ochiq ko'rsatdi (Miropiyev, 1883: 136–137). Miropiyevning nutqi Gaspirali qarashlarining to'g'riligini yana bir bor tasdiqlasa-da, boshqa tomondan Rossiya davlatining Turkiston musulmonlariga qarshi assimilyatsiya siyosati yuritganini ham ochib berdi.

Miropiyev Gaspiralining musulmon maktablarini isloh qilishga qaratilgan maqsadlari haqida so'z yuritar ekan, "musulmon ziyolilari tomonidan islomiy qadriyatlar asosida taklif qilingan ta'lim tizimi" hech qanday holatda Rossiyaning davlat siyosati bilan mos kelmasligini yozdi. Bunday maktab o'rniga musulmon boshlang'ich maktablarida missioner o'qituvchilarni faol ishlatishni va davlat muassasalari tomonidan tasdiqlangan usulni qo'llashni taklif qildi. Miropiyevning fikricha, musulmon maktablarida qo'llaniladigan bunday ta'lim usuli "musulmon bo'lmagan rus unsurlarining ta'lim siyosatining ikkinchi asosiy tamoyili bo'lishi kerak va Islomni, ya'ni musulmonlarning barcha diniy faoliyatini butunlay rad etishi kerak" (Miropiyev, 1883: 141–145).

Ismoil Gaspiralining *"Rossiyada musulmonlar"* kitobida yozgan g'oyalari uning yashirin siyosiy faoliyatlarini ham ochib beradi. Asarda aytilgan takliflar Chor boshqaruvining musulmon jamiyati rivojlanishiga to'sqinlik qilish yoki assimilyatsiya qilishga qaratilgan siyosatini rad etuvchi va shu yo'nalishda o'z strategik rejasini amalga oshiruvchi yondashuv sifatida baholanishi mumkin.

Gaspirali *"Rossiyada musulmonlar"*da asosiy nuqtalari ochiqlangan loyihasini keyingi yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirishga harakat qildi. Rossiya musulmonlarini rus davlati va ruslar haqidagi

turli ma'lumotlar bilan tanishtirish maqsadida *"Tarjimon"* gazetasini chiqarishdan oldin turli varaqalarni bosib tarqatishi bu loyihani amalga oshirishning dastlabki bosqichlari edi.

XIX asr oxirida maktab islohoti bilan boshlangan jadidchilik XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy kuchga aylandi. Mafkuraviy sabablarga ko'ra Kadet partiyasiga qo'shilgan Rossiya jadidchilik vakillari o'zlarining siyosiy organi bo'lgan "Ittifoqi Muslimin" partiyasini tashkil qildi. Bu partiyaning jadid vakillari Rossiyaning musulmon jamiyatini himoya qilish uchun harakat qildi. Ismoil Gaspirali butun Rossiya musulmonlari uchun o'qituvchi va yo'l ko'rsatuvchi murshidga aylandi. XIX asr oxirlarida uning g'oyalari musulmonlarning eng katta kasalligi bo'lgan jaholatga qarshi kurashda shior sifatida qabul qilindi. Ismoil Gaspirali *"Rossiyada musulmonlar"* asarida musulmon jamiyatining "go'yo insoniyatning qolgan qismidan yakkalanib qolgandek, o'zining eski g'oya va xurofotlarining tor va bo'g'uvchi olamida zaiflashganini" ta'kidlab, bu jamiyatning izolyatsiyasi va yakkalanishini tanqidiy tahlil qildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

ABDIRASHIDOV Z. (2022) İsmail Gaspıralı ve XX. Yüzyılın Başlarında Türkistan (Temaslar - İlişkiler - Tesir). İstanbul: Selenge Yayınları.

AKÇURA Y. (1911). "Türklerin Büyük Muallim ve Müverrihi İsmail Bey Gasprinski", Türk Yurdu, 1/22: 368.

ALLWORTH E. ed. (1988). The Tatars of Crimea: Return to the Homeland, Durham: Duke University Press.

DEVLET N. (1988). İsmail Bey (Gaspıralı), Ankara: Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları.

FISHER A. W. (1988). "A Model Leader for Asia, Ismail Gaspirali", ed. Allworth Edward A. The Tatars of Crimea: Return to the Homeland, Durham: Duke University Press: 11-26.

GASPIRALI İ. (2019). Seçilmiş Eserleri: II. Fikri Ederleri. Neşre hazırlayan: Yavuz Akpınar. İstanbul: Ötüken.

GASPIRALI İ. (2022) Seçilmiş Eserleri: IV. Eğitim Yazıları (Usûl-i Cedit Eğitim Hakkındaki Yazıları, Eserleri), haz.: Yavuz Akpınar, İstanbul: Ötüken.

GASPRINSKIY İ. (1881). Russkoye Musulmanstvo: Mısli, Zametki i Nablyudeniya Musulmanina, Simferopol.

GÜNDOĞDU A. (2012). "Gaspıralı İsmail Bey ve Türk Aydınlanması", Düşünce Dünyasinda Türkiz Siyaset Ve Kültür Dergisi, 17: 11-24.

İBRAHİMOV A. (1984). "Tatarlar Arasında Revolyutsiya Hereketleri", Eserler, Tarihi Hezmetler (1911-1927), Kazan.

İPEK, C. D., GÜLER M. C. (2023). "The Origins of the Unity Idea in the Turkic World", Bilig, 105: 129-158.

KHALID A. (1998). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia, Berkeley: University of California Press.

KIRIMER C. S. (2015). Gaspıralı İsmail Bey (Dilde, Fikirde, İşde Birlik), yayına hazırlayan Cezmi Bayram. İstanbul: İstanbul Türk Ocağı Yayınları.

KIRIMLI H. (1996a). Gaspıralı, İsmâil Bey, İstanbul: TDV İslâm Ansiklopedisi C. 13: 392-395.

LAPIDUS I. M. (1988). A History of Islamic Societies, New York: Cambridge University Press.

LAZZERINI E. (1988). "Ismail Bey Gasprinskii (Gaspirali): The Discourse of Modernism and the Russians", ed. E.A. Allworth, The Tatars of Crimea: Return to the Homeland, Durham: Duke University Press: 149-169.

MİROPİYEV M. (1883). "Kakiye Glavmye Printsipı Doljnı Bıt Polojenı v Osnovu Obrazovaniya Russkih İnorodts-musulman?" Reç, Proiznesennaya na Godiçnom Akte Turkestanskoy Uçitelskoy Seminarii 30.08.1882 g. Prepodavatelem Seminarii g. Miropiyevım, Turkestanskiy Sbornik, S. Petersburg, Cilt: 361: 134-145.

MİROPİYEV M. (1884). "Kakiye Naçala Doljnı Bıt Polojem v Osnovu Obrazovaniya İnorodtev: Po Povodu Broşyurı İsmail beya Gasprinskogo 'Russkoye Musulmanstvo'", Rus, №XVII: 24-41.

ORTAK Ş. (2022). "Arşiv Belgeleri Işığında Osmanlı Yönetiminin Gaspıralı İsmail Bey'e Karşı Tutumu", Karadeniz Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, 8/14: 109-131.

"Profesör Vambery ve Rusya Müslümanları", (1907). Vakit, S. 119: 1.

RUTHVEN M. (1984). Islam in the World, New York.

SAĞLAM S. (2019). "İsmail Gaspıralı'da Millet ve Milliyetçilik", 21. Yüzyılda Eğitim ve Toplum, 8/24: 437-457.

SIDDIQI M. (1982). Modern Reformist Thought in the Muslim World, İslamabad: Islamic Research Institute.

TOPSAKAL T. (2018). "Rusya Türklerinin ve Müslümanlarının Milli ve Medeni Bilinçlenmelerinde Tercüman Gazetesinin Rolü", Karabük Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 8 (2): 398-413.

VALİDOV C. (1923). Oçerk İstorii Obrazovannosti i Literatusı Voljskih Tatar (do Revolyutsii 1917 g.), Moskva-Petrograd.

VOLL J. (1982). Islam: Continuity and Change in the Modern World, Boulder.

YILMAZ K. (2022). "Vizyoner Bir Lider Olarak Gaspıralı İsmail Bey", Türkiye Eğitim Dergisi, 7/2: 365-379.

KASIM TINISTANUULU'NUN (TINISTANOV) KIRGIZ TÜRKÇESI EĞITIMINE KATKILARI

İbrahim ATABEY[9*]
(Turkiya)

Özet

Kasım Tınıstanuulu, Kırgız Türkçesi ve Eğitimi alanında önemli ve yol gösterici çalışmalar yapmış bir dilci, yazar, şair, eğitimci ve devlet adamıdır. Türklük, Türk dili, Manas Destanı vb. konularda yaptığı çalışmalarından dolayı Stalin'in uyguladığı "Kızıl Kırgın"da suçlanmış ve 1938 yılında, Kırgızistan'ın başkenti Bişkek yakınlarındaki bir tuğla ocağında kurşuna dizilmiştir. Burada, benzeri suçlamalarla 138 kişi katledilmiştir. Burası, 1991'de bağımsızlığın kazanılmasından sonra "Atabeyit" olarak adlandırılmıştır.

Kasım Tınıstanuulu, Kırgız Türkçesi için okuma yazma kitapları ve ders konularına uygun metinler yazmış, Arap alfabesi ve Latin alfabesi ile Kırgız Türkçesi için harf tabloları oluşturmuştur. Latin harfleri ile hazırladığı Kırgız Türkçesi alfabesi, günümüzde Türkçenin yazımı için hazırlanan ortak alfabe ile benzerliği ve örtüşmesi açısından önemlidir. Tınıstanuulu, 1926 yılında Bakü'de toplanan I. Türkoloji Kongresi'ne bir bildiri ile katılmıştır.

Bu çalışmada, Kasım Tınıstanuulu'nun Kırgız Türkçesi eğitimi hakkındaki eserleri hakkında bilgi verilecek ve 1991'den beri gündemden düşmeyen "Ortak Türk Alfabesi" ve Kırgızistan'da Latin alfabesine geçme çalışmalarında onun teklif ettiği alfabe tablosundaki harfler değerlendirilecek, bu harflerin günümüze yansımaları tartışılacaktır.

Anahtar kelimeler: alfabe, dil çalışmaları, Kasım Tınıstanuulu, Kırgız Türkçesi, Kırgız Türkçesi eğitimi

* Dr. Öğr. Üyesi, Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi, Edebiyat Fakültesi, Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Ankara-Türkiye ibrahim.atabey@hbv.edu.tr ORCID: 0000-0003-1771-5144

Abstract

Kasım Tınıstanuulu is a linguist, writer, poet, educator and statesman who has done important and guiding work in the field of Kyrgyz Turkish and Education. He was accused of the "Red Resentment" implemented by Stalin because of his works on Turkishness, Turkish language, Manas Epic etc. For these reasons, he was executed in a brick quarry near Bishkek, the capital of Kyrgyzstan, in 1938. Here, 138 people were murdered on similar charges. This place was named "Ata-Beyit" after gaining independence in 1991.

Kasım Tınıstanuuluu wrote literacy books and texts suitable for the course subjects for the Kyrgyz Turkish language. Tınıstanuulu created letter tables for the Arabic and Latin alphabets and for Kyrgyz Turkish. The Kyrgyz Turkish alphabet, which he prepared with Latin letters, is important in terms of its similarity and overlap with the common alphabet prepared for writing Turkish today. Tınıstanuulu participated in the 1st Turkology Congress held in Baku in 1926 with a declaration.

In this study, information will be given about Kasım Tınıstanuulu's works on Kyrgyz Turkish education. The letters in the alphabet table he proposed will be evaluated in the "Common Turkic Alphabet", which has been on the agenda since 1991, and in the efforts to switch to the Latin alphabet in Kyrgyzstan, and the reflections of these letters on the present day will be discussed.

Keywords: alphabet, language studies, Kasım Tınıstanuulu, Kyrgyz Turkish, Kyrgyz Turkish education

1. Kasım Tınıstanuulu'nun Hayatı[10]

Kasım Tınıstanuulu, Kırgız Türkçesinin işlenerek edebî bir dil hâline gelmesi için büyük çaba göstermiştir. Onun bu çabası, Stalin Dönemi'nin uyguladığı "Kızıl Kırgın"da, 1938 yılında katledilmesiyle sonuçlanmıştır. Sovyetler Birliği dağılıncaya kadar, hayatı ve eserlerine konulan yasak sebebiyle uzun süre hakkında çalışma yapılamamış, haber yayımlanamamıştır. Tınıstanuulu, Kırgız Türkçesine çok

[10] Yazarın kendisi hem "Tınıstanov" hem de "Tınıstanuulu" soyadlarını kullanmıştır.

yönlü bakmış ve bunu "dil, edebiyat, eğitim, yayın" olmak üzere dört temel üzerine oturtmuş; Kırgız Türkçesinde yayımlanacak olan bir gazete için de çalışmalara başlamıştı. O, bu alanlardaki çalışmalarının bir sonucu olarak ilk doçent (1932) ve profesör (1936) olan Kırgız aydını ünvanını da almıştır (Kayıpov, 2005: 376). Bütün bunları, 37 yıllık (1901-1938) kısa bir ömre sığdırmıştır (Cigitov, 2005: 79).

Tınıstanuulu, 10 Eylül 1901 tarihinde Issık Köl'ün güney kıyısında yer alan Çırpıktı köyünde, çiftçi bir ailenin çocuğu olarak dünyaya gelmiştir (Erkebayev, 1991: 177). Babasının Arap harfleri ile okuma yazma bilmesi, oğlunu köyünden uzağa eğitime göndermesi, ailesinin çok fakir olmadığını göstermektedir (Cigitov, 1991: 71). Tınıstanuulu, Arap harfleri ile okuma yazmayı babasından öğrendi (Artıkbayev 2004: 112). Kendi köyünde başladığı dinî eğitime, 1914 yılına kadar Sazanovka köyü ve Baysorun'daki Özbek okulunda devam etmiştir. Babası onu, 1914-1916 yıllarında arasında Karakol (Prcevalsk) şehrindeki Rus okulu Rus-Tuzem okuluna göndermiştir (Erkebayev, 1991: 177).

Tınıstanuulu, Kırgız Türklerinin "Ürkün"[11] adını verdiği, Çarlık Rusyası'nın 1916 yılındaki kanlı saldırısı sonucunda Çin'e kaçanlar ile beraber gitmiş; halkın yaşadığı zorlukları görmüştür (Artıkbayev, 2004: 112). Bir soykırımla sonuçlanabilecek bu isyan Tınıstanuulu'nu çok etkilemiş, "Okuu Cazuu Bil" (Okuma ve Yazma Öğren) adlı kitabında yer alan "Cıl-1916" (Yıl 1916) başlıklı yazısında şöyle demiştir:

"Cıl-1916-abdan korkunuçtuu cıl. Al cıldagı tögülgön cazıksız kedey kanı, bul küngö çeyin eldin esinde. Oşol kezdegi kedey kanına sugarılgan padişa töröölörünön kılıçı bul kündö da eldin köz aldında turat." (Tınıstanuulu, 1927: 26). (Yıl 1916. Son derece dehşetli bir yıl. O yıl dökülen günahsız yoksulların kanı, bu güne kadar halkın hafızasındadır. O zaman yoksul kanı içen Çarlık devlet adamlarının kılıcı, bu gün de halkın gözünde canlanmaktadır.)

Tınıstanuulu, Taşkent'teki Kazak-Kırgız Maarif Enstitüsünde

[11] Ürkün: 1916 yılında, Türkistan'da Çarlık Rusyası'na karşı başlayan isyanlarda, Kazak ve Kırgız Türkleri çok ağır kayıplar vermiştir. Bu isyan sonucunda birçok Kırgız şehit olmuş veya ülkeyi terk edip Çin'e gitmiştir. Kırgızlarda endişe ve korku yarattığı için bu olaya "Ürkün" denmiştir.

1919 yılında başladığı eğitimini 1924 yılında tamamlamıştır (Cigitov, 1991: 72). Taşkent'te yayınevlerinde çalışmış (Artıkbayev, 2004: 112); ayrıca Taşkent ve Almatı'da çıkan "Öris", "Ak Col" "Uçkun" ve "Tilçi" gazetelerinde "Kıt" takma adıyla Kazak Türkçesinde şiirler yazmıştır (Bektenov 1991: 7).

Tınıstanuulu, Taşkent'te Kazak Türkçesi ve Kırgız Türkçesi ile yayımlanan "Çolpon" ve "Cas Kayrat" adlı dergilerin yayın kurulu üyeliğinde bulunmuş; "Cas Kayrat" dergisinin 1924 yılı Ocak, Şubat, Mart, Nisan sayılarında "Kelgin" takma adıyla *Mariyam Menen Köl Boyunda* (Mariyam ile Göl Kıyısında) adlı ilk hikâyesini yayımlamıştır (Bektenov, 1991: 8). Uzun süredir Kazak Türkçesi ve Kırgız Türkçesinde yazdığı şiirlerini, 1924 yılında Moskova'daki Sovyet Sosyalist Cumhuriyetleri Birliği Halkları Basımevine göndermiş ve 1925 yılında *Kasım Irlarının Cıynagı* adıyla basılınıştır (Cigitov, 2005: 81).

Tınıstanuulu, 1924 yılında Türkistan Cumhuriyeti Akademi Merkezinde, Kırgız Vilayeti Kâtibi olarak görevlendirilir (Artıkbayev, 2004: 113) ve Kırgız Türkçesi ile kitaplar yayımlamaya başlar (Cigitov, 1991: 72). 1925 yılında da *Erkin Too* gazetesinin redaktörü olur (Artıkbayev, 2004: 113).

Tınıstanuulu, Kırgızistan'da 1927-1930 yılları arasında Kırgız Halk Eğitimi Başkanı, yardım paralarıyla çıkardığı eğitim ve edebiyat dergisi *Canı Madaniyat Colunda* dergisinin müdürü; 1930-1937 yılları arasında da *Kırgız Medeniyetinin Kuruluşu Enstitüsü*nde önce memur sonra müdür olarak çalışmıştır (Artıkbayev 2004: 113).

Millî Eğitim Bakanlığı görevi sırasında, gençlere eğitim vermek, eğitimi olınayan orta yaşlılara okuma yazma öğretmek, meslek okullarının sayısını artırmak gibi sorunlarla ilgilenmiş; ders kitapları yazmıştır. Kırgız Türkçesinin Latin alfabesine geçmesi planını uygulamaya koymuş; gazete ve dergilerde konuyla ilgili makaleler yayımlamıştır (Cigitov, 2005: 82).

Tınıstanuulu; dil, edebiyat ve eğitim konularında alanın ileri gelenleriyle görüşmeyi de ihmal etmemiştir. Bunların arasında Kazak Türkü aydınları Mağcan Cumabayev, Muhtar Avezov ve Ahmet Baytursunov'u sayabiliriz.

2. Kasım Tınıstanuulu'nun Hazırladığı Arap Harfli Okuma Yazma Kitapları

2.1. Okuu Kitebi (Okuma Kitabı)

Kasım Tınıstanuulu, Kırgız Türkçesi eğitimi için ilk Arap harfli okuma yazma öğretme kitabını, 1924 yılında yazınış; Kırgız Türkçesinde öğretim yapan ilk ve orta dereceli okullarda okutulmak üzere ders kitapları hazırlama kurullarının çalışmalarına katılmıştır (Cigitov, 2005: 81). Bu çalışmalara katılmasının en önemli sebebi, o yıllarda Kırgız Türkçesini yazı dili olarak bilen Kırgız aydını yoktu. Bundan dolayı edebiyat kitabını yazma görevi Tınıstanuulu'na verilmiştir. Ders kitabına konulacak şiir, hikâye gibi metinleri de kendisi yazmıştır. Metinlerin, hitap ettiği yaş grubuna uygun olarak yazılması, eğitim açısından önemlidir.

Sovyet Türkistan Cumhuriyeti, Ocak 1924'te yapılan XII. Kongre'de şöyle bir karar almıştır:

"Sovyet dönemine ait hiç okuma kitabı ve edebiyatı olmayan milletler, Kara Kırgızlar ve Tarançılar için okuma kitapları ve teçhizatı o halkın dili ile kaleme alınıp neşredilsin."

Bu kararı bir fırsat olarak gören Tınıstanuulu, ilkokula giden Kırgız çocukları için Arap harfleriyle "Okuu Kitebi" adlı okuma yazma kitabını hazırlamış ve 1924'te Taşkent'te bastırmıştır (Bektenov, 1991: 8).

Okuu Kitebi, Kırgız Türkçesinin ilk dil bilgisi kitabıdır. Tınıstanuulu bu eserde, Kazak Türkü Ahmet Baytursunoğlu'nun belirlediği yazım kurallarını Kırgız Türkçesine uyarlamıştır (Demir, 2015: 9).

Kırgız edebiyatı tarihi araştırmacıları, Kasımalı Bayalinov'un 1926 yılında yazdığı "Acar" adlı hikâyeyi, Kırgız Türkçesinde yayımlanan ilk hikâye olarak kabul etseler de ilk küçük hikâye örneklerini, Tınıstanuulu'nun kaleme aldığı ve *Okuu Kitebi*'nde yer alan eserler oluşturmaktadır (Bektenov, 1991: 9).

دۇنيە نۇن ادمگەچىلەرى، بيركسكيلە!!

6981

قاسم تينسنائق

اوقۇۇ كيتەبى

(قرغز تيلندە)


ئيرنچى باسقچ ماكندىتر ئازچۇن

ئبيرنچى كيتەب.

اوتو ئزيا باسما سوز تاراتۇ مەكەمەسى.
تاشكەن. 1924 جل.

2.2. Okuu Cazuu Bil (Okuma Yazma Öğren)

Kasım Tınıstanuulu'nun Arap harfleriyle okuma yazma öğretimi için yazdığı ikinci eser, 1927 yılında basılan "Okuu Cazuu Bil" adlı kitaptır. Bu kitap, aşağıdaki sayfalarda görüldüğü gibi, Osmanlı Türkçesi veya Kur'an-ı Kerim okumayı öğretme kitaplarına yöntem açısından benzemektedir.



چ چ چ



چارا

پ پ پ

اپا	پارا	اچ
اچا	اپات	چار
چارا	ارچا	چارا

اچتا ات چاپا اچ-تا ات چاپ-پا

چارارپا ارچاچارا اچا ارچا

اچ ات ات اچتا

3. Kasım Tınıstanuulu'nun Alfabe Çalışmaları

1925 yılında, Sovyet Sosyalist Kırgız Özerk Bölgesi Eğitim Bakanlığı bünyesindeki Akademik Bilim Merkezi Başkanlığına getirilen Tınıstanuulu, 1925-27 yılları arasında, *Canı Alfabit Dostoru* adlı derneğin başkanlığı, *Millî Yeni Alfabe Komitesi*nin başkan yardımcılığı ve *Sovyetler Birliği Yeni Alfabe Komitesi* üyeliği görevlerinde bulunmuştur.

Tınıstanuulu, 1925 yılında K. K. Yudahin ile birlikte Kiril alfabesine dayanan Kırgız alfabesi taslağını hazırlamış (Erkebayev, 1991: 184); ancak onun tasarladığı bu alfabe, Kırgızistan delegeleri içinde katıldığı, 1926 yılında Bakü'de toplanan *Birinci Uluslararası Türkoloji Kongresi*'nde gündeme alınmamış; onun yerine Latin alfabesi tartışılmıştır. Tınıstanuulu, bu Kongre'de "Yeni Kırgız Alfabesinin Meydana Getiriliş Prensipleri Hakkında" adında bir bildiri sunmuştur (Cigitov, 2005: 82).

Tınıstanuulu, önce Kırgız Akademi Merkezi üyesi, sonra da Kırgızistan Muhtar Sovyet Sosyalist Cumhuriyeti, Maarif Komiseri olduktan sonra Kırgız Türkçesi alfabesi ve imlasının ilke ve kurallarını belirlemiştir.

Kırgız yazar ve şairleri arasında, Kırgız Türkçesi alfabesini düzenleyen İşenaalı Arabayev ve Daniyarov'un yanında başı Tınıstanuulu çekmiştir (Ploskiy, 1991: 269).

Tınıstanuulu, bundan sonra bütün mesaisini alfabeye ayırmış; Kırgız Türkçesinin Latin harflerine dayanan alfabesinin meydana getirilmesi için çalışmış ve muhaliflere karşı bu alfabeyi savunmuştur. Çünkü o dönemde *Erkin Too*, *Kommünist* ve *Canı Madaniyat Colunda* adlı gazete ve dergilerde Arap alfabesini öven ve yeni alfabeyi eleştirip reddedenler olmuştur. Tınıstanuulu, bu eleştirilere karşı çıkmış ve yeni alfabeyi savunan bir dizi makale yazmıştır (Erkebayev, 1991: 184).

Tınıstanuulu, Haziran 1925'te Bişkek'te düzenlenen *Birinci Kırgızistan Muallimler Kongresi*nde, Kırgız Türkçesinin Arap alfabesini bırakıp Latin alfabesine geçmesine dair bir bildiri sunmuştur. Kongre'nin ana konusu alfabe değişikliğiydi ve bu konunun uzmanları çağrılmıştı. Tınıstanuulu'nun bildirisi özetle şöyleydi (Tınıstanov, 1925: 261):

"Günümüz medeniyet zamanı, yarış zamanıdır. Medeniyete hızlı bir şekilde erişmek için çabucak medeni olmak için her bir iş kolay olmayı diler. Medeniyetin esası edebiyat ve yayındır. Şimdi kullandığımız Arap harfleri, medeniyete pek çok engel koymaktadır. Bu sebeple, Birinci Muallimler Kongresi, Kırgızların kullandığı Arap harflerinin yerine, medeniyet yolunda kolaylık sağlayacak olan Latin harflerinin kullanılması kararını almalıdır." (Bektenov, 1991: 10).

O yıllarda, yeni alfabenin, yani Latin alfabesinin düzenlenmesine karşı çıkan, özellikle İşenaalı Arabayev ve yanındaki aydınlar, Kazak Türkçesi okuma kitapları meydana getirmekte olan *Alaş Orda*cıların meşhur eğitimcisi Ahmet Baytursunov'u da Kongre'ye davet etmişti. 25-27 Mayıs 1926 tarihinde yapılan müzakerelerde, Arabayev ile Baytursunov'un başını çektiği aydınlar ile Latin alfabesine geçmek isteyenler arasmda geçen sert tartışmalardan sonra Latin alfabesine geçme fikri, tarihî bir karar olarak aşağıdaki esaslarda kabul edilmiştir:

1. *Tınıstanuulu'nun fikri doğru olarak kabul edilsin.*

2. *Latin alfabesine geçme meselesinin mahallî, ilmî ve pedagojik kısmının Kongre'ye bırakılmasına izin verilsin.*

3. *Arap alfabesinin düzenlemesi bundan böyle durdurulsun.*

4. *Alfabe meselesi, Kongrede kifayetsiz hiçbir kimseye bırakılmasın; Yoldaş Kasım Tınıstanuulu'na tevdi olunsun* (Tınıstanov, 1925: 259).


4. Tınıstanuulu'nun Latin Harflerini Esas Alan Kırgız Türkçesi Alfabesi

Kırgızistan'da 1926 yılında, *Yeni Alfabe Komitesi* kuruldu ve başkan vekilliğine Tınıstanuulu getirildi. Tınıstanuulu, "Baku Kalaasında Bolo Turgan Turkologiya Sezdi Cana Anın Kadırı" (Bakü Şehrinde Yapılan Türkoloji Kongresi ve Onun Önemi) adıyla bir makale yazdı ve *Erkin Too* gazetesinin 8 Nisan 1926 tarihli 15. sayısında yayımladı. *Tınıstanov* Bakü'deki Kongre'de, Latin harflerine dayanarak oluşturduğu *Kırgız Türkçesi Alfabesi* hakkında bilgi verdi ve Sovyetler Birliği bünyesindeki Türklerden herhangi birinin edebiyatını diğerinin okuyup anladığını, birinin medeni açıdan gelişmesini diğerinin örnek alıp benimsediğini ve onların dillerinin birbirine benzediğini söyledi. Bunun sonucunda da Latin alfabesindeki harflerin bütün Türklerde ortak kullanılması gerektiği kanaatini belirtti (Bektenov, 1991: 11).

Tınıstanuulu'nun bildirisi Kongre'de kabul edildikten sonra onun Latin alfabesine dayanarak düzenlediği, 24 harften oluşan *Kırgız Türkçesi Alfabesi*, 29 Haziran 1926'da *Erkin Too* gazetesinde yayımlandı (Bektenov, 1991: 10-11). Bu alfabe, 1934'te Frunze'de (Bişkek) basılan ve Tınıstanuulu'nun Kırgız Türkçesi dil bilgisi kuralları ve sorunlarını inceleyip terimlerini oluşturduğu *Proekt Novoy Orfografii Kirgizskogo Literaturnogo Yazıka* (Kırgız Edebî Dilinin Yeni Usullerinin Kuralları) adlı eserde de örnekleriyle yer aldı (Özgen, 2014: 225).



Tınıstanuulu'nun aşağıda yer alan Latin alfabesine dayan Kırgız Türkçesi alfabesindeki harfler ile 1991 yılında İstanbul'da, Marmara Üniversitesinde kabul edilen "Ortak Türk Alfabesi" ile büyük oranda örtüşmektedir (Atabey, 2018: 478). Ortak Türk Alfabesi, 2024 yılındaki Türk Devletleri Teşkilatı toplantısında tekrar gündeme getirilmiş ve uygulanması yönünde tavsiye kararı alınmıştır.



Imlanьn ereçeleri

I. ADABIJ TILDEGI FONEMALARDьN SASTABь ÇANA ALIPPENIN TARTIBI

1. Adabij tilde 37 fonema qoldonulat da, bulardьn iclnen 31 fonema ajrьm tamoqalar menen belgilenet, qalqan 6 yndyy fonema imlada qoş tamoqalar menen belgilenip, alardьn sүrettery alippenin qatar tartibinde kersetylbejt.

a) alippenin tartibi, alardьn basma çana çazma tyrlery:

Basma		Çazma		Oquluştarь	Basma		Çazma		Oquluştarь
Baş tamoqalar	Kiçine tamoqalar	Baş tamoqalar	Kiçine tamoqalar		Baş tamoqalar	Kiçine tamoqalar	Baş tamoqalar	Kiçine tamoqalar	
A	a	*A*	*a*	a	O	o	*O*	*o*	o
B	b	*B*	*b*	bь	Ө	ө	*Ө*	*ө*	ө
C	c	*C*	*c*	cь	P	p	*P*	*p*	pь
Ç	ç	*Ç*	*ç*	çь	Q	q	*Q*	*q*	qь
D	d	*D*	*d*	dь	R	r	*R*	*r*	rr
E	e	*E*	*e*	e	S	s	*S*	*s*	ьs 1)
G	g	*G*	*g*	gi	Ş	ş	*Ş*	*ş*	ьş 2)
Gj	gj	*Gj*	*gj*	gjь	T	t	*T*	*t*	tь
I	ı	*I*	*ı*	i	U	u	*U*	*u*	u
J	j	*J*	*j*	ij	Ү	ү	*Ү*	*ү*	ү
K	k	*K*	*k*	ki	Z	z	*Z*	*z*	ьz 3)
L	l	*L*	*l*	lь	b	ь	*b*	*b*	ь
M	m	*M*	*m*	mь	F	f	*F*	*f*	fь
N	n	*N*	*n*	nь	X	x	*X*	*x*	xь 4)
Ң	ң	*N*	*ң*	ьң	V	v	*V*	*v*	bv
					H	h	*H*	*h*	he

1) S tamoqa V çana R tamoqalardьn aldьnda Sь bolup, qalqaa ynsyz tamoqalardьn aldьnda ьS bolup oqulat.
2. Ş tamoqa V aldьnda qana Şь bolup oqulat.
3) Z tamoqa R tamoqanьn aldьnda Zь bolup, qalqan ynsyzderdyn aldьnda ьZ bolup oqulat.
4) V tamoqa z, l, n, r, s tamoqalardьn aldьnda Vь bolup, qalqan ynsyzderdyn aldьnda bV bolup oqulat.

25

2. A, O, U, Ө, Y, E тыбыştarына oqşoqon, ajtылыş çaqынan oşoloroqo ete çaqын, Ө yndyy тыбыş bar. Bul тыбыştar cынында ozynce maanige ee bolqon fonemalar. Biroq, bul fonemalardын alippe sastaвында ajrыqca tamqalarы çoq. Bul fonemalardын çazuuda syretteryn kersetkende, ozderyne ajtылыş çaqынan çaqын fonemalardын tamqalarын qoş qaвattap çazыp qana вelgilejвiz. Maselen:

AA	OO	UU	ӨӨ	YY	EE
AArы	OOr	UUrn	ӨӨn	Kyy	EEr
AAқы	OOru	UUl	ӨӨnө	Kyylө	EEn
Qaarы	Qoroo	Quur	Tөөnө	Irdyy	EErci
Taarы	Tooru	Tuur	Kөөlө	Tildyy	Keer
Çaa	Sooru	Suur	Kөвөө	Syrdyy	Kekeer
Saa	Sooron	Sulun	Çөө	Yndyy	Teeçik
Taan	Boor	Quuru	Cөө	Meejlyyn	Meelej
Çaan	Çoor	Uruu	Cөөlmөk	Seryyn	Teele
Çaat	Coor	Quunaq	Mөөnөt	Keryy	Meele
Qaat	Çoop	Çuurat	Dөөlөt	Kejyy	EEnde

3. Yndyy тыбыştar atqarqan mildetteri çaqынan çana ajtылыş çaqынan tөmenky tyrkymderge вelynet.

a) atqarqan mildetteri çaqынan:

A, O, U, Ы=çoon yndyylөr
E, Ө, Y, I =icke yndyylөr

в) ajtылыş çaqынanI

A, O, U, E, Ө, Y=sozulma yndyylөr
Ы, I =qoçoqөj yndyylөr
A, Ы, E, I =acыq yndyylөr
O, U, Ө, Y =erin yndyylөr

4. Ynsyz тыбыştar da atqarqan mildetteri çaqынan çana ajtылыş çaqынan tөmenky tyrkymderge вelynet:

a) atqarqan mildetteri çaqынan;

B, C, Ç, D, L, M, N, Ң, P, R, S, Ş, Т, Z, J, V, X, F, H тыбыştarы sөz icinde, yndyy tamqalardы eercip, вirde çoon, вirde icke ajtыla вeret, oşonduqtan вular — TETIKTER dep atalыşat.

Q menen Ꝗ ыqыj çoon, K menen G ыqыj icke ajtы-

5. Tınıstanuulu'nun Diğer Çalışmaları

Tınıstanuulu; ders kitabı, alfabe, eğitim, yazarlık ve şairlik dışında dil bilgisi, sözlük ve terim konularında da eser yazmıştır. 23 Mayıs 1928 tarihinde, *Kırgız Halk Eğitimi Şubesi Bilim Merkezi Heyeti*'nin toplantısında, yabancı dillerden giren tamlama ve kelimelerin Kırgız Türkçesine zararlarıyla ilgili bir bildiri okudu. Bu bildiri, *Kızıl Kırgızistan* gazetesinin 27 Mayıs 1928 tarihli 60. sayısında yayımlandı (Bektenov, 1992: 26). Tınıstanuulu *Manas Destanı* ve *Semetey Destanı*'nın anlatıldığı ağızda, Arapça ve Farsçadan geçen kelime ve tamlamaların azlığına ve bu ağzın Özbek Türkçesine yakınlığına dayanarak Kırgız Türkçesi yazı diline Güney Kırgızlarının ağzının esas alınması gerektiğini söylemiştir (Ploskiy, 1991: 269).

Tınıstanuulu, hazırladığı *Kırgız Türkçesi Terminoloji Sözlüğü*'nü 1933 yılında bastırdı. Bu eser, Kırgız Türkçesinde yayımlanan ilk sözlüktür (Bektenov, 1992: 26).

Tınıstanuulu, E. D. Polivanov ile birlikte Karasayev, Uzakbay Abdıkaimov, Samançın Tazabekter'den yardım alarak *Manas Destanı*'nı Rusçaya çevirdi ama ölümünden sonra 1946 yılında basıldı (Bektenov, 1991: 13-14).

1934 yılında Bişkek'te öğretmenler ve bilim adamlarıyla yapılan eğitim konulu bir toplantıda sunduğu Kırgız edebî dilinin yeni ilkesi hakkındaki bildiride, Kırgız edebî dilindeki ağızları anlattı ve Kırgız edebî dilinin Güney ağzına dayanması gerektiğini vurguladı (Bektenov, 1992: 26).

1935 yılında Bişkek'te sunulan üç bildiri hakkında şu değerlendirme yapıldı:

"Kasım Tınıstanov'un 'Manas Destanı'nın Kırgız Halkı İçin Önemi' isimli bildirisi, konu bakımından çok önemlidir.

Manas hakkında çalışmaları bulunan Kazak yazarı Muhtar Avezov'a söz verildiğinde o, Kasım Tınıstanov'un sunduğu bildiriden sonra 'Bize söylenecek söz kalmadı.' demiştir.


Üçüncü bildiriyi, 'Manas'ı Rus diline çevirmenin asıl prensibi' ismiyle Prof. Polivanov sundu. Böylece 'Manas'ın Büyük Gazası' Rus diline çevrilip basıma hazırlanır. O külliyata, Kasım Tınıstanov redaktör olur ve ön sözü yazar. Ama maalesef, 1938 ile 1939 yıllarında Kasım tutuklanıp yok olur." (Bektenov, 1991: 14).

Kırgız çocuklarının eğitimi amacıyla beşinci sınıflar için *Kırgız Türkçesi Ek Bilgisi*'ni 1934 yılında, altı ile yedinci sınıflar için Kırgız Türkçesi söz dizimini 1936 yılında bastırdı (Bektenov, 1992: 28).

Tınıstanuulu'nun önemli çalışma alanlarından biri de terimler olmuştur. Türettiği kelimelerden bugün de kullanılan "at atooç" (zamir), "etiş" (fiil), "zat atooç" (ad) gibi dil bilgisi terimleri vardır.

Tınıstanuulu'nun *Ene Tilibiz* (Ana Dilimiz) adlı kitabı, Latin alfabesiyle yazılmış bir dil bilgisidir ve daha önce ısrarla vurguladığı gibi Güney Kırgızistan Ağzını esas almıştır.





soz. syjlom. tьnьş.

вajqoo

1.

el eqindi dьв ʏtty. ceв qoroooqo çьjnaldь. malcьlar qojuu
ɲьrqa вaştadь. dьjqandar oor qьzmattarьn ʏtyrydy. kyzdyn ømy-
ıy ajaqtadь. baldar, mektebke çьjnaldьşьв, sвaq oquj вaştoştь.

qozuвaj da, çumuştan вoşoв, mektebke ketti. mekteв ajьldan
ıraaq ele. qozuвaj, mektebke aвdan ornuqqandan kijin, atasьna
ŋat çazdь.

ajtajьn degen ojun çazьв вolqon sajь, qozuвaj sezynyn
ıjaqьna tьnьş belgilerin qojo вerdi. qozuвajdьn çazqan qatь
remenky:

„qadьrduu atama.

mektebke kirdim. oquuвuz çaqşь. mektebtin ici taza. qarь-
nьm toq. mektebten kiteв aldьm. tamaqtь da mekteв вeret. meni
saqьnвaj çata вer. kek qunanьmdь semirtip qoj. çazьnda su-
qatqa minem.

вalan: qozuвaj".

suroolor çana qьzmattar:

1) „mektebke kirdim" degende ece söz вar? „mek-
tebke" degende ece söz?

2) „mektebke kirdim." degen sözdön kijin qozuвaj emine
yeyn tьnьş (.) qojdu?

3) „kirdim" degen sözge çetвej tьnuuqa вolow?

4) „mektebke kirdim". degen sözdon kijin tьnвastan; „mek-
tebke kirdim oquuвuz çaqşь." dep, вarьn aralaştьrьв, coquu
syjleske вolow?

5) „toq" degen sözdy ajtвastan, „qarьnьm" dep ele
tьnsaq, „qarьnьm toq„ degendej tyşynyktyy вolow? emine yeyn?

qoruutundu.

1) ojloqon вir ojuвuzdu ajtьв toqtosoq, anь „syjlom"
dejвiz, maselen: „oquuвuz çaqşь" вir syjlom. „oquuвuz
çaqşь. mektebtin iri taza". mьnda eki syjlom.

6. Sonuç

Kasım Tmıstanuulu, çok yönlü bir yazar, şair, eğitimci, bilim adamı ve devlet adamıdır. Kırgız Türkçesinin 20. yüzyılın başında edebî dil olarak şekillenmesinde onun önemli etkisi ve yönlendirmesi olmuştur. Latin harflerine dayanan ilk Kırgız alfabesini oluşturmuş; Kazak Türkçesi ve Kırgız Türkçesi ile edebî ve ilmî eserler yazmıştır. Kırgız Türkçesinin çeşitli sorunlarını tespit edip çözüm yolları önermiştir.

Arap, Latin ve Kiril alfabelerine yaklaşımı, Tımstanuulu'nun yazı dili ve eğitime bütün olarak baktığım göstermektedir. Ona göre Kırgız çocukları ve gençlerinin hatta orta yaştakilerin eğitimi önemliydi. Hangi alfabe kullamlırsa kullanılsm kitap yazılması ve bunların okunması gerekirdi. Onun hedefinde özellikle çocuklar vardı ve onların seviyesine uygun eserler yazmıştır.

Kırgız Türkçesi, Kırgız edebiyatı, Manas Destanı gibi destanlar ona göre Türk milletinin hazinesi olduğu için eserlerinde bunları konu edinmiş; bundan dolayı da suçlanmış ve öldürülmüştür.

7. Tınıstanuulu'nun Kırgız Türkçesi ve Alfabe Hakkındaki Eserleri

Çoñdor Üçün Alippe (Büyükler İçin Alfabe), 1926.

Bizdin Til (Bizim Dil), 1927.

Ene Tilibiz 1. Bölük (Ana Dilimiz, 1. Bölüm), 1928.

Kırgız Tili Boyunça Okuu Kitebi (Kırgız Diline Göre Okuma Kitabı), 1929.

Ene Tilibiz 2. Bölük (Ana Dilimiz, 2. Bölüm), 1931.

Til Sabagı (Dil Dersi), 1932.

Kırgız Tilinin Morfologiyası (Kırgız Dilinin Şekil Bilgisi), 1932.

Til İliminin Terminologiyalık Sözdügü (Dil Biliminin Terminolojik Sözlüğü), 1933.

Kırgız Adabiy Tilinin Cañı Orfografiyasının Dolbooru (Kırgız Edebî Dilinin Yeni Yazı Projesi), 1934.

Kırgız Tilinin Sintaksisi (Kırgız Dilinin Söz Dizimi), 1936.

8. Kaynaklar

ARTIKBAYEV, Kaçkınbay, 2004, *20. Kılımdagı Kırgız Adabiyatının Tarıhı*, "TAC" CÇK, Bişkek.

ARTIKBAYEV, Kaçkınbay, 2013, *XX. Yüzyıl Kırgız Edebiyatı Tarihi*, (Çev. M. Dıykanbayeva), Bengü Yay., Ankara.

ATABEY, İbrahim, 2018, "Kırgız Aydını Kasım Tımstanov'un Sovyet İhtilali'nin İlk Yıllarındaki Dil ve Alfabe Çalışmaları", *100. Yılında Sovyet İhtilali ve Türk Dünyası*, (ed. Yunus Koç, Mikail Cengiz), HÜ Türkiyat Enstitüsü Yay., Ankara: 475-484.

BEKTENOV, Ziyaş, 1991, "Kasım Kanday Kişi", *Adabiy Çıgarmalar*, Bişkek.

BEKTENOV, Ziyaş, 1992. "Kasım Tmıstanov 'Zamandaştarım Cönündö Eskerüüler", *Adabiyat*, Bişkek.

CİGİTOV, Salican, 1991, "Kasımdın Akındık Önörü", *Keçeekinin Sabaktarı Azırkının Talaptarı*, Bişkek, Adabiyat.

CİGİTOV, Salican, 2005, "Kasım Tmıstanov (1901-1938)" *Türk Yurdu*, C: 25, S: 216, Ağustos: 79-84.

DEMİR, Çiğdem, 2015, "Kasım Tınıstanov'un Oquu Kitebi", *Ala Too Edebiyatı*, S: 4, Ocak-Şubat-Mart: 9-15.

ERKEBAYEV, Abdıganı, 1991, "Canı Madaniyatıbızdın Köç Başı", *Adabiy Çıgarmalar,* Bişkek: 177-191.

HAYİT, Baymirza, 1971, *Türkistan'da Öldürülen Türk Şairleri*, Kardeş Matbaası, Ankara.

KAYIPOV, Süleyman, 2005, "Kırgız Edebiyatı I", *Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi*, C: 31, T.C. Kültür Bakanlığı Yay., Ankara.

KUZAN, Emrah, 2016, *Kırgız Şairi Kasım Tınıstanov'un "Kasım Irdarının Cıynagı" Adlı Eserinde Dil ve Üslup*, Gazi Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı, Basılmamış Yüksek Lisans Tezi.

ÖZGEN, Nurcan, 2014, *Yirminci Yüzyılın İlk Yarısında Kırgız Edebiyatı Tarihi (1900-1950)*, TDK Yay., Ankara.

PLOSKİY, Vladimir, 1991, "Tagdırdagı Belgisiz Baraktar", *Ala-Too*, No. 9-10: 268-273.

TINISTANOV, Kasım, 1924, *Okuu Kitebi*, Taşkent

TINISTANOV, Kasım, 1925, "Kırgızıstandagı Canı Alfavit Üçün Küröştün On Cılı", *Ala-Too*, No: 9-10: 259-268.

TINISTANUULU, Kasım, 1927, *Okuu Cazuu Bil*, Taşkent.

CHO'LPONNING YANGI ANIQLANGAN TARJIMASI: "KVARTET" MASALI

Dildoraxon ABDULLAYEVA,
ADU professori, filologiya fanlari doktori
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon (1897–1938) o'z davrida jahon adabiyoti durdonalarini rus tili orqali o'zbek tiliga tarjima qildi. U o'zbekchalashtirgan badiiy asarlar rang-barang mavzularda, turli janrlarda bo'lib, barchasida Cho'lponni mohir tarjimon sifatida ko'rish mumkin. Ushbu maqolada Krilovning "Kvartet" masalining Cho'lpon tarjimasi borasidagi mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, tarjimachilik, masal, Krilov, Cho'lpon, qiyos.

Abstract. Abdulhamid Sulaymon oglu Cholpon (1897–1938) translated masterpieces of world literature into Uzbek through Russian during his time. The literary works he translated into Uzbek were on a variety of topics and in various genres, and in all of these works Cholpon can be seen as a skilled translator. This article presents observations on Cholpon's translation of Krylov's fable «The Quartet».

Keywords: Jadidism, translation, fable, Krylov, Cholpon, comparison.

Otasi Sulaymon bazzozning ma'rifatli xonadonida ta'lim va tarbiya ko'rgan Abdulhamid Cho'lpon yosh chog'idan turk, arab, fors, rus tillarini o'rganar, Tatariston, Ozarbayjon, Hindistonda chop etiladigan gazetalarni o'qib borar, Sharq va g'arb adabiyotlari bilan muntazam tanishar edi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, uning badiiy ijodga qadam qo'yishi bilan badiiy tarjima sohasiga kirib kelish davri bir vaqtga to'g'ri keladi. Adib ijodining ilk davri 1912–1914-yillar, ayni vaqtda badiiy tarjima sohasiga kirishga tayyorgarlik bosqichi ham bo'lgan.

Cho'lpon tarjimachilik sohasiga erta kirib kelgan va bu faoliyatni she'riy asarlar tarjimasi bilan boshlagan. Uning ilk tarjimasi haqidagi rasmiy sana 1919-yil bilan belgilanadi. Cho'lpon tarjimasidagi Ejen Pote qalamiga mansub "Baynalmilal ashulasi" "Ishtirokiyun" gaze-

tasining 1919-yil 19-oktyabr sonida chop etiladi. Ayni shu vaqtdan bir oy o'tib mazkur gazeta sahifasida Cho'lponning ikkinchi tarjimasi, ya'ni M.Kolsovning "Hoy, och kambag'al" (1919-yil 16-noyabr) she'ri chop etilgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Cho'lpon tarjima borasidagi faoliyatini oktyabr inqilobi (1917)dan keyin boshlagan. Bu davrga kelib Cho'lponning tarjimonlik shaxsiyatida boshlang'ich asoslar, malakalar mavjud edi, albatta [Raximov, 24].

Cho'lponning tarjimonlik faoliyati 20-yillarning o'rtalaridan nasrda jadallashdi. Bu davrda badiiy tarjima sohasida Cho'lpon singari sermahsul tarjimon yo'q edi. Hukmron mafkura talablari va topshirig'iga ko'ra ham rus va jahon adabiyoti namunalari o'zbek tiliga tez vaqtda o'girilishi, o'lka aholisiga adabiyot orqali ham ta'sir qilish siyosiy masala edi. Biroq tarjimonlarga bo'lgan e'tibor nihoyatda kam bo'lgani, ularning nomlari asarlarda, teatr afishalarida deyarli qayd etilmasligini Cho'lponning tarjimachilik haqidagi maqolalaridan bilish mumkin. 1935-yilda yozgan "Ko'lagada qolganlar" maqolasida Cho'lpon shunday bong urgan edi: "Bizning adabiyot sohasida, taassufga qarshi ko'lagada qolib ketgan, to'g'risi, ko'lagada qoldirilib kelgan(!) bir toifa bor. Bir chekkasi o'zim ham shu toifaga mansub bo'lganimdan shu toifaning ahvolini ko'pchilikka bildirib o'tay dedim. Yo'qsa u toifa allakimlar tomonidan – ataylabmi yo beparvolik natijasidami – haligacha ko'lagada qoldirilib keladi. U allakimlarning bu g'alati qilmishlari bir sistemaga aylanib borayotir. Shu uchun ham tovush chiqarib "qorovul" deyish lozim, zarur!"

Cho'lpon tarjimalari, xususan, masal tarjimalari haqida so'z borganda, adabiyotshunoslar Cho'lpon tomonidan I.Krilovning "Bo'ri bilan qo'zichoq" masalini tarjima qilganini ta'kidlashadi, xolos. [Шарафиддинов, 16; Раҳимов, 24; Улмасов, 22] Biroq 1935, 1937-yillarda chop etilgan "Adabiyot xrestomatiyasi" to'plamlarida rus masalnavisining "Kvartet" she'riy masali Cho'lpon tarjimasida bosilgani aniqlandi.

Olim Sharafiddinov va J.Sharifiylar hammuallifligidagi "Adabiyot" darsligi o'rta maktablarning 5-sinfi uchun mo'ljallangan bo'lib, O'zSSR davlat nashriyotida 1935-yilda chop etilgan. Bu darslikning titul varag'ida "Qaytadan ishlangan ikkinchi bosmasi" degan izoh mavjud. Mazkur izoh darslikning 1935-yildan avvalgi nashrlari

bo‘lganini hamda masalning qachon tarjima qilingani haqida ma’lumot berishi ehtimolini ko‘rsatadi. Mazkur darslikning 109–115-sahifalarida I.A.Krilov hayoti va ijodiga o‘rin ajratilgan bo‘lib, dastlab masalnavisning tarjimayi holi, so‘ngra “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, keyin esa “Kvartet” masallari berilgan. Har ikki masal matni so‘ngida, lotin yozuvida “Cho‘lpon tarjimasi” degan yozuv bor.

Biroq darslikning 1937-yildagi nashrida “Cho‘lpon tarjimasi” izohi uchramaydi. Bu yillarda Cho‘lpon va u singari jadid ziyolilarini qatl etishga qaratilgan mash’um Stalin qatag‘oni boshlangan, jadidlar nomlarini tarix sahifasidan o‘chirib tashlash kabi mavjud mafkuraning siyosiy maqsadi ushbu darslikda tarjimon nomini ko‘rsatmay chop etilganlikdan ham anglashiladi. Mazkur darslik “O‘quv pedagogik davlat nashriyoti”da chop etilgan bo‘lib, qaytadan ishlangan 4-nashri hisoblanadi. Ushbu qaydlardan 1936-yilda darslikning 3-nashri chop etilgani hamda 1937-yildagi darslik mundarijasiga ko‘ra 1936-yildagi mundarija o‘zgarmaganini xulosa qilish mumkin. Bu esa Cho‘lpon masallari tarjimalari 1937-yil va undan keyingi yillarda ham darsliklar orqali ko‘plab nusxalarda tarqalganini anglatadi.

“Kvartet” masali tarjimasining qo‘limizda mavjud ikkala darslikdagi matnlarida ayrim juz’iy farqlar bor. She’riy masal tarjimasidagi so‘zlarning yozilish shakllarida quyidagi tafovutlar ko‘rinadi:

1935-y.	1937-y.
xushovoz	xush-ovoz
har birisi	Harbirisi
asvab	Asbab
to‘rtavi	to‘rttovi
shoshmay turing	shoshmayturing
bir oz	Biroz
xotir jam	Xotirjam

Mazkur masal I.Krilov tomonidan 1811-yilda yozilgan bo‘lib, hajviy mazmunga ega. Cho‘lponning boshqa tarjimalari kabi bu masal ham ijodiy yondashilib amalga oshirilgan. Masalning birinchi bandi:

Крилов:	**Cho‘lpon:**
Проказница – Мартышка,	O‘zimiz bilgan maymunjon,
Осёл,	Undan so‘ng ayiq polvon,
Козёл,	So‘ngra eshak xushovoz,
Да косалапый Мишка	Undan so‘ng echki darvoz –
Затеяли сыграть квартет.	Tuzdilar bir kvartet.

Tarjimon maymun haqidagi “sho‘x”, “zumrasha”, “shumtaka”, “to‘palonchi” ma’nolarini beruvchi “проказница” so‘zini “o‘zimiz bilgan maymunjon” degan so‘zlar bilan almashtiradi. Bu o‘rinda “o‘zimiz bilgan” deganda o‘quvchi xayoliga maymunning tabiiy serharakatligi, bir joyda tek turmay, shoxdan shoxga sakrashi, turli qiliqlar qilishi darhol ko‘z oldiga keladi. Maymunday jonivor bilan avvaldan tanish kitobxonga “o‘zimiz bilgan” degan so‘zlar maymunning g‘ayrioddiy qiliqlariga ishora qilib, uni qaytadan eslatadi. Rus masalida “мартышка – мишка” so‘zlari qofiya bo‘lib kelgan bo‘lsa, Cho‘lpon ham ayni shu so‘zlarni “maymunjon – ayiq polvon” so‘zlarini qofiyadosh qilgan. Krilovda eshakka tavsif berilmagan bo‘lsada, Cho‘lpon kinoyali tarzda eshakning “xushovoz”ligini ta’kidlab o‘tadi. Qolaversa, masalning keyingi o‘rinlarida eshakning qichqirib gapirishi, aql o‘rgatishi haqida so‘z boradi. Xuddi shu kabi masalning asl matnida echki ta’riflanmagan bo‘lsa ham, Cho‘lpon tarjimasida bu jonivor “dorboz” deb tavsiflangan. Buni tarjimonning ijodiy yondashuvi deb izohlash mumkin.

Masalning keyingi bandida nota, bas, alt, skripka, lad kabi cholg‘u asboblari va musiqaga doir atamalar sanalgan bo‘lsa, tarjima matnida to‘rttala hayvonning «*Har birisi bittadan Torlik asvob keltir”*gani aytiladi. Shunga qaramay, bu hayvonlar qancha harakat qilishsa-da, biror ma’nili kuy chiqmaydi. Masaldagi:

Ударили в смычки, дерут, а толку нет, –

misralari tarjima variantida ritorik so‘roq gap orqali, ya’ni hayvonlarning birorta ham kuy chala olmaganlari kuchaytirilib, savol tarzida ta’kidlanadi:

Tintalashdi torlarni...
Qani
Ohang chiqqani?!

Cho‘lponning mahorati shundaki, tarjimada so‘zlar miqdorini ham saqlab qolgan:

Ударили - 1/ в смычки, - 2/ дерут, - 3/ а толку -4 / нет. -5/
Tintalashdi -1/ torlarni... -2/ Qani -3/ Ohang -4/ chiqqani?! -5/
Shundan so‘ng maymun so‘zlaydi.

Криловда:	Cho‘lponda:
“Стой, братцы, стой!» - кричит Мартышка, - Погодите!	*Maymun dedi: “Do‘stlarim!*
Как музыке идти? Вед вы не так сидите».	*Shoshmay turing, arzim bor:*
	To‘g‘ri o‘turish kerak,
	Ana shunda kuylar tor!

Asliyatda maymun boshqa hayvonlarga “Sizlar to‘g‘ri o‘tirmayapsizlar, bu ahvolda musiqa qanday paydo bo‘lsin?” deb tanbeh bersa, tarjimada “To‘g‘ri o‘tirish kerak, keyin tor kuylaydi!” deb buyruq beradi, so‘ngra “sozanda”larni joylashtira boshlaydi.

Криловда:	*Cho‘lponda:*
Ты с басом, Мишенка, садись против альта,	*Sen, ayiqjon, “bas”ingni*
	“Alt” yonida chalasan,
Я, прима, сяду против вторы.	*Men – boshlovchi bo‘laman...*
	Hammang hayron qolasan!

Bas, alt kabilar tarjimada satr osti izohida “Yevropa cholg‘u asboblari nomi” deb berilgan. “Prima” – ansamblning yetakchi partiyasi, kvartetning birinchi – yetakchi skripkachisi. Bu so‘z tarjimada “boshlovchi” deb o‘girilgan. “Вторы” – “ikkinchi” ma’nosidagi so‘z, bu o‘rinda skripkachiga jo‘rovozlik qiluvchi, ikkinchi skripkachidir. Cho‘lpon mazkur Yevropa cholg‘u asboblarini yaxshi bilgan. Lekin masalning mohiyati, urg‘u beriladigan mavzu iste’dodsiz va mahoratsiz biror nimaga erisha olmaslik haqida bo‘lgani sababli ayrim cholg‘u asboblari va musiqaga doir atamalarni aynan keltirmagan.

Криловда:	*Cho‘lponda:*
Разселись, начали квартет,	*“Hov” dedilar uch qardosh...*
Он всё таки на лад нейдет.	*Yana ohang chiqmaydi!*

Asliyatda keltirilgan “lad” atamasi tarjimada aynan keltirilmagan. “Lad” ma’lum tartibda joylashgan tovushlar tizimi hisoblanadi. “Lad”lar musiqiy asarning umumiy pafosini belgilaydi. Shunga ko‘ra, shodlik yoki qayg‘uni ifodalaydigan ladlarga bo‘linadi. Tarjimada “lad” atamasi o‘rnida “uch qardosh”ning “hov” deb kuylashga urinishi tasvirlangan hamda bu ifoda orqali o‘quvchi ko‘z o‘ngida hayvonlarning “kuylashi” jonliroq namoyon bo‘ladi.

Masalning davomida maymunning maslahati bilan ish qilinsa-da, kuy chiqmaydi. Eshakning maslahati esa bunday:

Криловда:	*Cho‘lponda:*
Кричит Осёл: “Мы, верно, уж поладим,	*Eshak deydi: “Biz endi*
Коль рядом сядем”.	*Chizilaylik bir qator!”*

Rus tilidagi “Коль рядом сядем”, ya’ni “agar yonma-yon o‘tirsak...” tarzidagi gapni tarjimon ixcham shaklda va aynan shu mazmunni bildiradigan “bir qator bo‘lib tizilib turmoq (o‘tirmoq)”ni Andijon shevasidagi “chizilmoq” orqali ifodalaydi. Eshakning maslahatiga boshqa hayvonlarning ko‘nganini Krilovda ko‘pgina so‘zlar orqali o‘qisak, Cho‘lponda juda ixcham shaklda berilganini ko‘ramiz:

Крилов:	*Cho‘lponda:*
Послушались Осла: уселись чинно в ряд;	*Ular bunga ham ko‘ndi.*
А всё таки Квартет нейдет на лад.	*Yana kuylamaydi tor!*

Hayvonlar shuncha urinsalar ham, biror kuy hosil bo‘lavermagach, ular o‘rtasida bahs, munozara chiqadi. Bu holat masalda quyidagicha berilgan:

Криловда:	*Cho‘lponda:*
Вот пуще прежнего пошли у них разборы	*Shundan keyin orada*
И споры,	*Boshlandi gap talashuv,*
Кому и как сидеть.	*Mashq o‘rniga talada*
	G‘ovur-g‘uvur va shov-shuv!

Asliyatdagi “пуще прежнего пошли” so‘zlaridagi “р” undoshining takrori – alliteratsiya hamda *“щ”, “ж”, “ш” shovqinli, sirg‘aluvchi tovushlari ishtiroki* asosida hayvonlar yig‘inidagi bahsli holat manzarasi yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bu esa tarjimada ham

to‘la saqlangan bo‘lib, ushbu band tarjimasidagi “shundan”, “boshlandi”, “talashuv”, “mashq”, “shov-shuv” so‘zlaridagi “sh” tovushining olti marta takrori hayvonlar o‘rtasidagi shovqinni assotsiativ tarzda ta’kidlaydi. Ana shu shovqin ustiga bulbul kelib qoladi, hayvonlar bulbulga quyidagicha iltimos qiladilar:

Криловда:	*Cho‘lponda:*
“Пожалуй, – говорят, – возми на час терпенье,	*Ular dedi: “Hoy bulbul,*
Чтобы Квартет в порядок наш привесть:	*O‘tunchimiz senga shu:*
И ноты ест у нас, и инструменты есть,	*Bir oz zahmatga kirgin,*
Скажи лишь, как нам сесть!»	*Ohangni eplab bergin!*
	Asbob, nota joyida,
	Lekin bundan yo‘q foyda,
	Chunki: o‘turush buzuq!
	Mana shunga yo‘l-yo‘ruq
	Topib bersang bo‘ladi,
	Tor ohangga to‘ladi!”

Asliyatda hayvonlar bulbuldan, bir soatlik sabr topib, Kvartetni tartibga keltirib berishni so‘raydilar. Tarjimada esa bu mazmun ixcham shaklda “Bir oz zahmatga kirgin Ohangni eplab bergin!” tarzida o‘girilgan. Hayvonlar bulbuldan, qanday o‘tirishimiz kerak (“Скажи лишь, как нам сесть!”), deb so‘rasalar, tarjimada kuy chiqmayotganining sababi “chunki o‘turush buzuq!” tarzida ma’no kuchaytirilib tarjima qilingan. Bu esa hayvonlarning avzoyi buzilgani, kayfiyati yaxshi emasligini yanada ta’kilashga xizmat qiladi. Bulbulning javobi masal xotimasi o‘rnida keladi.

Криловда:	*Cho‘lponda:*
“Чтоб музыкантом быть, так надобно уменье	*Bulbul dedi: “Yo‘q, do‘stlar!*
И уши ваших понежней, –	*Bunga kerak zo‘r hunar!*
Им отвечает Соловей, –	*Siz tushmangiz tashvishga:*
А вы, друзья, как ни садитесь,	*Uquv kerak bu ishga!*
Все в музыканты не годитесь».	*Qanday o‘tirsangiz ham,*
	Mashshoqlikdan xotir jam!”

O.Sharafiddinov "Bo'ri bilan qo'zichoq" masali tarjimasi haqida to'xtalib: "Men hech qachon bu masalni ruscha asli bilan solishtirib ko'rgan emasman: lekin o'ylaymankim, badiiy barkamollikda ular bir-biridan qolishmasa kerak" deb yozgandi. Ushbu fikr va munosabatni "Kvartet" masaliga ham tatbiq qilish mumkin.

"Kvartet" masalidan keyin "Krilovning masallari to'g'risida", "Krilov masallarida badiiy ustalik" nomli mavzular berilgan. Darslikdagi ushbu mavzular va I.Krilov tarjimayi holi haqidagi ma'lumotlarni ham Cho'lpon tayyorlagan, degan taxminiy xulosaga kelish mumkin. Chunki mantiqan olganda, ma'lum bir ijodkor asarining matnini o'rgangan va nashrga tayyorlagan mutaxassis qo'lidagi asarni, uning muallifi hayoti va ijodini atroflicha o'rganishi tabiiy. Shuningdek, I.Krilov tarjimayi holi va masallar haqidagi mavzularning yoritilish uslubi Cho'lpon uslubini eslatadi.

Shu o'rinda adabiyotshunos O.Sharafidinovning Cho'lpon tarjimalari haqida to'xtalib aytgan fikrlarini eslash joiz: "Cho'lponning she'riy tarjimada benihoya mohir ekanini ko'rsatmoq uchun yana bir misol keltiraman. O'tmish allomalaridan biri «she'rda tarjimon shoirning raqibi, nasrda esa muallifning qulidir» degan ekan. Nasrda tarjimon muallifning qulimi, yo'qmi – bu masalada bir narsa deyolmayman-u, lekin she'riy tarjimada tarjimon shoirning raqobatchisi ekani chindan ham to'g'ri. She'riy asarni tarjima qilish haddan tashqari qiyin, chunki chinakam she'r hech qachon biron ma'noni ifodalovchi quruq so'zlar yig'indisidan iborat bo'lmaydi. She'rda teran hayotiy mazmundan tashqari muayyan ruhiy holat, muayyan kayfiyat bo'ladi. She'rda har qanday hayot haqiqati turfa xil jilolarga ega bo'lgan hissiyot mavjlariga burkab beriladi. Nihoyat, she'r o'ynoqi, jarangdor, ravon ohanglar silsilasidan ham iboratdir. Binobarin, she'rni she'r bilan tarjima qilmoq kerak, she'rning mazmuninigina emas, uni san'at darajasiga ko'targan iqlimini, haroratini, badiiyatini ham ifodalamoq kerak". ["Guliston", 1990/2]

Cho'lpon o'zbekchalashtirgan ayrim tarjimalar turli yillarda ilk nashr asosida qayta nashr qilingan, boshqalari matbuotda e'lon qilingan bo'lsa-da, bu ishlar adib tarjimalarining juda oz qismini qamrab olgan. Cho'lpon tarjimalarining aksariyati keng jamoatchilikka ko'p ham ma'lum emas, ayrimlarining esa hozirgacha taqdiri noma'lum-

ligicha turibdi. Bu tarjimalar uning o‘z so‘zlari bilan aytganda, “ko‘lagada qolib” kelmoqda. Biroq adib tarjimalari soni va ko‘lami jihatidan bir nechta jild kitoblarga jo bo‘lguday ulkan hajmni tashkil qiladi. XX asrning 20–30-yillarida eski o‘zbek yozuvi va o‘sha davrdagi lotin yozuvida chop etilgan hamda bugungi kunda davlat kutubxonalari va arxivlaridagina bir nusxadan saqlanib qolgan, hozirgi kunda ilmiy va badiiy jamoatchilikka kam ma’lum bo‘lgan Cho‘lpon tarjimachiligining noyob va noma’lum sahifalarini tadqiq etish ishlari olib borilishi zarur. Cho‘lpon kabi jadid adiblarimizning noyob tarjima asarlarini aniqlash ishlari yakuniga yetganicha yo‘q. Bunday boy adabiy-ma’naviy merosni o‘rganib hamda mazkur asarlarni ilmiy muomalaga kiritish, Cho‘lpon tarjimalarining bir necha jildliklarini tayyorlash va kelajak avlodga yetkazish galdagi vazifalardan biri hisoblanadi.

Cho‘lpon tarjimasidagi Ivan Krilovning “Kvartet” masali 1935-yildan keyin qayta istifodaga kiritilayotgani sababli masal tarjimasini to‘la havola etmoqdamiz.

KVARTET

O'zimiz bilgan maymunjon,
Undan so'ng ayiq polvon,
So'ngra eshak xushovoz,
Undan so'ng echki darvoz –
Tuzdilar bir "kvartet"
Har birisi bittadan
Torlik asvob keltirdi,
Qir bag'rida to'rtovi
Soya joyga o'turdi;
Qoyil qilmoq bo'lushdi
San'at bilan barchani:
Tintalashdi torlarni...
Qani
Ohang chiqqani?!
Maymun dedi: "Do'stlarim!
Shoshmay turing, arzim bor:
To'g'ri o'turish kerak,
Ana shunda kuylar tor!

Sen, ayiqjon, "bas"ingni
"Alt" yonida chalasan,
Men – boshlovchi bo'laman...
Hammang hayron qolasan!
Cholg'umizga tog'-u tosh,
D a r a x t z o r l a r o'ynaydi!
"Hov" dedilar uch qardosh...
Yana ohang chiqmaydi!
Eshak deydi: "Biz endi
Chizilaylik bir qator!"
Ular bunga ham ko'ndi.
Yana kuylamaydi tor!
Shundan keyin orada
Boshlandi gap talashuv,
Mashq o'rniga talada
G'ovur-g'uvur va shov-shuv!
Bu shovqinni eshitib,
Bir bulbul keldi yetib,

Ular dedi: "Hoy bulbul,
O'tunchimiz senga shu:
Bir oz zahmatga kirgin,
Ohangni eplab bergin!
Asbob, nota joyida,
Lekin bundan yo'q foyda,
Chunki: o'turush buzuq!
Mana shunga yo'l-yo'ruq
Topib bersang bo'ladi,
Tor ohangga to'ladi!"
Bulbul dedi: "Yo'q, do'stlar!
Bunga kerak zo'r hunar!
Siz tushmangiz tashvishga:
Uquv kerak bu ishga!
Qanday o'tirsangiz ham
M a s h s h o q l i k d a n xotir jam!"

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулҳамид Чўлпон. Шеърлар, ҳикоялар ва насрий таржималар. / Нашрга тайёрловчилар: И.Мадғозиев, С.Исломова. – Т.: Забаржадмедиа, 2022. – 336 б.

2. Adabiyot. (O‘rta maktablarning 5-sinfi uchun darslik). / Tuzuvchilar: O.Sharafiddinov, J.Sharifiy. Qaytadan ishlangan 2-bosmasi. – Toshkent: O‘zSSR davlat nashriyoti, 1935. – 162 b.

3. Adabiyot. (O‘rta maktablarning 5-sinfi uchun darslik). Tuzuvchilar O.Sharafiddinov, J.Sharifiy. Qaytadan ishlangan 4-nashri. – Toshkent: O‘quv-pedagogik davlat nashriyoti, 1937. – 162 b.

4. Крилов И.А. Квартет. В кн.: Русская хрестоматия. Сборник статьей выбранных из произведений русской литературы. Сост.В.А.Яковлев, Н.Н.Полевой. – Санкт-Петербург, 1874. – 125 с.

5. Раҳимов Т. Переводческое мастерство Чулпана [На материале узб. переводов поэтич. и драм. Произведений А.С.Пушкина]. Дисс... канд. фил. наук. – Т., 1993. – 24 с.

6. Улмасов Р. Переводческое мастерство Чулпана и проблема преемственности узбекских переводах романа М.Горького – Мать. АКД. – Т., 1991. 22 с.

7. Шарафидинов О. Чўлпон. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – 120 б.

8. Шарафидинов О. Чўлпон таржимон. «Гулистон» журнали, 1990 йил, 2-сон.

CHO'LPON IJODIGA JAHON ADABIYOTINING TA'SIRI MASALALARI

Normat YULDASHEV,
Termiz davlat universiteti prof.v.b.f.f.d.

Go'zal XIMMATOVA,
TerDU dotsenti, f.f.f.d (PhD)
(O'zbekiston)

Annotatsiya: Abdulhamid Cho'lpon XX asr boshlari o'zbek adabiyotining yangilanishiga munosib hissa qo'shdi. Ayniqsa, u milliy she'riyatni shakl va mazmun jihatidan yangiladi. Uning ijodiy kamolotida faqat Sharq mumtoz adabiyotining emas, balki jahon adabiyoti klassiklarining ta'siri bor. Birinchidan, rus adabiyoti klassiklari A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, A. Blok, V. Bryusov, ijodini o'rganib, ularning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Ikkinchidan, turk adabiyoti klassiklari Yunus Emro, Nomiq Kamol, Tavfiq Fikrat, Rizo Tavfiqbek ijodidan ta'sirlandi. Usmonli turk she'riyati shaklini o'zbek she'riyatiga tatbiq qildi. Uchinchidan, ulug' hind adibi R.Tagorni o'zi uchun ijod maktabi deb bildi. To'rtinchidan, ingliz dramaturgi va shoiri V. Shekspir dahosidan bahra oldi. Uning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Shu jihatdan maqolada Cho'lponning jahon adabiyotiga munosabati masalalari obyekt qilib olingan.

Kalit so'zlar: jahon adabiyoti, turk adabiyoti, rus adabiyoti, o'zaro ta'sir, tarix, Vatan, millat, Sharq, G'arb, obraz, simvolizm, teatr, tragediya, ijod, uyg'onish davri.

Resume: Abdulkhamid Chulpan made a significant contribution to the renewal of Uzbek literature at the beginning of the 20th century. In particular, he updated the national poetry both in form and content. His creative development is influenced not only by Eastern classical literature, but also by the classics of world literature. Firstly, the classics of Russian literature A. S. Pushkin, L. N. Tolstoy, A. Blok, V. Bryusov studied their work and translated their works into Uzbek. Secondly, he was influenced by the works of the classics of Turkish literature Yunus Emro, Nomik Kamal, Tavfik Fikrat, Riz Tavfik-

bek. He applied a form of Ottoman-Turkish poetry to Uzbek poetry. Thirdly, he considered the great Indian writer R. Tagore as a creative school for himself. Fourthly, the English playwright and poet V. He took advantage of the genius of Shakespeare and translated his works into Uzbek. In this regard, the article deals with the relationship of Chulpan to world literature.

Key words: world literature, Turkish literature, Russian literature, interaction, history, Motherland, nation, East, West, image, symbolism, theater, tragedy, creativity, renaissance.

Har bir millatning adabiy-badiiy, intellektual merosi ijodkorlar tomonidan yaratib qoldirilgan asarlari bilan belgilanadi. Badiiy adabiyot shaklan milliy bo'lgani bilan mazmunan umuminsoniy xarakterga ega.

Abdulhamid Cho'lpon XX asr boshlari o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi edi. U adabiy jarayonga jadid adabiyoti orqali kirib keldi. Cho'lpon 1920-yillarda o'zbek milliy she'riyatini isloh qildi. Uni shakl va mazmun, ruh va ohang jihatidan yangiladi. U o'zbek nasri va dramaturgiyasida ham o'ziga xos yangilanishlar olib kirdi.

Cho'lpon ijodi yuzasidan adabiyotshunoslikda salmoqli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Dilmurod Quronov, Ibrohim Haqqul, Zamira Eshonova, Ulug'bek Sultonovlarning maqola, risola, monografiya va dissertatsiyalarida Cho'lpon ijodining ma'lum bir qirralari o'rganilgan. Ammo hozirga qadar Cho'lpon ijodi jahon adabiyoti kontekstida qiyosiy jihatdan o'rganilmagan. Bu sohada X.Ismatullayev, I.Haqqulning ayrim maqolalari bo'lsa-da, maxsus monografik planda o'rganilgan emas. Mazkur maqolada Cho'lponning jahon adabiyoti klassiklari, xususan, rus adabiyoti, usmonli turk adabiyoti, hind va ingliz adabiyoti namoyandalariga munosabati, ulardan ta'sirlanish jarayonlari xususida fikr yuritiladi.

Abdulhamid Cho'lpon ijodi milliy zaminda shakllangan bo'lsada, uning ijodiy kamolotida jahon adabiyoti klassiklarining ta'siri bor. Cho'lpon, avvalo, Sharq adabiyotining buyuk salaflari Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Umar Xayyom, Muhammad Fuzuliy, Alisher Navoiy

kabi shoirlar ijodidan bahramand bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, usmonli turk adabiyoti namoyandalari ijodidan bahramand bo'ldi. "Nomiq Kamoldan Alif Sayfiy (A.Sayfi)ga dovur usmonli adabiyotini o'qiymen: yo ortiq yangilik g'arbliq, yo ortiqcha sharqlilik! Faqat usmonlichadan Rizo Tavfiqning ba'zi bir yangi shakl bilan eski ruhda aytgan so'fiylarcha she'rlarini o'qiymen; shularga durustgina qonamen; undan keyin Yahyo Kamolning "Sa'dobod" ruhidagi ba'zi narsalari... faqat ular shu qadar ozki..." [Cho'lpon, 23] deb yozadi shoir "Ulug' hindiy" maqolasida. Afsuski, Cho'lponning turk she'riyatiga munosabati masalasiga ko'pincha biryoqlama baho berildi. Ayniqsa, shoirning ikkinchi she'riy majmuasi "Uyg'onish" xususida mulohaza yuritgan Miyon Buzruk Solihov shunday yozadi: "To'plamda panturkistlarning usmonlilashtirish meto'diga xizmat qilish ham bor, shoir ba'zi ayrim she'rlarida ohang, vazn, uslub jihatlarida Turkiyaning turkchi shoirlaridan ta'sir olg'onini sezdirmak bilan birga xolis usmonlicha she'rlar yozib, o'rnak bo'lishni ham unutmaydir..." [Solihov, 25] Turkchilik mafkurasini har tomonlama ilmiy asoslagan Ziyo Ko'kalp ta'rificha: "Turkchilik – turk millatini yuksaltmak demak". Millatni yuksaltmak jadid adabiyotchilarining bosh maqsadi edi. Cho'lpon ham jadid edi.

Turkiy adabiyotlarning bir-biriga o'zaro ta'siri masalasiga ma'lum darajada to'g'ri yondashgan ilk munaqqidlardan biri Vadud Mahmud: "Bizda yangi adabiyot Turkiya adabiyoti taqlidi bilan boshlang'ondir, – deb yozadi "Bugungi she'rlarimiz va san'atkorlarimiz" maqolasida, – shuning uchun bizning adabiyotimiz bilan Turkiya adabiyotining umumiy sajiyasi mushtarakdur. Va shaklda Turkiston, Qofqoziya, Qrim doimo Turkiyaga ergashadir. Chunki til mushtarakdur, tarix mushtarakdur..." [Mahmud, 5–6]

Vadud Mahmuddan so'ng ushbu mavzuni tekshirgan nozikta'b munaqqid B.Qosimov usmonli adabiyotining boshqa turkiy adabiyotlarga o'zaro ta'siri haqida gapirganda, 1910-yillargacha bo'lgan davrni ajratib ko'rsatish kerak, deydi. Negaki, 1840 – 1860-yillar "Turkiya ijtimoiy-madaniy tarixida "Tanzimot" nomi bilan mashhur XIX asrning o'rtalarida Turkiya hayotida yuz bergan bu hodisalar adabiy-madaniy harakatchilikning o'nlab iste'dodlarini maydonga chiqardi". [Qosimov, 80]

XX asrning 20-yillari O‘zbekiston adabiy harakatchiligida faol ishtirok etgan Cho‘lpon Fitrat singari Istanbul tahsilini olmagan bo‘lsa-da, turk tarixi, adabiyoti bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Cho‘lpon mutaassir bo‘lgan turk shoirlaridan biri – Tavfiq Fikrat. Cho‘lpon ulug‘ shoirning Turkiya hukumati bostirmagan “Rubobi shikasta” asaridan parchalar tarjima qilib, 1925 – 26-yillarda “Inqilob”, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnallarida nashr ettiradi. Cho‘lponning e’tirof etishicha: “Tavfiq Fikrat “Rubobi shikasta”si ila qancha tanilg‘on bo‘lsa, “Tarixi qadim”i u dahshatli faryod ila odamlarning qalbinda buyuk-buyuk o‘zgarishlar vujudga keltirmishdir... Lekin “Ta’rixi qadim” maxfiydir, qo‘ldan-qo‘lga ko‘chirilib yozilaturg‘on narsadir. U tarixning jinoyatlari kabi sirlidir. Har kimga ham mana men deb ko‘rina bermas. Uni bostirish mumkin bo‘lmadi. U oliy fikrli bechora Sharqning ko‘hna, chirik miyasiga sig‘madi, zabun, ezilgan Sharqlining keng qalbinda joy topolmadi...” Xitob yo‘li bilan yozilgan “Tarixi qadim” o‘tmishdan afsonalar emas, bobolarimiz kechmishlaridan haqiqatni so‘zlaydi. Bu “tarix”ning har sahifasi “oh”lardan, asosi “qon”, “vahshat”dan iboratdir. Haqsizlik va yovuzlikdan iborat bo‘lgan tarixning ibtidosi va intihosi shoirga ayon. Ayniqsa, Cho‘lpondek millat shoirining bu “tarix”dan mushtarak maqsadlar topmasligi mumkin emas edi. “Titilib o‘qilmas bo‘lgan tarix”imiz haqida yozishda “Tarixi qadim”ning ta’siri kuchli bo‘lgan. Xususan, Cho‘lponning “Tarixdan”, “Yorug‘ yulduzga”, “Qo‘zg‘alish”, “Tortishuv tongi” kabi she’rlarining ruhi, ohangidan bu “ta’sir”ning izlari sezilib turibdi.

Tavfiq Fikrat ham, Cho‘lpon ham inqiloblar davrida yashadi. T.Fikrat 1908-yilgi Yosh turklar inqilobiga, Cho‘lpon Oktyabr inqilobiga katta umid bog‘ladi. Ammo ikki inqilob ham xalq ishonchini oqlamadi. Bu hodisalar ikki shoir ijodida ham majoziy va tamsiliy tasvirlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Tavfiq Fikratning Vatan va millat taraqqiysi yo‘lidagi fikrlari mahalliy hukumat “qolip”lariga sig‘madi. Shu boisdan, “Tarixi qadim”ning bosilishiga hukumat ruxsat bermadi. Fikrat va Cho‘lponni bog‘lab turgan rishta ham Vatan va Millat manfaati bilan bog‘liq.

B.Qosimov ta’kidlaganidek: “... inqilob yillarida o‘zbek adabiyotida maydonga kelgan o‘nlab sharqiylarda bu ta’sirni sezmaslik

mumkin emas". [Qosimov, 85] Haqiqatan, Cho'lponning "Sharq nuri", "Go'zal Farg'ona" she'rlarida bu ta'sirni chindan-da kuzatish mumkin. Turk olimi va adibi O'rmon Qovunchi yozishicha: "Turkiyalik turkistonliklar buyuk Cho'lponning ikkita she'rini farzandlariga albatta yod oldirishadi. Bulardan biri – "Go'zal Farg'ona", uni "Go'zal Turkiston" deb o'zgartirganmiz, qo'shiq qilib kuylashadi. Ikkinchisi Anvar poshshoning o'limiga bag'ishlangan "Baljivon" she'ri..." [Haqqul, 247]. "Go'zal Turkiston"ning "Millat Sharqiysi" ta'sirida yozilgani she'rning ruhi, ohangidan bilinib turibdi:

Go'zal Turkiston, senga ne bo'ldi?
Sahar vaqtida gullaring so'ldi.
Chamanlar barbod, qushlar ham faryod,
Hammasi mahzun, bo'lmasmi dil shod?
Bilmam, na uchun qushlar uchmas boqchalaringda? [Cho'lpon, 98]

Cho'lpon XX asr boshlari o'zbek she'riyatida ramzchilik oqimini boshlovchidir (A.Sa'diy). Ayniqsa, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ramziy timsollarda badiiy ifodalash uchun Cho'lpon Tavfiq Fikratdan ko'p o'rgangan. T.Fikrat bahor va qish, kuz va yoz, quyosh va oy, tun va kun obrazlari orqali borliqdan mohiyat izlab, falsafiy mushohadalar yuritadi. Demak, Fikratda ham, Cho'lponda ham poetik fikrni tabiat manzaralari orqali ifodalash – inson hayoti haqidagi ma'lum bir haqiqatni aytish vositasidir.

Cho'lpon muhabbat qo'yib mutolaa qilgan ikkinchi bir turk shoiri – Rizo Tavfiqbek. "Rizo Tavfiqbekni tanimag'on qaysi turk qavmi bor, – deb yozadi Cho'lpon u haqda – jahon urushidan burun turk matbuotini ta'qib qilg'onlar uning to'g'risida juda ko'b narsalarga yo'liqarlar edi.

Uning oshiq tarzida va hijo vaznida yozg'on tasavvuf hidli she'rlari, ba'zi bir tanqidlari, falsafiy asarlari uning o'zini har yerda, har kimga yaxshi tanitqon edi..." [Cho'lpon, 68] Rizo Tavfiqbekning yangi shakl bilan bitgan orifona she'rlari Cho'lponning shakliy izlanishlariga ijobiy ta'sir etdi. "Inqilob" jurnalining 1922-yil 5 – 6-sonlarida Cho'lpon tomonidan tarjima qilib berilgan Rizo Tavfiq qalamiga mansub "Oqshom hazini" she'ri fikrimizni tasdiqlaydi. Cho'lpon "Tavfiq Fikrat" maqolasining so'ngida Rizo Tavfiqning ustozi vafo-

tiga bag‘ishlangan marsiyasini keltiradi. Ulug‘lar qabri qoshida o‘z qayg‘usini izhor qiladi:

Shu hijron yilining so‘ng bahorida,
Nolalar titragan chamanzorida,
Kun chiqmasdan menda mozoringda
Motam chechaklari termoqqa keldim!

Cho‘lponning “Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasi” she’rida ham aziz otaning “belgisiz qabr”ini qora tunlarda sham yoqib izlagan o‘g‘ilning dard va alamga to‘la tuyg‘ulari ifoda etilgan:

Aziz otam, qo‘limdagi gullarning
Motam guli ekanini bilmaysan.
Shodlik guli ko‘pdan beri so‘lganin
Yer ostida pok ruhing-la sezmaysan.
Ana, sochdim qalbimdagi gullarni,
Termak uchun chaqiraman qo‘llarni.

Ushbu ruhiy holatlarning Rizo Tavfiqbek tuyg‘ulariga qanchalik hamohangligini sezish qiyin emas. Cho‘lponning zamondoshi Laziz Azizzoda 1926 – 1927-yillar orasida shoir bilan o‘zi o‘rtasida bo‘lgan bir muloqotni hikoya qiladi. “Shu kezlarda turli mavzularda gurunglashar ekanmiz, men unga “Siz qayda va kimdan ilm oldingiz?” degan savol bergan edim, u bunga javoban mushfiqona bir jilmayib:

Zuhuri rangi kavrat partavi nuri Xudodandir,
Talavvun hay’ati ashyoda ta’siri ziyodandir, –

degan turk shoiri Nomiq Kamolning tasavvufona misrasini o‘qib, bilimini o‘zining sa’y va g‘ayrati bilan olganini ramz bilan bildirgan edi...” [Azizzoda, 68]. Tariximiz, muqaddas an’analarimiz mushtarak bo‘lgan turk adabiyotidan shoirning uyg‘un holatlar izlashi tabiiy edi. Bundan tashqari, Cho‘lpon “Ishq”, “Ziyoi qamar” she’rlarini usmonli turkchada yozgan. “To‘fon” she’rini Anado‘li qishlog‘ining muzaffar o‘rdulariga bag‘ishlagan. Lekin shunga qaramasdan Cho‘lpon o‘zining milliy zaminidan ham uzilib ketmagan... “... garchi ruh va ohang e’tibori bilan usmonlililar ta’sirida bo‘lsa-da, uning o‘ziga xos maxsus tili va uslubi bordir”. (A.Sa’diy)

Cho‘lpon ijodining uchinchi sarchashmasi rus adabiyoti bilan bog‘liq. U ijodining ilk lahzalaridanoq rus adabiyoti havosidan nafas oldi. Shoirning otasi mulla Sulaymonqul bazzoz taraqqiyparvar odam

bo‘lgani uchun o‘g‘lining o‘qishiga alohida e’tibor berdi. Cho‘lpon 1912 – 1914-yillarda Andijon va O‘sh shaharlarida tashkil etilgan rus-tuzem maktablarida tahsil oldi. Ammo u vaqtdagi rus-tuzem maktablari rus tilini mukammal o‘rganish imkoniyatini bermas edi. Shu sababdan, shoirning otasi o‘g‘li uchun maxsus o‘qituvchi yollab, rus tilini puxta o‘rgatgan. 15–16 yoshlarda rus tilidagi adabiyotlarni bemalol o‘qib tushunadigan darajaga yetgan.

Adabiy manbalarda Cho‘lpon o‘z ijodini 1913 – 1914-yillarda boshlagani qayd etilgan. Ammo 1912-yil 19-avgustda “Turkiston viloyatining gazeti”da uning “Qalandar” taxallusi bilan “Rus tilini o‘rganishning foydasi haqida” maqolasi bosiladi. Maqolada Turkiston tarixiga qisqa nazar tashlagan yosh yurakning yurt va millat taqdiri uchun qayg‘urgani kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Cho‘lpon jahon adabiyoti arenasiga chiqish uchun rus tilining imkoniyatlaridan keng foydalandi. O‘z qalamini charxlash uchun tarjimaga qo‘l urdi. Ayniqsa, rus she’riyatining porloq yulduzi A.S. Pushkin dahosiga ko‘p bor murojaat etdi. Shoirning “Bulbul va gul”, “Bandi” she’rlarini o‘zbekona ohanglarda go‘zal tarjima qildi. Har ikkala she’r ham Cho‘lpon tomonidan 1936-yilda Pushkin vafotining 100 yilligi munosabati bilan qilingan tarjimalar bo‘lib, ular “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1936-yil 12-oktyabr sonida bosilgan.

“Bulbul va gul” she’ri, haqiqatan ham, o‘zbek tilida yozilgandek taassurot qoldiradi:

Bahor chog‘da xoli bog‘da bir zulmatli tun erdi,
G‘arib bulbul fig‘on aylab, “gulim rahm aylagil” derdi.
Biroq ul gul quloq solmas edi faryodi afg‘ona,
Faqat orom olardi noladin to‘lg‘ona-to‘lg‘ona!..

“Chin ko‘ngildan ilhomlanishsiz va poetik ruhsiz – haqiqiy poeziya yaratilmaydi”, – deb yozadi Pushkin. Cho‘lpon obraz yaratishda, she’r tilini o‘rganishda Pushkin ijodidan mutaassir bo‘lgan. Cho‘lpon Pushkin dahosiga ko‘p bor murojaat etdi. Shoirning “Boris Godunov” tarixiy-she’riy dramasini (1939), “Dubrovskiy” povestini (1939) katta mahorat bilan tarjima qildi. Hatto Pushkin yubileyi munosabati bilan “Yevgeniy Onegin”ni aruz vazniga solib tarjima qilish niyati ham bo‘lgan. Ammo 30-yillarda Cho‘lpon boshiga otilgan malomat toshlari sabab bu niyati amalga oshmagan.

Cho‘lpon 1924 – 1927-yillarda ilk bor Moskvada bo‘ldi. Moskvada tashkil etilgan O‘zbek drama studiyasining adabiy emakdoshi, tarjimoni, maslahatchisi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Adibning “Moskvadagi dramstudiyamiz”, “Meyeerxold teatri” maqolalarini o‘qisangiz uning Moskvadagi adabiy jarayon bilan naqadar yaqin aloqada bo‘lganini anglaysiz. Cho‘lpon dramstudiya uchun jahon adabiyotining shoh asarlari Karlo Gossining “Malikai Turandot”, Molyerning “Xasis”, Gyotening “Revizor” kabi asarlarini tarjima qilib, o‘zbek sahna yulduzlarining jahon adabiyoti durdona asarlarini ijro etishiga zamin yaratadi.

Cho‘lpon Moskvada yashagan vaqtda adabiy muhitga ancha yaqin bo‘lgan. Atoqli adabiyotshunos N.Karimov o‘rinli ta’kidlaganidek: “Cho‘lpon nafaqat dramaturg, balki avvalo, shoir edi. Shuning uchun ham u 20-yillardagi adabiy Moskvada yashadi. O‘ziga ruhan yaqin bo‘lgan Blok, Bryusov, Mandelshtam, Yesenin, Axmatova singari shoirlar muhitiga talpinmasligi mumkin emas” [Karimov, 288].

Cho‘lpon XX asr boshlari o‘zbek she’riyatida simvolizm eshigini ochguvchilardan biri edi. XIX asrning ikkinchi yarmida rus she’riyatida oqim sifatida shakllangan simvolizm Cho‘lpon she’riyatiga ham ta’sir qilmasdan qolmadi. Cho‘lpon zamin va zamon, ijtimoiy muhit haqiqatlarini idrok etishda simvolik obrazlardan mahorat bilan foydalandi. Xususan, A.Blok va V.Bryusov ijodi Cho‘lponga ijodiy maktab bo‘ldi. Shu ta’sirning samarasi o‘laroq Cho‘lpon A.Blokning “Ko‘ngil jimdur, sovuq ko‘kda...” deb boshlanuvchi she’rini mahorat bilan tarjima qildi. She’r uch banddan iborat bo‘lib, hajm jihatdan kichik bo‘lsa-da, Cho‘lpon ruhiga yaqin. Cho‘lponda yulduz – ramziy obraz. Shoir bu obraz vositasida ijtimoiy muhit manzaralarini, zamin va zamon haqiqatlarini ifoda etadi. /Ko‘ngil jimdur, sovuq ko‘kda Qarab unga yonib turgan Hanuz-xoli u yulduz! Butun atrof va har yoqda “Non, oltin!” deb fig‘on qilgan Talashchi, g‘alvachi el! U jim, lekin fig‘onlarga Quloq bergan va ko‘z tikkan Uzoqlarga–yiroqlarga!.../ Cho‘lponning “Yorug‘ yulduzg‘a”, “Uch-to‘rtta yulduz” singari she’rlarida ushbu she’rning ta’sirini kuzatish mumkin.

Cho‘lpon nasrda ham o‘z davrining peshqadam yozuvchilaridan edi. Bu borada u rus yozuvchilarining ijodiy tajribalaridan o‘rgandi. Ayniqsa, rus realist yozuvchilaridan I.S.Turgenevning “Cho‘ri qiz”,

L.Andreevning "Osilgan yetti kishining hikoyasi", Chexov hikoyalarini, N.V.Gogolning "Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovich o'rtasidagi nizolar hikoyati"ni, Gorkiyning "Ona" romanini o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdi.

1930-yillarda Cho'lpon boshi uzra qora bulutlar ko'lankasi aylana boshladi. Toshkentda turib ijod qilish xatarli bo'lib qoldi. Shu munosabat bilan 1931-yil oxirlarida Fayzulla Xo'jayev maslahati bilan ikkinchi bor Moskvaga yo'l oldi. Cho'lpon Moskvada SSSR Xalq Komissiyalari kengashi va Sharq xalqlari markaziy nashriyotida tarjimon lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Moskvada shoirning shaxsiy hayotida ham o'zgarish bo'ldi. U 1932-yilda Yekaterina Ivanovna Tokareva ismli ayolga uylandi. Shoir shu yillari qand kasali bilan og'rib yurdi. Katya (Cho'lpon uni erkalab shunday atardi) shoirning sog'lig'iga alohida etibor berib, unga ijod uchun sharoit yaratdi. Ikki yillik Moskva hayoti shoir uchun sermahsul ijod yillari bo'ldi. Cho'lpon Shekspir dahosiga murojaat qilib, "Hamlet"ni tarjima qilishga kirishdi. Oradan ikki yil o'tib, asar "Hamza" teatrida namoyish etildi. Bundan tashqari, Cho'lpon "Soz" she'rlar to'plami va "Kecha" romanini ham Moskvadalik vaqtida yozib tugatdi. Cho'lpon umrining oxiriga qadar rus madaniyati va adabiy jarayoni bilan aloqasini uzmadi. Shu sababdan, Cho'lponning rus adabiyoti bilan aloqalari alohida tadqiqotlarga arziydi.

Cho'lponning ijodiy evolyutsiyasida buyuk hind adibi Robindranat Tagorning ta'siri katta bo'ldi. Uning Tagor haqidagi ilk maqolasi "Ulug' hindiy" nomida "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalining 1925-yilgi 7–8-qo'shma sonlarida "Cho'lpon" imzosi bilan chop etilgan. Maqolada Cho'lpon ulug' hind adibining eski adabiyot bilan yangi adabiyot, Sharq va G'arb adabiyoti o'rtasida "oltin ko'prik" bo'lganini alohida ta'kidlaydi. O'zining "yo'lsiz"ligidan so'zlab, "Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o'qiyman: bir xil, bir xil, bir xil!" degan so'zlarida ma'lum darajada mubolag'a bo'lsa-da, ayrim haqiqatlar ham yo'q emas. Cho'lpon XX asr boshlarida milliy she'riyatni isloh qilish zaruratini his etgan. Shu boisdan shoirning mumtoz she'riyatdagi shakliy bir xillikdan qochib "ko'ngil yangilik qidiradir" deyishi bejizga emas. Shoirni bunday xulosaga kelishida Tagor ijodining ta'siri bor.

Cho‘lponning Tagor haqidagi ikkinchi maqolasi “Tagor va tagorshunoslik” “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 1925-yil 11–12-qo‘shma sonlarida bosilgan. Maqolada “Tago‘rni kimlar taniydir?” degan savol bilan murojaat qilib, uning muxtasar ijodiy biografiyasi haliga qadar yoritilmay kelgani aytib o‘tiladi. “1913-yilgacha na Ovrupa, na Rusiya, darhaqiqat, Tago‘r to‘g‘risida hech narsa bilmaydir, uni aslo tanimaydir”, – deb yozadi shoir u haqda.

Ma’lumki, Cho‘lpon 1913-yilda “Gitanjali” she’rlar to‘plami uchun Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan edi. Shundan so‘ng uni butun dunyo tanidi. Maqolada Cho‘lpon Tagorning muxtasar biografiyasi haqida ma’lumot berish bilan cheklanmasdan, uning Shantiniketonda otasining mablag‘i hisobidan maktab ochib, unda kambag‘al bolalarni o‘qitganini alohida e’tirof etadi. Shu bilan birga, Tagorning hind adabiyotini, xususan, she’riyatini yangi o‘zanlarga solib, unga xalqchil ruh bag‘ishlaganini ta’kidlab o‘tadi. “Tagorning she’rlari hammasi degunday kuyli, kuylari – xalq kuyi. Uning har bir she’ri o‘z kuyi bilan xalq orasida o‘quladir, u o‘z she’rlariga kuylar ham topadir, no‘ta ham yozadir” [Cho‘lpon, 38]. Cho‘lpon Tagorning “Hoy, yo‘lovchi qiz” hikoyasini, “Chiroqlar” she’rini rus tilidan tarjima qilib, o‘zbek kitobxonlarini Tagor ijodi bilan tanishtirishda katta xizmat qildi.

Cho‘lpon Tagor ijodini Sharq va G‘arb adabiyotini bog‘lovchi “oltin ko‘prik” deb bildi. Tanqidchi Ozod Sharafiddinov ta’kidlaganidek, Robindranat Tagor “... o‘z ijodida ham milliy, ham Sharq, ham G‘arb an’analarini birlashtirdi. Uning she’riyati va romanlarida Sharqqa xos shartlilik, ko‘tarinkilik, donishmandlik ham, G‘arbga xos psixologizm, xarakterlar mantig‘iga amal qilish, dalillash ham bor. Buning oqibatida u hind xalqining hayotini shunday tasvirlaydiki, bu tasvir butun jahon kitobxoniga, uning millati va yashash joyidan qat’iy nazar, baravar ta’sir qiladigan kuchga ega bo‘ldi. Yuksak badiiyat bilan tahlil qilingan umumbashariy muammolar Tagor asarlariga alohida teranlik va o‘ziga xos falsafiylik baxsh etdiki, xuddi shu sifatlar ularni Cho‘lpon uchun bag‘oyat jozibador qildi” [Karimov, 284.] Cho‘lponning Tagorga murojaat qilishi tabiiy edi. Chunki ularning estetik ideali o‘zaro mushtarak edi.

O‘rta asrlar G‘arb uyg‘onish davri adabiyotining buyuk namoyandasi V.Shekspir ijodi Cho‘lpon uchun mahorat maktabi bo‘ldi.

Cho‘lpon Shekspir olamidan oziqlandi. Shekspir she’riyatidagi chuqur lirizm, romantik ko‘tarinkilik, isyonkorona ruh Cho‘lpon she’riyatining yuksalishida ijobiy ta’sir etdi. Bu haqda turk olimi Ahmad Shukriy shunday yozadi: “Shekspir lirizmasi bilan Cho‘lpon she’riyati orasinda naqadar ayirma axtarsam-da, oni topa olmadim. “Uyg‘onish”ni necha topqirlar o‘qib chiqdim. Shekspirni mutolaa etdim. Eng so‘ng Shekspir Cho‘lpondir yoxud Cho‘lpon Shekspirdir, degan fikrga keldim. Cho‘lpon she’rlari Shekspir jo‘shqinligi bilan to‘ladir. Cho‘lpon oq ko‘ngilligi Shekspir samimiyligidan o‘tadir”. [Karimov, 280]

Cho‘lpon ijodida sonet janrining paydo bo‘lishida Shekspir ijodining o‘rni bor. Cho‘lpon sonetlari Shekspir sonetlari kabi 4+4+4+2 shaklda yozilgan. Ritmik-intonatsion sathlarda, ruh va ohang jihatidan ham mushtaraklik ko‘zga tashlanadi. Cho‘lponning “Men va boshqalar”, “Chechak”, “Ishq yo‘li”, “Bu kun” she’rlari sonet janriga mansubdir.

1926 – 1930-yillarda Cho‘lpon O‘zbek dramatik studiyasida adabiy emakdosh, tarjimon sifatida Toshkentda, Moskvada faoliyat ko‘rsatdi. Dramstudiya uchun jahon adabiyotining shoh asarlarini tarjima qildi. Ayniqsa, Shekspirning “Hamlet” tragediyasi Cho‘lponni maftun etdi. 1934-yilda “Hamlet”ning tarjimasi tugallanib, asar sahna yuzini ko‘rdi. Afsuski, Cho‘lpon boshi uzra ko‘lankalar paydo bo‘layotgan 1936 – 1937-yillarda Cho‘lpon tarjimasidagi “Hamlet” o‘zbek sahnasida namoyish qilinganda afishalardan tarjimonning nomi olib tashlandi.

“Hamlet” fojiasidagi Elsinora qasridagi qotillik, yovuzliklar Turkistonda ham mavjud edi. Cho‘lpon Shekspir asarlari bilan 1920-yillarda tanishgan. Shu jihatdan “Yorqinoy” dramasining yozilishida ham Shekspir asarining ta’siri bor. “Yorqinoy” dramasidagi voqealar olis o‘tmishdan olib yozilgan romantik xarakterda folklor motivlari asosidagi asar bo‘lsa ham, Cho‘lpon moziydan turib o‘z zamonasiga nazar tashlaydi. O‘z yurtining mustaqilligi, haqiqat va adolat uchun kurash olib borgan Yorqinoy, Po‘lat obrazlari Hamlet ruhiga naqadar yaqin.

Abdulhamid Cho‘lpon jahon adabiyotining buyuk namoyandalari ijodini puxta o‘zlashtirib, she’riyatda ham, nasr va dramaturgiyada ham kamolot bosqichiga ko‘tarildi. Xususan, u birinchi o‘rinda Sharq adabiyoti klassiklari A.Navoiy, Fuzuliy, Hofiz Sheroziy, Umar Xayyom ijodini puxta o‘zlashtirgan bo‘lsa-da, o‘zining milliy

qobig'idan chiqib jahon adabiyotiga yo'l oldi. Birinchidan, rus tilini yaxshi o'zlashtirib, rus adabiyotidan bahra oldi. Pushkin, A.Blok va boshqa ijodkorlarning asarlarini tarjima qildi. Ikkinchidan, usmonli turk adabiyotiga murojaat etdi. Usmonli turk she'riyatining sodda shaklini o'zbek she'riyatiga sintez qildi. Uchinchidan, ulug' hind shoiri R.Tagor ijodidan ruh oldi. Uni G'arb va Sharq adabiyoti o'rtasida "oltin ko'prik" deb bildi. To'rtinchidan, buyuk ingliz dramaturgi va shoiri V.Shekspir Cho'lpon uchun yangi ijod ufqlarini ochdi. U "Hamlet" tragediyasini mahorat bilan tarjima qildi. Shu jihatdan biz Cho'lponni jahon adabiyotining buyuk klassiklari safiga kiritishimiz kerak. Cho'lpon yangi o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti arenasiga olib chiqdi. Cho'lpon va jahon adabiyoti muammosi alohida ilmiy-tadqiqot sifatida o'rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cho'lpon. Adabiyot nadir. –Toshkent. "Cho'lpon" nashriyoti, 1994.
2. Miyon Buzruk Solihov. O'zbek adabiyotida millatchilik ko'rinishlari. – Toshkent. 1933.
3. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. – Toshkent. 2007.
4. Begali Qosimov. Izlay-izlay topganim. – Toshkent. 1993.
5. Ibrohim Haqqul. Cho'lpon she'riyatining xorijda o'rganilishiga doir. Cho'lpon ijodi va zamonaviy adabiy jarayon. Konferensiya materiallari. – Toshkent. 2018.
6. Cho'lpon. Asarlar. To'rt jildlik. I jild. – Toshknet. Akademnashr. 2016.
7. Laziz Azizzoda. Cho'lpon kim edi?/ "Yoshlik" jurnali. 1991. 10-son.
8. Naim Karimov. Cho'lpon. Ma'rifiy roman. – Toshkent. Sharq, 2003.
9. Cho'lpon. Asarlar. To'rt jildlik. IV jild. – Toshknet. Akademnashr. 2016.
10. Naim Karimov. Uch buyuk siymo. – Toshkent. Mumtoz so'z. 2019.

ABDURAHMON SA'DIY VA ABDURAUF FITRAT ASARLARIDA MURAKKAB STRUKTURALI JANRLAR TADQIQI

Dilrabo QOZOQBOYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.
Tel: +998935611201
dilrabokazakbayeva0707@gmail.com
(O'zbekiston)

Annotatsiya: *XX asr boshlarida professor Abdurauf Fitrat va Abdurahmon Sa'diyning nazariy qo'llanmalari o'zbek adabiyotshunosligida janrlar poetikasining shakllanishida muhim omil bo'ldi. Ushbu maqolada. Abdurauf Fitrat va Abdurahmon Sa'diyning nazariy qo'llanmalarida berilgan murakkab strukturali janrlarga oid qarashlari tahlilga tortiladi va o'zbek adabiyotshunosligida shu vaqtga qadar muammoli masalalardan biri bo'lib kelgan janrlar masalasiga munosabat bildiriladi.*

Kalit so'zlar: *Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa'diy, nazariy qo'llanma, murakkab strukturali janrlar.*

Abstract: *At the beginning of the 20th century, the theoretical manuals of Prof. Abdurauf Fitrat and Abdurahmon Saadiy became an important factor in the formation of the poetics of genres in Uzbek literary studies. In this article, the views of Abdurauf Fitrat and Abdurahmon Saadiy on genres with complex structures given in their theoretical manuals are summarized and the attitude towards the issue of genres, which has been one of the problematic issues in Uzbek literary studies until now, is expressed.*

Keywords: *Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Saadiy, theoretical manual, genres with complex structures.*

Murakkab strukturali janrlarga munosabat adabiyotning barcha muammolariga yevropacha ilmiy munosabat shakllangan davrda o'zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan ishlab chiqildi. Bir jihatdan, mumtoz Sharq poetikasining asosiy qonuniyatlaridan xabardor

bo‘lgan, ikkinchi jihatdan, Yevropa adabiyotshunosligini rus tili orqali o‘zlashtira boshlagan olimlar asarlarida adabiyotning janriy asoslarini o‘rganish davom etdi. XX asr boshlarida professor Abdurauf Fitrat va Abdurahmon Sa’diyning nazariy qo‘llanmalari, Olim Sharafiddinov, Vadud Mahmud kabi munaqqidlarning adabiy jarayon tahliliga bag‘ishlangan maqolalari o‘zbek adabiyotshunosligida janrlar poetikasining shakllanishida muhim omil bo‘ldi.

Abdurauf Fitrat “She’r va shoirliq”, “Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari ham havaslilari uchun qo‘llanma”, “Aruz haqida” qo‘llanmalarida adabiy janrlar masalasiga to‘xtalganda murakkab tarkibli janrlarga ham e’tibor qaratgan.

Adabiy tur va janrlar tasnifi haqida o‘zbek adabiyotshunosligida dastlab Abdurahmon Sa’diyning “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” kitobida fikr yuritilgan. Muallif bu masalada maxsus to‘xtalib, darslikning “she’riy ijodlarni turlarga ajratish” deb nomlangan beshinchi bobida ifoda shakllari(nazm va nasr)dan har biri o‘ziga xos adabiy janrlarda aks etishini ko‘rsatgan” [Sa’diy, 1924:133]. “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” (1924, 1925) qo‘llanmasining 5-bobida yozilishicha: “She’r olimlari ahvoli ruhiya yog‘idan qarab, she’riy ijodlarni: 1. Yurakchilik ijodi. 2. Ravishli yoki suratli ijod deb ikkiga bo‘ladilar. Ravishli ijod yana o‘zi ikkiga bo‘linadir: 1. Ko‘chirik (rivoya – tahkiya – epos). 2. Tomoshaliq yoki drama”, deyilib [Sa’diy, 2025:120] yurakchilik turlari deya lirik janrlarni sanaydi: “Tor ma’nosi bilan yurak she’ri yoki so‘z san’ati yurakchiligi: ashula, qasida, madhiya, g‘azal, yurak-hajviy, sochma, tizma” va boshqalar. Ularning ham mavzulariga ko‘ra diniy yurakchilik, harbiy, iqtisodiy kabi turlari qatorida qasida (oda) haqida so‘z yuritadi: “... munga madhiya deb ham aytadirlar. Bular shundog‘ tizmalarki, bularda Tangrining qilg‘an ishlari ulug‘lanadir, urushda qahramonlarning ko‘rsatkan ishlari, fidoyiliklari maqtaladir, jamoat ishlarida, ijtimoiy ishlarda fidoyilik, qahramonliq, botirliq, yigitlik ko‘rsatkan mashhur odamlar madh etiladir. O‘zlarining nimaga qaratilib aytuvlariga ham munda rejalariga qarab qasidalar diniy, harbiy-vataniy, inqilobiy bo‘lmog‘i yoki shuning bilan sug‘orilmog‘i mumkin” [Sa’diy, 2025:125]. Misol tariqasida “Qasidai burda”, tatar adibi Abdulla To‘qayning “Shihob Hazrat” (Shihobiddin Marjoniyga bag‘ishlangan), “Zohir Begiy”

(Zohir Begiyevga); rus shoirlari Lomonosov va Derjavinning odalari, Cho'lponning "Mullanur Vohidovga" va Elbekning Mirmulla Shermuhammadga bag'ishlab yozgan she'rlarini keltiradi.

Lirika("yurakchilik")ning eng faol janrlaridan biri sifatida doston keltirilgan. Doston xalq qahramonligi yoki ayrim shaxslarga qaratilgani aytilib, misol tariqasida folklordan "Alpomish" hamda jahon adabiyotidan Homer(Gomer – D.Q.)ning "Iliada" va "Odisseya", Firdavsiyning "Shohnoma"si, hindlarning "Ramayana", "Mahobhorat" asarlari "ochiq misol" ekanini ko'rsatadi. Yakka shaxsga qaratilgan dostonga Muhammad Solihning "Shayboniynoma"sini misol keltiradi.

Ko'rinadiki, Abdurahmon Sa'diyning ilk qo'llanmasida mavjud adabiy tur va janrlar haqida ibtidoiy ma'lumot berish bilan cheklanilgan. Qo'llanmada she'riy janrlar tasnifi u qadar yetarli emas. Shuning uchun A.Sa'diy bilan deyarli bir vaqtda yozilgan, biroq bir yil keyin chop etilgan Fitratning "Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari ham havaslilari uchun qo'llanma" (1926) asariga murojaat qilish mumkin.

Fitrat "Adabiyot qoidalari"da g'azal, qasida, qit'a, masnaviy, ruboiy, mustazod, musammat, tarji'band va tarkibband kabi mumtoz janrlar to'g'risida nazariy fikrlarini aytib o'tgan: "G'azal yo'sunida tuzulib, o'n iki baytdan ortuq bo'lg'an tizmalarg'a qasida deyiladir. Qasida g'azaldan kengrakdir. Maxtashlar, maxtanishlar, tabiat tasvirlari, axloqiy fikrlar qasida yo'sunli aytiladir. Bizning o'zbek-chig'atoy adabiyotimizda qasida yo'li judayam kengaymagan, chiroylik o'rnaklari ozdir" [Фитрат, 2006.] deya zamonaviy o'zbek she'riyatida qasidaga yetarli e'tibor qaratilmaganiga ishora qiladi. Masnaviy haqida quyidagicha fikrlarini aytadi: "Har baytning ikki misra'i o'ziga maxsus qofiyasi bo'lg'an tizmalarga masnaviy (ikkilik) deyiladir. Dostonlar, maktublar (ko'brak sevgi maktublari) masnaviy yo'sunli yoziladir" deya quyidagi misolni keltiradi:

Misol:

Men qaribman meni xud netg'usidir,
Meni bu yerda muqim etg'usidir...

Na qo'lum bor, na oyog'im, na belim,
Bu qadar evriladir so'zga tilim.

Musammatning shakli va turlari haqida ma'lumotlar berilib, Navoiy, Lutfiy, Husayniy, Komil, Rojiy, Amiriy kabi ko'b chig'atoy o'zbek shoirlarining musammatlari (muxammas, musaddas, murabba'lari) borligini aytadi va Husayniyning Navoiy g'azaliga bog'lagan muxammasini sara asarlardan biri sifatida keltiradi:

"La'li jon baxshingdin ayro' obu hayvonni netay,
Har dam yuz jon berur jononasiz jonni netay,
Gar emas manzur husnung, hur-u g'ilmonni netay,
Gulshani ko'yingdan ayru bog'i rizvonni netay,
Boshima gar gul sochar, sonsiz gulafshonni netay?

Uzun bir tizma bir necha qismga ayriladir. Har bir qismning o'ziga maxsus qofiyasi bo'ladir. Biroq har qismning oxirgisini butunlari boshqa qofiyada yo bir necha qism bilan bir qancha qofiyada bo'ladi. Bunga tarkibband derlar. Birinchi qismining oxirgi ikki mira'si har qismning oxiriga qaytarilib tursa, tarji'band ataladi.

Navoyining:

Ketur, soqiy, ul mayki subhi alast,
Oning nash'asidin ko'nglum edi mast... –

deb boshlang'an. Har bir bo'lagida:

Xarobot oro kirdim oshuftahol,
May istarg'a ilgimda singan safol, –

misra'lari qaytarilg'an go'zal bir tarji'bandi bor".

"Fors shoiri Umar Xayyom" risolasida esa masnaviy, qasida xususida kengroq to'xtaladi va mazmunni ifodalash uchun qulay, keng epik shakllardan biri ekani aytiladi: "Bu shakl nazmda har ikki misra'ning maxsus mustaqil qofiyasi shart bo'lmoq bo'lub, masnaviy atalishi ham shuning uchundir. Masnaviy shaklida bir asar yozmoqchi bo'lg'an shoir qasida va g'azalida bo'lg'ani kabi o'z asarini ma'lum birgina qofiya bilan yozishg'a majbur bo'lmaydi. Shuning uchun nazmning bu shakli shoirg'a ozodlik beradi. Turli hikoyalar, dostonlar, va'z-nasihatlarg'a oid uzun asarlar yozish uchun nazmning masnaviy shakli boshqa shakllarga qarag'anda qulayroqdir. Bu shakl forsiylarning burung'i milliy nazm shakllaridandir" [Фитрат, 2006]. Islom davridagi Eron shoirlaridan Abu Shakur Balxiy, Daqiqiy, Rudakiy, Asadiy, Firdavsiy asarlaridan misollar keltirgan. Bu jihatdan masnaviy janrida ilk dostonlar yozib, uni jahon she'riyatiga tanitgan

Firdavsiyga yuqori baho beradi. Masnaviy va uning janriy belgilari xususida so‘zlarkan, Daqiqiyning “Vomiq-u Uzro”, Rudakiyga nisbat berilgan “Yusuf va Zulayho” dostonlarini misolga oladi.

Qasida haqidagi nazariy fikrlarini ham misollar orqali asosli tarzda bayon etadi: “Qasida bir qofiya bilan aytilg‘an uzun manzumalardan iboratdir. Adabiyot qoidachilari uning 12–15 baytdan ortuq bo‘lushini lozim ko‘radilar. Qasidalar, umuman, shoirning sevganini maqtash, bahor, kuz, qish kabi fasllarni tasvir qilish, axloqiy va falsafiy dasturlar berish bilan boshlanib, bir hukmdorning, bir vazirning yoxud qandaydir bir to‘rani maqtash bilan tamomlangan” deb tushuntiradi. Qasida arab she’rining eski bir shakli ekanligi, arablarda qasidachiliq islomdan oldin bor bo‘lganligi, fors shoirlari bu shaklni arablardan olgani, bu shaklning fors adabiyotiga qachon kirgani haqida qat’iy bir narsa aytish qiyinligini ta’kidlaydi. Biroq qasida “186/808 da mashhur abbosiy xalifalardan Xorun ar-Rashid o‘z o‘lkasini o‘g‘ullarig‘a taqsim qilib berganida Eron, Afg‘oniston ham Movarounnahrni o‘g‘li Ma’mung‘a berg‘an va Ma’mun hukumati markazining Marvda bo‘lishig‘a qaror qilg‘an edi. Mana shundan keyin Ma’mun Marvga kelganda Abul Abbos Marvaziy tomonidan unga forscha bir qasida taqdim qiling‘an... Abul Abbos Marvaziy bu qasidasida undan burun forsiy tilda bunday bir she’r yozilmag‘ani, Ma’munning madh va sanosi bilan fors tilini ham bezatmak uchun bu qasidasini yozg‘anini so‘ylaydi. Yolg‘iz shuning bilangina bu masala haqida bir narsani uzul-kesil qilib aytish mumkin bo‘lmasa ham, qasidaning forsiy adabiyotig‘a, har holda, hijriy 2-asrning oxirlarida kirganini qabul etish maqsadga muvofiq” [Фитрат, 2006] ekanini ta’kidlaydi. Fitrat Eron va arab qasidachiligini bir-biriga solishtirgan holatda “Eronda, Movarounnahrda arab xulofat markazidan ajralg‘an mustaqil hukumatlar (tohiriylar, somoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohiylar)ning saroylari fors adabiyotini, fors tilini himoya qilg‘anda, ayniqsa, qasidachiliqqa katta ahamiyat berildi... Zotan, arablarda ham ko‘brak madh va marsiya uchun ishlangan qasida shakli mazkur hukmdorlarning himoyalari soyasida judayam gullab ketdi” deya somoniylar, g‘aznaviy (va) xorazmshohiy saroylarida qasida asosiy she’r shakli bo‘lganini ta’kidlaydi: “... Fors shoirlari bu shakllarning hammasi bilan ham mashg‘ul bo‘lganlar. Hammasida ham yozg‘an-

lar, biroq ularning har shaklda yozg‘anlari san’at nuqtai nazaridan bir darajada bo‘lmag‘an. Ba’zilari masnaviyda, ba’zilari qasidada, ba’zilari g‘azalda, ba’zilari ruboyida ustunlik qilg‘anlar”. Ko‘rinadiki, badiiy asarning muhim ifoda shakllaridan sanalgan she’riy nutqning qurilish tartibi, uning poetik xususiyatlari haqida dastlab Fitratning “She’r va shoirliq” maqolasida mulohaza bildirgan bo‘lsa, “Adabiyot qoidalari”da “she’r” ta’rifiga maxsus bob bag‘ishlangan va unda she’rning eng o‘zak xususiyatlari bayon qilingan.

Fitrat qo‘llanmasida “Fors-arab aruzidagi tizim shakllari” maxsus bayon qilingan. Fitratning bu sohadagi nazariy kuzatishlari shu jihatdan e’tiborliki, olim “nasr” va “nazm”ni o‘zaro farqlashda yuqoridagicha, nutq qurilishi nuqtayi nazaridan yondashgan. Ularni mohiyatan farqlar ekan, adabiy jarayonda bu farqlanish “adabiy turlar” o‘rtasidagi farq emas, balki badiiy asarning ifoda yo‘sini o‘rtasidagi farqlanishdir deb ko‘rsatgan. Ikkinchidan, Fitrat mumtoz adabiyotdagi she’r (tizim) shakllari xususida to‘xtalarkan, ularni vazn tushunchasi bilan qat’iy bog‘langanini eslatgani holda «fors-arab aruzida tizim shakllari» deb anglatgan. Xuddi shu ma’noda g‘azal, qasida, qit’a, masnaviy, ruboiy, mustahzod, musammad va uning ko‘rinishlari hamda tarje’band, tarkibband kabi she’r shakllari ta’riflanib, zarur misollar bilan tasdiqlangan.

Professor Hamidulla Boltaboyev Fitratning “Adabiyot qoidalari” qo‘llanmasida bayon etilgan nazariy mulohazalar 20-yillarning o‘rtalari uchun shubhasiz chuqur ahamiyat kasb etgan va olimning yuqorida zikr etilgan nazariy qo‘llanma va maqolalaridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinligini qayd etadi: “Fitratning “Adabiyot qoidalari” qo‘llanmasi va “She’r va shoirliq” maqolasida san’at nazariyasi, adabiyot spetsifikasi, badiiy tahlil tamoyillari, adabiy jarayon muammolari singari umumestetik masalalar aks etgan. XX asr boshlarida adabiyot nazariyasi asoslarining shakllanishida bu ilmiy asarlar muhim estetik manba sifatida xizmat qilgan” [Boltaboyev, 2024:156.].

Yuqoridagi tahlillar va ta’riflar shuni anglatadiki, Fitrat murakkab tarkibli janrlardan masnaviyning mazmun ko‘lamiga e’tibor qaratgan, qasidaning esa qofiya jihatini ustuvor bilgan. Ayni fikr esa bizga masnaviyni mazmun ko‘lamiga ko‘ra murakkab strukturali, qasidani

esa uning tarkibiy xususiyatlari va qofiya jihatiga ko‘ra murakkab strukturali deb aytishga asos beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sa’diy A. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari. – T.: 1924. – B. 133.

2. Sa’diy A. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari. – T.: Bookmany print, 2025. – B. 120.

3. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллифлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма / Танланган асарлар. 4-жилд. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 336.

4. Фитрат А. Форс шоири Умар Хайём / Танланган асарлар. 4-жилд. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 336.

5. Boltaboyev H.. Fitratning adabiy-estetik qarashlari jadid adabiyoti kontekstida. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2024. – B. 400.

TURKISTONDA JADIDCHILIKNING ILK QADAMLARI

Dilafro'z JABBOROVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.
+998979129200
dilafruziabborova03@gmail.com
(O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston mintaqasida XIX asr oxiri, XX asr boshida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayon adabiyotshunosligida "jadid adabiyoti" yoxud "milliy uyg'onish davri adabiyoti" kabi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari paydo bo'lishida Samarqand taraqqiyparvarlarining o'rni tahlilga tortiladi.

Olimlarimiz XX asr boshlarida faoliyat olib borgan ma'rifatparvar ziyolilarimiz, jadidchilik harakati va uning namoyandalari to'g'risida zamonaviy yondashuvga asoslangan qarashlarini 80-yillar oxiridayoq ilgari sura boshlagan bo'lsa-da, ular haqidagi bor haqiqatni faqat istiqlolga erishganimizdan so'nggina yuzaga chiqarish imkoniyati tug'ildi. Bu imkoniyatdan kelib chiqib, ko'plab ziyolilar, tarixchi va adabiyotshunoslar e'tiborlarini jadidchilik harakati va uning ijodkor namoyandalari faoliyatiga qaratishdi. Natijada, bu davr adabiyotshunosligida "jadid adabiyoti" yoxud "milliy uyg'onish davri adabiyoti" kabi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari paydo bo'ldi. Binobarin, mustaqilligimiz arafalari va istiqlolning dastlabki besh yilida ma'rifatparvar ziyolilar to'g'risida ko'plab maqolalar chop etila boshlandi. Mazkur maqolalarda jadidchilik harakatining o'tgan asr boshlarida xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, maqsadi va mazmun-mohiyati haqida, shuningdek, bu harakatga sho'ro davrida amalga oshirilgan bir yoqlama yondashuvlar, ularning yetakchi namoyandalari hayoti va faoliyatiga doir masalalar qamrab olindi. Tarixchilar, faylasuflar, adabiyotshunoslar tomonidan vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalarni kuzatar ekanmiz, olimlarimiz mustaqillik osonlik bilan qo'lga kiritilmaganini, buning uchun bir asrdan ziyodroq vaqt

davomida kurash olib borilganini asoslashga harakat qilishganiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, istiqlolning dastlabki oylarida bosilgan “Jadidchilik: haqiqat va uydirma” [Мулокот. 1991. № 11] nomli maqolada muallif jadidchilik harakatining sho‘ro davrida biryoqlama baholab kelinganiga e’tiborni qaratadi.

Eng muhimi, maqolada istiqlol yillarida jadidchilik yangicha yondashuv va mezonlar asosida har tomonlama qayta o‘rganilishi va tub haqiqatlar yuzaga chiqishi zarurligi ta’kidlanadi.

XIX asr oxirida Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olganidan so‘ng xonlik davridagi tartibotni bekor qila boshladi. Turkistonning taraqqiyotdan ancha orqada qolib ketgani o‘lkada temir yo‘l qurilishidan, dastlabki sanoat korxonalarining bunyod etilishidan, rus olimlarining O‘rta Osiyoga olib kelgan yangi ilmiy g‘oyalaridan keyin ma’lum bo‘la boshladi. Xonliklar davridagi monarxiya tuzumi sababli o‘lkada hali-hanuz o‘rta asrlarga xos hayot tarzi hukm surar edi. Bunday qoloq turmush tarzi dastlab yurtning ziyoli vatanparvarlari, ma’rifatparvarlari dunyoqarashida aks-sado berdi, millat taqdiri, yurt kelajagi haqida qayg‘urishga, taraqqiyparvar qardoshlar bilan hamkorlik qilishga, ular ilgari surayotgan ma’rifiy g‘oyalarning Turkistonda yoyilishiga ehtiyoj uyg‘otadi va ularning gardaniga mas’uliyatli vazifani yuklaydi. Turkiston mintaqasida jadidchilik harakati o‘zining ilg‘or g‘oyalar orqali yerli aholining moddiy ahvolini yaxshilash, xalq orasida savodsizlik, diniy mutaassiblikning oldini olish choralarini ko‘rishga asos yaratdi. Jadidlarning fikriga ko‘ra, xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishning yagona yo‘li ma’rifatdir. Bu yo‘lda yangicha tuzum va tartiblarni joriy etish, yangi usul maktablarini ochish, gazeta va jurnallarni isloh qilish va ilg‘or jahon tajribasidan voqif qilish lozim edi. Shu bois jadidlik harakatining mohiyati millat va jamiyatning tafakkurini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat bo‘lgan.

Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida dastlab Qrim va Tatariston, Kavkazda yuzaga kelib, keyinchalik Turkistonga ham yoyila boshladi. Qator ma’rifatli shaxslarning yangi siyosiy va ijtimoiy g‘oyalarni ilgari surishi jadidlik harakatini yuzaga keltiradi. Bu davrda boshlangan yangi siyosiy, ma’rifiy va ijtimoiy jarayonlar jadidchilik yoki taraqqiyparvarlar harakati deb nomlandi. Jadidchilik g‘oyalari qayerda paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha xalqlar do-

imo bir-biri bilan aloqada bo‘lishadi. Tatarlar va Rossiya musulmonlari o‘zlarining O‘rta Osiyo musulmonlariga munosabati masalasida Turkistonda jadidlarning rahnamosi sifatida Behbudiydan maslahat olib turishgan. Shu ma’noda aytish mumkinki, jadidchilik g‘oyalarining yoyilishida Samarqand adabiy-ma’rifiy muhitining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Jadidlarning asosiy maqsadi, jadid usulidagi maktablarni ochish va xalqni savodli qilish edi. 1912-yilda Turkistonning barcha viloyatlarida jadidchilik harakatlari boshlab yuboriladi. Birgina Samarqandda jadidlar soni 12 ta bo‘lib, ularning sa’y-harakatlari evaziga bir necha kutubxonalar ochiladi.

Harakat asoschisi qrim-tatar millatiga mansub Ismoilbek Gaspirali edi. Ismoil Gaspirali 1883–1914 yillarda Bog‘chasaroyda “Tarjumon”, tatarlar 1905–1918-yillari Orenburgda “Vaqt” gazetasini nashr qildiradi va ozodlik, taraqqiyot g‘oyalarini targ‘ib qiladi.

Bog‘chasaroyda Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan nashr qilingan “Tarjumon” gazetasi butun musulmon o‘lkasiga, jumladan, Turkiston bo‘ylab tarqala boshlaydi. Bu hol Turkiston ma’naviy-ma’rifiy hayotiga juda katta ta’sir o‘tkazadi. Ismoilbek Gaspirali 1905-yilda yozgan maqolalarida “tavhidi til”, ya’ni til birligi, “tavhidi din”, ya’ni din birligi, g‘oyalarini ilgari sura boshladi. Ya’ni uning qarashlarida “Insonning oti bo‘lmasa, o‘zi ham yo‘qdir, shuningdek, tili bo‘lmagan inson soqovdir” [Qosimov, 1992: 159], degan amal yetakchilik qiladi. Gasprinskiy 1893-yilda Samarqandga keladi. Abduqodir Shakuriy tomonidan ochilgan maktablarni ko‘radi va kamchiliklarni ko‘rsatadi. Hoji Muinnig e’tirof etishicha: Gasprinskiy 1908-yilda yana Samarqandga keladi va Behbudiy hamda uning maslakdoshlari bilan uchrashadi. Behbudiy Gasprinskiy bilan ko‘rishib: “Bu kun sizning huzuringizga kelib, suhbatingizga istifoda qilaturg‘on ziyolilarimiz yo‘q” [Hoji Muin, 2010], degan afsusni bildiradi. Gaprinskiy Behbudiyga yig‘ilgan odamlarni ko‘rsatib, bular oz emasligini, harakat qilinsa, millat uchun kerakli ko‘p insonlarni yetishtira olishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu yillardan boshlab, Samarqandda jadid maktablari ochila boshlaydi. Bu maktablar uchun eski maktablardagi hujra va xas-xashakli o‘rindiqlar o‘rniga parta va yozish uchun xontaxtalar qo‘yildi. Bu kabi dastlabki islohotlar ularni bir maqsad atrofiga birlashishga undadi.

Islomiyat dunyosida qorong‘ulik va muntazam jaholat botqog‘iga botib borayotgan Turkiston o‘lkasi ustoz va yo‘lboshchilarga muhtoj edi. Jadidlarning rahnamosi sifatida Samarqandda, hatto Turkistonda Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy uyg‘onish yo‘lidagi harakatni boshlab berdi. Mahmudxo‘janining muftiy oilasida tarbiya topgani unda vatanparvarlik ruhini shakllantirdi. U boshlang‘ich ta’limni, arab, rus va boshqa fanlarni tog‘asi mufti mulla Odildan o‘rgandi hamda olgan ilmini xalqni ma’rifatli qilishga sarfladi. U otasi vafotidan so‘ng ma’lum muddat muftiylik ham qiladi. Yangi dunyoviy ilmlarga qiziqib qolgani bois, 1899–1900-yillarda Arabiston, Misr, Istanbul shaharlarida bo‘ladi.

Behbudiy ham dastlabki faoliyatini maktablarni isloh qilishdan boshladi. U dastlab 1905-yilda Samarqand chekkasidagi Kaftarxona qishlog‘ida maktab ochadi. 1906-yilda “Turkestanskiye vedemosti” gazetasida ta’lim-tarbiyaga, jadid maktablarining tartib-intizomiga bag‘ishlangan “Jadid maktablarining imtihoni”, 1906-yil rus tilida chiqqan “Samarqand” gazetasining 20-may (37-)sonida “Samarqandda jadid maktablari” nomli maqola chop etiladi. Ushbu maqolada bola uch-to‘rt yillik bilimni bir yilda egallashi mumkinligi, imtihon qilingan bolalarning yuqori natija egallagani qayd qilinadi. Hoji Muinning “Uchqun” jurnalining 1923-yil 1-sonida e’lon qilingan “Mahmudxo‘ja Behbudiy” maqolasida Behbudiy ham Hijoz safaridan keyin “Tarjumon”[12] gazetasini o‘qiy boshlaganini, ikkinchi tomondan, turli fanlardan ilmiy kitoblar mutolaasi bilan ma’lumotlarini kengaytirganini ta’kidlab o‘tadi.

Behbudiyning munosib shogirdi Hoji Muinning ta’rificha, [Hoji Muin, 2010:20] Behbudiy afandi halim, ziyrak, g‘oyat zakovatli va quvvai hofizasi zo‘r bo‘ldig‘idek, so‘zga-da nihoyat darajada usta edi.

Behbudiy dastavval Turkiston o‘lkasida milliy gazeta yo‘qligi, “Tarjimon” gazetasining shevasi og‘irligi va hali Turkistonda keng tarqalmagani sababli 1901-yilda Toshkentda Nikolay Ostroumov mu-

[12] “Samarqandda yerlik musulmonlardan boshlab 1892-yilda “Tarjimon” gazetasini oldirib o‘qig‘on kishi Hoji Abduqodir (me’mor) bo‘lib, undan keyin Xo‘qandboy Abduxoliq o‘g‘li, undan so‘ng tatarlardan Badriddin afandi, derlar. Behbudiydan ilgari Samarqandda yolg‘iz 3 nafargina gazeta o‘qiguvchi bor emish”. (Hoji Muin izohi)

harrirligi ostida chiqayotgan "Turkiston viloyatining gazeti"ga maqolalar yoza boshlaydi. Bu orada Turkistonda milliy gazeta va jurnallar nashr qilina boshlaydi (faoliyati uzoqqa cho'zilmasa-da). Hatto 1903-yilda Samarqandda yangi usuldagi jadid maktablari ochila boshlaydi. Behbudiy rahnamoligida bu maktablarning soni ko'paya bordi. Ularning asosiy maqsadi xalqni ma'rifatga chorlash bo'lsa, ikkinchi tomondan ona tilidagi darsliklarning yetishmasligi sababli o'zbek va fors tilida darsliklar yozishga kirishadi. Hatto o'z tilimizda xarita va teatr risolasini yozib, nashr qildiradi. 1913-yilda Samarqand adabiy muhitida jadidchilik g'oyalarini keng miqyosda targ'ib qilish maqsadida birinchi marta "Samarqand" gazetasini nashr qildiradi. Lekin gazeta moddiy qiyinchilik tufayli 44-sonidan keyin yopiladi. Keyinchalik 1913–1915-yillarda "Oyina" jurnali nashr qilinadi. Abdulla Avloniy "Oyina" jurnali haqida: "Oyina chiqquncha, chiqqan jurnallarning eng birinchisi va yaxshisi edi" ["Turkiston", 1924: 24-iyun] deb ta'kidlaydi. Jurnal muqovasi Samarqand viloyati harbiy gubernatoriga yozgan arizasiga ko'ra o'zbek, tojik, va rus tillarida nashr qilinishiga ruxsat berilishiga qaramasdan arab, o'zbek, fors va rus tillarida "Mir'ot", "Ko'zgu", "Zerkalo" va "Oyina" tarzida nashr qilinadi. Bu jurnal ham ikki yillik faoliyatidan so'ng, 68-sonidan keyin o'z faoliyatini to'xtatadi. Jurnalda nashr qilingan maqolalar vatanimizning yaqin o'tmishdagi ozodlik harakatlari tarixini o'rganishimizda hozirgi kunda ham dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Jurnalda Niyoziy Rajabzoda "Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyotning yo'li" nomli maqolasida ibtidoiy maktablarning zamon talablariga javob bera olmay qolganini dalillar bilan isbot qiladi. Shuningdek, maktabning taraqqiyoti maktabdan boshlanishi, ilm-u ma'rifatsiz millatning tanazzulga yuz tutishi ta'kidlanadi. Maqolada "maktab va madrasa bir millatning, hatto bani odamning darajayin taraqqiy va taolasi deb bo'ladur. Faqat taraqqiy va taolo, maktab, maktab va madrasaning ko'pligiga bo'lmayincha, balki nizom va tartiblik bo'lib, yaxshi idora etilmog'i ila bo'ladur" [Oyina1914, 38-son. 906-911-betlar] deydi. Ayniyning "Har millat o'z tili ila faxr etar" [Oyina, 1914, 35-son. 836-838-betlar] nomli maqolasida "... qaysi bir millatkim o'z tilini begona lug'atlardan ozod saqlasa va o'z millatini muhofaza qilsa, din va oyinini qo'ldan bermaydur. Ammo

biz, turkistonliklar esa g'aflat va jaholatimizning ko'pligi sababli, bu muhim masaladan ham bexabarmiz. O'z tilimizda turkiycha va arabcha so'zlar bor bo'lgan suratda yana havasaki rus yo farangi so'zlarni o'rtaga suqub iste'mol qilarmiz. Ikki turkistonlik turk bir-birovi ila so'zlashganda havasaki rus lug'atlarni o'rtaga kelturib suqmoqligi ayni hamoqat bo'lsa kerak". Ushbu maqolada Sadriddin Ayniy tilga hurmat, unga yevropacha so'zlarni, ularning turkiy tilda ma'nodoshi bo'lsa ham qo'shib ishlatish tilimizga putur yetkazishi haqida kuyunib yozadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "O'quvchilarga yordam kerak" [Oyina1914, 31-son. 601-604-betlar] maqolasida millat uchun mahalliy xalqdan yetishib chiqqan shifokor, muhandis, huquqshunos, biznesmen, sudya, bank sohiblari lozimligi, yoshlarning zamonaviy bilim olishlari uchun "O'qituvchilarga yordam jamiyati" tuzib, uning mablag'i hisobiga ularni xorijiy mamlakatlarga o'qishga yubormoq zarurligi ta'kidlangan. Maqolada "zamoniy odamlar yetishturmoq uchun hukumat maktablariga, maktablarning islohi uchun O'runburg, Qazon, Qirim, Kafkaz va Istanbul maktablariga, madrasaning islohi uchun Makka, Madina va Misrga talaba yubormoq kerakdur" [Oyina, 1914, 31-son. 601-604-betlar], deb ta'kidlaydi. Va talabalarning tahsili uchun sarf qilinadigan xarajatlar, tahsil muddati va natijalar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Millat fidoyisi Abdulhamid Cho'lpon ham 1926–1930-yillarda Samarqandda ijod etadi. Adabiyotshunos olim Naim Karimovning ta'kidlashicha, Cho'lpon bu yillarda ayoli Soliha bilan Samarqand shahrining Qo'shhovuz mahallasidagi 94-uyda istiqomat qilgan [N.Karimov Cho'lpon.T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2003. B 348]. Zamondoshlar Cho'lponning yaxshigina dutor chertish bilan ashula aytganini eslashadi. O'sha paytda Samarqandda shoir-u san'atkorlar goh Ma'ruf Rasuliyning, goh Vadud Mahmudning, goh Fitratning uyida tez-tez to'planishib, nafis suhbatlar qurishgani ta'kidlanadi [N.Karimov,2003:338]. Shu yillar orasida barcha jadidlar Samarqand diyorida o'z faoliyatini davom ettiradilar. Ko'pchilik taraqqiyparvarlarning faoliyati aynan bizning Samarqand davlat universiteti bilan bog'liq. Jumladan, Botu (Mahmud Hodiyev) 1927-yil Samarqanddagi markaziy partiya maktabida voiz va rahbar vazifasini bajardi.

XX asrda Vasliy Samarqandda faoliyat yuritishni boshlagan jadid maktablariga darsliklar tayyorlab, xalqni savodli qilish yo'lida bel boylagan ziyolilardan edi. Hatto Samarqandda eng ko'p faoliyat yuritgan 1–2-maktablarning ochilishida ham Vasliyning xizmati beqiyos. 1906-yildan Turkistonda chiqa boshlagan o'zbekcha gazetalarda uning she'r va maqolalari nashr qilinib turgan. Vasliy fors, o'zbek va arab tillarini mukammal bilgan, shu bois o'quv maktablarida forscha adabiyot va arabcha sarf-u nahvdan dars bergan, muallimlik qilgan va o'zi darsliklar nashr qildirib, tarqatib turgan.

Behbudiy tomonidan Samarqandda "Samarqand" gazetasi o'z faoliyatini boshlagan. Jadid taraqqiyparvarlari tomonidan maqolalar nashr qilinib turgan. Abdulla Avloniy Samarqandda nashr qilina boshlagan "Samarqand" gazetasi haqida shunday deydi: "... el-u xalqning ko'zini ochishga bois bo'ldi", deb ta'kidlaydi. Ushbu gazeta sahifalarida muhrlanib qolgan maqolalar o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy ahvoli haqida ma'lumot berib turardi. Bu gazeta 1913-yilda Samarqandda Behbudiy tomonidan fors va tojik tillarida chiqarilib turadi. Gazeta orqali xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otish va ma'rifatga chorlashni oldiga asosiy maqsad qilib oladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan O'zbek milliy matbuotida jurnalchilikka asos solingan "Oyina" jurnali nafaqat Turkiston, qolaversa, Rossiyaning musulmonlar yashaydigan o'lkalarida ham shuhrat qozonadi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1914–1915-yillarda nashr qilgan Oyina jurnali istiqloldan keyin 2001-yil Akademiya nashriyoti tomonidan to'plam holida nashr qilinadi. Jurnalda Sadriddin Ayniyning "Har milllat o'z tili ila faxr etar"maqolasi, Mahmudxo'ja Behbudiyning "O'quvchilarga yordam kerak" maqolasida xalq orasidan yetishib chiqqan shifokor, muhandis, huquqshunos, bank xodimi va tadbirkor yoshlarga ma'naviy ko'mak berish maqsadida "O'quvchilarga yordam jamiyati" tuzib, uning hisobidan yoshlarning yaxshi bilim olishlari uchun xorijga oqishga yuborish kerakligi haqida fikr yuritiladi. Uning "Tarix va jug'rofiya maqolasida millat bolalari o'zlarining tarixi va jug'rofiyasini yaxshi bilishi lozimligi ta'kidlanadi. Is'hoqxon Ibratning "Millatnu kim isloh etar" maqolasida yomon illatlardan qutulish uchun masjidlarda imomlar amri ma'rufdan o'rinli foydalanishi kerakligi, buning uchun har bir imom ham savodli

bo‘lishi kerakligi aytiladi. Jurnalda nashr qilingan maqolalar hozirgi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Samarqandda o‘z faoliyati bilan shuhrat qozongan “Oyina” jamiki millatparvar jadidlarimiz uchun chin ma’noda ko‘zgu vazifasini o‘taydi. Jurnalda jadidlarning turli sohaga oid muammolarni ko‘tarib chiqishi hamda ularni bartaraf etish choralarining qalamga olinishi uning xalq o‘rtasidagi nufuzini oshirdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy yurtni, millatni, yoshlar kelajagini, ularning ilm olishlari, vatanning taraqqiy davlatlar qatoriga qo‘shilishi uchun bor kuchi bilan harakat qildi. Uning “Ikki emas, to‘rt til kerak” maqolasidagi eng muhim jihatlardan biri yoshlarning bir emas, balki bir necha tilni o‘rganishi vatanimizni rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishiga zamin tayyorlashi ta’kidlanadi. Nazarimizda, bu maqola hozirgi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan. Eng asosiysi, jadidlarimiz kamida to‘rtta tilni mukammal bilishgan. Jumladan, 1887-yil 15-fevralda Samarqandda tavallud topgan Said Rizo 1900-yilda Samarqandda Demurov-Sliyanov bosmaxonasiga harf teruvchi bo‘lib ishga kiradi. U bolaligida madrasada arab, fors tillarini mukammal o‘qigan, Qur’oni karimni yod bilgan. Keyinchalik, rus va boshqa tillarni mustaqil o‘rganadi. 14 ta (o‘zbek, tojik, fors, rus, arab, turk, urdu, ozar, tatar, arman, ivrit, ingliz, fransuz, turkman, qozoq) tillarini mukammal bilgan, o‘tkir zehn sohibi bo‘lgan.

Samarqandda jadidlar tomonida qilinayotgan turli sohadagi yangiliklar kutilgan samarasini bermaydi. Maktablar, nashriyotlar majburiy yopila boshlaydi. Shunday bo‘lsa-da, Behbudiy o‘z oldiga qo‘ygan maqsadda sobit qoladi. Behbudiy milliy dramaturgiyaning birinchi namunasi sifatida “Padarkush” dramasini yozadi. Asar jadidchilar tomonidan tez sahnalashtirilib, xalqqa taqdim etiladi. Ular ham aktyor sifatida o‘zlari sahnada asarni ijro qilib, xalqqa asosiy mohiyatni anglatishga yordam beradi. “Padarkush” dramasi Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Badriyning “Juvormarg”, “Ahmoq”, Hoji Muinning “Ko‘knori”, “Eski maktab, yangi maktab”, Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” kabi pyesalar 10 pyesaning dunyoga kelishiga asos bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston mintaqasida XIX asr oxiri, XX asr boshida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o‘lkada zamonaviy fikrlaydigan taraqqiyparvarlarning maydonga chiqishiga sa-

bab bo‘ldi. Ularning millatni uyg‘otish, jaholatga qarshi kurashish, mamlakatni taraqqiy ettirish yo‘lidagi mardonavor kurashi jadidlik harakati nomi bilan tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Bunda Samarqand adabiy muhitining, qolaversa, Mahmudxo‘ja Behbudiy rahnamoligidagi taraqqiyparvarlarning o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Р.Шамсутдинов. Жадидчилик: Ҳақиқат ва уйдирма. Мулоқот. 1991. № 11.
2. B.Qosimov Ismoilbek G‘aspirali. “O‘zbegim” to‘plami. – T., “Sharq”. 1992, 159-bet.
3. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2010.
4. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2010, 20-b.
5. A. Avloniy. Burung‘i O‘zbek vaqtli matbuotining tarixi. “Turkiston”, 1924, 24-iyun
6. Oyina. – T.: Akademiya nashriyoti. 2001. 5–8-betlar.
7. Oyina. – T.: Akademiya nashriyoti. 2001. 11–12-betlar.
8. Oyina. – T.: Akademiya nashriyoti. 2001. 17–19-betlar.
9. Naim Karimov. Istiqlolni uyg‘otgan shoir. – T.: Ma’naviyat. 2020, 11-bet.
10. N.Karimov. Cho‘lpon. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi nashriyoti. 2003, 338-bet.
11. Fidoyilar. (Nashrga tayyorlovchi Saidmurod Xo‘jayev), – T.: Fan nashriyoti, 1990, 25-bet.
12. Naim Karimov. Istiqlol fidoyilari. – T.: Sharq nashriyoti. 1993, 156-bet.
13. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – T.:2010, 32-bet.

ВОЗРОЖДЕНИЕ В *ЛИТЕРАТУРЕ*: НА ПРИМЕРЕ ТРАДИЦИОННОЙ И НОВАТОРСКОЙ ПОЭЗИИ

Айсель ШЕЙДАЕВА,
Институт литературы имени Низами Гянджеви НАНА,
докторант
Заместитель директора по социально-гуманитарным вопросам Губинского филиала Азербайджанского государственного педагогического университета (АГПУ)
доктор философских наук по педагогике
aysel.shevdayeva@quba.adpu.edu.az
The ORCID iD associated is: https://orcid.org/0000-0003-3049-5959
(Ozarbayjon)

Статья посвящена вопросу традиции и новаторства в поэзии. Как известно, устойчивое развитие означает не только улучшение экономики, но и повышение духовного и культурного уровня общества. С этой точки зрения литература — как духовный наставник — способствует устойчивому развитию, влияя на мышление, ценности и установки людей. По этой причине старое и новое, традиции и новаторство, прошлое и настоящее являются одними из наиболее изучаемых тем в литературе.Тема традиций и новаторства в поэзии отражает разные периоды богатой литературной истории и разные подходы писателей. Для этого периода были характерны сохранение традиционных ценностей и создание новаций в литературе. Эти два процесса сыграли важную роль в развитии поэзии. В традиционной поэзии, особенно в XIX и начале XX веков, преобладали более классические формы и темы. Традиция играет важную роль в историческом развитии поэзии и формировании литературы. Новаторство более явно проявляется во внутренних особенностях стихотворения. Новаторство проявляется в новых и уникальных образных средствах выражения в поэзии. В результате поэзия в целом развивается и становится богаче.

Ключевые слова: современность, патриотизм, литература, традиция, новаторство, модернизм, поэзия.

Abstract. The article is dedicated to the issue of tradition and innovation in poetry. As we know, sustainable development means not only the economy, but also the improvement of the spiritual and cultural level of society. In this regard, literature, as a spiritual guide, contributes to sustainable development by influencing people's thinking, values, and attitudes. For this reason, the old and the new, tradition and innovation, are among the most studied topics in literature. The theme of tradition and innovation in poetry reflects different periods of rich literary history and different approaches of writers. The preservation of traditional values and the creation of innovations in literature were characteristic of that period. These two processes played an important role in the development of poetry. Traditional poetry, especially in the 19th and early 20th centuries, was dominated by more classical forms and themes. Tradition is important in the historical development of poetry and the formation of literature. Innovation is more evident in the internal features of the poem. Innovation is manifested in new and unique figurative means of expression in poetry. As a result, poetry as a whole develops and becomes richer.

Key words: modernity, patriotism, literature, tradition, innovation, modernism, poetry

Исследования в области литературы показывают, что в конце XIX – начале XX века появляются новые образцы поэзии, отличающиеся духом, идейной и художественной смелостью [3, с. 7]. В поэзии, которая уже начинала принимать образный способ мышления, стал усиливаться процесс замены образности художественными нюансами и поэтическими гимнами, которые в большей степени были подпитаны духовным миром человека. Это привело к замене традиционной поэзии новаторскими чертами и появлению новых подходов в поэзии. Учитывая социальную обстановку того времени, было естественно наблюдать новые тенденции в поэзии. Самым продуктивным, но не менее продуктивным периодом литературы для тюркских народов был XIX-XX вв. Известно, что вне общественно-политических процессов литературы не существует. Можно сказать, что поэзия этого периода привлекает внимание рядом оригинальных и инте-

ресных черт[4, с. 11]. Главной особенностью, которая привлекала внимание, было включение в творчество поэтов и писателей тем социального характера, а также применение новых форм. Одним из наиболее ярких аспектов этого периода является появление новых поэтических форм, а также нововведений в содержании и качестве поэзии. Помимо простоты новых поэтических форм, очень важным было и то, что они затрагивали общественно значимые темы. Если мы обратим внимание на образцы литературы, написанной в этот период, то увидим, что в них затрагиваются такие социальные темы, как истина, справедливость, цивилизация, нация и правительство. Возрастающая роль свободного стиха в поэзии, наряду с традиционными формами классической литературы, возникла из-за потребности в более интенсивном выражении художественной мысли. Именно с этой точки зрения в литературе появились десятки поэтов, создавших совершенные поэтические произведения с новой поэтической формой. Понятия традиции и новаторства чрезвычайно важны с точки зрения развития и трансформации литературы. Хотя новаторство всегда подразумевает критику традиции или поиск новизны, оно проявляется не только во внешних характеристиках поэзии. Новаторство чаще воспринимается как литературное понятие, которое отражается в отношении к предмету, направленности идеи, особенностях новых форм. С другой стороны, традиционные формы поэзии в большей степени основывались на традиционных и классических чертах поэзии и диванной литературы. Естественно, основу этой традиции составили стихотворения, написанные в таких структурах, как формы диванной поэзии, рифма, рифма, двустишие и строфа. Характерной чертой этого периода считалось также повторение традиционных тем. Темы поэзии обычно основывались на двух влюбленных, романтических отношениях, философских размышлениях, любви к миру и природе, а также духовном мире человека. Эти темы повторялись с течением времени без каких-либо инноваций. Язык литературы Дивана сформировался в основном под влиянием арабского и персидского языка и поэзии. Хотя произведения, созданные в традиционной поэзии, со временем могут быть не поняты всей

публикой, их поэтическая ценность остается высокой на протяжении всей истории. Концепция инновации — это подход в литературе, который поколебал прежние традиции. Основные черты новаторства, получившего распространение в поэзии, обусловили и возникновение новых поэтических форм. Поэты, писавшие в новаторском стиле, использовали новые методы и формы свободного стиха, а не традиционные формы. Язык новаторской поэмы был направлен на то, чтобы дистанцироваться от влияния прежней придворной и аристократической культуры и создать более современный и демократичный стиль. Поэты-модернисты, писавшие в этом стиле, стремились обогатить свое творчество новаторством и современными тенденциями. В это время они испытали влияние европейской литературы и расширили границы поэзии. Существовали разные подходы к понятиям традиции и инновации. Многие поэты и писатели в своем творчестве больше ориентировались на это направление, в то время как одна группа резко выступала против и отдавала предпочтение традиции.

Роль литературы в развитии человека неоценима. Следует также отметить, что развитие человека – это также его патриотическое воспитание. Необходимо использовать поэзию для воспитания идей свободы Родины и любви к Родине. Таким образом, для обеспечения устойчивого развития должна развиваться и духовность человека. В этом смысле важна роль новаторских стихотворений, посвященных таким темам в поэзии, как патриотизм, свобода, современность и т.п. Когда люди читают эти стихи, они как будто сами становятся этими героями. Хотя эти темы характерны для всех периодов, мы не можем дать исследование каждой из них. Для этого давайте рассмотрим стихотворения, написанные в период с 1920-х по 1960-е годы на традиционные и новаторские темы. Традиции и инновации были особенно заметны в начале 20 века. Литература 1920–1960-х годов характеризовалась рядом новых черт. Это проявляется, прежде всего, в отношении поэтов, писавших и творивших в этот период, к человеку, миру и обществу. Типичный общественно-политический и культурно-духовный ландшафт того периода нашел свое отражение в поэме в различных формах. Хотя сфера образной поэтической образности в

новых стихотворениях расширялась, во многих стихотворениях этот аспект проявлялся либо на уровне риторического пафоса, либо чистой гимнодии. Одной из главных особенностей поэзии 1920-х годов было выражение через поэзию того, что народ и общество не могли сказать [5, с. 47]. Хотя в творчестве поэтов преобладали новаторские тенденции, польза от традиций была столь же очевидна. Однако в образцах литературы, написанных традиционными для того периода методами, творческий подход более разителен. В целом представители современной поэзии проявляли заботу о традиционной поэзии. Но они также критиковали. Например, в литературе всегда были темы, которые находились на переднем крае как традиций, так и инноваций. Патриотизм занимал лидирующее положение как в современной поэзии, так и в традиционной литературе. Представленность идей тюркизма и патриотизма в литературе достаточно высока. Эти темы представлены как в традиционной, так и в современной поэзии. Эти темы являются проявлением как национального пробуждения, так и единства. Патриотизм — выражение в литературе чувств, связанных с любовью человека к своей Родине, борьбой за ее свободу и развитие. Например, в литературе во все времена актуальными были прославление красот родной земли, включение тем героизма, мученичества, защиты национальной идентичности. Тюркизм – совокупность в литературе идей о единстве, общности языка, истории, культуры и будущего всех тюркских народов. Изучение этих тем под названием «традиции и инновации» также способствует постоянному развитию молодых людей как личностей. Формирует национальную идентичность и сознание у молодежи. Это дает возможность знакомить с историческим и культурным наследием и сохранять его. Идеи единства и солидарности распространяются через литературу.

Даже сегодня в литературе сохраняется конфликт и гармония между традициями и новаторством. Современные поэты создают уникальные поэтические произведения, сочетая как новые стили, так и классические формы. Вводятся новаторские подходы к темам и структуре традиционной поэзии, а социальные и философские вопросы трансформируются в поэзию более актуальным

образом. Одной из характерных черт этого периода было творческое использование традиций. Это также означало не модернизировать их на том же уровне или повторять в более слабой форме, а обогащать их, добавляя что-то к ним как по содержанию, так и по форме, обращаясь к известным мотивам народной поэзии, классическому содержанию и темам. Это также очевидно по отношению к классическим формам. Когда художественные произведения, написанные в традиционных формах, обогащаются новыми и оригинальными поэтическими образами, сама эта форма приобретает новую суть. В результате поэзия в целом как жанр развивается и обогащается. Талантливые молодые люди начали выражать свои чувства на эти темы в новых формах. [5, с. 53]. Изучение концепций традиции и новаторства в литературе чрезвычайно важно.

Концепция новаторства – это подход, который потряс предыдущие традиции в турецкой поэзии. Основные черты новаторства, получившего распространение в поэзии, обусловили и возникновение новых поэтических форм. Поэты, писавшие в новаторском стиле, использовали новые методы и формы свободного стиха, а не традиционные формы. Язык новаторской поэмы был направлен на то, чтобы дистанцироваться от влияния прежней придворной и аристократической культуры и создать более современный и демократичный стиль.

Понятия «традиция» и «новаторство» в поэзии — два важных понятия, выражающие процессы развития литературы во времени и отношение поэтов к этому процессу. Из исследований турецкой поэзии становится ясно, что в конце XIX — начале XX века появились новые образцы поэзии, отличавшиеся своим духом, идейной и художественной смелостью. В поэзии, которая уже начинала принимать образный способ мышления, стал усиливаться процесс замены образности художественными нюансами и поэтическими гимнами, которые в большей степени были подпитаны духовным миром человека. Это привело к замене традиционной поэзии новаторскими чертами и появлению новых подходов в поэзии. В то время проблема традиций и новаторства в той или иной степени была очевидна как в Турецкой,

так и в Азербайджанской поэзии. В этом смысле интересен и период Азербайджанской поэзии 1920-х годов. Поскольку изображение национальной независимости, патриотизма и национальной идентичности с большим энтузиазмом осуществлялось во времена Азербайджанской Республики, были и те, кто продолжил этот путь и в последующие периоды. В работах А. Шаига, А. Джавада, Ч. Джаббарлы, Х.К. Санили, Уммугулсум, А. Абид, А.Ю. Рази, А. Даи, А. Музниб, Давуд и другие, ценился путь, пройденный тюрками за сотни лет, и предпочтение отдавалось изображению идей тюркизма и туранизма [5, с. 39].

Если обратить внимание на социальную обстановку в Турции того периода, то вполне естественно заметить новые тенденции в поэзии. Самым продуктивным, но столь же продуктивным, сколь и противоречивым и сложным периодом турецкой литературы был XIX-XX вв. Известно, что вне общественно-политических процессов литературы не существует. Можно сказать, что поэзия этого периода привлекает внимание рядом оригинальных и интересных черт [4, с. 11]. Раджаизаде Махмуд Экрем (1847–1914), Абдулхак Хамид Тархан (1852–1937), Мехмет Акиф Эрсой (1873–1936), Зия Гёялп (1876–1924), Омер Сейфеттин (1884–1920), Яхья Кемаль Баятлы (1884–1958), Рашад Нури Гюнтекин (1889–1956), Ахмет Хамди Танпынар (1901–1962), Назим Хикмет (1902–1963), Зия Осман Саба (1910–1957), Яшар Неби Найыр (1908–1981), Орхан Вели Ганыг (1914-1950), Али Октай Рифат (1914-1988), Джахид Гулеби (Махмуд Джахид Эренкан-1917-1997), Азиз Несин (1915-1995), Неджати Джумали (1921-2001), Ахмет Сезай Каракоч (1933-2021), Нихад Сами Банарлы (1907-1974) и другие. Главной особенностью, которая привлекала внимание, было включение в творчество поэтов и писателей тем социального характера, а также применение новых форм. Возрастающая роль свободного стиха в поэзии, наряду с традиционными формами классической литературы, возникла из-за потребности в более интенсивном выражении художественной мысли. Именно с этой точки зрения в азербайджанской и турецкой литературе появились десятки поэтов, создавших прекрасные поэтические произведения в новой, свободной фор-

ме стиха. Концепция новаторства – это подход, который потряс предыдущие традиции в турецкой поэзии.

Таким образом, в поэзии этого периода появились стихотворения, проникнутые чувством национального патриотизма и независимости. Поэты-модернисты, писавшие в этом стиле, стремились обогатить свое творчество новаторством и современными тенденциями. В это время они испытали влияние европейской литературы и расширили границы поэзии. Существовали разные подходы к понятиям традиции и инновации. Многие поэты и писатели в своем творчестве больше ориентировались на это направление, в то время как одна группа резко выступала против и отдавала предпочтение традиции. Например, Мехмет Акиф Эрсой (1873-1936), известный исключительно как национальный поэт, воспринимал нововведения, которые западные империалисты пытались навязать во имя «культуры», как провокацию и решительно протестовал. Его самое известное произведение «Гимн независимости» было принято в качестве национального гимна Турции. Здесь на первый план выходят патриотизм, национальное единство и борьба за независимость. Он превратил поэзию в средство пробуждения духа народа. Поэты и писатели, писавшие и творившие в тот период, хорошо понимали, что новаторство требует определенной решимости бороться, и они смогли передать эту решимость в своих произведениях на фоне политической обстановки того времени. Поэтому поэтический ландшафт того периода можно понять на основе новых стихотворений, появившихся в 1920–1960-х годах. Например, если обратиться к творчеству поэтов того периода, то образ Родины выступает как лирический герой и является примером новых эмоций и новой формы видения. Социальные темы в стихотворениях в основном используются для объяснения истории, идентичности и культуры турецкой нации. Национальные ценности в поэзии Яхьи Кемаля (1884-1958) занимают центральное место в его понимании национализма. Он внес большой вклад в турецкую литературу и воплотил турецкую идентичность в своей поэзии. Баятлы экспериментировал с очищением и упрощением своего языка и пытался выйти за рамки традиционной поэзии. Одной из важнейших

особенностей поэзии Яхьи Кемаля Баятлы является сочетание эмоциональности и современности с классическим стилем. В своих произведениях он сочетал как древние поэтические стили, так и новые литературные течения, создавая насыщенные и глубокие смыслы. В целом, основная идея стихов Яхьи Кемаля Баятлы – создание гармонии между понятиями «национальность» и «модернизм» в его произведениях.

Типичный общественно-политический и культурно-духовный ландшафт того периода нашел отражение в поэзии в различных формах. Хотя сфера образной поэтической образности в новых стихотворениях расширялась, во многих стихотворениях этот аспект проявлялся либо на уровне риторического пафоса, либо чистой гимнодии. Например, если мы посмотрим на стихи Джахита Сидки Тараджи (1910-1956), то сможем почувствовать расслабленное психологическое состояние, характерное для того периода и царившее в обществе, отраженное в его образах. Джахит Сидги Тараджи — один из важнейших поэтов турецкой литературы и считается одним из важнейших имен в современной турецкой поэзии. В его стихах присутствуют как современные, так и традиционные элементы. Помимо сосредоточения внимания на таких общечеловеческих темах, как быстротечность жизни, человеческое одиночество, любовь, смерть и существование, в стихах Тараджи также присутствуют черты традиционной турецкой поэзии. В его стихах присутствуют как современные, так и традиционные элементы. Помимо сосредоточения внимания на таких общечеловеческих темах, как быстротечность жизни, человеческое одиночество, любовь, смерть и существование, в стихах Тараджи также присутствуют черты традиционной турецкой поэзии.

Хотя в творчестве поэтов преобладали новаторские тенденции, польза от традиций была столь же очевидна. Однако в образцах литературы, написанных традиционными для того периода методами, творческий подход более разителен. Например, Сезай Каракоч (1933-2021) привлек внимание своей любовью к классической литературе и приверженностью традициям, но ему удалось вдохнуть новую жизнь в свое творчество с помощью своих уникальных стилистических особенностей.

Следует отметить, что новаторская поэзия заставляет читателя задуматься, порывает с традициями, открывает новые художественные горизонты, в то время как современная поэтическая традиция потребовала применения новых форм и тем. По этой причине необходимо больше внимания уделять анализу новых направлений и тенденций, возникших в творчестве поэтов, писавших и творивших в этот период, а также рассматривать связи, сходства и различия между традиционной поэзией и современной поэзией.

Список литературы

1. Бабаева О.Е. Современная Турция, традиции и новаторство в турецкой поэзии. абстрактный. Баку, 2017. Институт Востоковедения имени З. Буньядова НАНА, 26 с.

2. Алиева Дж. Поэтика современной турецкой поэзии. Баку, Издательство «Элм», 2000, 91 с.

3. Гулиев Э.Х. Турецкая литература Турции (XIX-XX вв.) Баку, «Издательство Наука и образование», 2003, 125 с.

4. Гулиев Э.Х. Литература тюркских народов. Учебник, Баку, «Издательство Наука и образование», 2017, 631 с.

5. Ахмедли Б. История азербайджанской литературы XX века. Баку, «Издательство Qanun», 2024, 583 с.

6. Алиев. М.И. Продолжение великого пути (Исследования по литературе тюркских народов) Книга I, Баку, «Наука и образование», 2019, 512 с.

7. Избранные стихотворения Эрсоя.М.А. Турксой. Анкара 2023. 139 с.

8. Османова Б. «Странное» поэтическое течение в турецкой поэзии. // Журнал восточной филологии. 6-е издание. Баку 2012. 427-441 стр.

9. Тагисой Н. «Поэтический перевод» Баку, издательство «Маариф», 2001, 245 с.

10. Антология литературы тюркских народов, том III. Баку, 2013, 464 с.

JADID ADABIYOTI VA TRANSMILLIY ADABIY TARMOQLAR

Zoyir YALLAQAYEV,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi
zoyiryallaqayev@gmail.com
tel: +998996714840
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalariga asoslangan jadid adabiyotidagi transmilliy adabiy tarmoqlarning shakllanish jarayonini tahlil qiladi. Turkiston jadidlarining Qozon, Orenburg, Istanbul, Rossiya va Yevropa madaniy markazlari bilan adabiy, ilmiy va matbuot aloqalari o'rganiladi. "Taraqqiy", "Vaqt", "Tarjimon" kabi gazetalarning transmilliy almashinuvdagi roli, tatar, turk va rus adabiyotlari bilan o'zaro ta'sir ko'rsatiladi. O'zbek tadqiqotchilarining asarlari va jadidlarning adabiy jarayon va adabiy aloqalar haqidagi fikrlari asosida transmilliy tarmoqlarning shakllanishi yoritiladi.

Kalit so'zlar

Jadid adabiyoti, transmilliy tarmoqlar, matbuot, milliy uyg'onish, Qozon, Istanbul, modernizatsiya, o'zbek adabiyoti.

Annotation

This article analyzes the formation of transnational literary networks in Jadid literature during the late 19th to early 20th centuries in Turkestan, rooted in the ideals of national awakening and enlightenment. It examines the literary, intellectual, and media connections of Turkestan Jadids with cultural centers in Kazan, Orenburg, Istanbul, Russia, and Europe. The role of newspapers such as "Taraqqiy," "Vaqt," and "Tarjimon" in transnational exchange, as well as interactions with Tatar, Turkish, and Russian literatures, is explored. Drawing on the works of Uzbek scholars and the writings of Jadids, the article illuminates the development of these networks.

Keywords

Jadid literature, transnational networks, media, national awakening, Kazan, Istanbul, modernization, Uzbek literature

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida shakllandi. Jadidlar ta'lim, adabiyot va matbuot orqali jamiyatni modernizatsiya qilishni maqsad qilib, milliy o'zlikni global ma'rifiy g'oyalar bilan uyg'unlashtirdi. Bu jarayonda transmilliy adabiy tarmoqlar muhim rol o'ynadi. Shu o'rinda transmilliy atamasiga izoh berib o'tish zarur. Transmilliy adabiy tarmoqlar – bu biror adabiy harakat yoki madaniy oqimning bir nechta millat, hudud va madaniy maydonlarni qamrab olishi, ular bilan o'zaro aloqada rivojlanishi demakdir. Transmilliy tarmoqlar adabiyotning milliy chegaralarni kesib o'tib, turli mintaqalar va madaniyatlar o'rtasida almashinuv va ta'sir o'rnatishini ta'minladi [Adeeb Khalid, 1998:112-120]. Turkiston jadidlari Qozon, Orenburg, Istanbul, Buxoro va Yevropa bilan adabiy va ilmiy aloqalar o'rnatdi, bu esa o'zbek adabiyotidagi modernizatsiya jarayonlarini tezlashtirdi. O'zbek adabiyotshunosi Begali Qosimov jadid adabiyotini "milliy uyg'onishning muhim omili" sifatida baholagan bo'lsa, Dilorom Alimova uning transmilliy aloqalar orqali rivojlanganini ta'kidlaydi [Alimova, 2000:48]. Ushbu maqola transmilliy adabiy tarmoqlarning shakllanishi, ularning o'zbek adabiyotidagi ta'siri va milliy o'zlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini o'zbek va xalqaro tadqiqotlar, shuningdek, jadidlarning o'z so'zlari asosida tahlil qiladi.

Jadid adabiyotidagi transmilliy tarmoqlar matbuot, ta'lim tizimi, ziyolilarning xalqaro faoliyati va adabiy almashinuv orqali rivojlandi.

Matbuot jadidlar uchun transmilliy adabiy tarmoqlarning asosiy platformasi bo'ldi. Turkistonda nashr etilgan "Taraqqiy" (1906–1907), "Shuhrat" (1907) va "Sadoyi Turkiston" (1914–1918) gazetalari Qozon, Orenburg va Buxoroda tarqaldi, bu esa mintaqalar o'rtasida adabiy va g'oyaviy aloqalarni mustahkamladi [Allworth, 1967:145-150]. Qozonda chiqadigan "Vaqt" va Qrimda nashr etilgan Ismail Gasprinskiyning "Tarjimon" gazetalari Turkiston ziyolilari

orasida keng o‘qildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Sadoyi Turkiston” gazetasida shunday yozadi: “Bizning gazeta nafaqat Turkiston xalqiga, balki butun musulmon olamiga xizmat qilmoqda, chunki ma’rifat chegarasizdir” [“Sadoyi Turkiston”, 1914]. O‘zbek tadqiqotchisi Dilorom Alimova ta’kidlaganidek, “Taraqqiy va Sadoyi Turkiston kabi nashrlar Turkistonni Qozon va Istanbul bilan bog‘lovchi adabiy ko‘prik bo‘ldi” [Alimova, 2000:48].

Jadidlarning “usuli jadid” maktablari transmilliy tarmoqlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Bu maktablar Turkiston, Qozon va Usmonli imperiyasida bir xil maqsadlarga xizmat qildi: zamonaviy bilimlar tarqatish va milliy o‘zlikni mustahkamlash. Turkiston jadidlari Qozonga safar qilib, u yerdagi nashriyotlarda o‘z asarlarini chop ettirdilar. Masalan, Behbudiy Qozonda “O‘zbek xalqining tarbiyasi” nomli risolasini nashr qildi, bu transmilliy adabiy tarmoqlarning amaliy natijasi edi [Behbudiy, 1910]. O‘zbek jadidlarining Qozon va Istanbul bilan aloqalari o‘zbek adabiyotining she’riyat, nasr, dramaturgiya kabi adabiy turlarini, shu bilan birgalikda, milliy publisistikani rivojlantirdi.

Jadid adabiyoti tatar, turk, rus va fors adabiyotlari bilan o‘zaro ta’sirda rivojlandi. Tatar shoiri Abdulla To‘qayning ma’rifiy she’rlari o‘zbek jadid shoirlariga ilhom berdi. Turk adabiyotidagi Namiq Kamolning milliy uyg‘onish g‘oyalari Turkiston ziyolilarini ruhlantirdi. Behbudiy o‘z maqolalarida Namiq Kamolning “Vatan yoxud Silistra” asariga ishora qilib, “milliy adabiyot xalqni uyg‘otadi” deb yozgan [Sadoyi Turkiston, 1915]. Rus adabiyotidagi ma’rifatparvarlik oqimlari, xususan, Lev Tolstoyning ta’lim haqidagi qarashlari jadidlarning “usuli jadid” maktablariga ta’sir qildi. O‘zbek tadqiqotchisi Dilorom Alimova ta’kidlaydi: “Jadidlar rus adabiyotidagi realizmni o‘zbek adabiyotiga moslashtirib, ijtimoiy masalalarni adabiyotda muhokama qildilar” [Alimova, 2000: 50]. Shu bilan birga, jadidlar Alisher Navoiy kabi mumtoz adabiyot vakillariga tayanib, mahalliy an’analarni global g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirdi.

Transmilliy adabiy tarmoqlar o‘zbek adabiyotini modernizatsiya qilishda quyidagi yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatdi:

Jadid adabiyotidagi maqola, esse, didaktik she’riyat va publisistika tatar va turk adabiyotidagi shunga o‘xshash shakllardan ilhomlan-

di. Masalan, "Sadoyi Turkiston" gazetasidagi maqolalar Qozonning "Vaqt" gazetasidagi publitsistik uslubga yaqin edi. Abdulla Avloniy o'z maqolalarida shunday yozadi: "Gazeta xalqning ovozi bo'lib, uni dunyoga yetkazadi. Jadid davri publisistikasi yangi adabiy shakllarni o'zbek adabiyotiga kirib kelishiga asosiy sabablardan biri bo'lgan.

Qolaversa, bunday adabiy aloqa orqali she'riyatda ham yangilanishlar yuz berdi. Bu yangilanishlar an'anaviy aruzdan tashqari barmoqda ijod qilishning urfga aylanishi, erkin she'r shakllarida yozilgan asarlarning ko'payishida o'z aksini topdi. Ilgari she'riyat asosan aruz vaznida yozilar edi – bu fors-tojik adabiyoti ta'siridagi shakl bo'lib, murakkab va saralangan so'zlardan iborat edi. Jadidlar esa soddaroq, xalq tushunadigan til va vaznni afzal ko'ra boshladilar. Cho'lpon, Elbek, Zavqiy, Hamza kabi shoirlar aruzni yangilab, xalqona mazmun bilan to'ldirishga harakat qildilar.

Yevropa adabiyotidan ilhomlanib, erkin she'r (ya'ni qat'iy vazngа bog'liq bo'lmagan) shakllar paydo bo'ldi. Bu holat fikr erkinligini ifodalashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Cho'lponning "Uyg'onish" (1922) to'plamidagi she'rlar bunga yorqin misol bo'la oladi.

Millatlararo adabiy aloqalar tufayli publisistikada ham bir qator o'zgarishlar bo'ldi. Bular quyidagilar:

Ilgari matbuotda ko'proq e'lonlar yoki rasmiy xabarlar bo'lgan bo'lsa, jadidlar publitsistik maqolani ijtimoiy ongni uyg'otuvchi qurolga aylantirdilar. Bu maqolalar ko'pincha xalqni o'qishga, uyg'onishga, milliy g'ururni tiklashga chaqirardi.

Manifestlar – adabiy va siyosiy bayonotlar matbuotda e'lon qilinadigan bo'ldi. Jadidlar ayrim hollarda ochiqcha "manifest" (ya'ni da'vatnoma, murojaat) tarzida yozilgan materiallar bilan chiqish qilar edi. Bu uslub inqilobiy, ma'rifiy da'vatlarni kuchli hissiylik bilan ifodalash imkonini berdi.

Millatlararo bu adabiy aloqalar o'zbek adabiyotiga mutlaqo yangi tur – dramaturgiyaning kirib kelishiga ham sababchi bo'lgan, deyish o'rinli bo'ladi. O'zbek adabiyotida ilgari deyarli mavjud bo'lmagan sahna asarlari (drama) endi jadidlar tomonidan yozila boshlandi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat kabi ijodkorlarning bu yo'nalishdagi asarlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ushbu ijodkorlar dramalarida aso-

siy mavzular – savodsizlik, erk, zamon bilan kelishmovchilik kabilardir. Bundan tashqari, dramalarda esa o'qimagan xalq orqada qoladi, xalqni uyg'otmaslik – millat halokatiga olib keladi, degan g'oyalar ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyotida yuz bergan bu o'zgarishlar nafaqat shaklan, balki mazmunan chuqur yangilanish, xalq bilan bevosita aloqa o'rnatishga bo'lgan harakat edi. She'riyat – xalq ruhini uyg'otdi. Publitsistika – ongni o'zgartirdi. Drama – sahnada yangi milliy tafakkurni ko'rsatdi.

Jadid adabiyotidagi transmilliy adabiy tarmoqlar Turkistonni Qozon, Istanbul, Orenburg va Yevropa madaniy markazlari bilan bog'lab, milliy uyg'onish va modernizatsiya jarayonlarini tezlashtirdi. Matbuot, ta'lim va adabiy almashinuv orqali jadidlar o'zbek adabiyotini zamonaviy g'oyalar bilan boyitdi, shu bilan birga, milliy o'zlikni mustahkamladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy kabi jadidlarning so'zlari bu tarmoqlarning g'oyaviy va amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. O'zbek tadqiqotchilari Begali Qosimov, Dilorom Alimovalarning asarlari millatlararo aloqalarning o'zbek adabiyotidagi ta'sirini tahlil qilishda muhim manba bo'ldi. Ushbu tarmoqlarning zamonaviy o'zbek adabiyoti shakllanishidagi ahamiyati muhimligicha qolmoqda. Kelajakda tadqiqotlari va qiyosiy adabiyotshunoslik orqali transmilliy tarmoqlarning yanada chuqur o'rganilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khalid, Adeeb. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia.* Berkeley: University of California Press, 1998.

2. Qosimov, Begali. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.* – Toshkent: Fan, 2004.

3. Qosimov, Begali. *Maslakdoshlar.* – Toshkent: Sharq, 2000.

4. Alimova, Dilorom. *Markaziy Osiyoda Jadidchilik.* – Toshkent: Fan, 2000.

5. Allworth, Edward. *Central Asia: A Century of Russian Rule.* New York: Columbia University Press, 1967.

TURK MATBUOTINING TURKISTON MADANIY HAYOTIGA TA'SIRI

Sarvarbek TULIBOYEV,
Termiz davlat universiteti
O'zbek adabiyotshunosligi
kafedrasi o'qituvchisi
(O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turk matbuotining Turkiston madaniy hayotiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Turk matbuotida bosilgan maqolalar, adabiy asarlar va ma'rifiy chiqishlar orqali Turkiston ziyolilarining madaniy ongini shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, matbuot orqali tarqalgan taraqqiyparvar g'oyalar, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy o'zgarishlarga undovchi omillar yoritiladi. Tadqiqot natijalari Turk va Turkiston o'rtasidagi adabiy-madaniy aloqalarning mustahkamlanishini ham ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Turk matbuoti, Turkiston madaniy hayoti, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, madaniy aloqalar, milliy uyg'onish.*

Annotation: This article analyzes the influence of the Turkish press on the cultural life of Turkestan in the early 20th century. It explores the role of articles, literary works, and educational publications in shaping the cultural consciousness of Turkestan intellectuals. The study highlights how progressive ideas disseminated through the press promoted national identity awareness and encouraged social change. The findings also demonstrate the strengthening of literary and cultural ties between Turkey and Turkestan.

Keywords: *Turkish press, cultural life of Turkestan, Jadidism, enlightenment movement, cultural relations, national awakening.*

Dunyo turklari orasida matbuotning paydo bo'lishi ilk marta Usmonlilar imperiyasi davrida ko'zga tashlanadi. Qator jabhalarda ilg'or sanalgan Usmonli imperiyasi bu borada G'arbdan anchagina ortda qolgan edi. G'arbda ilk matbaaga 1436-yilda nemis olimi Iogann Gutenberg tomonidan asos solingach, salkam 300 yilga yaqin kechikish bilan birinchi turk bosmaxonasi 1727-yilda tashkil etilgan.

Ayrim manbalarda Usmonlilar imperiyasida matbaachilikning kech rivojlanishiga davr din ulamolarining qarshiliklari sabab qilib ko'rsatilgan. Ba'zi tadqiqotchilar ushbu taxminlar asossiz deb bilishadi. Jumladan, professor Nurettin Guz "Bosmaxonaning mamlakatga kech kirib borishi va uning rivojlanmaganiga din va ulamoning hech qanday aloqasi yo'q. Ular bosmaxonaga qarshi bo'lmagan, aksincha, uning tashkil etilishi ulamolar tomonidan qo'llab-quvvatlangan", degan fikrlarni bildirib o'tadi [Nurettin, 1989:166].

Texnik taraqqiyotning yetarli emasligi bosmaxona rivojlanmaganligining asosiy ikkinchi sababi sifatida ko'rsatiladi. Shuning natijasida 1742-yilda qog'oz taqchilligi boshlanib, qog'oz ishlab chiqarish sexini tashkil etish uchun mamlakatga Polshadan ikki usta olib kelinishi manbalarda qayd etiladi [Nurettin, 1989].

Uchinchi sabab sifatida texnik kadrlar yetishmasligini ko'rsatish to'g'riroq bo'ladi. Bulardan tashqari, boshqa sohalardagi rivojlanishning sustligi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Turk adabiyoti tarixida "Lola davri" deb atalgan XVIII asrning birinchi yarmida davrning muhim voqealaridan biri Istanbulda bosmaxonaning ochilishi bo'ldi. Parijga elchi sifatida jo'natilgan Mehmed Said Afandi, asli Vengriyada tug'ilgan, keyinchalik islom dinini qabul qilgan Ibrohim Mutafarrika (1674–1745) bilan hamkorlikda 1724-yili Istanbulda birinchi turk nashriyotini ochadilar [Алимбеков, 2005:107-108]. Bir qancha qarshiliklardan so'ng 1729-yili ishga tushgan nashriyotda keyingi o'n yil ichida tarix, geografiya, grammatika, lug'at, sayohatnomalar kabi 17 nomdagi kitoblar bosiladi. Bu Usmonli davlati madaniy hayotida katta voqea edi.

Birinchi Usmonli rasmiy bosmaxonasi tashkil etilganidan taxminan bir asr o'tib, 1828-yili Misr gubernatori Mehmet Ali Posho tomonidan Qohirada turk va arab tillarida rasmiy viloyat gazetasi "Vaqoyi Misriya" (Misr voqealari) nashr etiladi. Ushbu gazeta Usmonlilar hukmronligi ostida nashr etilgan birinchi turk gazetasi sifatida tarixga kiradi. Gazetadagi yangiliklarning yarmidan ko'pi turkcha, qolgani qismi esa arab tilida bo'lib, har hafta nashr etiladi.

Bugungi Turkiya hududida chop etilgan birinchi gazeta Sulton Mahmudxon II davrida 1831-yil 11-noyabrda Istanbulda nashr etilgan "Taqvimi vaqoye" (Voqealar taqvimi) nomli rasmiy gazetadir.

Bu Usmonlilar imperiyasi chegaralarida nashr etila boshlangan birinchi Usmonli turk gazetasi edi. Gazeta Usmonli turk tilidan tashqari arab, arman, fors, fransuz va yunon tillarida nashr qilinadigan haftalik gazeta bo'lib, rasmiy va norasmiy e'lonlar bilan bir qatorda, imperiya ichidagi hamda xorijdagi muhim voqealarga oid yangiliklar ham chop etiladi. "Taqvimi vaqoye" rasmiy gazeta bo'lgani uchun maqolalarda asosan mahalliy hukumat qarashlari ko'proq aks etgan. 1860-yildan boshlab faqat rasmiy e'lonlar va imperiyada qabul qilingan qonun matnlari ko'proq nashr etila boshlandi. Shuningdek, gazeta Usmonli imperiyasi siyosatini boshqa davlatlarga yetkazishda, xalqaro munosabatlarda ham o'ziga xos vosita vazifasini bajargan deyish mumkin.

"Taqvimi vaqoye"dan to'qqiz yil o'tib "Jaridayi havodis" gazetasi o'z faoliyatini boshlaydi [Topuz Hıfzı, 2014:.44]. Gazeta xorijdagi vaziyatni turk kitobxonlariga yetkazishi, dunyodagi yangi ixtirolar, topilmalar haqida imperiya aholisiga ma'lumotlar berib borishi aholi orasida gazetaga bo'lgan qiziqishni oshirgan. Tanzimot adabiyotining timsoli va boshlanishi bo'lgan "Tarjimoni ahvol" 1860–1866-yillar oralig'ida Istanbulda nashr etilgan birinchi xususiy gazetadir. Bu gazetada Ahmad Vofiq Posho, Ziyo Posho va Rafiq Beylarning maqolalari tez-tez bosilib turardi. Bu maqolalarda Usmonli jamiyatining qoloqligi sabablari va o'lkada sodir bo'layotgan voqealar muhokama qilinib, ba'zi jihatlar tanqid ostiga olinardi.

Bundan tashqari, adabiy asarlar chop etilgan gazetada G'arb adabiyoti andozasidagi ilk turkiy pyesa bo'lgan Shinosiyning "Shoir Evleri" (1860) ham gazetaning bir nechta sonida nashr etilgan.

Usmonlilar tarixida ikkinchi konstitutsiyaviy monarxiya (1908–1918) deb atalgan davrda matbuot haqiqiy ma'noda rivojlanib, Turkiyaning bugungi jurnalistika an'analariga asos solindi. Ayni shu davrda matbuotga qo'yilgan senzura bekor qilindi. Usmonli imperiyasida yashagan turli til va dinlarga mansub har bir xalq o'z fikrlarini bildirgan gazeta va jurnallar nashr etila boshlandi. Ikkinchi Konstitutsiyaviy monarxiyaning dastlabki uch yilida 607 ta davriy nashr nashr etilgan. Shuningdek, keyingi yillarda, jumladan, 1908–1918-yillar oralig'ida 918 ta davriy nashrlar omma e'tiboriga havola qilingan [Oral Fuat, 1970:215].

Turli mafkura va da'volar bilan paydo bo'lgan matbuot nashrlari

orasida islomiy va turkiy (yoki turonchi) jurnal va gazetalar alohida o'rin tutadi. Bu davrda deyarli har bir nashrda Usmonlilar davlati va uning tashqarisidagi turk hamda islom dunyosida sodir bo'layotgan voqealarga alohida o'rin ajratiladi. Mintaqaga oid xabarlar bilan bir qatorda, turkiy-turonchi va yangilikchi-islomchi yozuvchilar hamda ziyolilarning maqolalari tez-tez ko'rina boshladi [Özkaya, 2016:152]. Ayni paytda Turkistonda juda faol davr boshlangani, ya'ni jadidlarning maydonga kela boshlashi, Rossiyaning o'zgarib borayotgan boshqaruvi va tobora og'irlashib borayotgan "ruslashtirish" siyosati ham turk matbuotida kundalik dolzarb masalaga aylanib bordi.

O'sha davrning eng muhim islomiy nashri, shubhasiz, birinchi soni 1908-yil 24-avgustda nashr etilgan "Siroti Mustaqim" jurnali edi. Majalla Rossiya hukmronligi ostida yashagan musulmon turklarning diniy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy faoliyati bilan yaqindan qiziqdi. Shunga ko'ra, jurnalning turli sonlarida chor Rossiyasi rejimi va ma'murlarining musulmon turklarga nisbatan o'zlashtirish va bosim siyosatlari maqola va xabar sifatida keng muhokama qilindi. Jurnalda Rossiya turklari, jumladan, turkistonlik ziyolilarning maqola va maktublari ham o'rin olgan bo'lib, bular orqali o'quvchilar musulmon turk dunyosidan xabardor bo'lishlari mumkin edi.

Umuman olganda, "Siroti Mustaqim" jurnali islomiylik (panislomizm) harakatining nashr organi hisoblanadi[Komatsu,1993:8].

"Siroti Mustaqim" dunyo musulmonlarining "ovozi" bo'lgani bilan ham diqqatga sazovor edi [Özbek Nadir, 1995:18]. Yana bir muhim jihati shuki, jurnal sahifalarida rus turklariga oid yangiliklarning kengroq yoritilgani bo'ldi. Majallada, ayniqsa, Buxoro haqidagi maqolalarni tez-tez uchratish mumkin. Hatto Buxoroda sodir bo'lgan tarixiy voqealar, masalan, 1910-yil fevralida sunniy va shia o'rtasidagi to'qnashuv "Buxorodan Muxobiru Maxsus" sarlavhasi bilan batafsil bayon etilgan. Professor Z.Abdirashidov o'z tadqiqotlaridan birida Buxoro haqidagi ilk xabar "Siroti Mustaqim" jurnalining 1909-yil 21-oktabrdagi 57-sonida e'lon qilindi, deb ma'lumot berib o'tadi [Abdirashidov, 2022. №-3:79].

Buxoro jadidlari uchun shunday jurnallarni o'qish xavfli bo'lsada, lekin ziyolilarning erk va ozodlikka bo'lgan intilishlari har qanday to'siqlardan oshib o'taverdi. Gazetxonlik deb atalgan gazeta o'qish

kechalari o‘tkazilib, unda asosan xorijdan kelgan gazetalar, masalan, Turkiyada nashr etilgan “Siroti Mustaqim”, Hindistonda nashr etilgan “Hablul matin” va Afg‘onistonda paydo bo‘lgan “Siroju-l-Axbor” kabi gazeta-jurnallar o‘qilib, muhokama qilinar edi.

Turk matbuotining Turkiston madaniy hayotiga ta’siri shu qadar bo‘ldiki, birgina Istanbulda nashr etilgan gazeta va jurnallarning sayohatchilar, ziyoratchilar va savdogarlar orqali Turkistonga kirib borishi pirovardida jadidlar nafaqat islom olamidagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatdan xabardor bo‘lishdi, qolaversa, ular (jadidlar) ko‘pgina jihatlarni o‘z faoliyatlari davomida qo‘llay boshladilar. Bu haqida Sadriddin Ayniyning xotiralarida bir qancha ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin [Айний, 1963:184].

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Turkistonga kirib kelgan taraqqiyparvar gazetalar M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, Hamza, Fitrat, Cho‘lpon singari yoshlarni dunyoning boshqa mamlakatlarida yashovchi xalqlar hayoti bilan, yangi asrning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan tanishtira boshladi. Xuddi shu yillarda Rossiya, Eron va Turkiyada sodir bo‘lgan inqilobiy voqealar haqidagi xabarlar ham aynan shu nashrlar orqali Turkistonga yetib keldi.

Turkistonda “Siroti Mustaqim”dan keyin e’tiborni tortgan yana bir nashr “Taarufi Muslimin” jurnali. Rossiya musulmonlari tomonidan nashr etiladigan jurnal 1910-yil 16-aprelda o‘z faoliyatini boshlaydi.[13]

“Bu gazetaning maqsadi Islom olamini bir-biridan xabardor qilish, eng muhimi, barcha musulmon davlatlar o‘rtasida birodarlik va birlikni rivojlantirish edi. Gazeta asosan e’tiborini Rossiya musulmonlarining ozodlik kurashiga qaratgan. Shu bois, u davrning boshqa nashrlariga nisbatan kamroq mashhur bo‘ldi.

Gazetadagi Turkistonga bag‘ishlangan maqolalarda o‘lka ruslar qo‘lida qolib, qiynoqqa solingani katta tashvish bilan ifodalangan. Ba’zilar Buxoro amiri va boshqa amaldorlarni befarqlikda ayblar ekan, hukmdorlarning o‘ylamasdan qilayotgan ishlari haqida gapiradilar. Turkiston masalalarini tez-tez kun tartibiga olib boradigan nashr, albatta, mintaqada katta qiziqish uyg‘otadi. Chunki Buxoro jadidlari yetakchilaridan biri Abdurauf Fitratning Buxoro vaziri Nas-

[13] http://katalog.idp.org.tr/dergiler/60/tearuf-i-muslimin

rulloh Parvonachiga ochiq maktubi ushbu gazetada e'lon qilingani bejiz emas. Nasrulloh bekning bosh vazir etib tayinlanishi munosabati bilan fors tilida yozilgan maktub turkiyga tarjima qilinmasdan asl holida hijriy 1328, milodiy 1910-yil, 25-adad, 2-jild; 8 dekabr, payshanba sonida e'lon qilingan. Asarni dastlab fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 1996-yil 9-may sonida e'lon qilgan professor H. Boltaboyev o'zbek fitratshunosligiga shu kungacha noma'lum bo'lgan bu maktubni taqdim etgan Tokio universiteti professori, doktor Xisao Komatsuga minnatdorchilik bildirib o'tadi ["Ўзбекистон адабиёти ва санъати"/ 1996. 19:3].

"Ey Vazoratpanoh, biz tartiboti jadidaga muhtojmiz" deb boshlanuvchi maktubda Fitrat millatning juda og'ir ahvolda ekanligi, yo'qsullik botqog'idan faqatgina "adolatparvar podshoh" va "ezilgan Buxoro millatining besabot tarafdori" bo'lgan vazir (Nasrulloh parvonachi) yorug'lik sari olib chiqishini ta'kidlaydi. Uning ezilgan xalq boshiga rahbar bo'lib kelishi shunchaki ish emas, aksincha, "avvalo hazrati Xoliqning karami", so'ng "adolatparvar podshoh"ning lutfi sabab "umri parishon va istibdodpesha bo'rilarga o'lja bo'lib, qo'ruvchisiz qolg'an qo'ylarg'a mehribon cho'ponlikka emas, balki ularning ishlarini tanzim qilish, tartibga solish uchun yuborg'an"ligini uqtiradi.

Fitrat maktubini shu gazetada chop etishga qaror qilar ekan, Buxoro hukumati, vazirning ushbu gazetani o'qib chiqishiga ishongan, shuning uchun ham xalq dardi ifodalangan gaplarini shu gazetada chop etgan bo'lishi mumkin. Fitrat Buxoroga qaytgan paytida ko'pchilikka tanish bo'lib ulgurgan, qator yoshlar unga ergashgan shaxs edi. Albatta, Fitratning ziyoli sifatida tanilishi va tan olinishiga Istanbulda yozgan asarlari va "Taarufi Muslimin" kabi gazetalarda chop etgan maqolalari katta yordam berdi, deyish mumkin.

Turkistonda yangi g'oyalarning tarqalishiga hissa qo'shgan yana bir Usmonli nashri Ahmad Hilmiy tomonidan Istanbulda nashr etilgan "Hikmat" gazetasidir. So'nggi davr Usmonli ziyolilaridan biri bo'lgan Ahmad Hilmiy tomonidan nashr etilgan mazkur gazeta G'arbga ko'r-ko'rona ergashib, ularning puch g'oyalariga ishongan ziyolilarni ko'proq tanqid ostiga oladi. "Hikmat"ning birinchi soni 1910-yil

21-aprelda chiqqan. Shu kundan boshlab 1911-yil 21-sentyabrgacha u o‘zining nashr faoliyatini haftalik asosda davom ettiradi. Gazeta 1911-yil 21-sentabrda, 74-sonida “Ochiq istak” nomli sultonga yo‘llangan maktub tufayli yopiladi. Ahmad Hilmiy dastlab Kastamonuga, keyin Bursaga surgun qilingan. Keyinchalik afv etilgan, Istanbulga qaytib, 1912-yil 22-sentyabrda yana “Hikmat” gazetasini chiqarishni boshlagan bo‘lsa-da, uzoq davom etmadi va bu gazeta ham tez orada yopiladi [Hilmi, 2005:63]. “Hikmat”da adabiyotdan tarixgacha, falsafadan siyosatgacha ko‘plab mavzular muhokama qilinadi. Bundan tashqari, islom olami va Markaziy Osiyodagi voqealar, Afrika, Bolqon va boshqa musulmon mintaqalarida istiqomat qilayotgan musulmonlar haqida ma’lumot beriladi [Olimov, 2020:7].

“Hikmat”ni nashr etishdan maqsad butun islom olami, ayniqsa, Usmonli davlati birligini ta’minlashning to‘g‘ri yo‘lini ko‘rsatish bo‘lgan. Bu yo‘lda o‘z vatanini, millatini sevgan, o‘z diniga sodiq bo‘lgan har bir kishi “Hikmat” homiysi sifatida ko‘rsatiladi. Ahmad Hilmiy bu maqsadiga erishish uchun “Hikmat”ni ma’lum bo‘limlarga bo‘lib, mamlakat va xorijdagi voqealar haqida ma’lumot beradi. Shunday qilib, u ma’lumot berish orqali mamlakat taraqqiyoti va islom olami birligini ta’minlash maqsadida sodir bo‘layotgan voqealarning asosiy sabablarini o‘quvchiga yetkazishga harakat qiladi.

Ahmad Hilmiy ushbu gazetasida Turkiston masalalariga ham e’tibor qaratgan. Abdurauf Fitratning maqolalari esa gazetaning O‘rta Osiyodagi o‘quvchilari sonining oshishiga xizmat qilgan. Fitrat bu gazetada maqolalarini, asosan, fors tilida nashr ettiradi. Gazetada bir yilga yaqin faoliyat ko‘rsatgan Fitratning jami yettita maqolasi chop etiladi. Bundan tashqari, Fitrat 1910-yil davomida o‘zining mashhur “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari ustida ishlagan. 1911-yili Fitrat, qiyin moddiy ahvoliga qaramasdan, turli joylarda ishlab topgan pulidan jamg‘argan mablag‘iga Ahmad Hilmiyning “Hikmat” nashriyotida o‘zining yuqorida nomi zikr etilgan ikki badiiy asari va “Sayha” she’riy to‘plamini chop qiladi.[Абдирашидов, 2022:12]

Turkiston bilan qiziqqan va bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida tez-tez “gapiradigan” matbuotdan yana biri “Turk Yurdu” jurnalidir. Mashhur turkiyshunos olim Ahmet Zaki Validiy Tog‘on o‘zining “Xotiralar”ida Turkistondagi safari davomida ko‘rgan-ke-

chirganlarini xotirlar ekan, "... 1914 yilning martiga qadar davom etgan bu sayohat vaqtida men Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida qo'lyozma asarlar, kishilar qo'llarida bo'lgan manbalarni izladim. Mamlakat xo'jaligi, tarixi, geografiyasiga oid bir talay muhim vaqf qog'ozlarini ham, boshqa ba'zi bir diniy idoralarning kirimlari yozilgan hujjatlarni ham yig'dim. Farg'onada ko'chmanchi o'zbeklar to'g'risida etnografik ma'lumotlar to'pladim. Bu sayohatim to'g'risida "Bir turk olimiga nisbatan ko'rsatilgan hurmat belgisi" degan sarlavha ostida Turkiya matbuotida ("Turk yurti") hikoyam bosildi" ["Шарқ юлдузи", 1993/ 5-6:132], deb ta'kidlaydi. Shuningdek, "Turk yurti" jurnalining Turkiston ziyolilari diqqat markazida bo'lganini tasdiqlovchi ba'zi ma'lumotlar ham olimning "Xotiralar"idan o'rin olgan: "Turkistonda tanishgan shaxslar orasida Nazir To'raqul bilan Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon) menga alohida yaqin do'stlar bo'ldilar. Nazir o'sha vaqtda vatanparvar turkchi edi. Istanbulda chiqadigan "Turk yurti"ni o'qirdi" ["Шарқ юлдузи", 1993/ 5-6:132], deydi olim.

Shuningdek, Zaki Validiy Cho'lponning ham Turkiyada chop etilayotgan davriy nashrlarni kuzatib borishi haqida "1913 yilda, ya'ni Cho'lpon hali 19 yoshlik vaqtlarida uning uyiga mehmon bo'lib borganimizda, u turk tarixiga doir asarlarni o'qir edi, keyin "Turk yurti" kabi turkcha nashrlarni kuzatdi. 1917–1918-yillarda siyosiy ishlarga aralashib, Orenburgda Boshqirdiston hukumati raisining kotibligi vazifasida turdi... So'ngra adabiyot bilan shug'ullanib, birdan porladi. ...Cho'lpon o'zbek she'rlaridagi aruz vazni o'rniga turkcha vaznini qo'llab, adabiy tilni go'zallashtirdi", [Валидий, 1981] – deb, uning ijodiga yuksak baho beradi.

Yuqorida tilga olingan gazeta va jurnallarning barchasi minglab ziyoratchilar, talabalar, savdogarlar tomonidan mintaqaga yuborilgan. Ayniqsa, Buxoro amirligida bu ish tizimliroq olib borilganini kuzatishimiz mumkin. Jadidlar shahar markazida kutubxonalar, kitob do'konlari ochib, mazkur nashrlarni kitobxonlarga taqdim etishga harakat qilganlar. "Tarbiyayi atfol" jamiyati tomonidan Istanbul va chet eldagi boshqa shaharlarga ta'lim uchun yuborilgan talabalarning vazifalaridan biri jadid maktablari va kutubxonalari uchun kitoblar, turli matbuot nashrlaridan yuborib turishi kerak edi. Bu boradagi

ma'lumotlarni Sadriddin Ayniy xotiralarida kuzatishimiz mumkin [Айний, 1963:246].

Shahar markazida kitob do'koni va kutubxona bo'lib, u yerda amirlikka va uning siyosatiga qarshi bo'lgan kitoblar yashirincha sotilgan yoki kutubxonada yashirincha o'qishga berilgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy "Yigitlar tovushi" degan maqolasida shu masalaga qaytib, bunday yozadi: "Ko'p uzoq emas, 1908-yillarda ham madrasada o'qub yurgan vaqtimizda gazet-jurnallarni birovlar nomiga yozdurub olub, qo'ltig'imizga yoshurub, shul madrasaning qozon qo'yadigan qorong'u hujralarinda eshikni ichidan beklab, o'shanda ham qo'rqub-qo'rqub o'qur edik" [Ҳамза, 1989. –Б.278]. Shahar markazida mazkur kutubxonalarda Turkiya va Rossiyada nashr etilgan gazeta va jurnallardan tashqari Istanbul, Boku va Rossiyada nashr etilgan va chop etilayotgan asarlar ham mavjud bo'lgan [Devlet Nadir, 1999:1]. Istanbulda tahsil olayotgan buxorolik talabalar asarlarni tanlab, har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, kechiktirmasdan Buxoroga yuborib turganlar.

Abdurauf Fitrat o'z maqolalaridan birida so'z yuritilayotgan kutubxonalar va jamiyatdagi qoloqliklarning asl sabablari haqida kuyinib fikr bildirib o'tadi [Фитрат, 2003:210-213].

Sadriddin Ayniy esa "Qisqacha tarjimai holim" asarida ushbu gazeta va jurnallarni Buxoroda kam kelsa ham, ular amirning o'rta asrlarcha og'ir idora usuli va mutaassib mullalar ta'siri ostida qoloqlikda qolgan Buxoro ommasining fikriga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaganini ta'kidlaydi [Айний,1960:72-73].

Xulosa qilib aytganda, turk matbuoti Turkistonning nafaqat madaniy, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Natijada, ziyolilar va yoshlar o'rtasidagi o'zgarish jamiyatda o'zini namoyon qila boshlaydi. Yangicha dunyoqarash va zamonaviy fikrlovchi kishilarning ko'payishi, ozodlik va islohotga intiluvchi guruhlarning harakatlari yoki boshqaruv tizimi tez-tez tanqid qilinadigan matbuotning kuchayishi Turkistondagi amir ma'muriyatini ham, rus ma'muriyatini ham bezovta qila boshlaydi. Ular bu vaziyatga jiddiy qarab, Turkiyadan kelayotgan har bir kitob, hujjat va davriy nashrlarni to'xtatib, ularning mintaqada tarqalishining oldini olishga harakat qila boshlaydilar.

Shunday bosim ostida ham Turkiston jadidchilari turk matbuotini o‘qishga harakat qildilar. Davriy nashriyot jamiyatda turkiylar birligi yo‘lidagi istaklarni mustahkamlashga xizmat qildi, deyish mumkin.

Turkistonda milliy matbuotning paydo bo‘lishiga Usmonli matbuoti bevosita ta’sir ko‘rsatish pirovardida, davriy nashrlar Turkistonda yangi g‘oyalarning tarqalishiga hissa qo‘shish bilan cheklanib qolmadi. Biz yuqorida ma’lumot berishga harakat qilgan nashrlar turkistonlik jadidchilarga tafakkur orqali, zamonaviy fikrlash orqali hurriyatga erishish yo‘lini ko‘rsatdi.

Adabiyotlar:

1. Алимбеков А. Турк адабиёти тарихи (XIII-XVIII асрлар). Ўқув қўлланма. Тошкент – 2005. –Б.107-108.

2. Айний. Асарлар. 8 жилдлик, 1-жилд, "Бадиий адабиёт", Тошкент. –1963, –Б.184.

3. Айний. "Қисқача таржимаи ҳолим", Танланган асарлар. 8 жилдлик, 1-жилд, "Бадиий адабиёт", Тошкент. –1960, –Б.72-73.

4. Abdirashidov Z. "Shimol shamoli" yoki Buxoroning uyg‘onishi: Istanbuldan bir nazar.// "O‘zbekiston: til va madaniyat"// 2022-y. №-3.–B. 79.

5. Аҳмад Заки Валидий. "Хотиралар". Таржимон: Ш.Турдиев. "Шарқ юлдузи" 1993-й. 5-6-сонлар. –Б.132.

6. Аҳмад Заки Валидий. "Бугунги турк эли ва яқин тарихи". Истанбул, II жилд. 1981 й.

7. Devlet Nadir, Rusya Türklerinin Milli Mücadele Tarihi (1905-1917), Türk Tarih Kurumu Basımevi – Ankara 1999 (2.baskı),–S.1

8. 4. Фитрат. Танланган асарлар. 3 жилд. – Тошкент, "Маънавият", 2003. –Б. 210-213.

9. Güz Nurettin, "Türkiye'de Matbaanın Kurulması", Gazi Üniversitesi Basın-Yayın Yüksekokulu Dergisi, 1986-1987/8-9, Ankara, 1989, –S.166.

10. Topuz Hıfzı, 2. Mahmut'tan Holdinglere Türk Basın Tarihi, Remzi Kitabevi, İstanbul, 2014, –S..44.

11. Oral Fuat Süreyya, Türk Basın Tarihi 1728-1922 1831-1922: Osmanlı İmparatorluğu Dönemi, Oral Yayınları, Ankara, 1970, –S.215.

12. Olimov SH. "Türkistan mücadele hareketlerinde Osmanli basininin etkisi" Merkezi Asya Araştırmaları Merkezi (mamer.biz), 2020. 11-may, –S.7.

13. Özkaya Sevda, Meşrutiyet Dönemi Basınından Örneklerle Türkistan, Kesit Yayınları, İstanbul, 2016, –S.152.

14. Komatsu Hisao, 20.Yüzyıl Başlarında Orta Asya'da Türkçülük ve Devrim Hareketleri, Turhan Kitabevi Yayınları, Ankara, 1993, –S.8.

15. Özbek Nadir, Abdürreşid İbrahim'in İkinci Meşrutiyet Yılları: Tearüf-i Müslimin ve İslam Dünyası Dergileri, Toplumsal Tarih, v.4, n.20, August 1995, pp.18-23, –S.18.

16. Hilmi Ahmet Filibeli, Hikmet Yazıları, Hazırlayan: Ahmet Koçak, İnsan Yayınları, İstanbul, 2005,–S.63.

17. Ҳамза. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. 4-том. – Тошкент, 1989. – Б.278.

18. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати"/ 1996 йил 9-май, № 19.–Б. 3.

19. http://katalog.idp.org.tr/dergiler/60/tearuf-i-muslimin

JADID ADABIYOTI VA G'ARB MA'RIFATCHILIGI

Xuriyat XUDOYMURODOVA
Termiz davlat universiteti,
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti,

Mahfuza MUXTOROVA
Termiz davlat universiteti
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o'qituvchisi
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Istiqloldan so'ng xalqimizning milliy o'zligi va ma'naviy ildizlarining asosi bo'lgan jadid adabiyotimizni o'rganishga e'tibor har qachongidan ham kuchaydi. Chunki xalqimizning ko'p asrlar davomida qaror topgan umummilliy qadriyatlarini tiklashda og'zaki va yozma adabiyot eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Jadid adabiyoti mavzu va mazmun jihatidan tadrijiy o'sishga yo'l oldi. Ushbu maqolada G'arb ma'rifatpatchilik adabiyoti, manbalari, o'rganilishi hamda jadid nasrining o'ziga xos shakllanish va taraqqiyot xususiyatlariga egaligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, Qodiriy, jadid adabiyoti, Volter, "Orlean qizi", Daniel Defo, teatr, milliy matbuot, Sharq va G'arb, ma'rifatchilik.

Annotation. After independence, the emphasis on the study of our jadid literature, the basis of the national identity and spiritual roots of our people, increased more than ever. Because oral and written literature is one of the most fundamental tools in restoring the nationwide values of our people, which have been settled for many centuries. Jadid literature set out for an evolutionary growth in subject matter and content. While the writer put forward the issue of reform and radical changes in his prose, poets penciled the vices of VICE in society, the tragedies of lack of enlightenment, the Enlightenment being the torch for a enlightened life. This article discusses Western enlightenment literature, sources, study, and the inherent formative and developmental characteristics of the jadid prose.

Keywords: Chulpan, Kadiri, jadid literature, Voltaire, "Daughter

of Orléans", Daniel Defoe, theater, national press, East and West, enlightenment.

Ona yurtining mustabidlar zulmidan ozod bo'lishini, millati farzandlarini sharafga to'lganlar qatorida ko'rishni orzulagan xalqimizning qalbi uyg'oq farzandlari, shubhasiz, jadidlardir. Xalq ma'naviyatini boyitish yo'lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot, adabiyot va teatrning (xuddi ingliz adabiyotida Kristafor Marloning tragediyalaridek) odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida asarlarida kuyunib yozgan, bu borada fidoyilik ko'rsatgan, alaloqibat qatag'onga uchraganlar haqida so'z borarkan, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Usmon Nosir, Is'hoqxon Ibrat siymolari ko'z oldimizda gavdalanadi.

Turkistonda bu harakat 20-asrning 1-yarmida bo'y ko'rsatgan bo'lsa, Ovro'pada Sharqdan ancha oldin, 18-asrda boshlangandi. Bu – ma'rifatparvarlar edi. To'g'ri, Ovro'pa bu jarayonlarni 17-asrning og'ir inkvizatsiya qurbonlaridan so'ng boshlab yubordi. Sharq, xususan, Turkiston esa Russiya istibdodining og'ir ta'siri ostida zulm va jaholatga qarshi o'z kurashini boshladi. Toshkent bosqinidan so'ng general Chernyayev tomonidan tayyorlangan soxta xat hali-hanuz yodimizda. Xatda Toshkentning o'z ixtiyori bilan Rusiya tarkibiga o'tishga rozi ekani haqidagi xabarga qarshi Solih Oxun ismindagi oqsoqollardan biri isyonkorlik bildirgani va unga qo'shib 9 nafar ziyolining Sibir surguni haqida tarix hali ham uzoq yig'lab bizga kuylagani aslida jadidchilikning ilk qadamlari edi. "Tarixi jadidi Toshkent" [Qosimov, 2004]da bu haqiqatlarning bayoni qalbimizni titratadi. Aslida, ular o'z asarlarida ko'targan muammolar hamon bizning qarshimizda bo'y ko'rsatib turibdi. Biz hamon «millatni uyg'otish uyg'onganlarning vazifasi» degan chorlovga munosib javob qaytarolganimiz yo'q. G'arbda fransuz shoiri Klod De Ptining milliy ruhdagi she'rlari uchun qatl etilgani, Kampanellaning 33 yil qamoqdagi umri, faylasuf Vaninining osilishi bu aslida fojia edi. G'arbda 17-asr fojiasi 18-asr ma'rifatparvarlarini uyg'ota oldi. Angliyada Daniel Defo, J.Svift, Fransiyada Volter, Bomarshe, Germaniyada esa Gyote, Shillerlar yaratgan har bir asar ruhida jamiyatning bugungi

manzarasi ko‘zgudek namoyon bo‘ldi. Zero, ma’rifatchilik davri nasri, jadid adabiyoti namoyandalari asarlarini o‘qigan kitobxon o‘zini shu vatanning ongli fuqarosi, vatani va millati taqdiri uchun mas’ul inson sifatida namoyon qilishga o‘zida jur’at topadi.

Ma’lumki, o‘zbek jadid nasri o‘ziga xos shakllanish va taraqqiyot xususiyatlariga ega. Behbudiyning “Padarkush”i butun Turkiston uchun muallif aytganidek, “ibratxona” vazifasini o‘tagan bo‘lsa, g‘arbda Pyer Kornel, Rasin asarlaridagi tetapoya qilingan isyonkor qadamlar Volter dramalarida o‘z ifodasini topa oldi. “Orlean qizi” Janna D’Arkning istiqlol yo‘lidagi isyoni bevosita turkiylarning vahshiylarcha o‘ldirilgan Tursunoyning baxtsiz qismati-yu, Zebining “sokin” isyonlari birlashib, mag‘rib-u mashriq nasrining bugungi istiqlol yo‘lidagi upkari desak, mubolag‘a bo‘lmas. Qodiriy ma’rifiy hikoyasi – “Juvonboz”da jadid nasriga xos bayonchilik, nasihatgo‘ylik va nari borsa fojeaviylikka ko‘proq e’tibor bergan edi. Shunday bo‘lishi tabiiy. Chunki endi tamal toshi qo‘yilayotgan jadid nasri ana shunday xususiyatlarga ega edi. 18-asr nemis adabiyotining shakllanishida muhim ro‘l o‘ynagan “Bo‘ron va tazyiq [Hamdamov, 2017] to‘garagi vakillari asarlarida tasvir, obrazlilik va ifodalilik jihati bilan, umuman, jadid nasridagi voqea va obraz, xolis tasvir, obrazlarning o‘ziga-o‘zi hamda o‘zgalar xarakteristikasi bilan tavsiflanishi kabi voqelar o‘zaro hamohang ekani quvonarlidir.

Inchunin, o‘zbek nasrida Qodiriy jadid hikoyachiligida (“Uloqda” hikoyasi) xolis tasvir yo‘lidan borish, voqea va obrazlar harakatiga aralashmaslik, chetdan kuzatib, ifodalash usulini ustuvor qo‘llagan bo‘lsa, Cho‘lponning publitsistik asarlarida davrning chirsillab turgan muammolari, adabiyotning yangi estetik pafosi va xizmati haqida gap boradi. Ayniqsa, o‘zbek hikoyachiligi va qissachiligining ilk g‘ishtlarini qo‘yishga muvaffaq bo‘lgani e’tiroflidir. Adibning ilk hikoyalarida jadidchilikning ma’rifatparvarlik tamoyili ustuvordir. To‘g‘ri, hikoyalarida xolis turib tasvirlash yetakchilik qilmasa-da, ilm, odob-axloq targ‘iboti kuchli berilgan. Bu ilk jadid nasrining yetakchi xususiyatini tashkil qilar edi. “Qurboni jaholat” hikoyasida o‘qigan bilan o‘qimagan, to‘g‘rirog‘i, ma’rifat va jaholat qiyoslangan. Xuddi, Shillerning “Qaroqchilar”idek. Karl va Frans isyonidek. Jamiyatdagi turli qarashlar G‘arb ma’rifatparvarlarining qalamida davrning illat va jarohatlarini yozish va aytishni taqozo qilar edi.

Bilamizki, jadid nosirlarining orzusi jahon andozasidagi roman janrida qalam tebratish edi. Romanga oid tafakkurning shakllanishi jadid adabiyotida o‘ziga xos yo‘l bilan amalga oshgan. Eng avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, davr adabiyotida roman janrining tug‘ilishi aksar jadid adiblari orzu qilgan va bu kabi fikrlarini she’r, hikoya va qissalarda ifodalaganlar. Garchi, G‘arbda o‘rta asrlar davrida roman tillaridagi asarlar roman janri taraqqiyotini boshlab bergan bo‘lsa ham, ma’rifatchilik davri romanchiligi bu taraqqiyotning kelajagini yanada yoya olishdi. “Robinzon Kruzo”, “Gulliverning sayohatlari”, “Siviliyalik sartarosh”, “Figaroning uylanishi”, “Faust”, “Makr va muhabbat” [U.A.Hamdamov va b., 2024] asarlarining janr xususiyatlaridan qatiy nazar, shu davr ruhi, istiqlol, erkinlik, inson shaxsiyati, aql-idrok g‘oyalari tarannumi jamiyat, millat hayotida nish urib kelayotgan evrilishlarga keng yo‘l ochdi.

XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida esa Turkistonda ijtimoiy-ma’naviy uyg‘onish keng qamrov oldi.

Jamiyat hayotida katta o‘zgarishlar kechayotgan davrda Turkiston aholisi va uning hayotining “kechasi”ga oid ifodalar jadid nasrining ko‘zgusiga aylandi. Botqoqqa botgan tuzumni o‘zgartirish, mustaqillikni qo‘lga olish, imperiya sirtmog‘ini bo‘yindan olib tashlash tilaklari G‘arb ma’rifatparlari va o‘zbek jadid namoyondalari asarlarining g‘oyaviy-badiiy pafosini tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Qosimov va boshqalar. “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” (darslik). – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2004.
2. B.Qosimov “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” (monografiya). – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2002.
3. U.Hamdamov, A.Qosimov “Jahon adabiyoti”. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2017.
4. U.A.Hamdamov, X.Xudoymurodova, U. H.Hamdamov “Jahon adabiyoti”. O‘quv qo‘llanma. Termiz: Surxon ilm nashr, 2024 .
5. Qosimov A., Xo‘jayev S. Jahon adabiyoti: Antik davrdan XVII asrgacha. – Farg‘ona, 2016.

İSMAİL GASPIRALI'NIN VE AVRUPALI DÜŞÜNÜRLERİN EĞİTİM GÖRÜŞLERİNİN KARŞILAŞTIRILMASI

HASAN BEKİROĞLU
Termiz Devlet Üniversitesi, Edebiyat Fakültesi
Yüksek Lisans Öğrencisi
+90554 114 92 50
hasan.bekiroglu @hbv.edu.tr
(Turkiya)

Özet:

Eğitim üzerine milleti için yeni düşünceler ileri süren her filozofun düşüncesini besleyen bazı düşünürler ve düşünce akımları vardır. Avrupa'nın çağdaş eğitimi de rönesansla başlayan ve reform hareketleri ile devam eden başta Hümanizm akımı olmak üzere, çeşitli düşüncelerin etkisinde ilerlemiştir. Avrupa'nın çağdaş eğitim kuramının oluşması, pedagojik eğitimin uygulanması yüzyıllar almıştır. Türk dünyasında da Osmanlı İmparatorluğu ve Kazan aydınları özellikle Fransız devrimlerinden etkilenerek çeşitli yenilikler yapmaya çalışsalar da hiçbiri Gaspıralı kadar etkili olmamıştır ve bütün Türk dünyasında uygulanma imkanına kavuşamamıştır. Gaspıralı ise Fransa'da iki yıl kadar kalmış, Avrupa'da bulunmuş ve onların eğitimlerini incelemiştir. Bahçesaray'da öğretmenlik yaptığı sırada Türklerin eğitimlerinin geri kalmışlığını görmüş, hataları tespit ederek yapılması gerekenleri Avrupa örnekleri gibi tek tek düzeltme yoluna girmiştir. Biz de bu makalede Gaspıralı'nın eğitim üzerine makaleleri ve düşünceleri ile Avrupalı düşünürlerin eğitim görüşlerini karşılaştırmaya çalışacağız.

Kilit Sözler: *Eğitim Kuramı, İsmail Gaspıralı, Skolastik Eğitim, Rönesans, Reform Hümanizm*

Abstract. Every philosopher who puts forward new ideas about education for their nation is influenced by certain thinkers and intellectual movements. Modern European education has advanced under the influence of various ideologies, especially Humanism, which began with the Renaissance and continued through the Reformation

movements. The formation of contemporary European educational theory and the implementation of pedagogical training took centuries. In the Turkish world, although the intellectuals of the Ottoman Empire and Kazan attempted various reforms—particularly influenced by the French revolutions—none were as impactful as İsmail Gaspıralı, and their reforms could not be implemented throughout the entire Turkish world. Gaspıralı, on the other hand, stayed in France for about two years, spent time in Europe, and studied their educational systems. During his time as a teacher in Bakhchysarai, he witnessed the backwardness of Turkish education, identified its shortcomings, and sought to correct them one by one, following the European examples. In this article, we will attempt to compare Gaspıralı's articles and thoughts on education with the educational views of European thinkers.

Keywords:

Educational Theory, Ismail Gasprinsky, Scholastic Education, Renaissance, Reformation, Humanism

Giriş:

İsmail Bey Gaspıralı 1851 yılında Kırım'm Bahçesaray şehrine iki saatlik mesafedeki Avcıköy'de doğmuştur. Bahçesaray'da geçirdiği on yılda şehirdeki Zincirli Medresesinde hocası İsmail Efendi'den iki yıl ders almıştır (Kramer, 2004: 367). Daha sonra Akmescit'teki Rus okuluna gitmiş ve burada da iki yıl okuduktan sonra; önce Vorononej daha sonra 1865-1867 yılları arasında Moskova Askeri Okuluna kaydolmuş, burada Slavcı hareketler sayesinde milliyetçi düşüncelerle tanışmıştır. Bu sırada Osmanlı yönetimindeki Girit adasında isyan çıkmış ve sınıf arkadaşlarının Girit lehine yaptığı aşırı söylemler nedeniyle, Litvanya Tatarı arkadaşı Mustafa Mirza Davud ile birlikte okulu bırakarak Türkiye'ye gelip Türk ordusuna katılmak istemiştir. Okulu bırakmasına ikinci sebep ise aşırı Rus milliyetçiliğinden rahatsız olması gösterilmektedir (Devlet, 2011: 29).

Osmanlı yönetimindeki Girit'teki Rum isyanım duyduğunda, tatilde ailelerinin yanına gitmektense Girit'te katliama uğrayan soydaşı

Türklere yardıma gitmeye karar vermiştir. Cafer Seydahmet Kırımer bu yolculuğu, "*İdil (Volga), Özi (Dinyester) nehirleri üzerinden kürek çekerek Tsaritsin, Rostof, Taganrok, Kerç'ten geçerek 45 günde Kırım'a gelip çıktılar. Buradan da gizlice Odesa'ya kaçtılar ve İstanbul'a gitmek üzere vapura binmeye çalıştıkları sırada pasaportları olmadığından jandarmalar tarafından yakalanarak Bahçesaray'a gönderildiler*" şeklinde anlatmaktadır (Kırımer, age, s. 39). Bugün belki de bizlerden birimiz buna cesaret etsek çocukça bir heyecan olarak düşünülecektir, fakat şuna eminiz ki Gaspıralı'yı bütün Türk dünyasının son birkaç yüzyıldaki en büyük düşünürü olmaya götüren en önemli adım; bu 45 günlük kürek macerası olmalıdır. Yakalanıp Bahçesaray'a gönderilse de pes etmemiştir, önce bir süre Rusça öğretmenliği yapmış ancak bununla bir yere varamayacağını bildiğinden yeniden İstanbul'a gitmeye karar vermiştir. Zincirli medresesinde ve Rusça öğretmenliği sürecinde eğitim alanında önemli sorunların olduğunu anlayarak "*Bizde ilk tedris ve terbiyenin olmadığı mektepte ve dinî mekteplerimizin korkunç geriliklerini bilahare, Zincirli'de tamamıyla öğrendim ve buna binaen daha bu devirlerde her şeyden evvel bu esasların ıslahı lüzumuna iman ettim* (Kydyraliyev , 2001: 74) demiştir.

Gaspıralı bir süre Bahçesaray'da Rusça öğretmenliği yapmışsa da daha sonra Osmanlı subayı olmak için Fransızca bilmek zorunluluğu olduğundan "*İsmail Bey, Fransızcasını geliştirmek maksadıyla İstanbul, Viyana, Münih ve Stuttgart üzerinden Paris'e gelmiştir. Paris'te çeşitli işlerde çalıştıktan sonra Rus yazar Ivan Turgenyev ile tanışmış ve asistanlığını yapmıştır. Fransızcası ilerledikten sonra bir reklam şirketinde çalışmıştır* (Hablemitoğlu, 2015: 18). Fransa o yıllarda, Avrupa devrimlerinin son evresi olan aklın ön plana çıktığı aydınlanma çağını yaşamaktadır. Fransa'da iki yıl kalarak Avrupa ve eğitim hakkında önemli tespitlerde bulunmuştur. Tekrar İstanbul'a gelerek subay olmak için başvurmuş ve bir yıl kadar bunun için çabalamışsa da kabul edilmediğinden, 1875 yılında tekrar Kırım'a dönmüştür. Gaspıralı gibi idealist birinin Osmanlı subayı olmayı bu kadar istemesi, bunun için Fransa'ya gidip iki yıl dil öğrenmesi ve tekrar bir yıl bunun için mücadele etmesi ve sonrasında pes etmeyip vatanma gidip orada başka bir yolla bütün Türk yurtlarını birleştirecek yol-

lar denemesi; subay olma isteğinin de Türk dünyasını birleştirmek ideali ile alakalı olduğu düşüncesini akla getirmektedir. Sonrasında Tercüman'ın dilini de Osmanlı Türkçesi yapması, Cedit okullarında Türkiye Türkçesi öğretilmesi bize bunu göstermektedir.

Abdiraşidov'a göre Gaspıralı "birine ana dilini öğretmeden yabancı dil öğretmeye çalışmanın akılsızlık olduğunu savunan Komenski'nin görüşlerinin etkisinde kaldığı anlaşılmaktadır" (Abdiraşidov, 2022: 173).

Avrupa aydınlanmasının en önemli filozoflarından Rousseau der ki "Bitki tarımla, insan eğitimle yetişir" (Rousseau, 2018:16) Bu nedenle Avrupa düşünürleri toplum aydınlanması için sürekli olarak eğitimin önemine vurgu yapmıştır ve kişinin eğitiminde, ailede verilen eğitimle birlikte ilkokul eğitiminin çok önemli olduğu düşünülmüştür. Rousseau, eğitim anlamında günümüzde kullanılan "education" sözcüğünün ise; eski Roma'da "beslenme" anlamına geldiğini belirtmektedir (aynı eser s. 24). Gaspıralı da Avrupa'da bulunduğu sürede bunu çok iyi gözlemlemiş ve beslenmenin ilk aşamasının ne kadar önemli olduğunu kavramış ve bu nedenle öncelikli olarak ilkokullardaki eğitimin önemine vurgu yapmıştır.

Avrupa'da Eğitimin Tarihçesi:

Sparta'da eğitim, "güzel, çevik, gönlü tok, dayanıklı, tam ve olgun insanlar yetiştirmek" esasına dayanmaktadır (Uygun, 2007:4; Kılıç, 2014: 12). Tarım toplumu Sparta'da, bireyin fizik gücü çok önemli olduğundan savaşçı insanlar yetiştirmek üzerine kurulmuştur. Bu ise toplum ve devlet için eğitim kuramı anlamına gelmektedir. Askerî düzenin hâkim olduğu toplumlarda bireyin kültürel gelişimi değil, fiziksel gelişimi önemlidir. Bu nedenle Sparta site devleti, hayatta kalmak için iyi askerler yetiştirmekten başka çaresi olmadığından eğitim kurammı buna göre belirlemiştir.

Sokrates Atina'sında ise erdem, etik ve sosyal sorunlar temeline dayalı bir eğitim anlayışı sergilenmiştir (aynı eser s.15). Daha çok yöneten kesimin kültürel gelişimine önem verildiğini gördüğümüz Yunanistan'da felsefe, jimnastik gibi kültürel eğitimlerin önem kazandığı anlaşılmaktadır. Bu da toplumdan çok, bireyin kendini daha

özgür hissettiği ve bireyin gelişimine önem veren eğitim kuramının hâkim olduğunu göstermektedir.

Sokrates'in öğrencisi Platon ise, Sparta ile Atina eğitiminin bir karışımını yerleştirmeye çalışmıştır. Bir yanda birey, diğer yanda toplum eğitimi önemsenmiş ama aslında birey ve toplum arasındaki ilişkinin işleyişi, sürdürülebilir olmasıyla yakından ilgili olmuştur (aynı eser s.18-19).

Öğrencileriyle bilimsel deneyler gerçekleştiren ve onları kaydeden Aristoteles ise, özellikle Biyoloji ve Tarih alanlarında, bilimsel araştırmayı canlandırmış ve geliştirmiştir. Bilginin temeli olarak duyumları esas alan Aristoteles için eğitimin, aklın geliştirilmesi/ iyileştirilmesini amaç edinmesi gerekmektedir (aynı eser s. 19). Bu nedenle Aristoteles eğitimde aklı öne çıkarmaya çalışmıştır.

Ortaçağ (5.-15. yüzyıllar arası), Grek (Yunan) düşüncesi ile Yahudilik ve Hıristiyanlık tarafından şekillendirilmiş bir döneme işaret etmektedir. Eğitim anlayışı da doğal olarak çok çeşitli kaynaklardan beslenmişse de, egemen düşünce Hıristiyanlık olmuştur. Erken dönem Hıristiyan kiliseleri Grek ve Roma düşüncesinin eğitim üzerindeki etkisinden uzaklaşamamış, hatta birçok konuda din-dışı birçok unsur içeren bu eğitimin halkı yanlış yönlendirdiği şikayetinde de bulunulmuştur (Kılıç, 2014: 21). Hristiyanlığın eski pagan kültürü olarak ilan ettiği eski Yunan'dan itibaren önemli filozofların katkısı ile gelişmiş ve şekillenmiş eğitimin, Kilise tarafından "sakıncalı, sapkın, dinin yerleşmesine engel" ilan edilmesi; Roma İmparatorluğu'nu "skolastik" olarak adlandırılan karanlık bir çağa sürüklemiştir.

Yukarıdan da anlaşıldığı gibi toplumun ihtiyacı nedeniyle Sparta'da askerî ve bedensel eğitim yapılırken, Atina'da daha çok sanatsal ve kültürel eğitimler yapılmıştır. Önce Sokrates erdem ve etik değerleri getirmiş. Daha sonra öğrencisi Platon, bu iki eğitimi birleştirmiş, onun öğrencisi Aristoteles ise aklı öne çıkarak, tarihteki ilk akademiyi kurmuştur. Roma döneminde ise 5. yüzyıldan itibaren Hristiyanlık devlet üzerindeki etkisini artırmış ve Yunan döneminden beri gelen içerisinde felsefenin de olduğu sorgulayıcı ve kültürel eğitim, yerini temelinde Hıristiyanlığın yazıları ve kurallarımn hâkim olduğu Hıristiyan eğitim teorisine bırakmıştır. Derslerin içeriği de bireyin ya da

devletin gelişiminin yerine, dinî kuralların sıkıca öğretilmesi gerektiği düşüncesine dönüşmüştür.

Ortaçağ dönemine girilince 8. yüzyıldan itibaren Hristiyanlığın güçlenmesi ile eğitim, Kilisenin sıkı kontrolünde olan ve felsefede teolojinin ağırlık kazandığı ve sadece Hristiyanhğa aykırı gelen sorulara cevap arayan anlayışa hâkim olan "Skolasitik Eğitim" dönemine girildiği görülmektedir. Skolastik(okullu) anlamına gelmektedir ve "schola (okul)" kökünden türetilmiş ve okullar daha sitemli olmaya başlamıştır, Roma İmparatorluğundaki bütün okullar kiliselere bağlanmış, fakat bu kilisenin eğitim içeriği de kendi karma kültürel yapısma uygun olarak düzenlenmek zorunda kalmıştır. Felsefe sadece Teoloji olarak kendine yer bulabilmiş, onun da tek görevi Hristiyanlık içerisinde çağın ilerlemesi nedeniyle ortaya çıkan sorulara kendince cevap aramak olmuştur. Örneğin dünyanın dönüşü, yaşı ve şekli hakkında kilisenin ileri sürdüğü görüşler Kopernik gibi bilim adamları tarafından çürütüldükçe, teoloji önceki yorumların hatalı olduğunu ileri sürerek, yeni yorumlar ileri sürmüştür.

Ortaçağ öğretim programı gramer, retorik, mantıktan oluşan üçlü grup ve aritmetik, geometri, astronomi ve müzikten oluşan dörtlü grup olmak üzere yedi dersten oluşmaktadır (aynı eser s.24).

Ortaçağ'ın sonlarında başlayan Rönesans Dönemi (14.-16. yüzyıl) ise yeniden Grek-Roma klasiklerinin okunması ve değer kazanması ile Kilisenin baskıcı eğitimine tepki olarak insanı merkeze alan bir eğitim fikrini ileri sürmüş ve insan aklının sorduğu bütün sorulara cevap aradığı için, bu dönemde akıl yeniden ön plana çıkmıştır (Cevizci, 2012: 375; Kılıç, 2014: 24). Bu ise Hümanizm akımını ortaya çıkarmıştır. Hümanizm'in temelinde insanın saf ve temiz olması nedeniyle en iyiye ulaşabileceğine ve hak ettiğine inanılması, insanı yüceltmiş ve insanın gelişmesi için eğitimin de temeline insanı geliştirecek yüceltecek programların konulmasına karar verilmiştir. Luther ve Erasmus arasında yaşanan insanın iradesinin tanrısallığı meselesinde her iki düşünür de Kilise'nin din temelli mevcut eğitim kuramına karşı çıkmıştır. İnsanın özgür iradesi tartışmaları ise Hristiyanhğm ilk dönemine olan ilgiyi artırmıştır. Her halükârda insanm daha özgür olmasına giden yolun kapılarını aralamıştır, bu da eğitimde özgür insanların yetiştirilmesi düşüncesini desteklemiş ve dinin

eğitim üzerindeki baskısını kırma yoluna girilmiştir. Ortaçağ'dan beri toplumda her şeyin merkezinde kilise ve Hristiyanlık var iken, Rönesans Dönemi filozofları her şeyin merkezine insanı koyarak kilisenin otoritesini sarsmıştır.

Gaspıralı'nm ve Avrupa'nm eğitim felsefesini etkileyen en önemli düşünürlerden Komensky'nin eğitim görüşlerinin oluşmasına etki eden en önemli gelişmelerden biri Leeuwenhook, Harvey, Gilbert, Pascal gibi bilim insanlarının bilimsel keşiflerinin temelinde gözlem, deney ve tümevarımsal akıl yürütmenin yer alması yatmaktadır. Bu gelişmelerle birlikte Komensky ezbere dayalı geleneksel eğitimin yerine sorgulamayı, araştırmayı teşvik eden pedagojik bir sistem ortaya atmıştır (Subbionda, 1992; Çırak, 2020: 43).

Komensky 5 yüzyıldan itibaren gelen skolastik eğitime karşı çıkan ve eğitimi evrensel bir çerçeveye oturtan öncü isimlerden biridir, ondan sonra bu görüşü Rousseau da bir asır sonra benimsemiştir (Wolf, 2011; Çırak, s. 44). Az ileride Avrupa filozofları gibi Gaspıralı da ezbere dayalı geleneksel eğitim metodundan vaz geçilmesini önerecektir.

Komensky'e göre eğitimin ilki okul öncesi altı yaşına kadar aile tarafından verilen eğitimdir ve ikinci eğitim, bizdeki ilkokula karşılık gelir ve on iki yaşına kadar okullarda verilir. Bu eğitimin tamamen çocuğun anadili ile yapılması gerektiğini ve bu şekilde çocukların anadilini unutmayacağım ve hayal gücünün anadil ile gelişeceğini belirtmektedir (Shrivastava, 2003; Çırak, s. 46). İsmail Gapıralı'nın eğitim anlayışı da Abdiraşidov'un belirttiği gibi bu doğrultudadır ve anadilde eğitim konusu en önemli husus olmuştur.

Aydınlanma dönemi filozoflarından Rousseau insanm toplum için mi eğitilmesi gerektiği, yoksa birey için mi eğitilmesi gerektiği sorusunu kendisine sorar ki, göçebe Türk toplumları Türkistan bozkırlarında her an istilaya açık bir durumda yaşayan toplum olduğu için; zorunlu olarak her an savaşa hazır yaşamıştır. Bu ise asker millet kavramını doğurmuştur. Tıpkı Spartalılar gibi sürekli askerî eğitimlerle devleti yaşatacak ve toplu hareket edecek bireyler yetiştirme yolunu tercih etmiştir. Elbette bu yaşanılan coğrafyanın, toplum yaşamına etkisi nedeniyle zorunlu olarak ortaya çıkmıştır. Rousseau çocuklar; insan için mi, devlet için mi eğitilmeli sorusuna "*in-*

san olarak eğitilmekten yana koyar; çünkü vatandaş olarak eğitimde fıtrat ve doğa sürekli ihmal edilmekte bütünün parçası olan insan sürekli bütün lehine feda edilmektedir. Çocuk zorluklarla baş etmesini kendisi öğrenmeli ve güçlükler karşısında dayanıklı olmadan vazgeçilmemelidir. Çocuklar kendi gücüyle baş başa bırakılmalı, onların temel ihtiyaçları karşılanmalı ve onlara daha fazla özgürlük alanı bırakılmalıdır. Bunlar aynı zamanda onun eğitim felsefesinin ana unsurlarıdır." (Rousseau, s. 71.; Kılıç, 2014: 43). Rousseau'nun bu düşünceleri de kendisinden sonraki birçok düşünürü etkilemiştir ve Avrupa'da çocukların ve bireyin kendi başına yetişmesi, daha özgür bir doğaya sahip olmaları düşüncesini güçlendirmiştir.

John Locke "Eğitim Üzerine Bazı Düşünceler" isimli eserinde, bir Türk İskit Filozofu'ndan örnek verir. Bir Atinalı'nın İstik filozofuna karda kışta nasıl çıplak dolaştığını sorduğunda İskit filozofunun, "senin yüzün sert kış havasma maruz kalmasına rağmen nasıl dayanabiliyorsun" dediğini; Atinalı'nın "yüzüm buna alışık" dediğini, İskit ise "beni sırf yüz olarak düşün" diyerek felsefe yaptığını ve çocuğun küçüklükten itibaren soğuk havalar da dahil, en zor şartlara alıştırılması durumunda her şeye dayanabileceğini belirmiştir (Locke, 2024: 31). Locke, Rousseau ve birçok Avrupalı filozof bu İskit filozofun cevabını en önemli düşünce hâline getirmişler ve çocukların küçüklükten itibaren İskitler gibi özgür ve dayanıklı yaşamaları gerektiğini savunmuşlardır. Bu bakımdan aslında Avrupa düşünürleri kişinin doğayla özgür yaşaması hâlinde daha güçlü bireylerin ortaya çıkacağı düşüncesinde, biz Türklerin ataları olan İskitleri örnek almıştır.

Avrupa modern eğitiminin mimarlarından Pestalozzi de "çocuğun duyusal ve zihinsel eğitiminin, yani ilkokulda aldığı eğitimlerin anadilinin doğal gelişimi ile birlikte gittiğini, çocuğun ilkokulda henüz anadili gelişmeden daha konuşmayı düzgün öğrenemeden kitap okumasını beklemenin doğru olmadığını aktarmaktadır (Pestalozzi, 2020: 50). Pestalozzi de ilkokulda çocuğun eğitiminde dinî eğitimin değil, aklını kullanmayı öğrenmeyi ve duyusal yeteneklerini geliştirmeyi hedef alan eğitimin olması gerektiğini aktarmaktadır. Avrupalı filozoflar, dinî içerikli eğitim teorilerinde yedi yaşından itibaren çocukların ağır bir dinî eğitim almalarının; onların zihin gelişimlerini

olumsuz etkileyeceği üzerinde durmaktadır. Bu nedenle oluşturmaya çalışılan pedagojik eğitim anlayışının bütün dinlerden ve milletlerden bağımsız, evrensel olması gerektiği üzerinde durmuşlardır.

Durkheim dünyanın herhangi bir toplumunda aynı anda iki pedagojik eğitim kuramımn bir arada yürüyemeyeceğini, eğitimin amacının Mill, Spencer, Herbart ve Kant'a göre de insanın doğuştan itibaren var olan melekelerinin olabildiğince en doruk noktasına çıkarmak" olduğunu açıklamaktadır (Durkheim, 2016: 106-107). Yani Rousseau'nun beslenmek olarak tarif ettiği durumu açıklamaktadır.

Aynı şekilde eğitimin "Ortaçağ'da sofu, Rönesans'ta liberal, 17.yüzyılda edebi ve günümüzde ise bilimsel bir hâl aldığım; eğitimin çağa göre kendini yenilediğini ve yenilemesi gerektiğini, Romalılarda ve Yunanlılarda eğitimin amacının Romalı ve Yunanlı yaratmak olduğu için; eğitimin siyasi, ahlaki, dinî ve ekonomik olarak toplumla uyumlu olduğunu belirtmektedir (aynıeser s.111).

Roma ve Yunan toplumunda eğitimin amacının "yurttaş" yaratmak olduğunu, fakat modern eğitimin artık bu geri kalmış gelenek ve âdetleri terk etmesi ve bireyi eğitmeyi hedeflemesi gerektiğini belirtmektedir (aynıyer). Durkheim de "Eğitim ve Sosyoloji" isimli eserinde, sosyoloji ile eğitimin ayrılmaz bir bütün olduğunu, eğitimin amacının Hümanizm felsefesi doğrultusunda bireyi eğitmek olduğunu açıklar. Bunun da dinî ve ahlaki eğitim gibi toplumu şekillendirmeye çalışılan eğitim kuramından çok; bireyi geliştirmeyi hedeflemesi gerektiğini belirtmektedir.

Kant "eğitime ihtiyaç duyan tek canlının insan olduğunu, bebeğin bakıma ihtiyaç duyduğunu, çocuğun disipline ihtiyaç duyduğunu ve bilge insanın ise öğrenime ihtiyaç duyduğunu, eğitimin kuşaktan kuşağa nesiller boyu devam etmesi durumunda başarıya ulaşılacağını belirtmektedir (Kant, 2020:13).

Akıl kültüründe ise "Sokratik Yöntem" tarzını, soru-cevap şeklinde çocukların gerektiğinde kendilerine ait fikirler ürettikleri sorgulayıcı eğitimi tavsiye etmektedir (aynıeser s.55-56).

Kant da geleneksel eğitim yöntemlerindeki "ezbere öğrenme" yönteminin yerine, sorgulayıcı eğitimi önermektedir; bu ise çocukları daha çok dinî bilgilerle doldurulan eğitim modellerine karşı çıkış anlamına gelmektedir.

Avrupa'da eski Yunan'ın örnek alınması ile başlayan sorgulayıcı eğitim ve toplum eğitimi kuramı, yani içerisinde dinî eğitimin temel olduğu Hristiyanlık inancının geleneklerinin yer aldığı eğitim teorisi; yerini aklın ve bireyin gelişiminin aldığı Hümanizm akımının öncülük ettiği eğitim teorilerine bırakmıştır. Bireyin duyusal ve zihinsel gelişimini destekleyen eğitim ise Kant'ın da belirttiği gibi, birkaç kuşak sonra Avrupa'da devrimler çağını başlatmıştır.

Locke "sağlam kafa, sağlam vücutta bulunur" der ve bazı suların kaynağında yapılan küçük bir değişikliğin, suların uzak yerlere gitmesini sağladığını; çocukların da zihninin su gibi olduğunu ve küçüklükte yapılacak küçük bir değişikliğin, insan yaşamının sonuna kadar etkili olacağını belirtmektedir (Locke, 2024: 29-30). Elbette çocukta yapılacak bu değişikliğin, onun kendini daha özgür bir şekilde ifade edebileceği, kendi kararlarım alabileceği ve kendi ayaklarının üzerinde durabileceği özgür bir eğitimi tarif etmektedir. Yukarıdan da anlaşılacağı üzere bu ise çocuğun küçük yaştan itibaren onun zihnini meşgul eden dinî ya da toplumsal eğitim kuramının terk edilerek, yerine hümanist ve sorgulayıcı eğitim kuramlarını uygulamakla mümkün olacaktır.

Avrupa düşünürlerinin tamamının ortak görüşü insanm zihinsel ve duyusal gelişiminin ilkokul çağlarında başladığını ve bu dönemin çok önemli olduğunu ifade etmektedirler. Çocukluk çağında düşünmeyi, aklı ve sorgulamayı öğrenen bireylerin ömrünün sonuna kadar doğru ve bilimsel bilginin peşinde olacaklarım belirtmektedirler. Ayrıca dinî, ahlaki ve örf âdet gibi zihne sorgulamayı kısıtlayan eğitim kuramı ile; bilimsel bilgiyi arayan akıl temelli çağdaş etiğim kuramlarının bir arada yürümeyeceğini belirtmektedirler.

İsmail Gaspıralı'ın Eğitim Yazıları ve Görüşleri:

Gaspıralı ise Komensky'nin ve aydınlanmacı düşünürlerin eserlerini incelemiş, "Eski Usul" olarak bilinen mekteplerin sorunlarını açıklarken "alfabeyi okumayı öğrenen Türk çocuklarına hemen Arapça ve Farsça öğretilir ki pek ağır ve müşkül bir iştir" (Akpınar, 2017: 477-478) demiştir. Komensky başta olmak üzere Avrupalı düşünürlerin de eğitimde önem verdiği iki konu vardır ilki çocukların ana dillerinde eğitim görmesi, ikincisi ise çağın gerektiği gibi dinî

eğitimden çok sorgulayıcı ve bilimsel eğitim kuramları ile eğitim almaları gerektiğidir.

Gaspıralı devamında eğitim saatlerinin uzun olması, dayak ve kamçı cezası gibi insani olmayan uygulamaları da Avrupalı düşünürler gibi eleştirmiştir (aynı eser s.479).

"Usûl-i idare, mektep kaideleri" başlıklı yazısmda ise "sınıfların kırk kişiden fazla olmaması, yılda iki defa öğrenci kabulü, bir öğretmenin en fazla üç ya da dört sınıfı okutması gerektiği, ilk önce Türkçe okunması gerektiği, derslere kırk beş dakikada bir mola verilmesi gerektiği, öğrencileri dövmek ve sövmek gibi cezaların olmaması gerektiği" gibi kurallar getirilmiştir (aynıeser s.481-484). Yukarıda verilen bilgilerden de anlaşılacağı üzere özellikle Komensky'in ve Pestalozzi'nin eğitim kuramına benzer düşünceler ileri sürdüğü anlaşılmaktadır.

Gaspıralı Avrupa okullarım da incelemiş ve bunların ders programlarının; din ve mezhepleri öğrenmek, hesap öğrenmek, akıl kaynamak (felsefe olmalı, aklı güçlendirmek) için mükemmel derecede bilmek, millî tarihlerini öğrenmek, muhtasar (genel) tarih, muhtasar umumi coğrafya, her sene tedricî bir surette (basamak basamak) ulûm-ı tabiiyeden (tabiyet hükümlerinden-doğa bilimlerinden) bir parça gelen malumat (aynıeser s.521) olduğu şeklinde sıralamıştır.

"Bizler Adam Olurmız mı? (25 Dekabr 1884/19 R. Evvel 1302. Ayı: 46)" başlıklı yazısında Aklın önemine vurgu yaparak Türk ve Tatarların, zihin ve fende geri olup olmadıklarını sormuş ve "nakıs(eksik) akıldan makbul ahlak ve edep doğmaz" demiştir. Avrupa'nm da Yunanların felsefesi sayesinde nam yaptığım Aristo, Sokrates ve Platon gibi filozofları sayesinde övündüklerinden bahsetmiştir (aynıeser s.73-74). Yukarıda Avrupa eğitimini modern hâle getiren düşünürlerin eski Yunan'ı örnek aldığmı görmüş ve Türklerin ise "Farabi, İbni Sina gibi düşünürlerinin akıl meselesinde onlardan geri kalmadığım; Aksak Timur'un, Tatar İskender'i olarak çevresinde bilim adamlarına yüksek hürmet gösterdiğini, torunu Uluğ Bey'in Astronomi ve yıldız ilminde kitabımn olduğunu, Kadızade ve Ali Kuşçu gibi büyük bilginlerin olduğunu ve Ali Şir Nevai'nin de büyük bir şair ve edib olduğunu belirtmiştir (aynıeser s.77). Devamında Osmanlı ulemasından Katip Çelebi gibi birkaç isim daha sayarak önemli Türk bilginlerinin

eserlerinin Almanca, Fransızca ve İtalyanca gibi dillere çevrildiğini, bu nedenle değirmeni ve demir yolunu icat eden adamların birçok komutandan hayırlı iş yaptığını; bizlerin bunları yapabilecek kabiliyette olduğumuzu, bunun için yeni okullar açmak ve okumak gerektiğini belirtmiştir (aynıeser s.78). Bu yazısında komutan ile demir yolu icat eden bilim adamlarını karşılaştırması, Türklerin de Sparta gibi askerî eğitim kuramı döneminin; çağımıza göre geri kaldığını, "asker millet" kuramının terk edilmesi ve bilim çağının başlamasın önemine işaret etmektedir. Bunun ise eğitimle mümkün olacağını ileri sürmüştür.

Gaspıralı anadille eğitimin önemini ise "*Lisan, terakki(*yükselme/ ilerleme) maksadı(*amacı) olmayıp terakki vasıtası(*aracı)olduğunu arz etmek istiyoruz."*(Gaspıralı, 2006: 363-365)" şeklinde açıklamaktadır. Anadili ile eğitimin amacının, Türk toplumunu dünyada yükseltmek olduğunu ifade etmektedir.

Tercüman gazetesinden önce Terakki (İlerleme) broşüründe yayımladığı bir yazıda "eğitim veya bilgi, insanları mutluluğa götüren ve onlara doğru yolu gösteren güçtür; eğitim kişinin ufkunu genişletir, zihnini keskinleştirir, iç görü kazandırır ve buna bağlı olarak, gücünü ve zenginliğini artırır" şekline bir yazı kaleme almıştır (Kırımer, 1934: 104-105, Abdiraşidov, 2022:182). Gaspıralı'nın bu düşüncesi Hümanizm akımının ta kendisidir, insanı yücelten ve mutluluk peşinde koşmasını tavsiye eden ve bunun bilgi ile olacağını söyleyen akımdır.

Aydınlanmacı Avrupa düşünürleri de Gaspıralı gibi sürekli olarak eski dogmatik-skolastik eğitimden kurtulmak gerektiğini vurgulamışlardır. "John Locke (1632-1704) ve Leibniz'in (1646-1716) eğitim üzerine makalelerinde, Johann Amos Comenius (1592-1670) ve Wolfgang Ratke'nin (1571-1635) metodik ve didaktik çalışmalarında; insanın "gerçek doğası"nın ortaya konması, ahlaki anlamda mükemmelliğe ulaşmak ve bireysel mutluluk en büyük hedef olarak ortaya konmuştur (Kılıç, 2014: 49). Gaspıralı da nakıs(eksik) akıldan, makbul ahlak doğmaz diyerek akıl ile ahlakın, ayrılmaz ikili olduklarına vurgu yapmıştır. Aynı zamanda kişiyi mutluluğa götüren en önemli gücün de bilgi olduğunu belirterek Locke, Leibniz, Comenius ve Ratke ile benzer görüşler ileri sürmüştür.

Abdiraşidov'un, Özeçeoğlu'dan aktardığına göre "Usul-i Cedit (Yeni Metod) ve Usul-i Atik (Eski Metod) adını ve yöntemini ilk olarak 1865 yılında Risale-i Elifbaiyye (Elif-ba Kitapçığı) kitabını yayımlayan Selim Sabit'tir ve Gaspıralı bu adı ondan ödünç almıştır (Özeçeoğlu, 2004: 12-15-16; Abdiraşidov, 2022: 178). Hocalarımızın belirttiği gibi Gaspıralı'nın yönteıni ile benzerliği açıktır ancak Gaspıralı'yı diğerlerinden ayıran, bu eğitim metodunun bütün Türk dünyasında kusursuz olarak uygulamasıdır. Gaspıralı'dan önce gerek Kazan aydınları, gerek Osmanlı aydınları Türklerin eğitim kuramlarına ilişkin yazılar kaleme almışsa da; hiçbiri Gaspıralı kadar etkili olmamıştır ve bütün Türk dünyasında uygulama gücüne kavuşmamıştır. Hatta İslam dünyası dahi Gaspıralı'nın düşüncelerinden etkilenmiştir. Bu bakımdan Gaspıralı Avrupa düşünürleri gibi büyük bir fikir adamı olarak etki göstermiştir.

Sonuç:

Avrupa düşünürlerinin eğitim, sosyoloji ve pedagoji alanında yazdığı kitaplar ve makaleler incelendiğinde; insanın ağaca benzetildiği ve henüz küçük yaşta onun yaşamına eğitim sayesinde doğru müdahale edilebileceği, bunun ise çocuğun zihinsel ve duyusal gelişimini güçlendirmek yönünde olması gerektiği ifade edilmiştir. Yapılan tartışmalarda insanın kutsal bir varlık olduğu ve onun mutlu olması için bilgi ile güçlenmesi gerektiği, iradesinin dinî ve toplumsal gelenekler gibi kurallarla kısıtlanmaması hâlinde; zaten doğruya ve onu mutlu edecek bilgiye ulaşacağına inanılmıştır. Eğitim kuramları eski Yunan filozoflarının ve klasik dönem yazarlarının görüşleri ile desteklenmiştir. Kilisenin tekelindeki skolastik eğitim reddedilerek, yerine hümanist ve insanın gelişimini merkeze alan eğitim kuramları güçlenmiştir. Gaspıralı ise Fransa'da ve Avrupa'da kaldığı süre-de onların eğitimlerini incelemiş, Bahçesaray'da öğretmenlik yaptığı dönemde Türk eğitimindeki eksikleri tespit etmiş ve bunlarla ilgili yazılar kaleme almıştır. Kendi tarihimizden Farabi'den, İbni Sina'dan, Emir Timur'dan, Uluğ Bey'den ve büyük Türk düşünürlerinden örnekler vererek; eski Yunan Filozofları Aristoteles, Sokrates ve Platon ile karşılaştırmıştır. Aklın önemine ve bilginin insanı mutlu edeceğine, yani hümanizme vurgu yapmıştır.

Türk eğitimi Osmanlı ve Kazan aydınlarının görüşleri ile yenileşme belirtileri göstermişse de, Gaspıralı ile bütün Türk dünyasına yayılarak önemli bir aydınlanma çağı başlamıştır.

Şüphesiz ki İsmail Gaspıralı Türk dünyasımn son birkaç yüzyılda gelmiş en önemli aydınıdır. Bunun iki önemli nedeni vardır. İlki Türk dünyasını bir araya getirecek olan dil sorununa çözüm üretmiş olması, ikincisi ise Türk dünyasının geri kalmışlığının Avrupa eğitim kuramları ile çözülecek olmasım görüp; bütün Türk yurtlarında bunları uygulayabilmiş olmasıdır.

Kaynaklar:

1. ABDİRAŞİDOV, Zaynabidin. İsmail Gaspıralı ve XX. Yüzyılın Başlarında Türkistan (Temaslar–İlişkiler–Tesir). Çev. Hatice Kerimoğlu. Selenge Yayınları, 2022
2. AKPINAR, Yavuz (2017)İsmail Gaspıralı-Eğitim Yazıları (Usûl-i Cedit Eğitim Hakkındaki Yazıları, Eserleri), Ötüken Neşriyat A.Ş., İstanbul
3. CEVİZCİ, Ahmet, Eğitim Felsefesi, Say Yayınları, 2012.
4. ÇIRAK, Adnan (2020), Jan Ámos Komenský'nin Eğitim Sisteminin Özellikleri Üzerine: Bir Eğitim Tarihi Çalışması, Journal of Universal History Studies (JUHIS). 3(1). June. 2020. pp. 39-52
5. DEVLET, Nadir (2011) , *Unutturulan Türkçü, İslamcı, Modernist: İsmail Gaspıralı*, Başlık Yayın Grubu, İstanbul, s.29.
6. DURKHEİM, Emile (2016). Eğitim ve Sosyoloji, Çeviren: Pelin Ergenekon, Pinhan Yayıncılık, İstanbul
7. GASPIRALI, İ. (2006), Kendi Kaleminden İsmail Bey Gaspıralı- İdealleri İşleri Tavsiyeleri ve Haberleri (Hazırlayan: S. Arıkan, Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı, İstanbul
8. HABLEMİTOĞLU, N. (2015). Gaspıralı İsmail, İstanbul: Pozitif
9. KANT, İmmanuel (2020). Eğitim üzerine Düşünceler (Ueber Padagogik), Çeviri: Çiğdem Döşoğlu, Gece Kitaplığı, Ankara
10. KILIÇ, Cengiz (2014), Eğitimci Olarak Kant (Immanuel Kant'ın Eğitim Üzerine Düşünceleri), Yayımlanmış Doktora Tezi, Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Felsefe Anabilim Dalı, Erzurum

11. KRAMER, Martin, "Gasprinskiy'nin Dünya Müslümanları Kongresi Teşebbüsü (1907) ve Neticeleri", *İsmail Bey Gaspıralı İçin,* haz. Hakan Kırımlı, Ankara 2004, s.367.

12. KYDYRALİYEV, Darhan, Türkistan'da Cedidcilik Hareketi ve Bunun Türkiye ile Münasebeti, Yayımlanmamış Doktora Tezi, İstanbul Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, İstanbul, 2001, s. 74.

13. LOCKE, John (2024). Eğitim Üzerine Bazı Düşünceler, çeviri: Ali Çakıroğlu, Afrika Yayınları, İstanbul

14. PESTALOZZİ, Johan Heinrich (2020). Modern Okulun Kuruluşu, Çeviren: Sinan Alkan, Roza Yayınevi, İstanbul

15. ROUSSEAU, J.J., Emile ya da Eğitim Üzerine Düşünceler, çev. İsmail Yerguz, ALFA Basım Yayım Dağıtım Ltd. Şti, İstanbul, 2018

16. ROUSSEAU, Jean-Jacques, Emil oder über die Erziehung, UTB, Paderborn 1971.

17. SUBBİONDO, L. J. (1992). From Babel to Eden: Comenius and the 17th-Century Philosophical Langage Movement. Historiographia Linguistica, 19 (2-3). (261-273)

18. SHRİVASTAVA, K. K. (2003). Philosophical Foundations of Education. Kanishka Press: New Delhi.

19. ÖZEÇEOĞLU, Halil (2004), Eğitimde Bir öncü: Selim Sabit Efendi, Yüksek Lisans Tezi, Dokuz Eylül Üniversitesi, İzmir

20. UYGUN, Selçuk, "Eğitimin Tarihsel Temelleri", Eğitim Bilimine Giriş, (Editör: Figen Ereş), (153-195), Maya Akademi Yayınları, Ankara 2007.

21. WOLF, T. (2011). Comenius and Savitribai Phule. Journal of Applied Christian Leadership, 5 (2). (78-104)

MAHMUDXOCA BEHBUDİ VƏ AZƏRBAYCAN MAARİFÇİLƏRİ: ORTAQ İDEYALAR VƏ PARALEL YOL

Atilla Nazim oglu SÜLEYMANLI
Özbəkistan Respublikası, Termez Dövlət Universitetinin Ədəbiyyat (Özbək ədəbiyyatşünaslığı) fakültəsinin II kurs magistri, Bakı, atillanazim@mail.ru, ORCİD İD: 0009-0005-7230-5123
(Ozarbayjon)

XÜLASƏ:

Bu məqalə Mahmudxoca Behbudinin Türküstanda cədidçilik hərəkatındakı rolunu və onun Azərbaycan maarifçiləri ilə ideya oxşarlıqlarını araşdırır. M.Behbudinin maarifçilik prinsipləri, milli mədəniyyətin qorunması və müasir təhsil sisteminin formalaşdırılmasına dair fikirləri Azərbaycan ziyalılarının baxışları ilə müqayisə edilir. M.Behbudinin ictimai fəaliyyəti və onun cədidçilik ideyalarının Azərbaycan mühitinə təsiri və əksinə Azərbaycan mütəfəkkirlərinin ideya və əməli fəaliyyətinin Behbudi yaradıcılığına təsiri də təhlil olunur.

Açar sözlər: *Mahmudxoca Behbudi, cədidçilik, Azərbaycan maarifçiləri, Türküstan, milli oyanış, müasir təhsil, maarifçilik*

Abstract: This article examines the role of Mahmudkhoja Behbudi in the Jadid movement in Turkestan and his ideological similarities with Azerbaijani intellectuals. It analyzes Behbudi's principles of enlightenment, the preservation of national culture, and the formation of a modern education system in comparison with the views of Azerbaijani intellectuals. The study also explores Behbudi's social activities and the impact of his Jadidist ideas on the Azerbaijani context.

Keywords: *Mahmudkhoja Behbudi, Jadidism, Azerbaijani intellectuals, Turkestan, national awakening, modern education, enlightenment*

GİRİŞ

XX əsrin əvvəllərində Türküstanda cədidçilik hərəkatının öncül nümayəndələrindən biri olmuş Mahmudxoca Behbudi (1875–1919) pedaqoq, jurnalist, naşir, dramaturq və ictimai xadim kimi fəaliyyət göstərmişdir. Behbudi , Türküstanda yeni üsullu məktəblərin yaradılması, dərsliklərin hazırlanması, nəşriyyat və teatrların təsis edilməsi işlərinə rəhbərlik etmişdir. O, "Səmərqənd" və "Ayna" ("Oyina») kimi qəzet və jurnallar nəşr edərək, dövrünün aktual məsələlərinə həsr olunmuş əsərlər və məqalələr yazınışdır. Mahmudxoca Behbudi, 1911-ci ildə özbək milli teatrının başlanğıcı üçün ilk pyesini yazaraq, Türküstan ziyalıları arasında böyük diqqət qazanmışdır. 1914-cü ildə "Turan" teatrında səhnələşdirilən "Pədərküş" ("Ata qatili") pyesi vasitəsilə ölkəmizdə teatr sənətinin əsasını qoymuşdur.

Onun publisistik məqalələri həm öz dövründə bədii təhlilə cəlb edilmiş və məqalələrində qaldırılan sosial problemlərə həll yolları təklif edilmişdir. Bundan əlavə, Mahmudxoca Behbudinin maarifpərvər, fədakar ictiınai xadim olduğu və söz istifadəsindəki bədii məharəti vurğulanmışdır.

Mahmudxoca Behbudi özbək ədəbiyyatının inkişafına böyük töhfələr vermişdir. Onun həyatı və fəaliyyəti haqqında müasir mənbələrdə, məsələn, «Cədidlər: Mahmudxoca Behbudi" adlı əsərdə geniş məlumat verilmişdir.

ƏSAS HİSSƏ

Cədidçilik hərəkatının əsas ideoloqlarından biri olmuş Mahmudxoca Behbudi, qeyd etdiyimiz kimi, Türküstanda maarifçilik, islahatçılıq və milli oyanışın təşəkkülündə mühüm rol oynamışdır. Onun bu hərəkatdakı rolu aşağıdakı əsas istiqamətlər üzrə dəyərləndirə bilərik:

İlk olaraq, Maarifçilik və yeni üsullu məktəblərin yaradılması – Mahmudxoca Behbudi, Cədidçilik hərəkatının əsas prinsiplərindən biri olan təhsilin yenilənməsi istiqamətində çalışmışdır. O, dini tədris üsullarına əsaslanan köhnə məktəbləri (mədrəsələri) tənqid edərək, dünyəvi elmlərin tədrisini əhatə edən yeni üsullu məktəblərin yaradılmasını təşviq etmişdir. 1903-cü ildə Səmərqənddə ilk belə məktəbi açmış, daha sonra Türküstanın müxtəlif bölgələrində bu cür mək-

təblərin yayılmasına dəstək vermişdir. Behbudi özü də dərsliklər yazmış və tədris metodlarının müasirləşdirilməsinə xüsusi diqqət yetirmişdir.

Bundan başqa, *milli mətbuatın inkişafı və ictimai fikir formalaşdırması* - Mahmudxoca Behbudi , Cədid hərəkatının əsas prinsiplərindən biri olan ictimai maarifləndirməni həyata keçirmək üçün mətbuatı əsas vasitə kimi görmüşdür. 1913-cü ildə «Oyina» jurnalını nəşr etməyə başlamış və bu jurnal vasitəsilə milli dil, mədəniyyət, qadın hüquqları, iqtisadi inkişaf və təhsil kimi mövzulara toxunmuşdur. O, həmçinin «Səmərqənd» qəzetini nəşr etdirmişdir. Bu nəşrlər vasitəsilə Cədid hərəkatının ideyaların yaymış və xalqı milli kimlik və mədəni yenilənmə yolunda səfərbər etməyə çalışmışdır.

Daha sonra, dramaturgiya və teatr hərəkatı – Mahmudxoca Behbudi, milli teatrın inkişafında da mühüm rol oynamışdır. 1911-ci ildə «Pədərküş» ("Ata qatili") adlı pyesini yazınış və bu əsər özbək teatrının inkişafında əsaslı dönüş nöqtəsi olmuşdur. Pyes, cəhalət və köhnə ənənələrin cəmiyyət üçün fəlakətli nəticələrini tənqid edirdi. Behbudi , teatrı xalqın maarifləndirilməsi və sosial problemlərin işıqlandırılması üçün vacib bir vasitə kimi görürdü.

Mahmudxoca Behbudi dövrünün ictimai-siyası xadimi olaraq, *Siyasi və sosial islahatçılıq sahəsində*ki xidmətlərini belə ümumiləşdirə bilərik: Mahmudxoca Behbudi, Cədidçilərin siyasi baxışlarını da inkişaf etdirərək, Türküstanın müstəqilliyə doğru addımlaması üçün müəyyən ideyalar irəli sürmüşdür. O, konstitusiyalı monarxiya modelinə meyilli idi və Osmanlıdakı islahatçı hərəkatlardan ilham alırdı. Behbudi , xalqın iqtisadi və siyasi hüquqlarını müdafiə edir, idarəçilik sistemində müasirləşməni və yerli ziyalıların dövlət işlərində iştirakını vacib hesab edirdi.

İslam modernizmi və dinin yenilənməsi sahəsinə gəldikdə isə, o, İslamın mütərəqqi inkişafını dəstəkləyir, dinin elmi tərəqqi və maarifçiliklə uyğunlaşdırılmasının vacibliyini vurğulayırdı. O, fanatizmi və dini xurafatı tənqid edərək, dinin xalqın tərəqqisinə mane olmaması üçün yenilənməli olduğunu bildirirdi.

Türküstanda cədidçilik hərəkatı ilə yanaşı Azərbaycanda maarifçilik hərəkatı geniş yayılmışdı. Bu kontekstdən yanaşanda Mahmudxoca Behbudinin elmi, maarifçilik, siyasi fəaliyyətini Azərbay-

canın görkəmli maarifçiləri, elm və mədəniyyət xadimləəri, mətbuat yaradıcıları olan Mirzə Fətəli Axundzadə (1812–1878), Həsən bəy Zərdabi (1837–1907), Cəlil Məmmədquluzadə (1869–1932) və Üzeyir bəy Hacıbəyli (1885–1948) kimi mütəfəkkirlərlə müqayisə etmək mümkündür.

*Mirzə Fətəli Axundzadə və Mahmudxoca Behbudi*nin ictimai və yaradıcılıq fəaliyyətlərini müqayisə etsək, Axundzadə kimi Behbudi də dini fanatizmə və xurafata qarşı çıxaraq, maarifin və elmin inkişafını cəmiyyətin tərəqqisi üçün əsas vasitə hesab edirdi. Mirzə Fətəli Axundzadə Azərbaycan dramaturgiyasının banisi olduğu kimi, Behbudi də özbək teatrının əsasını qoymuşdur. Onun «Pədərküş" ("Ata qatili") əsəri Axundzadənin «Molla İbrahimxəlil kimyagər» və «Hekayəti-Müsyo Jordan və Dərviş Məstəli şah» pyesləri ilə müəyyən bənzərlik təşkil edir. Hər iki yazıçı cəmiyyətin geriliyi və cahilliyi ilə mübarizə aparmışdır.

*Həsən bəy Zərdabi və Mahmudxoca Behbudi*nin mətbuat və maarifçilik görüşlərini müqayisə etsək, *Mahmudxoca* Behbudinin «Oyina» jurnalı və «Səmərqənd» qəzeti ilə Həsən bəy Zərdabinin «Əkinçi» qəzeti arasında oxşarlıq vardır. Hər ikisi xalqın maarifləmməsi üçün mətbuatı ən təsirli vasitə hesab edirdi. Həsən bəy Zərdabi və Mahmudxoca Behbudi cəmiyyətin əsas problemlərini elmin və təhsilin inkişafında görürdülər. Onlar təhsil islahatları təklif edərək, köhnə üsullu dini məktəbləri tənqid edirdilər.

*Cəlil Məmmədquluzadə və Mahmudxoca Behbudi*nin Tənqidi realizm və satira və teatr-maarifçilik baxışlarının müqayisəsində Behbudinin maarifçilik ideyaları Cəlil Məmmədquluzadənin «Molla Nəsrəddin» jurnalında təbliğ etdiyi prinsiplərlə üst-üstə düşür. Hər ikisi cəmiyyətin avamlığma və fanatizminə qarşı çıxmış, xalqı oyanışa çağırmışdır. Cəlil Məmmədquluzadənin «Ölülər» pyesində olduğu kimi, Behbudinin «Pədərküş» ("Ata qatili") əsərində də cəmiyyətin sosial problemləri dramatik şəkildə əks etdirilmişdir. Eləcə də M.Behbudinin teatr sahəsində fəaliyyəti Üzeyir Hacıbəylinin operettaları ilə müəyyən oxşarlıq təşkil edir. Məsələn, «Arşın mal alan» əsərində olduğu kimi, Behbudinin də pyesləri sosial problemlərə toxunur və xalqı maarifləndirməyi hədəfləyirdi. Ü.Hacıbəyli və M.Behbudi hər ikisi ana dilinin inkişafına böyük önəm vermiş, təhsil islahatlarını zəruri saymışdır.

Buradan aydın görünür ki, Mahmudxoca Behbudini Azərbaycan maarifçiləri ilə müqayisəsində onun Axundzadə ilə dramaturgiya, H.Zərdabi ilə mətbuat və təhsil islahatı, C.Məmmədquluzadə ilə tənqidi realizm və satira, Ü.Hacıbəyli ilə isə milli teatr və dil sahəsində ortaq cəhətlərə malik olduğu görünür. O, Azərbaycan maarifçiləri kimi milli oyanışın və müasir təhsil sisteminin qurulmasının vacibliyini vurğulamış, Şərq cəmiyyətlərinin tərəqqisi üçün çalışmışdır. Doğrudur, Mahmudxoca Behbudi ilə Azərbaycan maarifçiləri arasında ideya və fəaliyyət baxımından böyük oxşarlıqlar olsa da, onların biri digərindən birbaşa təsirləndiyini demək çətindir. Daha çox, bu maarifçi ziyalılar paralel olaraq, oxşar tarixi şəraitdə, oxşar problemlərə cavab olaraq, hər biri öz vətənində maarifçilik hərəkatını inkişaf etdirmişlər.

Tədqiqatlarımızın ümumiləşməsi kontekstindən yanaşanda, XIX əsrin sonları – XX əsrin əvvəllərində Rusiya imperiyasının tərkibində olan Türküstan və Cənubi Qafqaz bölgələrində sənayeləşmə və modernləşmə ehtiyacı, dini-mistik təhsilin cəmiyyəti geri saxlaması, milli kimliyin aydınlaşması və Rusiya hökumətinin assimilyasiya siyasəti kimi oxşar problemlər vardı.

Rus-Türk məktəblərinin açılması, Osmanlı və Avropa modernləşməsinin təsiri, yeni mətbuatın inkişafı, Qərb və Şərq maarifçilik ideyalarının yayılması hər iki bölgədə ziyalıları düşündürürdü. Bu baxımdan, Mahmudxoca Behbudi və Azərbaycan maarifçiləri, məsələn, Mirzə Fətəli Axundzadə, Həsən bəy Zərdabi, Cəlil Məmmədquluzadə və Üzeyir Hacıbəyli eyni dövrdə eyni problemlərə qarşı mübarizə aparırdılar.

M.Behbudi adlarını qeyd etdiyimiz bu mütəfəkkir Azərbaycan maarifçilərindən birbaşa təsirlənmişdimi? Bu barədə açıq mənbələrdə konkret sübutlar azdır. Lakin düşüncə və fəaliyyət oxşarlığı göstərir ki, onlar bir-birindən dolayısı ilə xəbərdar ola bilərdilər. Cəlil Məmmədquluzadənin «Molla Nəsrəddin» jurnalı (1906–1931) yalnız Azərbaycanda deyil, bütün Mərkəzi Asiyada oxunur.

NƏTİCƏ

Mahmudxoca Behbudi cədidçilik hərəkatının görkəmli nümayəndələrindən biri kimi yalnız Türküstanda deyil, ümumilikdə müsəlman dünyasında maarifçilik ideyalarının yayılmasına böyük töhfə vermişdir. Onun milli şüurun inkişafı, müasir təhsil sisteminin qurulması və ictimai islahatlarla bağlı baxışları Azərbaycan maarifçilərinin ideyaları ilə mühüm oxşarlıqlar təşkil edir. Hər iki cərəyanm nümayəndələri ümumi türkdilli xalqların tərəqqisini əsas məqsəd kimi görmüş və bu yolda ən vacib amil kimi maarifçiliyi vurğulamışlar. Behbudinin fəaliyyəti, onun yaratdığı yeni tipli məktəblər və təhsil sahəsindəki təşəbbüsləri, milli mədəniyyətin qorunması və inkişaf etdirilməsi istiqamətindəki səyləri yalnız öz dövrü üçün deyil, həm də müasir dövrdə aktual olaraq qalır. Onun ideyaları Azərbaycan və digər türk xalqlarının maarifçilik hərəkatı ilə sıx bağhdır və bu intelektual irs XX əsr boyunca, hətta bu gün də elmi və ictimai diskussiyalar üçün dəyərli mənbə olaraq qalır. Beləliklə, Behbudinin cədidçilik ideyalarının yalnız Türküstanla məhdudlaşmadığını, əksinə, geniş coğrafiyada – o cümlədən Azərbaycanda da əhəmiyyətli təsirə malik olduğunu görmək mümkündür. Bu tarixi və ideoloji bağlılıqlar Türk dünyasında maarifçilik hərəkatlarının ortaq dəyərlər üzərində qurulduğunu bir daha sübut edir.

ƏDƏBİYYAT:

axundzadə Mirzə Fətəli. Əsərləri [3 cilddə]. I cild / tərt. ed. və ön sözün müəl. N.Məmmədov. – B.: Şərq-Qərb, 2005. – 296 s.

Axundzadə Mirzə Fətəli. Əsərləri [3 cilddə]. II cild / tərt. ed. Həmid Məmmədzadə; ön sözün müəl. Yaşar Qarayev; red. Əziz Mirəhmədov. – B.: Şərq-Qərb, 2005. – 376 s.

Axundzadə Mirzə Fətəli. Əsərləri [3 cilddə]. III cild / tərt. edəni və ön sözün müəl. Həmid Məmmədzadə. – B.: Şərq-Qərb, 2005. – 296 s.

Aşırlı Akif. Azərbaycan mətbuat tarixi. I hissə. – Bakı, 2009

Behbudi M. irsinin milli ideanin təbiqidənin əhəmiyyəti . Daşkənd: 2014 - səh 10.

Behbudi Mahmudxoca. Gənclərə müraciət . Daşkənd: "Mənaviyat", 2022 - səh 9.

Camalov Kamal. Mollanəsrəddinçilərin maarifçilik ideyaları. – Bakı: Elm və təhsil, 2015.

Hacıbəyli Üzeyir. Seçilmiş əsərləri. İki cilddə. 1 cild. – Bakı, «Şərq-Qərb», 2005, 408 səh.

Hacıbəyli Üzeyir. Seçilmiş əsərləri: 2 cilddə. – Bakı: Şərq-Qərb, 2005.- C.II - 453 s.

Həbibbəyli İsa, Cəlil Məmmədquluzadə: Mühit və müasirləri. – Bakı, 1997;

Xayrullayev M. Ruhani ulduzlar . "Abdulla Qodiri ad.xalq irsi" nəşriyyati, 1999 - səh.357.

Kərimov Naim «Yeni ədəbiyyatın basisi» . kh-davron.uz .

Kərimov Naim. Mahmudxoca Behbudiy. – Daşkənd, 2010 – səh 22.

Kho'jao'g'li Temur «Muxtariyyət layihəsi» . jadid.uz .

Kosimov Beqali (1990). «Karvan rəhbəri» . Gənclik . № 1. Səhifə 64.

Kosimov Beqali. "Mahmudxoca Behbudiy". kh-davron.uz . Xurşid Davron Kitabxanası

Məmmədquluzadə Cəlil. Əsərləri: 4 cilddə. I cild. Nəsr, dram, satirik şeirlər, tərcümələr

Məmmədquluzadə Cəlil. Əsərləri: 4 cilddə. II cild. Felyeton və məqalələr

Məmmədquluzadə Cəlil. Əsərləri: 4 cilddə. III cild. Felyeton və məqalələr

Məmmədquluzadə Cəlil. Əsərləri: 4 cilddə. IV cild. Memuarlar, məqalələr, məktublar

Rüstəmov İ. Həsənbəy Zərdabi. – Bakı: 1969

Qasımov M. M.F.Axundov və XIX əsrin inqilabi-demokratik estetikası. Bakı: 1954, 150 s.

Qasımzadə F. M.F.Axundovun həyat və yaradıcılığı. Bakı: 1962, 150 s.

Sadıqov M. Axundov Mirzə Fətəli. Bakı: 1987, 200 s.

ISMOILBEK GASPIRALINING "DORUR ROHAT MUSULMONLARI" ASARIDA JAMIYAT IDEALI

Aziza SAFAROVA,
Termiz davlat universiteti Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti (O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ismoilbek Gaspiralining "Dorur rohat musulmonlari" asari asosida ilgari surilgan jamiyat ideali tahlil qilinadi. Muallif asarda ilm-fan, adolat, tenglik va taraqqiyotga asoslangan musulmon jamiyatini tasvirlaydi. Maqolada Gaspiralining ma'rifatchilik ruhidagi takliflari va ideal jamiyat qurish uchun ilgari surgan asosiy g'oyalari yoritiladi. Shuningdek, asardagi utopik unsurlar, zamonaviylik va an'anaviylik o'rtasidagi uyg'unlik ham tahlil etiladi. Maqola davomida "Dorur rohat musulmonlari"dagi jamiyat modeli o'z davri va bugungi kun uchun ahamiyatli jihatlar nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, ilm-fan, utopik asar, ideal jamiyat, texnika, ilmiy fantastika, utopiya nazariyasi, ijtimoiy muhit.

Abstract: This article analyzes the ideal of society put forward by Ismailbek Gaspirali in his work "The Muslims of Dorur Rohat". In the work, the author describes a Muslim society based on science, justice, equality, and progress. The article highlights Gaspirali's ideas of modernism, his proposals in the spirit of enlightenment, and the main conditions he put forward for building an ideal society. The utopian elements in the work, the harmony between modernity and tradition are also analyzed. The article examines the model of society in "The Muslims of Dorur Rohat" from the perspective of aspects that are significant for its time and today.

Keywords: modern literature, science, utopian work, ideal society, technology, science fiction, utopian theory, social environment

Jahon adabiyotida ilmiy fantastikaning yo'nalishlaridan biri bo'lgan utopiya (yun. "yo'q joy", "xayoliy joy") nazariyasi ingliz uyg'onish davri adabiyoti vakili **Tomas Mor** nomi bilan bog'liq. Uning eng mashhur utopik asarlari sifatida "Yangi Utopiya oroli haqida", "Utopiya" kabilar-

ni ko‘rsatish mumkin. Bu asarlarida muallif mavjud jamiyat to‘g‘risida o‘zining tanqidiy qarashlarini aks ettiradi. Tomas Mordan keyin utopiya mavzusida bir qator asarlar yaratildi. T. Kamponellaning “Quyosh shahri”, F. Bekonning “Yangi Atlantida”, Garingtonning “Okean”, E. Kabening “Ikariyaga sayohat” asarlari shular jumlasidandir. [Hamdamov.119] Turkiy adabiyotda utopik yo‘nalishda yaratilgan asarlar soni juda kam. Utopik asar sifatida jadid adabiyotining namoyandasi, millat oydini Ismoilbek Gaspiralining “Dorur rohat musulmonlari” risolasini aytishimiz mumkin. Ushbu asar XIX asr oxirida (1889-yil) yaratilgan bo‘lishiga qaramay, nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kundagi jamiyatning nuqsonlariga ham ko‘zgu tutib kelmoqda.

Ushbu maqolada risola syujetini shunchaki hikoya qilishdan chekingan holda, kerakli, diqqatga sazovor nuqtalarga e’tibor qaratamiz. Avvalo, asar janrini belgilab olish lozim. Muallif asarini “fantastik-ro‘mon” janrida yaratilganini ta’kidlaydi. Demak, unda bir necha fantastik hamda ilmiy fantastik unsurlarni uchratishimiz mumkin. Bilamizki, ilmiy fantastika adabiyot janrlaridan biri bo‘lib, unda ilm-fan taraqqiyoti ko‘zga tashlanadi. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov ilmiy fantastikani an’anaviy fantastikadan quyidagicha farqlaydi: “An’anaviy fantastikadan farqli o‘laroq, ilmiy fantastika real voqelikni tasvirlaydi, faqat bu voqelik ilm-fan va texnika taraqqiyoti natijasi o‘laroq, muayyan darajada o‘zgargan, undagi fantastika g‘ayritabiiy yo ilohiy kuchlar emas, balki inson tafakkur kuchi tufayli voqe bo‘ladi”. [Quronov.341]

“Dorur rohat musulmonlari” risolasida turli ijtimoiy muammolarning yechimini ko‘rsatish uchun idealogik jamiyat tasvirlangan, ideal jamiyat qurish uchun esa quyidagi fan-texnika yutuqlaridan foydalanilgan: elektr chiroqlar, batareykali fonar, aqlli eshik (o‘zi ochilib-yopiladigan avtomatlashgan eshik), elektr poyezdlar, telefon, inkubator, kamera va boshqalar. Sanalgan texnika vositalarining ayrimlari XX asr Turkiston diyori uchun hali noma’lum edi. Ismoilbek Gaspirali bu texnikalarni asariga kiritish orqali ko‘pgina Yevropa mamlakatlarining rivojlanish negizi ilm-fan yutuqlariga borib taqalishini ko‘rsatishdan iboratdir. Shu o‘rinda uyg‘onish adabiyoti vakillaridan bo‘lgan Munavvarqori Abdurashidxonovning jumlalarini yodga olish maqsadga muvofiq: “Ovro‘pa xalqi osmonda uchar ekan, bizda soch-soqol nizolari, ovro‘paliklar dengiz ostida suzar ekan, bizda uzun va kalta

kiyim mojarolari, ovro'pa shaharlari bugun elektr bilan yoritilur ekan, bizning maktablarda tibbiyot va jo'g'rofiyani o'qitish, o'qitmaslik ixtiloflari..." Darhaqiqat, Turkistonda XIX asr oxiri, XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-madaniy ahvol anchayin og'ir kechdi. Aynan jadidchilik davrida Turkistonda jadid va qadim masalalari, badiiy asarlardan ijtimoiylik izlash, noo'rin tanqid qilish, yangilikka qarshilik avj olgan edi. Bunday vaziyatda xalqni haqiqat, ilm-fan va yangi hayot bilan yuzlashtirish uchun jadidlar o'z faoliyatini boshladi. Ismoilbek Gaspirali ham "Dorur rohat musulmonlari"da ideal jamiyat vositasida mavjud jamiyatni yaxshi tomonga o'zgarishga chorladi. Asar haqida german olimasi Ingeborg Baldaufning "Zamon va makonga sayohatlar: jadidchilik utopiyasi haqida o'ylar" nomli maqolasida shunday fikrlarni aytib o'tadi: "Dorur rohat – rohat mamlakati. Bu aynan adabiy utopiyaning klassik kirish qismidir. Utopik ideal yurt, jo'g'rofiy xaritadan tashqarida, ajralgan, deyarli barchaga noma'lum makonda joylashgan. Qahramon o'z ixtiyoridan tashqari u yerga tushib qoladi. Bu kema halokati tufayli qahramonning noma'lum xayoliy orolga tushib qolishiga o'xshaydi". Shuningdek, asar nomiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mazmun – g'oya deyarli anglashiladi. Dorur rohat zulmdan ozod bo'lgan rohat uyi, maskani demakdir. U o'zida 40 dan ortiq qishloq va bitta poytaxtni (Dorus saodatni) jamlagan.

Asar syujetini birlashtirib turuvchi bosh qahramon Toshkentlik Mulla Abbos afandi bo'lib, asar uning Fransiyadan keyingi Andaluziya (hozirgi Ispaniya)ga sayohati davomida boshidan kechirgan sarguzashtlariga asoslanadi. Syujet tush asosiga tayanadi, ya'ni voqealar tush motivi orqali jamlanadi. "Tush ham utopiyaning sevimli adabiy libosidir".[Jo'raqulov.114] U Ispaniyaning G'arnata shahrida joylashgan tarixiy maskan Al-Hamroni ziyorat etish chog'ida Parijda uchratgan Shayx Jalol hamda 12 ta qizga yo'liqadi va Dorur rohat shahriga birgalikda safar qiladi. Mulla Abbos Dorur rohat shahriga tashrif buyurgach, duch kelgan har bir holatni o'z shahridagi mavjud vaziyat bilan qiyoslab boradi. Qahramon birinchi bo'lib Dorur rohat shahri tarixini o'rganadi. Shahar tarixi haqida batafsil 12 qizlardan biri bo'lgan Farida bonu gapirib beradi. Mulla Abbosni ilk hayratga solgan holat shahar maydoni va aholi soni edi. Maydon hajmi asarda bo'yi – 3 soat, eni – 2 soatli yo'l sifatida ko'rsatiladi. Mulla Abbosning hayratlanish sababi, shunday kichik hududda ham juda

ko‘p aholi (300 mingga yaqin) hech bir adovat va urushlarsiz tinch-totuv yashab kelayotgani edi. Negaki, u istiqomat qilayotgan yurtning hududi qancha katta bo‘lmasin siyosiy kelishmovchilik, ijtimoiy ziddiyatlar o‘z cho‘qqisiga chiqqandi. Bu singari tafovutlarni risoladagi ideal jamiyat va haqiqiy hayotdagi mavjud jamiyat o‘rtasida ko‘plab uchratish mumkin. Ulardan ayrimlariga diqqatimizni qaratsak:

1.Ta’lim: Sir emaski, milliy uyg‘onish davrida ta’lim, ilm-fan dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Asarda ta’lim sohasi bilan bog‘liq yangicha qarashlarni ko‘ramiz. Dorur rohat maskanida maktabda ta’lim olish 8–12 yosh etib belgilangan bo‘lib, erkak va ayollar alohida o‘qitilar edi. Tahsilning 4 yili asosiy ilmga qaratilgani, 4 yildan so‘ng qo‘shimcha oila, mehnat, hunarga ham tayyorlab borilgani aytiladi. Shuningdek, diniy ta’lim bilan birga dunyoviy ta’limning teng o‘qitilishi, xorijiy tillarni hamda musiqani o‘rganish shahar ravnaqiga hissa qo‘shayotgani ko‘rsatiladi.

Endi Mulla Abbos yashayotgan jamiyatda ilmga e’tibor qay darajada edi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu jamiyatda madrasa ta’limi asosiy o‘rinda turishi, musiqa va dunyoviy ilmdan yiroqlik, qizlarning ta’lim olishiga cheklovlarni ko‘ramiz. Bu taqqoslashni real hayotga – XIX–XX asr Turkiston hayotiga ko‘chiramiz. Rostan ham o‘sha davr ta’limi Mulla Abbos yashayotgan (badiiy bo‘lsa-da) jamiyat ta’limi bilan deyarli bir xil. Shu sababdan muallif mamlakatimiz rivojlanishdan anchayin ortda qolganini tushuntirishga urinadi va “davlatning boyligi millatning boyligidan keladi, millatning boyligi esa odilona idora qilish ila hunar, sanoat va ilmdandir” [Gaspirali. 206], deya ta’kidlaydi.

2. Matbuot: Jadid adabiyotining asosiy qurollaridan biri matbuotdir. Ismoilbek Gaspirali ham noshirlik ishlari bilan shug‘ullangan. Jumladan, “Tarjimon” gazetasining asoschisi bo‘lgan. “Turkistonda XIX asrning oxirlaridan ko‘zga tashlangan yangilanish harakatlari ko‘p jihatlari bilan shu nomga, uning tarjimon gazerasiga kelib bog‘lanadi. Va ushbu davrdan e’tiboran XX asrning 20-yillariga qadar faoliyat ko‘rsatgan biror turkistonli ziyoli yo‘qki, bu nomni chetlab o‘tgan bo‘lsin”. [Qosimov.146] Muallif asarida ham matbuotni asosiy vosita sifatida namoyon etadi va asariga “Istiqbol” gazetasini kiritadi. Unda shaharning asosiy yangiliklaridan tashqari dunyodagi yangiliklar ham o‘z aksini topar edi. Real jamiyatga ham nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘sha muhitda axborot

almashinuv vositasi matbuot bo‘lgan. Ko‘pgina yangiliklar, asarlar, xabarlar hamda voqealar xalqqa matbuot orqali yetib borgan.

3. Xotin-qizlar, oila va nikoh masalalari: Ismoilbek Gaspirali asarida taxayyul mahsuli bo‘lsa-da, ideal jamiyatni yoritish davomida xotin-qizlarning mehnat faoliyati, oila va nikoh masalalariga ham qisman to‘xtalib o‘tadi. Dorur rohat shahrida Mulla Abbos xotin-qizlarni ham ko‘rganini aytadi va o‘z shahridagi xotin-qizlar faoliyati bilan qiyoslaydi. Nega xotin-qizlarning qozilik qilayotganini Shayx Jaloldan so‘raganida, ayollar bilan bog‘liq masalalar, albatta, ayollar yordamida hal etiladi, degan javobni oladi. Ammo Mulla Abbos yurtida ayollarning mehnat qilishi, davlat lavozimlarida faoliyat yuritishi qoralanardi. Shuningdek, ayollarning vazifasi faqatgina bola tarbiyasi va oila bo‘lishi kerak, deya tushunilardi.

Dorur rohatda oila qurish uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tilishi, erkakning ham, ayolning ham oila qurishga ma’nan tayyorligi va yosh qizlarni o‘zidan katta, qari insonga turmushga uzatilmasligi haqida ham so‘z boradi. Lekin real Turkiston hayotiga qaraydigan bo‘lsak, nikoh masalalarida turli kamchiliklarni ko‘rish mumkin. Bu kamchiliklar esa ko‘pgina jadidlar tomonidan yaratilgan asarlarda ham tahlil va tanqid etiladi (Cho‘lpon: “Kecha va kunduz” romani, “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi). Ismoilbek Gaspirali bu qiyoslash orqali “muhabbat zo‘ravonlik bilan bo‘lmas”[Gaspirali.277]ligini tushuntirishga intiladi.

4. Jinoyat va turli gunohlar: Turkistonda ilmsizlik tufayli jinoyatchilik, o‘g‘rilik, turli gunohlar avj olgan edi. Bu haqida Behbudiy shunday fikrlarini bildirib o‘tgan: “Bizlarni xonavayron qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdur. Faqirlik, darbadarlik, xorliklarning hammasi ilmsizlikning mevasi erur”. Ushbu fikrlarini Behbudiy “Padarkush” dramasini yaratish bilan isbotlab bergan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ismoilbek Gaspirali asaridagi ideal jamiyatda jinoyat va gunohlarni qanday aks ettirgan? Dorur rohatda hatto qachon jinoyat sodir bo‘lgani ham eslanmaydi. 4 yil ichida o‘lkada yagona jinoyat sodir bo‘lgan, u ham bo‘lsa, yarim dinor pulga xiyonat qilish edi. To‘g‘ri, bu holat aqlga sig‘ishi mumkin emasdir, ammo bunda muallifning ko‘zlagan boshqa maqsadi bor. Bu esa ilm, tarbiya, ayollar ta’limi, din rivojlangan mamlakatda jinoyatlar bo‘lmasligiga ishora qilishdir.

Ismoilbek Gaspirali “Dorur rohat musulmonlari” asarida ilgari sur-

gan jamiyat ideali – ilm-fan va ma'rifat asosiga qurilgan, o'z milliy qadriyatlariga sodiq, zamonaviy taraqqiyot bilan hamqadam bir ummat orzusidir. Asarda ta'lim taraqqiyoti eng ustuvor qadriyat sifatida talqin qilinadi. Gaspirali nazarida haqiqiy rohat va saodat sari yetaklaydigan kuch – zamon talablari asosida tashkil etilgan, har bir shaxsning aql-zakovatini rivojlantiruvchi yangicha maktab va madrasalar edi. Shu bois u jadidchilik harakatining asosiy shiori bo'lgan "Til birligi, fikr birligi, ish birligi" tamoyillariga tayanib, butun turkiy dunyo uchun umumiy ma'rifat yo'lini ko'rsatdi. Asarda matbuotning ahamiyati ham alohida ta'kidlanadi. "Dorur rohat musulmonlari"dagi jamiyat modeli ilmiy va madaniy fikr almashinuvi vositasi sifatida matbuot erkinligini ham o'z ichiga oladi. Gaspirali uchun gazeta va jurnallar – xalqni uyg'otish, ularni yangilanish sari yetaklovchi qudratli vosita edi. U har bir millat farzandi savodxon bo'lishi, dunyo yangiliklaridan boxabar holda yashashi lozimligini ta'kidladi. Bundan tashqari, Gaspirali ideal jamiyatni tasvirlar ekan, milliy ruhni saqlab qolishga alohida e'tibor qaratadi. Uningcha, o'zligidan voz kechmasdan, lekin taraqqiy etgan xalqlar safida bor bo'lish uchun ma'rifat va ta'limni milliy madaniyat, tarix va til negizida qurish zarur edi. Bu g'oya jadidchilik harakatining asosiy maqsadlariga hamohang ravishda, o'zbek, tatar va boshqa musulmon xalqlari uyg'onish harakatlariga kuch va ilhom bag'ishladi. "Dorur rohat musulmonlari" asarida Ismoilbek Gaspirali ilgari surgan jamiyat ideali – bu o'z milliyligini asrab, dunyoviy bilim va ma'rifat bilan qurollangan, tafakkuri yangilangan, ozod va taraqqiyparvar bir jamiyatdir. Bu orzu, ayni chog'da, jadidlar avlodining ta'lim, ma'rifat, matbuot va milliy uyg'onish sari tutgan yo'lining ramzi sifatida ham dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdamov U. va Qosimov A. Jahon adabiyoti. Toshkent, 2017.
2. Ismoilbek Gaspirali. Tanlangan asarlar. Toshkent: "Ma'naviyat", 2006.
3. Jo'raqulov U. "So'nggi jadid" qissasi. Toshkent, 2012.
4. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent: "Ma'naviyat", 2004.
5. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: "Akademnashr", 2010.

III SHO‘BA

ADABIY TANQID VA JADID ADABIYOTI

DAVR VA JADID ADABIYOTI

Qozoqboy YO'LDOSH,
pedagogika fanlari doktori,
professor.
(O'zbekiston)

Milliy tafakkurda yuz bergan yangilanishlar o'zbek adabiyoti tarixini tamomila qayta idrok etish va uni ijtimoiy ong hamda adabiyotshunoslik ilmining bugungi yutuqlari darajasiga muvofiq baholash zaruratini taqozo etadi. Davr bilan adabiyotning munosabatlarini aniqlash, masalani "davrning adabiyoti" shaklida yoxud "adabiyotning davri" tarzida qo'ygan to'g'rimi qabilidagi savollarga aniq javob berish zarurati paydo bo'ldi. Shuningdek, bir davrdagi milliy adabiyotning boshqa davrdagi adabiyotdan yoki adabiyotning bir davrining boshqasidan farqini to'g'ri tayin etish singari g'oyat muhim va ayni vaqtda, o'ta mushkul masalani hal etish ehtiyoji tug'ildi.

Bashar ahli asli bir o'lchamli mangu hodisa bo'lmish zamonni uch o'lcham, ya'ni o'tmish, hozir va kelajakdan iborat deb hisoblasa-da, uning na boshi va na oxiri bor uzluksiz hodisa ekanligi tobora teranroq anglab yetilmoqda. Odam abadiy va o'zgarmas zamonning o'zi davr deb atab olgan o'tkinchi bir bo'laginigina muayyan darajada idrok eta olishi mumkinligiga iqror bo'ldi. Inson o'z umrini zamon bilan solishtira olmasligini, faqat davr bilan bir qadar bo'ylashish imkoniga egaligini chuqurroq anglab yetdi.

Umuman, kechgan va kechayotgan har qanday jarayonni **davrlashtirish** deyilganda tabiat va jamiyatda sodir bo'lgan o'sish-rivojlanish yoki tanazzul kechimining muayyan zamoniy oraliqlarda bir-biridan sifat jihatidan farq qiladigan xususiyatlarga ega bo'lgan turli bosqichlarga bo'linishi anglashiladi. Shu ma'noda o'zbek adabiyoti qanday bosqichlarni bosib o'tganini ilmiy jihatdan asosli ravishda ko'rsatib berish katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Badiiy adabiyot nisbiy tushuncha bo'lmish davrga xos belgilarning tabiat, jamiyat va odamda namoyon bo'ladigan o'tkinchi jihatlarni mangulikka muhrlashni ko'zda tutadigan san'at turidir. Shu bois hamisha ham adabiyotni muayyan davrlarga ajratish, ularni

nomlash, taraqqiyotidagi bosqichlarni tayin etish zaruriyati turadi. Ayonki, adabiy davrlarning chegaralari omonat, ularda ayrichalikdan ko'ra o'xshashlik belgilari ko'proq bo'ladi. Ayni vaqtda barcha ijtimoiy hodisalar singari adabiyot ham o'z tarixining turli bosqichlarida turlicha sifat-xususiyatlarga ega bo'ladigan hodisadir. Shu ma'noda, hozirgi o'zbek adabiyotining ildizi, paydo bo'lgan vaqti, asosiy belgilari va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash millat ilmiy tafakkuri uchun o'ta muhim yumush hisoblanadi.

Barcha ijtimoiy hodisalarga sotsiologik yondashuv hukmronligi sabab sovet adabiyottanuv ilmida doim badiiy adabiyotga davrning adabiyoti tarzida yondashuv ustuvorlik qilgan. Negaki, sho'ro davrida badiiy adabiyotga mafkuraviy ustqurma debgina qaralgani uchun uni, albatta, davrdning mahsuli bo'lgan, unga xizmat qiladigan va o'zida unga xos jihatlarni aks ettiradigan hodisa, deb hisoblanar edi. Shunga ko'ra, badiiy adabiyotga tarixiy davr va ijtimoiy hayotning estetik in'ikosi sifatidagina qaralardi.

Aslida davr, ijtimoiy hayot, siyosiy tuzum, tarix va badiiy adabiyotning munosabatlari anchagina murakkab o'ziga xoslikka ega bo'lgan hodisalardir. To'g'ri, adabiyot muayyan davrda yuzaga keladi, o'sha davrdagi odamlar tomonidan yaratilib, ularning o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. O'z tarixi davomida turli o'zgarishlarga uchraydi, o'sib-rivojlanadi yoki tanazzulga yo'liqadi. Lekin bu hol uning davrga fatal ravishda bog'lanib qolmagan mustaqil badiiy-estetik hodisa ekanini inkor etmaydi. Zero, adabiyot biror-bir davr va undagi odamlarni shunchaki aks ettirish bilangina cheklanib qolmay, o'sha davrning odamlarida muayyan ruhiy-intellektual xususiyatlarni shakllantiradi ham. Shu ma'noda badiiy adabiyotga qanchalik muayyan davrning mahsuli deb qarash mumkin bo'lsa, davrga ham muayyan adabiyotning ta'siri borligini ko'zda tutish kerak bo'ladi.

Agar ijtimoiy-tarixiy davr muayyan hodisalar yuz berguncha bo'lgan vaqt oralig'ini anglatadigan tushuncha bo'lsa, universal ma'nodagi davr muayyan etnosning tarixida uzluksiz zamoniy oraliqda yuz bergan hodisalar va o'sish-o'zgarishlar tizimini anglatadi. Bu kabi o'sish-o'zgarishlar shu zamoniy oraliqda yashab, faoliyat ko'rsatgan odamlarda va ular tufayli sodir bo'ladi. Muayyan davrda yashab faoliyat ko'rsatgan odamlarga xos yetakchi ma'naviy-hissiy

xususiyatlar esa ko‘pincha badiiy adabiyot namunalarida aks etadi. Jamiyatdagi o‘zgarishlar odamlar fikr-u tuyg‘ularidagi o‘zgarishlar tufayli, odamlarning fikr-u tuyg‘ularidagi o‘zgarishlar esa qaysidir darajada milliy adabiyotda aks etgan timsollar ta’sirida sodir etiladi.

Badiiy adabiyot jamiyatning ilg‘or a’zolari tafakkuridagi o‘zgarishlarni butun jamiyat ahlining tuyg‘u va tafakkuridagi o‘zgarishlarga aylantiradi, tuyg‘uga ko‘chgan tafakkurning qudrati shundaki, u o‘z tabiatiga ko‘ra, albatta, harakat energiyasiga aylanadi. Chunki tuyg‘ulangan tafakkur yoki boshqacha aytganda, emotsional intellekt hamisha harakatni taqozo etganidan amaliy faoliyatni keltirib chiqaradi. Binobarin, badiiy adabiyotning davrlari borasida so‘z yuritilar ekan, milliy adabiyot tarixining muayyan bosqichida u qanday sabab va omillar ta’sirida qanday xususiyatlarga ega bo‘lganini aniqlash kerakligi yodda tutilishi lozim.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyoti bosqichlarini aniq belgilash uchun milliy adabiyot o‘z tarixi davomida qanday tub o‘zgarishlarni boshidan kechirganini hisobga olish lozim. Negaki millat ahli hayotidagi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-e’tiqodiy tub o‘zgarishlar tabiiy ravishda etnosning tafakkur va tuyg‘ular tizimini yangilaydi. Badiiy adabiyot esa ana shu yangilanishlar natijasini konkret odamlar ruhiyat dunyosi va taqdiri misolida mangulikka muhrlashga urinadi. Tabiiyki, bu jarayonda adabiyotning obrazlar tizimi, ifoda vositalari, janrlari, til xususiyatlari yangilanadi. Zero, tafakkur va ma’naviy-e’tiqodiy xususiyatlari yangilangan odamlarga xos jihatlarni tasvirlash uchun adabiy arsenalni ham yangilash taqozo etiladi.

Ulug‘ turk olimi F. Ko‘pruluzoda o‘z fundamental tadqiqotlarida islomga e’tiqod qilgan turkiylarning hayotida uch buyuk yangilanish yuz berganidan kelib chiqib, bu xalqlar adabiyotini uch ulkan davrga bo‘lish kerakligini ko‘rsatib bergandi. Ulkan olimning ilmiy yondashuviga tayangan holda o‘zbek adabiyoti tarixini ham katta uch davrdan iborat ekanini qayd etish mumkin:

1. Islomgacha bo‘lgan davrdagi turkiy adabiyot.

2. Islom ta’siridagi turkiy (o‘zbek) adabiyot.

3. Yangi o‘zbek adabiyoti yoki jahoniy ta’sirlar davri o‘zbek adabiyoti tarzida tasniflash ilmiy mantiqqa muvofiq bo‘ladi.

Adabiyot jamiyat bilan birga mavjud bo‘lsa-da, uning ko‘tarilish

hamda tushish bosqichlari hamisha ham jamiyat taraqqiyoti pog‘onalariga mos tushavermaydi. Chunki badiiy adabiyot o‘z qonunlari asosida yashaydi. Adabiyot tarixini yuqoridagiday davrlashtirishda ma’lum darajada xalqning ijtimoiy tarixiga tayanilgan esa-da, asosan adabiyotning o‘z belgi-xususiyatlariga asoslanilgani ko‘rinadi.

Chunonchi, islomgacha bo‘lgan davrdagi adabiyotning obrazlar olami, mavzu va muammolar tizimi, tasvir vositalari, tili, eng muhimi, olam va odamni idrok etish va tasvirlash tamoyillariga ko‘ra tamomila o‘zgacha xususiyatlari bo‘lgan edi. Bu adabiyot umumturkiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida uzoq asrlar barcha turk etnoslarining o‘rtoq mulki edi. Afsuski, islomgacha bo‘lgan davrda yaratilgan adabiy yodgorliklar juda kam saqlanib qolgan. Hozircha, asosan O‘rxun-Enasoy toshbitiklari hamda og‘zaki ijod namunalari bilan kifoyalanishga to‘g‘ri keladi.

Garchi ushbu yodgorliklar ko‘proq tarixiy batalistik yo‘nalishdagi bitiklar bo‘lsa-da, ularni badiiyat nuqtai nazaridan tadqiq qilish mumkin va zarur. Chunki toshbitiklardagi jozibali va ta’sirchan ifoda tarzi muallifning badiiy iste’dodini yaqqol ko‘rsatib turibdiki, muayyan darajada olamni badiiy idrok etish hamda ifodalash tajribasiga ega bo‘lmagan odam bunday matn tuzishi mumkin emas.

Ayni vaqtda toshbitiklarda voqelikni islomiy yondashuvdan mutlaqo farq qiladigan, qaysidir ma’noda unga zid keladigan idrok etish tarzi yetakchilik qiladi. Ularda xoqon va lashkarboshilarning qahramonliklari ko‘rsatilar ekan, ularning tutumlariga ezgu ma’naviy asos topish ko‘zda tutilmaydi. Boshi borni ta’zim qildirgan, tizzasi borni cho‘kkalatgan, xoqoni borni xoqonsizlantirgan, davlati borni davlatsizlantirgan qahramonning tutumlariga ma’naviy-axloqiy munosabat bildirilmaydi.

Islom ta’siridagi adabiyotda adabiy an’analar, obrazlar, tasvir vositalari, badiiy til, va eng muhimi, olam va odamni ko‘rish va ko‘rsatish borasida tayaniladigan asoslar tubdan o‘zgardi. Islom ijtimoiy-siyosiy tafakkurnigina emas, balki axloq, badiiy did va adabiy-estetik qarashlar tizimini ham tamomila o‘zgartirdi. Olam va odam haqidagi tushunchalarga yangi mazmun berdi. Yaratganning bir-u borligiga ishonchni paydo qildi va mustahkamladi. Ayni paytda, insoniy tuyg‘ularni qardoshlik, birodarlik, o‘zaro xayrixohlik va komillikka intilish anglamlari bilan boyitdi.

She'riyat badiiy ijodning asosiy turiga aylandi. Vazn, ifoda vositalari, badiiy uslub Kunchiqish poetikasi deb atalgan va asosan fors, arab adabiyoti uchun xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'ldi. Olam hodisalariga islomiy yondashuv bu davr adabiyotining eng muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu davr adabiyotida an'analar mustahkamligi va sobitligi asosiy xususiyat sanalardi. Islom ta'siridagi adabiyotning obrazlar tizimi, janrlari, tili, tasvir maqsadi tamomila o'zgacha ko'rinish kasb etdi.

Bu davr adabiyoti nozik va murakkab poetik ramzlar asosiga qurilgan, lirikada gul, bulbul, oshiq, ma'shuqa, ag'yor, soqiy, may, mug'bacha; liro-epik asarlarda gul va bulbuldan tashqari shohlar, malikalar, pahlavonlar, avliyolar, donishmandlardan iborat obrazlar tizimiga ega, tili ilohiy tushunchalar ifodasi bo'lgan so'zlarga to'la adabiyot edi. Lirik qahramonlarning ham, liro-epik asar personajlarining ham asosiy maqsadi Alloh jamoliga etishmoqdan iborat bo'lardi. Janriy qoliplar o'ta mustahkam va har qanday badiiy kashfiyot mavjud adabiy an'analar ichida qilinishi talab etilardi. Olam hodisalari va odam tutumlariga faqat islomiy e'tiqod nuqtai nazaridan qaralar, qabul qilinar va ifoda etilardi. Tabiiyki, badiiy tasvirning ruhi, ifoda yo'sini va vositalari shu maqsadlarga moslashtirilgan edi. Bu davrda badiiy adabiyot yerdagi maishiy turmush tashvishalaridan uzoq bo'lib, ko'proq oxirat va oliy jamolga yetmoq muammolari tasviri bilan mashg'ul edi.

Adabiyotimiz tarixining ushbu bosqichida turkiy etnoslar taraqqiyotining umumiy o'rtoq jihatlari avj nuqtaga ko'tarildi va umumturkiy negizdagi uluslarning ayrimlari alohida millat tarzida shakllana boshladi. Bu hol ularning badiiy tili va o'ziga xos obrazlar tizimi, estetik ideali, adabiy tajribalarga munosabati singari jihatlarda namoyon bo'la boshladi. Turkiy etnoslarning alohida milliy qiyofa kasb eta borishi, ya'ni muayyan bir turkiy ulusning alohida etnik birlik sanalib, o'z maxsus adabiyotiga ega bo'lishi XV–XVI asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrgacha bo'lgan adabiyot, aslida, qayerda, kim tomonidan yaratilgan bo'lishidan qat'i nazar, yagona umumturkiy adabiyotdir. Shuning uchun ham bu davr adabiyotining egasini ko'rsatishda birgina "turkiy" atamasi yetarli sanaladi.

Garchi XVII asr boshlaridan e'tiboran Turkiston ijtimoiy-siyosiy tanazzul og'ushida qoldi, degan qarash yoyilgan bolsa-da, o'lka umu-

mochun taraqqiyotidan tamomila uzilib qolmagan edi. Aloqa vositalarining rivoji, odamlarning o'zga o'lkalar hayotini bilishga qiziqishi ortgani Turkistonning umumjahon ta'siridan chetda qolmasligini ta'minlardi. Lekin o'lkaning taraqqiyot darajasi davrning o'sish tezligidan juda ortda qolayotgan edi.

Turmush tarzini tubdan isloh qilmay turib, davr bilan teng yurish mumkin emasdi. Davr bilan teng yurolmaslik millatni tanazzulga mahkum etardi. Nobop ijtimoiy-siyosiy tuzum, ma'rifatsizlik, savdo-sotiqning quruqlikdagi karvon yo'li o'rniga suv va temiryo'l orqali amalga oshirilishi kabi omillar o'lka taraqqiyotining sustlashuviga sabab bo'ldi. Xonliklar iqtisodiy qoloqlik domiga tushdilar. Iqtisodiy rivojlanmagan mamlakatning esa, birinchi navbatda, ma'rifiy jihatdan, shuning oqibati o'laroq, harbiy sohada ham o'zgalardan ortda qolishi tabiiy edi. Millat ahlining jangariligi, dovyurakligi, harbiy salohiyatning yuksakligi tufayligina qudrat kasb etish mumkin bo'lgan davrlar o'tib ketgandi. Endilikda harbiy qudrat askarlarning shaxsiy fazilatlaridan ham ko'ra, yangi qurol-aslaha va zamonaviy urush texnikasiga egaligi bilan belgilanardi.

Ulug' maqsadning yo'qligi, oqibatsizlik, toro'ylik o'lka hukmdorlarini oyoqning tagidan narini ko'rolmaydigan holatga keltirib qo'ygandi. Shu holiga o'lkaning har bir hukmdori o'zini qudratli sanar va hamisha qo'shnilarga qanday yashashni o'rgatish da'vosida yurardi. Turkiston hukmdorlari o'rtasidagi bu kayfiyat atrofdagi bosqinchi mamlakatlarga juda qo'l keldi. Bosqinchilik mayli chegara bilmaganidan "dunyo jandarmi" nomini olgan chor Rossiyasi turkistonlik hukmdorlarning o'zaro kelishmasliklaridan ustalik bilan foydalandi. Bosqinchi siyosatchilar uch xonlikni bir-biriga gij-gijlab, yovlikni kuchaytirdi. Xonlar o'rtasidagi kelishmaslik o'ris bosqinchilariga ularni birma-bir bo'ysundirib olish imkonini berdi. Turkistonliklar yo zamonga muvofiq islohotlar o'tkazib o'zlikni saqlab qolish, yoki millat sifatida tamoman mahv bo'lishdan birini tanlash zarurati oldida qolgandi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran sekinlik bilan bo'lsa-da, Ovro'podan kirib kelayotgan texnik yangiliklar Rossiya bosiqini natijasida bir qadar tezlashganday bo'ldi. Bosqinchilar o'z hukmronligini mustahkamlash, mustamlaka o'lkaning boyliklarini ko'proq tashib

ketish uchun fan-texnikaning ayrim yutuqlarini Turkistonda ham joriy eta boshladi. Ayniqsa, XIX asrning yetmishinchi yillarida o'lkamizga kitob bosish, gazeta-jurnal chop etishning kirib kelishi dunyo ahli bilan axborot almashishni ancha osonlashtirib, turkistonliklarni jahon ahliga yaqinlashtirdi. Ibtidoiy ko'rinishda bo'lsa-da, Turkistonda sanoat korxonalarining paydo bo'lishi, xalq hayotiga texnikaning aralashuvi millat ijtimoiy tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ijtimoiy hayotning o'zgarishi, oddiy odamga boshiga tushgan qismatni kechirishi lozim bo'lgan yaratiq, deb qarashdan tarixning yaratuvchisi, hayotning harakatlantiruvchisi sifatida yondashish qaror topayotgani millat ijtimoiy tafakkuriga keskin ta'sir ko'rsatdi. Endilikda olamni islomiy ko'z bilan ko'rish va izohlash bilan birga o'zgacha qarash hamda e'tiqodlar ham bo'lishi mumkinligi anglab yetilgani millat fikrlash tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hol milliy ongdagi bir xillikni o'zgartirdi. Olam hodisalarini turlicha tushunish va tushuntirish mumkin ekani kishilarda fikr hurligiga intilishni uyg'otdi. Aloqalar, axborotlar umumiyligining yuzaga kelishi natijasida millat tafakkuriga tashqi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu hol ijtimoiy fikr taraqqiyotining obyektiv natijasi edi. Shu tariqa, Turkiston o'z tarixining yangi bosqichiga kirdi.

XIX asrning oltmishinchi yillaridan e'tiboran, o'zbek adabiyotida asrlar mobaynida amal qilib kelingan estetik an'analar buzila boshladi. Badiiy ijod endilikda Alloh bilan sirlashish, ruhiyat nozikliklarini aks ettirish, komil insonga xos sifatlarni ulug'lash, ma'shuqaning azoblaridan yozg'irishdangina iborat bo'lolmasligi anglab yetildi. Shu vaqtgacha ijodkorning Alloh bilan muloqoti mahsuli bo'lgan badiiy adabiyotning avom turmushiga yuz burishi uning tabiatida bir qator jiddiy sifat o'zgarishlari bo'lishini taqozo etardi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda sof maishiy mavzular, tirikchilik muammolari deyarli qalamga olinmasdi. Hayotning tashvishlariga muhabbat mavzusining biror qirrasi munosabati bilan ba'zan yo'l-yo'lakaygina tegib o'tilishi mumkin edi, xolos.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, adabiyot tirikchilik yumushlariga aralashib, ijtimoiy-siyosiy ta'sir ko'rsatish vositasiga ham aylana boshlagach, o'zbek adabiyotida ham publitsistik ruh uchqunlari paydo bo'ldi. Mavzu ko'lamining kengayishi asar qahramonla-

rini o‘zgartirdi. Endilikda yerdagi oddiy odamlar ham badiiy tasvir obyektiga olinadigan bo‘ldi. Qahramonlarning o‘zgarishi natijasida badiiy adabiyotga o‘zga ruh, bo‘lakcha muammo, boshqa hayot yo‘sini kirib keldi. Bu esa, o‘z navbatida, badiiy til va ifoda tarzida ham tub o‘zgarishlar bo‘lishini talab etdi. Mana shu belgilar ***yangi davrning yangi adabiyoti*** yuzaga kelganini ko‘rsatardi.

Agar o‘zbek mumtoz adabiyoti asosan **xoslarning ko‘nglini** poklashga uringan bo‘lsa, yangi o‘zbek adabiyoti **ommaning fikrini** uyg‘otishni maqsadga aylantirdi.

Millatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy-axloqiy islohotlar jarayonida o‘zini yangilab borishga urinishining estetik ifodasi o‘laroq, ham shakli, ham mazmuniga ko‘ra yangi adabiyot maydonga kela boshladi. Ijtimoiy ongning yangilanishi badiiy tafakkurning ham o‘zgarishiga olib keldi. Natijada, ijodkorlar orasida badiiyatga, san’at asarlariga «***lisoni g‘ayb***» yoxud «***ilohiy so‘z***» tarzida qarash bilan birga uni ijtimoiy dardni aytish vositasi deb tushunish ham qaror topa boshladi. Shu tariqa, san’at hodisalarini bo‘lakcha anglash, ta’sirlanish va tahlil qilish tajribasi yuzaga keldi. Kitob sanoatining paydo bo‘lishi, axborotlarni tez va keng miqyosda yoyish imkoniyatlarining kengaygani munosabati bilan badiiy adabiyot ta’sirchan ijodkorning ko‘ngil ishidan kuyunchak ziyolining ijtimoiy faoliyatiga aylana bordi.

Endilikda ijodkorlar avvalgi davrlardagi singari ilohiy go‘zallikni tarannum etishning o‘zi bilan kifoyalana olmay qoldilar. Ular badiiy so‘zning arshi a’losidan zaminga tushib, qora yerdagi adoqsiz muammolar haqida ham qalam sura boshladilar. Chunki fikri oydin kishilar yuksak rutbali odamning turmushi ham asl martabasiga yarasha bo‘lishi uchun harakat qilish lozimligini anglab yetgan edilar.

Yangi o‘zbek adabiyotining unchalar uzoq bo‘lmagan tarixini ham umumiy yo‘nalishi, mavzu qamrovi, timsollar tizimi, tasvir vositalari arsenali, janriy yangilanishlar, ifoda yo‘sini singari jihatlarga ko‘ra:

a) o‘zbek ma’rifatchilik adabiyoti;

b) o‘zbek jadid adabiyoti;

v) o‘zbek sovet adabiyoti;

g) o‘zbek egamanlik adabiyoti yo‘sinida bir necha bosqichga bo‘lish mumkin.

Bu davr adabiyoti turli ta'sirlarga ochiq bo'lgani uchun ham ko'plab yangi adabiy janrlar, yo'nalishlar, oqimlar yuzaga kelishiga imkon yaratildi. Drama, roman, ballada, xoyku, tanka, sonet singari adabiy janrlar; realizm, sosrealizm, modernizm, postmodernizm kabi ijodiy metod-u yo'nalishlar zamonaviy o'zbek adabiyotida bo'y ko'rsatdi. Jumladan, zamonaviy ma'nodagi adabiyottanuvchilik shu davrda yaratildi va faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Jadid adabiyoti va adabiyotshunosligining taraqqiyot tamoyillari

XX asr faqat o'zbek xalqi hayotida emas, balki butun bashariyat hayotida alg'ov-dalg'ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan davr bo'ldi. Bu asrga kelib, hayotiy jarayonlar tezligi haddan ziyod ortdi. Ijtimoiy bosqichlarning almashinish surati aqlga sig'mas darajada tezlashdi. Turkiston xalqlarining necha asrlar mobaynida davom etib kelayotgan bir maromdagi mudroq hayoti shu asr boshida ag'darto'ntar bo'lib ketdi. Fikrdagi yangilanish, texnika yutuqlarining kirib kelishi, axborot almashishning tezlashgani turkistonliklarning hayot tarzlarini o'zgartirib yubordi. Shu vaqtga qadar milliy adabiyotimiz milliy hayotimiz bilan yelkama-yelka bormas edi. Garchi, adabiyotimiz hayotdan tamomila ajralib qolmagan bo'lsa-da, ijtimoiy turmushning muammolari uni to'la chulg'ab olmasdi.

Rossiya bosqini, uning zo'ravonlikka asoslangan mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarining usiz ham og'ir bo'lgan hayotini yanada qiyinlashtirdi. Ijtimoiy adolatsizlik, huquqiy tengsizlik tufayli kecha-yu kunduz tinim bilmay ishlagan yurt egalari tobora qashshoqlashib, ularni talash va aldash bilan shug'ullangan bosqinchilar boyib bormoqda edi. Qashshoqlik tufayli esa turkistonliklarda g'ursizlik, johillik, tobelik, loqaydlik singari illatlar shakllanmoqda ediki, bu hol o'z millatining o'tmishidan xabardor va kelajagidan umidi bor ijodkor oydinlarni bezovta qilmasligi mumkin emasdi. XIX asrning adog'i, XX asrning boshlarida birgina Turkistonda emas, balki dunyodagi juda ko'p mustamlakalarda milliy uyg'onish jarayoni boshlangan edi.

Ijtimoiy adolatsizlikni yo'qotmoqchi, nohaq tartiblarni o'zgartirmoqchi bo'lgan fikr kishilari millatning nochor holati va og'ir tur-

mush tarzini o‘zgartirish uchun dastlab xalqqa bilim berish kerak deb hisobladilar. Millatni g‘aflatdan uyg‘otmay, xalqning ruhida taraqqiyotga mayl paydo qilmay turib, biror natijaga erishib bo‘lmasligi tushunib yetildi. Millatga ma’rifat berish sifat jihatidan ham, sur’at jihatidan ham tamomila boshqacha tashkil etilishi lozimligi ayon bo‘ldi. Faqat ruhga ta’sir etadigan, axloqni takomillashtiradigan bilimlar bilan kifoyalanib bo‘lmasligi, fan-texnika asoslarini o‘rganish zarurligi anglab yetildi. Buning uchun yangi o‘qitish usullari joriy etilishi kerak edi. Shu tariqa, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran shakllana boshlagan **ma’rifatchilik** qarashlari XX asr boshlariga kelib **jadidchilik** harakatining yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. Arabcha «**yangi**» ma’nosidagi «jadid» so‘zi taraqqiyotga intilgan kishini anglatadigan bo‘ldi.

Faqat ruhga ta’sir etadigan, axloqni takomillashtiradigan bilimlar bilan kifoyalanib bo‘lmasligi anglab yetilgani uchun yangi o‘qitish usullari joriy etilishi kerak edi. Shu tariqa, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran shakllana boshlagan **ma’rifatchilik** qarashlari XX asr boshlariga kelib **jadidchilik** harakatining yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. ***Ma’rifatchilar adabiyotni jaholatga qarshi kurash vositasiga aylantirgan bo‘lsalar, jadidlar badiiy adabiyotni xalqni g‘aflat va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirishga urindilar.***

Aytish kerakki, ma’rifatchilik bilan jadidchilik faqat yuzaga kelgan vaqt nuqtai nazaridangina emas, balki o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari jihatidan ham turli hodisalar edi. Chunonchi, ma’rifatchilar mavjud holatni o‘zgartirishni emas, balki uni isloh qilishni, xalqning ma’rifiy saviyasini ko‘tarishni maqsad qilgan edilar. Jadidlar uchun ommani ma’rifatli qilish bosh maqsad yo‘lidagi bir bosqich edi, xolos. Maqsad esa vatanni obod, millatni ozod qilish va Turkistonning avvalgi shuhratini tiklashdan iborat edi. Ishni XIX asrning 90-yillarida yangi usul maktablari tashkil qilishdan boshlagan jadidlar ko‘p o‘tmay, Turkistonda hur, demokratik mustaqil davlat tuzishni rejalashtirdilar. 1917-yilda Turkiston muxtoriyatining bunyod etilishi shu rejaning amalga oshirilishi yo‘lidagi jiddiy urinish edi.

XX asr boshiga kelib, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, xalqaro aloqalarning takomillashuvi millatning ma’rifatli va-

killariga o‘z xalqi hayotini dunyodagi mutaraqqiy xalqlar turmushi bilan solishtirish imkonini berdi. Rossiyada 1905-yil oktabrdagi so‘z va matbuot erkinligi haqidagi Manifestning qabul etilishi natijasida o‘zbek matbuotining rivojlanishiga ham bir qadar imkon yaratildi. Agar o‘zbek tilidagi birinchi va yolg‘iz gazeta 1870-yildan chop etilayotgan «Turkiston viloyatining gazeti» bo‘lsa, 1905-yildan so‘ng vaqtli matbuot soni ko‘paydi. 1905–1917-yillar orasida o‘lkada 22 gazeta, 8 jurnal o‘zbek tilida chiqardi. Bu hol millat ahlining tafakkur tarziga jiddiy ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Kundalik matbuot o‘zbek adabiyotidagi yangilanishlar ko‘lamining kengayishiga sabab bo‘ldi. Kitobning sanoat yo‘li bilan chop etilishi ham millat ijtimoiy-estetik tafakkuri rivojlanishining kuchli omili bo‘ldi.

Jadid adabiyoti to‘lig‘icha millatni uyg‘otishga qaratilgan edi. Bu adabiyotning qahramoni avvalgi davrdagiday yuqori tabaqa vakillari yoki ilohiy qudrat bilan nurlantirilgan siymolar emas, balki ommaning ichidan chiqqan, unga qaytib boradigan va shu bois xalqqa ta’sir ko‘rsatish imkoniyati kattaroq bo‘lgan oddiy kishilar edi. Jadid adiblari yangi mavzularni yangi janrlarda va yangi obrazlar orqali ifodalashga urindilar. Jadid shoir-yozuvchilar shunchaki ijodkor emas, balki, birinchi navbatda, faol jamoatchi edilar. Ular faqat qalami bilan emas, balki ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy tutumlari bilan ham millatni uyg‘otishga jahd qilgandilar. Agar ma’rifatchilar ko‘p asrlik milliy adabiyotga ***yangi mavzu va yangi obrazlar*** olib kirgan bo‘lsa, jadidlar o‘zbek adabiyotiga drama, roman, hikoya singari ***yangi janrlar***ni ham kiritdilar.

M.Behbudiyning «Padarkush», A. Avloniyning «Advokatlik osonmi», «Pinak», «Biz va siz», «Ikki sevgi», Fitratning «Munozara», «Hind sayyohi», «Oila», «Yurt qayg‘isi», «Abulfayzxon», «Shaytonning tangriga isyoni», «Qiyomat», Hamzaning «Uyg‘on, Vatan!», «Yig‘la, Turkiston», «Dardiga darmon istamas», «Turkiston», «Shundoq qolurmu», «Yangi saodat...», «Zaharli hayot...», «Boy ila xizmatchi», «Maysaraning ishi», «Paranji sirlaridan bir lavha», «Istibdod qurbonlari», «Loshmon fojiasi», «Farg‘ona fojiasi», Qodiriyning «Uloqda», «Tinch ish», «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo‘lat tajang nima deydi», «O‘tkan kunlar», «Mehrobdan chayon», Cho‘lponning «Buzilgan o‘lkaga», «Xalq», «Ko‘ngil», «Binafsha»,

«Go'zal Farg'ona», «Go'zal», «Vahm», «Istash», «Galdir», «Bahorni sog'indim», «Sirlardan», «Yorqinoy», «Kecha va kunduz» singari va boshqa ko'plab asarlar jadid adabiyotining yetuk namunalaridandir.

Jadid adiblarining asarlarida insoniy taqdirlar, qismat fojialari millat ozodligi, inson erki, Vatan buyukligi muammolari fonida aks ettirildi. Jadid adabiyotida inson qismati millat hamda vatan masalalaridan ayri tasvir qilinmadi. Unda tarixiy adolat, siyosiy tenglik, shaxs va millat erki, xalqni g'aflatdan uyg'otish singari o'tkir ijtimoiy muammolar tasvirlandi. Jadidlarning vatan, millat, ozodlik yo'lida jon fido etishga chorlab bitilgan olovli asarlari samimiy, ammo yuksak darajada ijtimoiylashgan shaxslarning nidolari edi. Bunday asarlarda millatning ulkan dardi ma'rifatli insonning shaxsiy fojiasi bilan birgalikda ifoda etilardi. Tuyg'ular samimiyati, iztirob ko'lamining kengligi ruhiy dardlar teranligini oshirib, umumning dardi alohida shaxsning g'ami, iztirobi darajasiga ko'tarilardi. Odatda, ko'pchilikning iztiroblari alohida shaxslarning dardlaridan baland turadi, deb hisoblaniladi. Holbuki, dard xususiylashsagina umuminsoniy miqyos kasb etadi. Jadidlar alohida bir shaxs taqdiri tasviri orqali ijtimoiy tuzumga doir holatlarni tasvirlay bildilar.

Jadid adabiyoti faqat mavzu jihatidan emas, balki ifodasiga ko'ra ham ommaga yaqinlashtirildi. Bu yo'nalishga mansub asarlarda tasvir injaligi, ifodaning yangiligidan ko'ra, zalvorli va keskin fikr aytishga e'tibor kuchaydi. She'riyat aruzga xos ohangdorlikdan chekinib, barmoqqa xos ochiqlikka erishdi. Kuylanishdan da'vatga aylandi.

Aytish kerakki, sho'rolar davrida o'zbek adabiyotining mohiyati tubdan o'zgardi. Lekin bu birdaniga sodir bo'lmadi. 1917-yilgi oktabr to'ntarishidan keyingi dastlabki o'n yillarda ham so'z va ijod erkinligi bir qadar saqlandi. Sho'rolar yetarlicha siyosiy va tashkiliy kuchga ega bo'lmagani, uning g'oyalarini kuylaydigan adiblar qatori hali shakllanmagani uchun badiiy adabiyotda nisbatan erkinlik bor edi. Eng iste'dodli ijodkorlar, tabiiy ravishda, millat va vatan ozodligi uchun kurashayotgan jadid yozuvchilari safida edi. Shuning uchun ham Fitratning «Abulfayzxon» dramasi, «Shaytonning tangriga isyoni», «Qiyomat» hikoyalari, Hamzaning «Boy ila xizmatchi», «Maysaraning ishi», «Paranji sirlaridan bir lavha» dramalari, Qodiriyning «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydi»,

«O‘tkan kunlar», «Mehrobdan chayon», Cho‘lponning «Buzilgan o‘lkaga», «Xalq», «Ko‘ngil», «Binafsha», «Go‘zal», «Qalandar ishqi», «Galdir», «Sirlardan» she’rlari, «Yorqinoy» dramasi, «Kecha va kunduz» romani singari asarlar sho‘rolar davrida yaratilgan bo‘lsa-da, ular mohiyatan jadid adabiyoti namunalaridir. Chunki ular e’tiqodi va faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra jadid bo‘lgan, hayotni jadidchasiga badiiy idrok va ifoda etadigan ijodkorlar tomonidan yaratilgan edi.

Jadid adabiyoti bilan birga jadid adiblari tomonidan zamonaviy ma’nodagi adabiyottanuvchilik ham shakllana bordi. Qomusiy bilim egalari bo‘lmish jadidlar badiiy asarlarni ijtimoiy maqsadlarga xizmat qildirishdan tashqari, badiiy asar qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida ham ilmiy qarashlarni bayon etdilar. Bu jihatdan jadid allomalar orasidagi eng o‘qimishli, teran ilmiy tayyorgarlikka ega mutafakkir Fitratning qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning “She’r va shoirliq” (1919), “Adabiyot qoidalari” (1926), “Eng eski turk adabiyoti namunalari” (1927) asarlarida adabiyotning eng nozik va murakkab jihatlari nazariy aspektda tadqiq etilgan.

Abdulla Qodiriyning “Yozishg‘uvchilarimiz”, “Mushtum”, “26-yilda kuldiruvchilarimiz”, “Ravot qashqirlari”, “O‘tkan kunlar ham “O‘tkan kunlar” tanqidi ustida ba’zi izohlar”, “Adabiy tajribalar”, “O‘qish-o‘rganish” singari asarlarida o‘z tajribasiga tayangan holda san’at asarlariga ilmiy munosabat qanday bo‘lishini ko‘rsatib beradi.

Cho‘lponning “Adabiyot nadir”, “Muhtaram yozg‘uvchilarimizg‘a”, “Marhum tavfiq Fikrat”, “Adabiyot kechasi”, “Tilimizning ishlanishi”, “500 yil”, “Tarixning zararli takarruri”, “Ulug‘ hindiy”, “Tago‘r va tago‘rshunoslik”, “Ko‘lagada qolgan odamlar”, “Ustozning xislatlari” singari maqolalarida badiiy asarlarga yondashish, ulardagi yutuq va yetishmovchiliklarni aniqlash bo‘yicha o‘z kuzatishlarini bayon etgan.

Xullas, jadidchilik harakatining avangardi bo‘lgan jadid adabiyoti yangi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi alohida va muhim bir bosqich bo‘ldi. Uning noyob badiiy durdonalari milliy adabiyot xazinasini boyitishga xizmat qilib kelmoqda.

2025- yil 19-mart-26-aprel.

JADIDCHILIK UCHINCHI RENESSANSNING MILLIY POYDEVORI SIFATIDA

Hamidulla BOLTABOYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori,
filologiya fanlari doktori
hbaltabaev@mail.ru. Tel.: +99890 1358590
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyo ilmi taraqqiyotiga asos bo'lgan uyg'onish – Renessanslar va ular orasida Uchinchi Renessansning o'rni va ahamiyati xususida so'z boradi. Uchinchi Renessansning milliy poydevori XX asr boshlarida jadidchilik harakati tomonidan qo'yilgani faktik misollar orqali asoslanadi. O'zbek jadidchiligining asosiy yo'nalishlari, davriy bosqichlari va hududiy ko'lami belgilanadi.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, milliy poydevor, jadidchilik harakati, yo'nalish, davriy bosqichlar, hududiy ko'lam.

Annotation. The article outlines the renaissances which serve a strong platform for the development of science in Central Asia and the importance of the Third Renaissance among them. The national foundations of the Third Renaissance have been laid by the Jadidism (Revolutionary) movement at the turn of the XX-century. The main directions, periodic stages and territorial scope of the Uzbek Jadidism are defined.

Key words: Central Asia, Renaissance, The Third Renaissance, national foundation, jadidism movement, direction, periodic stages, territorial scope.

Dunyo hamjamiyati tarixida Renessans – Uyg'onishning ahamiyati mislsiz ekanini barcha ziyolilar yaxshi biladi. Jahon tamaddu-niga Musulmon Renessansi [Адам Мец. 1996] nomi bilan kirgan olamshumul voqeaning vatani Markaziy Osiyoning yuragi hozirgi O'zbekiston bo'lgani yurtimizning har bir ziyolisini faxrlantiradi va buning barobarida ulkan tamaddunga voris bo'lish mas'uliyatini yuklaydi. BIRINCHI RENESSANS poydevori islomiy tamaddun, ilm va

adabiyot sanalib, jahonga Imom Buxoriy, Muso Xorazmiy, Abunasr Farobiy, Aburayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi yuzlab jahoniy allomalar yetkazib berdi. IKKINCHI RENESSANS esa Amir Temur dahosi bilan yurtimizda Markazlashgan davlatning vujudga kelishi tufayli Mirzo Ulug'bek va Ali Qushchi, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olim-u adiblarni yetishtirgan bo'lsa, UCHINCHI RENESSANS nomi haqli suratda jadid bobolarimizning siyosiy, iqtisodiy qarashlari, madaniy va adabiy voqelikni yangilash, uyqudagi yurtni uyg'otish bilan bog'liq bo'lganini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday sharhlaydi: *"O'ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlarini to'la ro'yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz" [Mirziyoyev, 2023].*

Markaziy Osiyoga keng quloch yoygan o'zbek jadidchilik harakati yangi tamaddunning milliy poydevorini yaratish uchun hayotning har bir jabhasida islohotchilik harakatini boshlab yubordi. Professor Temur Xo'ja o'g'li jadidchilik harakati o'zidan to'qqiz ulug' g'oyani meros qilib qoldirganini ta'kidlagan edilar. Ular orasida eng boshlang'ichi va mas'uliyatlisi **milliy o'zlikni anglash** g'oyasidir. Millat o'zining kimligini va jahon hamjamiyatidagi o'rnini yaxshi bilmas ekan, o'zligini namoyon etish yo'lidagi har bir harakati samara bermasligi mumkin. Shuning uchun ham Abdurauf Fitrat domla "Himmat va saboti bo'lmagan millatning haqqi hayoti yo'qdir" so'zlarini sarlavhaga olib chiqadi [Oyina,1915:162-165]. Himmat, avvalo, o'z yaqinlariga, millatdoshlariga va dindoshlariga nisbatan mehr-oqibat ko'rsatishdir. Ularning tashvishi bilan yashash, dunyoda borligini namoyon qilish uchun kurash va dunyo jamiyatidan o'z o'rnini topish uchun qilingan harakatdir. Sabot esa mana shu ilmiy-adabiy-ma'rifiy harakatlarning izchillik bilan amalga oshuvida tinimsiz mehnatdir. O'zini, o'zligini bilmagan millat hayotga, yashashga haqli emas.

Jadidchilikning islohotchilik harakatidan **fenomenal** hodisaga aylanishida nafaqat Kafkaz, Markaziy Osiyo, balki asrlar davomi-

da chor Rusiyasi o'ziniki qilib ulgurgan, Qrim, Ural, Volgabo'yida bu harakat faollashdi, hatto uning ildiz otib urchishiga yetarli zamin bo'ldi [Исхаков Д, 1997]. Chunki Rusiya XX asr boshlariga kelib qariyb musulmonlarga tegishli 5 mln. kv/km hududda kolonial tuzum o'rnatgan edi [Хайри А., 2012]. Jadidchilik qaysi jabhaga kirib kelgan bo'lsa, oddiy harakat yoki qarshilik usuli doirasida qolib ketmadi, o'zida erk, ozodlik, mustaqillik g'oyalarini mujassam etgan umumjahoniy hodisaga aylandi. Jadid otalarimiz bizga faqatgina g'oyanigina meros qilib qoldirganlari yo'q, balki bu olamshumul g'oyalarni amalga oshirish uchun harakat dasturi ham yaratib ketdilar [Behbudiy, 1907]. Bu dasturga muvofiq tarzda izchil kurash yo'li sifatida islohotchilik takomilini yaratdilar. Islohotlarning yuzaga kelishi milliy zaminda an'anaviy maktab va madrasa ta'limi, mumtoz adabiyot namunalarini jiddiy suratda qayta nazardan o'tkazish jarayonida kechdi.

Zero Hazrat Navoiyning "Noqis ulki, o'zini komil degay, Komil ulki, o'z nuqsini bilgay" so'zlariga amal qilib, avvalo, o'zligini, o'z hayotidagi nuqsonlarni aniqlab olib, ularni isloh qilish yo'lini tutdilar. Bir necha ming yillik islomiy tajribaga ega bo'lganiga qaramay, maktab-madrasa tizimi XX asr boshlarida islohga muhtoj bo'lib qoldi, bunday muhtojlikning sababi faqat dunyoviy fanlarning o'qitilishida boshqa mamlakatlardan ortda qolayotganiga emas, balki islomiy bilimlarni berishda ham an'anaviy tizimning oqsayotganidadir. Shuning uchun ham diniy bilimlarni berishda ham islohotchilik yo'lini tutdilar, madrasa tizimi 19 yil davomida tolibi ilmlarga berayotgan bilimni yangicha isloh yo'li bilan 4–5 yilda amalga oshirish mumkinligini tushundilar. Bu yo'lda jadidchilikning ma'naviy rahbari Ismoilbek G'aspirali Bog'chasaroyning Zanjirli madrasasida amalga oshirgan islohot tajribasiga tayandilar. Millatning asosiy qismi musulmon farzandi bo'lgani uchun ham ilk islomiy bilimlarni berishga harakat qildilar. Bu yo'lda Mahmudxo'ja Behbudiy "Muxtasar islom tarixi" (1913), Abdulla Avloniy "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom" (1913), Abdurauf Fitrat "Muxtasari ta'rixi islom" (1915) va boshqalarning boshlang'ich maktablar uchun yozgan muxtasar islom tarixlari arzirli qadam bo'ldi.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda, xususan, hozirgi O'zbekiston hududida uch davlat Turkiston general-gubernatorligi (1876-yildan

boshlab), Buxoro amirligi va Xiva xonligi mavjud edi. Har uch o'lkadagi ahvol moddiy-iqtisodiy jihatdan farq qilinmasa ham, siyosiy jihatdan mustamlakaning uch ko'rinishi edi. Turkiston bosib olingandan so'ng ***harbiy*** diktatura – zo'ravonlikka asoslangan tuzum ostida boshqarilar, uning rahbarlari ham general-harbiylar (fon Kaufman... Duxovskiy v.b.) edi. Xivada xonlik tuzumi (Muhammad Rahimxon II dan Asfandiyorgacha), Buxoroda esa madrasalar ko'pligi, ilm bir muncha taraqqiy etgani uchun garchi Amir Olimxon siyosati Rusiya bilan birgalikda olib borilsa ham, yosh ziyolilar bir muncha kuchli harakat sohiblari edilar. Shuning uchun ham bevosita Rusiya ostida ezilayotgan Turkiston uchun jadidchilik harakati tabiiy ravishda mustaqillik uchun kurash shaklida, Buxoro va Xivada hukmdorni islohotga chorlash, madaniy va ma'rifiy islohotlar vositasida mamlakatni qoloqlikdan olib chiqishga urunish mavjud edi. Shuning uchun ham Turkiston jadidlari ko'proq siyosiy huquqlarini tiklash yo'lidan va keyinroq qurolli harakat usulidan foydalandi. Buxoroda "Yosh buxorolilar" partiyasi, Xorazmda "Yosh xivalilar" harakati yo'lga qo'yilishi bunday sharoit yuzasidan amalga oshirilgan siyosiy tadbirlardir. Ular Turkiyadagi "Ganj turklar" harakati, Erondagi "Yosh eronlilar" va Misrdagi "An-Nahda" harakatlaridan namuna olgan edilar.

Milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurash g'oyalari Rusiya istibdodi boshlangan kundanoq dastlab norozilik harakati sifatida ko'rindi, keyinroq qurolli qo'zg'olon tusini olgan. Bular XX asr arafasida avj oldi: Vabo isyoni (1894), Madali eshon qo'zg'aloni (1898), Mardikorlikka olish haqidagi buyruqqa qarshi Toshkent va Jizzax (1916) qo'zg'olonlari va boshqalardir. Bular orasida eng natijali harakat Turkiston muxtoriyati (1917–1918) bo'ldi.

Jadidchilikning moddiy-iqtisodiy sabablari bevosita Markaziy Osiyo aholisining qishloq xo'jaligining, asosan, qo'l mehnati evaziga qurilgani va sanoatning o'ta qoloq holatdan chiqishga intilishi bilan izohlanadi. Turkiston mustamlaka bo'lgani uchun ham, avvalo, uning iqtisodiy asoslarini yaxshilash kerak edi. Shuning uchun yirik fabrikantlar, zovutchi boylar va kustar xo'jalik rahbarlarini yangilikka tortishga harakat qilindi. Buning uchun chet el bilan bog'lanish lozim bo'ldi. Lekin mustamlaka bo'lgani uchun faqat Rusiya orqaligina chiqish mumkin bo'lar edi. Bu holatdan qutulishning yagona chorasi

chet elga yoshlarni o‘qishga yuborish va shular vositasida iqtisodiy hayotni yaxshilashga intilishga kirishildi. Bu jihatdag yoshlarni Turkiya, Germaniya oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborishga harakat qilindi. Buning misoli sifatida Fitrat, Usmonxo‘ja, Atoxo‘ja va boshqalarni Turkiyaga o‘qishga yuborish uchun harakat boshlandi [Zeki Velidı Toğan, 1981:354].

Buxoro yoshlarining xorijda ta’lim olish ishlariga ko‘maklashish uchun 1908-yil martda «Shirkati Buxoroyi sharif» tuzildi. Uning a’zolari Ayniy ma’lumotiga ko‘ra, Ahmadjon maxdum (Hamdiy), Aminjon maxdum, Usmonxo‘ja, Hamidxo‘ja, Mulla Nizom Sobitiy, Abdurahmon Saidiy, Mirzo Abdulqodir, Mirzo Abdulvohid, Sadriddin Ayniydan iborat to‘qqiz kishi bo‘lgan. Bu shirkatning amaliy ishi «Tartilu-l-Qur’on» nomli Tajvid qoidalari asosidagi qiroat majmuasining nashri bo‘lgan. Bu asarni chop qildirishni o‘z zimmasiga olgan A.Saidiy (Sa’diy) Rusiyada «Vaqt» gazetasi matbaasida nashr qilish uchun uni Orenburgga yuborgan [Айний, 1987:40]. Bunga qadar maktab islohoti masalasini jadidchilar amaliy faoliyatdan boshladilar.

Fitrat bu haqda “Hurriyat” gazetasida “Muxtoriyat” maqolasini e’lon qildi: “Turkiston muxtoriyati... Turkistonning tarixiy xonbaliqlaridan ikkinchisi bo‘lg‘an Xo‘qand shahrinda to‘plang‘an Turkiston qurultoyi 27-noyabrning “milliy laylatulqadrimiz bo‘lg‘an» yarim kechasinda Turkiston muxtoriyatini e’lon qildi. Lekin shunisi borkim, bir millatning muxtoriyati bir syezdning e’loni bilan tamom bo‘lmas. Muxtoriyatni olmoq va saqlamoq kerakdir. Syezd o‘z ishini qildi. Qolg‘anlari butun millatning vazifasidir. Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch lozim. Muxtoriyatni bajarmoq uchun aqcha kerakdir. Bularni millat hozir qilsun” [Фитрат, 2003:198-199]. 1918-yil 19-fevralda Toshkentdan Turkiston harbiy komissari E.L.Perfilev boshchilik qilgan 11 eshelon qo‘shin yetib kelib, Qo‘qon aholisini o‘qqa tutdi. 20-fevralda “Dashnaksution” (“Ittifoq”) arman inqilobiy milliy partiya a’zolarining drujinalari “ishga tushdi”. Turkiston Muxtoriyati qonga botirilib, u tarqatib yuborildi. Keyinroq Turkiston ASSRning tashkil etilishiga mana shu muxtoriyat sabab bo‘ldi.

XIX asrning so‘ngida Is’hoqxonto‘ra Ibrat, yangi asrning ilk sanasida Toshkentda Munavvar qori, Samarqandda Abduqodir Shakuriy, Andijonda Zahiriddin A’lam va boshqalarning yangi usuli jadid

maktablari ochildi. Ilk usuli jadid maktablari 1890-yilda Farg'ona vodiysida va 1893-yilda Samarqand shahrida ochilgan edi. 1910-yillarda Turkistonda 80 ga yaqin, Buxoro amirligi hududida esa 57 yangi usul maktablari ochilgan edi. Bu maktablar uchun tizimli dastur, o'quv adabiyotlari zaruratini to'g'ri tushungan allomalar Avloniy, Saidrasul Saidaziz, Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat, Hamza va boshqalarning ilk maktablar uchun yozilgan darslik va qo'llanmalari nashr bo'ldi [Долимов, 2012]. Bu maktablarda riyoziyot (matematika), handasa (geometriya) kabi aniq fanlardan tortib, tabiiyot (fizika), geografiya kabi tabiiy fanlarlargacha o'qitilishi barobarida an'anaviy maktablar ta'lim bergan Qul Ahmad, Xo'ja Hofiz, Mulla Jomiy asarlari ta'limdan tashqariga chiqib ketgani yo'q. Faqat ularning safi kengaydi: Sa'diy, Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Amiriy, Ogahiy kabi mumtoz adabiyotimizning benazir siymolari asarlarining tizimli suratda o'qitilishi yo'lga qo'yildi.

Maktabchilik, ta'lim tizimidagi yangiliklar, yangi ochilgan jadid maktablari shuni taqozo qilar ediki, bu maktablar uchun yangicha dastur va o'quv qo'llanmalardan tashqari, yangi usulda o'qita oladigan o'qituvchi va mudarrislar yetishtirishni rejalashtirdilar. Prof. B.Qosimovning yozishicha, «Usuli jadid bilan tanishmoq uchun» bir kishi Bog'chasaroyga, yana bir kishi Istanbulga yuborildi» [Қосимов, 1994:73]. 1909-yil 18-iyunda Buxoro yoshlari tomonidan yuqorida tilga olingan «Tarbiyati atfol» nomli yashirin jamiyat tashkil qilindi. «Jamiyatning birinchi maqsadi Istanbulga o'quvchilarni yubormoq chorasiga kirishmoq edi» [Айний, 1963: 233]. Nihoyat, maqsad amalga oshib, Istanbulga boradigan yoshlar aniqlandi. Ular, Ayniyning e'tiroficha, «Ikmoli tahsil uchun Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, uning birodari Atoxo'ja, Mazhar mahzum Burhon mahzum o'g'li, Abdurauf Fitrat, Muqimbek Istanbulga safar qildilar» [Айний, 1927:69]. Sh.Turdiyevning «Ular Germaniyada o'qigan edilar" kitobida Berlinda tahsil olgan turkistonliklar xususida fikr yuritilgan. Ular orasida Abduvahob va Saida O'qtoy singari bo'lg'usi yirik olimlar bor edi. Turkiyaga o'qishga yuborilgan talabalar safidan Fitrat singari jahoniy adib va olim, Germaniyada o'qiganlar orasidan Vali Qayumxon singari turk dunyosining ulug' siymolari yetishib chiqdi.

Seziladiki, ma'rifiy islohotlar o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini

zamonaviy asosda shakllantirishni taqozo qilar edi. Qishloq xo'jaligi, musiqa va san'at bilim yurtlarining tashkil bo'lishi mana shu harakatning natijasi bo'ldi. Nihoyat, 1918-yilning 12-mayida zamonaviy talablar asosida qurilgan musulmon dorilfununi (Milliy universitet) barpo etildi. Bu jihatdan Munavvar qori Abdurashidxonovning xizmati beqiyos bo'lib, ushbu universitetda ishlash uchun Falsafa va adabiyot sho'basiga Fitratni, Sharq tillari uchun Qayum Ramazon va dorilmuallimin (pedagogika universiteti) uchun Abdulla Avloniyni universitetga chorladi [Сирожиддин Аҳмад, 2019:86-89]. Ayni mana shu 10-yillarning so'ngida milliy an'analar bag'rida yo'rgaklangan milliy adabiyot, milliy til va tarix kabi millat o'zligini namoyon qiladigan sohalar shakllandi.

Jadid madaniyati ma'naviy hayotda temuriylar davri adabiyotining cho'qqisi sanalgan Alisher Navoiy ijodini o'ziga namuna bilib, o'ziga singdirish orqali yangi adabiyotni yuksaltirishga yo'l topdi. Jadidchilar nazarida Navoiy dahosi va undan keyin yaratilgan ma'naviy xazinani «o'zlashtirmasdan turib» yangi adabiyot yaratish va uning jahon adabiyotlari sirasiga ko'tarilishi mumkin emas, deb qabul qilindi. Jadid adiblari badiiy adabiyotda jahon andozalari darajasida qabul qilinadigan asarlar yozishga kirishdilar. Yangi adabiyot, bir tomondan, mumtoz adabiy janr va obrazlar doirasida shakllangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, davr voqealarini o'zida aks ettirgan o'ziga xos oyna vazifasini bajardi. Adabiyotda "millat" va "vatan" tushunchalari faollasha boshladi. Agar tarixan "millat" so'zi islom ummatiga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, endi adabiyotda bemalol qo'llanilish davriga kirdi. Fitrat 1911-yilda "Sayha" ("Na'ra") to'plamini "milliy she'rlar" deb atagan bo'lsa, Hamza "Yangi saodat" asarini "milliy roman" deb atadi. "Vatan" tushunchasining qamrovi kengayib, endi hududiy maskan, ma'muriy birlik doirasidan "ma'naviy vatan"ga sari kengaydi. Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Qodiriy publisistikasi milliy g'oyalarning jarchisiga aylandi.

Milliy she'r masalasi nafaqat asarlarning mazmun-mundarijasi asosiga qo'yildi, balki "milliy shakl", "milliy uslub", "milliy vazn" istilohlari ham faol qo'llanila borib, "bizning milliy vaznimiz" (Fitrat) hisoblangan barmoq vazni she'riyatda qat'iy o'rinni egalladi. Jangovar publitsistik ruhdagi she'rlar lirik janrlar g'oyaviy mundari-

jasini boyitishi barobarida harbiy marshlar ham milliy she'rlar asosiga qurildi. She'rdagi liro-epik qamrovning kengayishi natijasida milliy dostonchilik shakllandi (Fitratning "Sharq", Cho'lponning "Buzilgan o'lkaga" deb nomlangan she'rlari "poema" ruknida e'lon qilindi).

"Roviylar andoq rivoyat qilurlarkim..." tarzida boshlanadigan qissaxonlik asosiga qurilgan mumtoz nasr o'rnida realistik hikoya, qissa va romanlar vujudga keldi. Zulmatdan nurga intilish, ma'rifatni targ'ib qilish, real hayotning bir parchasini asar bag'riga singdiris Qodiriy, Cho'lpon hikoyalarining janriy asoslarini belgiladi. Fitratning "Munozara" qissasidan boshlangan jadid maktablari targ'iboti "Hind sayyohi bayonoti" asarida keng epik planga ko'chdi. "Roman uslubida yozilgan" (S.Ayniy) bunday asarlardan tez fursatda milliy romanchilik sari qadam tashlandi.

Drama adabiy tur sifatida shakllanibgina qolmadi, balki o'z borlig'ini ifoda etadigan milliy teatrga zamin yaratgan truppa (dasta, to'da) shakllanib, keyinroq professional teatr madaniy hayotning ajralmas qismiga aylandi. Madaniyat muassasalari va jadid teatri Markaziy Osiyoda keng quloch otgan madaniy-inqilobiy hodisalardan biri bo'lib, uning ildizlari ancha chuqur. Biroq mumtoz adabiyotdagi ilmiy an'anaga ko'ra adabiy jarayon masalalari adabiy turlar (epos, lirika, drama) asosida emas, balki ifoda shakllari (nazm, nasr) asosida o'rganilgan. Shuning uchun ham mumtoz adabiyotda drama alohida adabiy tur sifatida shakllanmagan, balki teatr, masxarabozlik, o'yin kabi tomosha hodisasi deb qaralgan. Jadid teatri esa professional teatrni tashkil qilish borasida sho'ro olimlari yozganidek, rus dramaturgiyasiga emas, balki turk va ozarboyjon dramaturgiyasiga, uning eng yaxshi asarlariga suyangan. M.F.Oxundzodadan boshlangan ozar dramaturgiyasi XX asr boshlarida Jalil Mammatqulizoda, Ja'far Jabborli, Husayn Jovid asarlari orqali Turkistonga kirib kelgan. Hatto bu dramaturglarning o'zlari ham Turkistonga kelib, o'z asarlarining premyerasida qatnashganlar.

Milliy dramaturgiyada qaldirg'och asar hisoblangan «Padarkush» (1912) xarakterlidir. Bu asar dastlab Toshkentda Kolizey binosida qo'yilgan, uning premyerasida Munavvarqori nutq so'zlagan. Behbudiy teatrni targ'ib qilish, uning mohiyatini xalqqa tanitish uchun o'nlab maqolalar yozgan. Ulardan birida: «Taraqqiy qilg'an millatlar

teyotrxonalarni ulug‘lar uchun maktabi adab va ibrat ataydur. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab va boislaridan biri teyotrlardur, deyurlar... Umumiy odatlarni naf’iy va zararidan paydo bo‘laturg‘an natijalarni teyotrxonada aynan ko‘rsatadurlarki, har kim mundin ta’sirlanib, yamon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg‘a sabab bo‘lur» [Беҳбудий М, 2000]. O‘z hayotini “Padarkush” asaridan boshlagan o‘zbek dramaturgiyasi tez orada o‘nlab turli yo‘nalishdagi dramatik asarlar sari kengaytirdi. Birinchidan, Dramaturgiyada qisqa, bir ko‘rinishli sahna asarlaridan tragediya (Fitrat, “Abulfayzxon”), drama (Qodiriy, “Baxtsiz kuyov”), komediya (Hamza, “Maysaraning ishi”) kabi dramaturgik janrlarning takomiliga erishdi. Shunday qilib, adabiyot umumxalq sahnasiga chiqdi, o‘z fikr va tuyg‘ularini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqqa yetkaza oladigan minbar yaratdi.

Ikkinchi tomondan, bir muallif tomonidan yozilgan badiiyat namunalari xalqqa yetib borishi uchun milliy matbaa shakllandi. Xorazmda ish boshlagan milliy matbaachilik Ibratning “Matbaai Ishoqiya” (1908), Behbudiy matbaasi (1910–12) va boshqa noshirlik bosmaxonalari hisobiga ko‘paydi. Bu adabiyotning ommalashuviga sabab bo‘lgan yana bir omil hisoblansa, undan tashqari, Markaziy Osiyoda 1870-yildan boshlangan gazeta nashri 1906-yilga kelib, milliy matbuotning qaldirg‘ochiga aylangan “Taraqqiy”ga yetishdi. O‘zining dastlabki o‘n yili mobaynida milliy adabiyot 50 dan ortiq nashrlarga ega bo‘ldi. Ularning ayrimlari uzoq yashay olmadi, sho‘ro va mahalliy tazyiqlar ostida to‘xtab qoldi. Biroq shunga qaramay, milliy matbuot milliy adabiyotni ziyolilar ommasiga yetkazuvchi muhim vosita bo‘ldi. Milliy o‘zlikni tanishda va tanitishda o‘zbek matbuoti qisqa fursat ichida misli ko‘rilmagan natijalarga erishdi.

O‘zlikni anglash va jahonga chiqish til siyosati bilan bog‘liq ekanligini chuqur tushungan jadidchilar o‘zbek tilini rivojlantirish, uning qonun-qoidalarini yaratish va o‘zlashtirish, mahalliy shevalar asosida adabiy til me’yorlarini shakllantirish ishlariga berildilar. Tildan ilk saboq beradigan boshlang‘ich darsliklar yaratish bilan birga o‘zbek tili qonuniyatlarining ishlanishiga alohida e’tibor qaratdilar. Fitratning “Ona tili” (1918, Qayum Ramazon va Shokirjon Rahimiy bilan hammualliflikda) o‘zbek tilidan ilk darslik sanalsa, “Sarf. O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba” (1-kitob), “Nahv. O‘zbek tili qoi-

dalari to‘g‘risida tajriba” (2-kitob) kabi kitoblari besh yilliklar mobaynida 4 marta qayta nashr qilindi [Фитрат А. Танланган асарлар, 2006: 140–214]. Munavvar qorining “O‘zbekcha til saboqligi” asarining 1925, 1916 va 1927-yilgi nashrlari ma’lum. 4 jilddan iborat bu muxtasar kitobni o‘zbek tili nazariyasining dastlabki qisqa akademik nashri sifatida qabul qilish mumkin.

Millatning og‘zaki nutqi va jonli tilini mangulikka bog‘laydigan vosita yozuvdir. O‘zbek tilining boy va go‘zalligini to‘liq ifodalaydigan yozuv yo‘lidagi dastlabki harakatlar arab yozuvini isloh qilishdan boshlanib (1921-yilgi Til, imlo konferensiyasi), shu o‘n yillikning oxiriga kelib lotin yozuvi asosidagi milliy alifboning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Turkiy mamlakatlar 1926-yilgi Boku qurultoyidan ilhom olib, birin-ketin lotin yozuvini qabul qilib, yangi umumturk alifbosini yaratish yo‘liga kirdilar [Xolid Said, 2020]. Taassufki, bu yozuv sobiq ittifoq hududidagi mamlakatlarda atigi o‘n yilgina yashab, so‘ngra kiril yozuvining majburiy singdirilishiga dosh berolmadi. Jadid bobolarimiz tomonidan boshlangan yozuv islohoti O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘nggina o‘z natijasini berdi. Mana, 30 yildirki, bu yozuv millatni kelajakka olib bormoqda. Birgina milliy til taraqqiyoti bilan jahonga chiqish imkoni kamligini yaxshi tushungan tilshunos olimlar g‘ayri tillarni bilish, xorij mamlakatlarga borib, ularning tillarida fanlarni o‘zlashtirish harakatiga kirishdilar.

Jadidchilikning oktyabr to‘ntarishidan keyingi harakat shakllaridan biri «Chig‘atoy gurungi» bo‘ldi. Dastlab “Chig‘atoy gurungi” adabiy-madaniy muassasasidan boshlangan til, adabiyot, san’at, tarix va boshqa sohalardagi izlanishlar XX asrning 30-yillariga kelib, mamlakatda Fanlar qo‘mitasi, keyinroq Fanlar akademiyasi tuzilishi uchun asosiy rejalarni ishlab chiqqan birinchi tashkilot edi [Болтабоев, 2007:41-47]. «Gurung»ning mohiyatini chuqurroq anglash maqsadida ushbu tashkilot vujudga kelishiga asos bo‘lgan hodisalar, uning nomlanish sabablari va faoliyat yo‘nalishiga, shuningdek, bu tashkilotning adabiy nashrlariga munosabat bildirish zarurati tug‘iladi. 1918–1920-yillarda faoliyat ko‘rsatgan «Chig‘atoy gurungi» Turkiston muxtoriyati va Buxoro jadidlarining qo‘zg‘olonchilik harakatlari muvaffaqiyatsizlikka uchragandan keyin Fitrat rahbarligida Toshkentda tashkil topdi. «Chig‘atoy gurungi» Nizomnomasidan ma’lum

bo‘lishicha, «gurung» bir necha sho‘balardan iborat bo‘lib, ular davr istilohiga ko‘ra «to‘dalar» deb atalgan. «Til va imlo to‘dasi», «Adabiyot to‘dasi», «Musiqiy va teatro‘ to‘dasi» va boshqalardan iborat edi. 1919-yilning boshlaridanoq jiddiy faoliyat ko‘rsatishga kirishgan «to‘da»lardan biri «Til va imlo to‘dasi bo‘lib, uning faoliyatiga, dastlab, Cho‘lpon, keyinroq Elbek rahbarlik qilgan. Fitratning «Tilimiz» maqolasida ushbu «to‘da»ning dasturiy yo‘nalishi belgilab berilgan bo‘lib, Munavvar qori, Elbek, Ashurali Zohiriy, Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon, G‘ozi Yunus, Shorasul Zunnun kabi olimlarning tilshunoslikka doir ishlari Til va imlo to‘dasi dasturiga muvofiq holda bajarilgan. “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti asosida keyinroq O‘zbeklarni o‘rganish qo‘mitasi, “Qizil qalam” jamiyati, O‘zbekiston Fanlar qo‘mitasi kabi ilmiy-ijodiy tashkilotlar tuzildi. Bular hozirda faoliyat ko‘rsatayotgan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Yozuvchilar uyushmasining dastlabki tashkiliy qurilmalari edilar.

Milliy mustaqillikning ashaddiy yovi bo‘lgan sho‘ro mafkurasi jadidchilikni ildizi blan qo‘porib tashlashga bir necha bor urindi. 1918, 1929 va 1937–38-yillar davomida bir necha qirg‘inlar uyushtirdi. Nihoyat, 30-yillarning oxiriga kelib, sho‘ro hukumati o‘z niyatini amalga oshirib ulgurdi. Ilk bor istiqlol g‘oyalarini kun tartibiga olib chiqqan, vatanini ozod va obod ko‘rishni istagan jadidchilikning qariyb 150 yilga qadar davom etgan tarixini mustaqil O‘zbekistonning yangi tarixida mufassal aks ettirish Istiqlol mafkurasi talablariga mos keladi. Yangi Uchinchi Renessansning milliy, ma’naviy va ilmiy poydevorini yaratishda jadid tamadduni asos vazifasini o‘taydi.

Adabiyotlar:

1. Behbudiy M. Turkiston Madaniy muxtoriyati loyihasi / Rusiya Dumasining Musulmonlar fraksiyasiga. – Samarqand, 1907. // Türkistan'da Yenilik Hareketleri ve İhtilaller: 1900–1924. Hazirlayan T. Kocfoglu. Birinci Baski: 2001. – Haarlem (Hollanda). – S. 467–483.

2. Mirziyoyev Sh. “Jadidlarning ma’rifiy faoliyati: g‘oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi” mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilariga Tabrigi / https://daryo.uz/2023/03/06/

3. Fitrat A. Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi hayoti yo‘qdir // Oyina. – 1915. – 14 yanvar. – 7-son. – B. 162-165.

4. Toğan A. Z. V. Bukünkü Türkili Türkistan ve Yakın Tarihi. Cıld 1. 2.Baskı. – İstanbul, 1981.

5. Xolid Said. Yangi alifbo yo‘llarida eski xotira va tuyg‘ularim / Tarjimonlar: H.Boltaboyeva va U.Boltaboyev. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2020.

6. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – М., 1927. – Б. 69.

7. Айний С. Таърихи инқилоби Бухоро. – Душанбе: Адиб, 1987. – Сах. 40.

8. Беҳбудий М. Танланган асарлар / Истиқлол қаҳрамонлари. – Т.: Маънавият, 2000.

9. Болтабоев Ҳ. “Чиғатой гурунги” тўгаракми ё ташкилот / Фитрат ва жадидчилик. – Т., 2007. – Б. 41–47.

10. Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. – Т., 2012.

11. Исхаков Д. Феномен татарского джадидизма: введение к социокультурному осмыслению. – Казань, 1997.

12. Мец А. Мусульманский Ренессанс. – М.: Наука, 1996.

13. Сирожиддин Аҳмад. Миллатпаноҳ / Мунаввар қори Абдурашидхонов. Мен сендамен... – Т., 2019. – Б. 86–89.

14. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилд / Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 140-214.

15. Фитрат А. Мухторият // Танланган асарлар. III жилд. – Т.: Маънавият, 2003. Б.198-199.

16. Хайри А. Роль джадидизма в развитии мусулманского сообщества в России. Пер. с английского: Dr. Abuzar Khairi. Role of Jadidism in the Development of Muslim Society in Russia // Islam-today. – Kazan. 2012. 26 июня.

17. Қосимов Б. Маслакдошлар. Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. – Т.: Шарқ НМАК, 1994.

“ЎТКАН КУНЛАР”ДА АКСЛАНГАН ВОҚЕЛИК ҲАҚИДА

Дилмурод ҚУРОНОВ,
Андижон давлат университети профессори,
филология фанлари доктори
(Ўзбекистон)

Бадиий ижод қонуниятларидан бири шуки, воқеликда юз берган ва юз бериб турган ҳодисалар асарда санъаткор онгию қалби орқали онгли ёки англанмаган тарзда ўз изини қолдиради. Аниқлаштириш жоизки, бу ўринда ***воқелик деганимиз индивидуал воқелик, яъни санъаткор бевосита алоқада бўлган воқеликни англатади***. Агар “Ўткан кунлар” адибнинг илк ижоди контексти билан боғланишидан келиб чиқсак, асарда акслан-ган индивидуал воқеликни ҳам 1915–1920 йиллар билан чега-ралаш мумкин. Демак, асарда шу даврда адиб қалби ва онгидан ўтган ҳодисаларнинг акси (излари) бор. Шу жиҳатдан қарасак, 1917 йил февраль инқилобидан кейинги вазият – *бир вақтнинг ўзида Муваққат ҳукумат ва Ишчи-деҳқон ва аскар депутатлари Советлари ҳукм сурган икки ҳокимиятчилик даври* Мусулмонқул ва Худоёрхон тандемида акс эттирган. Яъни Худоёрхон тимсо-лида кўпчилик умид билан қараган шўро ҳукумати, Мусулмонқул тимсолида золим буржуазия ҳокимиятлари кўрилса, воқелик “излар”и яққолроқ кўзга ташланади. Масалан, Худоёрхоннинг тахтга келиши мислсиз қурбонлар – қипчоқлар қирғини билан кечганидек, ўлкада “пролетар диктатурасининг ўрнатилиши” ҳам қизиллар ва дашноқларнинг хунрезликлари – маҳаллий аҳоли қатлиоми билан кечди. Ёки Ниёз қушбеги хонадонида-ги йиғилиш РСДРП(б) МКнинг Октябрь тўнтариши арафаси-даги йиғинини эслатади – худди Юсуфбек ҳожи ёлғизланиб қолганидек, унда ҳам қуролли кўзғолонга иккитагина Марказқўм аъзоси қарши бўлган, холос. Йўқ, биз романда тасвирланган мана бу образ орқали фалонни, мана бу ҳолат тасвири орқали эса пистонни ифодалаш кўзда тутилган, дея чайнаб бериш фикридан йироқмиз. Фақат айтмоқчи бўлганимиз, “Ўткан кунлар”да ўзи

яратилган давр ижтимоий ҳодисаларининг излари анча сезиларли ва бу ҳол энг аввал бадиий ижод табиати билан изоҳланади. Зеро, адиб атрофида юз бераётган воқеа-ҳодисаларга фаол интеллектуал-руҳий муносабатда бўлган – моҳияти, маншаи ва оқибати ҳақида ўйлаган, уларни онгида ва қалбида қайта яшатган. Шунинг учун ҳам маҳорат билан чизилган ўтмишдаги "*энг кирлик, қора кунлар*" тасвири ботинида "янги давр" чизгилари ҳам кўзга ташланадики, уларни илғаш учун шунчаки бироз разм солиброқ қараш керак, холос.

"Ўткан кунлар"да адиб илм аҳли билан ҳукуматдорлар муносабатига хос азалий хусусиятни очиб беради. Худди Мусулмонқул "*уламо орқалиқ ўз зулмини машруъ бир туска қўйғани"* каби, Худоёрхон ҳам унинг орадан кўтарилишини шундай "*машруъ бир тусда*" амалга оширмоқчи бўлади. Муҳими, бунга ҳамиша имкон бор: "*Мусулмонқулга яқинлаша олмаган, яъни унинг хизмат ва марҳаматидан четда қолган «нимча» уламолар ҳам йўқ эмас эдилар*", ёш хон уларни "*қайин отаси билан курашда ўзига биринчи истинодгоҳ қилиб*" олди. Истиқболдаги "*инъом ва эҳсонлар, бериладиган мансаблар*" илинжи кучли эмасми, Мусулмонқулга тарафдор уламолар унинг сиёсатини "*шариъатқа қанча мутобиқ кўрсатиб келган бўлсалар*", кейинги тоифа "*ўшанча хилофи шаръий эканлигининг исботига киришдилар*".

Аввало, кўҳна тарих бунда тавсифланган ҳолатга қайта-қайта гувоҳ бўлгани, аҳли фазл ва аҳли илм ҳамиша икки тоифага – подшоҳ эътиборидаги ва ундан маҳрум тоифага бўлинганини таъкидлаш керак. Энг муҳими, ёзувчи бу ҳолатнинг тагзаминида ҳам умумий бир қонуният кўради: подшоҳ фақат қиличигагина таяна олмайди, зеро, ҳукмронлиги бардавом бўлиши учун раият онгида ўзининг устида айнан шу одам ҳукм юргизишга ҳақли ва муносиб, у юритаётган сиёсат адлу инсофга таянади ва умум манфаатларига мосб деган фикр ўринлашмоғи керак. Шу ўринда жамият ҳаётининг яна бир қонунияти зуҳур этади: ҳокимият ҳамиша руҳонийлар, илм ва адаб аҳлининг қўллаб-қувватлашига муҳтожлик сезади, бусиз у тўкис эмас – мисоли қаноти синган қуш, оқсоқ кийик каби бўлиб қолади. Муҳими, бу шахсий тажрибадан ўтган – адиб йигитлик давридаёқ бунга уч қайталаб амин

бўлган: оқподшо ҳазратларига холис дуода турган аҳли илмни ҳам, Керенский ҳукуматини алқаган узунчопон муллолару калтачопон жадидларни ҳам, большавойлар қабатидаги жадид бирodарларию ишчи-деҳқон зиёлиларини ҳам кўрган! Сиёсий курашлар буҳронида узунчопонлар калта нимчага, саллалар аввал фесга, кейин шапкага ўзгаргани билан, моҳият эскича қолди – ҳаммаси нон берганнинг "*зулмини машруъ бир туска қўйиш*" билан машғул бўлди. Адибга эргашиб моҳиятга боққан ўқувчи Худоёрхон тахт учун курашда қўллаган тактика билан ўз замонасидаги сайловолди кампаниялари ёхуд ҳокимият билан зиёли қатлам муносабатлари орасида ҳам кўплаб муштарак нуқталарни кўра олади. Булар ҳам "Ўткан кунлар"да 1915–1920 йиллар воқелиги адиб онг ва қалб призмаси орқали ўз аксини топгани, унинг замонаси ҳақидаги ўй-ташвишларини роман воқелигига проекциялаганига далолат қилади. Агар шуни ҳақиқат деб қабул қилсак, у ҳолда "Қипчоққа қирғин" бобини ўқиган илк ўқувчилар кўз олдидан Қўқон Мухториятининг қонга ботирилиши, дашноқлар қирғини воқеалари ўтиб турган деб тахмин қилиш мумкинки, бу энди шунчаки тахмин эмас, жиддий илмий асосга эга тахмин бўлади.

Қипчоқ қирғини ҳам, албатта, моҳиятан манфаатлар тўқнашувининг оқибатидан бошқа нарса эмас. Шу маънода Отабекнинг отасига берган "*Йиртқичларнинг бу қирғиндан қандай муддаолари ҳосил бўларкин?*" деган саволи ярим риторик табиатга эга. Негаки, унинг замирида "*бу иш ҳеч бир фойдасиз-ку, бекор қон тўкилгани қолади, холос!*" қабилидаги соддача ишончэътироз ётади. Аксинча, "*кўб умрини шу юртнинг тинчлиги ва фуқаронинг осойиши учун сарф қилган*" Юсуфбек ҳожи қирғиннинг асл маншаини яхши билади: "*биттаси мингбоши бўлмоқчи, иккинчиси Нормуҳаммад ўрнига минмакчи, учинчиси яна бир шаҳарни ўзига қарам қилмоқчи. Хон эрса Мусулмонқулга бўлган адоватини қипчоқни қириб аламдан чиқмоқчи*". Албатта, Юсуфбек ҳожидек одамнинг гапига катта қиммат берилади, бироқ буни айнан, яъни хон Мусулмонқулдан аламини олмоқ учунгина қипчоққа қатлиом буюрди, деб тушуниш хато бўлур эди. Зеро, қирғин замирида унинг ҳам бундан кўра жиддий

манфаати бор. Худоёрхоннинг Тошкент бекларига юборилган ёрлиғи "*Биз Туркистон мамлакатининг хони ўз қаламравимиз ва салтанатимиз учун қипчоқ тоифасини музир деб билдик*" деб бошлангани шунга далолат қилади. Хўш, қинчоқ тоифаси нимаси билан Худоёрхон салтанатига "музир" – зарарли эди? Гап шундаки, муаллиф аввалроқ айтганидек, Мусулмонқул даврида "*атроф шаҳар ва қишлоқ беклари ҳам қипчоқлардан*" бўлиб улгурган, яъни ҳокимиятнинг ўрта бўғинини ҳам "унинг одамлари" тўла эгаллаган. Худоёрхон наздида бу одамлар валинеъматлари Мусулмонқулга ич-ичларида садоқат сақлайдилар, ҳукмдорга эса фақат ўзига садоқатли – ёнида ўзи кўтарган, ўзи қўйган ва шу туфайли ўзидан миннатдор одамлар, замонавий тил билан айтсак, "ўз командаси" бўлгани маъқул. Шу жиҳатдан қипчоқ қирғини – эҳтимолдаги ғанимларининг барини бирақайига орадан кўтариш имкони сифатида Худоёрхон учун ҳам айни муддао эди. Буни Ниёз қушбегининг шу мудҳиш иш режалаштирилган мажлисда айтган мана бу гаплари ҳам тасдиқлайди: "*Мен хонни Тошканддан жўнатиш олдида унинг холи вақтини топиб, бу фикримни бир даража арз қилиб ўткан эдим, бу фикрим хонга жуда маъқул тушкан бўлса керак, сўзимни эътибор билан тинглаб турди ва жавобида: «Яхши. Ўйлашиб, тадбирлари билан менга фикрингизни ёзинг, мен ҳам ўйлаб кўрарман", деди. Менга қолса,* ***бу тўғрида биздан хабар кутиб хоннинг уйқуси ҳам келмай ётқандир****: бизга фақат ишнинг ўнақайини топиб хондан тасдиқ этдиришгина қолган*". Қушбеги тилидан жонлантирилаётган ҳолат шундайки, Худоёрхон ёш бўлса-да, ичидагини сиртига асло чиқармасликка ҳаракат қилган, шунга қарамасдан суҳбатдоши "*хон кўнган ҳисоб*" деган аниқ ишончда қоляпти. Сабаби, кўпни кўрган Ниёз қушбеги ёш хон сиртига чиқармаган истакни теран ҳис қилади, чунки ҳокимият табиатини, уни ўз қўлида сақлаш ва кучайтириш шартларини жуда яхши билади. Худоёрхон ёш бўлгани билан хон саройидаги ошкору пинхон курашлар қозонида обдон қайнаган, шу боис қушбегининг таклифига муносабатини ошкор этмасдан, яна арқонни узун ташлаб қўяди-да, қуйидан ташаббус қилинишини кутади. Эртами-кеч бундай ташаббус кўтарилишига эса имони

тўла комил, чунки юзага келган вазиятга тўғри баҳо бера олади: Мусулмонқул даврида "катта охур"дан узоқлаб қолганларнинг энди унга яқинлашиш пайида бўлишлари муқаррар эканига ишонади. Зеро, уларнинг кўпчилиги худди Ниёз қушбеги каби "*ҳали биз саҳройи қипчоқ элидан узил-кесил қутилганимиз йўқ... Мусулмонқул бўлмаса, бошқа Алимқулни бош кўтариши аниқ*" деб ўйлашларини яхши билади. Ҳақиқатан ҳам, қушбеги гўё қорачопон оғайнилар ҳақида қайғураётгандек эса-да, аслида бу гаплари замирида манфаати шахсия ётади. Ниёз қушбеги Мусулмонқулни ағдариш ишига фаол бош қўшган-у, тўнтариш натижалари кўнглидагидек бўлмаган: "*Нормуҳаммаднинг раъйини деб, ҳамма ихтиёр ўз қўлимизда бўлгани ҳолда, Ўтаббойни мингбоши белгулаб юбордуқ... Бу ҳам ўзимизнинг энг катта хатоларимиздин. Мен ўша кундан бери ўз-ўзимдан бўғилиб юрийман: Мусулмонқулнинг ити бўлмаса, ўзимиздан мингбоши бўларлиқ одам қуриб қолувдими, дейман. Йўқ, оғалар, темирни қизиғида суқиб қолиш керак!*" Кўрамизки, қушбегини мингбоши маснадига минолмагани ўртайди, ҳали ҳам бўлса "қипчоқлар зулми"га қарши курашни байроқ қилиб кўтариб мақсадига эришмоқчи – Нормуҳаммадни йиқитиб, ўрнига минмоқчи. Айтмоқчимизки, онг-шуури ҳокимият учун, амал-мансаб учун аёвсиз курашлар кечувчи сарой муҳитида шаклланган Худоёрхон воқеалар айни шу тарз кечишини билган, шу сабаб ҳам Ниёз қушбеги таклифига муносабат билдиришга шошмаган – фурсат етиб, ўша таклифни бемалол амалга ошириш имкони туғилиши билан қушбегини ўз қабатига чорлаган, ундан фойдаланган. Табиийки, бу ўринда Ниёз қушбеги деганимиз умумлашма маъно касб этиб, "*ниёзқушбегилар*" маъносини англатади ва бу тоифа то қиёматга қадар тугаб-битмайдиганлар сирасидандир.

Юсуфбек ҳожи ҳам тўнтариш натижаларидан қониқмаган, "*улуламир бўлган киши*" Ниёз қушбегидек "*манфаатпарастларнинг хароб фикрларига қулоқ бериб*" юрганига афсусланади; ўзининг ҳам "*Мусулмонқул балосидан уни нажотка чиқарғучиларнинг биттаси*" бўлгани ҳолда, улуламирнинг у билан кенгашишни унутганига ўкинади. Аввало, ҳожининг қониқмаслиги нафси оғрингани билан, яъни хоннинг унга ло-

зим эътиборни кўрсатмагани билан ҳам боғлиқ, яъни уни ҳам, гарчи фитначилардан ер билан осмонча фарқ қилса-да, буткул беғараз дейиш мушкул. Иккинчидан, Юсуфбек ҳожининг ўкинчи мағзига диққат қилинса, ***унинг хонга кенгаш берувчилар инсофу диёнатли кишилар бўлсаёқ олам гулистон бўлишига ишонади***ган одам экани англашилади. Яъни содир этилган хунрезликда у ниёзқушбегиларни айблайди, асло хоннинг ўзини эмас (дарвоқе, хоннинг ўзини юқоридагича тутиши ҳам асли шунақа юсуфбекҳожилар учун). Албатта, хонликка узоқ йиллик хизматлари давомида кўнглига гоҳи иштибоҳ инган дамлар ҳам бўлгандир, бироқ ҳожи ўз наздида хонни бешак эзгулик томонида кўргани ва ўзини шу эзгуликка хизмат қилдим деб билгани ҳам шубҳасиз. Романдаги Юсуфбек ҳожи линиясининг кульминацияси – меҳмонхонасида марғилонлик қудасию яна бир-икки маҳалла кишилари иштирокида кечиб турган суҳбат асносида ўзининг хизматлари қадрланмаганидан шикоятланаркан, *"Юнус Муҳаммад охунд унинг сўзини бўлди:*

– Эй ҳожи, – деди, – ҳамма фасод улуламирда, агар улуламир дуруст одам бўлса, уч-тўртта муттаҳамнинг ёмонлиғи ҳеч қаерга бормас ва бунча гуноҳсиз бечоранинг қони ўринсиз тўкилмас эди".

Охуднинг "*эй ҳожи*" дея туртиб-таъкидлаб, хонадон соҳибининг гапини бўлиб, "*ҳамма фасод улуламирда*" дейиши қатъий ҳукм каби янграйди. Албатта, бу қадар қатъият бежиз эмас, охунд айтмишига ҳужжат – ҳадис келтирадики, маъноси "агар бир қавмнинг иши ноаҳл одамга топширилган бўлса, ўшал қавмнинг қиёматини яқин бил". Жавобан Юсуфбек ҳожининг сидқидилдан "*Саддақта ё расулуллоҳ*" деган хитобию беихтиёр ҳадисни такрорлаши, ортиданоқ "*вой бўлсин биз бадбахтларнинг ҳолига*" дейишида улуламир ҳақидаги фикри тугаллик касб этганига далолат бордек кўринади бизга. Жумладан, ҳожининг "*шу кунгача бўлмаганларга бўлишмоқчи бўлиб умримнинг ниҳоятига етиб қолдим*" деган эътирофидаги "бўлмаганлар" ўз ичига энди "улуламир"ни ҳам олишига ҳеч бир шубҳа қолмайди. Худди шу нуқтага ҳам муаллифнинг замонаси ҳақидаги ўй-фикрлари, жамиятда юз бермиш ҳодисалар руҳиятида қолдирган излар про-

екциялангандек кўринади. Худоёрхондан кутганлари саробга айланган Юсуфбек ҳожи “дунё ишларига этак силкигани” каби, инқилобдан кутганлари рўё эканини англагани сари Абдулла Қодирийнинг ижтимоий фаоллиги 1920-йилларнинг ўрталарига томон сусайиб борган...

Хулоса қилсак, “Ўткан кунлар” романидаги Худоёрхон образи, асар сюжетидаги ижтимоий-тарихий чизиқ воқеалари Абдулла Қодирийнинг ҳукмдор, ҳокимият ҳақидаги бадиий концепциясини ифода этади. Ушбу концепцияга кўра, биринчидан, турли даврлардаги ҳокимият тизимининг мавжудлиги ва амал қилишида умумий қонуниятлар кузатилади; иккинчидан, шахсий, гуруҳий ҳамда умум манфаатлари нисбати ва ўзаро муносабатларининг тўғри белгиланиши тизим барқарорлигини белгилайди; учинчидан, “адолатли хон” (подшоҳ) ҳақидаги орзу ҳам, “хон ҳазратлари жамият ҳаётидаги ноҳақлигу адолатсизликлардан бехабар, уни атрофидаги маслаҳатчилар чалғитади” қабилидаги қарашлар ҳам чўпчакдан бошқа нарса эмас.

ЖАДИДЛАР МЕРОСИНИ ЎРГАНИШ МУАММОЛАРИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Баҳодир КАРИМОВ,
филология фанлари доктори,
профессор
(Ўзбекистон)

-1-

Жадидлар меросини ўрганишнинг улкан миқёсда давр мафкураси билан боғлиқ жиҳатлари бор. Жадидлар XX асрнинг бошларида эъзоз топди, фикрлари қадрланди, бу жараён то шўролар ҳукумати ўз ҳукмронлигини мустаҳкамлаган давр, яъни 30-йилларга қадар давом этди. Кейин ватан ва миллат учун жон куйдирган бу жадидларни ёппасига қоралаш, бегона ҳудудларга сургун этиш ва оммавий қатағон қилиш жараёни бошланди. Жадидлар бошига келган балойи офат бир неча ўн йилларга чўзилди. Уларнинг асарлари нашр қилинмади, номларини яхши маънода тилга олиш тақиқланди. Ўша мустабид шўро даврида юрак ютиб Озод Шарафиддинов томонидан жадид адиблари ижод намуналари жамланган "Тирик сатрлар" тўплами ҳам тезда йўқ қилинади; "Музнома" муқовасига жойланади [Норматов У., 2007. 192–198.] Бундай тақиқ ва таъқиблар жараёни, табиийки, истиқлол арафасига қадар давом этди.

-2-

Жадидларга алоқаси бўлмаган, аммо қатағонга учраган айрим кимсаларни ҳам жадидлар сафига тақаб, улар учун кўз ёш тўкиш ҳоллари ҳам кузатилади. Инсон қадри муҳим, аммо ҳар бир кимса ва ҳар бир нарса ўзининг белгили тарихий ўрнида туриши керак. Жуда содда бир мисол келтираман. Оташин, истеъдодли шоир Усмон Носир жадид сафига киритилди. Хусусий бир нашриёт шоирнинг "Сайланма"сини улкан жадид адиблари қаторида – махсус рукн остида ҳам нашр қилди. Ҳолбуки, бу

шоир адабий-ижодий фаолияти энди-энди бошланган маҳалда жадидларни секин-аста миллатчиликда айблаш жараёнлари бошланган эди. Жадидона ғояларни эгаллашга ҳали улгурмаган эди бу шоир. Жадид бўлмаслиги адибларнинг адабиёт тарихидаги мартабасига мутлақо таъсир кўрсатмайди. Зотан, 1927 йилдан бошлаб чўлпонизм баҳслари пайдо бўлди. Кейин ўн йил давомида кучайди ва оқибат қатор миллатпарвар адиблар ўлдирилди. Ҳолбуки, нисбатан ёши улуғ ва ўзига чўлпонлар авлодини устоз санаган Ойбек руҳияти жадидлар ғояларига ҳар томондан яқин эди. Ойбек ижодининг бошланишида Чўлпонга эргашув сезилади. Лекин бу адибнинг ўрни жадидлар сафида эмас. Демоқчимизки, илм-фанда ҳар бир воқеа-ҳодисани ўз номи билан атамоқ лозим.

-3-

Ўзбек мумтоз ёзувидаги матнларни ўрганиш бўйича муаммолар йўқ эмас. Жадидчиликка ёппасига қизиқиш кучайган мустақилликнинг бошларида "уламо"ни "илмо", "тавалло"ни "туло" деб ўқилганини эслайман. Ҳатто яқинда нашр бўлган бир мақола таркибида 1905-йилда босила бошлаган "Олами нисвон" (Аёллар олами) газетасининг номи хато ўқилиб, "Илм нисвон" тарзида эълон бўлиб кетди. "Қулил ҳаққа ва лав кана мурран" (Гарчи аччиқ бўлса ҳам, ҳақиқатни айтмоқ керак) ҳикмати таркибидаги "мурран" (аччиқ) сўзи ҳали-ҳануз бирон маъно бермайдаган "мароан" кўринишида китоблардан китобларга кўчиб юрибди. Талабалик йилларим Вадуд Маҳмуд асарлари табдилида йўл қўйилган битта нуқсондан, яъни "уд"ни "авд" деб ўқиганимда керакли танбеҳни эшитганман. Ҳолбуки, юз бетлик матнни ўгиришда йўл қўйилган биргина хатолик шу кунга қадар ўзбек мумтоз ёзувини ўқиганимда ёдимга келади. Табдилда англанмаган сўзларни араб ё форс тилини мукаммал биладиган мутахассислардан сўраш лозим бўлади. Мен бу ўринда атайин араб ёзувидаги адабий меросга нисбатан "эски" сўзни қўллаганим йўқ. "Эски ўзбек ёзуви", "араб имлосига асосланган ўзбек эски ёзуви", "араб алифбосидаги эски ёзув", "эски ўзбек

тили” каби бирикмали атамалар таркибидаги “эски” сўзи ўрнига “ўзбек мумтоз адабиёти” атамасига мос равишда “ўзбек мумтоз ёзуви”, “ўзбек мумтоз тили” атамаларини қўлламоқ зарур, деб ўйлайман. Тўғриси, бир сидра қараганимда “эски” ёки “қадимги немис тили, алифбоси”, “қадимги рус” ёки “эски рус тили ва алифбоси” тарзидаги атамалар илм-фан истеъмолидан ўрин олибди. “Қадимги”, “эски”, “янги” каби сифатлар дунё тиллари таснифи ва ёки тарихини даврлаштиришда ҳам бор. Бу далилни кўпчилик билади. Аммо дунёда ўша тоифадаги қатор тилларга тегишли “эски алифбо” – унинг эскича шаклдаги кўплаб ҳарфлари бугун амалда эмас. Айни воқеликдан фарқли ўлароқ бугун биз “эски ёзув” деган алифбодан ҳозир ҳам дунёнинг айрим мамлакатлари аҳолиси, хусусан, афғонистонлик, арабистонлик ўзбеклар, уйғурлар амалда фойдаланишади. Бу эса алифбонинг “эски” эмас, балки, “табаррук” ва “мумтоз” эканини кўрсатади. “Мумтоз” сўзи “сараланган, ажратилган” маънони англатади. XX асрда бу ёзув бизда истеъмолдан четга сурилди, бу ёзув янги замондан ажратилди. Ҳолбуки, айни ёзувда ўзбек мумтоз ва жадид адабиётининг энг сара – сараланган бебаҳо асарлари ёзилганини асло инкор қилиб бўлмайди. Шунингдек, кўп асрлик ўзбек мумтоз адабиёти ўзбек мумтоз ёзуви ва ўзбек мумтоз тили ҳамда бетакрор поэтик тафаккури маҳсулидир. [Нурмуҳаммад Б., 2025.7.]

-4-

Бир муаллиф ёзган адабий, илмий асарлар эътиборсизлик туфайли ўша замоннинг бошқа бир муаллифи номига илова қилинади. Жадидчиликка қизиқиш кучайган истиқлолнинг аввалги йилларида Абдураҳмон Саъдийнинг “Имом Ғаззолий” мақоласининг номланиши нотўғри ўқиш ва муаллифига эътибор беримагани оқибатида Чўлпоннинг “Имом Фузулий” мақоласи тарзида тақдим этилганини ёки яна бир жузъий мисол – Элбекнинг “Қуролга” шеъри Чўлпонга нисбат бериб таҳлил этилгани эсимда. Китоб ичига кўзойнаклари ўхшаш бўлгани учун Чўлпоннинг расми ўрнига адашиб, жадид зиёлиси Абдулла

Алавий сурати берилгани ҳам бор гап. [Мирвалиев, 1993. Мирвалиев, 2016.].

Жадид адиблари ёзган асарлар таркибида келган айрим китоблар номи учун ноўрин изоҳлар ёзиш ҳоллари ҳам йўқ эмас. Дейлик, араб тили грамматикасига оид "Кофия" китобини "Қофия" тарзида англаб, "илми қофия"га буриб изоҳлаш ёки "Илми фароиз" – меросни тақсимлаш илмига "мусулмонликдаги фарзларни ўргатувчи илм" (Исмоилбек Гаспринский, "Ҳаёт ва мамот" масаласи, 237-бет) тарзида тушунтириш ҳолатлари ҳам бор жадидчиликнинг яқин тарихида. Шунингдек, биздаги барча манбаларда Исмоил Гаспиралининг "Туркистон уламоси" асари хусусида гап боради. Лекин кейинги давр изланишларига қараганда, туркиялик таниқли гаспиралишунос Явуз Акпинар номи шу шаклда ўзгартирилган китоб ноширн Гаспирали экани, асар аслида Бурсали Меҳмет Тоҳир Бей қаламига мансублиги, номи ҳам "Туркларнинг илм-фандаги хизматлари" деб аталгани исботи учун қиёсий жадваллари билан махсус мақола ёзди. [Akpinar, 2008. №15]. Шунга монанд жуда кўп адабиётларда Абдулла Қодирий "Ўткан кунлар" романининг "Инқилоб" журналида босилиш санасини 1922 йил тарзида кўрсатилади. Аслида, асардан айрим фасллрнинг нашри журналнинг 1923–1924 йилги сонларига тўғри келади. [Карим Б., 2019.230-249]. Шунингдек, жадидларнинг турли тахаллуслар билан ёзилган асарлари хусусида ҳам шундай ҳол кузатилади. Бундаги муаммоларни тасриҳлаш учун аниқ манбалар ва ёки қиёсий-услубий текширув муҳим аҳамият касб этади.

-5-

Жадидлар томонидан чиқарилган газета ва журналларнинг номланиши, сон-саноғи масаласида кўп ҳолларда Зиё Саид "Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870–1927)" асарига таянилади. Ҳолбуки, айрим матбуот нашрларининг номи ўзгарган ("Озиқ ишлари", "Арзоқ ишлари" тарзида) ёки дунё юзини кўрган сонларида фарқ бўлиши ҳам мумкин. Дейлик, Самарқандда 20-йилларда нашр бўлган "Меҳнаткашлар

товуши”нинг аввалги номи “Менаткашлар ўқи” ва кейинги номланиши “Зарафшон”дир. Яна бир гап: манбаларда “Садои Туркистон” газетасининг “66 сони чиқиб, моддий аҳволининг танглигидан ётиб қолгани” айтилади. [З.Саид, 1974. 44.; Дўстқораев, 2009. 226.]. Синчков жадидшунос, профессор Зайнобиддин Абдирашидов айни газетанинг навбатдаги яна бир сони борлигини аниқлади.

Жадид вақтли матбуоти манбаларининг замонавий имлода аслият иловалари билан тугал нашр этилиши ҳам ҳали-ҳануз кун тартибида турибди. Чунончи, шундай газета ва журналлар борки, уларни техника замонида махсус жилдлаб – китоб шаклида нашр этиш қийин эмас. Ихлос, қунт ва энг муҳими, моддий маблағ зарур. Илмий-амалий лойиҳаларга ажратилган маблағлардан бир қисмини шу ноёб мерос томонга йўналтириш фойдали бўлади. Бир мисол. 1922 йили иккита сони чиқиб, сўнгра тўхтаган “Ҳақиқат” журнали ўн йиллар олдин Японияда қайта босилганидан хабарим бор. Бу хайрли иш япониялик жадидшунос Хисао Куматсу ва тарихчи олим Бахтиёр Бобожонов ташаббуси билан бажарилди. Иккинчи мисол – Темур Хўжа ўғли 1929–1939 йилларда хорижда босилган “Ёш Туркистон” журналининг фотонусхасини ўн жилд ҳолида қайта нашр эттирганига анча бўлди (Биринчи жилди 1997 йилда чиққан эди).

-6-

Жадидшуносликда илм-тадқиқот этикасига, яъни бировлардан иқтибос олиш, шу мавзуни ўрганган олимлар фикрини қадрлаш маданиятига амал қилмаслик вазиятлари кўп учрайдиган ҳодисалардан биридир. Бир олимнинг мақоласини ёки табдил қилган манбасини гўё ўз фикри ёки ўзи ўша манбани табдил қилгандек таассурот уйғотадиган мақола-тадқиқотлар йўқ эмас. Демоқчиманки, ўз вақтида қора меҳнат қилиб, манбаларни излаб топган ва ўқувчилар оммасига тақдим этган Бегали Қосимов, Шерали Турдиев, Бойбўта Дўстқораев, Сирожиддин Аҳмедов каби бир қатор олимларнинг меҳнатини қадрлаш лозим. Бу масалада муайян мавзу муҳокамасида ўзигача бўлган олимлар

тадқиқий китобларини ўқиш ва уларнинг хизматини эътироф этиш тавсия қилинади. Илм-фан соҳасидаги жуда оддий этика шундай.

Техник имкониятлар авж паллага чиққан ҳозирги замонда баъзан жадидлар мероси тадқиқида ижтимоий-адабий ўзандаги тайёр мақолалардан диссертациялар ясаш ҳоллари ҳам кузатилади. Тармоқларга нотўғри киритилгани сабабли жадидчиликка доир айрим манбалар жузъий хато, камчилик, нуқсон билан – шу ҳолича мақсадини унутган дарбадар сайёҳдек манбадан манбага кўчиб юрибди.

-7-

Жадидчиликни тадқиқ қилаётган турли соҳа олимлари ўртасида парокандалик кузатилади. Улар орасида тарқоқ, бирлашмаган ва баъзан ўзбилармонлик касалига учраган ҳамда ҳақиқатни сўрашга ор қиладиган тоифа шаклланганга ўхшайди. Аслида, билмаганини сўраб билиш чин олимлик мартабасидир. Бугун мамлакат мустақил бўлганига ўттиз йилдан ошди. Жадидчилик ҳаракати, жадидлар мероси, уларнинг ижтимой-сиёсий фаолияти ҳар тарафлама жиддий ўрганилмоқда. Бироқ бунда ҳам тарихий-маданий воқеликни комплекс тадқиқ этишдан кўра пала-партиш, "чўқилаб" ўрганиш ҳолатлари кузатилади. Бу ҳолат кўзи ожиз кимсаларнинг Ҳиндистонга бориб, филни пайпаслаб келганидан кейин ҳар бирининг ўз тасаввурини сўзлашларига ўхшайди. Бундай ўхшатиш учун воқеликни тубдан, бутун асос-негизи билан муҳокама қила оладиган мутахассислар бор бўлса, улардан узр сўрайман. Халқаро миқёсда олиб борилаётган тадқиқотлар ва дунёга таниқли жадидшуносларнинг ёзганларидан бохабарлик борасида ҳам яхлит тасаввур йўқ. Шу эътибордан жадидшуносликнинг халқаро марказини тузишга доир айтилган ва ўз вақтида академик Н.Каримов қўллаб-қувватлаган таклиф, назаримда, ҳали ҳам ўз кучида турибди. [Ризаев Ш., Каримов Б., Абдирашидов З., 2022. 28 декабрь (№264 (768); Каримов Н., 2023 йил, 10 январь (№5 (794)].

Умуман олганда, жадидчилик масалаларининг кенг кўламли

тадқиқотлари давом этар экан, ҳар бир зиёли бу соҳада илм ҳақиқатини, муносабат холислигини, айниқса, матнлар ва кўчирмалар аниқлиги ҳамда уларни аниқ тақдим этиш усулларини асло унутмаслиги лозим.

Адабиётлар:

1. Норматов У. “Бир асар тарихи” сабоқлари” мақоласи / “Ижод сеҳри” китоби. – Тошкент. “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2007 йил. 192–198-бетлар.

2. Нурмуҳаммад Б. (Баҳодир Карим). “Эски”ми ё “мумтоз”? // “Жадид” газетаси, 2025 йил 21 март.

3. Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. – Тошкент. “Фан” нашриёти, 1993 йил. Китобнинг кейинги нашрларида бу расм тузатилди. Қиёсланг: Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. – Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2016 йил.

4. Yavuz Akpinar. Ismoil Gaspiraliya atf ədilen bir eser: Turkistan ulemasi. Turk dili ve edebiyati Arastirmalari Dergisi. 2008 yil №15.

5. Карим Б. “Ўткан кунлар”га қайтиб” мақоласи / “Абдулла Қодирий феномени” китоби. – Тошкент. “INFO CAPITAL GROUP” НАШРИЁТИ. 2019 йил, 230–249-бетлар.

6. Зиё Саид. Танланган асарлар. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент. 1974 йил, 44-бет.

7. Бойбўта Дўстқораев. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009 йил, 226-бет.

8. Ризаев Ш., Каримов Б., Абдирашидов З. “Жадидлар фаолияти – ибрат мактаби” (ёки Халқаро жадидчилик академиясини ташкил этишга доир айрим мулоҳазалар) // “Янги Ўзбекистон” гезатаси. 2022 йил 28 декабрь (№264 (768));

9. Каримов Н., “Миллий уйғониш ва тараққиёт даврининг ёқут юлдузлари”// “Янги Ўзбекистон” гезатаси. 2023 йил, 10 январь (№5 (794)).

TÜRKİSTAN'IN MİLLÎ UYANIŞ DÖNEMİ EDEBİYATINA YANSIMASI

Veli Savaş YELOK[14]
(Turkiya)

Özet

19. yüzyılın sonları ve 20. yüzyılın başlarında, Çarlık Rusyasının Türkistan coğrafyasında hâkimiyet kurduğu dönemde, sosyal, siyasi, ekonomik ve kültürel açıdan büyük bir çöküş yaşamyordu. Ancak bu yıllarda, modernleşme çabaları kapsamında aydınlar, mevcut durumu sorgulayan bir tavır sergileyerek, içinde bulundukları zor durumdan kurtuluş yolları aradılar. Bu süreçte millî uyanış ruhu ortaya çıkmış, yenilik ve reform girişimleri dikkat çekmiştir. Millî Uyanış Dönemi aydınları, esaret altına giren "ülke"leri için verdikleri mücadeleyle Türkistan'ın adeta gören gözü, duyan kulağı, konuşan dili ve vicdanı olmuş, bölgenin sözcüleri hâline gelmişlerdir.

Bu aydınlar, dönemin siyasi, sosyal ve kültürel koşulları gereği, şiirlerinde Türkistan ve Türkistanlılarla ilgili temaları işlemişlerdir. Onlar kimi zaman doğrudan "Türkistan" ve "Türkistanlı" ifadeleriyle muhataplarını belirtmiş, kimi zaman da "İslam", "Müslüman" veya "Şark" gibi kelimelerle dolaylı olarak konuya işaret etmişlerdir. Her iki durumda da Türkistan'ın içinde bulunduğu kötü durum ve özgür bir Türkistan için verdikleri mücadeledeki duygu ve düşüncelerini dile getirmişlerdir.

Dönemin şairleri, Türkistanlıların, atalarının kurduğu medeniyeti, ilmî birikimi, yazdıkları eserleri ve gerçek vatansever aydınları terk ettiğini, bunların yerine cehaleti tercih ettiğini dile getirmiş, vatanlarının işgalciler tarafından hem maddi hem de manevi olarak tahrip edildiğini vurgulamışlardır. Millî Uyanış Dönemi aydınları, Batı ve Doğu halklarının yaşam tarzlarım, sosyal ve ekonomik durumlarım karşılaştırarak ortaya koydukları gerçeklerle Türkistanlıların uyanmasını ve ibret almasını sağlamaya çalışmışlardır.

Anahtar kelimeler: Türkistan, Millî Uyanış Dönemi, eğitim ve öğretim, yenileşme çalışmaları, reform, vatan.

[14] Doç. Dr., Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, savas.yelok@hbv.edu.tr

Summary

At the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, during the period when Tsarist Russia established near-complete dominance over the Turkistan region, a profound decline was experienced in social, political, economic, and cultural spheres. However, during these years, within the framework of modernization efforts, intellectuals adopted a critical stance, questioning the existing conditions and seeking ways to escape the dire circumstances they faced. In this process, a spirit of national awakening emerged, and initiatives for innovation and reform gained prominence. The intellectuals of the National Awakening Period, through their struggle for their enslaved "homeland," became the seeing eyes, hearing ears, speaking voice, and conscience of Turkistan, effectively serving as the region's spokespersons.

These intellectuals, shaped by the political, social, and cultural conditions of the time, addressed themes related to Turkistan and its people in their poetry. At times, they directly referred to their audience as "Turkistan" and "Turkistanis," while in other instances, they alluded to their subject indirectly through terms such as "Islam", "Muslim," or "the East." In both cases, they expressed their emotions and thoughts regarding Turkistan's dire state and their struggle for a free Turkistan.

The poets of this period noted that Turkistanis had abandoned the civilization, scholarly heritage, written works, and true patriotic intellectuals established by their ancestors, choosing ignorance instead. As a result, they emphasized that their homeland had been devastated both materially and spiritually by occupiers. The intellectuals of the National Awakening Period sought to awaken Turkistanis and encourage them to take lessons from reality by comparing the lifestyles, social, and economic conditions of Western and Eastern peoples.

Keywords: Turkistan, National Awakening Period, education and instruction, modernization efforts, reform, homeland.

Giriş

Türkistan, Emir Timur ve Uluğbek dönemlerinde muazzam bir medeniyetin merkeziyken bu altın çağın ardından iç çekişmelerle zayıflamış ve siyasi, kültürel, medeni hayat adeta çöker. 19. yüzyılın sonlarında Çarlık Rusyasının bölgeye tam hâkimiyetiyle Türkistan için felaket, ıstırap ve gözyaşıyla dolu bir dönem başlar. Sosyal, siyasi, ekonomik ve kültürel alanlarda büyük bir çöküş yaşanırken aynı dönemde modernleşme çabalarıyla aydınlar, bu karanlık tablodan kurtuluş yolları aradı. Millî uyanış ruhu filizlenirken, yenilik ve reform girişimleri dikkat çekti.

Bu dönem, Türkistan'da Millî Uyanış veya Cedit Hareketi Dönemi olarak adlandırılır. Taşkent, Buhara, Hokant ve Semerkant'taki Ceditçi aydınlar, Avrupa medeniyetinden ilham alarak Türkistan'ı cehaletten, geri kalmışlıktan ve esaretten kurtarmak için harekete geçti. Ceditçilerin temel amacı, Türkistan'ı eğitimli, müreffeh, hür ve bağımsız bir vatana dönüştürmekti (Ризаев, 1997: 5). Çarlık Rusyasının 1904'te Japonya'ya yenilmesiyle ortaya çıkan ekonomik kriz ve 1905'te II. Nikola'nın ilan ettiği meşrutiyet, Ceditçilere daha serbest bir ortam sağladı. Bu dönemde eğitim, matbuat, tiyatro ve edebiyat alanlarında başlayan farkındalık, gazete ve dergilerle şekillendi, siyasi alanda da yankı buldu.

Ceditçiler, usul-i cedit mektepleri açarak, gazete ve dergiler yayımlayarak edebiyatı millî uyanışın bir aracı hâline getirerek Türkistan'ı cehaletten kurtarmayı, burada millî birliği sağlamayı ve burayı bağımsızlığına kavuşturmayı hedeflediler. Edward Allworth, Ceditçilerin amaçlarını şöyle özetler: "İhtilal döneminin başında yerli vatanperverler, ortak Türkistan kültürü üzerinde düşünmeye devam etmiş ve Türkistan adını kullanmak istemişlerdir. Müşterek Türk birliği ve Doğu boyunca İslami bağlar kurmayı düşünmüşlerdir." (Allworth, 1964: 45).

Cedit Hareketi'nin Faaliyetleri

Ceditçiler, eğitim, matbuat, tiyatro, edebiyat ve siyaset alanlarında köklü reformlar için çalıştılar. 1905 öncesi Çarlık Rusyasında Türk dilinde 11 gazete yayımlanmışken, 1905-1918 arasmda Türkistan'da 33 gazete ve 19 dergi neşredildi (Somuncuoğlu, 2006: 261-262). *Samarkand, Oyna, Xurshid, Taraqqiy, Osiya, Tujjar, Shuxrat, Turon, Ulug' Turkiston, Sadoiy Farg'ona, Buhoraiy Sharif, Hurriyat, Mushtum, Ishtiroqiyyun, Mahnatkashlar Tovushi* ve *Zarafshan* gibi yayınlar, Türkistan'ın sosyal, siyasi, ekonomik durumunu ele alan yazılarla doludur. Bu yayınlar, tarih, dil, edebiyat ve dünya olaylarım konu edinerek halkı bilinçlendirmeyi amaçlar.

Ceditçiler, gazete ve dergilerde "cedit, usul-i cedit, terakki, vatan, millet, hürriyet, milliyet" gibi kavramları kullanarak halkı aydınlatmaya çalışırlar. Eğitimde usul-i cedit mektepleri açarak modern bilimlerin ve İslami bilgilerin öğretilmesini teşvik ederler. Ancak, geleneksel medrese uleması ve eski usul mektep muallimleri, bu okulları "bidat" olarak görür ve Ceditçilere "Rus yanlısı" gibi suçlamalar yöneltir.

Millî uyanışın aydınları, esaret altındaki Türkistan için mücadele ederken adeta bölgenin vicdanı olur. Onlar, hürriyet ve istiklal için yazdıkları şiirlerle, Türkistan'ın gören gözü, duyan kulağı ve konuşan dili hâline gelir. Bu şiirler, gerçekçi ve idealist bir ruhla toplumu harekete geçirmeyi amaçlar. Hürriyet, cehaletten ve insam köleleştiren her türlü koşuldan kurtuluş olarak tanımlanır. Türkistan'ın siyasi, sosyal ve kültürel durumundan kaynaklanan sorunlar, Ceditçilerin eserlerinde işlenen ana temalar oldu.

Türkistan'ın Ahvalini Anlatan Şiirlere Dair

Ceditçi aydınlar, Türkistan'ın ahvalini anlatan şiirlerinde sosyal, siyasi ve ekonomik sorunlara odaklanır. Tembellik, cehalet, zararlı alışkanlıklar, yanlış âdetler, ilme duyarsızlık, zenginlik ve ittifaksızlık gibi temalar işlenir.

Abdullah Avlânî, Türkistanlıların tembellik ve vurdumduymazlığını eleştirirken, bilimin önemini vurgular. *Millat Haykaliga Xitob* şiirinde, milletini ilme yönelmeye çağırır:

Uxlading bir necha yil, imdi ilma g'ayrat qil,
Yalqovlikni tark ayla, fan ilmining yaxshi bil!
Tur bizlarga yo'l ko'rsat, ko'rpangni ustindan ot,
Bul taraqqi davrinda, yatmog'lik senga uyat.

(Abdulla Avlânî, 1916: 35-36)

Avlânî, Türkistanlıların sanayi, ticaret ve bilimden yoksun olduğunu, bu nedenle başka milletlere muhtaç hâle geldiğini belirtir. *Turkiston Tufrag'indan Bir Sado* şiirinde, cehaletin Türkistan'ı mahvettiğini ve milletin birleşmesi gerektiğini haykırır:

Hayoting bog'ini saylob idan boroni gaflatdur,
Bahishtoso vatan viron qurboni jaholatdur,
Bukub millat boshini past idan mizoni vaxshatdur,
Bizim olomi g'urbatga salan "hijron" adovatdur,
Qilur bizlardan ay ahli vatan faryod Turkiston,
Hama obod bo'ldi bo'lmadi obod Turkiston.
(Abdulla Avlânî, 1916: 35-36)

Avlânî, Türkistanlıların çayhanelerde vakit geçirdiğini, kumar ve kötü alışkanlıklarla hayatlarını mahvettiğini eleştirir. Gaflet uykusundan uyanmalarını, ticarete ve sanata yönelmelerini ister. Avrupa ile Türkistan'ı karşılaştırarak bilimin ilerlemedeki rolünü vurgular.

Türkistan'ın Harap Hâlini Anlatan Şiirlere Dair

1905 meşrutiyeti sonrası kısa bir serbestlik dönemi yaşayan Türkistanlılar, 1907'den itibaren Çarlık Rusyasının baskılarıyla karşılaşır. 1916'da Çar II. Nikola'nın "merdikâr" fermanı, 250 bin Türkistanlının cephe gerisinde çalıştırılmak üzere toplanmasını öngörür. Bu karar, Türkistan'da büyük bir isyana yol açar. Ceditçilerin önderlik ettiği bu isyan, millî bir hareket hâline gelir ancak teşkilâtsızlık nedeniyle başarısız olur (Karakaş, 2021: 11-12).

1917 Bolşevik İhtilali, Türkistanlılara bağımsızlık umudu verir. Lenin ve Stalin'in "Milletlerin Kendi Kaderini Belirleme Hakkı" deklarasyonu, millî devlet vaadi sunsa da, bu sözler tutulmaz. 27 Kasım 1917'de kurulan Türkistan Muhtariyeti, 19 Şubat 1918'de

Kızıl Ordu tarafından yıkılır. Hokant'ta binlerce kişi öldürülür, köyler yakılıp yıkılır (Қосимов, 1997: 31).

Çolpan, Türkistan Muhtariyeti'nin kuruluşunu *Âzâd Türk Bayramı* şiirinde coşkuyla kutlar:

Ko'z oching, boqing har yon!
Qardoshlar, qanday zamon!
Shodlikka to'ldi jahon!
Fido bu kunlarga jon!
Turkistonlik – shonimiz, Turonlik – unvonimiz,
Vatan – bizning jonimiz, fido o'lsun qonimiz!
(Чўлпон, 1994: 126-127)

Ancak Muhtariyet'in yıkılışı, Ceditçileri derin bir hayal kırıklığına uğratır. Abdurrauf Fıtrat, *Sharq* şiirinde, Hokant'taki katliamları isyanla anlatır:

O'tlar ora yonib turgan qishloqlar,
Xirmon bo'lib yotg'on gavdalar jonsiz,
Oqmoqdadir qizil qondan ariqlar,
Tinch turg'onlar talanadir omonsiz.
(Qosimov, 2008: 279-280)

Kâmî, *Afsusnoma* şiirinde Hokant'ın yıkımını şöyle tasvir eder:

Voy, yuz voyki, Farg'ona harob o'ldi, darig',
Zulm o'qi birla bu kun gardi turob o'ldi, darig',
(Qosimov-Yusupov vd., 2004: 136)

Çolpan'ın *Buzilgan O'lkaga* şiiri, Türkistan'ın harap hâlini bir destan-ağıt gibi işledi:

Ey, tog'lari ko'klarga salom beran zo'r o'lka,
Nega sening boshingda quyuq bulut ko'lanka?
Ko'm-ko'k, go'zal o'tloqlaring bosilg'on,
Ustlarida na poda bor, na yilqi,
Podachilar qaysi dorg'a osilg'on?
(Чўлпон, 1994: 50)

Abdullah Avlânî, *Vatan* şiirinde vatan sevgisini yüceltir:

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim seni qadring bilmas 'aqli pasdur,
Sening tuyg'ung yuraklarga savdo salur,
Sening dardin bashqa dardni tortib alur.
(Abdulla Avlânî, 1915c: 3–4)

Avlânî, *Turkiston Tufrag'iga Hitob* şiirinde Türkistan'ın işgaline isyan eder:

Ziro'atdan xabarsiz bizlar u berbod Turkiston,
Qilur bizlardan ay ahli vatan faryod Turkiston,
Hama obod bo'ldi bo'lmadi obod Turkiston.
(Abdulla Avlânî, 1915a: 35-36)

Sonuç

Ceditçi aydınlar, Türkistan'ı cehaletten kurtarmak ve bağımsızlığa kavuşturmak için durmaksızın mücadele eder. Onlar, Türkistan'ın atalarının kurduğu medeniyeti terk ettiğini, cehaleti seçtiğini ve bu nedenle Çarlık Rusyası ile Sovyet yönetimi tarafından mahvedildiğini vurguladı. Batı ve Doğu'nun hayat tarzlarını karşılaştırarak Türkistanlıların gözlerini açmaya çalışırlar. "Hür vicdan" arayışı, onların eserlerinde merkezi bir tema olur. Ancak, 1924'te Türkistan'ın sovyetleştirilmesi ve millî birlik fikirlerinin bastırılması, bu idealleri gölgeler. Yine de Ceditçilerin şiirleri ve mücadeleleri, Türkistan'ın hürriyet ruhunu canlı tutar.

Kaynaklar

Abdulla Avlānī. (1915a). *Edebiyāt Yāḫut Millī Şi'irlerden*. 2. Cüz. Taşkent: O. A. Portseva Tipo-Litografiyasi.

Abdulla Avlānī. (1915c). *Mekteb Gülistānı, Millī Şi'irlerden*, 5. Cüz. Taşkent: Yakovleva Litografiyasi.

Abdulla Avlānī. (1916). *Edebiyāt Yāḫut Millī Şi'irlerden*. 3. Cüz. Taşkent: Gulam Hasan Arifcanov Litografiyasi.

Allworth, Edward. (1964). *Uzbek Literary Politics*. London: Mouton & Co.

Karakaş, Şuayip. (2021). 20. Yüzyıl Türk Dünyası Üzerine Bir Deneme. *Özbek Edebiyatı Yazıları*. Ankara: Bengü.

Qosimov, Begali. (2008). *O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi*. – Toshkent: Fan va texnologiya.

Qosimov, Begali., & Yusupov, Sharif. (2004). *Milliy Uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. – Toshkent: Ma'naviyat.

Somuncuoğlu, Bekir Tümen. (2006). *Türkistan'da Eğitim (1865-1917) ve Çarlık Rusya'sının Sosyo-Politik Açıdan Eğitime Yaklaşımı*. Ankara: Gazi Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü (Yayımlanmamış Doktora Tezi.

Қосимов, Бегали. (1979). *Абдулла Авлоний: – Тошкент тонги*. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

Ризаев, Шуҳрат. (1997). *Жадид Драмаси*. – Тошкент: «Шарқ» Нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти.

Чўлпон. (1994). Озод Турк байрами. *Асарлар. I: Шеърлар-Драмалар-Таржималар*. (О. Шарафиддинов таҳрири остида). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

""DEVON-U LUG'OT" SO'ZLARI UCHUN FIHRIST"NING YARATILISHI VA ASOS MANBASI

Orzigul HAMROYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, filologiya fanlari doktori, professor v.b.
arguvon87@mail.ru
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Abdurauf Fitrat ilmiy laboratoriyasini adabiyotshunoslik, tilshunoslikning turli sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi. Olimning tilshunoslikning leksikografiya yo'nalishidagi izlanishlari nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, adabiyotshunoslikning adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, tarixiy poetika yo'nalishilari bilan uzviy bog'liq. Xususan, olimning "Devon-u lug'otit turk" asari tadqiqiga bag'ishlangan ikki yirik asari: "Eng eski turk adabiyoti namunalari" va ""Devon-u lug'ot" so'zlari uchun fihrist" garchi ikki turli janrdagi asarlar bo'lsa-da, ularni lug'at ilmi birlashtirib turadi. Olimning "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasi XX asr boshlarida yaratilgan ilk majmua bo'lsa, ""Devon-u lug'ot" sozlari uchun fihrist" asari "Devon-u lug'otit turk" asari uchun tuzilgan ilk indeks lug'at sanaladi. Maqolada Fitratning "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasidagi lug'at qismi ""Devon-u lug'ot" so'zlari uchun fihrist" so'zliklari bilan qiyosiy o'rganiladi. "Devon-u lug'ot" so'zlari uchun fihrist" asarining yaratilishi, tarkibiy tuzilishi borasida to'xtalinadi. Shu asosda olimning lug'at tuzish prinsipi borasida ilmiy xulosalar taqdim etiladi. Tadqiq davomida *statistik, sharhlash, komparativistik* tahlil usul va metodlaridan foydalaniladi.

Annotation

Abdurauf Fitrat's scientific laboratory is organized by scientific research in various fields of literary studies and linguistics. The sci-

entist's research in the field of lexicography of linguistics is inextricably linked not only with linguistics, but also with literary studies, literary theory of literary studies, literary history, literary criticism, and historical poetics. In particular, the scientist's two major works dedicated to the study of the work "Devon-u lug'otit turk": "Eng eski turk adabiyaty sampales" and "Devon-u lug'otit sozlari kun fihrist", although they are works of two different genres, they are united by lexicology. The scientist's complex "Eng eski turk adabiyaty sampales" is the first complex created at the beginning of the 20th century, while the work "Devon-u lug'otit sozlari kun fihrist" is considered the first index dictionary compiled for the work "Devon-u lug'otit sozlari kun fihrist". The article studies the dictionary section of Fitrat's "Examples of the Oldest Turkish Literature" in comparison with the dictionaries "Index for the Words of the Devon Dictionary". The creation and structural structure of the work "Index for the Words of the Devon Dictionary" are discussed. On this basis, scientific conclusions are presented regarding the scientist's principle of compiling a dictionary. During the study, statistical, interpretative, and comparative analysis methods and techniques are used.

Kalit so'zlar: *majmua, lug'at, lug'atshunoslik, fihrist, indeks, adabiy parcha.*

Keywords: complex, dictionary, lexicography, index, literary fragment.

KIRISH

Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asari turkiy dunyoning, tilshunoslik, adabiyotshunoslikning muhim birlamchi manbalaridan sanaladi. Shu bois necha asrlardan beri ayni asar adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, geografiya, tarix kabi turli fan sohalarining bir qancha tarmoqlari kesimida o'rganilmoqda, tadqiq etilmoqda.

XX asr boshlarida davr ijtimoiy-siyosiy vaziyatining o'zgarishi, adabiy, ilmiy-madaniy sohalardagi tub burilishlar "Devon-u lug'otit turk" asarining yangi tamoyil va uslublar asosida o'rganish ehtiyojini tug'dirdi. Bu davrning yirik olimlaridan biri Abdurauf Fitrat

tadqiqotlarining asosi ham turkiy lug'atshunoslikka bag'ishlangan – "Devon-u lug'otit turk" asarining o'rganilishi bilan bog'liq. Abduraf Fitratning "Devon-u lug'otit turk" asaridagi manzum parchalar tasnifiga bag'ishlangan "Eng eski turk adabiyoti namunalari" asari turkiy adabiyotshunoslikdagi muhim voqealardan biri bo'ldi. Fitrat "Devon-u lug'otit turk" asarining qachon va qayerda topilgani haqidagi dastlabki ma'lumotni asarning birinchi noshiri va ilk tarjimoni Rifat Kilislining "Yangi tong" gazetasida e'lon qilingan maqolasi orqali bayon qilgan.

Kilisli Rifat "Devon-u lug'otit turk"ni nashrga tayyorlashda Basim Atalay tarjima qilishda matndagi ayrim chalkash o'rinlarni tuzatishga harakat qilganlar.

ASOSIY QISM

OzR FASHIda "Devon-u lug'otit turk" asarining bir qancha toshbosma nusxalari mavjud bo'lib, matbaa va nashr ishlari endi shakllana boshlayotgan bir davrda o'zbek olimlarining "Devon"ni chuqurroq o'rganishlariga zamin yaratgan. Toshbosmalarning aksariyati Istanbul nashri bo'lib, Fitrat "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasidagi parchalarni ayni shu toshbosmalarga asoslanib taqdim qilgan. Inventar raqami 5201-3 bo'lgan, 1914 –1916-yillarda nashr qilingan, 1106 sahifadan iborat toshbosma, 5206-3, 5204-5, 14345-47, 8999, 9000, 5206-8 inventar raqamli toshbosmalar, 20927 inventar raqamli hijriy 1333-yilda nashr qilingan, 20929 inventar raqamli hijriy 1335-yilda nashr qilingan litografiyalar Fitrat kabi olimlarni mumtoz namunalarni kitobxonga yetkazishga ilhomlantirgan. Fitrat "Devon-u lug'otit turk" asari xususida, nazmiy parchalar va ularni tizimlashtirish borasida tadqiqotlar olib borar ekan, nazmiy parchalarning nasriy bayoni va parchalar uchun ishlab chiqilgan lug'at qismi olimning chin ma'nodagi adabiyotshunos ekanidan dalolat beradi.

Olimning lug'at ilmiga oid yana bir muhim asari ""Devon-u lug'ot" so'zlari uchun fihrist" bo'lib, asar OzR FASHIning Qo'lyozmalar fondida 5046/1 inventar raqamli ""Devon-u lug'ot" sozlari uchun fihrist" sarlavhasi ostida saqlanadi.

Har bir so'z qaysi jildda, sahifada ekani ko'rsatilgan. Arabcha

nashrning birinchi jildidagi so‘zlar daftarning 1–57, ikkinchi jilddagi so‘zlar 59–62, 74–83-sahifalarda, uchinchi jilddagi so‘zlar esa 62–66, 83-sahifalardan keyingi betlarda berilgan.[15] “Devon” tadqiqotchilaridan H.Hasanovning fikricha, bu ko‘rsatkich 1924–1925-yillarda tuzilgan. Agar shu sana ilmda e’tirof etiladigan bo‘lsa, bu qo‘lyozma adabiyotshunoslikda “Devon” bo‘yicha tuzilgan dastlabki indeks-lug‘at hisoblanadi. Qo‘lyozma 3 ta yirik asarni o‘z tarkibiga olgan, 190 sahifadan iborat matn ichida berilgan.



Qo‘lyozmadagi keyingi ikki asar Alisher Navoiyning “Vaqfiya” hamda “Munshaot” asarlari bo‘lib, bir-biridan farqli siyohlarda ko‘chirilgan. Tadqiqotchi Abdulla Nosirov qo‘lyozmaning so‘nggi qismida ““Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist”ni o‘rtoq Hanif 1963-yilda nashr qildirganini keltirib o‘tgan. Olim bu lug‘at Fitrat tomonidan tuzilgan deb taxmin qiladi, biroq noshir bu haqda hech qanday ma’lumot bermaganini keltirib o‘tadi. Qo‘lyozmaning 119-sahifasiga qadar qismi ““Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” asari bo‘lib, lug‘at “Devon-u lug‘otit turk”ning har uch jildi

[15] Lug‘atdagi so‘zlar arab alifbosi asosida taqsimlangan. Bir harf bilan boshlanuvchi so‘zlarning uchala jilddagi ishlatilgan o‘rinlari keltirilib, so‘ng keyingi harfga o‘tilgan.

uchun tuzilgan so‘zliklardan iborat. Lug‘atdagi so‘zlar alifbo tartibida keltirilgan bo‘lib, so‘zlar “Devon...”ning nechanchi jild va qaysi sahifasida ishlatilgani alohida qayd etib borilgan. Lug‘atdagi tartib 1-, so‘ng 2- va 3-jildda ishlatilgan so‘zlardan iborat. Qo‘lyozma oq muqova bilan qayta ta’mirlangan. “Vaqfiya” hamda “Munshaot” asarlari ko‘chirilgan sahifalarning qo‘lyozmaga biriktirilgani sezilib turadi. ““Devon-u lug‘ot” so‘zlari uchun fihrist” asari ikki xil siyohda: asarning boshlang‘ich qismidan tortib “lom” harfigacha bo‘lgan sahifalar qora siyohda, keyingi sahifalardagi lug‘at so‘zlar to‘q pushti siyohda ko‘chirilgan. Sahifa ikki qismga ajratilib, so‘zlar ustun shaklida nechanchi sahifada keltirilganlik raqami bilan tartiblangan. Hatto bir sahifaning o‘zida bir necha marotaba ishlatilgan so‘zlar ham alohida-alohida ko‘chirilgan.



Kub [kub]كُب 85
Kib [kib]كِب 85
Kib [kib]كِب 85
Kuj [kuj]كُج 86
Kuj [kuj]كُج 86
Kuj [kuj]كُج 86
Kij [kij]68 كِج

Lug‘atda so‘zlarning ma’nosi keltirilmagan, ular shunchaki sanab o‘tilgan, xolos. Qo‘lyozma o‘zbekcha nasta’liq xatida ko‘chirilgan bo‘lib, qo‘lyozmaning ba’zi o‘rinlarida bo‘sh sahifalar keltirilgan. Ana shunday sahifalarda lotin yozuvida “fitrat” so‘zining yozilishi mashq qilingan. Bu esa ushbu lug‘atning lotin yozuvi qabul qilinish arafasida tuzilgan, degan taxminni keltirib chiqaradi.

Lug‘at be harfidagi so‘zlarni keltirish bilan boshlanadi. ب (Be), ت (te), ج (jim), خ (xe), د (dol), zol, س (sin), ش (shin), غ (g‘e), ق (qof),ك (kof), ل (lom), م (mim), ه (hoye havvaz), ا (alif), ئ (yo) kabi harflar tartibida keltirilgan. Har bir harf alohida ajratilib, boshlanuvchi so‘zlar avval 1-, so‘ng 2- va 3-jildlarda ishlatilishiga qarab taqsimlangan. Lug‘at:

[16](Be), خلد-١

Bat [bät] بَت 62

Bit [bit] -962 بِت

Bir [bır] -بِر 271

Bis [bis] -بِس 275

Biz [bız] -بِز 273

Bush haliq [buş haliq]بُش حَلِق 277

Bush [buş] بُش 277

Bakxank [bakxank] بَكخَنك 277

Buk [buk] - بُك 279

Buk [buk] بُك 279

Bul ot [bŭl āt] -بُل ات 281

Ban [bän] - بَن283

Bart [bart] - بَرت286

Bart [bart] بَرت 286

Burt tutti [bŭrt tŭttı] بُرت تُتّي 286

tarzida boshlangan. Qora siyohda ko‘chirilgan so‘zlarga to‘q pushti siyohda ba’zi o‘rinlarda qo‘shimchalar kiritilgan. Ba’zi so‘zlarning usti o‘chirilgan, tuzatilgan. 2-jildda ishlatilgan *be* harfi bilan boshlanuvchi so‘zlarga ushbu qo‘shimchalar kiritilgan:

Biltindi [biltindı] (?) بِلتِندي 202

Bilmindi [bilmindı] بِلمِندي 208

[16] Bugungi alifbo va transkripsiya shakli qo‘shildi. Lug‘atdagi so‘zlar faqat arab yozuvi va betlardan iborat shaklda berilgan.

Burqimoq [bürkimāq] بُرقِماق 272
Bilkazmoq [bılkazmāq] بِلكَزماق 274
Bo‘ynatmoq [bθynatmāq] بُيِنَتماق287
Buzmunhuq [büzmunhuq] بُزمُنحُق 287



Bu kabi qo‘shimchalar kiritish holati juda ko‘p uchraydi. ت *(te),* harfiga oid so‘zlar keltirilgan o‘rinlarda quyidagi so‘zlar qo‘shimcha tarzda alohida ustunda kiritilgan:

Talimsandi [talımsandı] - تِلمسَندي206
Turumsandi [turumsandı] تُرُمسَندي
Tilimsindi [tılımsandı]تِلمسِندي 208
Tuzg‘urumsindi [tuzg‘urumsındi] تُزغُرُمسِندي 209
Titru [tıtru]تِتُرُ 235
Tasg‘anmoq [tasg‘anmāq] تَسغَنماق 272
Tilqatmoq [tılqatmāq] تِلقَتماق

Lug‘atning ba’zi o‘rinlarida esa so‘zlar qalamda o‘chirilgan.

Natak [natak] نتك 287
Najuk [najuk]نجوك 329
Nalun [nalun] نلون 329
Narak [narak]-نرك 329

Mim harfi bilan boshlanuvchi so‘zlar keltirilgan o‘rinlarda sahifa 4 ustunga bo‘lingan va juda qisqa masofalarda so‘zlar joylashtirilgan.

Lug‘atda so‘zlar jildlar asosida tartib bilan taqsimlanishdan tashqari, ularning joylashishida turkumlari ham e’tiborga olingan. Avval ot, sifat, ravish, olmosh turkumiga mansub so‘zlar keltirilsa, keyin fe’lga oid so‘zlar joylashtirilgan.


Mom [mām] مام 83
Mam [mam] مم 84
Mun [mun] مون 102
Manqishlarig‘ [manqışlarıg‘] منقشلرغ118
Manyashlig‘ qo‘y [manyaşlig‘] منيشلغ قوي 118
Mayaq [mayaq] ميق 125.....
minkar [minkar] منكر 278
mankku [mankku] منكو280
munklug‘ or [munklug‘ ār] منكلوغ ار 283
munkiz kak [munkiz kak] منكز كك 287
munkmak [munkmak] منكمك 290
munkuqmoq [munkuqmāq] منكوقماق 292
munkqarmoq [munkqarmāq] منكقرماق 294
mankdashmak [mankdaşmak] منكدشماق 295
mankashmak [mankaşmak] منكشماق 295

tarzida keltiriladi. Bu tartib lug‘atning oxiriga qadar saqlangan.

MULOHAZA VA TAHLIL

Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning joylashishi, ishlatilishi, tanlanish uslubi lug‘at Fitrat tomonidan tuzilganidan dalolat beradi. Bu holat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarining lug‘at qismini ushbu qo‘lyozma bilan solishtirganimizda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Fitrat “Eng eski turk adabiyoti namunalari” majmuasini 3 qismga ajratgan bo‘lib, majmuaning 3-qismi maxsus lug‘atdan iborat. Fitrat lug‘at qismida keltirilgan so‘zlarni “Devon-u lug‘otit turk” bilan yaqin davrlarda yaratilgan “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” kabi asarlardagi variantdoshlari misolida “Muqaddimat ul-adab” kabi lug‘atlardan foydalangan holda ma’nosini izohlashga harakat qilgan. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari nashrini amalga oshirgan Najib Osim yo‘l qo‘ygan xatoliklarni “Devon-u lug‘otit turk” asari tarkibidagi so‘zlar misolida isbotlagan.

Abdurauf Fitratning "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasi garchi "Devon-u lug'otit turk" asari tarkibidagi manzum parchalarning tizimlashtirilishi, tasniflanishi bilan bog'liq majmua bo'lsa-da, bu majmua to'la ma'noda lug'atshunoslikka oid asar sifatida ham e'tirof etilishga haqli asoslar mavjud.



فيترەت

ئيك ئيسكى

تۆرك ئەدەبيياتى

نەمۇنەلەرى

ئەدەبيياتيمزنك تەئريخى ئوچون مائېريالار.

توزبيكستان دەولەت نەشريياتينك نەشرى.
سەمەرقەند 1927 - يل.

توزبيكستان مەتبەعە ئشلرى تريستينك برنچى مەتبەعەسى.
1927 - يل.

Majmuadagi so'zlar izohi ikki o'rinda keladi:

1. Parchalar, ularning nasriy bayoni keltirilganda, maxsus lug'at qismi ham keltiriladi.

2. Majmuaning 3-qismi maxsus "Lug'at" qismidan iborat.

1. Bugun o'zbek adabiyotshunosligida mumtoz shoirlar lirik asarlarining sharhi bilan bog'liq jiddiy tadqiqot va ilmiy izlanishlar

olib borilmoqda. Xususan, Alisher Navoiy g'azallarining sharhi bilan bog'liq 10 dan ortiq professor olimlarning sharh-kitoblari nashr qilindi. Najmiddin Komilovning "Ma'nolar olamiga safar" asaridagi tizim va uslub, tuzilish bugungi sharhlar uchun asos bo'lmoqda. Bu xususiyat boshqa shoirlar she'rlari sharhiga bag'ishlangan manbalarga ham tegishli. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, aslida bu uslub va tizimning asoschisi Abdurauf Fitrat sanaladi. Olimning "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasi tarkibidagi manzum parchalar sharhi ayni tamoyilni asos qilib olgan. Ya'ni Fitrat bu sharhni 3 bosqich asosida amalga oshiradi:

- dastlab she'r matni keltiriladi;
- nasriy bayoni taqdim etiladi;
- lug'at keltiriladi.

Olim taqdim etgan uchinchi bosqich – lug'at qismining keltirilishi haqiqiy tadqiqot bosqichi sanaladi. Chunki Fitrat bu bosqichda so'zlar ma'nosini shunchaki keltirmaydi. Dastlab so'zning tub, leksik ma'nosini keltirib, so'ng bayt, misra zamiridagi mazmuni bilan tanishtiradi, so'zning bosh tomirini aniqlashga harakat qiladi. Adabiy parchalar tarkibidagi so'zlar mazmunining tushunarli bo'lishi, izohlanish talabidan kelib chiqib, lug'at sifatida keltirilgan so'zlarning miqdori turlicha. Lug'at tarkibida so'zlarning qo'llanishi miqdoriga ko'ra eng kam miqdor 2 so'zdan iborat bo'lsa, eng ko'p miqdor 37 ta so'z izohidan iborat.

O'zlak yarog' kuzatdi,
O'g'ri tuzaq uzatdi.
Baklar bakin azitti,
Qachsa qali qurtulur. (J.2, b.269.)

"Alb Er To'nga marsiyasi" tarkibida keltirilgan ushbu parcha matni uchun 3 so'zning izohi keltirilgan: *yarog'* – fursat, yararli vaqt; *azitmoq* – adashtirmoq, yo'ldan chiqarmoq; *qali* – qalay, qanday.

Fitrat manzum parchalar izohi uchun keltirilgan lug'at qismi va majmua so'ngining uchinchi qismi – Lug'at qismida bir xil uslub va tamoyilga amal qilgan. Har ikkala qismda ham so'zlarning bosh mazmuni, etimologiyasi, bayt va misradagi mazmuni tadqiq etiladi.

"*Yurlamoq* – buni topolmadim. "Devon-u lug'ot"da shu misra "ashulachilar kabi nola qiladir" deb tarjima qiling'an. Ashula ma'no-

sida "yir" so'zi bor. To'g'risi "yirlamoq" bo'lsa kerak". Ko'rinib turibdiki, Fitrat tushunarsiz so'zlarning mazmunini berishda unga aloqador so'zlar bilan izohlaydi. Matnni butun bir sistema sifatida tadqiq etadi.

Abdurauf Fitrat "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasida 3-qismning boshlang'ich qismida "O'tkan iki qismda ko'rganimiz manzumalarda izohka muhtoj ko'b lug'atlar bor. Ularni o'z o'rnida izoh qilish o'qu(v)chilarni maqsaddan uzoqlashtiradir. Shuning uchun kitobka uchinchi qism orttirib, mazkur lug'atlarni izoh qilish munosib ko'rildi" izohi bilan "Devon-u lug'otit turk" asari tarkibidagi manzum parchalar nasriy bayonini keltirish chog'ida so'z ma'nolari bilan bog'liq muammolarga duch kelingani sababidan bu qismning qo'shilgani aytiladi.

Fitrat majmuaning "Lug'at" qismida *asiz, ardam, arig', ugrayuk, azin, uzumoq, ajun, ukur, uzurmak, uqimoq, armoq, ilarmak, urushmak, urlanmak, urmak, amitmak, ukush, ukrimak, anunmoq, ayiq, atyin, uzunmak, ulinmak, alqashmoq, esh, angitmoq, ivriq, urpashmoq, ush, uzurmoq, umul, ushklmaoq, o'las ko'z, igramak, alimlig', adash, umunj, urkushmak, arij, urung, ut, inj, aqrun, uza, bilka, buku, baliq, budun, bo'qoqlanmoq, bash, butmak, baliklamak, bo'lnamoq, bijg'as, to'nga, tavramoq, tushnamak, tabaru, tubilamak, to'zunlik, tutchi, tuzg'urmoq, tusun, to'ru, to'ksin, takma, talim, tum, tulum, jarkashmak, jig'moq, jalmak, jash, jav, daqi, savamoq, siqirmoq, sig'tamoq, savuk, singak, su, suchulmak, saqinj, so'kmak, savulmoq, saran, sag'moq, qali, qaniqi, qaliq, qaymoq, qingri, qarshi, qazash, qartamoq, qag'rulmoq, qirchatmoq, qiqirmoq, qamug', gavramak, kartmak, kuvaz, kukshin, kedin, kak, kuk, kuyurmak, kislinmak, kuzmak, yarog', yima, yunchig', yanchimoq, yalinguq, yavlaq, yushulmoq, yazim, yin, yuduzmak, yumutmoq, yaqishmoq, yatika, yiramoq, yulaq, yula* so'zlarining izohini keltirgan.

Asarning "Lug'at" qismi *"asiz"* so'zining izohi bilan boshlanadi. Fitrat bu so'zni "*esiz*" ma'nosidagi so'z ekanini asoslaydi. Olim bu so'z "Devon-u lug'otit turk"da "yomon" so'ziga sinonim bo'lganini ta'kidlar ekan, so'zlar ma'nolarini taqdim qilishda birgina manba bilan kifoyalanib qolmaydi. Fitratning matn ustida ishlash prinsipi shuni ko'rsatadiki, u bir so'z ma'nosini keltirishda so'z etimologiyasini, ma'noviy tadrijini, semantik xususiyatini, turli shakllarini ham o'rganib chiqadi. Masalan,

Najib Osimbek "Hibat ul-haqoyiq"ni nashr qilganida, Fitrat bu nashrdagi so'zlar o'qilishidagi kamchiliklarni ko'rsatar ekan, Najib Osimbekning bu kamchilikka yo'l qo'yganining asosiy sababi sifatida "Hibat ul-haqoyiq"ga til va davr nuqtayi nazaridan yaqin bo'lgan "Devon-u lug'otit turk" va "Qutadg'u bilig" kabi asarlar matni va undagi so'zlar bilan qiyoslanmaganligini ko'rsatadi . Bu tahrir tamoyili olimning barcha ilmiy tadqiqotlarining asosini tashkil etadi. Yuqoridagi "asiz" so'zi izohida ham Fitrat shu tamoyil asosida bu so'zning ma'noni keltirishda, "Devon-u lug'otit turk"dan keyin yaratilgan "Qutadg'u bilig", "Hibatul haqoyiq" asarlarida ham "ezgu" so'zining zid ma'noda ishlatilishini ma'lum qilib "Qutadg'u bilig"dan bayt keltiradi:

Tushi ezib, bo'lsa sevinsa turub,

Asiz ko'rsa "rab" qosig'insa turub...

Olim bu bilan cheklanmay, "Hibat ul-haqoyiq" asariga ham murojaat etadi. Najib Osimbek tomonidan nashr qilingan ushbu asarga olim tomonidan lug'at qismi qo'shilgan. Fitrat asarning ana shu nashriga ilova qilingan lug'at qismiga e'tibor qaratib, so'z tomiri, asli "osig'iz(foydasiz)" so'zi ekanligini keltiradi. Demakki, Fitrat bu o'rinda Najib Osimbek fikriga qo'shiladi. Olim so'z ma'no tomirini aniqlashda davom etadi, usmonlilarning "yaxshi" ma'nosidagi "ayi" so'zi bevosita "asiz" so'zi o'zagi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi: *asiz – ayisiz – yaxshiliksiz – yomon.* Ko'rinib turibdiki, Fitrat har bir so'z ma'nosini berishda, kichik tadqiqot o'tkazadi. Ularning bosh tomirlarini aniqlaydi. Semantik xususiyatlarini ishlab chiqadi.

"Savamoq – Tamom bolmoq, sob bolmak. Bitmak. Buning tomuri "savdirkim: masal, hikoyat, so'z, xabar manolaridadir. Xabar, so'z, hikoyatning tarqalib turishi munosabati bilan bo'lsa kerak, "tarqalib bitmak" manolarida savranmoq, savramoq; "bitirmak" manosida savritmoq so'zlari bolgani kabi

Balak ettim ani shahmga manunk

Havodorligimni tugal bilsutib (bilsun deb)

("Hibat ul-haqoyiq" birinchi qism, 30 nchi bet)

Bundagi "balak" so'zini Najib Osimbek "alomat, nishon" deb tarjima qiladir, yanglishadur. "Tarqalmoq" manosida *savrulmoq* so'zi bordir. Bukun bizda bo'lgan "savirmoq" ham "sovchi" so'zi-da shu tomirdandir".

Lug‘at ilmi, so‘zlar ma’nolarining o‘zgarishini aniqlash, so‘zlar bosh tomiri va kelib chiqishi bilan bog‘liq masalalar tadqiqi olimdan adabiyotshunoslik ilmi bilan birgalikda tilshunoslik, tilshunoslikning deyarli barcha bo‘limlarini chuqur bilishni taqozo qiladi. Chunki so‘zlar etimologiyasi va ma’nosi yuzasidan chiqariladigan yanglish xulosalar tilning leksik qatlami bilan birgalikda til tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarga ham jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun lug‘at tuzish, lug‘at yaratish mas’uliyatli vazifadir. Lug‘at tuzishdagi muhim shartlardan biri so‘zlarni bir-biriga qiyoslash va bu qiyos natijasida ularning bog‘liqligi, ma’noviy imkoniyatlarini ko‘rsatib berishdir. Fitrat “qartamoq” so‘zini izohlar ekan, bu so‘zning ma’nosi “davolamoq” ekanligini ta’kidlab, “qartamoq” so‘zini “o‘tlamoq” so‘zi bilan qiyoslaydi. “O‘tlamoq”ning ma’nosi o‘simlik ma’nosidagi “o‘t” so‘zi bo‘lsa, ikkinchisi, ya’ni “qartamoq”ning tomiri “qor” ekanligiga ishora qiladi. Ikki so‘z ma’nosidagi qiyos asosida esa, “burung‘i zamonlarda o‘sumliklar bilan davolashka o‘xshab, qor bilan davolash ham bor ekan” degan xulosaviy hukmni beradi.

Fitrat so‘zlar ma’nosini izohlashda Alisher Navoiyga bir necha marotaba murojaat etadi. Xususan, Navoiyning tilshunoslikka oid “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari tarkibidagi fe’llar ma’nolariga to‘xtaladi. Olim “sig‘tamoq” so‘zini izohlar ekan, Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida bu so‘zni “siqtamoq” shaklida ishlatganini va o‘z ijodidan namuna keltirganini ta’kidlaydi:

Ul oyki, kula-kula qir og‘latti meni,

Yig‘latti meni demaki siqtatti meni.

Bayt matnida ham biroz o‘zgarish mavjud. Bu holat bu ikki asar ustida matnshunoslikka oid tadqiqot olib borilishi kerakligini taqozo qiladi.

XULOSA

Majmuaning lug‘at qismida 126 ta so‘z keltirilgan bo‘lib, olim har bir so‘zning etimologiyasini keltirish bilan birga ayni shu so‘zlar qollangan misralardan namunalar ham keltiradi. Ba’zi orinlarda so‘zlarning morfem tahlilini ham amalga oshiradi. *“Kislinmak – kis+il+in+-mak. Oz-ozidan kesilmak”*. Majmuadagi “Lug‘at” qism izohli lug‘at shaklida bo‘lib, so‘zlarning ma’nosini ochib berishga xizmat qil-

gan. "Devon" so'zlari uchun fihrist" lug'at esa indeks lug'at shaklida bo'lib, "Devon"da ishlatilgan so'zlar keltirilgan, xolos. Fitrat "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasini tuzgandan so'ng "Devon-u lug'otit turk" asari uchun maxsus fihrist tuzishni maqsad qilgan. So'zlarning o'qilishi, yozilishi, ayniqsa, fe'l so'z turkumiga oid so'zlarning keltirilish uslubi, *-mak* va *-moq* qo'shimchalarining so'zlarning o'zagiga qarab taqsimlanishi Fitratning ishlash uslubini eslatadi. Undan tashqari, "Eng eski turk adabiyoti namunalari" asaridagi lug'at qismidagi so'zlarning tartibi "Devon-u lug'ot" sozlari uchun fihrist"dagi tartibga mos tushadi. Fitrat "Eng eski turk adabiyoti namunalari" asarida barcha so'zlarni keltirmay, ularning ba'zilarinigina saralab olgan. "Devon-u lug'ot" so'zlari uchun fihrist"da esa 8 mingtaga yaqin so'z keltirilgan. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, "Devon" so'zlari uchun fihrist" Fitrat tomonidan 1928–1929-yillar oralig'ida, lotin yozuviga o'tish arafasida, "Eng eski turk adabiyoti namunalari" majmuasi yaratilganidan so'ng tuzilgan. Bu lug'at olimning jiddiy tadqiqotlaridan biri bo'lib, "Devon-u lug'otit turk" tarkibidagi parchalar davri, so'zlarning etimologiyasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov A. (2005). Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – T.: Yangi asr avlodi..

2. Atalay B. (1939-1941). Divanu lugatit turk tercimesi. 1-3 cild. Ankara.

3. Brokelmann.C. (1921). Mahmud al-Kasghari uber lie Sprachen un die Stamme der Turlen in X1 Jahrh (Korosi Csama – Archivum).

4. "Devon-u lug'ot" so'zlari uchun fihrist. O'zR FASHI Qo'lyozmalar fondi. Inv. № 5046/I.

5. Hamroyeva, O. (2023). Fitratning aruz va milliy she'r tizimi xususidagi mulohazalari. *Uzbekistan: Language and Culture*, *4*(4).

6. Koshg'ariy M. (1960, 1961, 1963). "Devonu lug'atit turk". 3 tomlik. (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov). – T.: O'zbekiston FA nashriyoti.

7. Mahmud al Husayn binni Muhammad al-Koshg'ariy: kitobi Devon-u lug'atit turk (O'ngso'z) (1933). – Istanbul. (arab yozuvida)

8. Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5201-3.
9. Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5206-3.
10. Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5204-5.
11. Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. –Istanbul, I-II jild – 1914; III jild - 1916. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 5206-8.
12. Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 8999.
13. Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. – Istanbul, I-II jild, 1914; III jild, 1916. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 9000.
14. Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. – Istanbul, Hijr. 1333. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 20927.
15. Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. – Istanbul, Hijr. 1335. O'zR FASHI Asosiy fondi Inv. 20928.
16. Koshg'ariy M. Devon-u lug'otit turk. 1-3 jild. (Nashrga tayyorlovchilar: A.Rustamov, H. Boltaboyev, B.Isabekov) – T.: MUMTOZ SO'Z, 2016. – 442 b.
17. Koshg'ariy M. (2017). Devon-u lug'otit turk (Nashrga tayyorlovchi Q.Sodiqov). – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
18. Kuprulu F. Turk adabiyotining manshai // Milliy tatabbular majmuasi. 2-jild, 4-son (turk tilida).
19. Radloff W. (1882). Phonetik der nordichen turk sprehen/ Leipzig.
20. Stebleva I.V. (1971). Razvitie tyurkskix poeticheskix form XI veke. – Москва.
21. Seyhan, T., & Jalolovna, H. O. (2023). FITRAT-TEXTOLOGIST (Based on the complex" Examples of Uzbek literature"). Academia Science Repository, 4(5), 1083-1087.
22. Fitrat. (2008). Eng eski turk adabiyoti namunalari. Toshkent-Samarqand. 1927. // Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari. (Nashrga tayyorlovchi Hamroyeva O.) – Toshkent.
23. Fitrat. (2013). O'zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. – Toshkent-Samarqand: O'znashr, 1928 // Fitrat. O'zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. (Nashrga tayyorlovchi Hamroyeva O.) – Toshkent.

ҲОМИДХЎЖА БУХОРИЙ – ЖАДИД АДИБИ СИФАТИДА

МИРЗАЕВ Насриддин Мухритдинович
Ўзбекистон Миллий архиви катта илмий ходими
ORCID: 0009-0001-6341-146X
Тел: +99890 931 39 57
Email: nosir86@mail.ru
(Ўзбекистон)

Аннотация: Мақолада Ҳомидхўжа бин Бақохўжа Бухорийнинг илмий ижоди, хусусан адабий фаолиятига баҳо бериб кетилган. Муаллиф ёзиб қолдирган "Танзил ал-амсол" ва "Мунтахаб" асарларининг жадид адабиётлари ва адабий муҳитдаги ўрни хусусида алоҳида таъкидланган. Адабиётга бўлган қизиқиши ёшлигидан бошлангани, унинг талабалик давридаёқ шеърлар билан шуғулланиб ижод қилгани манбаларда ёзиб қолдирилгани кўрсатиб ўтилган. Мақолада муаллифнинг ҳаёти ва ижодига доир архив ҳужжатлар илк бор илмий муомалага киритилгани аҳамиятлидир.

Калит сўзлар: XX аср боши, Бухоро, адабиёт, Ҳомидхўжа, шеър, классик шоирлар, жадидлар, замондош шоирлар.

Annotation: The article evaluates the scholarly and especially literary activity of Hamidkhoja bin Bakohoja Bukhari. Special emphasis is placed on the significance of his works *Tanzil al-Amsal* and *Muntakhab* within the framework of Jadid literature and the broader literary environment. It is noted that Hamidkhoja's interest in literature began in his youth and that he composed poetry during his student years, as documented in various sources. An important contribution of the article is the introduction of archival documents related to the author's life and work into academic circulation for the first time.

Keywords: literature, early 20th century, Bukhara, Hamidkhoja, poetry, classical poets, Jadids, contemporary poets.

XX асрнинг биринчи ярмида ижод қилиб, фаолият юритган Ҳомидхўжа Бухорийнинг жадид сифатида баҳолашдан ав-

вал унинг ўз замондошлари томонидан адиб сифатида қайд қилингани эътиборга лойиқдир. Зеро, ҳама шоир ва адиблар ҳам ўз замондошлари эътиборига тушавермайди. Бухоронинг охирги қозикалони ва серқирра ёзувчи ва адиби Муҳаммадшариф Садри Зиё замондош шоирлар қаторида Ҳомидхўжа бинни Бақохўжа Бухорийни алоҳида эслаб ўтади. Унинг тахаллусини "Матвий" сифатида эслаб, айрим шеърларидан парчаларини зикр қилиб ўтади. Жумладан:

Касе чун ман ба ғами ишқ мубтало нашавад,
Чу ман асир ба дилдори бе вафо нашавад.
Зи субҳи рўзи азал то ба шоми ҳижр рақам,
Занам зи дарди дилам ҳеч интиҳо нашавад.
Яъни:
Мен каби бошқалар ишқ ғамига мубтало бўлмасин,
То мен каби бевафо долдирга асир бўлмасин.
Агар азалдан ҳижрон кунига қадар ёзсам мен,
Дарди дилим изҳори ҳеч ниҳоясига етмасдир.

Садри Зиё ўзининг "Тазкори ашъор" китобида Ҳомидхўжанинг мазкур байтларини ёзган даврида ҳали ёш эканига урғу бериб, бугунги кунда у "ақоидхон"дир дейди. Яъни анъанавий таълим даражаларининг иккинчи босқичи бўлмиш, авсатда ўқиладиган ақидавий китоблар ўқиш даврида экани урғуланган. Шунингдек, шахсиятига баҳо бераркан, хушгуфторлар боғида сарвдек, ёш-жавон, комил истеъдод соҳиби (*комил ал-истиъдод*), нақлларга бой (*вофир ад-диройа*), бу вилоят аслзодаларидан, кучли зеҳн ва фаҳмга эгадир [Садри Зиё, 1993:256-257].

Ҳомидхўжа Қози Бақохўжа Бухорийнинг илмий фаолиятини асарлари асосида батафсилроқ ёзишга ҳаракат қилган ўтган асар шарқшуноси Л.М.Епифанова ўзининг "Рукописные источники Института востоковедения Академии наук УзССР по истории Средней Азии периода присоединения к России (Бухара)" асарида гарчи унинг туғилган йилини хато бериб, вафоти ҳақида якуний хулоса беролмаган бўлса-да, ёзган "Танзил ал-амсол" асари таҳлили асосида Ҳомидхўжани жуда қобилиятли шоир, ўз замонадош шоирларнинг шеърларидан бохабар эканини Мирзо Азим Сомий, Музтариб, Домойи Анбар, Тошхўжа

Эшон, Шоҳин ва Аҳмад Дониш шеъриятига кўпроқ мурожаат қилганини алоҳида таъкидлайди [Епифанова Л.М, 1965: 65]. Ваҳоланки муаллифнинг классик шоирлар ижодидан ҳам жуда яхши хабардор экани ва ёддан билганини ўз асарларида зикр қилганидан билиш қийин эмас. Жумладан, Саъдий Шерозий, Мавлоно Румий, Мушфиқий, Ҳофиз Шерозий, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий (*машаққат чекмагунча ёр васлиға етиб бўлмас (64б-варақ)*), Абдулқодир Бедил, Саййидо, Қоъоний, ва Урфий Шерозий кабилар.

Ҳомидхўжа Бухорий ўз шеърий ижодларини асарларида "фард", "рубоъий", "қасида", "роқима", "роқим", "байт" деб ёзиб, сўнг келтиради.

Муаллифнинг асарларини чуқур ўрганилганда, унинг нафақат зуллисонайн бўлгани, балки шарқ тилларининг уччаласида ҳам шеърларни ёдлаб, ёзиб қолдирганини, форс, турк ва арабча байт ва шеърларидан билиш мумкин [Ҳомидхўжа, Қўлёзма № 602. – 420a-448b].

Муаллиф асарида бирор нақл келтирмоқчи бўлса ёки ўз ижодидан бирор нарса ёзмоқчи бўлса қуйидаги сўзлардан бирини қизил ранг билан алоҳида ажратган ҳолда бошлайди: байт, наср, мисраъ, рубоий (баъзан "ъайн" ҳарфи билан чекланиши), оят, ояти карима, ҳадис, ҳадиси шариф, назм, қасида, масал, зарбулмасал, воқеа, ҳикоя, қисса, арабий, қитъа, иншо, айзон, фоида, туркмония (туркманча шеър), бевосита шоир номи ёки тахаллуси, ғаразки, савол-жавоб, парда ва бошқалар.

XX аср бошларида яратилган аксарият асарларда, хусусан Бақохўжа ўғли Ҳомидхўжа Бухорийнинг тарихни баён этиш услубида танқидий жиҳатлар мавжуд бўлиб, унинг бўлиб ўтган воқеаларни баҳолашда ҳаётий мисоллар билан асослаб бериши каби ўзига хос ёндашуви билан ажралиб туради. Ҳомидхўжа Бухорий нафақат юзага келган муаммоларни сабабини келтириш билан бирга унинг оқибатини ҳам таҳлил қилиб берган.

Муаллифнинг тарихга оид ёзган 2 та қўлёзма асари бизга маълум. Биринчи асари "Танзил ал-амсол фи зикри баён ал-аҳвол" 1928 йилда ёзиб тугатилган. Иккинчи 1932 йилда якунланган "Мунтахаби таърихи амирони Манғит" қўлёзмасидир. Ушбу

асарлар Бухоро инқилобидан (1920 йил) кейин ёзилганини инобатга олсак, манғит амирлари даври жиддий танқид қилиниб, аёлларни "таҳқирланган" ва "хўрланган" сифатида 1-2 та мисол билан баҳолаб, совет ҳукумати айрим раҳбар ва мутасаддиларининг шахсий ҳаёти ва ахлоқий тутимларига салбий баҳо бериш билан чекланади.

Муаллиф келтирган таржимаи ҳолида тадқиқот ишида бўлиб ўтган ижтимоий-сиёсий, диний-маърифий ва иқтисодий-ҳарбий воқеаларга доир мисолларни жуда эҳтиёткорлик билан танлаб ёзгани, ўз давридаги долзарб масалаларни муҳимлик нуқтаи назаридан тартиблаб чиққани ҳамда Бухоро амирлигида ҳар бир масаланинг муқобилини Россия империяси ҳудудидаги ҳолат билан қиёсий солиштириши мақоламизнинг муҳим қисмидир.

Мулла Ҳомидхўжа бин Қози Бақохўжа 1879 йилда Бухоро шаҳри Яланги Боқижон гузарида туғилган [Бухоро вилояти архиви 454-фонд, 3-в]. Бухоро амирлигида Бухоро шаҳар, Зиёвуддин тумани Наҳр Паййи мавзеи (ҳозирги Нарпай тумани)да, Шаҳрисабз-Китоб, Хатирчи, Панжакент каби бекликларда раис бўлиб ишлаган. 1930 йилда совет ҳукумати томонидан Тожикистонга сургун қилинган. Тахминларга кўра, 1935 йилларда Тожикистон ССРнинг Душанбе шаҳрида вафот этган.

Мулла Ҳомидхўжанинг юқорида зикр қилган асарларидан "Танзил ал-амсол фи зикри баён ал-аҳвол" ("Бугунги кун ҳолатини ёритувчи ҳаётий мисоллар") ҳозирда Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида сақланади.

Ушбу асарининг номланиши сабаблари ҳақида ёзаркан, талабалик даврида бир киши оталарининг "Сулуки казо..." ("Фалон нарсанинг йўллари") номли асари ҳалиям мавжудлиги ҳақида сўрайди. Ҳомидхўжа уйдан тополмагани ва сақламаганини эслсада, аммо кўнглига отасига ўхшаб бир "Одоб" номли асар ёзишни тугиб қўяди. "Одоб ат-тааллум" ("Таълим олиш одоблари") асари қўлига тушган, ундан илҳомланиб ўзининг биринчи асарига "Сулук ат-тааллум ва ал-одоб туҳфатан ли аҳиббати ва тазкиротан лут-туллоб" ("Одоб ва таълим йўллари дўстларга туҳфа ва толиби илмларга эслатма") деб ном қўяди. Аммо китоб ёзишга

киришиб, маъно ва мазмун кўпроқ ижтимоий-сиёсий мавзуларни акс эттиргани боис "Танзил" номли асар номига ўзгартиради.

"Мунтахаби таърихи амирони Манғит" ("Манғит амирларига доир сайланма тарих") асари эса Тожикистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Абдуллоҳ Рудакий номидаги Тил ва адабиёт институтида сақланади [Бақоев , Инв. № 1329:38 в]. Муаллиф асосан форс-тожик тилида ижод қилиб, айрим ҳолларда арабча ва ўзбекча сўзлардан ҳам фойдаланади. Ҳар икки асар янги фабрика қоғозида ёзилган, биринчи асарини ёзишда замонавий қора тушдан, иккинчисида эса кўпроқ қора қаламдан фойдаланган.

Муаллиф ўзининг олий маълумотли, ўзбек, тожик ва араб тилларини мукаммал билганини ёзади. Унинг шоир табиати бевосита асарларидаги байтларидан маълум. Шунингдек, Муҳамадшариф Садри Зиёнинг "Тазкори ашъор"ида "Матвий" тахаллуси билан ёш ва қобилиятли Мулла Ҳомидхўжа валади Қози Бақохўжа Бухорийнинг шеърларидан мисоллар келтириб, ҳозирда талабалик даврида ақоид фанидан дарс олаётгани ҳақида маълумот беради [Садри Зиё, 1380:256]. Муаллифнинг шеъриятдаги хушсўханлиги, ҳар бир воқеа ва ҳодисаларга муносиб икки мисра маснавий ёки рубоийларни ҳам ўзи ижод қилиши ёхуд машҳур шоирлардан нақл қилиб ёзиши фавқулодда хотира эгаси эканини англатади.

Ҳомидхўжа Бухородаги Мухтор мадрасасида ўқиб, уйларидан узоқ бўлмаган мазкур мадрасада боболаридан вақфи авлодий сифатида қолган бир кичик ҳужрада яшагани, ёшлик чоғида отасидан етим қолиб, бувиси, онаси ва катта акаси билан вояга етиб Чоржўйдаги марҳум отаси Каркий қозиси Бақохўжанинг яқин дўсти ва келажакда унинг қайнотаси бўлган Қози Мулла Мир Зариф судур валади Охунд Домла олдига сафар қилгани ҳақида батафсил ёзади.

Мулла Ҳомидхўжа Бухорий мадрасадаги дарсликларни ўқиганини кўплаб таъкидласа-да, ёзганларидан англаш мумкинки, диний билимлар ва мадраса ихтисослигидаги фанларни чуқур ўзлаштира олмаган. Эҳтимол бунга отасини дўсти Мулла Мир Зариф судур қозининг қизига уйланиб, унинг хомийлигида ёш бўлишига қарамай, Насаф вилояти Хатирчи ва Шаҳрисбаз

туманларида раис амалини бажарга киришиб кетгани ҳам сабаб бўлгандир [5:58b]. Хусусан, муаллиф ўз хотираларида Насаф вилояти Қарши шаҳрида раислик даврида масжидда жамоа намозини ўқиб берган имомнинг 4 ракат намозни 5 ракат ўқигани ва фарз намози бекор бўлишини сезиб айтган оддий намозхоннинг гапини уйга бориб китобдан текширганидан сўнг тўғрилигига ишонч ҳосил қилгани ёзади. Шунингдек, 1925 йилда қози ва раис лавозимлари тугатилгандан сўнг хўжандлик талабалар билан тошкентлик бир судьядан янги қонунлар бўйича бир муддат дарс олгани ва ҳеч нарсани тушунмаганини келтиради [6:632].

Албатта кейинчалик амалий тажрибага эга бўлган Ҳомидхўжа, 1923 йилда Пирмаст мавзеида қози, 1927 йилда Бухоро шаҳрининг Лаби Ҳовузга яқин жойлашган Кокулаи Калон масжидида имом-хатиб бўлиб ишлагани, архив ҳужжатида "Қори Мулла Ҳомидхўжа", деб ёзилганидан, уни Қуръони ҳифз қилганини тахмин қилиш ҳам мумкин [7: 254].

1930 йиллардан кейин исми шарифини Бақоев Ҳомид, деб ўзгартирган муаллиф Тожикистон ССР Душанбе шаҳрига кўчиб кетади. Буни 1932 йилда ёзган иккинчи китоби "Мунтахоб" асарининг муқаддимасида келтиради [8:14]. Ҳомидхўжа 1935 йилда қулоқ қилиб, сургун қилингани ҳақида маълумотлар мавжуд, лекин айнан қаерга юборилгани ва умрининг ниҳояси қандай якунлангани аниқланмаган.

Бухоро вилояти давлат архивида сақланаётган анкетасида "1918 йилда Колесов бошчилигидаги большевикларнинг Бухорога босқини даврида амир зиндонида бўлганини ёзади. Қизиғи бу ҳақида муаллиф ўзининг биринчи асари "Танзил ал-амсол"да ишора ҳам қилмайди. Аммо ҳар эҳтимолга қарши бунга асос топилмагунча инкор қилиш ҳам, тасдиқлаш ҳам хатодир. Чунки жадидлар ва уларга ҳамфикр бўлганлар ҳақида зикр қилар экан, ўзини бетарафдек тасвирлайди. Айниқса, янги ўзгаришларга мойил жадидларнинг асос қилиб олган сабабларини келтирар экан, жадидларга қарши фикрдагиларнинг асосларини ҳам зикр қилади. Иккинчи томоннинг асосий ташвиши сифатида ўзликни йўқотишга сабаб бўлувчи кескин ўзгаришларни инкор қилишлари, келажак авлоднинг бошқа миллатларга қарам

бўлишидан хавотирли сабабларни рўкач қилган иккинчи томоннинг сабабларинам келтиради. Аммо ўзи қайси томонга мойиллиги очиқланмайди. Бироқ 1923 йилда Пирмаст мавзеида қози бўлиб тайинлангани, уни Файзулла Хўжаев ҳукуматига яқинлашганидан ва муросавий табиатидан дарак беради.

Мулла Ҳомидхўжа Бухорийнинг илмий қизиқишлари ва сиёсий қарашлари, унинг тарих, санъатшунослик, жамиятшунослик, археология ёки эпиграфия фанларига оид маълумотлари ёзганларидан билиш мумкин. Жумладан, "Танзил ал-амсол" асарининг "Зикри ҳолоти Аҳмад Махдум Каллаи Бухорий" бобида бухорлик маърифатпаравар Аҳмад Донишни таърифлар экан унинг жуда кучли мусаввир эканини ҳам истисно қилмайди. Чунки Аҳмад Дониш Россияга расмий ташрифларида рус подшоҳидан олган турли машина (техника) тасвирлари муқобилида уларнинг амалдорларига ҳайратланарли, ўзига хос гўзал расмларни ўз қўли билан чизиб берганини таъкидлайди [9: 89a-90b]. Шунингдек, Мулла Ҳомидхўжа Бухорий Ғиждувон туманига сафарларидан бирида бир кишининг уйида айнан Аҳмад Дониш чизган тасвирнинг деворда осиб қўйганини алоҳида зикр қилади.

Шу ўринда муаллиф кўп маълумотларни орадан узоқ вақт ўтиб, хотирасида ёд қолганларини ёзганини, "Мунтахаб" асарининг муқаддимасида келтиришича, қарилик сабаб айрим маълумотларни эслай олмаганлигини инобатга олсак, баъзи фактларни чалкаш ва хатолар билан берилганини ҳам кўриш мумкин. Масалан, А.Донишнинг "Наводир ал-вақоеъ" асарини камёб бўлгани боис қўлга киритмагани ва уни ўқиб чиқмаганини айтади. Аммо кўп жойларда ундан парчалар келтириши ёки асар номини "Наводир ал-вуқуъ" сифатида ёзганини қайд қилиш лозим.

Муаллиф 1920 йилнинг баҳорида туман ҳокими ва қозидан рухсат олиб сафарга чиқади. Ушбу сафарни мазмунан кўпроқ илмий сафар сифатида таърифласак, муболаға бўлмайди. Зеро у шериклари билан Қаршидан чиқиб Косон туманига боради, бу ерда кўплаб эшон ва эшонлар жамоаси ҳамда уларнинг обрўйи ва қудратлари ҳақида асосли мулоҳазаларни беради. Сўнг Деҳаи Насафдаги Юзработга боргани, у ерда Қаршида жойлашган Абдуллоҳхон мадрасасининг вақф ерларини кўргани, уларнинг

тасарруфи оғолиқ мансабидаги шахсда бўлгани, умуман оғолиқ лавозимини ҳудуднинг иқтисодий ва молиявий нозири сифатида ҳам баҳолайди. Осори атиқалар сифатида Кўкгумбаз, Соктарий мозори, Пешкент бозори ва йўли устида жойлашган Абу Муъин Насафий ва Шамсулаимма Ҳалвоний қабрларини зиёрат қилганини алоҳида таърифлаб ўтади. Жумладан, Абу Муъин Насафийнинг қабри тошида битилган ёзув: "*Ҳазиҳи ас-салавот мин таснифи пири дастгир ҳазрат маҳбуби раббоний Саййид Абдулқодир Жийлоний розияллоҳу таоло анҳу*" ("Бу салавотлар пири дастгир Саййид Абдулқодир Жийлоний ёзувига мансуб") деганини ўқиб, шошиб қолганини ҳаяжон билан эслайди. Унинг вақти тиғиз бўлгани боис бир ходимига барча матнни тўлиқ кўчириб олишга амр қилганини ёзади [10: 420a-448b].

Мулла Ҳомидхўжанинг сиёсий қарашлари турли жойларда намоён бўлса-да, кўпроқ Домла Муҳаммад Имкромчанинг фикрлари ва қарашларига тобелигини сезиш мумкин. Танқидий руҳиятга мойил. Аммо Ғузор ҳокими Саййид Акрамхон ҳақида эслар экан: "Уламолар подшоҳларни мадҳ қилар экан сўзлар шунчаки мақтов бўлмай, балки подшоҳларга гўзал хислатларни нисбат бериши орқали аслида насиҳат қилишни назарда тутадилар", деб таърифлайди. Шу билан бирга 1920 йилдаги инқилобдан кейин ҳамон Китоб туманида хизмат вазифасида турар экан қайнотаси Қози Мулла Мир Зарифнинг: "Болам сиёсатга аралашма, ўзингни узоқ тут", деган насиҳатини алоҳида эслайди [11: 52a-64b].

Мулла Ҳомидхўжа Бухорий ҳаёти ва илмий ижоди ҳамда асарлари ҳақида бугунги кунгача фақатгина Ўзбекистон ва Тожикистонда чоп этилган қўлёзма манбаларининг каталогларида қисқача маълумот берилган бўлса-да, Л.М. Епифанованинг Бухоро босиб олиниши тарихига доир манбалар тавсифи қисмида батафсил таъриф берилган [12:64-69]. Айрим маҳаллий ва хорижий манбашунослар томонидан Ҳомидхўжа Бухорийнинг илмий мероси муҳим манба эканлиги қисқача эслаб ўтилган бўлса-да, алоҳида тадқиқот объекти сифатида ўрганилмаган.

Умуман олганда, Мулла Ҳомидхўжа бин Қози Бақохўжа Бухорийнинг зикр қилинган икки асарлари жадид адабиётини ўрганишда муҳим манба бўлиб қолмай, унинг XX асрдаги иж-

тимоий-сиёсий, диний-маърифий ҳаётни ёритишдаги ўрнини алоҳида тадқиқот мавзуси сифатида тадқиқ қилиш зарурдир. Келажакда муаллифнинг “200 та Охунд Домла фатволари” деб номлаган асарини топиб илмий муомалага киритиш ҳам манбашуносликнинг долзарб масалаларидан бири сананалади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Бухоро вилояти архиви 454-фонд, 2-рўйхат, 26-йиғмажилд, 3-варақ.

2. Бухорий Ҳомидхўжа. Танзил ал-амсол фи зикри баён ал-аҳвол. ЎзРФАШИ. Қўлёзма № 602. – 661 варақ.

3. Бақоев Ҳомид. Мунтахаби таърихи амирони Манғит. Институти забон ва адабиёти ба номи Абуабдуллоҳи Рўдакии (АМИТ). Дастхат: Инв. № 1329. – 38 вароқ.

4. Шарифжон Махдум Садри Зиё. Тазкори ашъор (шарҳи ҳоли баъзе аз шоирон ва шеърҳо) / Мусаҳҳиҳ: Саҳобиддин Сиддиқ. – Теҳрон, Суруш, 1380. – Б. 256.

5. Бухорий Ҳомидхўжа. Танзил ал-амсол фи зикри баён ал-аҳвол. ЎзРФАШИ. Қўлёзма № 602. – 58b-варақ.

6. Бухорий Ҳомидхўжа. Танзил ал-амсол фи зикри баён ал-аҳвол. ЎзРФАШИ. Қўлёзма № 602. – 632-варақ.

7. Ўзбекистон Миллий архиви И-3-фонд, 1-рўйхат, 715-йиғмажилд, 254-варақ.

8. Бақоев Ҳомид. Мунтахаби таърихи амирони Манғит. Институти забон ва адабиёти ба номи Абуабдуллоҳи Рўдакии (АМИТ). Дастхат: Инв. № 1329. – 14 вароқ.

9. Бухорий Ҳомидхўжа. Танзил ал-амсол фи зикри баён ал-аҳвол. ЎзРФАШИ. Қўлёзма № 602. – 89a-90b-варақ.

10. Бухорий Ҳомидхўжа. Танзил ал-амсол фи зикри баён ал-аҳвол. ЎзРФАШИ. Қўлёзма № 602. – 420a-448b-варақ.

11. Бухорий Ҳомидхўжа. Танзил ал-амсол фи зикри баён ал-аҳвол. ЎзРФАШИ. Қўлёзма № 602. – 52a-64b-варақ.

12. Епифанова Л.М. Рукописные источники Института востоковедения Академии наук УзССР по истории Средней Азии периода присоединения к России (Бухара). Ташкент, 1965. – С. 64-69.

JADID SHE'RIYATIDA TURKUMLILIK

Obidaxon FAYZULLAYEVA,
Guliston davlat universiteti professori v.b.
filologiya fanlari doktori
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid she'riyatida turkumlilik masalasi o'rganilgan bo'lib, unda turkumlanishga asos bo'luvchi mavzu muammosiga ham e'tibor qaratilgan. Xususan, o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan mardikorlik voqealari ifodasi hamda Ona yurt qayg'usi yuzasidan turkum she'rlar yaratilganligi tahlillar orqali o'rganilgan. Shuningdek, Fitratning sochma turkum she'rlari, Cho'lpon ijodida tabiat tavsifi bilan bog'liq lirik turkumlarga ham diqqat qaratilgan.

Kalit so'zlar: *mardikorlik voqealari, obrazlilik, lirik qahramon, maktub shakli, poetik mushohadakorlik, kechinma tavsifi, sochma she'r, peyzaj lirika.*

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема цикличности в джадидской поэзии, при этом внимание уделяется тематике, служащей основой для создания поэтических циклов. В частности, проанализированы произведения, отражающие актуальные для того времени события, связанные с мардикорством, а также тревогу о Родине. Особое внимание обращено на свободные поэтические циклы Фитрата и лирические циклы, связанные с описанием природы в творчестве Чулпона.

Ключевые слова: мардикорские события, образность, лирический герой, эпистолярная форма, поэтическая рефлексия, описание переживаний, свободный стих, пейзажная лирика.

Abstract. This article examines the issue of cyclicity in Jadid poetry, focusing on the thematic foundations underlying the formation of poetic cycles. In particular, it analyzes poems reflecting the pressing issues of the time, such as the experiences of labor migration (mardikorlik) and the sorrow for the homeland. Special attention is given to Fitrat's free-verse poetic cycles and to the lyrical cycles in Cholpon's works that are associated with the description of nature.

Keywords: labor migration events, imagery, lyrical hero, epis-

tolary form, poetic contemplation, emotional depiction, free verse, landscape lyricism.

Jadid she'riyati ijtimoiy hayot muammolarini yoritish jihatidan peshqadam bo'lganligi mazkur she'riyatdagi dolzarb muammolar ifodasidan anglashiladi. Xususan, xalq hayoti, ularning muammolari, millat erki, ta'lim kabi dolzarb masalalar talqini shular jumlasidandir. Shu kabi muammolar orasida mardikorlikka olish bilan bog'liq masalalar ham millat boshiga kulfatlar olib kelgan nomaqbul jarayon sifatida aks ettirilganligi jadidlarning ushbu masalaga munosabatini ayonlashtiradi.

Xususan, Abdulla Avloniy qalamiga mansub "Mardikorlar ashulasi" nomi ostidagi to'rtta she'r aynan shu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, she'rlar masnaviy va g'azal shakllarida bitilgan. Bu turkumda 1916-yilgi mardikorlik voqealarini ifodalovchi *"Bir mardikorning otasi o'g'liga aytgan so'zlari", "Onasining o'g'liga aytgan so'zlari", "O'g'lining onasiga aytgan so'zlari", "Xotuniga aytgan so'zlari"* kabi she'rlar jamlangan. Ushbu she'rlarda ona yurtdan uzoqda, shimolning qorli-muzli yerlariga, front orqasidagi qora xizmatga olib ketilgan yurt farzandlarining xayrlashuv onlari, haqsizliklar yoritilgan. She'rlarning ohang va uslubi xalq qo'shiqlariga o'xshab ketsa-da, *"Bir mardikorning otasi o'g'liga aytgan so'zlari", "Onasining o'g'liga aytgan so'zlari"* she'rlari **masnaviy** shaklida, *"O'g'lining onasiga aytgan so'zlari", "Xotuniga aytgan so'zlari"* kabi she'rlar esa **g'azal** janrida yaratilgan. Xususan, "Bir mardikorning otasi o'g'liga aytgan so'zlari" she'rida otaning o'g'lini kuzatish chog'ida aytganlari bayon qilingan:

Qancha mehnatlar bilan, o'g'lim, sani boqg'on edim,
Man sani deb g'am o'tig'a jonimi yoqg'on edim.
San ketarsan, man qolurman ko'zlarim giryon bo'lub,
Bu judolig' otashig'a o'rtanib, biryon bo'lub. *[Avloniy, 2022.162]*

Ya'ni she'rda lirik qahramon ota bo'lib, qalb iztiroblari uning tilidan bayon etilgan. "Onasining o'g'liga aytgan so'zlari" she'rida:

Jon bolam, jonim bolam,
Olloh sani yoring bo'sun,
Kecha-kunduz yo'lda-cho'lda
Tangri g'amxoring bo'sun. *[Avloniy, 2022. 162]*

Bu she'rda esa mushtipar ona o'z o'g'lini balo-qazolardan asrash uchun duo qilayotgani tavsiflangan. "O'g'lining onasiga aytgan so'zlari" she'rida farzandning mushtipar onasiga xayrlashuv so'zlari, unga bo'lgan mehri bilan birgalikda izhor qilinmoqda:

Ey vujudimg'a sabab bo'lgan mushfiq onam,

Jismiming ruhi – hayoti, jovidonim sen eding. *[Avloniy. 2022. 163].*

"Xotuniga aytgan so'zlari" she'rida mardikorlikka jo'nayotgan yigitning xayrlashuv so'zlari aks ettirilgan:

Yaxshi qol, ey munisi g'amxo'r, ko'rsam-ko'rmasam,

Ey ko'zumning nuri puranvor, ko'rsam-ko'rmasam *[Avloniy. 2022. 164].*

Ko'rinadiki, mardikorlik mavzusi Avloniy she'riyatida alohida ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari, Avloniyning "Millat holindan bir ya's", "O'z millatimdan rijoyi ojizonam", "Turkiston tufrog'indan bir sado", "Turkiston tufrog'iga xitob", "Maktab" (ikki she'r), "Maorif nadur", "O'z maishatimizdan", "Maishatimizdan bir manzara" kabi qator she'rlari ham kichik-kichik ma'rifiy mazmundagi turkumlarni tashkil etgan. Ularning hammasi deyarli bir xil mazmunda bo'lib, Turkistonning rivojlanishdan orqada qolgan holatini ko'rsatish, o'z millati farzandlarini ma'rifat orqali Vatan ravnaqi uchun o'z hissalarini qo'shishga da'vat etishdan iborat.

Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyatida "Mardikorlik she'rlari" ("Sog'inib", "Salom ayting") turkumi barmoq tizimidagi to'rtlik va ikkilik shakllarida yaratilgan. Hamzaning "Sog'inib" she'ri murabba' shaklida qofiyalangan. Qofiyalanish tartibi ham a-a-a-b, c-c-c-b shaklida.

Qattiq tegma menga muncha yuzboshim,

Oquzma ko'p g'amim uzra ko'z yoshim,

Yurak-bag'rim o'zi hadsiz ezilgan,

Yurtu vatan, ellarimni sog'inib. *[Hamza.1958. 50].*

"Salom ayting" she'rida o'z mahallasidan bo'lgan bir kishini uyiga kuzatib qo'yayotgan yigit nomidan aytilgan bo'lib, unda yigitning o'z Vatani va oilasiga bo'lgan kuchli sog'inchi aks ettirilgan:

Og'a, sog' borsangiz, avval

Dadamlarga salom ayting.

Yugurib chiqqan ul mushfiq
Onamlarga salom ayting. *[Hamza. 1958. 51].*

Hamzaning bu she'ridagi shakl qit'alardagi kabi qofiyalanish tartibi va tashqi tuzilmasini esga soladi. Bundagi birinchi besh bayt bir xil qofiyalangan bo'lsa, qolgan bandlarning oxirgi bandi birinchi bandniki singari qofiyalanishda davom etgan. Ya'ni a-b-a-b-a-b-a-b-a-b, c-c-c-c-c-c-c-c-a-b shaklida. Bu qit'ali tarkibband deyiladigan yangicha shaklni yuzaga keltirgan.

Abdurauf Fitrat o'zining "Yurt qayg'usi" nomli turkumini sochma she'r shaklida "Yurt qayg'usi", "Bir o'zbek tilidan", "Temur oldinda" kabi qismlardan iborat qilib shakllantirgan. She'rlarda jadidlarga xos ona Vatanning ulug' o'tmishini eslab, uning kelajagi haqida qayg'urish aks etgan:

Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi!
Senga ne bo'ldi? Holing qalaydir?
Nechuk kunlarga qolding?
Ey Chingizlarning, Temurlarning, O'g'uzlarning, Atillalarning shonli beshiklari!
Qani, u chiqdig'ing yuksak o'rinlar?
Qullik chuqurlarig'a nedan tushding?
Dunyoni "urho"lari bilan titratkan yo'lbars yurakli bolalaring qani? *[Fitrat. 2022. 32]*

Fitrat ijodidagi ushbu turkum she'rlar sarbastda ham turkum yaratish mumkinligini tajriba sifatida isbotlagan namunalardan biridir.

Cho'lpon ijodidagi "Tabiat kitobidan" deb nomlangan kichik turkum "Birinchi bet" va "Ikkinchi bet" kabi qismlardan iborat. "Birinchi bet"da shoirning tabiatning gullab-yashnayotgani, yer yuzasidagi daraxtlar ona Yerning farzandlari ekanligi, ularning rohatini hech narsa buzmasa, baxtiyor yashashlari mumkinligi haqidagi tasvirlari aks ettirilgan:

Ko'klam... yerning tinch uyqusi buzilgan,
To... qalbidan kuchli hovur cho'zilgan.
... Har bargchaning tabiatdan tilagi:
Shu yashashning tomirini uzmaslik,
Shu nash'ani, shu rohatni buzmaslik. *[Cho'lpon. 2022. 123].*

"Ikkinchi bet" she'ridagi mazmun yuqoridagi she'rdagi holatning

ziddi bo‘lib, unda Yerning bolalari bo‘lgan daraxtlarga daxl qilingan, ular bolta bilan chopilgan, payhonlangan holatda:

Boshqa mavsum... yer hansirab yotadi,
Har o‘tganda zaharini otadi.
...O‘tinlarni yorib o‘tgan boltalar
Yerning yumshoq bag‘rini ham ezadi.
Bir bechora kunda necha martalab
Borlig‘idan, hayotidan bezadi. *[Cho‘lpon. 2022. 124].*

Insonning panohi bo‘lmish tabiat, ona Yer va daraxtlar tasviri ikki xil fonda: baxtiyorlik va fojea tarzida shakllantirilishi orqali she’rning ta’sir kuchi bo‘rttirilishiga erishilgan.

Cho‘lponning “Nil qizi” kichik turkumidagi ikkita she’r ham xuddi shu tarzda qarshilantirish orqali ikki xil tasvirdan foydalanib yaratilgan. “Birinchi qo‘shiq” nomli ilk she’rda Falloh qizining yoshlikdagi baxtiyorligi va keyinchalik sevganidan ayrilgandan so‘nggi baxtsizlik holati, undan keyin “Ikkinchi qo‘shiq”da esa erkidan ayrilgan, mehnatidan baxt topa olmagan baxtiqaro sifatida aks ettiriladi. She’rlarning biri barmoq tizimidagi to‘rtlik bandda, ikkinchisi shu tizimdagi ikkilik banddan foydalanib shakllantirilgan.

Xullas, jadid she’riyatida she’riy turkumlar mardikorlik voqealari bilan bog‘liq mavzuda, yurt qayg‘usi – millatparvarlik mavzusida hamda tabiat tasviri bilan bog‘liq peyzaj lirika namunalari sifatida aks ettirilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Ushbu turkumlar shoirlar badiiy konsepsiyasidan, ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda turli janrlarda turfa she’riy shakllardan foydalanb yaratilgan. Turkum she’rlarda obrazlilik masalasi ham o‘ziga xos tarzda mavzuga mos ravishda shakllantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 207 б.

2. Abdulhamid Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik. birinchi jild. – Toshkent, Akademnashr, 2016. – 368 b.

3. Abdulhamid Cho‘lpon. Saylanma. / Jadid adabiyoti namoyandalari seriyasidan. – Toshkent: Zabarjad Mediya. 2022. – 336 b.

4. Abdulla Avloniy. / Jadid adabiyoti namoyondalari seriyasidan. – Toshkent: Zabarjad Mediya. 2022. – 432 b.

5. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Танланган асарлар. Биринчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958. – 258 б.

6. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. Science and innovation, 1(B5), 231-236.

7. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. Science and innovation, 1(B5), 231-236.

8. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 118-125.

9. Fayzullayeva, O. (2024). THE ISSUE OF FORM AND CONTENT IN LYRIC CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 2(1), 55-60.

10. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. *European Scholar Journal*, *2*(4), 233-236.

11. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, *12*(5), 332-340.

JADID ADABIYOTI NAMUNALARINI TADQIQ QILISH TAMOYILLARI

(Hamza Hakimzoda she'riyati asosida)

Shermuhammad Amonov
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqola ma'rifatparvar shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyatining ilk manbalar asosidagi tadqiqiga bag'ishlangan. Maqolada o'zbek adabiyotshunosligi va matnshunosligida erishilgan so'nggi ilmiy-nazariy yutuqlarga tayanilgan holda Hamza merosiga doir ayrim munozarali masalalarga oydinlik kiritilgan.

Kalit so'zlar: *ma'rifatparvarlik, jadidchilik, Hamza Hakimzoda, qo'lyozma, toshbosma, mafkura, tamoyil*

Annotation: This article is dedicated to the study of poetry of the poet and educator Hamza Hakimzade Niyazi based on primary sources. The article manual is analyzed some of the controversial issues regarding Hamza's heritage based on the latest scientific and theoretical advances of the Uzbek literary and textual criticism.

Key words: *enlightenment, jadidism, Hamza Hakimzadeh, manuscript, lithograph, ideology, principle*

Jadid mutafakkirlari ijodini tadqiq qilishda ular yashagan davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitini, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

XX asr boshlarida ma'rifatchilik harakati kuchaydi. Milliy uyg'onish adabiyotining yuzaga kelishi zamon taqozosiga aylandi. Biroq kommunistik diktatura o'rnatilgach, jamiyat hayotining barcha jabhalari qatori milliy adabiyot ham hukmron mafkura qoliplariga bo'ysundirildi. "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" adabiyotni shakllantirish talab qilindi. Sobiq sho'rolar hukumati tasarrufidagi

millatlarning har biri uchun sovetcha adabiyot asoschilari haqida uydirmalar to‘qildi. Ana shu talab taqozosiga ko‘ra Hamza Hakimzoda Niyoziy “o‘zbek sovet adabiyotining asoschisi” deya e’lon qilindi.

Sobiq ittifoq davrida Hamza “inqilob kuychisi”ga, sho‘ro adabiyotining “yalovbardori”ga aylantirildi. Shoir she’riyati kommunistik mafkura qoliplari asosida tadqiq qilindi. Bu yo‘nalishdagi vulgar-sotsiologik talqinlar asosan jadidchilik va jadid adabiyotiga barham berilgan XX asrning 30-yillaridan avj pallasiga kirdi. Bu davrda yaratilgan tadqiqotlarda Hamzaning milliy uyg‘onish ruhidagi asarlari atayin chetlab o‘tildi, shoir ijodi maqsadli ravishda soxtalashtirildi. Hamza ijodiga, she’riyatiga nisbatan bunday munosabat asosan quyidagi ko‘rinishlarda kechdi:

- shoir she’riyatining manbalari yuzaki o‘rganildi;
- nazmiy asarlari matni asliyatdan uzoqlashtirildi;
- she’rlari asl mohiyatiga zid talqin qilindi;
- asarlaridagi ma’rifatparvarlik g‘oyasi jadidchilikka qarshi qo‘yildi, sho‘ro mafkurasiga moslashtirildi.

Bu hol, o‘z navbatida, Hamza ijodiy merosining barcha jabhalari qatori shoir she’riyatini ham ilk manbalar asosida qayta o‘rganishni, nazmiy asarlari matni ustida xolis ilmiy kuzatish olib borishni, ularni qayta baholashni taqozo qiladi. Buning uchun esa, ilmiy-metodologik manbalarga tayangan holda shoir lirikasini tadqiq etishning asosiy adabiy-estetik tamoyillarini belgilab olish taqozo qilinadi.

Bizningcha, bu tamoyillar quyidagilardir:

1. Matnining asliyatga muvofiqligini aniqlash.
2. Matn tahriri masalasini o‘rganish.
3. Hamza lirikasining mumtoz adabiy an’analarga munosabatini tadqiq qilish.
4. Ijodkor asarlarining o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti ruhiga va milliy istiqlol g‘oyasiga muvofiqligini belgilash.
5. Hamza she’riyatida diniylik va dunyoviylik muvozanati muammosi tahlili.
6. Shoir asarlarining umuminsoniy va milliy ma’rifiy-axloqiy mohiyatini tadqiq etish.

Milliy adabiyotimizning har qanday namoyandasi, ayniqsa, Hamza singari murakkab va ziddiyatli davrda yashagan, asarlari atayin

mafkura talablariga moslashtirilgan shoir ijodiy merosini tadqiq qilishda **matnining asliyatga muvofiqligini aniqlash tamoyili** asosidagi ilmiy tekshiruv xulosalarning haqqoniyligini, nazariy jihatdan asosli bo'lishini ta'minlaydi.

Hamzaning o'tgan asr 70-yillari oxiri – 80-yillari boshlarida nashr qilingan to'rt jildlik "Mukammal asarlar to'plami"ga, oradan qariyb o'n yil o'tgach chop etilgan besh jildlik "To'la asarlar to'plami"ga kirgan she'rlarini asliyat bilan qiyoslash natijalari ular mohiyatan keskin farqlanadigan darajada "tahrir" etilganini, qisqartirilganini ko'rsatadi. Professor B.Qosimovning "Yangi tafakkur: izlanishlar, mashaqqatlar" maqolasida xuddi shu xususda fikr yuritilgan. Olim dastlab "Mukammal asarlar to'plami" sifatida tayyorlangan 4 jildlik akademik nashrga munosabat bildirib, jumladan, bunday yozadi: "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi"dan "birinchi bo'lim"dagi "olti dona" she'r beshtaga keltirildi. Noshirlar hech bir izohsiz "Yig'la, yig'la Turkiston, yig'la Turkiston!" she'rini tushirib qoldirdilar. "Darmon istariz" musaddas edi muxammasga aylantirildi... Berilgan besh she'rning uchtasida jami 34 satr tashlab ketildi. Bu, tomliklardan joy olgan bitta kichkina – atigi olti she'rlik to'plamcha misolida ko'ringan kamchilik. Va gap hozircha faqat "qisqartirish", shu orqali "qaltis" joyini "silliqlash" ustida. Xo'sh, shunday holda uni "Mukammal asarlar to'plami" deb bo'larmikin?!"[Қосимов. 224]

Olimning bu fikriga "Devoni Nihoniy"dagi hamd va na't g'azallarning tushirib qoldirilgani, barcha janrlardagi she'rlardan butun boshli baytlar, bandlar qisqartirilgani, aksar so'z va jumlalarning "tahrir" qilingani faktlarini qo'shsak, shoirning "Mukammal asarlar to'plami" deb nomlangan nashri talab darajasida amalga oshirilmagani ayon bo'ladi.

Ta'kidlanganidek, oradan o'n yilcha vaqt o'tgach, shoirning besh jildlik "To'la asarlar to'plami" dunyo yuzini ko'rdi. To'g'ri, bu nashrda to'rt jildlikdagi ko'plab xatolar tuzatildi, ayrim qisqargan bayt va bandlar tiklandi, "Devoni Nihoniy" ham nisbatan to'laroq chop etildi. Biroq bu nashrdagi she'rlar matni ham asliyatga muvofiq emas. Mazkur maqolada professor B.Qosimov bu nashrga quyidagicha baho beradi: "Mana, shoir asarlarining 5 tomligi chiqdi. Bu – ikkinchi akademik nashr. Mutasaddilardan biri matbuotda u haqda "nodir nashr" deb

kafolat berdi: "...biror so'zi yoki harfi o'zgartirilmasdan, grammatik shakli buzilmasdan aynan berildi". Afsuski, bunday emas".

Olim fikrini quyidagi misollar orqali asoslaydi. "Yig'la, Turkiston!..."ni ko'ramiz: "Shunday kechsa holimiz, nelar bo'lg'usi:! deb boshlanadigan band tushib qolgan. "Mozorinda tik yotur ixvat o'rgatgan" deya yozadi Hamza. "Firorinda (?) tik yotur..." o'qiydilar noshirlar. ..."Darmon istariz"da "biz"–"bir"ga, "aroda ro'zimiz"–"iroda so'zimiz"ga, "billoh olim"–"boshqa olim"ga, "hukmi Qur'on"–"xatmi qur'on"ga aylangan... Shunchadan keyin ham uni so'zi, harfi, hatto grammatik shakli o'zgartirilmay "aynan berildi" deb bo'ladimi?!".

B.Qosimovning Hamza she'riyati nashrlariga doir yuqorida keltirgan misollari shoirning bor-yo'g'i 6 she'riga tegishlidir. Qo'shimcha ravishda shuni ta'kidlash kerakki, to'plamda g'azal janridagi she'rlar to'rtlik ko'rinishiga keltirilgan hollar, ba'zi nazmiy asarlardan butun boshli baytlar, bandlar tushirib qoldirilgan, noto'g'ri o'qilib, xato tabdil qilingan o'rinlar ham mavjud. Umuman, shoir she'rlari asliyat va nashr variantlarida bunday nomuvofiqlik ko'plab uchraydi. Bu haqda aniq misollar tahlili asosida maxsus to'xtalinishi nazarda tutilib, fikrlar muxtasar qilindi.

Hamza she'riyati tadqiqida **matn tahriri masalasini o'rganish tamoyili** alohida ahamiyatga ega. Chunki shoir nazmiy asarlarida matn tahririning ko'plab turlariga duch kelish mumkin. Tadqiqot natijalari ularda adabiyotimiz tarixida ko'p kuzatilgan muallif tahriri ham, qo'lyozmalarni ko'chirgan kotiblar tahriri ham yoki shoir asarlarini o'sha davr hukmron mafkurasiga moslashtirishga qaratilgan noshirlar tahriri ham uchrashini ko'rsatadi.

Hamza she'rlarining tadqiqi ularda matn tahriri uch xil asosda amalga oshirilganini ko'rsatadi: ***1) muallif tahriri; 2) qo'lyozmani ko'chirgan kotib tahriri; 3) g'oyaviy tahrir.***

Hamza lirikasining mumtoz adabiy an'analarga munosabatini tadqiq qilish tamoyili ham shoir she'riyatini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ta'kidlash kerakki, "Devoni Nihoniy" shoir mumtoz adabiyot an'analarini munosib davom ettirganidan dalolat beradi. Binobarin, devonda g'azal, masnaviy, murabba', muxammas, musaddas, maktub singari mumtoz she'riy janrlarga oid nazm namunalari uchra-

ydi. Shoirning tasvirdagi, ifoda usulidagi novatorligini e'tirof etgan holda, qayd qilish kerakki, devonga kirgan she'rlarning vazn va qofiya tizimi ham, obrazlar olami ham an'naviy.

She'riyat – badiiy-estetik hodisa. Tabiiyki, lirik asarda teran mazmun va go'zal badiiy shakl uyg'unligi talab etiladi. Bu ikki komponentdan birortasi noqis bo'lsa ham, nazmiy asar mukammalligiga putur yetadi. Ta'kidlash kerakki, bu talab faqat she'rga emas, u haqdagi ilmiy tadqiqotga ham to'la tegishlidir. Shu bois she'riy asar tahlilida urg'uni faqat mazmunga yoki shaklga qaratish bir tomonlamalikka olib keladi. She'rning asl mazmuni qolib, tendensiozlik asosida o'zgacha talqin etilishi esa adabiyotshunoslikning tanazzuliga bois bo'ladi. Hamzashunoslik ana shunday inqirozni boshdan kechirgani ma'lum. Birgina misol. R.Kamolova Hamza lirikasini tahlil etar ekan, bunday yozadi: "Islom dini hukmron bo'lgan bir davrda, zohid xudojo'ylikni, tarkidunyochilikni targ'ib qilayotgan bir sharoitda "Ey Nihoniy, rind bo'l, kibru havolarni unut" yoki:

Qurib domi tama' zohid kibi xilvat saro bo'lma,
Topib rind ahlini xizmatda bo'l toki basar paydo, –

deb jasorat bilan ko'tarilishi katta gap edi. Bu bilan Hamza har qanday so'fiyona aqidalarga va tarkidunyochilikka qarshi chiqib, real hayot, hayotiy muhabbat va konkret go'zallar haqida kuyladi"[Ҳамза ҳақида мақолалар. 116].

Aslida, Hamzaning bu satrlariga aynan shoir lirikasining mumtoz adabiy an'analarga munosabati tamoyili asosida yondashuv zarur edi. Zero, bu misralarda mumtoz adabiyotimiz an'anasiga muvofiq tasavvufiy mazmun ifodalangan. Shoir hech qanday "konkret go'zallar" haqida kuylayotgani yoki "so'fiyona aqidalarga" qarshi chiqayotgani yo'q, balki xilvatga yuz tutib, tama' umididagi zohid kabi bo'lma, rind ahlini, ya'ni foniy dunyo muhabbatidan oxirat hayotini ustun qo'yuvchi zotlarni top, ularning xizmatida bo'l, ta'limini ol, qalb ko'zing ochilsin, deyapti. Hamzashunoslikdagi matnni avvaldan tayyorlangan qoliplarga solib talqin etishdek noo'rin an'ana aksar hollarda noto'g'ri xulosalarga olib kelgani ana shu birgina misolda ham yaqqol namoyon bo'lgan.

Hamzaning novatorligi, u she'riyatga olib kirgan o'ziga xos yangiliklar haqida R.Kamolovaning fikri quyidagicha: "Shuningdek, yosh

Hamza o‘zbek va rus so‘zlari aralashmasidan iborat she’rlar yozib, original shiru shakar yaratdi. Bu bilan novator shoir sifatida asrlarcha davom qilib kelayotgan adabiy an’anani yorib chiqa oldi va o‘zigacha bo‘lgan o‘zbek shoirlaridan bir qadam ilgariga ketdi” [Қосимов. 117]. Muallif fikrining isboti sifatida shoirning “Bolshoy” radifli va rus, o‘zbek so‘zlari aralash qo‘llangan “To‘qindim yo‘lda dedim men sari ukam, guzar et” – deb boshlanuvchi g‘azallarini misol qilib keltiradi.

Hamza, shubhasiz, novator shoir. Biroq uning novatorligi bunday jo‘n misollarda emas, mumtoz she’riyatimiz an’analarini yangilagan, badiiyatning chinakam namunasi bo‘lgan ko‘plab she’rlarida namoyon bo‘lgan. Yuqoridagidek yuzaki talqinlar esa faqat aks ta’sir ko‘rsatishi mumkin, xolos. Binobarin, sho‘ro davri hamzashunosligida yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan yana bir xususiyat shoirning yuksak saviyadagi ijod namunalari emas, balki davr ijtimoiy ruhi aks etgan she’rlari tendensioz talqin etilganida namoyon bo‘ladi.

Ta’kidlash kerakki, “Devoni Nihoniy”dagi she’rlar mumtoz she’riyat an’analari ruhida ijod etilgan. Hamza lirikasida ijtimoiy motivlar keyinroq paydo bo‘ldi. Lekin bu ijtimoiy motivlar, hayotining so‘nggi yillaridagi ayrim she’rlarni istisno etganda, milliy uyg‘onish g‘oyasi bilan sug‘orilgan edi.

Bu masala shoir lirikasini tadqiq etishning **ijodkor asarlarining o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti ruhiga va milliy istiqlol g‘oyasiga muvofiqligini belgilash tamoyili**dan kelib chiqib o‘rganilishi maqsadga muvofiq. Vaholanki, shu paytgacha yaratilgan tadqiqotlarda ko‘pincha buning ziddini dalillashga harakat qilingan. Birgina misol. Faxri Kamol shoir lirikasining badiiyatiga baho berar ekan: “G‘oyaviy jihatdan o‘tkir, badiiy jihatdan go‘zal va yuksak asarga mos keladigan yangi badiiy formani izlab topish yo‘lida ulug‘ rus xalqining ilg‘or madaniyati va rus milliy tili Hamzaga kuchli ta’sir qildi..”[Ҳамза ҳақида мақолалар. 15] kabi fikrlarni bildiradi. Taassufki, sho‘rolar zamonida bunday yondashuv Hamza lirikasi tahliliga oid aksariyat tadqiqotlarning yetakchi xususiyatiga aylandi.

Sho‘ro davri hamzashunosligi shoir lirikasidagi ana shu muhim jihatga o‘sha zamon mafkurasi talabidan yondashishga majbur edi. Jumladan, adabiyotshunos Yusuf Sultonov fikriga ko‘ra: “Yosh Ham-

za adabiyotga qadam tashlar ekan, u vaqtda mavjud bo'lgan adabiy yo'nalishlarga duch keladi... Biri o'zbek milliy burjuaziyasining tug'ilishi bilan vujudga kelgan jadid adabiyoti edi. Jadid yozuvchilari (Behbudiy, Hoji Mu'in va shu kabilar) turmushni milliy burjuaziya nuqtai nazaridan aks ettirib, burjuaziya manfaatlariga xizmat qilardi. Ayni zamonda o'zbek klassik adabiyotining eng yaxshi progressiv traditsiyalarini davom ettirib kelayotgan yozuvchilar bo'lib, uning mashhurlari Muqimiy, Furqat va Zavqiy edi..."[Султонов. 12]. Olim shu tarzda Hamzaning g'oyaviy jihatdan Muqimiy, Furqat va Zavqiyga izdosh ekanini ta'kidlab, shoirni inqilob kuychisi sifatida talqin etadi.

Shubhasiz, Muqimiy, Furqat va Zavqiy she'rlarida xalqning orzu-armonlari, intilishlari aks etgan, millat ilm-ma'rifatga targ'ib qilingan. Zero, ular ilmni, ma'rifatni millatni jaholatdan qutqaradigan yagona vosita deb bilgan. O'z navbatida, Hamza she'riyatida yuqorida tilga olingan shoirlar kabi ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan birga milliy uyg'onish ruhiyati ham ustuvorlik qiladi. Shoirning bu mavzudagi she'rlarida aks etgan asosiy g'oyalardan biri millatni uyg'otish masalasi edi. Zero, bu davr adabiy tafakkurida jadidchilik ruhi yetakchilik qilgan. Xususan, Hamzaning 1914-yilda yozilgan "Vatandoshlarima xitob" she'rida bunday deyiladi:

Ey ahli Vatan! Bosdi sani muncha g'afolat,
G'arq ayladi muncha sani daryoi jaholat,
Tushdi sani boshing uza shum zilli razolat,
Boq holinga, nalar o'ldi, gar bo'lsa basorat,
Qoplab kelur millatingni zulmatu g'orat,
Inson sifating vor esa tur, ayla jasorat!

G'aflat uyqusidin ko'zung och, boq zamona,
Ilm ila maorif tutuni to'ldi jahona,
Soldi hama millat bu maorifga xazona,
Biz millat etub or ila nomusi bahona,
Na maktaba ilm o'ldi, na bozorda tijora,
Xushk o'ldugimiz boisidin bo'ldi kasolat.[Hamza. 27]

Hamza boshqa jadid mutafakkirlari singari millatni g'aflat va jaholat uyqusidan uyg'otishni maqsad-matlab deb bildi, xalqni basorat-

ga – dunyoga ochiq ko‘z bilan qarashga da’vat etdi. Jahonga to‘lgan ilm ila maorifdan bahra olishga chaqirdi. Muhimi, u ilmu maorif g‘oyasini faqat she’rlarida targ‘ib qilish bilangina cheklangan emas. Amalda ham o‘sha davrning yetakchi ziyolilari, jadidlari safida millat yoshlarini ma’rifatli qilish uchun yangi maktablar ochdi. Bu maktablar uchun “Engil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” singari darsliklar yozdi. Yangi usul maktablari, doru-l-aytomlar ochib, ana shu darsliklar orqali millat yoshlariga ilm berdi, ma’rifat tarqatdi. Bu esa, uning she’rlarda aks etgan milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik g‘oyalari amaliy faoliyati bilan uzviy kechganini ko‘rsatadi.

Ammo sho‘ro davridagi tadqiqotlarda Hamzani XX asr avvalidagi “Momoguldurak bo‘lib, Millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo‘yilgani haqida bong urgan, chaqmoqdek chaqnab, uning bag‘ridagi jarohatlarini yoritgan, obirahmat bo‘lib, ona Turkiston ko‘ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollariga hayot baxsh etgan”[Қосимов. 27] jadidchilik harakatidan zo‘rma-zo‘rakilik bilan ajratib olishga urinish kuzatiladi. Hatto u ochgan yangi usul maktablariga baho berganda: “Hamzaning yangicha maktabi jadidlar ochgan “yangicha” maktablardan farq qilardi. Jadidlar milliy burjuaziya uchun kadrlar tayyorlashni nazarda tutardilar va maktablariga bir qism kishilarni, asosan, boy bolalarini qabul etardilar”[Султонов. 22] singari tendensioz yondashuv yetakchilik qildi.

Bu singari talqinlar soxta bo‘lgani, na adabiy-ilmiy, na hayotiy haqiqatga to‘g‘ri kelmasligi bugun hech kimga sir emas. Har qanday hodisa, ayniqsa, adabiy-estetik jarayon asl mohiyatidan kelib chiqib o‘rganilmas ekan, chiqarilgan xulosa ilmiy qimmatga ega bo‘lmaydi. Oktyabr to‘ntarishiga munosabatning Hamza she’riyatida aks etishi masalasiga oid “Erta tongda quyosh chiqishini ulug‘lab bulbul xonish etganidek, o‘z xalqining bulbuli – shoir Hamza ham erkin nafas olib, ashulalarida ozodlik va baxt quyoshi – Ulug‘ Oktyabrni buyuk ixlos va samimiyat bilan kuyladi”[Султонов. 52] kabi talqinlar bunga misol bo‘la oladi.

Professor L.Qayumovning “Biz bilmagan Hamza” maqolasidagi: “Asrimizning 90-yillarigacha uzoq va yaqin o‘tmishni tahlil etgan jamiyatshunoslikda sinfiylik mezoni qo‘llanib, hodisalar mohiyati to‘la yoritilmagani, baholarda hukmron siyosatga moslashish hollari

sodir bo'lgani ham rost. Mustaqillik bu xatolarga chek qo'ydi va ularni tuzatish uchun imkoniyat yaratdi. Bu hol hamzashunoslikka ham taalluqlidir..." degan so'zlari ham fikrimizni tasdiqlaydi. Shuning barobarida, bunday yondashuv hamzashunoslikka oid tadqiqotlarni boshqatdan, mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan olib borish zaruratini taqozo etadi.

Olim mazkur maqolada Hamza "sho'ro shoiri bo'lgan" degan fikrga zid ravishda shoirning "1905-yil yapon muhorabasi uchun lahn yozilgan bir she'r"i haqida fikr yurita turib: "Ma'lumki, xaritada sherdek ko'ringan Rossiya chimchiloqdek Yaponiyadan o'sha urushda yengilgan edi. Uquvsiz rus armiyasini masxaralovchi Hamzaning bu she'ri sakson yilcha arxivda yotdi. Ehtimol, hanuz yotardiyu ammo o'zbek olimlari ongida sodir bo'layotgan Istiqlol, Mustaqillik g'oyalari tufayli 1988 yili, Mustaqillik g'alabasidan 2 yil avval Hamza Hakimzoda Niyoziyning besh tomlik to'la asarlar to'plamida birinchi marta e'lon qilindi" deya mazkur she'rdan parchalar keltiradi:

Biling, do'stlar, bu kofirni taxtu tojin olur yopun,
Parvardigorim xohlasa, harna borin olur yopun.

Bizg'a Xudo rahm aylasa, yopun belini boylasa,
Ruhi Muhammad qo'llasa, bir soatda olur yopun.

L.Qayumov Hamzada mustamlakachi hukumatga nisbatan bunchalar nafrat yig'ilganining sababini:

Xaloyiqqa zulm qildi, madrasa vaqfini oldi,
Har ne ishlar boshga soldi, qasosini oldi yopun.

O'rusdan ketdi davlati, zohirda bordir savlati,
Nasib bo'lmas bul davlati, bir kun boshin olur yopun, – kabi misollar bilan izohlaydi. Bundan tashqari, maqolada shoirning vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik mavzuidagi she'rlaridan ham misollar keltirilib: "Ana shunday milliy g'oyalar ifodalangan ijodi bilan Hamza o'sha yillarning mo'tabar siymolari Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy, Qodiriy, Fitrat, Cho'lponlar qatorida, ular bilan hamfikrlikda tarixga kirdi" degan o'rinli xulosaga kelinadi.

Hamza Vatan va millat taraqqiyoti uchun kurashdi, nazmiy asarlarida ona yurt ozodligi hamda kelajagini tarannum etdi. Professor

O.Sharafiddinovning "Istibdod qurboni yoxud o'zligidan mahrum etilgan shoir"[Шарафиддинов. 131] maqolasida ta'kidlanganidek, shoir she'riyatidagi ijtimoiy mazmun sho'ro davridagi adabiyotshunoslar nazarda tutgan Oktyabr inqilobini kuylash emas, balki o'z xalqining orzu-armonlari va muammolarini aks ettirishdan iborat bo'lgan. Maqolada olim bu fikrini Hamzaning quyidagi she'rini keltirish orqali dalillaydi:

Keling, endi birlashing, islom millati!
Ketsin sunniy, shialik, nifoq illati!
Bir sanjaqqa to'plansun islom davlati!
Qutlug' bo'lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashib islom millati! [Шарафиддинов. 142]

Bu she'r 1918-yili yozilgan bo'lib, "Turkiston muxtoriyatina" deb nomlanadi. Ushbu satrlardan ko'rinib turibdiki, Hamza Turkiston muxtoriyatini ulug'lab, uning millatni birlashtirishdagi ahamiyatiga urg'u beradi. Ozod Sharafiddinov Hamza shaxsiyati va ijodi borasidagi qarashlarida uning jadid adiblari qatorida ijod qilganini ko'rsatadi. Olimning: "Hamza sho'ro fuqarosi sifatida yashashda va faoliyat ko'rsatishda davom etgani holda, hali sho'ro shoiriga yoxud sho'ro adibiga aylanib ulgurmagan edi. Butun 20-yillar davomida Hamzaning ijodida ham xuddi Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon ijodida bo'lgani kabi jadidchilik ruhi ustuvor bo'lib qolgan"[Шарафиддинов. 146], degan fikrlari ham buni tasdiqlaydi.

"Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligining Hamzaga oid bobini yozgan professor U.Dolimovning aniqlashicha, shoir ijodiga "...ayniqsa, Ismoilbek Gaspralining "Tarjimon", Fotih Karimiyning "Vaqt" gazetalari, Rizo Faxriddinning "Sho'ro" jurnali, shu bilan birga, o'zbek tilida Toshkentda chiqa boshlagan Ismoil Obidiyning "Taraqqiy", Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining "Xurshid", Abdulla Avloniyning "Shuhrat" gazetalari kuchli ta'sir ko'rsatdi"[Долимов. 386] Binobarin, shoir dunyoqarashida jadidchilik g'oyalari shakllanishi ana shu omilar ta'sirida kechdi.

Hamza she'riyatining bugungi avlodni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati alohida. Zero, shoir lirikasidagi Vatan va millatni dunyodagi mutaraqqiy mamlakatlar va xalqlar qatorida ko'rish, bunda ilmu irfonning, maktab-maorifning o'rni, ozodlikning tengsiz

ne'mat ekani singari g'oyalar o'tgan yuzyillikda qanchalik dolzarb bo'lgan bo'lsa, biz yashayotgan XXI asrda ham shunchalik muhimdir. Bu esa, o'z navbatida, shoir lirikasini o'zbek milliy uyg'onish adabiyoti ruhiga va milliy istiqlol g'oyasiga muvofiqligi tamoyili asosida tadqiq etishning ilmiy va amaliy ahamiyati katta ekanidan dalolat beradi.

Hamza she'riyatida diniylik va dunyoviylik muvozanati muammosi tahlili tamoyili – nafaqat Hamza she'riyatini, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan barcha ma'rifatparvarlar adabiy merosini tadqiq etishda alohida ahamiyatga molik metodologik masala. Ma'lumki, milliy uyg'onish harakati namoyandalari bu ikki xususiyatni – diniylik va dunyoviylikni uzviy aloqadorlikda his etgan. Ular o'z asarlarida inson kamoloti va jamiyat ravnaqi ana shu ikki omilning muvozanatiga, o'zaro uyg'unligiga bog'liq ekanini ta'kidlab, turkiy dunyoda XVII–XIX asrlarda kechgan tanazzul jarayonini ana shu muvozanat buzilishining oqibati, deb bilgan. Bunga erishmoq uchun esa, diniy va dunyoviy ilmlarni yuksak darajada egallamoq, nafaqat o'rganish, bilish, shuning barobarida, hayotga tatbiq etmoq ham zarur edi. Shu bois Hamzaning fikricha, ma'rifatsiz iymon mukammalligiga erishib bo'lmaydi. Ilmdan bebahralik musulmonlik darajasining ham noqisligini ko'rsatadi:

Ma'rifatsiz tonulmaz ahkomi iymon,
Ilmsizga aytulmas komil musulmon, –

Sho'rolar zamonida Hamzaning dinga munosabati bir tomonlama, totalitar mafkura nuqtai nazaridan yoritib kelindi, ya'ni shoir ateist, din dushmani sifatida talqin qilindi. Ana shunday soxta xulosalardan kelib chiqib, shoirning diniy mavzudagi she'riy va nasriy asarlari, maqolalari, hayoti va ijodiga doir diniy ruhdagi ma'lumotlar kitobxonlar e'tiboridan yashirildi. Bu hol shoirning "Mukammal" va "To'la" asarlar to'plamlari nashrida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Adabiyotshunos olim Salohiddin Mamajonovning Hamza "Mukammal asarlar to'plami" haqidagi mana bu mulohazalari ham fikrimizni tasdiqlaydi: "Yozuvchining estetik mavqe – prinsiplarini ko'rsatuvchi ayrim parchalarning yulib tashlanishini qanday izohlash mumkin? "Qiroat kitobi"dan uch-to'rt betlab parchalar olib tashlangan. Tashlab ketilgan "Xiyonat" bobining oxirida Hamza "Emdi sadoqatni ikkin-

chi kitobdan boshlab o‘qursiz”, deydiki, afsuski u bu niyatiga yeta olmagan yoki bosilmay yo‘qolgan. “Salom ayting” she’ridan ham 23 misra tushirib qoldirilgan” [Мамажонов. 27].

Ta’kidlash joizki, Hamza adabiy merosini o‘rganishda uni ateist, dinga qarshi ijodkor sifatida talqin etish qanchalik noto‘g‘ri, haqiqatga zid bo‘lsa, shoirni o‘ta darajada dindor qilib ko‘rsatish ham o‘zini oqlamaydi. “...masalaning noxush tomoni shundaki, – deb yozadi professor O.Sharafiddinov, – ayrim hamzashunoslar xolislik va ilmiylik yo‘lini tutish o‘rniga yana Hamzani yangi sharoitlarga moslashtirishga harakat qilishmoqda. Men yaqinda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftaligida Hamza to‘g‘risida bir maqola o‘qidim. Unda Hamzani islom dinining izchil targ‘ibotchisi sifatida ko‘rsatishga urinish bor. Menimcha, Hamza ijodiga bunday yondashish ham bir tomonlamalikdan boshqa narsa emas. To‘g‘ri, Hamza e’tiqodli musulmon bo‘lgan, islom dinini yaxshi bilgan, haj qilgan odam. She’rlarida ham, albatta, uning diniy e’tiqodi qay bir darajada o‘z ifodasini topgan. Lekin shunga qarab, uni dinga mukkasidan ketgan, ashaddiy xudojo‘y odam sifatida yoki islomning fidoyi targ‘ibotchisi sifatida ta’riflab bo‘lmasa kerak... u sho‘rolar paytida aytilganidek, dinga qarshi faol kurashgan ateist ham emas va hozir ayrim hamzashunoslar e’lon qilayotgandek Huvaydo va yoki Haziniy kabi diniy shoir ham bo‘lmagan. U ijodining birinchi qadamlaridanoq jadid bo‘lgan, uning ijodiy evolyusiyasi ham jadidchilik mafkurasi hududida sodir bo‘lgan”.[Шарафиддинов. 151-152]

Darhaqiqat, Hamza musulmon e’tiqodidagi shaxs, Vatan va millat taraqqiysini diniy va dunyoviy ma’rifat uyg‘unligida ko‘rgan ijodkor sifatida yashagan va ijod qilgan. Mana bu misralar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

O‘qubon oyoti Qur’onu hadis-u qiyl-u qol,
O‘zga millatning taraqqiy ilmini aylab misol,
Ko‘rsatib ko‘ziga yuz ming foyda, fazl-u xisol,
Xor, so‘lub, qonlar yutub, tun-kun yugurub moh-u sol,
To‘zigay to‘zg‘oq kibi bir ittifoq etsang arang.[Hamza.Al-Isloh.1915.№20]

Shoir yillar, oylar mobaynida tun-kun yugurub, qonlar yutib, e’tiqodimiz manbai bo‘lgan Qur’on oyatlariyu hadisi sharifni, bundan

tashqari, o'tmish mutafakkirlarining qiylu qolini – so'zlarini o'qib, o'zga millatlarning taraqqiy etish sabablarini tushuntirib, yuz ming foydani anglatib, arang ittifoq etsang ham, to'zg'oq kabi to'ziydigan ahvolga kelib qolganimizdan taassuf qiladi. She'r sarlavhasi ham shundan olingan. Hamzaning alohida ta'kidlashicha, ilmsizlik, ma'rifatsizlik iymonga ham xalal yetkazadi. "Taassuf" she'rining quyidagi misralari shoirning bu haqdagi qarashlarini yorqin ifodalagani bilan alohida ajralib turadi:

Ilm yo'q-sa farqi kufr-u favqi iymondan na sud,
Sun'yo'q-sa farqi hayvon, favqi insondan na sud,
Fikri isloh o'lmasa, bik so'zi hijrondan na sud,
Ehtiyot avvalda yo'q-sa so'ng pushaymondan na sud.
Matlabing jononi tekkanda borub toshga jarang.[Hamza.Al-Isloh.1915.№20]

Hamzaning musulmonligi va jadidligi bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, bir-birini to'ldiradi, shoirning e'tiqodi va ijodiy maslagi haqidagi tasavvurni boyitadi. Shoirning mana bu misralarida ana shu ikki jihat mutanosiblikda ifodalanganini kuzatish mumkin:

Bu na vahshat, na jaholat, er, qiz-u piru javon,
Domi g'aflatdin xalos o'lmoqqa imkon istamas,
Ey Nihon, bing hayf, ey insoniyat, islomiyat
Millati xor o'lmag'in hech nomusulmon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.[Хамза. 30]

Ushbu ilmiy kuzatuvlar Hamza she'riyatini diniylik va dunyoviylik muvozanati tamoyili asosida tadqiq etish shoirning shaxs va ijodkor sifatidagi tutumini, dunyoqarashini anglashda alohida ahamiyatga molik ekanini ko'rsatadi. Bu tamoyil nafaqat Hamza ijodi, umuman jadid adabiyotining xos xususiyatlarini tadqiq qilishda yangi ilmiy-nazariy umumlashmalarga kelish imkonini berishi mumkin.

Hamza lirikasini tadqiq etish tamoyillari haqida so'z ketar ekan, bu ijodkor merosini **shoir asarlarining umuminsoniy va milliy ma'rifiy-axloqiy mohiyatini tadqiq etish tamoyili** asosida o'rganish hamzashunoslik ufqlarini kengaytirishi mumkinligini ta'kidlash kerak. Jumladan, shoir asarlarida barcha zamonlar va umuman insoniyat hayoti uchun dolzarb bo'lgan taraqqiy va tanazzul, ma'rifat va jaholat, yorug'lik va zulmat, ezgulik va yovuzlik, ozodlik va istib-

dod, iymon va kufr, diyonat va xiyonat singari mavzular chuqur mazmun va betakror badiiy shakl uyg‘unligida tasvirlanadi. Ta’kidlash kerakki, bu kabi mavzular talqini zamirida ma’rifatparvarlik g‘oyasi, ma’rifiy-axloqiy mohiyat aks etadi. Muhimi, bu g‘oyalarning badiiy talqini Vatan va millat manfaatiga asoslanishi barobarida umuminsoniy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Қосимов Б. Ўзбек адабиёти ва адабий алоқалари тарихи. – Т.: Фан ва технология, 2008.

2. Ҳамза ҳақида мақолалар. – Т.: Бадиий адабиёт, 1960.

3. Султонов Ю. Ҳамза. Ҳаёти ва ижоди ҳақида очерк. – Т.: Фан, 1973.

4. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002.

5. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004.

6. Мамажонов С. Барҳаёт Ҳамза. –Т.: Фан, 1991.

7. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. I-II том. – Т.: Фан, 1988.

JADID DRAMALARIDA MILLIY TANAZZUL MASALALARI TALQINI

Raxmonova Dildora Mirzakarimovna,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: dildorarahmonovatsul@gmail.com
Tel.: +99899 875 95 49
(O'zbekiston)

Annotatsiya: Jadid adiblari o'z g'oyalarini ommaga yetkazish uchun barcha janrlardan unumli foydalanishdi. Janr imkoniyatlaridan kelib chiqib, dramaturgiya orqali milliy hayotdagi ko'plab muammolar ommaga oyna kabi ko'rsatib berildi. Bu mavzular orasida ilmsizlik, ichkilikbozlik, mohiyatan foydasiz urf-odatlarga tobelik va yana o'nlab boshqa mavzular bor edi. Bu adabiy urinishlardan yagona maqsad millatni uyg'otish, taraqqiyotga yo'llashdan iborat edi. Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramasi mazmun va g'oyalar ifodalanishi nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Undagi ramziy ma'no va umumlashma obrazlar tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, jadid dramasi, Abdulla Qodiriy, "Baxtsiz kuyov" dramasi, milliy manfaat, millatni uyg'otish.

Annotation: Jadid writers effectively used all genres to convey their ideas to the masses. Based on the possibilities of the genre, many problems in national life were shown to the public through drama as a mirror. Among these themes were ignorance, drunkenness, addiction to essentially useless customs, and dozens of others. The sole purpose of these literary attempts was to awaken the nation and lead it to progress. This article analyzes Abdullah Kadiri's drama "Baxtsiz kuyov" from the perspective of expressing content and ideas. The symbolic meaning and generalized images in it are analyzed.

Keywords: Jadid literature, Jadid drama, Abdulla Qodiriy, the drama "Baxtsiz kuyov", national interest, awakening the nation.

O'zbek jadid adabiyoti vakillari millat hayoti bilan bog'liq har bir

muammoga o‘z e’tiborini qaratgan, ularni hal etish bilan bog‘liq yechimlarni badiiy asarlari mazmuniga singdirgan edi.

Jadid mutafakkirlari millatni taraqqiyotdan ayirayotgan hech bir illatga toqat qilmas, xoh u nazm bo‘lsin, xoh nasr, yoxud drama orqali ana shu illatlarni tanqid va tahlil nishoniga olishar edi. “To‘p to‘g‘ri aytganda u qadar ta’sir qilmas. Adabiyot bilan aytganda, albatta, ta’sir qilar...” [Чўлпон, 1994, 35] qoidasiga har bir janrda rioya qilinar edi. Xususan, janr imkoniyatlaridan kelib chiqib, dramaturgiya orqali milliy hayotdagi ko‘plab muammolar ommaga oyna kabi ko‘rsatib berildi. Bu mavzular orasida ilmsizlik, ichkilikbozlik, mohiyatan foydasiz urf-odatlarga tobelik va yana o‘nlab boshqa mavzular bor edi.

Jadid adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan ko‘plab dramalarni umumlashtiradigan mavzu – to‘y va u bilan bog‘liq milliy fojialar tahlilidir. Chunki XX asr boshidagi maishiy hayot manzaralarida odamlarni zanjir kabi o‘ziga tobe etgan ko‘plab odatlar bor ediki, u millatni yuksaltirish emas, tobora tirikchilik, tobelik va qarz botqog‘iga botirish; shu odatlar sabab odamlar ilm olish, dunyo voqealaridan xabardorlik, taraqqiyot haqida o‘ylamay qo‘yganlari aniq taqdirlar misolida juda teran tahlil etilgan.

Bu davrda yaratilgan dramatik asarlar haqidagi dastlabki tahlillarni 10-yillar matbuotida ko‘rishimiz mumkin. Mazkur maqolalarda pyesa emas, ularning sahnalashtirilgan varianti tahlil etilganini nazarda tutishimiz kerak. Mazkur yo‘nalishda maxsus tadqiqot olib borgan olim S. Ahmedovning ta’kidlashicha, 10-20-yillarda “118 nomdagi pyesalar yozilgan”. Birgina Fitrat dramalarining o‘ziga (10-20-yillar orasida) o‘ttizga yaqin taqriz yozilgan. Behbudiyning “Teatr nadur?” deb nomlanuvchi maqolasidan keyin matbuotda asta-sekinlik bilan teatr targ‘ibi va dramaturgiyaning nazariy muammolariga bag‘ishlangan maqolalar ham e’lon qilina boshlaydi. 20-30-yillarga kelib nazariy asarlarda ham dramaturgiya nazariyasi maxsus o‘rganila boshlandi. Xususan, B.O.Pestovskiyning “O‘zbek teatri tarixi” va G‘.Zafariyning shu nomli maqolasi, Miyon Buzruk Solihovning “O‘zbek teatri tarixi uchun materiallar” kitobida dramaturgiya teatr masalalari bilan bog‘lab tadqiq etilgan. Fitratning 1926-yilda nashr etilgan “Adabiyot qoidalari” asarida esa ilk bor dramaturgiyaga oid asarlarga nazariy, ilmiy nuqtayi nazardan baho berilgan.

Sh.Rizayevning "O‘zbek jadid dramaturgiyasining shakllanish manbalari" deb nomlangan nomzodlik ishida jadid dramaturgiyasining dastlabki davri, ilk dramaturglar faoliyati, teatrchilik harakati O‘zbekiston tarixida o‘ziga xos o‘rin tutgan jadidchilik harakati bilan bog‘liqlikda talqin etilgan. Mazkur tadqiqotda 1916-yilgacha yaratilgan o‘ttiz drama mavzu va xronologik nuqtayi nazardan tasnif etiladi. 1911-1916-yillar jadid dramaturgiyasining "shakllanish", 1916-1924 yillar "taraqqiyot davri" deb belgilanadi. Ilk bor birinchi milliy drama masalasi ham ushbu tadqiqotda hal etilgan [Ризаев, 1997:21-35].

Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramasida Solih ismli yigit va uning uylantirilishi bilan bog‘liq fojia qalamga olinadi. Muallifning o‘zi bu asarni "Turkiston maishatidin olingan to‘rt pardalik foji'a" deb ataydi[17]. Asar qahramonlari hayoti misolida va ularning nutqi mazmunidan ko‘rinadiki (Solih tilidan aytilgan *"bu zamonda olug‘-solug‘, g‘alla, yana nima balolar chiqib ketdi, xotun olgan yigit qarzdor bo‘lmasdan uylana olmaydur. Qanchalari yer-joylaridan ajramoqdalar"* mulohazasi bu fojianing o‘z zamoniga mutlaq xosligini ko‘rsatadi – D.R.) dramada tilga olingan holatlar haqiqatdan ham fojia, bu davrda elning rasm-rusumini ko‘r-ko‘rona amalga oshirganlarning aksariyati xuddi shunday ahvolga tushishgan edi. Bundan anglaymizki, Solih – umumlashma obraz.

Solihning o‘z tilidan amakisi Abdurahimga aytgan ojizona e'tirozidan ham buni ilg‘ash mumkin: *"...Zamonamizda yomon bid'at, isroflar taraqqiy topkan, uncha-muncha oqchag‘a bu vaqtda uylanmak qiyin, meni oqcham (uch yuz so‘mga yaqin pulni nazarda tutmoqda – D.R.) boyagi aytkanim. Sizg‘a xo‘b, xotun olaman, uylanaman desam, Fayziboy mendan zamonag‘a muvofiq oqcha olsa, ul vaqtda men qarzdor-abgor bo‘lub qolsam, ish qanday bo‘lur, hozir avf etasiz*". Ya'ni u avval-boshdan bu to‘yga qarshi, ammo amakisining "... *hozirgi zamonda qaysi bir yigit qarzdor bo‘lmay uylanyapti... yana Fayziboy ko‘b katta to‘y qilmayman, deydur, zamonani to‘yidek sendan ko‘b oqcha ketmasa kerak...*" degan mulohazalari uni "xo‘p" deyishga majbur qiladi.

Abdulla Qodiriy "Baxtsiz kuyov" dramasi orqali millat baxtsi-

[17] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qodiriy-1894-1938/abdulla-qodiriy-baxsiz-kuyov-drama

zligining, fojiasining, zalolatga ketishining sabablarini qidiradi va 35 yashar, yangi fikrli Mulla Karim ellikboshi nutqi orqali buni ma'lum qiladi: *"Xudo va rasulning buyrug'laridan chiqmoq"* – mana shu chin baxtsizlik sababidir. Bu zamonda aksar odamlar shariat qoidalarining o'zlariga ma'qul bo'lganlarigagina rioya qilishlari, qolgan ishlarda esa *"Har joyni musulmonlarining bir rasmi bo'ladi, bizlarg'a ham shundoq qilmoq rasmdur"* (Domla-imomning nutqidan – D.R.) deya ro'kach qilishlari asarda ko'rsatib beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

– Rasuli akram sollallohu alayhi va sallam shunday dedilar: "Kishi o'z birodarining savdosi ustiga savdo qilmasin va birodarining sovchiligi ustiga sovchilik qilmasin" (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlari). Fayziboy bir musulmon o'laroq mana shu sunnatga amal qilayotganini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Abdurahim aytadi: *"Otangning oshnasi Fayziboy bilan qizini senga olub bermakchi bo'lub so'ylashub yurar edim. Bugun erta bilan mening uyimg'a Fayziboy kelib, agar Solihga qizimni olub beradurgan bo'lsangiz, vaqtliroq harakat qiling, bo'lmasa bir boshqa sovchi kelub turubdir, qizimni Solihga olub bermasangizlar, kelub turgan sovchig'a quda bo'lub qolsam ham ehtimol, dedi".*

– Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam marhamat qilib, dedilar: "Agar huzuringizga diyonati va xulqi yaxshi bo'lgan kishi (qizingizni so'rab) kelsa, bas, uni qizingizga uylab qo'ying. Agar bunday qilmaydigan bo'lsangiz, Yerda fitna va katta fasod yuzaga keladi". (Imom Termiziy va boshqalar rivoyati). Solihning yaxshi yigit ekanligini domla-imom ham tasdiqlaydi: "Mehnatkash, yetimlikda qattig'chilikni ko'b ko'rgan yigit". Fayziboy bu sunnatga ham rioya etadi.

– Oisha raziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: "Nabiy sallallohu alayhi vasallam aytdilar: "Eng barakali nikoh – xarajatlari yengil bo'lganidir" (Imom Bayhaqiy rivoyati). Fayziboy shu o'ringa kelganda, *"Har joyni musulmonlarining bir rasmi bo'ladi, men yurtning rasmini tashlab, qizimni erga berolmayman",* degan bahonaga yopishadi. Uning uchun shariat hukmlari ham, sunnatga muvofiq ish ko'rish ham "odamlar nima deydi" qabilidagi so'roqlari ortida qoladi. Birgina to'yning xarajatlari Domla-imom tarafidan quyidagicha

belgilanadi: *"har ikki to'yda besh yuz so'm pul, o'n besh qo'y, bir ot, to'rt botmon bug'doy, to'rt botmon brinch, kajavada mayiz, turshak, o'n yashuk har xil qand va shirinlik, yigirma quyum holva, uch ming dona katta non, qozonda nisholda, qizlarig'a o'n bosh-oyoq kiyim, kimxob, duxoba, shohi, atlas, movut, chidagan, chit va boshqalar; har biridan ko'ylak, kamzul va mazkurlarg'a loyiq qimmatbaho ro'mollar, yana uch dona paranji shohi, duxoba, adras, uch dona kavush-masxi, qavm-qarindoshlarig'a, o'zlarig'a, zaifalarig'a bosh-oyoq kiyim"*. Bunday xarajatlar hatto uncha-muncha boylarni ham kasodga uchratganini davriy matbuot nashrlaridagi maqolalardan bilish mumkin. Solih ham aynan shu to'y tufayli qarz botqog'iga botadi, Fayziboyning o'zi ham yemakka pul topa olmaydigan holga tushadi. Solih Qosimboydan to'y uchun olgan qarzini to'lay olmagani sababli hovli-joyini unga xatlab berishiga to'g'ri keladi, ammo bu isnodga chiday olmay, o'zini o'ldirishga qasd qiladi, sevikli rafiqasi Rahima undan ajralishga ko'nmay o'z joniga qasd qiladi. Bir to'y uchun maqsadsiz ishlatilgan pul sabab ikki yoshning umri xazon bo'ladi.

Ellikboshi bu savdolarda Fayziboyni, uning timsolida maishiy muammolardan bosh ko'tara olmaydigan, butun hayotini "el nima deydi" degan andishaga quradigan otalarni ayblaydi: *"Men sizg'a sababini aytsam, sizni bekor shari'atdan tashqari to'y qilub, kuyovingizdan ko'b oqcha olub, qarzdor qilganingiz sabab bo'ldi. O'shal vaqtda men sizg'a aytdim, bekor isrof qilmang, kuyovingizdan ko'b oqcha so'ramang, yurtka obro' qilaman deb, osh-non berub, Xudo va rasulning buyrug'laridan chiqmang, dedim. Siz meni so'zimni quloqg'a olmadingiz va shari'atg'a bo'yunsunmadingiz va meni beobro' qildingiz, mana kuyovingiz qarzdor bo'lgan ekan, mulk-ashyodan va shirin jondan ajrabdir. Siz ham joningizdin, shirin qizingizdin ajraldingiz. Bu dunyoda ko'rgan g'am sizg'a g'am emas, mahshar kuni Xudovandi karim oldida itobg'a qolmog'ingiz emdi uyog'da turubdir"*.

Asarning bosh g'oyasi ham mazkur qahramon nutqi orqali ochib beriladi: *"Shari'ati mustafog'a bo'yunsuninglar, endi ko'zlaringizni ochinglar. Bid'at to'yg'a isrof bo'ladurgan oqchag'a o'g'lingizlarni o'qutinglar, yoki jamiyati xayriyag'a iona qilinglar. O'g'ul o'qutmoq yaxshi ham farzdur, to'yg'a isrof qilmoq bid'atdur..."*

Solih obrazi asarda ramziy ma'no ham ifodalaydi, nazarimizda. U tutqun, abgor ona Turkiston taqdiri ifodasi hamdir. Sababi u, aslan, zoti pok, nasli ulug': uning bobosi ilmli, davlatmand hamda ziyoli mudarris edi. Ammo Solih o'z fikrlarini-da erkin ayta olmaydi, aytganda ham, unda qat'iyat yetishmaydi, natijada ahvoli mana shunday fojiaga do'nadi. Uni pulsizlik emas, bid'at-u xurofotlar, ilmsiz kishilarning riyokorona orzumandligi halok etdi. Muallif ona Turkistonni ham Solih kabi halokatga yuz tutishdan qutqarmoq uchun barchani millatga zararli bo'lgan illatlardan yuz o'girib, xalq manfaati uchun xizmat qilishga da'vat etadi.

Shu o'rinda britaniyalik josus, harbiy, diplomat Tomas Eduard Lourensning "Sharqdagi o'zgarishlar" maqolasidagi fikrlarini esga olsak. Muallifning tan olishicha, Sharqning kuchi, davlatlarning qudrati "asosiy rolni din o'ynashi"da edi. "Faqat 1870-yilga kelibgina biz "millatchilik" deb atalgan yangi g'oyaning jamiki jozibadorligini tushuna boshladik. Bu g'oya aslida g'arbiy o'vro'poliklarning ixtirosi bo'lgan... U qayergaki yetib borgan bo'lsa, u yerda tartibsizliklar va urushlar maydonga keldi..." [Жаҳон адабиёти, 1999, №12, 120] Muallif Sharqning rivoji uchun "kechasi-yu kunduzi yo'l ko'rsatib turgan" dinning g'oyaviy kurash asnosida sahnadan qanday olib tashlangani, endilikda "musulmon musulmon bilan urushmoqni o'rganib olish"ganini qandaydir quvonch bilan bayon qiladi. Sharqdagi istilochilik siyosati – u Angliya tomonidan olib boriladimi, Rossiyami farqi yo'q – qachonki, "Osiyo mamlakatlari anarxiya juda qimmatga tushishini tushunib olganlaridan keyingina" tugashi haqida xulosa qilar ekan, muallif mana shu maqolaning o'zidayoq butun Sharqning qanday qilib inqiroz yoqasiga, urushlar maydoniga aylantirilgani ortidagi g'oyaviy yuzsizliklarni ochib beradi. Bu tan olishlar Abdulla Qodiriy "Baxtsiz kuyov" orqali aytmoqchi bo'lgan haqiqatlar bilan aynan bir xildir.

Jadid davri adiblari o'z asarlarida davr muammolarini tilga olib, ularga yechimlarni taklif etishadi. Dramalar orqali ham shu masala aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, "Baxtsiz kuyov" dramasida ham ota obrazi asriy g'aflat botqog'iga botgan ajdodlarning umumlashma qiyofasini o'zida aks ettirmoqda. Abdulla Qodiriy ham boshqa safdoshlari kabi ota timsolida "nafaqat oila boshlig'i, qolaver-

sa, kelajak avlodni to‘g‘ri yo‘lga yo‘llovchi ustoz”ni ko‘radi [D.Raxmonova, 2024: 38]. O‘z mablag‘ini ilm-u ma’rifatdan qizg‘anib, to‘y-u ma’rakalarda kimlargadir sarpo yopishni sharaf deb bilgan otalarning dunyoqarashi hatto o‘lim ham o‘zgartira olmasligini asar davomida anglaymiz. Shuning uchun ilm-ma’rifatni rivojlantirish orqali yangi avlod tafakkurini o‘zgartirishga umid bog‘lanadi. Xulosa qilish o‘rinliki, jadid adabiyotining eng asosiy xususiyati bo‘lgan millat manfaatlarini ifodalash, millatni uyg‘otish, taraqqiyotga yo‘llash kabi ulug‘vor maqsadlar dramalar orqali ham muvaffaqiyatli uddalandi.

Adabiyotlar

1. Лоуренс Т.Э. Шарқдаги ўзгаришлар // Жаҳон адабиёти, 1999, №12, 118-128-бетлар.

2. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997. – 320 б.

3. Raxmonova D. Tavallo ijodida poetik shakl, mazmun va obraz yangilanishi tamoyillari [Matn]: monografiya / D.Raxmonova. – Toshkent: Bookmany Print, 2024. – 126 b.

4. Чўлпон. Адабиёт надир. – Т.: Чўлпон, 1994. – 240 б.

5. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qodiriy-1894-1938/abdulla-qodiriy-baxsiz-kuyov-drama

ФОЗИЛБЕК ОТАБЕК ЎҒЛИ – ЖАДИД МУАРРИХИ ВА ТАРЖИМОНИ

Мадғозиев Искандар Абдувосит ўғли
Андижон вилоят тарихи ва маданияти давлат музейи
Чўлпон ёдгорлик бўлими мудири
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
+99890 526-93-73, e-mail: madgaziev93@mail.ru
(Ўзбекистон)

Аннотация: Мақолада жадид адабиётининг атоқли вакили, олим ва шоир Фозилбек Отабек ўғли (1879-1938) ҳаёти ва илмий-адабий мероси хусусида сўз юритилади. Унинг таржимаи ҳоли ва асарларининг манбалари, ижодининг ўрганилиш тарихи ҳақида қимматли маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: қўлёзма, мусаввада, хаттотлик, настаълиқ, жадид матбуоти, журналист, таржимонлик, тошбосма.

Abstract: The article discusses the life and scholarly-literary legacy of Fazilbek Otabek o‘g‘li (1879–1938), a prominent representative of Jadid literature, scholar, and poet. Valuable information is provided regarding his biography, the sources of his works, and the history of the study of his oeuvre.

Keywords: manuscript, draft, calligraphy, nastaliq, Jadid press, journalist, translation, lithography.

XIX асрнинг сўнгги чораги ва XX аср бошлари Андижон маънавий ҳаётида муҳим ўрин эгаллаган, ўзининг чуқур билими, кенг дунёқараши, теран тафаккури билан замондошларидан ажралиб турувчи Отабек қози шаҳар маъмурлари ва зиёлилари ўртасида алоҳида ҳурмат-эътиборга сазовор шахслардан эди.

Муҳаммад Отабек Убайдуллоҳбек ўғли (1844-1905) ўз даврининг йирик уламоси, мударрис, муаррих, шоир, хаттот ва айни пайтда шариат қозиси сифатида катта шуҳрат қозонган. У бир неча бор дунё бўйлаб саёҳат қилган: муқаддас ҳаж зиёратини адо этиш асносида Ҳиндистон, Эрон, Туркия, Миср мамлакатларида, шунингдек, кейинроқ Русиянинг бир қатор йирик шаҳарларига

бориб, у ерлардаги тараққиёт ва ривожланишга гувоҳ бўлган. Табиатан янгиликка интилувчан Отабек қози саёҳат асносида мазкур ривожланишлар омили бўлган замонавий илмларни пухта эгаллаш ва унинг ютуқларини ҳаётга кенг жорий қилиш зарур эканлигини яхши англайди, қолаверса, чинакам зиёли ва ватанпарвар инсон сифатида ўз юрти ва халқини ҳам шундай обод, тараққий топган, тўкис ва фаровон ҳаётда яшашини чин дилдан истайди ва бунга қандай қилиб эришиш мумкинлиги ҳақида кўп ўйлайди. Алалоқибат, "ҳақиқий нажот – ўсиб келаётган ёш авлодни илм-маърифатли қилиб тарбиялашда!" деган хулосага келади. Ушбу тамойилни амалга тадбиқ қилароқ ўзининг беш ўғли – Аҳмадбек, Фозилбек, Тожиддинбек, Маҳмудбек ва Хизрбекларнинг таълим-тарбиясига жиддий эътибор қаратади. Дастлабки саводини ўзи чиқаргандан сўнг, уларни бирин-кетин навбати билан мадрасага ўқишга беради.

1886 йилда Андижонда илк рус-тузем мактаби очилади. Ўша пайтда мусулмон болаларининг рус мактабида ўқиши урф бўлмай, жоҳил кишилар бунга ғоят салбий муносабат билан қарар эдилар. Бироқ, шаҳарнинг тўрт асосий даҳаларидан бири саналган Олойлиқ қозиси ва энг йирик таълим даргоҳи "Холбек қушбеги" мадрасасининг етакчи мударриси бўлган Отабек қози омманинг таънаю маломатларига қарамай икки ўғли Аҳмадбек ва Фозилбекларни ушбу мактабга беради. Улар бир пайтнинг ўзида ҳам мадрасада ва рус-тузем мактабида ўқий бошлайдилар. Ундан ташқари уйда ҳусни хат санъати – хаттотлик билан шуғулланадилар.

Отабек қозининг улуғ мақсадлари, эзгу ғоялари изсиз кетмади. Ортида қолган фарзандлари у амалга оширмоқчи бўлган ишларни имкон қадар давом эттиришга ҳаракат қилдилар. Бу борада ўғилларидан иккинчиси бўлган Фозилбек айниқса катта натижаларга эришди дейиш мумкин. У қолдирган бой маънавий меросдан илм аҳли ва кенг омма ҳали ҳануз истифода этиб келмоқдаки, унинг салмоғи ва аҳамияти, шунингдек, муаллифнинг таржимаи ҳоли хусусида батафсилроқ тўхталиш айни муддаодир.

Муҳаммад Фозилбек Муҳаммад Отабек қози ўғли – "Мушкин қалам Андижоний" 1879 йилда Андижон шаҳрининг Девонабой

мавзесида таваллуд топган. Бошланғич саводни ва хаттотликни отасидан ўрганган Фозилбек Андижонда очилган илк рус-тузем мактабида ўқиб биринчилардан бўлиб рус тилини мукаммал ўрганади. Айни пайтда у отаси мударрислик қиладиган Холбек қушбеги мадрасасида таҳсил олиб шариъат илмларини ҳам пухта эгаллайди ва 12 ёшида ҳофизи Қуръон бўлади ["Маълумот" ж., 1895: №133: 256].

1899 йил ёзги таътил вақтида Серали Лапин (1869-1919) бошчилигида Туркистон ўлкасининг энг фаол, билимли ва илғор ёшларидан танлаб олинган бир гуруҳ ўқувчилар Русия империяси пойтахти Санкт-Петурбургга саёҳатга борадилар. 15 кишидан иборат гуруҳ таркибида рус-тузем мактабининг битирувчиларидан Фозилбек ҳам бор эди.

Таҳсили илмни тамомлагандан сўнг шахсий мутолаа ва ижод билан машғул бўлади. Бир қатор асарлар тасниф қилади, рус тилидан баъзи таржималарни амалга оширади. Русия ва бутун Шарқ дунёсида нашр этиладиган газета ва журналлар билан мунтазам танишиш орқали дунёқараши янада кенгайган Фозилбек ўша даврда тобора ривожланиб бораётган жадидчилик ҳаракати фаоллари сафига қўшилади.

Андижон тараққийпарварлари бутун Туркистон жадидлари каби миллий ижтимоий истибдоддан қутулиш, эркин ривожланишга эришиш фақат маърифат орқали юз беришини яхши англаганлар. Улар ишни энг аввало маърифатчиликдан бошлаб, кенг халқ оммасини саводли қилишга жаҳолат уйқусидан уйғотишга интилиб, янги усулдаги жадид мактабларини очдилар. 1899 йилда биринчи бор Андижонда Шамсиддин домла томонидан жадид мактаби очилди. Бундай мактаблар 1917 йили ўлкада 100 тага етган эди. Айни шу йилларда Андижонда "Маориф ҳаваскорлари", "Нашри маориф" жамиятлари ташкил этилди. Бу ишларда Чўлпон, Усмонхон Эшонхўжаев, Фозилбек Отабеков, Ҳусайнхон Ниёзий, Акбар Ўрозалиев, Санжарбек Қосимбековлар ҳам фаоллик кўрсатдилар.

1917 йили Эски шаҳарда Чўлпон ташаббуси билан "Шўрои исломия" кўмаги остида "Турон" кутубхонаси очилди, унинг ёнида катта бир қироатхона ишга тушди. Хорижий манбалардан

бирида шу ҳақда бундай ёзилган: “Кенг маъруза зали бўлган бу қироатхонанинг бошқарув ҳайъатига Туркистон миллий бирлигининг Андижондаги вакили Ҳусайнхон Ниёзий, Усмонхон Эшонхўжа ўғли, Вали Мақсудий, Заҳириддин Аълам, Фозилбек Отабек ўғли, Абдулҳай маҳдумлар сайландилар. Қироатхона мактаб вазифасини бажарар эди. Ҳар оқшом усмонли зобитлар кундалик масалалар, маданий-сиёсий ва тарихий мавзуларда маърузалар қилардилар” [Тарихнинг ҳасратли саҳифалари, 2006:45-46].

Фозилбек Отабек ўғли 1918-1920 йилларда “Жомеъ” мадрасасида очилган 6 ойлик муаллимлар тайёрлов курсида Абдулҳамид Чўлпон, Шамсуддин Расулзода (Ҳамидий), Убайдулла Хўжаев ва бошқа жадид тараққийпарварлари билан ҳамжиҳатликда педагогик фаолият билан шуғулланади [Андижон В.Д.А., 128-ф. 24-йиғмажилд. 37 бет]. 1921-1922 йилларда Россия Телеграф агентлиги (РосТА) Андижон эски шаҳар бўлими мудири ҳамда “РўсТО” деворий газетасида муҳаррир бўлиб ишлайди. 1922-1923 йилларда Тошкентда Туркистон АССР Адлия халқ комиссарлигида фаолият кўрсатади. 1923 йили Москвага К.А.Тимирязев номли Қишлоқ хўжалик академиясига ўқишга боради ва 1928 йили пахтачилик агрономияси куллиётини битириб, Ўрта Осиё Давлат Университети (САГУ)да ишлай бошлайди. 1930 йили СоюзНИХИнинг Тошкент вилояти Янгийўл тумани Қовунчи қишлоғидаги тажриба-хўжалигида пахтачилик бўйича селекционер-агроном сифатида ишга юборилади ва умрининг охиригача шу ерда ишлайди. Пахта навлари селекцияси, ипакчилик ва асаларичилик бўйича илмий тадқиқот ишларини олиб боради.

Фозилбек рус ва жаҳон адабиётидан бир қанча асарларни таржима қилган. XX аср бошларида Даниэл Дефонинг машҳур “Робинзон Крузо” асарини ўзбек тилига таржима қилиб, 1911 йилда “Ғулом Ҳасан Орифжонов” матбаасида чоп эттиради. Унинг “Мукаммал тарихи Фарғона” 1-жилди, “Дукчи Эшон воқеаси” (1927) асарлари бизгача етиб келган. У ўзбеклар орасида биринчи бўлиб фотография ҳақида 253 саҳифадан иборат расмли “Илми фотоғраф” номли китоб яратган ва русча “Сборник задач” тўпламини таржима қилган, шунингдек, 381 саҳифали “Илми

ҳисоб” – мисол ва масалалар тўпламини тайёрлаган, турли ҳикоялардан иборат расмларга бой бир тўплам – мунтаҳаб таржимани амалга оширган ва ўзи расмлар билан безаган. “Янги усул парникларда аъло навли ипак тусли пахтани кўклатиш” (асар, 1934), “Андижонда ипакчилик” (мақола) [“РОСТА”,1921: № 67] ва ғўза селекцияси ҳақида (300 бетлик), асаларичилик тўғрисида асар ҳамда “Арабча-ўзбекча изоҳли луғат” (250 бетлик) муаллифи ҳисобланади.

Бутун умр илм-маърифат йўлида тиним билмай сидқи дилдан меҳнат қилиб, ўзидан яхши ном, эзгу амаллар, кўплаб қимматли асарлар қолдирган Фозилбек Отабек ўғли 1938 йилнинг май ойида Қовунчида вафот этган.

Фозилбекдан бизга етиб келган асарлар қуйидагилар:

1. “Мукаммал тарихи Фарғона”. Асар тахминан 1910-йилларда Фарғона ҳарбий губернатори А.И.Гиппиус (1855-1918) илтимосига кўра ёзилган. Ҳозирда унинг 166 саҳифадан иборат дастхат нусхаси Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети асосий кутубхонасида инв. №09/648 рақами остида; ундан 1941 йилда М.Жўраева номли котиба томонидан кўчирилган 161 саҳифадан иборат нусха Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида № 5971 рақам остида; Л.Қосимий томонидан кўчирилган 95 саҳифадан иборат яна бир нусха муаллифнинг набираси Дилшодбек Ҳожиматовда сақланмоқда. “Мукаммал тарихи Фарғона” асари 2021 йилда Туркия Республикаси Карабук университети тадқиқотчиси Др. Абдуллаҳ Яхши томонидан турк тилига таржима қилиниб, “Чизги” нашриётида чоп этилди [Atabekoğlu Fazılbek, 2021: 127].

Фозилбек китоб муқаддимасида “Фарғона музофотининг дорус-салтанаси, Хўқанд шаҳрини(нг) ибтидои биноси ва ободонлигидан тортиб ўтган хонларни(нг) тарожими аҳволи ва таворихи ва вақоеи айём ва инқилоби асру хонлар тарихи вафотлари ва айёми ҳаётлари ва муддати салтанатлари ва футуҳотлари ва мобайнларидаги жангу жадал ва хусуматларни” қаламга олганлигини айтади.

Асар хотимасидан “Мукаммал тарихи Фаргона” 2 жилддан иборат бўлиши ният қилингани англашилади. Демак, мазкур

1-жилдда юқорида таъкидланган тарихлар то 1860 йил воқелари билан тугалланиб, муаллифга кўра, "Маллахонки Тошкандда Худоёрхонга тахлиф айлаб хонлиқни манга бергил деб хат ёзиб мужодала воқеъ бўлиб Бухоро кетканидин бошлаб то Русия халқи ва подшоҳи жаноб губернатур Скобелевни Фарғона чека ва фатҳиға номзад айлаб бир неча катта жондорлар бирлан Фарғона тарафиға озим бўлиб Самарқанд ва Бухоро ва Тошканд ва Хўжанд ва Хўқанд ва Андижон ва Марғинон вақоеларини камокон ва бекам тағйир, иншааллоҳ 2 нчи жилдида зикр қилсак керак."

2. "Дукчи Эшон воқеаси". 1925 йилда ёзилиб, 1927 йилда Ўзбекистон давлат нашриёти томонидан араб имлосида 6000 нусхада чоп этилган. 88 саҳифадан иборат асар содда тилда ва равон услубда, муаллифнинг ўз хотиралари, қолаверса, кўплаб тарихий материал ва ҳужжатлар ҳамда ўша даврнинг жонли гувоҳи бўлган бир қатор инсонларнинг эсдаликларига таянган ҳолда ёзилгани жиҳатидан ҳам ғоят нодир ва ишончли манба саналади.

Китобдан 17 та тарихий сурат ўрин олган бўлиб, уларнинг 3 таси Фозилбекнинг айнан ўзи томонидан ишланган.

"Дукчи эшон воқеаси" асари 1992 йилда С.Аҳмад, У.Долимов ҳамда Ш.Ризаевлар томонидан қайта нашрга тайёрланиб, "Чўлпон" нашриётида 100 минг нусхада чоп эттирилган [Отабек ўғли Фозилбек, 1992: 78].

3. "Янги усул парникларда аъло навли ипак тусли пахтани кўклатиш". 1934 йилда ёзилган, 46 саҳифадан иборат асар ҳозирда Андижон вилоят тарихи ва маданияти давлат музейи манбалар хазинасида АСМ 1310/9 рақам остида сақланмоқда. Майда настаълиқ ёзувида ҳуснихат билан битилган ушбу асар китобат санъатининг гўзал намунасидир. Икки ярим бетли сўзбоши сўнгига "Агроном-селекционер Фозилбек Отабек ўғли Қозиев, 1933 йил 30 декабрь" дея имзо қўйилган. Қўлёзмада ўз даврида муаллиф томонидан ишланган ва асар мазмунига доир 25 та фотосурат жой олган бўлиб, кейинчалик улардан айримлари йиртиб олиниб, ҳозирда 19 таси сақланган. Бундан ташқари қўлда чизилган яна бир қанча сурат, схема ва жадваллар ҳам мавжуд. Асар саккиз бўлимдан иборат.

Сўзбошида пахта ҳосилдорлигинин орттириш, узун толали ва қимматбаҳо янги пахта навлари етиштириш ишига аҳамият берилиши лозимлиги таъкидланади. Шу сабабли яхши навли пахта кўчатини парник усулида эрта етказиб бериш усули ва техникаси баён қилинган ушбу асар ёзилгани айтилади.

4. "Андижонда пахтачилик". Рус тилида ёзилган ушбу мақола Андижонда чиқадиган "РОСТА" деворий газетасининг 1921 йил 12 апрель 67-сонида босилган. Унда ипакчилик тарихи, пилла ва унинг халқ хўжалигидаги аҳамияти, Андижонда ипак қурти боқишнинг аҳволи ҳақида илмий маълумот берилган.

5. "Арабча-ўзбекча изоҳли луғат". Андижон давлат университети фахрий профессори, тарих фанлари номзоди Сайфиддин Жалилов (1925-2019) шахсий кутубхонасида сақланувчи мазкур луғат араб алифбосида насх ва настаълиқ ёзувида хуснихат билан битилган. Унда ўзбек тилига кириб қолган арабча сўзлар изоҳи берилган ва ўша сўзлар ишлатилган гаплардан мисоллар келтирилган, баъзи ибораларнинг русча маъноси ҳам берилган. Муаллиф айрим арабча сўзларни изоҳлаш учун русча сифатдош ва равишдошларни моҳирона танлаб келтирганки, бу мисоллар Фозилбекнинг рус тилидан маълумоти нечоғли юқори бўлганлигига бир далилдир. Энсиз қоғознинг ҳар саҳифасига 16 қатордан икки устунда ёзилган 250 бетлик бу луғат яхши сақланмаганлиги учун дастлабки 23 бети йўқолган ["Фан ва турмуш" ж., 1979 7-сон: 26-27].

6. "Мусаввада кашкул". Хаттот ва шоир Фатҳуллоҳ Камолиддин махдум ўғли Собит Андижоний (1948-2018) бисотида сақланувчи 96 саҳифадан иборат 1906 йилда тартиб берилган мазкур қўлёзмада араб ёзувидаги хуснихат намуналари ўрин олган. Мусаввадада Фозилбекнинг хаттотликда нақадар маҳоратга эгалиги, қолаверса шеърият бобидаги камолотидан дарак берувчи мисоллар мавжуд. Шунингдек, айрим саҳифаларга у томонидан турли геометрик шакллар, нақшлар ва ўсимлик тасвирлари ишланганки, у ҳам бўлса Фозилбекнинг нозик дид соҳиби эканлигини кўрсатади.

Мусаввадада Саъдий, Ҳофиз, Жомий, Навоий, Фузулий, Бедил, Соиб ва бошқа шарқ мутафаккирлари ижодидан намуналар,

турли ҳикматли сўзлар, ҳикоятлар билан бир қаторда зуллисонайн шоир Фозилбекнинг ўзбек ва форс тилларидаги ижод намуналари ўрин олган. Масалан:

Касе ҳамчу Фозил ҳақир омадаш,
Варо панди Саъдий қабул оядаш.

Ёки:

Ту ҳам мисли Фозил баҳуш омади,
Туро панди Саъдий багўш омади.

Яна:

Ул сарвнинг ҳаримиға гар етсанг, эй сабо,
Бергил бу ҳажри хастасидин ёд кўнглига.

7. "Рўбинзўн ҳикояси". Даниэл Дефо қаламига мансуб "Робинзон Крузо" романи тахминан XX аср бошларида рус тилидан ўгирилган ва айни пайтда жаҳон адабиётидан ўзбекчага қилинган илк таржималардан ҳисобланади. Таржимон 1905 йил 15 августда Н.Остроумовга йўллаган мактубида 152 саҳифадан иборат расмли (мусаввар) "Ҳикояи Рўбинзўн"ни, шунингдек, ўзи тартиб берган яна 4 адад китобни 1902 йилда "генерал остафной Смирноф тўра кўриб, манзур айлаб, жаноби губернатурға кўрсатиб, подшоҳлик матбаада бостуриб машҳури жаҳон қиламиз деб турган ҳолда губернатур Арендаренко□ Фарғонадин кетиб қолиб, ўзимда қолган эрди" [ЎзМА. 1009-фонд, 1-рўйхат: 78-79] деб ёзади. Бундан маълум бўладики, асар таржимаси 1902 йили ёхуд унга қадар амалга оширилган. Бироқ, номаълум сабабларга кўра унинг чоп этилиши бироз чўзилади ва Мулла Муҳаммад Қосим қори махдум ва Мулла Султонхон махдум "эҳтимом ва шарокати" билан 1911 йилда Тошкентда Ғулом Ҳасан Орифжонов матбаасида Мулла Ўтаб котиб қалами билан кўчирилиб, тошбосма усулида босилиб чиқади. Китобда Фозилбек томонидан ишланган 12 та сурат ҳам ўрин олган.

48 саҳифадан иборат асарга Фозилбек томонидан кичик сўзбоши ёзилган бўлиб, унда таржимон ўз мақсадини қуйидагича ифода этади: "Рўбинзўн деган бир англиз бошидин ўткан ғариб ва ажиб бир ҳикоя бўлғани учун энг аввал англитар лисони бирла ёзилиб баъд жумла фаранг тилларида таржима қилинған бир ибратнамо ҳикоя бўлубдур. Яна арабча, туркча, ҳиндийча, форс-

ча, тоторча қилинған таржималари ҳам бордур. Лекин бизларнинг сартия халқининг забонларида ҳеч вақт таржима бўлмай ва ушбу ибратнамо ҳикоядан бебаҳра қолғанлари учун ушбу ибратнамо ҳикояи Рўбинзўнни(нг) сартия забониға таржима қилдимки, бизларни сартиялар ҳам ўқуб билиб ғафлат уйқусидин кўзлари очилсун деб."

Айтиш лозимки, "Рўбинзўн ҳикояси" романнинг сўзма-сўз таржимаси бўлмай, асар сюжети ва умумий мазмуни сақланган ҳолда қисқартирилган шаклидир. Тил ва услуб жиҳатидан XX аср бошлари ўзбек адабий тилида, содда ва равон тарзда ифодаланган.

Мазкур таржима хусусида ўтган аср 50-йилларидан бошлаб бир қатор таржимашунослар, хусусан, Жуманиёз Шарипов ўзининг "Ўзбекистонда таржима тарихидан" номли фундаменталь тадқиқотида муносабат билдириб ўтган [Шарипов, 1965:327-331]. Бундан ташқари атоқли адабиётшунос олим, профессор Б.Карим даставвал "Жаҳон адабиёти" журналида асардан парча ["Жаҳон адабиёти" ж., 2010, 5-сон:153-160], кейинроқ эса унинг тўла табдилини нашр эттиришга муваффақ бўлган [Дефо Д., 2013.].

Умуман олганда, Фозилбек Отабек ўғли илмий ва адабий мероси кўлами ғоят кенг. Уни ҳар томонлама чуқур ва изчил тадқиқ этиш, асарлари моҳиятини англаш, теран мушоҳада қилган ҳолда яқин тарихимизда рўй берган воқеа-ҳодисалардан мантиқий хулосалар чиқариш ҳар жиҳатдан манфаатлидир.

Адабиётлар:

1. Жаҳонгир Андижоний. Мушкин қалам Андижоний // "Маълумот" журнали. 1895 йил, 133-сон, 256 бет.

2. Тарихнинг ҳасратли саҳифалари. – Тошкент: "Шарқ" НМАК Бош таҳририяти, 2006. – 45-46 бетлар.

3. Андижон вилоят давлат архиви. 128-фонд, 2-рўйхат, 24-йиғмажилд. 37 бет.

4. Атабеков Ф. Щелководство в Андижане // "РОСТА". 1921, 10 апрель. № 67 (220).

5. Kadı Muhammed Atabekoğlu Muhammed Fazılbek. Mükemmel Tarih-i Fergana (1560-1860). – İstanbul: Çizgi Kitabevi Yayınları. 2021. – 127 s.

6. Отабек ўғли Фозилбек. Дукчи эшон воқеаси. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 78 б.

7. Жалилов С. Унутилаёзган олим // "Фан ва турмуш" журнали. 1979 йил, 7-сон. 26-27 бетлар.

8. Г.А.Арендаренко (1846-1908) Фарғона вилояти ҳарбий губернатори (1901-1904), шарқшунос ва этнограф.

9. Ўзбекистон Республикаси Миллий архиви. 1009-фонд, 1-рўйхат, 78-79 бетлар.

10. Шарипов Ж. Ўзбекистонда таржима тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 327-331 бетлар.

11. Карим Б. "Робинзон Крузо"нинг илк таржимаси // "Жаҳон адабиёти" журнали. 2010 йил, 5-сон. – 153-160 бетлар.

12. Дефо Д. Робинзон ҳикояси. – Тошкент: "Муҳаррир" нашриёти, 2013. – 40 б.

BEHBUDIYNI TANISH

Sirojiddin Ahmadning "Mahmudxo'ja Behbudiy" (Toshkent, 2024) asari xususida

Nodira Egamqulova,
Termiz davlat universiteti dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
(O'zbekiston)

Turkiston jadidchiligiga oid tadqiqotlar orasida xodimul millat Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyatiga qaratilganlari talaygina. Ayniqsa, uning 150 (151) yillik yubileyi arafasida ketma-ket maqolalar, chiqishlar, tadqiqotlar e'lon qilib turilibdi, yangi "behbudiyshunos"lar sahnaga chiqmoqda. Bugun katta sabr, matonat evaziga yuzaga kelayotgan nashrlarni topish qiyin, bu shunday ham bo'lishi kerak, aslida. Haqiqiy olimni g'avvosga qiyoslash mumkin. U butun umr g'avvos singari suv ostiga sho'ng'ib, ilm duru marvaridlarni topishda mashaqqat chekib, ularni suv yuzasiga olib chiqadi. Shu ma'noda, ilmda halollik va kenglikni hayotiy dasturiga aylantirgan olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, san'atshunoslik fanlari nomzodi, ustoz Sirojiddin Ahmadni ilm g'avvosi deyish mumkin. Olim tomonidan yozilgan "Mahmudxo'ja Behbudiy (hayoti, faoliyati, vafoti)" kitobi esa ayni shunday gavharga qiyoslangudek qiymatli nashrdir.

"Mahmudxo'ja Behbudiy" kitobi 2024-yil Toshkent "Info Capital Groups" nashriyotida chop etilgan. 456 sahifadan iborat. Mas'ul muharrir filologiya fanlari nomzodi, dotsent Otabek Jo'raboyev, taqrizchi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi ilmiy xodimi Abdurasul Eshonboboyev. Kitob nashriyotning rahbari Bahodir Husanov homiyligida nashr qilingan.

Kitob ikki qismdan iborat:

Birinchi qismda ilmiy tahlillar o'rin olgan. Kitob mundarijasini kuzatib, "Mahmudxo'ja Behbudiy maqsad-maslagi", "Ilm falsafasi (milliy ruh – milliy tarbiya, milliy madaniyat, mustaqillik poydevori)", "Behbudiy va Ismoil Gasprali", "Behbudiy va Muso Jorulloh", "Millat ishi (Behbudiy va Davlat dumasi)", "Mahmudxo'ja

Behbudiy va "Ittifoqi el muslimin", "Mahmudxo'ja Behbudiy va Hoji Mu'in", "Mahmudxo'ja Behbudiy va Ostroumov", "Turkiston muxtoriyati: hokimiyat va qon qaqshatish", "Mahmudxo'ja Behbudiy va adabiyot", "Mahmudxo'ja Behbudiy va milliy teatr", "Rejalashtirilgan siyosiy qotillik" mavzularidan ko'rish mumkinki, muallif Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyatining barcha nuqtalarini birlashtirib, uning yaxlit manzarasini gavdalantirib bergan.

Ikkinchi qismda Behbudiyning "Vaqt", "Ulfat", "Siroti mustaqim", "Turkiston viloyatining gazeti", "Taraqqiy", "Shuhrat", "Tujjor", "Samarqand" nashrlarida bosilgan va muallif tayyorlagan avvalgi ikki jildlikka kirmagan maqolalari, maktublari kiritilgan. Ilk bora adib asarlarining fixristi e'lon qilingan. Arxiv materiallari va 45 nomdagi tarixiy suratlar joy olgan.

Mazkur nashrda Behbudiy hayoti va faoliyatining o'rganilishi borasidagi yangi qarashlar, faktlar, tahlillarni ko'ramiz.

Asosiy nuqtalar. "Tug'ilish" deb nomlangan ushbu bobda olim hazrat Behbudiy tavallud sanasiga aniqlik kiritib o'tadi. Zamondoshlari Hoji Mu'in, Sadriddin Ayniy va qizi Parvinaning yozib qoldirgan ma'lumotlari, Turkiston tuman saqlov bo'limi xodimi Shvedkov 1913-yilda Behbudiy haqida tayyorlagan maxsus raportga tayanib shunday xulosaga keladi: "Sharq kalendarlari bo'yicha mutaxassis olim V.V.Tsibulskiyning "Современние календари стран Ближнего и Среднего Востока" (Москва, 1964) kitobidagi grigorian va hijriy-qamariy kalendar (6-10-jadvallar) qiyosiy jadvaliga qaraganda, hijriy ***1291-yil 1-zulhijja 1874-yil 20-yanvar, seshanba kuniga to'g'ri keladi. 1291-yil 10-zulhijja esa milodiy 1874-yil 30-yanvar payshanba*** kuni bo'ladi. Demak, Mahmudxo'ja Behbudiyning tavallud kunini milodiy ***1874-yil 30-yanvar*** deb belgilash mumkin". Aslida, bu haqiqatlarni olim bundan 7 yil avval nashrga tayyorlagan Mahmudxo'ja Behbudiyning ikki jildlik "Tanlangan asarlar"ida ham keltirib o'tgandi. Negadir ilmiy jamoatchilik faktlarga asoslangan bu raqamlardan ko'z yumib kelmoqda...

"Uyg'onish" bobida Behbudiyning umr yo'lini belgilab bergan fikriy uyg'onishida sabab bo'lgan omillar sanab o'tiladi. Haj safari, Rusiya safari, Abdurashid qozi Ibrohim, Muso Jorulloh Begiyev, Ismoilbek Gaspirali, Hamdulloh Subhibek Tangriovar bilan mulo-

qotlar, "Ittifoqi muslimin" firqasidagi faoliyati, Rijoiy Akramzoda, Ziyoposho, Nomiq Kamol, Abdulhaq Homid asarlaridan ta'sirlanish, N.S. Likoshin, A.Gesket, N.P.Ostroumov, V.Vyatkin bilan o'rnatilgan do'stona munosabatlar, xullas, bularning bari uning dunyoqarashini charxladi, dunyoga yangi nazar bilan qarashga undadi, islom talablarining chetga majburiy va noilmiy surib qo'yilgan qirralarini kashf etdi. Bu esa Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy hayotidagi VIJDON UYG'ONISHI edi.Behbudiyning jadidchilik dasturidagi birinchi maqsadi "Peterburgning fotihasini kutmasdan" har qanday masalani Turkistonning o'zida hal qilmoq uchun "IDORAYI DINIYA VA DOXILA"ni tashkil etish edi. Har biri milliy hurlik sari bir qadam bo'la oluvchi rejalar aynan shu "idora" doirasida amalga oshirilishi ko'zlangan edi.

Rejalashtirilgan siyosiy qotillik. Ushbu sarlavhali bobda muallif Behbudiy o'limi bilan bog'liq chigalliklarga yechim topgan. Unda ishonchli manbalarga tayanilgan holda, "Muassislar majlisi" tomonidan "Versal sulh kongressi"ga yuborilgan tarixiy telegramma matni to'liq e'lon qilingan, "Mahmudxo'ja Behbudiy, Muhammadquli O'rinboyev, Mardonquli Shomuhammedov, Saidnosir Mirjalilov, Mustafo Cho'qayev, Ubaydulla Xo'jayev Bokuda uchrashib, Istanbul-Vena orqali Parijga – "Versal sulhi" kengashida, so'ngra Bern shahrida o'tadigan musulmonlar anjumanida ishtirok etish"lari batafsil yoritib berilgan.

Behbudiyning "Rusiya-Yaponiya muhoribasi", "Xodimul millat muhtaram mavlaviy Abdurashid afandi hazratlarina!", "Faryodi Turkiston", "Rusiya musulmonlari raislarig'a bayoni hol", "Qabristoni muslimin", "Asobat" risolasi haqida", "Masjidi jome'", "Ochiq maktub", "Tuz mavsumi", "Buxoro", "Do'stlikmi, dushmanlik?" singari yangi topilgan maqolalari behbudiyshunoslik uchun yangi ma'lumotlar beradi.

Asarning ilova qismida Mahmudxo'ja Behbudiy qalamiga mansub asarlar ro'yxatida 13 darslik, 3 ilmiy asari (nashr qilinmagan), 4 nomdagi badiiy asar va tarjimalar, 6 loyiha, alohida mavzularga bag'ishlangan 214 ta maqola, 48 nomdagi turkum maqolalar, 6 ta forsiycha maqolalar – jami 295 nomdagi asarlar ro'yxati o'rin olgan.

Kitobda biz boshqa ilmiy asarlarda uchratmagan holatni ko'ramiz.

Muallif Behbudiy hayot va faoliyati manzaralarini faqatgina tarixiy fakt, raqamlar, ilmiy ma'lumotlar bilangina ochib berish bilan cheklanib qolmasdan balki hazrat Behbudiy ruhiyati shaxsiyati, siyrati, olami ruhoniyasini tasvirlab bergan.

Kitob uslubi qurilishi bugungi jadidshunosligimiz uchun zarur bo'lgan uslubda yozilgan. Masalaga keng qamrovda: tarix, adabiyot, siyosat, falsafa sohalaridagi qarashlarni birlashtirgan holda munosabat bildirilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy tilga olgan va uchrashgan tarixiy shaxslar haqida qisqacha ma'lumot har biri bir tadqiqot uchun xamirturush bo'ladigan ma'lumotlar berib ketilgan.

"Mahmudxo'ja Behbudiy" kitobi, shubhasiz, jadidshunoslik ilmida o'chmas sahifa bo'lib qoladi. Unda keltirilgan tahlil, mulohaza va xulosalar o'z isboti va haqiqiy bahosini topadi. Muallif aytganidek, "Shayxul akbar Muhyiddin ibn Arabiy janoblari vaqti kelib barcha sirlar ochiladi demishlar. Biz bu so'zga ishonib aytamizki, tarix hamma narsani o'z o'rniga qo'yuvchi oliy hakam"dir.

"ДЕВОНИ ФОНИЙ"ГА ФИТРАТНИНГ ҚАРАШЛАРИ

Муртазаев Бабаназар Хурамович
Термиз ДУ доцети, филология фанлари номзоди,

Абдуллаева Нилуфар Ибрагим қизи
Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси ўқитувчиси (Ўзбекистон)

Annotatsiya: Мақолада Алишер Навоийнинг форсий қасидалари ва татаббуъ анъанаси, бу ҳодисанинг бадиий адабиётдаги мақоми, анъананинг хос хусусиятлари атрофлича шарҳланади. Айниқса, бу борада жадид алломаларидан Абдурауф Фитратнинг кузатувлари эътиборга лойиқлиги ила алоҳида ажралиб туради. Фонийнинг "Ситтаи зарурия" (Етти зарурат) тўплами таркибидаги қасидалар ва уларнинг яратилиши хусусида фикрлар баёни берилади.

Kalit so'zlar: Қасида, анъана, татаббуъ, шеър, назм, мисра, байт, фикр, хулоса, хослик, уйқош, фикр, муштараклик, ҳаёт, замин, замон, талқин.

Abstract: The article provides a detailed analysis of Alisher Navoi's Persian odes and the tradition of tatubbu', the status of this phenomenon in literary literature, and the specific features of the tradition. In this regard, the observations of Abdurauf Fitrat, one of the modern scholars, are particularly noteworthy. The odes included in Faniy's collection "Sittai zaruriya" (Seven Necessities) and his thoughts on their creation are presented.

Key words: Qasida, tradition, tatabbu', poem, poem, verse, verse, opinion, conclusion, characteristic, home, opinion, commonality, life, ground, time, interpretation.

Аннотация: В статье дается комплексный анализ персидских од Алишера Навои и традиции татубу, статуса этого явления в литературных произведениях, а также особенностей этой традиции. В этой связи среди современных ученых особенно примечательны наблюдения Абдурауфа Фитрата. Приводятся

оды из сборника Фони «Ситтай зарурийя» (Семь потребностей) и размышления об их создании.

Ключевые слова: Касыда, традиция, татаббу, поэма, стихотворение, стих, стих, мнение, заключение, характеристика, дом, мнение, общность, жизнь, основа, время, толкование.

Абдурауф Фитрат (1886 – 1938) илмий тадқиқотларида Алишер Навоийнинг форсий меросига ҳам алоҳида эътибор қаратилади. Фитратнинг ушбу мақоласи “Навоийнинг форсий шоирлиги ҳам унинг форсий девони тўғрисида” тарзида номланиб, профессор Ҳамидулло Болтабоев нашрга тайёрлаган Фитрат икки томлигининг иккинчи томидан жой олган. Фитрат мақолалар тўпламининг иккинчи томи айни Навоийнинг форсий ижодиёти баҳсига доир мақоласи билан ибтидо топади. Аввало Фитрат баъзи тазкирачилар Алишер Навоийнинг форсий тахаллуси борасида хатоликларга йўл қўйганлигини айтиб ўтади. Абдурауф Фитрат тазкиранавислардан Ризоқулихон Ҳидоят (XIX аср)нинг форсийда битилган “Мажмаъул-фусаҳо” (Чиройли сухандонлар тўплами) асарида Навоийнинг форсий шеъриятдаги тахаллусини Фаноий деб кўрсатганини қайд этади. Фитрат бунинг хато эканлигини “Лисонут-тайр”(1499)дан мисол келтириб, Навоийнинг форсий ижоддаги тахаллуси Фоний эканини тасдиқлайди:

Форсий назм ичра чун сурдим қалам,
Назмнинг ҳар синфини қилдим рақам.
Файз етгач ул маонийдин манго,
Топти билгу назм “Фоний”дин манго (–Б.5)

Алишер Навоий ҳатто “Лисонут-тайр” достонини Фоний тахаллусида ёзган, қолаверса, форс тилидаги битилган “Муфрадот” (1485, “Рисолаи муаммо”, тўғрироғи муаммо хусусида алифбо асар) дарслигини эса Навоий тахаллусида ижод этган. Фитрат тадқиқотнинг бошланғич қисмида ёзади: “Навоий энг улуғ форс шоирларининг энг машҳур, энг қийин асарларига форсийча жавоблар, назиралар ёзган. Машҳур Хисрав Деҳлавий (1253–1325)нинг:

Кўси шаҳ холийу бонги ғулғулаш дарди сар аст,

Ҳар ки қонеъ шуд хушку тар, шаҳи баҳру бар аст.

(мазмуни: Подшоҳ ноғорасининг ичи бўшу, ғулғуласининг ҳайқириғи бош оғриғидир, кимки, ҳўл-куруққа қаноатланса, денгиз ва ерюзининг шоҳидир (–Б.243) [Навоий, 1967: 272] деб бошланған бир қасидаси бор, оти: "Баҳр ул-аброр"дир" (Шу манба.–Б.6). Амир Хусрав қасидаси нечундир "Баҳр ул-аброр" (Яхшилар денгизи) дейилган, етук адабиётшунос Ҳ.Болтабоев нашрини ҳозирлаган Фитрат китобининг изоҳлар қисмида бу масалага эътибор қаратиб, муносабат изҳор этади. Амир Хисрав қасидасининг номи "Дарёи аброр" (Яхшилар дарёси) экани айтилиб, юқоридаги байтнинг ўзбекча мазмуни ҳам илова этилади: "Подшаҳ ноғорасининг ичи бўшу, ғулғуласининг шовқин-сурони бошни оғритади, ҳўлу қўруққа қаноат қилган киши, сув ва қуруқлик подшоҳидир" (Шу манба.–Б.174). Амир Хусравнинг "Дарёи аброр" қасидасига Фитратнинг таъкидича: "Жомий (1414–1492)нинг унга бир назираси, ўхшатмаси бор, оти "Лужжат ул-асрор" (Сирлар денгизи) бўлиб, Хисравникига кўра кучсизроқдир" (Шу манба.–Б.6). Фитрат давом этиб ёзади: "Навоий ҳам буларға "Туҳфат ул-афкор" отли 26 (аслида 99) байтдан иборат бир ўхшатма ёзған:

Оташин лаъли ки тожи хуравонро зевар аст,

Аҳгаре баҳри хаёли хом пухтан дар сар аст (Шу манба.–Б.6)".

мазмуни:

Подшоҳлар тожини безаган ўтли лаъл, хом хаёлни пишириш учун бошдаги бир чўғдир С.Айний (Шу манба.–Б. 174).

Алишер Навоий "Хамсатул-мутахаййирин" (1494) ва "Муҳокамат ул-лу-атайн" (1499) асарларида айни Амир Хусрав қасидаларига қизғин муносабат изҳор этади. Юқорида изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев қасиданинг "Дарёи аброр" деб таъкидлагани қайд этилди, буни Амир Хусравнинг ўзи ҳам таъкидлайди:

Маънии Хусрав муассир н-ояд андар мурдагон,

Ҳеч гоҳ диди, ки мастй дар сабўву соғар аст?

Ҳам дар ин шеъре, ки шуд "Дарьёи аброр"аш хитоб,

Жарф бин, то абри дарьёбор чандаш дар бар аст!(–С.817) [Деҳлавй, 1975, 896].

мазмуни:

Ўлганларга бефойда Хусрав сўзин таъсири,
Ҳеч кўрдингми май идишида мастлик асири.
Ҳам бу шеърда "яхшилик дарё"си хитоб бўлди,
Қалин булутлар дарё учун гавҳарлар дури.

Энг диққатлиси Алишер Навоий "Муҳокаматул-луғатайн"да "Дарёи аброр" қасидаси борасида айнан Амир Хусравнинг ўзининг айтганларини қайд этади: "Қасойиддин Амир Хусравнинг "Дарёи аброр"иким, машҳур мундоқдурки, дер эмиш бўлғайки, "Юз минг байтдин ортуғ девонларим ғазалиёти ва қасойид ва маснавийларим абъёти агар олам саҳифасидан ююлса ва даврон сафиҳасидин маҳв бўлса ва бу қасида қолсаки, анда маъни истийфоси вофийдур, бу фан аҳлиға менинг фазойилим далилиға кофийдур" [Навоий, 122].

Абдурауф Фитрат давом этиб ёзади: "Яна Хисрав Деҳлавийнинг "Миръот ус-сафо" (Поклик кўзгуси) отли бир қасидасиға Абдураҳмони Жомийнинг "Жило ур-руҳ" (Руҳ жилоси)". Навоийнинг ҳам буларға:

Муаллим ишқу пири ақл дон тифли сабақхонаш,
Паи таъдиби тифл инак фалак шуд чархи гардонаш.–

мазмуни:

Муаллим ишқдир, ақл пири сабоқ ўқувчи боладир,
Болага одоб бериш учун фалак отланувчи чарх бўлди (–Б.174),

деб бошланган гўзал бир назираси борлиғини ўзи хабар беради" [Фитрат, 6]. Абдурауф Фитрат шу тариқа Алишер Навоийнинг "Ситтаи зарурия" (Олти зарурат) мажмуаси мундарижасидан ўрин олган олти қасиданинг матлаъсини мисол тариқасида келтиради. Профессор Ҳ.Болтабоев қаламига мансуб изоҳлар таркибида мисол тариқасида келтирилган қасидалар матлаъсининг насрда мазмунининг берилиши эътиборли жиҳатларни намоён этади. Алишер Навоийнинг "Ситтаи зарурия" таркибидаги қасидалари борасида изҳор этилган Фитрат таъкидлари учун "Хамсатул-мутаҳаййирин" ва "Муҳокаматул-луғатайн" асарлари асос вазифасини бажарган.

Муҳим воқеа шуки, Фитратлар замонида Алишер Навоийнинг форсий ижодига қизиқиш анча нуфузли жиҳатларга эгалиги ила ажралиб туради. Фитратнинг қайд этишича, бу борада Вадуд Маҳмудий (1898–1976)нинг изланишлари анча эътиборли, шу қидиришларнинг натижаси ўлароқ Бухорода Мусо Саиджонов(1893–1939)нинг хусусий кутубхонасида Навоийнинг форсий девони мавжудлиги аниқланади. Шунингдек, айни ушбу китобнинг яна бир нусхаси Шарифжон махдум (1865–1931) га тегишли отасидан мерос қолган кутубхонада борлиги ҳам маълум бўлади. Ҳатто бу борада Вадуд Маҳмудий "Алишер Навоий" номли махсус мақола ёзади, у "Маориф ва ўқитувчи" саҳифалари(–1925.–№3.–Б.56–62)даэълонқилинади.Бувоқеалар табиий атрофдагиларни хурсанд қилади, Фитратнинг таъкидича: "Навоийнинг форсийча девони топилди" деб шодландиқ. Бахтга қаршу мунинг Навоийнинг форсийча девони бўлмағани майдонға чиқди". Дарҳақиқат Фитрат ўша девонларни Алишер Фонийнинг форсий ижоди намуналари билан қиёслаб текширади. Ниҳоят шундай хулосага келинади, яъни қўлга киритилган мавжуд девонларнинг шеърият услуби Алишер Фоний форсий шеърлари услубидан анча кучсизлиги тан олинади. Қўлга киритилган девонлардаги ғазалларда "Шоҳий" ва "Султоний" тахаллуслари қўлланилган, "Навоийнинг эса, шеърда ундай лақаблари йўқ эди". Кўринадики, Фитратлар замонида Алишер Фонийнинг "Девони Фоний" девони ҳали ноаниқлигича мавҳум бўлган. Лекин ўша давр изланишларининг ўзи мақтовга лойиқ катта ҳодисадир. Қолаверса, Фитратнинг Навоий форсий шеъриятига Заҳириддин Бобур (1483–1530) баҳоларига муносабати ҳам анча диққатлидир. Абдурауф Фитратнинг Алишер Фоний ижодига Бобур шоҳнинг маълумотларига эътибори бежизга эмаслиги табиий ҳолдир. Заҳириддин Бобурнинг: "Форсий девон ҳам тартиб қилибтур. Форсий назмда "Фоний" тахаллус қилибтур, баъзи абёти ёмон эмастур, вале аксар суст ва фурудтур" (–Б. 151) [Бобур, 1989.– 368]. Фитрат биламизки, Навоийнинг туркий китобларидаги мавжуд форсий ижодига тааллуқли форсий шеърларини атрофлича ўрганиб чиққанини қуйидаги фикрларидан билиб олишимиз мумкин: "Навоийнинг бошқалар

билан бўлган адабий мунозаралари ва мана бу чиройлик намуналар Навоийнинг форс тилида теран, уста бир санъаткор эканини кўрсатади. Унинг форсийчада кучсиз бўлгани тўғрисида Бобирнинг маълумотини кўб-да қабул эткусимиз келмайди". Абдурауф Фитратнинг Фоний шеърияти хусусида изҳор этган фикрлари борасидаги кузатувларида Алишер Навоийнинг форс-тожик шоири Салмон Соважий (1310–1376) ижодига муносабати эътиборли жиҳатларни намоён этади. Айниқса, Салмон Соважий шеъриятида тарсиъ санъатининг қўлланиши боғлиқ ҳодисалар Навоий диққатини ўзига тортади:

Сафойи сафвати рўйат бирехт оби баҳор,
Ҳавойи жаннати куйат ба бахт мушку танор
мазмуни:
Покиза юзининг софлиги баҳор сувини тўкди,
Жаннатдек манзилнинг ҳавоси хушбўйлик тарқатди

Тарсиъ қоидасига биноан биринчи ва иккинчи мисрадаги ҳар бир сўз қофия қоидасига биноан бир хил бўлиши лозим, яъни: "сафо-ҳаво, сафват-жаннат, рўйат-кўйат" каби. Фитрат таъкидига кўра Навоий биринчи мисрадаги "об" ва иккинчи мисрадаги "мушк" сўзлари шаклан бир-бирига яқин эмас, демак қофия қоидасига зиён етган. Бу хил тарсиъга Навоий ўз ижодидан бир мисол келтиради:

Чунон вазит ба бўстон насими фасли баҳор,
К-аз он расид ба ёрон, шамими васли нигор.
мазмуни:
Бўстонга баҳор фаслининг шаббодаси шундай эсдики,
Ундан дўстларга ёр аслининг хуш иси етишди.

Ва баҳснинг муддаосини шеърхонга аниқ изоҳлаб беради, навбатдаги мунозарага заррача имкон қолдирмайди. Биламизки, Алишер Фоний "Девони Фоний"да Салмон Соважийнинг иккита ғазалига татаббуъ боғлаган, бу Навоийнинг Салмон Соважий ижодига эҳтиром изҳоридир.

Мақоламизнинг якуний қисмида профессор Ҳамид Сулаймон тайёрлаб "Адабий мерос" саҳифаларида эълон қилган "Ситтаи зарурия" (Олти зарурат) ва уларни форсийдан ўзбек тилига таржимасини амалга оширган Ўзбекистон халқ шоири Жамол

Камол таржималарининг матлаъларини қайта бошдан келтириб ўтишни жоиз топдик.

I Қасидаи "Руҳу-л-қудс"и тавҳиди бори таоло (132 байт):

Зиҳй ба хомаи қудрат мусаввар ашё,

Ҳазор нақши ажиб ҳар замон аз-ў пайдо (–Б.244).

мазмуни:

Тассанно ул қаламгаким, мунаввари ашё,

Неча минг нақши ҳар замон қилур пайдо (–Б.215).

.....

II Қасидаи "Айну-л-ҳаёт" дар наъти Расули алайҳ ас-салавот (106 байт):

Ҳожибони шаб чу шодурвони савдо афгананд,

Жилва дар ҳайли бутони моҳсимо афгананд (–Б.251).

мазмуни:

Парда тортиб тун жаҳонга, то тамманно айлагай,

Жилвасин ул неча дилбар, моҳ сиймо айлагай (–Б.228).

.....

III Қасидаи "Туҳфат ул-афкор" татаббуъи "Дарёйи аброр" (99 байт):

Оташин лаъле ки тожи хусравонро зевар аст,

Ахгаре баҳри хаёли хом пухтан дар сар аст (–Б.256).

мазмуни:

Оташин лаъл, улки шоҳлар тожига зевар эрур,

Хом хаёлларни пиширмоққа олов ахгар эрур (–Б.239).

.....

IV Қасидаи "Қут ул-қулуб" татаббуъи Ҳаким Анварий (120 байт):

Жаҳонки марҳалаи танги шоҳроҳи фаност,

Дар ў мажўй иқомат, ки роҳи шоҳу гадост (–Б.262).

мазмуни:

Жаҳонки тор кўчадир, шоҳроҳ унга фано,

Иқомат истама бунда, ўтдилар шоҳу гадо (–Б. 249).

.....

V Қасидаи "Минҳож ун-нажот" татаббуъи Хоқоний ва Анварий (138 байт):

Зиҳи аз шамъи рўят чашми мардум гашта нуронй,
Жаҳонро мардуми чашм омадй аз айни инсонй (–Б.268).
мазмуни:
На хушким, нури чеҳрангдин бу кўзлар бўлди нуроний,
Ўзинг кўз мардуми бўлдинг жаҳонга чашми инсоний (–Б.261).
.....
VI Қасидаи "Насим ул-хулд" татаббуъи Хоқоний (129 байт):
Муаллим ишқу пири ақл шуд тифли дабистонаш,
Фалак дон баҳри таъдиби вай инак чархи гардонаш (–Б,275).
мазмуни:
Муаллим бўлди ишқу ақли пир – шогирди нодони,
Фалак – одобу ахлоқ ўргатувчи чархи гардони (–Б.275)

Адабиётлар:

1. Амир Хусрав Деҳлавй. Осорим мунтахаб. Дар чаҳор чилд. Чилди чаҳорум. Аз девонҳо ғазалиёт, қасоид, муқаттаот, рубоиёт... Ба чоп тайёркунандагон: М.Бақоев, Ч.Додалишоҳ.– Душанбе: "Ирфон", 1975. – 896 саҳ.

2. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома: Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент: Юлдузча, 1989.– 368 б.

3. Навоий Алишер. Асарлар. 15 т. Т.14.– Т., Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – 272 б.

4. Навоий, Мир Алишер. Фоний гулшани. Ғазаллар ва қасидалар. Форсийдан Жамол Камол таржимаси.– Тошкент: MERIYUS, 2011.– 364 б.

5. Фитрат. Танлангапн асарлар. 2-жилд. Илмий мақолалар. / Табдил, таржима ва изоҳлар Ҳ.Болтабоевники.– Тошкент: Маънавият, 208 б.

6. Ҳамид Сулаймон. Алишер Наоийнинг янги топилган асари "Ситтаи зарурия" ва унинг қўлёзма манбалари ҳақида: Қасидаи "Ситтаи зарурия" // Адабий мерос. –1968. – № 1. – Б.192–282.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING "QASDI SAFAR" ASARI POETIKASI

Jo'rayeva Manzura Ahronqulovna
FarDU adabiyotshunoslik kafedrasi mudiri,
dotsent (PhD)
+998903017637
manzurajuraeva@g mail.com
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qasdi safar" asarining janr xususiyati haqida so'z boradi. Behbudiy kunda ko'rgan voqealarni yozish bilan birga har bir joy tarixiga oid qiziq ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Buxoroga kelib yashayotgan muhojirlar va amaldorlar haqida ham ma'lumotlar berish orqali o'z fikrlarini aytib o'tadi. Safari davomida Behbudiy asosiy e'tiborini musulmonlarga qaratgan. Ularni bandligidan tortib, hatto ilm olishigacha, farzandlar tarbiyasi haqida ham yozib o'tadi. Bu safar Behbudiy ruhiyatini tubdan o'zgartiradi.

Kalit so'zlar: janr xususiyatlari, memuar janri, kundalik janri, safarnoma va sayohatnoma janri tahlili, maktab, musofirxona, kaliso, savma'a, tanob, mag'ora, dag'ma, aroba, musulmon masjid va madrasalari bilan birga nasroniylarning kalisolari ham joylashgan, ya'ni ikki madaniyat, ikki din obidalari yonma-yon yashar, inson irqi, millati, din.

Abstract. The article discusses the genre features of Mahmudhoja Behbudi's work «Qasdi Safar». Behbudi writes about the events he saw during the day and also provides interesting information about the history of each place. He also shares his thoughts by providing information about the immigrants and officials who came to live in Bukhara. During his trip, Behbudi focused on Muslims. He writes about their work, even about their education and even about the upbringing of their children. This time, Behbudi changes his thinking dramatically.

Keywords: genre characteristics, memoir genre, diary genre, travelogue and travelogue genre analysis, school, inn, church, savmaa, ta-

nob, cave, dagma, aroba, along with Muslim mosques and madrassas, there are also Christian churches, that is, monuments of two cultures, two religions, human race, nationality, religion are located side by side.

Behbudiyning 1900 (1318) yili sakkiz oylik haj safariga, 1907 (1325) yili esa Rossiyaning Orenburg, Moskva, Peterburg, Qozon va Nijniy Novgorod shaharlariga borganiga, shundan keyin xonanishin turmush kechirib, asosan "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalini nashr etish ishlari bilan mashg'ul bo'lgan: "Yetti yillik xonanishinlik digar tarafdan, aloyiqi ro'zgor, tijorat va 7-8 risolalar tahrir va nashri, dor ul-qazo ishlari, xususan, bir sanadan beri sobiq "Samarqand" jaridasi va hozirgi "Oyina" idorasining ishlari ruhan va jisman zaif etdi. A'zo va havaslarga kasalot paydo bo'ldi... Atibbo va sayohatg'a mashvarat berarlar. Tabiat (sh) u qadar noqobil va buzuqki, sayohatdan ham nafrat etar" deb yozgan edi u shu vaqtdagi sihat-salomatligi va kayfiyatini ifodalab. Ammo Behbudiy shu vaqtda "Behbudiya kutubxonasi"da kitob savdosini yo'lga qo'yish uchun ruxsat olganligi va kutubxona "Istanbul, Misr, Qrim, Kafkaz, Qozon, O'runburg', Hindiston"dan o'zbek, tojik hatto rus kitobxonlarini qiziqtiradigan mavzulardagi kitoblarni keltirish rejasi bilan yashayotgan edi. Shuning uchun u 1914-yil 29-may, payshanba kuni, kech soat 7da poyezdga o'tirib, ikki oylik sayohatga chiqadi. Bu Behbudiyning Samarqand tuprog'idan ilk bor chiqishi emas edi.

Behbudiyning "Qasdi safar" asarida safar tafsilotlari berilgan. Adibning ikki jildlik "Tanlangan asarlar"i (nashrga tayyorlovchi: san'atshunoslik fanlari nomzodi, behbudiyshunos olim Sirojiddin Ahmad) "Akademnashr" tomonidan 2021-yili nashrdan chiqdi. Kitobning "Sayohat xotiralari" deb nomlagan bobida "Qasdi safar" asari berilgan. Bo'limga sayohat xotiralari, deyilsa-da, biroq adib o'zi safar deb nom bergan. Bu safarnoma adibning boshqa publitsistik asarlaridan farq qiladi. Chunki Mahmudxo'ja Behbudiy safarga chiqqan kunidan boshlab, kundalik tarzida ko'rgan voqealari, tabiat tasviri, xalqlar va millatlar taqdiri haqida bayon qiladi. Safarnomaning boshida safarga chiqishni istagani, lekin bir muncha sabablar tufayli oila va ishdan uzula olmagani haqida, "Oyina" jurnali qismatidan xavotiri borligi haqida shunday deydi: "Bir sanadan beri idora ishiga oshno

bo‘lgan Sayyid Rizo afandi Alizoda janoblarining “Oyina”g‘a mas’ul mudirligi uchun hukumatdan ruxsat olindi. Muvaqqat muharrirligi muallim Hoji Muin janoblarig‘a havola qilindi. Kitobat va tartibig‘a Mullo Faxriddin Rojiy janoblari mutasaddidur. Olloh taoloning inoyati va qorilarning tavajjuhlari ila kamina bo‘lmasa-da, “Oyina” eskicha chiqib turar va sayohatimizdan muxtasar suratda har hafta yozib turamiz”[Behbudiy,2021:72].

“Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalining nashr etilishi bilan bog‘liq Behbudiyning bir qancha orzu niyatlari bor ediki, ulardan biri o‘zbek, fors, rus tillarida nashr etish, uzoqdagi xalqlarga ham yetib borishi edi. Biroq uning niyatlari amalga oshmadi, “Samarqand” gazetasi bir yilgina umr ko‘rdi. Ammo Behbudiy “Behbudiya kutubxonasi”da kitob savdosini yo‘lga qo‘yish maqsadida 1914 yil 29 may kuni poyezdga o‘tirib, ikki oylik safarga chiqadi.

Sayohatga chiqishni istagan adibga Rusiya Davlat Dumasi deputati Tevkelevdan taklifnoma keladi va shu taklifnoma asosida safarga chiqadi. Lekin safarga borishga do‘sti yo‘qligi, o‘g‘li Mas’udxo‘jani olib ketay desa, imtihonlari borligi, gimnaziyaga tayyorgarlik ko‘rayotganini, rus, fransuz, nemis tili o‘rganayotganini ta’kidlaydi. Adib o‘zi yetishmagan orzulariga, ko‘pgina tillarni o‘rganib, boshqa millat kitoblarini xalqqa yetkazish kabi orzularini farzandi orqali amalga oshirish istagini bildiradi. O‘z bolasini namuna qilish orqali xalqni ma’rifatga, ilm olishga chorlaydi.

1914 yil 29 may kuni Samarqanddan poyezdga o‘tirganidan tortib, oilasi bilan xayrlashuv onlarini ham kundalik shaklidagi safarnomaga yozadi. Qalbidagi tug‘yoni, ayriliq azobi muallifni qiynaydi. Bu qiynoqqa na kitob o‘qish, na xayol surish taskin beradi. Uning qalbiga Qur’oni karim taskin beradi.

Behbudiy kunda ko‘rgan voqealarni yozish bilan birga har bir joy tarixiga oid qiziq ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Buxoroga kelib yashayotgan muhojirlar va amaldorlar haqida ham ma’lumotlar berish orqali o‘z fikrlarini aytib o‘tadi. U islom dini va Qur’oni karimni yaxshi bilgan. Shuning uchun muhojirlarni mazhablarini bemalol ajratib olgan. Marv tomonni istilo etgan buxoriylarni sardori sarig‘ va ko‘k ko‘zli bir kishi ekanligi orqali real hayotdagi va tarixdagi insonlar portretlarini ham chizib beradi. Biroq safarnoma janri kompozitsiyasi

boshqa janrlardan farq qiladi. To'liq badiiy obraz va xarakter yaratish safarnoma muallifini hadafi (maqsad) emas. Muallif ba'zi odamlarga e'tiborli bo'lib, ularni asosiy jihatlarini, xulqu atvorini amalda ko'rsatadi. Safarnomalarda asosan bir nafar-muallifni xarakteri ko'proq namoyon bo'ladi [Rahimi, 1990:150].

Adib safarnoma janrida bir qancha she'riy san'atlar va tasvir vositalaridan foydalanadi. "Murg'ni boshi tashlanilsa, "rg'" qolib 1200 sana uchun ta'rix chiqar, ya'ni Bayramalini buxoriylar halok etganlariga 132 sana bo'lur. G'oliblar shoiri ham "Sari Bayramali shud xalqai dor.."she'r aytganlar. Al-on Rusiya hukumati eski bandni tuzatib, Bayramali va Marv taraflarini obod etib turubdur. Bayramali yerlari hazrati imperaturg'a mansub bo'lub, xalqg'a ijaraga berilur. Bevosita Bayramali Marv shahri bo'lub, qadimda "Marvi Shohjahon" atalardi" [Behbudiy, 2021:74].

Behbudiy muammo qoidasiga amal qilib, sanani chiqarmoqda, ya'ni "murg'" so'zidagi bosh harf "mim" olib qo'yilsa, "re" va "g'ayn" harflari qoladi. Abjad hisobida qo'shilsa, ikki harfdan 1200 sana kelib chiqadi. Demak, 1200 sanada amirlik Marv shahrini qayta ishg'ol qilgan. "Abjad hisobi - arab alifbosidagi harflarning har biri ma'lum songa tengligi asosida yuritiluvchi hisob. Ya'ni arab harflarining har biri alifbo tartibida ma'lum sonni ifodalaydi. Oson eslab qolinishi uchun sonlarni ifodalayotgan harflarni qat'iy alifbo tartibida biriktirish orqali sakkizta sun'iy so'z hosil qilingan bo'lib, ular hech qanday lug'aviy ma'noga ega emas. Sharq mumtoz she'riyatida abjad hisobidan u yoki bu voqea hodisaning yuz berish vaqtini qayd etish, she'rda turli so'z o'yinlarini yuzaga keltirish kabi maqsadlarda samarali foydalanilgan. Shuningdek, abjad hisoboti imkoniyatlari chiston, muammo kabi she'riy bosh qotirma janrlarida ham keng istifoda etilgan" [Quronov va b.,2010:4].

"Safarnomada taxayyul (xayolot) albatta katta rol o'ynaydi, ammo u mustaqil emas, balki voqeaga tobe' bo'ladi. Muallif safarnomada o'zidan biron jiddiy narsa qo'sha olmaydi. Shuning uchun safarnomani asosiy metodi realizm bo'lishi kerak. Ba'zi mualliflar o'rta asrlarda ba'zi narsalarni tasvirlashda realizmdan foydalanganlar, ammo ushbu amal haqiqatni yoritishida safarnoma qimmatiga salbiy ta'sir yetkazishi mumkin" [Rahimi,1990:150]. Marv shahri aholisi millati ularning

kelib chiqishiga to‘xtalib, xalqning ilm-ma’rifati haqida fikr yuritadi. Adib safari davomida har bir millat va ellatning kelib chiqishi, yashash sharoiti, ijtimoiy hayoti haqida fikr yuritar ekan, xalqlarning ma’rifati, ilm olish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tasvirlaydi. Xalqlarning ijtimoiy hayotini tasvirlash bilan cheklanmasdan, balki ma’rifatparvar, ziyoli shaxslar bilan uchrashganini ham ta’kidlaydi.

“Boku shahri Rusiyaning obodonlik jihatidan beshinchi shahri bo‘lib, ammo musulmon davlatligining ko‘pligi ila Rusiyada ikkinchi shahardur. Chunonchi, munda yuz miliyon so‘mlik mulku sarmoyaga doro bir necha musulmonlar bo‘lib, milliyon sohibi musulmonlar yuzdan ziyoda, yarim milliyonlik musulmon yana ortuqroq, yuz ming sarvatlik musulmon esa o‘n minglar ila bo‘lub, shaharning aksar mulki musulmonlar qo‘lidadur. Olloh ziyoda etsun!...” [Quronov va b.,2010:78].

Safari davomida Behbudiy asosiy e’tiborini musulmonlarga qaratgan. Ularni bandligidan tortib, hatto ilm olishigacha, farzandlar tarbiyasi haqida ham yozib o‘tadi. Bu safar Behbudiy ruhiyatini tubdan o‘zgartiradi. Adib millatdoshlari va Rusiyadagi musulmonlarni qiyoslash orqali bir to‘xtamga keladi. Faqat o‘qish, xalqni ilmli qilish. Har bir dardni davosi ekanligini tushunib yetadi. Safarga chiqishidan oldin ham, bu kundalikni yozishidan avval ham bu haqida bir qancha maqolalar yozgan, biroq unda qiyoslamagan edi.

“2 iyunda Bokudan chiqib, Mineralni vo‘da (Ma’dan suvlari) maxattasig‘a mutavajjih bo‘ldikkim, orasi 755 chaqirim bo‘lub, bir kecha kunduz yurildi. Muning olti yuz chaqirimi komilan musulmon yerlari ham nihoyatda manbit va a’lo yerlardurkim, arpadan sholigacha ekilgan va aksariyatan bahorikori va yerlari qarag‘padur. Daraxtlari u qadar ko‘pkim, Samarqandning Qaradaraxtu Miyonkoli anga nisbatan hechdur. Xalqi bizning pirsiyon, lazgi, dog‘istoniy degan xalqdar bo‘lib, yana doxilan, chechen, qo‘muq va boshqa ismlar ila ataladur.

Biz, turkistoniylar, topganimizni to‘y, o‘luk va ko‘pkarig‘a sarf qilgandek, bu musulmon qarindoshlarimizning aksari o‘z molini qiz olib qochib, janjalig‘a sarf etmoq, bir-birovlarini o‘ldurub, yana qasosi nomashru’ tariqida tarafayndan bir nechalab o‘ldurub, so‘ngra bor pullarini sudu sinod yo‘lig‘a va umrlarini Sibiriya cho‘llariga sarf qilib, nobud bo‘lar ekanlar. Arolarida madrasa nomida bir shay

yo‘q emish. Ammo o‘zlari nihoyatda iymonlik va amalsiz musulmonlardir” [Behbudiy, 2021:78.

Behbudiyning safarga chiqishdan asosiy maqsadi safarning shu asosiy, ikkinchi qismini bezagan mamlakatlar va xalqlar hayoti bilan tanishish, ular hayotidagi ibratli tomonlarni o‘rganish, rus istilosi yillarida aloqa rishtalari uzilgan Sharq va G‘arb mamlakatlarida ro‘y bergan madaniyat yangiliklari bilan oshno bo‘lish, turk, fors, arab tillarida nashr etilgan kitoblarni sotib olish, o‘zining safarnoma parchalarini “Oyina” jurnalida e’lon qilish yo‘li bilan vatandoshlarining m dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatish edi [Karimov, 2022:185].

“Paroxo‘dda – aksariyat yahudiylarginadur va biroz rus fuqarosidan ham bor... Alarning aksari 3-sinfda va anbordadurlar. Bu yahudiy va ruslar avvalan Istanbulg‘a kirib, “Ayo Sufiya” va “Qa’riya” jome’i va boshqa aziz kalisolarni va yahudiylar “Xoxom” boshini ziyorat etub, so‘ngra Quddusi sharifg‘a ketarlar, ya’ni rus va yahudiy “hoji”laridurlar” [Behbudiy,2021:86].

Adib rus va yahudiylar e’tiqodiga qisqa to‘xtaladi. Ularning ziyoratgoh joylarga navbatma-navbat borishi haqida to‘xtaladi, hayajonini yashirmaydi. E’tiqod har bir millatga xos ekanligi, har bir dinning o‘z qarashi va qoidasi borligini ta’kidlaydi. Ular bilan suhbatlashib, bir yahudiyning butun boyligini Turkistoning bir parcha yeriga almashtirib, u joyda dehqonchilik qilmoqchiligini, biroq unga rus hukumati ruxsat bermasligini aytadi. Bu yahudiyning Turkiston haqidagi iliq fikrlaridan, ayniqsa, rus hukumatining ruxsat bermasligini eshitib, judayam xursand bo‘ladi.

Behbudiy safar davomida Bayrut, Yofa, Quddusi sharif, Xalil ar-Rahmon, Baytullahm singari shaharlardagi diqqatga sazovor joylarni borib ko‘radi. Shu narsa g‘aroyibki, u bu shaharlarning birida teatr va sinematograf bor bo‘lgani holda unga kirmaydi.

“Sinematografiyani ega va xizmatkorlari arab va ibriy sozlarini cholg‘uchilarni hammasi yahudiy ekan. Tiyotriga arabiy, ibroniy, fransaviy, nemis tillarida rivoyat-pyesalar qo‘yulur ekan. Azbaski, mazkur tillar xalqidan munda ko‘bdur. Falastin arablari ham Misr arablarini sababi ila tiyotrchilikka biroz mayl qilubdurlar. Tiyotr pesalarini rivoyat atab, qadim va jadidlari yaxshi ko‘z ila qarar emishlar [Behbudiy,2021:142].

Behbudiydek ma'rifatparvar, ilm va madaniyatga chanqoq insoning kino va teatrga kirmasligi o'quvchini taajjubga soladi. Safarnomasida bunga ham izoh beradi. Bu ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, e'tiqod masalasi bilan bog'liq. Parchada Falastin va Misr arablari ta'siri haqida gapirish orqali ham o'z tuyg'ularini namoyon etadi.

Safarning o'ziga xos g'aroyib tomoni shunda ediki, sayyohlar uchun belgilangan yo'lda musulmon masjid va madrasalari bilan birga nasroniylarning kalisolari ham joylashgan, ya'ni ikki madaniyat, ikki din obidalari yonma-yon yashar, inson irqi, millati, dinidan qat'iy nazar, bir ota-onaning farzandi ekanligidan dalolat beradi.

Behbudiy kalisolardan birining oldida toshkentlik yosh attorning narsa sotib o'tirganini ko'rib qoladi. "Do'konig'a biroz o'lturdik. Mamlakatdan so'radi. Qo'liga bir necha nusxa "Oyina" va Turkiston xaritasini berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini ko'rsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni o'pib, ko'ziga surtdi. Hubbul vatani min al-iyman. Xususan, vatan va ahli diyorning qadri musofirlikg'a ma'lum bo'lur. Haqiqatan, vatan muqaddasdur" [Behbudiy,2021:147].

Behbudiy Yofadan Iskandariyaga ketayotgan paytida vatandoshini uchratadi. Taqdir taqozosi bilan 5-6 yildan beri Hindiston, Arabiston, Misr va Hijozni kezib yurgan qo'qonlik yigit bilan tanishib qoladi. "Qasdi safar"ning so'nggi sahifalarida samarqandlik Hoji Mir afandini uchratib qolishi, uning 3 o'g'li borligi, o'g'lilaridan biri fransuz maktabida o'qishi, shu maktabning bitiruv kechasida ishtirok etganligi haqida batafsil to'xtaladi.

Behbudiy bevosita jurnalistik faoliyati bilan bog'liq safarda yurgan bo'lsa ham, uni chamasi, Samarqandda bundan-da muhim ishlar kutib turgan edi. Shu hol Behbudiyga "Qasdi safar"ning so'nggi sahifalarini yozib, unga so'nggi nuqta qo'yish imkoniyatini bermagan. "Oyina" jurnalida peshma-pesh bosilayotgan safar taassurotlari shu hol tufayli yakunlanmay qolgandek taassurot uyg'otadi. Shunga qaramay, "Qasdi safar" Behbudiyning publitsistik merosida alohida o'rin egallaydi [Karimov,2022:194]. Adib safarda ko'rgan va eshitgan voqealarini kundalik tarzida yozib borar ekan, har voqeaga, ko'rganlariga, tabiat tasviriga o'z munosabatini bildiradi. Vatani, xalqi sharoiti bilan qiyoslaydi. Xalqlarning o'rtasidagi urf-odatlari, ma'nisiz orzu

havaslar haqida gapirib, xalqni ilm olishi, ilmga intilishi kerakligini ta'kidlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy maorif tizimining islohotini umummamlakat, umummillat muammosi deb bilgan. Millatni millat sifatida tugashdan, jamiyatni falokatdan faqatgina maktab, ilm-ma'rifat islohotigina asrab qolishi mumkinligini keng ziyolilar ommasiga anglatishga intilib tinmay kurash olib borgan.

"Qasdi safar" ham ma'rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyatda muhim asar. Adib bu safarnomasida o'z taassurotlarini yozish bilan birga mashhur va oddiy kishilar bilan uchrashuvlarini ibratli tomonlarini yoritadi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida ma'lumotlar to'playdi. Turli-tuman millatlar, ularning urf-odatlari, udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Ayniqsa, din, e'tiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. Qadimiy muqaddas obidalar, Rasulullоh qadami tekkan qutlug' dargohlar, xususan, Quddusi sharifdagi mashhur Masjidal-Aqso ziyorati haqida ham batafsil bayon etadi.

Xulosa. Behbudiyning safarga chiqishdan asosiy maqsadi mamlakatlar va xalqlar hayoti bilan tanishish, ular hayotidagi ibratli tomonlarni o'rganish, rus istilosi yillarida aloqa rishtalari uzilgan Sharq va G'arb mamlakatlarida ro'y bergan madaniyat yangiliklari bilan oshno bo'lish, turk, arab va fors tillarida nashr etilgan kitoblarni sotib olish, o'zining va safarnoma parchalarini "Oyina" jurnalida e'lon qilish yo'li bilan vatandoshlarining ham dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatish edi.

Behbudiy safarnomasida mumkin qadar aniqlik asosida yozishga harakat qilgan. Shaharlar o'rtasidagi masofalar, uni bosib o'tish muddati, geografik kengliklar aniq ko'rsatiladi. Safar tafsilotlarini bir tartibda keng va mufassal kundalik tarzida bayon etadi. Safarda o'tgan har bir kunini sanama-sana tasvirlaydi.

Behbudiy asarida voqea tasvirida aniqlik, joy nomining aniq ko'rsatilishi, sodir bo'lgan voqea sanasini aniq berib borishi kabi xususiyatlari kundalik tarzidagi safarnoma ekanligining isbotidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Раҳими Мусулмониён. Назарияи адабиёт. – Душанбе: “Маориф”, 1990.

2. Беҳбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2021.

3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

4. Каримов Н. Маҳмудхўжа Беҳбудий. – Тошкент: Akademnashr, 2022.

5. Қуронов Д. “Йўл эсдалиги”да тагмаъно қатламига доир // Шарқ юлдузи. 1998. № 1. Б. 159.

6. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004.

7. Чўлпон. Асарлар. 2-жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.

8. Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари ва маҳорат масалалари. – Т.: “Мумтоз сўз” нашриёти, 2017.

ХУРШИД ДЎСТМУҲАММАДНИНГ "ҚАЗО БЎЛГАН НАМОЗ" ҲИКОЯСИДА ДАВР ВА ШАХС ТАЛҚИНИ

М.Ҳамраева
ф.ф.н., доц. Термиз ДУ
(Ўзбекистон)

Аннотация. Ушбу мақола Хуршид Дўстмуҳаммаднинг "Қазо бўлган намоз" ҳикоясида давр ва шахс талқини масаласи таҳлилига бағишланган. Ёзувчи ижодида тарихий мавзу асосий мавзулардан бири ҳисобланиб, ушбу ҳикояда андижонлик машҳур Миркомил Мирмўминбоев ҳамда 60 ёшни қаршилаб, адолатсизлик қурбони бўлган Тўхтабой Олимжонбоев яшаган давр ва муҳитнинг инсон тақдирига нечоғлик таъсир қилганини адиб ёрқин рангларда чизиб берган. Асарда тарихий воқеаларнинг фонида даврнинг даҳшатли манзаралари сиздириб берилади. Бу борада тарихий шахс образидан фойдаланиши, қаҳрамоннинг руҳияти, асарнинг ишонтириш қуввати кучлилиги, ўзига хос таассурот уйғотиши каби масалалар таҳлилга тортилгани билан аҳамиятлидир.

Калит сўзлар: Извош, элликбоши, Ёкубхўжа, қози, зарбоф тўн, Убайдулла жунфуруш, Майлисой, закот, фарз, эррайма бойлар ва бошқалар.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу трактовки эпохи и личности в рассказе «Пропущенный намаз» Хуршида Дустмухаммада. Историческая тематика занимает одно из центральных мест в творчестве писателя. В рассматриваемом рассказе раскрывается, насколько эпоха и социальная среда влияли на судьбы таких личностей, как знаменитый миркомил Мирмуминбаев из Андижана и Тухтабой Олимжонбаев, ставший жертвой несправедливости на шестом десятке жизни.

Ключевые слова: извоз, элликбоши, Якубходжа, казий, золототканный халат, Убайдулла — торговец сукном, Майлисой, закят, фарз, купцы Эррайма и др.

Abstract. This article analyzes the interpretation of time and character in the short story *"The Missed Prayer"* by Khurshid

Dustmuhammad. The historical theme is a central focus in Dustmuhammad's literary oeuvre. This story vividly portrays how the era and its sociopolitical context influenced the lives of notable individuals such as Mirkomil Mirmuminboev of Andijan and Tukhtaboy Olimjonboev, who became a victim of injustice at the age of sixty.

Keywords: izvosh (carriage), ellikboshi (district leader), Yakubkhoja, qazi (Islamic judge), brocade robe, Ubaydulla the cloth merchant, Maylisoy, zakat, farz, Erraima merchants, and others.

Янги ўзбек шеъриятининг тамал тошини қўйган буюк шоирларимиздан бири Абдулҳамид Сулаймон ўғли Чўлпоннинг "Ҳеч тўхтамасдан ҳаракат қилиб турғон вужудимизга, танимизга сувҳаво не қадар зарур бўлса, маишат йўлида ҳар хил қора кирлар ила кирланган руҳимиз учун ҳам шул қадар адабиёт керакдир. Адабиёт яшаса-миллат яшар" [Чўлпон,1994:6] деган фикрини Хуршид Дўстмуҳаммад ижодига нисбатан ишлатсак, ўринли бўлади деб ўйлайман. Адиб асарларини ўқир экансиз, сўз санъати бўлган адабиётнинг бетакрор кучини ҳис қиласиз.

Аслида адолатсиз жамиятнинг қурбони бўлган икки тарихий шахс ҳаётини ёритишга интилган ёзувчининг "Қазо бўлган намоз" номли тарихдан дарак берувчи ҳикоялар тўплами 1996 йил Тошкент шаҳридаги Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётида чоп этилган. Асарнинг "Истиқлол: янги давр, янги қаҳрамон" номли кўрик-танлов совринини олгани ҳам эътиборга моликдир.

Асар ўша вақтда машҳур жадид боболарининг издоши бўлган маърифатли бой, 58 ёшда бўлган Андижонлик Миркомил Мирмўминбоев ҳамда Тошкентлик 60 ёшда бўлган Тўхтабой Олимжонбоевларга бағишланган. Адиб асарда қалбини сўнгсиз оғриқлар билан азоблаган бу икки машҳур зотнинг ўз ажали билан ўлмаганига урғу беради. Дастлаб асарни ўқир экансиз, Андижонга нисбат бериб ифода этилган, мумтоз адабиётимизнинг устунларидан бири бўлган Заҳириддин Муҳаммад Бобур томонидан таъриф этилган "Анда жоним қолди" деган ибораларнинг қалбга бежизга яқин эмаслигига гувоҳ бўласиз.

Халқимизни илм-маърифатга ундаган, уларнинг онгини уйғотишга ҳаракат қилган жадидлар фаолиятини ўрганиш асносида уларга муносиб бўлишган, халқни илм-маърифатга чорлаган маърифатли машҳур Андижон бойлари Миркомилбой ҳамда Тўхтабойнинг сиймоси кўз ўнгингизда намоён бўлади. Айниқса, Миркомилбой тимсолини чизиб беришда адиб ижодининг ва ҳаётининг ҳам бош шоири ҳалоллик эканига амин бўласиз. Шу ўринда ўзбек мумтоз адабиётининг устунларидан бири, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг "Ҳаётининг ҳам, ижодининг ҳам бош шиори яхшилик эканлиги" беихтиёр ёдга тушади. Бошқача айтганда, таниқли адиб Хуршид Дўстмуҳаммаднинг ижодида ҳалоллик призмаси асосий принцип сифатида кўринади. Қуйидаги ўринларда адибнинг Андижон шевасидан унумли фойдалангани асар ютуғини таъминлаган омиллардан бири ҳисобланади десак муболаға бўлмайди: "...Ёқубхўжа эса бойнинг жаҳли чиққанига яраша босиқлик билан бўлса-да, ўпкалади:

"Аши, бир қоп кўсакни куппа-кундузи ўмариб чиқишига нима мажбур қилганини суриштирмадингизку... Жўжабирдай жондир, ҳойнаҳой...." [Х.Дўстмуҳаммад, 2012: 10 июль] Воқеалар жараёнида Миркомилбойнинг характери очилади, унинг тўғрисўзлиги, ҳалол инсонлиги лаҳзада кўз олдингизда намоён бўлади: "Бу ишларинг дуруст эмас... Бир оғиз ризолигим эвазига ҳадя келтирибсизларми, ундан чиқди, ризолик бермаган тақдиримда ортимдан тош отар экансиз-да?!..." [Х.Дўстмуҳаммад, 2012: 10 июль]. Айниқса, шу ўринда Миркомилбойнинг "Хушомадни бандага эмас, Худога қилинглар!" [Ўша асар]деган сўзи эътиборни тортади. Характерида ҳалоллик принципи баланд бўлган маърифатли бойнинг ушбу жавоби ҳам кишини бир лаҳза бўлсада, ўйлашга мажбур қилади. Адибнинг ёзмишлари инсон ҳар сония ва ҳар онда поклик қўшиғини куйлаган, тоза виждон соҳиби, элдошларини илм ва маърифатга чорлаган жадид боболари каби бўлишликни китобхон характерига сингдиради. Қолаверса, бугунги кунда мамлакатимиздаги ҳар соҳанинг ривожи учун ғов ва тўсиқ бўладиган коррупция балосига қарши курашда ушбу асар муҳим дастур-ул амал бўлиб хизмат қилиши табиий ҳол деб ўйлаймиз. Асарда Миркомилбой машҳур маърифатли бой

бўлгани билан унинг ўзига нисбатан айтилган сўзларга эътибор қилмади, ҳаттоки Андижонга машҳур фаранги бойнинг заводини кўчириб келтирмоқчиман. Ашининг маслаҳатига бораман деб айтганди. Шу ниятини айтди-ю, бироқ уни кўролмаган ғанимлар ўрислар ёки бошқа шаҳардагилар эмас, ўзининг ўзбеклари эканини жуда ҳам кеч тушуниб олди. Характеридаги уддабуронлик хислатларини сингдириб берган адиб Миркомилбойнинг унинг ўзини кўра олмаганлар ўз юртидаги яқинлари эканини англатди. Асарни ўқир экансиз, ёзувчининг тарихий ҳақиқатга риоя қилганини воқеаларни бадиийлик фонига асосланган ҳолда тасвирлаганига шоҳид бўласиз. Воқеалар жараёнида Миркомилбойнинг ҳарбий ҳоким билан учрашуви бевосита элнинг фидойи фарзандлари бўлган жадидларнинг қора кунларини ёдга солиб юборди. Жадидларга қўшиб, ҳудудлардан ким кўп одам берса, ўша ҳудуд раҳбарларига мукофотлар беришганини, бегуноҳ одамларни эса, қатл этганларнинг халқимиз бошига солган мислсиз азобли кунларини ёдга олдик. Истиқлол, озодлик, эрк учун ёниб яшаган боболаримиз нима кунларни кўрмади дейсиз? Қуйида ҳарбий ҳоким билан бўлган Миркомилбойнинг суҳбатида ҳам юрагида ҳақиқий Ватан туйғуси учун ёниб яшаган асл фарзандниинг қиёфасини кўргандек бўласиз: “Анжандан қанча мардикор оласиз? – сўради гапни чўзмай. – Нима эди? – ўсмоқчилади муовин. Барининг ҳақини тўлаймиз! Бизнинг йигитлар Рассини ўрмонларида жон сақлаб яшолмайди. Совуқ!...

Муовиннинг ранги гезарди.

– Ў-ў!...Давлатингиз шунчалик зиёдами?...-деб юборди энтикиб.

– Борини бераман....Тўлаймиз, лекин бирогта фарзандимизни жўнатмаймиз!...” Миркомил Мўминбоев машҳур бой бўлсада, юрагида Ватанни тутган, уни кўтариб юрган, чаманзорга буркашни истаган Андижон фарзанди эди. У Анвар пошшо билан суҳбат чоғида “...Миркомил гўё Анвар пошшонинг таклифига розилик бергандек бўлди-ю, ичида нимадир узилиб кетди, қўл-оёғидан мадор қочди. – Жужукларни, наслларни кўчириб келармиз, пошшо ҳазратлари, – деди Миркомил қаҳратонда қолган одамдай совуққотиб.- Лекин ватанни қандай олиб кела-

миз?.. Ватанни кўчириб бўлмайди-ку!..” Ушбу сўздан сўнг Ватан ҳақида бошқаси ортиқча. Юракда чексиз меҳр, Ватанга бўлган эътиқод уни асрашдек энг олий туйғулар бой характерида бўй кўрсатган. Асар сўнггида икки ракаат намозни ўқигунча, тинимсиз ёғилган ўқлар ёмғири остида Аллоҳнинг буюклигига имон келтирган мард инсон образи китобхон кўз ўнгида гавдаланади ва у ҳалок бўлади. Ҳикоянинг кейинги қисми “Тўхтабойнинг бойликлари” ҳикояси билан давом эттирилган. Воқеалар призмасида Тўхтабойнинг Миркомилбой билан боғлиқ фаолият жараёнлари ҳам кўрсатилган. Айниқса, Тўхтабойнинг Миркомилбой исмининг иккинчи қисми билан ўғлининг номини аташи Миркомилбойга бўлган ички ҳурматдан нишонадир. Бироқ, 1937 йил қатағонининг шамоли эса бошлаган дамларда ҳатто ўз уйига киришига имкон бермаган бу жамият миллатнинг фидойиларини оғир азобли дақиқаларни бошидан ўтказишини хаёлига ҳам келтира олмаган Тўхтабойнинг ҳаёти ҳам фожиали якун топади. Тўхтабой ҳам, Миркомил ҳам илмни севган, қадрлайдиган инсонлар бўлишганини бевосита воқеалар тизмасида кўришимиз мумкин. Жадид адабиётининг етук намояндаси Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Падаркуш” асаридаги бой образи билан бевосита асардаги бойларни солиштирсак, уларнинг фарзандлари илмни яхши кўришади, ўқишади, илм ўрганиш учун борини беришга интилади. Лек, “Падаркуш”даги Тошмурод эса илмсизлиги оқибатида ўз отасининг ўлимига сабабчи бўлиб қолади.

Умуман олганда, Хуршид Дўстмуҳаммаднинг “Қазо бўлган намоз” ҳикоясида даврнинг даҳшатлари Миркомилбой, Тўхтабой образига сингдирилган ҳолатда тасвирланади. Адиб ушбу ҳикоя орқали тарихий ҳақиқатни тўғри гавдалантирган. Тасвирдаги рамзийлик, тарихий шахс ҳаётининг маълум бир қирраларидан тўғри хулоса чиқаришга ундаса, давр даҳшатларини чуқурроқ ўрганишда муҳим аҳамият касб этади. Асарнинг тили енгил, осон ўқилади. Ҳикоя китобхонни маърифатли боболаримизга муносиб издош бўлишга ундаши билан китобхон қалбидан муқим жой олгусидир. Бошқача айтганда, ҳикоя бугунги кунларимизнинг қадрига етишга, мустақиллик туҳфа этган тинчликка шукрона айтиб яшашга чорлаши билан аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. А.Чўлпон. Адабиёт надур. – Тошкент: Чўлпон нашриёти, 1994 йил.

2. Uztext.uz Sherali Jo‘rayev/Anda jonim qoldi mening matni.29 dekabr.2023 yil.

3. Хуршид Дўстмуҳаммад.Миркомилбойнинг қазо бўлган намози // Ziyouz.uz, 2012 йил, 10 июль

4. .https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/jahon-adiblari-adabiyot-haqida/

5. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/xurshid-dostmuhammad-qazo-namoz.html

XX ASRNING 20-30-YILLARI ADABIYOTSHUNOSLIGI

ATANIYAZOVA M.A
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.
ataniyazova@mail.ru
+998973557094
(O'zbekiston)

Rezyume: Ushbu maqolada XX asr boshlarida zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining shakllanishida Olim Sharafiddinovning ilmiy va metodik ishlari, ularning nazariy, amaliy ahamiyati haqida so'z qilinadi.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, o'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish, poetik shakl va janrlar, zamonaviy darslik va xrestomatiyalar.

Abstract: This article discusses the scientific and methodological work of Olim Sharafiddinov in the formation of modern Uzbek literary criticism at the beginning of the 20th century, their theoretical and practical significance.

Keywords: literary criticism, periodization of the history of Uzbek literature, poetic forms and genres, modern textbooks and textbooks.

XX asr yangi o'zbek adabiyotshunosligining yirik vakillaridan biri va birinchisi, "Saidolim", "Ayn" taxalluslari bilan maqolalar e'lon qilgan Olim Sharafiddinov hisoblanadi. Olim Sharafiddinovning adabiyotshunoslik ilmi jarayonida uzoq yillar faoliyat ko'rsatishiga taqdir imkon bermaydi. Shunday bo'lsa-da, Olim Sharafiddinov atigi o'n yildan ortiqroq vaqt davomida o'zbek adabiyoti ilmi va tanqidi taraqqiyoti uchun zarur ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ladi. Yangi davr o'zbek adabiyotshunosligi va navoiyshunosligining fidoyi vakillaridan bo'lgan Olim Sharafiddinov turmush tarzi va uning ilmiy faoliyati haqida kam sonli tadqiqotlarda umumiy tarzda fikrlar yuritiladi[1]. Adabiyotshunos olimning butun o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, turkiy tasavvuf adabiyoti va adabiyot nazariyasi haqidagi qarashlari atroflicha o'rganilmaydi. Bu amalga oshirilgan tadqiqotlar-

ni ham ikki xil yo‘nalishda qabul qilish mumkin. Birinchi yo‘nalishga Olim Sharafiddinov haqida zamondoshlari tomonidan yaratilgan ishlar kirsa, ikkinchisiga, keyingi adabiyotshunoslarning olim faoliyatini qisman yoritgan izlanishlari kiradi. Zamondoshlar ham, keyingi adabiyotshunoslik ham ko‘proq olimning hayoti va ijtimoiy-adabiy faoliyati xususida fikr yuritadi. Olimning ilmiy tadqiqot mahorati, adabiy-tanqidiy qarashlari, ilk adabiyotshunos va navoiyshunos sifatida adabiy-tanqidiy qarashlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, yutuq va nuqsonlari alohida muammo darajasida ochib berilmaydi. Yozuvchi Jumaniyoz Sharipov, tanqidchi Homil Yoqubov olimning davr adabiyotshunosligidagi o‘rni, ijtimoiy-adabiy faoliyati miqyosi haqida so‘zlaydi. Adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulov ilmiy-ijodiy hayotini yoritadi, taniqli olim Ozod Sharafiddinov ayrim tanqidiy qarashlariga o‘z munosabatini bildiradi. Shuningdek, Elyor Erikovich Karimov ham bobosi Olim Sharafiddinov biografiyasi haqida tarixiy faktlarga suyangan holda o‘z fikrlarini bildiradi. Ya’ni, Olim Sharafiddinov ilmiy-ijodiy faoliyati bois yangi davr o‘zbek adabiyotshunosligi va navoiyshunosligi shakllanish davriga kirdi.

Adabiyotshunos o‘zbek mumtoz adabiyotini davrlar va bosqichlarga ajratish borasida alohida tadqiqot yaratgan emas. Biroq uning qalamiga mansub ilmiy tadqiqotlar, xususan, “Tanlangan asarlar”ida, maktablar uchun yozgan darslik va qo‘llanmalarida, maqolalarida o‘zbek adabiyoti tarixi ma’lum davrlar va bosqichlar asosida tadqiq etiladi. Bu tadqiqotlar umumiy mazmuni va obyektidan kelib chiqib, undagi adabiy-tanqidiy qarashlarni muayyan davrlar o‘zbek adabiyoti, badiiy ijod vakillariga ajratish mumkin.

Olim Sharafiddinov o‘zbek xalq og‘zaki ijodi yoki qadimgi turkiy yozma yodgorliklar haqida ham ilmiy kuzatishlar olib boradi, o‘zbek adabiyotining bu noyob durdonalarini milliy adabiyot poydevori sifatida nihoyatda qadrlaydi. U bir o‘rinda “... o‘zbek folklori juda boy va buyuk badiiy asarlarga egadir... Xalq og‘zaki she’riy ijodiyoti o‘zining butun o‘sish bosqichlarida porloq realistik san’atning namunasi bo‘lib keldi. O‘zining butun janrlarida va turlarida (afsona, fantastik hikoya, tarixiy naql, ertak, qo‘shiq, maqol, doston) har vaqt realistik tendensiyani aktiv romantik xarakterdagi tendensiya bilan birlashtirdi. Xalq ommasining, folklor asarlari yaratuvchilarining te-

tik ijodiy-g'oyaviy xususiyati mana shunda ravshan ko'rinadi. Ularning turmushga tetik, o'tkir munosabatlari, umuminsoniyatning porloq kelajagiga, mehnat, adolat, haqqoniyat, yaxshilik, quvonch, baxtning kelajakda tantana qilishiga chuqur ishonchlari folklor asarlarida barq urib turadi", – deydi [Olim Sharafiddinov, 1978:38]. Ushbu fikrlarning o'ziyoq olimning og'zaki adabiyot to'g'risida qarashlari teran ekanligini ko'rsatadi. Olim og'zaki adabiyot haqida tadqiqotlari jarayonida fikr yuritadi yoxud qarashlarini o'zi yoki hamkorlikda yaratgan maktab darsliklari sahifalariga kiritadi. Shu tariqa og'zaki adabiyot namunalarini o'quvchi va kitobxonlar e'tiboriga havola etadi.

Olim Sharafiddinov o'zbek adabiyoti rivoji bosqichlarida islom va tasavvuf ta'limoti muhim o'rin tutganligini anglaydi. Bu olamshumul hodisa mumtoz adabiyot g'oyaviy-badiiy olamida doimiy ravishda ifodalanib kelinganligini tushunadi. Shu bois o'zbek adabiyoti taraqqiyotining muayyan bir davrini islomiy tasavvuf adabiyoti bilan bog'laydi. Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy – Hakim ota, Nosiriddin Rabg'uziy, Ali, Shayx Sharof, Durbek, Sayid Ahmad, Xoja Ahrori Vali, Alisher Navoiy, Mashrab va boshqalar faoliyati hamda diniy-tasavvufiy mazmundagi asarlari haqida garchi sobiq sho'ro mafkurasi ta'siri ostida bo'lsa ham o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. Bu fikr-mushohadalarda davr siyosati birmuncha ustuvorlik qilsa-da, mohiyatga yaqinlashish va uni anglash nuqtalari yorqin seziladi. Misol uchun olim bir o'rinda: "Temuriylar davrida ilm, adabiyot so'fiylik ta'siridan butunlay qutila olmagan edi. Biroq, bu davrdagi so'fiylik dunyoviylik kasb etdi. U yassaviylikdan butunlay boshqa bo'lgan naqshbandiylik edi. Naqshbandiylik oqimining vakillari "Ko'ngling xudoda, o'zing bozorda bo'l", "xilvatni (chillani) jamiyatda qil" kabi shiorlarni ilgari surdilar. Ya'ni, bu dunyoning lazzatini, ishratini sur, lekin xudoni, oxiratni unutmasang bo'ldi, deydilar. Bu oqim, hatto, hukumat tomonidan rasmiy, diniy e'tiqod sifatida qabul etildi... naqshbandiylik... zo'r ta'sirga ega bo'ldi va keng tarqaldi... bu zamonda yetishgan Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy singari yozuvchi-shoirlarda bu ta'sirni ochiq ko'ramiz" – deydi [Olim Sharafiddinov.1978.21-bet]. Olim naqshbandiylik tariqati davr hayoti bilan birga adabiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatganligini inkor qilmaydi.

Shu o'rinda o'zbek mumtoz adabiyotini tadqiq etganda Olim Sharafiddinov qarashlarida va umuman adabiyot ilmi vakillari tomonidan ko'p bora tilga olinadigan "dunyoviy adabiyot" iborasiga e'tibor berish kerak. Jumladan, Olim Sharafiddinov ham "dunyoviy adabiyot namunalari", "dunyoviy adabiyot vakillari", "dunyoviy ruhdagi adabiyot" singari tushunchalarni ko'p ishlatadi. Hatto, Olim Sharafiddinov fikricha, bu holat o'zbek adabiyotining bir davri sifatida baholanadi.

Badiiy ijod namunasini "uxroviy yoki dunyoviy" tarzda tasnifi ham muayyan ma'noda keyingi yillar adabiy-estetik qarashlari mahsuli sanaladi. Chunki, bunday tasniflash, ya'ni adabiyotni diniy va dunyoviy xillarga ajratish Sharq adabiyotida ko'zda tutilmagan edi. Unda adabiyot qanday mavzularni aks ettirgan bo'lmasin, u har doim badiiy-estetik tafakkur va nafosat odobi ma'nosini anglatgan.

Adabiyotshunos Olim Sharafiddinov san'atning har qanday namunasi dunyo mulki ekanligi va unda kechinmalar ilohiy yoki dunyoviy mavzular orqali ifoda etilishini yaxshi anglaydi, ammo unga mustabid mafkura xohishi va talabi bilan baho berishga majbur bo'ladi. Olim Sharafiddinov "diniy tasavvuf ruhidagi adabiyot o'z o'rnini dunyoviy adabiyotga bo'shatib bera boshlashi"ning yana bir sababi "bu adabiyotda tez o'sayotgan shaharning, savdo-tijoratning ta'siri juda ravshan ko'ringan"ligida deb qayd etadi. Bundan ko'rinadiki, olim adabiy masalalarni ham ijtimoiy-siyosiy hayot taraqqiyoti bilan bog'laydi.

Mumtoz adabiyot tarixida turli maqom vakillari, xususan, anbiyolar, so'fiy-avliyolar, shoh-u darveshlar va boshqalarga bag'ishlangan xalq kitoblari mashhur edi. Olim Sharafiddinov davr badiiy ijodining bu turini "xalq adabiyoti" deb zikr etadi. Uning fikricha, bu adabiyot "dunyoviy ruhda bo'lgan", "xalqqa oziq bergan", "xalqning kurashlarini ifodalagan", "biroq xalq adabiyoti namunalaridan bizgacha kam yetib kelgan" [Olim Sharafiddinov, 1978:23]. Hozirgi kun o'zbek adabiyotshunosligida "xalq adabiyoti" bo'yicha birmuncha ilmiy tadqiqotlar yaratildi, dissertatsiyalar yozildi. Ammo xalq kitoblari o'zining to'liq bahosini oldi, degan xulosadan yiroqmiz. Agar xalq kitoblari yig'ilsa, bu borada maxsus tadqiqotlar yaratilsa bu ham olim tajribalaridan amaliy saboq bo'lar edi, deb o'ylaymiz.

Ma'lumki, XIX asr oxirlari va XX asr boshlari o'zbek adabiyoti

tarixida yangi bir davr – jadidchilik davri adabiyoti vujudga keladi. Bu davr adabiyoti ilk bora ozodlik, erk va hurlik masalalarini o'z mafkurasi darajasiga olib chiqdi. O'zbekistonda umumta'lim maktablari uchun bevosita darslik yaratish tajribasi XX asrning boshlaridayoq vujudga kelgan. Bu sohada dastlabki qaldirg'ochlar jadid ma'rifatparvar adiblari edi. Abdulla Avloniy, Fitrat, Munavvarqori, Hamza va boshqa ma'rifatchilarning dastlabki darsliklari shular jumlasidandir. Bevosita adabiyot fanidan ilmiy-pedagogik asosda yaratilgan darslik sifatida Fitratning "O'quv. Boshlang'ich maktablarning so'ng sinf o'quvchilari uchun" (1917-yil) darsligini ko'rsatish mumkin. [Fitrat, 2006:332] Bu daslik bir necha o'n yillar davomida adabiyotdan ilk saboq berishga xizmat qilib kelgan. Shundan keyin adabiyotdan nazariy bilim beruvchi qo'llanmalar yaratila boshlandi. Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" (1925), Fitratning "Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari va havaslilari uchun" (1926) qo'llanmalari shular jumlasidandir.

Olim Sharafiddinov o'ndan ortiq darslik va qo'llanmalar yaratgan. Ular orasida XIX va XX asrlar adabiyoti materiallarini jamlagan 7-sinf uchun "Adabiyot darsligi" (1937; 1939), o'zbek adabiyoti tarixining XV-XIX asrlar davri haqida ma'lumot beruvchi 9-sinf uchun "Adabiyot darsligi" (1939) va J.Sharifiy bilan hammualliflikda tuzilgan 5-sinf uchun "Adabiyot" (1940) darsliklari aytib o'tishimiz mumkin. Shuningdek, Olim Sharafiddinovning adabiy tanqid sohasidagi, xususan, Cho'lpon va Abdulla Qodiriy ijodlariga bag'ishlangan dastlabki maqolalari XX asrning 20-yillarida e'lon qilingan. Shuningdek, Hamza, S.Ayniy, Uyg'un, A.Lohutiy va boshqalar ijodi haqida ham bir qancha maqolalar yozgan.

Olim tomonidan tayyorlangan "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi (XV – XIX asrlar)" 1941-yili nashrga berilgan, lekin kitob mavjud sharoit taqozosi bilan 1945-yili chop qilingan, 3000 nusxada va 705 sahifani tashkil etadi. Olim bu kitobning asosiy qismida 50 nafar ijodkorning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berib, asarlaridan namunalar keltirgan. Diqqatni tortadigan yana bir tomoni "Umarxon davridagi Farg'ona shoirlari" degan kichik bir bo'limda adabiy jarayondagi g'azal va nazira janri poetikasi, yutuq va kamchiliklariga baho berish barobarida, aynan, shu joyda 19 nafar shoir ijodi namu-

nalarini adabiy-tanqidiy qarashlarining isboti sifatida bir yerga jamlagan (ularning har biriga alohida to‘xtalib o‘tirmagan). Tarixiy qism, deb nomlangan bo‘limda tarixiy asarlardan namunalar keltiradi. Yana ahamiyatli tomonlaridan biri, namunalarda ishlatilgan ayrim arabcha, forscha so‘zlarning lug‘ati ham berilgan bo‘lib, bu qism 41 sahifani tashkil etadi.

XX asrning 20-30-yillari o‘zbek adabiyotshunosligida bo‘lgani kabi Olim Sharafiddinov ilmiy faoliyatida ham o‘zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirish, muayyan bosqichlar asosida tadqiq etish tamoyillari kuzatiladi. Bunda masala faqat tadqiqotlar jarayonida yoki yaratilgan darslik va qo‘llanmalarda o‘zbek mumtoz adabiyoti bosqichlari asosida tahlil etiladi. Aynan shu kabi ishlarda o‘zbek adabiyoti tarixi davr va ichki xususiyatlari bilan ochib beriladi. Olim Sharafiddinov 20-30-yillar davomida adabiyotga oid o‘nlab darslik va qo‘llanmalar yaratdi, ular garchi davr talabi bilan ayrim mafkura doirasida bitilgan bo‘lsa-da, asl mazmuni bilan o‘zbek adabiyoti tarixini yoshlarga singdirishga qaratildi, adabiyot tarixining muhim bosqichlarini aniqlab, yetuk adiblar hayotiga oid lavhalari bilan ahmiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Олим Шарафиддинов. Танланган асарлар (Тўпловчи ва нашрга тайёрлаган ф.ф.н. Э.А.Каримов). – Тошкент: Фан, 1978. – Б.304.

2. Олим Шарафиддинов. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси (XV-XIX асрлар). – Тошкент.: Ўзбекистон Давлат нашриёти, 1945. – Б.704

3. Расулов А. Нурли нигоҳ // Жаҳон адабиёти, 2004. № 6. - Б. 155-160;

4. Расулов А. Шарафли Шарафиддиновлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 80;

5. Шарипов Ж. Мураббий, олим, жангчи // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. №5. – Тошкент: 1965. – Б. 12-17;

6. Озод Шарафиддинов. Чўлпонни англаш: (Мақолалар). – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – Б. 48.

BEHBUDIY VA ISLOM: MA'RIFAT ORQALI UMMATNING YUKSALISHI YO'LIDAGI HARAKAT

Arslonov Abdimurod Karomatovich
PhD, dotsent Termiz davlat universiteti
e-mail: arslonova@tersu.uz
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Mazkur maqola Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatining islom dini targ'iboti va islomiy qadriyatlarni zamonaviy ruhda talqin etishdagi o'rnini tahlil qiladi. Jadidchilik harakatining yetakchi vakili sifatida Behbudiy diniy-ma'rifiy islohotlar, matbuot faoliyati va siyosiy harakatlar orqali musulmon jamiyatini uyg'otishga harakat qilgan. Maqolada Behbudiyning islomga yondashuvi, diniy tafakkuri va milliy g'oya bilan uyg'unligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Behbudiy, jadidchilik, islom, ma'rifat, matbuot, milliy g'oya, jadid maktablari

Abstract: This article analyzes the role of Mahmudkhuja Behbudi in the promotion of Islamic values and religious enlightenment in the early 20th-century Turkestan. As one of the leading figures of the Jadid movement, Behbudi interpreted Islam not only as a spiritual and ritual system but also as a force for social reform, education, and national revival. Based on his writings published in Oyna, Samarkand and other press outlets, the article explores Behbudi's efforts to harmonize Islamic teachings with modern knowledge and national identity.

Keywords: Behbudi, Islam, Jadidism, enlightenment, national idea, press, religious reform

Jadidchilik – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston, Qrim, Volga bo'yi va Kavkaz mintaqalarida tarqalgan islohotchi harakat bo'lib, uning asosiy maqsadi musulmon jamiyatlarini savodli, taraqqiyparvar va zamonaviy qilish edi. Bu harakatning a'zolari jadidlar deb atalgan.

Jadidlar Islom dinini jamiyat taraqqiyotiga to'siq deb hisoblamasdan, aksincha, uning islohotlar asosi bo'lishi kerakligini ta'kid-

lashgan. Ular Islom ta'limotiga asoslangan holda zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishni targ'ib qilish bilan birga zamonaviy bilimlarning manbai, aynan, islom ekanligini to'g'ri anglab, islomni faqat ibodat ilmi deb emas, balki dunyoviy ilmlarning umumiy qonuniyati aynan islomda bayon etilganini ta'kidlashgan va islomni to'g'ri tushinishga chorlashgan. Bu yo'lda dastlab ta'lim sohasida islohotlar amalga oshirish lozimligiga urg'u berishdi.

Jadidlar an'anaviy madrasalar o'rniga yangi usul (usuli jadid) asosida ta'lim beruvchi maktablar tashkil qilishgan. Bu maktablarda nafaqat islomiy fanlar, balki matematika, geografiya, tarix va fan-texnika kabi dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Jadidlar Islom jamiyatining mustahkam bo'lishi uchun uning vakillari savodli, zamonaviy ilm-fan va sanoat bilan tanish bo'lishi kerak deb hisoblashgan. Shu bois ular gazeta va jurnallar chiqarib, musulmonlar orasida ilm va madaniyatni taraqqiy ettirishga harakat qilishgan.

Jadidlar Islom ta'limotidagi adolat, mehnatkashlik va insonparvarlik kabi qadriyatlarni jamiyatda tatbiq etishni maqsad qilgan. Ular xalqning huquqlarini himoya qilish, mustamlakachilikka qarshi turish va milliy ozodlikni qo'llab-quvvatlash tarafdori bo'lishgan.

Jadidchilik Islom dinini faqatgina ibodatlar tizimi emas, balki jamiyat taraqqiyoti uchun muhim kuch sifatida qarashni shakllantirgan. Bu harakat tufayli musulmonlar o'rtasida yangi ta'lim va madaniyatga bo'lgan qiziqish orta boshladi.

Jadidchilikning Islomga va musulmon jamiyatiga ta'siri juda katta bo'lgan, ammo Sovet davrida bu harakat qat'iy cheklangan va ko'plab jadidlar ta'qib qilingan. Shunga qaramay, ularning g'oyalari hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga ega.

Jadidchilik – musulmon xalqlarining intellektual va ijtimoiy uyg'onishiga sabab bo'lgan harakatdir. U XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston, Qrim, Volga bo'yi, Kavkaz va Buxoro amirligida keng tarqalgan.

Jadidchilikning paydo bo'lishi bir necha omillar bilan bog'liq.

Birinchidan, musulmon mamlakatlarining qashshoqligi va ilmiy qoloqligi. Yevropada sanoat va fan taraqqiy etayotgan bir paytda, musulmon jamiyatlari asosan an'anaviy tarzda yashar edi. Ularda zamonaviy ilm-fan, iqtisodiyot va siyosiy tizimlar yetarlicha rivojlan-

magan edi, ikkinchidan, rus imperiyasining mustamlakachilik siyosati. Turkiston va Qrimda rus hukumati musulmon aholisini iqtisodiy va siyosiy jihatdan bosim ostida ushlab turishga harakat qilgan. Shuning uchun jadidlar milliy uyg'onish va ozodlik harakatini qo'llab-quvvatlashgan, uchinchidan, Ta'lim tizimining zaifligi. An'anaviy madrasalarda asosan islomiy fanlar o'qitilar, ammo jahon tarixi, geografiya, matematika va tabiiy fanlar e'tiborsiz qolgan. Jadidlar ta'limni yangi usullar bilan rivojlantirishni taklif qilishgan.

Jadidlar safida ko'plab ziyolilar va islohotchilar bor edi. Ular musulmonlarning ma'naviy va madaniy uyg'onishi uchun harakat qilishgan. Jadidlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

Yangi usul maktablarini ochish. Jadidlar ta'limni zamonaviylashtirib, maktablarda islomiy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlarni ham o'qitishni yo'lga qo'yishgan.

Matbuot va adabiyot rivoji. Gazeta va jurnallar orqali xalqni savodli qilishga harakat qilishgan. Masalan, "Taraqqiy", "Turon", "Turkiston viloyati gazetasi", "Sho'roi Islomiya" kabi nashrlar chiqarilgan.

Ijtimoiy va siyosiy islohotlar. Jadidlar musulmonlarning siyosiy huquqlari va mustaqilligi uchun kurashishgan. Ular yer masalasi, ayollar huquqlari va ijtimoiy adolatni himoya qilishga harakat qilishgan.

Islomni zamonaviylashtirish. Jadidlar diniy islohotlar kerak deb hisoblashgan. Ular Islom dinini haqiqiy mohiyati bilan tushunishni, turli xurofotlardan xalos bo'lishni targ'ib qilishgan.

Jadidchilik harakati Sovet hukumati kelishi bilan bosimga uchradi. 1920-1930-yillarda ko'plab jadidlar "milliy dushman" deb e'lon qilinib, qatl etildi yoki qamoqqa tashlandi. Biroq, jadidlar g'oyalari butunlay yo'q bo'lmadi. Ular ta'lim, madaniyat va milliy o'zlikni shakllantirishda ulkan hissa qo'shgan.

Ana shunday o'zlikni anglashga va uni shakllantirishga ulkan hissa qo'shgan jadid Mahmudxo'ja Behbudiydir. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) – mashhur jadidchi, islohotchi, mutafakkir va matbaachi bo'lib, islom dini va uning ijtimoiy hayotdagi o'rni haqida ko'p fikr yuritgan. U diniy bilimga ega bo'lib, islomni jamiyatning ma'rifiy va madaniy taraqqiyoti uchun muhim asos sifatida ko'rgan.

Behbudiy islomni tushunishda an'anaviy va zamonaviy qarashlarni birlashtirgan holda, uning ijtimoiy foydali tomonlarini oldinga surgan va dinni jaholatdan chiqishning muhim vositasi deb bilgan.

Behbudiy an'anaviy madrasa ta'limoti bilan tanish bo'lib, islomiy ilmlar – tafsir, hadis, fiqh va aqida bo'yicha yaxshi bilimga ega edi. Uning qarashlarida Islomni faqat ibodat tizimi sifatida emas, balki axloqiy va ma'naviy islohot vositasi sifatida ko'rish, dinni jaholatdan chiqish uchun bilim vositasi sifatida tushunish, Islomdagi ilm va ma'rifatga chaqiruvchi oyat va hadislarni ta'kidlash kabi g'oyalar ustuvor bo'lgan.

Uning fikricha, islom shariati faqat diniy ibodatlar yig'indisi emas, balki inson hayotini tartibga soluvchi tizim bo'lib, u ma'rifat, adolat va taraqqiyotga yo'l ochishi kerak.

Jadidchilik harakati vakillari islomni ilmiy taraqqiyot va ma'rifat bilan uyg'unlashtirishni maqsad qilgan. Behbudiy ham shunday fikrda bo'lib, u din va ilm o'rtasidagi aloqani kuchaytirishni muhim deb bilgan. Uning qarashlariga ko'ra Islom ilm va taraqqiyotni qo'llab-quvvatlaydi, diniy ta'lim jamiyatning rivojlanishiga yordam berishi kerak, savodsizlik va xurofot islomning asl qiymatlariga ziddir. U an'anaviy ta'limning ba'zi zaifliklarini tanqid qilgan va islomiy bilimni zamonaviy ilmlar bilan boyitishni taklif qilgan.

Behbudiy o'zining maqolalarida islomdagi to'g'ri tushunish va islohot zarurati haqida ko'p yozgan. Uning fikricha, Islomiy ta'lim faqat shar'iy ilmlar bilan cheklanib qolmasligi kerak, fiqh va islomiy huquq zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda rivojlanishi lozim, haqiqiy islom insonni faollikka va ilm olishga undaydi. U jamiyatning o'zgarishlariga qarab, din va shariatni tushunishda islohotlar kiritish kerakligini ta'kidlagan.

Behbudiy dinni noto'g'ri tushunish va uning nomidan qilingan xatolar musulmon jamiyatlarining taraqqiyotdan orqada qolishiga sabab bo'lgan deb hisoblaydi. U islom dinini ilm va ma'rifat dini sifatida talqin qilgan va uni jaholatdan chiqishning asosiy kaliti deb bilgan. Uning asarlarida xurofot va bilimsizlikka qarshi kurash, Islom va zamonaviy ilmlarni uyg'unlashtirish, musulmon jamiyatlarini savodli qilish g'oyalari asosiy o'rin tutgan.

Behbudiy islom va ma'rifat g'oyalarini omma orasida keng tarqa-

tish uchun matbuotdan foydalangan. U 1913-yilda "Oyina" gazetasini tashkil etib, u orqali diniy, ilmiy va ijtimoiy mavzularda maqolalar chop etgan. Uning maqolalarida diniy islohot va yangi usul maktablarining ahamiyati, Islomda ilm va ma'rifatning roli, savodsizlik va xurofotga qarshi kurash kabi mavzular ko'tarilgan. Bu gazeta islomiy modernizm va jadidchilik g'oyalarini targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etgan.

XX asr boshlarida Turkiston musulmon jamiyati siyosiy va ijtimoiy jihatdan tanazzulga yuz tutayotgan edi. Millat ongi va islomiy qadriyatlar saqlanib qolinsa-da, ularni amaliy hayotga tatbiq qilishda murakkabliklar mavjud edi. Ana shunday vaziyatda Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining din va ma'rifat uyg'unligiga asoslangan faoliyati orqali xalq ongini uyg'otishga harakat qildi.

Behbudiy ulamo va diniy islohotchidir. Behbudiy diniy ta'limni dastlab otasi va tog'asi huzurida olib, fiqh, nahv, mantiq, tafsir kabi fanlarni chuqur o'rgangan [Karimov.2005]. U "mufti" unvoniga ega bo'lib, uzoq yillar fatvo va huquqiy masalalarda jamoatga xizmat qildi. Ammo uning asosiy xizmati – diniy bilimlarni xalqqa tushunarli va hayotiy qilib yetkazishda namoyon bo'ldi. "...Musulmonlar ilmsizlik sababidan ortda qolmoqdalar. Ilm bor joyda islomning haqiqiy yuzi ko'rinadi." ["Oyna", 1907, №3]

Behbudiy islomni ma'rifat va zamonaviy bilimlar bilan uyg'un holda talqin etdi. U maktablar ochish, bolalarni har tomonlama o'qitish, ayollarni o'qitish, til va urf-odatni asrashni islomiy burch deb bilgan. "Usul-u jadid maktablari – ummatning kelajagiga nur sochuvchi shamdir." ["Oyna", 1909, №12]

Behbudiy Qur'onni nafaqat marosimiy o'qish, balki fikrlash, ijtimoiy hayotni yaxshilash, bilimga undash manbai sifatida targ'ib etdi: "Qur'on – ilm kitobi... lekin biz uni qabr ustidagina tilovat qilamiz." ["Oyna", 1910]

Behbudiy fikricha, islom e'tiqod va axloq bilan birga, siyosiy ongni uyg'otuvchi g'oyaviy kuchdir. U mustamlakachilikka qarshi kurashda ham diniy ruh va milliy g'ururni uyg'otishga harakat qilgan. "Biz ozod bo'lmas ekanmiz, islomni ham erkin amalga oshira olmaymiz." ["Samarqand", 1906], deb ta'kidlaydi o'zining matbuotdagi chiqishlarida.

Behbudiy asarlarida islom va milliy g‘oya bir-birini to‘ldiradi. U milliy libos, urf-odat, til va madaniyatni saqlashni islomiy qadriyatlar bilan uyg‘un holda talqin qiladi. “Millat kiyimi, tili, urf-odati – Islom ruhi bilan uyg‘unlashsa, millat abadiy yashaydi.” [“Oyna”, 1911, №4]

Mahmudxo‘ja Behbudiy – XX asr boshida islom dinini yangi zamon ruhida talqin qilgan buyuk mutafakkir, ulamo va islohotchidir. Uning fikricha, islom faqat ibodat va aqiyda emas, balki taraqqiyot, axloq va siyosiy ozodlik manbaidir. U matbuot, maktab va siyosiy harakatlar orqali bu g‘oyalarni keng jamoatchilikka yetkazgan. Uning bugungi kunimiz uchun ham dolzarb bo‘lgan g‘oyalari milliy g‘oya va ma’naviyatni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2012.

2. Behbudiy M. Oyna jurnali maqolalari. 1906–1911.

3. “Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati”. Toshkent: “Sharq”, 2014.

4. Qosimov B. Jadidlar va millat. T.: O‘zbekiston, 1997.

5. Karimov N. Uyg‘onish saboqlari. T.: Akademnashr, 2005.

6. Oybek. Behbudiy haqida xotiralar. “Sharq yulduzi”, 1967.

ZORIY, ZAVQIY, HOFIZ IJODIDA ANDIJON ZILZILASI TAFSILOTLARINING MUSHTARAK JIHATLARI

Oybek BARZIYEV,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Lochinbek SOTVOLDIYEV
Farg'ona davlat universiteti filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 4-bosqich talabasi (O'zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo'qon adabiy muhiti vakillari Usmonxo'ja Zoriy, Zavqiy, Hofiz ijodida o'tgan asrning boshlarida Andijon shahri hududlarida yuz bergan zilzila tafsilotlari tasvirlangan muxammaslari qiyosiy tahlil qilingan. Mazkur muxammaslarning umumiy jihatlari, g'oyaviy-mazmuni mushtarakligi va adabiy ta'sirdorligi o'rganilgan.

Kalit so'z: muxammas, zilzila, lirika, ta'rix, g'azal, band, realistik uslub, adabiy muhit

Abstract. This article presents a comparative analysis of the epics of the Kokand literary community, Osmankhodja Zoriy, Zavqiy and Hafiz, which describe the details of the earthquake that occurred in the Andijan region at the beginning of the last century. The general aspects, commonality of ideological and content, and literary impact of these epics are studied.

Keywords: epic, earthquake, lyrics, history, ghazal, band, realistic style, literary environment.

O'tgan asrning boshlarida Andijon shahri hududlarida tasodifan yuz bergan zilzila tarixda va xalqimizning xotirasida o'chmas iz qoldirdi. Andijon aholisining boshiga tushgan bu talofat va u keltirgan ayanchli voqeliklar haqida Farg'ona vodiysining qator ijodkorlari o'z lirik asarlarida bayon qildilar. Shoirlar zilziladan keyingi Andijon xalqining ijtimoiy hayotidagi og'ir yo'qotishlar, insonlarning mod-

diy zarar ko‘rganliklari haqida aniq faktlarga asoslangan raqamlarga murojaat qilib realistik uslub orqali yoritib berishga intilganlar.

Qo‘qon adabiy muhitining yetakchi namoyandalaridan biri Usmonxo‘ja Zoriyning 10 bandlik muxammasida zilzila keltirgan ko‘rguliklarni tasvirlash usuli yetakchilik qiladi. Shoir muxammasida Andijonning avval obod ekanligi aytilib, g‘oyibdan kelgan bu ovozdan aholi bexabar qolganligi hamda uning oqibatlari xalqining achinarli holatlari tasviriylik orqali realistik uslubda yoritiladi:

Qoldi tom ostida – bo‘ldi necha mo‘minlar halok,
Dod etib, piru juvon, gahvorada atfoli pok,
Qiz ono, o‘g‘li otoni furqatida dardnok,
Dog‘i farzandi bila ba’zi yuragi chok-chok,
Bu musibatlar qo‘pub, bag‘ri erur qon Andijon [Abdullayeva, 2012: 110].

Muxammasning keyingi bandida Muqimiy ta’rix janridagi she’rida qo‘llangan og‘ir jarohatlangan yaradorlarga ko‘mak bergan rus vrachlarining insonlar dardiga malham bo‘lganligi va ular olib borgan sa’y-harakatlari yanada haqqoniy asoslanadi. Farqli jihati Muqimiy talofatdan keyingi holat haqida yozsa, Zoriy zilzilaning ayni damda bechora odamlarga qattiq shikast yetkazgani haqidagi ayanchli epizodlar bilan tanishtiradi:

Ul zamon jon vahmiga tushgon o‘shal bechoralar,
Pirahan topmay shoshilgandir, base, ovoralar,
Har kim o‘z holi bila yig‘lab sa’bu sherxoralar,
Bosh yorulgon, qo‘l-oyog‘ singon, tanidur yoralar,
Shukr, aning qolgonlarining har kunda chandon Andijon.

Muxammasning keyingi bandida o‘sha kuni osmonda oyning kuyib quyoshning tutilishi haqida aytilib Zoriy zamondoshlari ijodida qo‘llagan zilzila paytidagi shaharning ob-havosi, zilziladan keyin qor yog‘ishi haqidagi an’anaviy tasvir usuli yetakchilik qiladi:

Oni uzra oy kuyib, tokim tutuldi oftob,
Necha kun boron anga yog‘di, diyor o‘ldi xarob,
Ketsalar jomi ajaldin no‘sh etib el ijtinob,
Lahzada bir mamlakat xalqi bo‘lib zeri turob,
Dilda qoldi, orzuga yetmay, armon, Andijon.

O‘z hajviy she’rlari bilan mashhur Ubaydulla Solih o‘g‘li Zavqi-

yning “Ajab zamona” she’riy to‘plamiga ham uning “Zilzilai Andijon” sarlavhali muxammasining dastlabki bandi kiritilgan. Lekin muxammasning qolgan bandlarining asl qo‘lyozma nusxalardagi qolgan bandlar yo‘qolganligi haqida aytib o‘tilgan. Shu sababli, ular to‘plamga kiritilmagan. Shoir muxammasida ham uning boshqa zamondoshlari ijodida uchragan zilzila tafsilotlarining bayoni keltirilgani holda uni xalq boshiga Yaratgan in’om qilganligi xususida gap boradi. Shoir Andijon mulki bir soat ichida vayron bo‘lganligi, buning kasofatiga esa odamlarning qilgan yomonliklari sabab bo‘lganligini aytib o‘tadi:

Bul ajoyib hodisa, ko‘r, xalqni vayron ayladi,
Andijon mulkini bir soatda vayron ayladi,
Bul kasofat ul sharoratdin namoyon ayladi,
“Birniki, mingga, tumanga” ham parishon ayladi,
Hazrati Jabbori A’zam yerni yakson ayladi [Zavqiy, 2003: B.90].

Andijon adabiy muhitining yana bir vakili Abdulmajid Hofiz (1870-1967)ning “Tarixi zilzilai Andijon” nomli 28 baytli voqeaband usulidagi g‘azalida ham mazkur xalq boshiga bexos yog‘ilgan voqealar tafsilotlari bayon qilinadi. Shoir ham vatandoshi kabi zilzilaning Xudo amri bilan yuz berganligi va talofatdan zarar ko‘rgan Andijon aholisining yaralangan, majruh holatlarini ularga yurakdan achingan holda tasvir etadi:

Xudo amri bila nogoh bo‘lub bir zilzila paydo,
Nigorin kasri oliylar xarobu nobakor o‘ldi.

Qolib devor ostida, xalok o‘ldi necha mardum,
Bu g‘amdin Andijon ahli base zoru figor o‘ldi [Кўҳна садолар, 2020:166].

Shoir g‘azalining to‘rtinchi baytida uning zamondoshlari qo‘llagan, bu diyorning avvallari tengsiz bo‘lgan ob-havosi, dilkusholigi, jannatga qiyos bo‘lgan bu joyning bexos butkul o‘zgarganligi aytiladi.

G‘azalning o‘n ikkinchi va o‘n uchinchi baytida shoirning zamondoshlari ijodida qo‘llagan zilzila yuz bergan vaqti, hijriy yil va oy, kuni haqida fikr yuritiladi:

Sana ming erdiyu uch yuz yigirma sol hijriydin,
Zamin tebrandiyu, Haq amri birla beqaror o‘ldi.

O‘n oltinchi edi seshanba kun mohi muborakdin,
Zuhur etdi banogah zilzila, xashr oshkor o‘ldi.

O‘n yettinchi baytda zilzila bo‘lishiga sabab qidirgan holda aholining jahli, yomon illatlarga ortiqcha ruju’ qo‘yganliklari bo‘lib, u yolg‘iz parvardigorning xohishi ekanligi haqida bayon qilinadi:

Qilubdur ba’zi mardum sarzanish jahli zarrai beamri Haq hargiz,
Na sandandur, na Mandan, xohishi Parvardigor o‘ldi.

Xullas, XX asr boshlarida Andijon xalqi boshiga kelgan mash’um voqea Farg‘ona vodiysining qator shoirlari ijodiga an’anaviy mavzu sifatida kirib keldi. Shoirlar ushbu talofatning yoritishda an’anaviy xronotop, ya’ni zamon va makonni ifoda etishda bir-birlaridan adabiy ta’sirlanganligi seziladi. Ularning lirik asarlarida g‘oyaviy-mazmunning mushtarak jihatlarini sezish orqali bu yurtning real hayotiga yurakdan achinish hissi ham uyg‘un holda ifoda etilganligi ahamiyatli jihatlardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva D. O‘zbek adabiyotida an’anaviy poetik turkumlar (XIX asr II yarmi va XX asr boshlari). – Andijon: Hayot, 2012.

2. Zavqiy. Ajab zamona. She’rlar / To‘plab nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, lug‘at va izohlar mualliflari: Madaminov A., Turdialiyev A. – Toshkent: 2003.

3. Кўҳна садолар (Манзур, Ожиз, Мунтазир, Бимий, Муҳиб, Пиримқори, Ҳофиз, Муштоқ, Мавжий) / Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Мадғозиев И проф.Қуронов Днинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Akademnashr, 2020.

ЧЎЛПОННИНГ РАМЗЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ

Умурзаков Р.М.,
филология фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD),
ФарДУ, Ўзбекистон.
+99890 230 26 90

Аннотация. Ушбу мақолада ўзбек жадид адабиёти намояндаси А.Чўлпоннинг туркум шеърларидаги рамзлар бадиий тил нуқтаи назаридан таҳлил қилинган.

Калит сўз ва иборалар: Чўлпон, рамз, тимсол сўз, бадиий матн, ички ва ташқи шакл, лирик қаҳрамон.

Annotation. In this article the poems of Cholpon are analysed from the point of creative language. The inner world of author and character are revealed by artistic (literary) words.

Key words and phrases: Cholpan, symbol, figurative word, artistic text, internal and external form, lyrical hero.

Чўлпоннинг “Гўзал” шеъри ўттиз қатордан иборат бўлиб, аҳамиятли жиҳати унда деярли соф туркий сўзлар ишлатилган (фақат “чун” сўзи форсча). Маълумки, тилда халқ руҳи яшайди. Она тилимиздаги сўзларни бутун руҳиятимиз билан ҳис қиламиз, уларни эшитганимизда тасаввур чегараларимиз яна ҳам кенгаяди. Эътибор берилса, синонимик қаторларда ҳам она тилидаги сўз доим доминант ҳисобланади. Буни ўша руҳиятга яқинлик билан изоҳлаш мумкин. “Гўзал” сўзи ҳам шундай. Бу сўзни эшитганимизда нозик туйғуларни ҳис қиламиз, руҳиятимизда кўтаринкилик пайдо бўлади, кўз олдимизда латиф нарсалар гавдаланади. Бундан ташқари, бу сўз бераётган тасвир гўзаллигини онгимизда тиклаш учун унинг “кўз” сўзига яқинлигини билишимиз керак. “Ўзбек тилининг этимологик луғати”да “бу сифат асли қадимги туркий тилдаги “назар сол” маъносини англатган кос феълидан –а(л) қўшимчаси билан ясалган”лиги [Ш.Раҳматуллаев.200.88-бет] таъкидланади. Бундан англаши-

ладики, “гўзал” сифатини бирор шахс ёки предметга нисбатан қўллашдан аввал ўша предметни кўриш, ҳис қилиш муҳим. Чунки, “гўзал” таркибидаги “кўз” сўзи шуни талаб этади. Демак, кўз оларлик даражада гўзалликни кўриб, ҳис қилиб таърифлаш нутқий реалликни ва жонли ўхшатишни таъминлайди.

“Гўзал” шеъридаги тимсоллар ҳам лирик қаҳрамон саволларига “кўрдим, учрадим”, деб жавоб берадилар ва ёрнинг “шунчалар гўзал”лигини таърифлайдилар.

Шеърдаги биринчи мисра диққатга сазовор:

Қоронғу кечада кўкка кўз тикиб...[Чўлпон.1994.4-бет]

Мисрада ўзига хос товушлар уйғунлигини кўриш мумкин. Қолаверса, “кеча”, “кўкка кўз тикиб” сўзларида ошиқнинг гўзал тасвири ифодаланган. Ошиқ кўз тикяпти, гўзалини излаяпти. Биринчи мисраданоқ англашиладики, шеърнинг мавзуси ёрни излаш, унинг гўзаллигини таърифлаш. Бунда муаллиф бир қанча тимсолларга мурожаат этади. Маълумки, санъат асарида тимсолнинг ўрни муҳим, унинг шахс ёки предмет эканлиги, қандай маънода келишига қараб асарнинг бадиий мукаммаллиги белгиланади. Тимсол албатта ғоя ва муаммо билан боғланади. Чўлпон шеърда мурожаат этган тимсоллар табиатнинг гўзал предметларидир. Муаллиф ана шу гўзаллик тимсолларини гапиртириш, тан олдириш, уялтириш орқали ўз гўзалини таърифламоқчи бўлади.

Шеърдаги аҳамиятга молик жиҳатлардан яна бири, ундаги табиат тасвиридир. Лирик қаҳрамон табиат тимсолларини табиий кетма-кетликда саволга тутади: юлдуз, ой, тонг шамоли, кун(қуёш). Булар табиатнинг энг гўзал тимсоллари, барча гўзалликлар уларга қиёсланади. Муаллиф эса ўз гўзалини улардан устун қўяди. Мана шу устун қўйиш орқали Чўлпон реал табиатни қалб табиати билан таққослайди. Бу таққослашни шеър воситасида амалга оширади. Натижада санъат асари ва табиат ўртасида инсон фикри юзага келади.

Маълумки, табиат предметлари бир-бирини тақозо этади. Бу нарса санъатга ҳам тааллуқли. Санъатда образ ва ҳодисаларнинг ўзаро боғлиқлиги бадиий бутунлик шартидир. Биз таҳлил этаётган шеърда ҳам бунга тўлиқ амал қилинган. Муаллиф гўзални сўраб дастлаб юлдузга мурожаат қилади ва бу мурожаатини

бошқаларга ҳам қўллайди, натижада кўз ўнгимизда "ҳаммадан гўзал" образ гавдаланади.

Юқорида "Гўзал" шеърини соф туркий сўзлардан ташкил топганини айтдик. Бу сўзлар барчамизга тушунарли ва қадимий сўзлардир. Шунинг учун улар қалбимизга яқин. Зеро, "сўз қанча қадимий, қанча кўҳна бўлса, унинг ҳаётий қудрати ва сеҳру жодуси шунча кучли бўлади" [Ҳ.Ҳессе.2010.33-бет]. Шеърий матндаги сўзлар бизнинг қалб лексикамиздан ўрин олиб бўлган, улар қалбимизнинг тубидан чиқади ва туйғуларимизни қўзғайди. Чўлпон гўзални таърифлаш учун барча гўзал сўзларни "чақириб олади": кеча, кўк, ёруғ, юлдуз, туш, ой, ёноқ, тонг, тоғу тош, кун ва ҳоказо. Булар минг йиллар давомида шууримизда яшаб келаётган сўзлардир, уларга бизнинг мангу туйғуларимиз яширинган. Шу боис шеър туйғуларимизга таъсир қилади. Зеро, поэзиянинг шарти ҳам шу фақат туйғуга таъсир қиладиган нарсани акс эттиришдир. Шеърда гўзалликни ифодаловчи барча сўзлар калит сўзлардир, уларни "гўзал" сўзи бирлаштириб туради. Шеърдан лирик қаҳрамон излаётгани гўзаллар гўзали Ватан эканлигини англаш мумкин:

Мен йўқсул на бўлуб уни суюбмен?!
Унинг-чун ёнибмен, ёниб-куюбмен.
Бошимни зўр ишга бериб қўюбмен,
Мен суюб... мен суюб... кимни суюбмен?
Мен суйган "суюкли" шунчалар гўзал,
Ойдан-да гўзалдир, кундан-да гўзал!!! [Чўлпон.1994.4-бет]

Миллий поэзиямизда гўзал суратини ой, юлдузга қиёслаш анъанавий ўхшатишлардан ҳисобланади. Лекин Чўлпондан кейинги бундай ўхшатишлар амалда бизга ҳеч қандай ҳиссий таъсир ўтказмайди. Чунки, гўзал тасвирининг энг юксак кўриниши Чўлпонгагина тегишлидир. "Гўзал" сўзини эшитишимиз биланоқ, хаёлимизда Чўлпон "Гўзал"и тикланаверади, сабаби унинг гўзали: "ойданда гўзалдир, кунданда гўзал!!!". Шеърдаги гўзал таърифидан Чўлпон руҳияти гўзалликка нақадар ташна эканлигини, унинг юксак дид соҳиби бўлганлигини англаш мумкин.

"Шафтолига" шеъри ҳам ўзининг рамзийлиги, ўхшатишларга

бойлиги билан ажралиб туради. Шеърда шоир гўзал қизни шафтолига қиёслайди, унга муҳаббатини изҳор қилади. Шафтоли ва муҳаббат ўртасидаги боғлиқликни контекстдан англашимиз мумкин. Асл маъносида шафтоли "жанубда ўсадиган, пушти гулли, узунчоқ баргли дарахтнинг йирик юмшоқ этли меваси"дир [Ўзбек тилининг изоҳли луғати.2006.402-бет]. Аммо шеърдаги бу маъно эмас, унинг рамзий маъноси муҳим. Шеърда шафтоли қишлоқ қизларининг қизил юзига қиёсланади. Айнан юзга қиёсланиш шаклий ўхшашлик бўлса, унинг қизиллиги пишганлик, етилганлик, яъни бўйга етганликни ифодалайди. Лирик қаҳрамон ўша қизилликдан баҳра олади, унга боқиб умид завол-ларини йўқдек, бўлмагандек ҳис қилади.

Шеърда сўзнинг ташқи ва ички шакли ўртасида ўзаро боғланиш ва фарқлар мавжуд. Бу нарса кейинги бандда яққол сезилади:

Умидимнинг заволига қон йиғлаган кўзларим,
Ёшларини юзларингга томчи-томчи тўкдими!
Ёки севги армонида шаҳид бўлган йигитнинг
Есир руҳи қони билан лабларингдан ўпдими? [Чўлпон.1994.68-бет]

Бандда шаклан шафтолидаги нуқта-нуқта доғларни, унинг қизиллигини, юзидаги шабнам томчиларини англаш мумкин. Шоир эса шабнам томчиларини кўз ёшлар (айни пайтда улар қизил - кўзлар қон йиғлаган), қизилликни қон билан ўпилган бўсалар натижаси деб изоҳлаяпти. Шу ўринда ички шакл туғилмоқда ва у ҳиссий образни ўзгартирмоқда. Бу ички шаклнинг бадиийлиги шундаки, унда муаллифнинг мураккаб руҳий ҳолати мавжуд. Шеърда муаллиф ўзини умидлари завол бўлган, "севги армонида шаҳид бўлган йигит" сифатида гавдалантирган.

Шеърдаги "шафтоли", "юз", "лаб" сўзлари қизиллик ва гўзаллик маъносига эга. Бу сўзлар орқали муаллиф ёр суратини, "қон" сўзи орқали эса ўз ҳолати рангини тасвирлаган. Бу сўзларнинг барчаси қизиллик маъносига эга. Лекин бир вақтда улар ёрга нисбатан гўзаллик, ҳаёт маъносида бўлса, муаллифга нисбатан завол, ўлим маъносидадир.

Чўлпон шеърларини табиат тасвирисиз, табиат сўзларисиз

тасаввур қилиб бўлмайди. Унинг шеърларида юқорида таъкидлаганимиздек, минг йиллардан бери яшаб келаётган қадимий, она тилимизга оид, халқ яратган сўзлар албатта мавжуддир. Бу сўзлар ўз ҳиди ва рангига эга бўлиб, уларни эшитганимиздаёқ онгимизда турли образларни жонлантиради.

"Кўклам келадир!" шеърида Чўлпон табиат тасвири орқали умид, соғинч туйғуларини ифодалайди. Шеърда лирик қаҳрамон кўкламни соғинган, уни кутади ва ҳатто келишига ишонади ҳам. Бу ишонч сарлавҳадаёқ кўзга ташланади, сарлавҳа охиридаги ундов белгиси қатъийлик, ишончни кўрсатади.

Кўклам ойим йўлга чиққан, кўклам ойим қўзғалган:

Кўк кўйлакнинг битишига, унча кўп ҳам қолмаган! [Чўлпон.1994.73-бет].

Кўклам – баҳор дегани. Бу икки сўзни синоним тарзда қўллаш ҳам мумкин. Лекин "кўклам" бизнинг руҳиятимизга яқинроқ, чунки у соф туркий сўздир. Биргина шу сўзнинг ўзида сифат, феъл, от бор (кўк-ла-м), яъни ранг, ҳаракат, ном бор. Демакки, образ бор. "Кўклам" деганимизда яшил ранг кўз олдимизга келади, у ҳаракатланади ва бутун атрофни қоплайди. Чўлпон "кўклам"ни эркалайди, эъзозлайди, унга "қутлуғ, мўътабар" маъносини билдирувчи "ойим" сифатини қўшади: "кўклам ойим". Натижада кўз ўнгимизда яшилликка бурканган, димоғимизга анвойи ҳидларни олиб келувчи янги бадиий образ гавдаланади. Шу ўринда таъкидлаш керакки, Чўлпоннинг шу биргина сўзи ўзбек поэзиясида янги бир шеърнинг туғилишига сабаб бўлган. Мунаққид О.Шарафиддиновнинг айтишича, бу сўздан шоир М. Юсуф қаттиқ таъсирланган ва унинг "Кўкламойим" деган шеъри мана шу таъсир натижасида дунёга келган.

Шеърнинг кейинги бандларида кўклам маъноси кенгая боради. Уни бутун табиат мавжудотлари интиқлик билан кутадилар. Шоир уларни соғинч ва кутиш ҳолатида тасвирлайди. Кўкламга интизор оқ булутлар паришон, кун тиғлари қарашларга санчилган, дарахтлар қучоқ очиб кўк кўйлакнинг битишини кутадилар. Узоқдан гул ҳидлари димоққа келиб урилади. Улар "йўлга чиққан"ини "чопар"- шамол орқали билдирадилар. "Чопар" олиб келган ҳидлар жониворларни аста-секин уйғота бошлайдилар:

Сезгиларни уйғотувчи ҳидли гуллар тўпланиб:
“Биз ҳам йўлга чиқдик” дея юборганлар бир чопар.
Гул ҳидидан ризқ эмгувчи жониворлар уйғониб,
Эрта-индин боғчаларга, чаманларга тарқалар.
[Чўлпон.1994.73-бет]

А.Блокнинг таъкидлашича, ҳар қандай шеър матни бир неча сўз устига ёпилган ёпинчиқдир. Ўша сўзлар матнда худди юлдузлардек чарақлаб, нур сочиб туради. “Кўклам келадир!” шеърида ҳам шундай калит сўзлар мавжуд. Булар: **кўклам, кўк, кўйлак, кўкариш, кўкс, кўз, кўнгил, кун, келмоқ, кутмоқ** сўзларидир. Бу сўзлар товушдошликка эга бўлиб, уларни такрорлаганимизда кўз ўнгимизда уйғониш, бош кўтариш каби маънолар тиклана-ди. Сўнгги бандда шоир бадиий мақсадини аниқ иифодалайди, кўнгилларга кўклам тилайди:

Кўклам билан юртимга ҳам бир кўкариш келсайди,
Кўнгиллар ҳам ҳаволардек кўклам ҳиди берсайди,
Дилларга ҳам ҳаволардек кўклам руҳи кирсайди!..
[Чўлпон.1994.73-бет]

Демак, табиатга кўклам келяпти, табиат уйғоняпти. Лекин кўнгилларда кўклам йўқ, уйғониш йўқ. Шунинг учун шоир орзу қилади, кўнгилларни уйғонишга чорлайди. Сўнгги банд-дан англашиладики, “кўклам” сўзи шеърда уйғониш маъносида қўлланган. **Кўнгил, кўклам, келмоқ** сўзлари матн ўқ илдизини ташкил қилади. Шоирнинг бадиий нияти ҳам мана шу уч сўзга сингдирилган, яъни кўнгилга кўклам келсин - кўнгил уйғонсин.

Хуллас, Чўлпон шеърияти эркка ташна юракнинг, уйғоқ руҳиятнинг бадиий сўз воситасидаги акс-садосидир. Унинг шеърларидаги сўзлар минг йиллар аввал халқ яратган, ўзида ички руҳият ва образларни мужассамлаган қадимий сўзлардир. Шунинг учун улар бизнинг руҳиятимизда ўзгаришлар ясайди, туйғуларимизга таъсир қилиб, ўзлигимизни англашга ёрдам бе-ради. Чўлпон деганимизда кўз ўнгимизда **халқ, кўнгил, гўзал, кўклам ойим, тонг** каби сўзлар жонланади. Бундай сўзлари бор шоир бахтлидир. Шу билан бирга Чўлпон шеърларини бадиий тил нуқтаи назаридан ўрганиш, шоирни сўзлари орқали англаш адабиётшунослик олдидаги муҳим вазифалардандир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ш. Раҳматуллаев, ЎТЭЛ (туркий сўзлар), Т.: “Университет”, 2000, -Б- 88.

2. Чўлпон, Асарлар 1-жилд, Т., 1994.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

4. Ҳессе Ҳ. Нон сўзи ҳақида // Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010. –Б. 33.

JADID TARAQQIYPARVARI G'OZI YUNUSNING XX ASR BOSHLARIDAGI O'ZBEK TEATR TANQIDCHILIGIGA QO'SHGAN HISSASI

Muslimbek ALIJONOV
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
katta o'qituvchisi, t.f.f.d., PhD.
(O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid taraqqiyparvari G'ozi Yunusning XX asr boshlaridagi teatr tanqidchiligi jarayonlarida tutgan o'rni tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: G'ozi Yunus, Turkiston, teatr, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Shiller.

Abstract: The article analyzes the role of the jadid Gazi Yunus in the processes of theater criticism of the early 20th century.

Keywords: Gazi Yunus, Turkestan, theater, Hamza Hakimzoda Niyazi, Schiller.

XX asr o'zbek teatri san'ati o'zining murakkab sharoitlarga qaramay rivojlanib borganligi bilan o'zgacha xarakter kasb etadi. Dastlab Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Muin, Abdulla Avloniy, G'ulom Zafariy kabi ziyoli taraqqiyparvarlar o'zbek teatr sahnasiga o'zlarining ijod mahsullarini olib chiqdilar, kerak bo'lsa o'zlari ham rol o'ynadilar. Biroq, 1917-yilgi inqilobdan so'ng hokimiyat bolsheviklar qo'liga o'tgach Turkiston o'lkasidagi teatrchilik an'analari va unda ko'tarilayotgan mavzular ham hukumat bilan o'zaro kelishuvchanlik xarakateriga ega bo'lgan holda biroz o'zgardi.

1918-yil 22-sentyabrda Toshkent shahrida bolsheviklar hukumati tomonidan "Turkiston sahna xodimlari boshqarmasi" tashkil qilinib, ushbu boshqarma Turkiston teatrshunoslari oldiga inqilobgacha bo'lgan o'zbek milliy teatr san'atiga to'laqonli baho berish, aniqroq aytganda 1917-yilgacha bo'lgan davrni sho'ro mafkurasidan kelib chiqqan holda yomonlash vazifasini topshirdi. Natijada, dramaturg ijodkorlar o'z pyesalarida Turkiston xalqiga erk va ozodlikni oktyabr inqilobi berdi degan g'oyaga ishora qilib ketishga majburlandi.

Xususan, Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining "Boy ila xizmatchi" va "Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari" [Hamza:68-179.] pyesalari orqali feodalizm ostida ezilayotgan Turkiston xalqiga erk va ozodlikni aynan oktabr inqilobi berganligiga ishora qildi. Bunday ishoralar G'ozi Yunusning yuqorida nomi zikr etganimiz "Zahhoki Moron" pyesasida ham ko'zga tashlanadi.

Biroq, bunday byurokratik talab teatr san'atining rivojiga, sifatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan albatta. Garchi inqilobdan keyin o'lka ziyolilari hukumat bilan kelishishga majbur bo'lgan holda o'z asarlariga inqilobni ulug'lash, aynan shu inqilobdan keyin Turkiston o'lkasiga erk va hurriyat kirib kelganligini aytishga majbur bo'lsa-da, biroq ba'zi teatr arboblari baribir dramaturgiyaning haqqoniy prinsipiga amal qilgan holda o'z pyesalarida mavjud holatning o'zbek teatriga og'ir yuk bo'lib tushayotganligi va saviyaning qashshoqlashayoganligini, bu esa ushbu san'at turiga nisbatan xalqning ishtiyoqi pasayib ketganligini ochiq-oydin ta'kidladilar.

Qayd etish kerakki, teatrni obro'sizlantirish atayin uyushtirilgan. Harqalay G'ozi Yunusning "Pyesa bozorida" nomli maqolasi o'quvchini shunday xulosa chiqarishga undaydi. Uning ushbu maqolasi bir tomondan G'ozi Yunusni ko'z oldimizda teatr san'atining jonkuyari sifatida gavdalantirsa, ikkinchi tomondan maqola XX asr 20-yillaridagi o'zbek teatr san'ati ichidagi muammolarni yoritib berishi bilan muhim ahamiyatga egadir.

G'ozi Yunus ushbu maqolasini "Ishchi" taxallusi ostida yozgan bo'lib, unda hukumatning teatr san'atiga doir siyosati va ijod ahlining unga nisbatan bo'layotgan bepisand va yengil-yelpi munosabati tanqid qilingan. Nega deganda teatr ulug' va mas'uliyatli ish bo'lib, unga shunchaki yuzaki tarzda yondashib bo'lmaydi. Muallif ham ijodkor ziyoli sifatida buni alohida ta'kidlaydi. G'ozi Yunus ijtimoiy turmushning o'z yo'lig'a qo'ymoqni uhdasidan (uddasidan – M. Alijonov) chiqolmaydurg'on yoshlarning hozirg'i matbuotnigina emas, balki kelajak tarix sahifalarini adabiyot dunyosiga qilg'on adabsizliklari bilan to'ldirganliklarini, muharrirlik g'ururi bilan g'ururlang'on muharrirlar, sezgusiz (hissiyotsiz, ta'sirsiz – M.Alijonov), she'r ne ekanin bilmagan muqallid shoirlarning gazeta va jurnallarning yuzinigina emas shu bilan birga tarix sahifalarini ham bulg'aganlarini

tanqid qildi: Ijtimoiy hayot negiziga ikki yil ichida tosh qo'ya olmag'on Turkiston xalqi o'z o'rtasindan, bahor yomg'uridan zuhurg'a keladirgan tutqusiz balo kabi, "hush miyyiq" shoirlar, yuzlar teatr va yozuvchilar yetkazuvi chetdan qarag'onda taraqqiy ko'rinsa-da haqiqatda taraqqiyning teskarisi ya'ni tanazzuldir. Chunki umrinda bir gapni o'zicha o'qub yoza olmag'onlar tragediyanavis, fojianavis, bilmam yana allanarsanavislar bo'lub, ulug' adiblar, atoqli muharrirlar haqig'a hurmatsizliq qilib turarlar. Namiq Kamol, Husayn Jovid kabi buyuk kishilar bir teatru yozmoq uchun qancha mashaqqatlar tortib, bir pyesani maydong'a chiqarmoq uchun qancha fidokorliklar ko'rsatganlar [G'ozi Yunus,1920].

G'ozi Yunus pyesa yozish borasidagi o'ta saviyasizlik to'g'risida yozib, bu borada ayniqsa Toshkentdagi olib borilayotgan ishlarni qattiq tanqid qildi. Garchi muallif, ochiq-oydin aytmasa-da, teatr san'atini obro'sizlantirish bevosita bolsheviklar hukumati tomonidan olib borilayotganligiga ishora qildi: "Shu yaqinda eski shahar hammol va mardikorlar jamiyati tomonidan tuzilgan tahriri nufus komissiyasining, pyesa yozuvchi muharrirlari hisobiyan oluv sho'basining vakilini bergan mufassal doqladig'a qarag'onda eski shaharda pyesa yozuv ishi aql erishmaslik darajasida taraqqiy etgan. Masalan, eski shahar jamiyatlarining a'zolarindan ko'p kishi pyesa yozg'on lekin ko'p jamiyat pyesa yozuvni har narsadan keraksiz sanab pyesa yozmoqni a'zolarining ishga yaroqsizig'a topshirg'on bo'lsada, temirchilar jamiyati pyesa yozuvdan millionlab ispikulatsiya etuvni mumkin topib pyesa yozmoqni eng ishli a'zosig'a topshurg'on. Shuning uchun temirchilar jamiyati a'zosindan "Hurjun" afandi pyesa yozuvda birinchilik o'run olg'on bu afandi pyesasinda monalug' o'rnig'a diyalo'g', dialog' o'rnig'a monalo'g', ishlatuvlar bilan o'zini yaxshi tanitg'ondir. "Hurjun" afandi pyesa yozmoq uchun har kunni uchga bo'lib 1- bo'lakni tragediya, 2-bo'lakni fojea, 3-bo'lakni komediya yozuvg'a belgilagan. Ishonchli manbadan oldig'im tubli bir xabarg'a ko'ra bu afandi yaqinda 23 pardali bir teatru yozg'on emish, tezdan bu teatru 200-300 pardaga yetib o'ynalsa kerak. Muvaffaqiyat tilayman".

Shuningdek G'ozi Yunus kinoya bilan sho'ro hukumatining shundoq ham teatr san'atini obro'sizlantirayotganidan tashqari boshqa

byurokratik talablarni ilgari surish bilan ham uning rivojiga to‘siq bo‘layotganini qayd etib o‘tdi: “Lekin yaqinda eski shaharda zor qolg‘ur bir yomon ish bo‘lib qolg‘on: 23 yoshdan yuqori bolalarni sahnaga chiqarmoqlari ma’raka sho‘basi tomonidan qatag‘on qiling‘on. Pyesa yozuvchilar shu nuqtag‘a ahamiyat beruvlari kerak. Yana men o‘z tomonidan shu ketib turg‘on og‘ir yo‘llarinda fidokorona davom etuvlarin tilayman. Negakim, bizim xalqimiz uchun haqiqiy, buyuk adiblar tomonidan yozilg‘on asarlarni o‘ynamoq sira kelishmas. Eshakka yarasha tushov, qozonig‘a qarab qopqog‘i”.

O‘z vaqtida Abdulla Qodiriy ham pyesa yozish 1912-yildan boshlanganligini qayd etib “1918-yildan e’tiboran har bir ish uchun keng yo‘l ochildig‘i kabi, maorif ishlari uchunda o‘rtadagi to‘siqlar olingach, teatru yozmoq ishi ham bir qo‘lidan yozuv keladigan yoshlar va o‘quvchi shoirlar uchun bir ermak yoki havas shakliga kirdi” [Qodiriy, 1919:] deb yozadi. Qodiriyning ushbu fikri ham yuqorida keltirilgan G‘ozi Yunusning badiiy saviyasizlik to‘g‘risidagi mulohazalarining asosli ekanligini isbotlaydi. 1912-yildan juda yaxshi daraja bilan boshlangan dramatik asarlar yozish odati, 1918-yilga kelib saviyasizlik tomon og‘ib bordi. Natijada, G‘ozi Yunus haqli tarzda davr ziyolilari oldiga teatrga yuksak nazar bilan qarash kerakligiga doir talabni qo‘ydi.

Turli xil siyosiy talablarga qaramasdan 1918-yildan boshlab o‘zbek dramaturgiyasi barcha yo‘nalishlarda rivojlana boshladi. Shu yildan boshlab o‘zbek teatr sahnalarida komediya, drama, tragediya, musiqali drama va operettolar o‘ynala boshladi. Ayniqsa, dramaturg va aktyorlarning soni ham ko‘payib, sifat darajasi ham oshib bordi. Masalan 1918-yilda ijod qilgan Mannon Uyg‘ur, Badriddin A’lamov, G‘ozi Yunus, G‘ulom Zafariy, Qudratilla Yunusov, Hadicha Baxtiyorova, Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon, Mahkam Tolipov, X.Ziyoboyev, Xoniy Afandi, Obidiylar safiga 1919-yilda Abror Hidoyatov, Karim Yoqubov, Fathulla Umarov, Abdurahmon Akbarov, Shokir Najmiddinov, Some Hasanov, Muzaffar Muhammedov, Ma’suma Qoriyeva, Bosit Qoriyev, Obid Jalilov, Sayfi Olimovlar kelib qo‘shildi [Tursunov: 79.].

Teatr san’atining rivojlanishi o‘z navbatida teatr tanqidchiligini ham yuzaga keltirdi. Bu jarayonlarning kechishida G‘ozi Yunus ham

ishtirok etdi va o'zining teatr tanqidchiligiga doir puxta va tanqidiy maqolalarini e'lon qildi.

G'ozi Yunus Abdurauf Fitratning "Hind ixtilolchilari", Cho'lponning "Yorqinoy", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Iffat qurboni", ozarbayjonlik dramaturglar qalamiga mansub "Hamshaharlik manzili" va "Erk bolalari", Shillerning "Makr-muhabbat", Sanjar Siddiq tomonidan tarjima qilingan Husayn Jovidning "Moral", Uzayrbek Hojibekovning to'rt pardalik "Ul o'lmasun, bu o'lsun" operettosi, Paolo Jakiomettining "Jinoyatchi oilasi" va boshqa shu kabi asarlarning sahnadagi ijrosi to'g'risida maqolalar chop ettirdi.

"Makr va muhabbat" tragediyasi Shiller dramaturgiyasining cho'qqisi hisoblanadi. Shiller ushbu asarida o'zaro oilaviy munosabatlar, ishq-muhabbatning insonlar o'rtasida o'rnini ulug'lash bilan birga tabaqachilik ham illatini qattiq tanqid qildi. Shillerning ushbu asarida XVI asr Germaniyadagi hayot va odamlarning his-tuyg'u va qarashlari juda ham yorqin tasvirlangan. Ushbu davrning yana bir ijodkori bo'lmish Lessing o'zining "Xiyonat va sevgi" dramasi bilan aristokratlarning hayoti orqali feodal tuzumni qattiq tanqid qilgan bo'lsa, Shiller yanada balandroq darajaga ko'tarilgan holda siyosiy elita hayotiga murojaat qildi. Shunday qilib, Shillerning ushbu asari ilk siyosiy olmon dramasi edi. 1921-yil 7-dekabrda qishki "Turon" sahnasida A.Komilning rejissorligida Shillerning ana shu "Makr va muhabbat" asari o'ynaldi.

G'ozi Yunus ham ushbu spektakli borib ko'rdi va "Qizil bayroq" gazetasining 1921-yil 121-sonida asar namoyishiga bag'ishlangan maqolasini e'lon qildi. Qayd etib o'tish kerakki, asar tarjimasi tanqidchini mutlaqo qoniqtirmagan. Negaki besh parda, to'qqiz ko'rinishdan iborat bo'lgan "Makr va muhabbat" pyesasining ikkinchi parda uchinchi manzarasi, to'rtinchi pardaning 8-manzarasi butunlay tushirilgan va boshqa yerlarning ko'p yeri tashlab qoldirilgan. "Mana bu narsalarning hammasi Shillerning haqqig'a kechirilmaslik zo'r jinoyatdir. Buning ustiga to'rtinchi pardaning yettinchi manzarasi ham tushirib qoldirilgan ["Qizil bayroq" g., 1921: № 121.].

Pyesaning o'ynalishi jihatiga kelsak o'zbek sahnasida o'ynalib kelingan teatrlarning eng zo'r muvafaqqiyat bilan o'ynalgani, deb hisoblangan, rollar juda yaxshi taqsim etilgani uchun shu kungi spektakl

xalqda juda yaxshi ta'sir qoldira olgan. Shu kungi sahnada musiqachi Miller rolini Uyg'ur, Millerning xotini rolini As'hob xonim, Vurm (Prezidentning sarkotibi) rolini Abror Hidoyatov, Luiza (Millerning qizi, Ferdinandning ma'shuqasi) rolini Ma'suma xonim, Ferdinand rolini Qoriyev gavdalantirgan.

Boshqa aksariyat taqrizlari kabi bunda ham G'ozi Yunus har bir qahramonga o'zining fikrlarini berib chiqqan. Ayniqsa u prezidentning sarkotibi Vurm rolini o'ynagan Abror Hidoyatovning ijrosiga juda ham yuksak baho bergan. G'ozi Yunusning mahorati shundaki u "...tinch xalqni xonavayron qilg'uvchi shumqadam bir josusning..." so'zlari bilan pyesadagi asosiy qahramonlardan biri bo'lgan Vurmning salbiy xarakter egasi ekanligini o'quvchiga yetkaza olgan: Vurm (prezidentning sarkotibi) rolin o'ynag'uvchi Abror, o'ziga topshirilg'on eng mas'uliyatli rolda Vurm kabi tinch xalqni xonavayron qilg'uvchi shumqadam bir josusning harakatini tom ma'nosi bilan sahnada jonlantirib o'ynag'onlig'i ko'rildi. Shu bu kun o'zbek sahnasi buyuk bir mahoratli artistga ega bo'lishi bilan o'zini baxtiyor sanasa mumkindir. Abror butun pardalarda o'zining iqtidorini jonlantirib ko'rsatdi. Bundan keyin og'ir va mas'uliyatli rollarda ko'proq ko'rinishin tilaymiz". G'ozi Yunusning nechog'lik haq ekanligini zamonning o'zi Abror Hidoyatovning kelgusida mashhur aktyorga aylanishi misolida isbotladi. Asl iste'dodni ko'ra bilish, unga munosib bahoni bera olish qobiliyatidan kelib chiqqan holda mumkinki, G'ozi Yunus XX asrning 20-yillari boshlariga kelib yetuk teatrshunos sifatida shakllanib bo'lgan edi.

Xulosa o'rnida yozganda G'ozi Yunus XX asr boshlaridagi Turkiston sahnalarida o'ynalayotgan spektakllarni diqqat bilan kuzatib borib, bu to'g'ridagi maqolalarini davriy matbuot nashrlarida e'lon qilib bordi. Shu tarzda u, XX asrning 20-yillarida Turkiston teatrlarida sahnalashtirilgan asarlar xususida san'atkorona mulohazalar yuritib o'zbek teatr tanqidchiligiga, xususan sahna senografiyasiga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami. III jild. Dramalar (1915-1920). T.: Fan nashriyoti, - B.68-179.

2. G‘ozi Yunus. Zahhoki moron (ضحاك مارا ن). O‘zR FA ShI. Tosh-bosma. Asosiy fond. Inv 2563. – B. 44.

3. Ishchi (G‘ozi Yunus). Pyesa bozorida // “Tong” (تاك) jurnali, 1920-yil 9-aprel, – № 1. – B. 29.

4. Julqunboy (A. Qodiriy). Bizda teatru ishining borishi // “Ishtiro-kiyun” (اشتراكيون) gazetasi, 1919-yil 11-dekabr. – № 239.

5. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatri tarixi. – T.:“Art press” So. Ltd. – B. 79.

6. Ishchi (G‘ozi Yunus). Makr-muhabbat // “Qizil bayroq” (قزل بيرق) gazetasi. 1921-yil – № 121.

USMON AZIM IJODIDA JADIDCHILIK HARAKATI G'OYALARINING BADIIY IFODASI

Sultonqulova Feruza Bobonazarovna
Termiz davlat universiteti
O'zbek adabytshunosligi kafedrasi
dotsenti, (PhD)
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek she'riyatining yorqin namoyondasi Usmon Azim she'riyatida jadidchilik harakati g'oyalarining badiiy ifodasi haqida so'z yuritiladi. Shoirning jadid siymolariga bag'ishlangan she'rlarida ularning obrazi orqali Erk va Istiqlol g'oyasi, erkin, hur fikrli shaxsning qarashlari badiiy ifodlanadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, obraz, erk, lirik qahramon. Cho'lpon, Fitrat, drama.

Аннотация. В данной статье рассматривается художественное отражение идей джадидизма в поэзии Усмона Азима — одного из ярких представителей узбекской поэзии. В стихах поэта, посвящённых деятелям джадидизма, через их образы поэтически выражаются идеи Свободы и Независимости, а также взгляды свободомыслящей, независимой личности.

Ключевые слова: *джадидизм, образ, свобода, лирический герой, Чулпон, Фитрат, драма.*

Abstract. This article explores the artistic expression of Jadidism ideals in the poetry of Usmon Azim, a prominent figure Uzbek literature. In his poems dedicated to Jadid personalities, the concepts of Freedom and Independence, as well as the worldview of a free-thinking individual, are conveyed through vivid poetic imagery.

Keywords: *Jadidism, imagery, freedom, lyrical hero, Cholpon, Fitrat, drama.*

Jadid ijodkorlari faoliyatiga nazar tashlansa, ular xalqni savodli

qilish, ong va tafakkurini yangi fikrlar bilan o'zgartirish, diniy hamda dunyoviy ilmlarni o'qitish, yangi ilm, yangi avlod yangi ta'limni yo'lga qo'yib o'z maqsadlarini amalga oshirishga intilganlar. Ayniqsa, bu maqsad Abdulhamid Cho'lpon she'riyatida erk va hurlik tarannumi, Behbudiyning maqolalaridagi dav'atkorlik, Fitrat ijodidagi ramziy va majoziy tasvirlash usuli, Abdulla Qodiriy asarlaridagi kuchli zaharxanda "Ezop tili"da namoyon bo'ldi.

Hozirgi davr o'zbek she'riyatining yetakchi namoyondasi O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodining ilk yillaridayoq jadidchilik harakati g'oyalaridan ilhomlanib, ularning davomchilari bo'lgan, XX asrning 60-70-yillari o'zbek she'riyatida fikr va ongda o'zgarish qilishga intilgan Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Xurshid Davron kabi shoirlar bilan bir safda ijod qildi. Uning ijodida yaqqol ko'zga tashlangan jihatlardan biri, XX asr boshlarida millatni ozod ko'rish istagida nohaq qatag'on siyosatining qurboni bo'lgan jadid ijodkorlari timsoliga ko'p murojaat qiladi. Shoirning "Saylanma"(1995)sida "Abdulla Qodiriy", "Usmon Nosirning so'nggi tushi", "Oybekning so'nggi she'ri" kabi she'rlari aynan shu mavzuda yaratilgan. Keyinchalik ushbu badiiy g'oya ifodasi "Fonus"(2010) to'plamidagi "Fayzulla Xo'jayev monologi", "Bazm", "Cho'lpon", "Cho'lpon. Sevgi", "Cho'lpon.Vatanni sevmoq", "Jimlik"da "XX asr. Qismat. Usmon Nosir" kabi she'rlarida davom ettirildi. Mazkur she'rlardagi umumiy bir jihat fidoiy jadidlar shaxsi, jasorati va kurashi orqali jadidchilik harakatining bosh g'oyasi bo'lgan erk va ozodlik g'oyalari tarannum etiladi. Ular boshiga solgan mustabid tuzumning manfur siyosati "qora kunlari"i "Fayzulla Xo'jayev monologi"da shunday tasvirlanadi.

Bilaman, yurak yo'li zinama-zina...
Ammo qay azobdan ko'zimda yoshim:
Dunyomni vayron etib, o'rtayotgan nima
Erksizlikmi, yo devorga urilgan boshim? *[У.Азим, 2010. 74.]*

O'n yetti yoshida jadidlar harakatiga qo'shilgan, "Yosh buxoroliklar" partiyasiga asos solgan va amirlikka qarshi kurashgan, keyinchalik birinchi rahbar sifatida tarixda qolgan Fayzulla Xo'jayevning taqdiri barchamizga ma'lum. Xalq hayotini erkinlik, farovonlik va adolatli bo'lishini istagan, zamondoshlarini dunyoviy ilmlarni egal-

lashini istab, bir guruh yoshlarni xorijga o‘qishga yuborgan, fidoiy insonning hayoti ham “qatag‘on mashinasida” yakun topadi. She’rda ayni ushbu misralarda bu fojiali taqdir lirik qahramon tilidan shunday tasvirlanadi:

Qo‘rqinchlisi shuki, kechib imondan –
Ta’zim qilamiz:
«Siz aylantirasiz charxni!..»
Qo‘rqinchlisi shuki, ishoning ishonmang.
Hammamiz baxtlimiz, hammamiz baxtli.
Axir, o‘ttiz yettinchi yil...
Bu miyammi o‘qdan to‘zigan?
Qurbonlik qo‘yday o‘limga ko‘nayapman. *[У.Азим, 2010. 75.]*

Usmon Azim bu davr haqiqatlarini chuqur anglagan ijodkor sifatida aynan uning siymosiga murojaat qilishi bejiz emas. Ushbu she’rda haqiqat va yolg‘on, Vatan erksizligi, kishanli mustabid tuzum, insoniy qadriyatlar va botiniy iztirob o‘rtasida qolgan lirik qahramon qalbi ichki to‘qnashuvlarda ochib beriladi. Shaxs erki masalasi, haqiqat, vijdon, adolat kabi umuminsoniy tuyg‘ular ifodasi Fayzulla Xo‘jayev timsolida mahorat bian ko‘rsatiladi.

“Monolog lirikaning ustuvor nutq shakli, lirik qahramon kechinmalari asosan, uning monologi orqali ifodalanadi”. [Куронов, 2010.179.] Shoir ijodida ijroviy lirika namunalari yetakchi bo‘lib, ayni ushbu she’r ham ular sirasiga kiradi. She’rda lirik qahramon ruhiyati she’riy monologda yoritilar ekan, ijodkor uslubiga xos metaforiklik va ramziy obrazlar undagi badiiy g‘oyani yoritishga xizmat qilgan.

Shoirning jadidchilik harakati g‘oyalari bilan ta’sirlanib yozgan she’rlarida o‘quvchi o‘tgan asrning mudhish qatag‘on siyosati qurbonlarining fojaiviy taqdiri nafaqat milliy istiqlol harakati ekanini, balki vatanparvarlik, jasorat, shijoat va qo‘rqmaslik kabi fazilatlar insonga g‘oyatda zarur ekanligini anglaydi. Ayniqsa, “Cho‘lpon. Vatanni sevmoq” she’rida lirik qahramon tilidan jadidlar fojeasini tasvirlash bilan birga o‘quvchiga Vatanga muhabbat kabi tuyg‘ular o‘z-o‘zidan shakllanmasligi, balki unda qudratli ildiz, tarix va o‘z davri voqeliklariga befarq qaray olmaslik, uning boshiga kulfat tushganda kurashish “og‘ir” bo‘lsa-da, ammo muqaddas burch ekanligi

uqtiriladi:

Jonimni olsa-da
Zarama-zarra.
Sen borsan o‘limdan
O‘sdim ming karra.

Ko‘kardim o‘limda
gulladim oxir,
Vatan seni sevmoq
O‘limdan og‘ir. [У.Азим. 2010.72.]

Olim Dilmurod Quronov ta’kidlaganidek:“Milliy istiqlol g‘oyasi Cho‘lpon she’riyatining o‘q tomirini tashkil qilib, boshqa barcha mavzularga qon berib turadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, uning deyarli barcha she’rlarida – birining satrlari orasida, birining ishoralar asosida shakllanuvchi tagma’no qatlamida erk – ozodlik, istiqlol g‘oyalari bo‘y berib turadi. Cho‘lpon ijodi vaqt e’tibori bilan erk so‘zining ma’no ko‘lami g‘oyat kengaygan, uning barcha qirralari o‘ta dolzarblik kasb etgan bir sharoitda kechgan”.[Куронов, 2023.11.]

Ijodkor Cho‘lpon taqdirini qalamga olgan she’rlarida bunga katta e’tibor qaratadi. Erk, Istiqlol, Vatan mavzulari Cho‘lpon tilida uning she’rlariga xos pafosda yangraydi. Shoir ijodiy hamfikrlikda Cho‘lponga o‘zini yaqin tutib, hatto “XX asrda Cho‘lpon bilan yozganim she’r”ida shunday yozadi:

Vatan, agar sen bo‘lmasang,
Bul dunyoda turmoq yo‘qdir.
Bul so‘zim chin,
Dunyo yolg‘on!”[У.Азим. 2022. 441.]

Zero, jadid adabiyotida eng ustuvor bosh g‘oya – Vatan ozodligi, millat erki va istiqol edi. Ijodkorning “Kunduzsiz kechalar” dramasi Cho‘lponga bag‘ishlangan. Dramada muallif o‘zi tasvirlayotgan davr ruhini chuqur his qiladi, shu bois ham o‘tgan asrning 20-30-yillar ruhini, zamona kishilarining ma’naviy-ruhiy qiyofasini yoritadi. Ijodkor nafaqat mazkur dramatik asarida, balki she’rlarida ham ana shu mudhish yillar fojasini ko‘rsatishga harakat qiladi. Shuningdek, “Bazm” she’rida lirik qahramon Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir bilan hamsuh-

bat bo‘ladi. Sochma she’r namunalaridan bo‘lgan “XX asr. Qismat. Usmon Nosir” she’rida jadidlar fojeasi, nohaqlikda qurbon bo‘lish, haqiqat va adolatsizlik bilan bir vaqtda shaxs erki masalasini qalamga oladi: “...Qamoq vagonlarda ochu nahor ketayotganlarning haqiqati esa qolib ketadi ko‘z yosh to‘kib Toshkent ko‘chalarida. Sibirning sovug‘ida izillaganlarning haqiqati muzlagan o‘rmonda adashib qoladi bo‘rilarga yem bo‘lar oqibat. Lagerlarda ochdan o‘layotganlarning haqiqati esa tikan simlarda osilib yotadi-bag‘rini o‘q teshib...

“Men ham odamman” degan harakatni xush ko‘rmaydi yovuzlik. Yovuzlik juda tezkor. Uning xizmatkorlari, josuslari, jallodlari, ijodkorlari, qo‘shinlari, hukumatlari bor. “Odamman” deganni bir zumda qiymalab tashlaydi. ...Eng dahshatlisi, hatto haqiqatsiz ham o‘lib ketaveradi odam”. [Азим У. 2012.66.]

Usmon Azim, o‘zbek adabiyotining yirik vakili sifatida millat, Vatan, erk va qadriyatlarni ulug‘lagan ijodkor. O‘z ijodida yangi shakl va mazmun izlanishlarini amalga oshirgan shoir jadidchilik g‘oyalarining badiiy ifodasini ular timsoli orqali yoritadi. Uning ijodida tarixiy shaxslar va voqealar tasviri muhim o‘rin egallaydi. Shoir yuksak badiiy mahorat bilan tarixiy haqiqat va nohaq qatog‘on zulmi ostida erk va Vatan ozodligi uchun kurashgan jadid siymolari obrazini tasvirlab, she’rdagi bosh g‘oya —Vatan va ozodlik, haqiqat va adolat, shaxs erki, insoniy qadriyatlarni ulug‘laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабиётшунослик луғати. /Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 397 б.

2. Усмон Азим. Фонус. – Тошкент: Шарқ, 2010. – 160 б.

3. Усмон Азим У. Жимлик: назм, наср, драматургия. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт манба ижодий уйи, 2012. – 320 б.

4. Усмон Азим. Танланган асарлар. 5-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2022. – 488 б.

5. Қуронов Д. Шоирлар ва шеърлар ҳақида. Мақолалар тўплами. – Андижон: “Илмий битиглар”, 2023. –120 б.

ЧЎЛПОННИНГ ШАХСИЙ АРХИВЛАРДАГИ ҚЎЛЁЗМА МАНБАЛАРИ

Соҳибахон Исломова
Андижон давлат университети докторанти
islomovasoxiba7@gmail.com
(Ўзбекистон)

Аннотация: Мазкур мақолада Чўлпон ижодининг Шарафиддин Салоҳиддин ўғли шахсий архивида сақланган манбалари хусусида маълумот берилган.

Таянч сўз ва иборалар: қўлёзма манба, вазн, шеърий мактуб, байт, жанр, анъана, услуб, шахсий архив, манба.

Annotation: This article provides information about the sources related to Cho'lpon's literary work preserved in the personal archive of Sharafiddin Salohiddin ogli.

Keywords: manuscript source, meter, poetic letter, couplet, genre, tradition, style, personal archive, source.

Маълумки, қатағон қилинган аксар ижодкорларнинг шахсий архивлари сақланган эмас. Уларнинг баъзилари ҳибсга олингунларига қадар эҳтиёт чораси сифатида қўлёзмаларини йўқ қилганлар; айримларининг архивлари ҳибсга олинган чоғларида йўқ қилинган ёки рўйхат қилиб олиб кетилган кўйи бедарак йўқолган. Хуллас, ҳозирда қайта чоп этилаётган асарлардан аксариятининг қўлёзмалар(автограф)и йўқ. Шу сабабли ҳам уларнинг асл матни сифатида муаллифлар ҳаётдалигида китоблар, газета-журналлар, турли альманах ва тўпламларда нашр қилинган матнлар ҳамда замондошларининг шахсий архивларида сақланиб қолган манбаларга таянишга мажбурмиз. Мана шу хусусиятлардан Чўлпон ижоди ҳам мустасно эмас. Жумладан, шахсий архивида Чўлпоннинг асарлари манбалари сақланиб келинаётганлардан бири куёви Шарафиддин Салоҳийдир.

Шарафиддин Салоҳий(Салоҳиддинов, айрим манбаларда махсум деб ҳам келтирилади. У 1900-1975 йилларда яшаб ўтган) – Сулаймон баззознинг шогирди, унинг савдо-сотиқ ишларида энг ишончли ёрдамчиларидан бири бўлган. Асли ҳозирги Жалақудуқ

тумани ҳудудига қарашли Сўфи қишлоғида туғилган, - деган тахминлар мавжуд, аммо кейинчалик Ўш шаҳрига кўчиб кетиб, умрининг сўнгига қадар ўша ерда яшаган. Адабиётшунос Наим Каримов Фонқа аянинг тўнғич фарзанди Марғубиддин аканинг фикрларига таяниб шундай ёзади: "Сулаймон баззоз Фозила ая(1905-1994)ни Шарафиддин махсум номли йигитга турмушга узатган. Шарафиддин махсумнинг отаси эса баззознинг яқин ҳеш(қариндош)ларидан бўлган" [Н.Каримов.2003.20-бет]. Н.Каримов Чўлпоннинг қариндошларидан бўлган Валижон Дадажоновнинг фикрларига асосланиб мазкур тўй ҳақида "Чўлпон" маърифий романида тўхталиб ўтган. В.Дадажонов эса бу ҳақда Сулаймон баззознинг хартумлик замондоши Темурбой ҳожи отадан эшитганлигини таъкидлаган. В.Дадажоновнинг ҳикоя қилишича, Сулаймон баззоз тараддуд кўрилаётган тўй ҳақида оила аъзоларига ҳам, бўлажак куёвларга ҳам ҳеч қандай маълумот бермаган. Тўй тугаб, никоҳ ўқиш вақти етганда иккита энг яқин шогирдини ёнига чақириб, уларни Комила ва Фозила қизлари учун куёв сифатида танлаганини, агар йигитлар рози бўлса, тўй давом этишини ва уларнинг ҳар бирига уйлар ясатиб, яшаш учун барча нарсаларни ҳозирлаб қўйганини айтади. Агар улар ушбу никоҳга рози бўлмасалар, ихтиёр ўзларида экани, лекин илгаригидек ота-ўғилдек бирга ишлайверишларини айтиб ўтади. Бўлажак куёвлари ҳам, қизлари ҳам мазкур тўйга розилик билдиргач, никоҳ ўқитилиб, катта ва кенг ҳовлиларидаги безатилган хоналарда яшай бошлайдилар.

Шарафиддин Салоҳий ва Фозила ая биргаликда кўп йил яшасалар ҳам фарзандли бўла олмайдилар, шунинг учун улар ажрашадилар. У бошқа бир аёлга уйланади, бир қиз фарзанд кўради ҳамда умрининг сўнгги дамларини Ўшда яшаб ўтади. Гарчи опаси билан ажрашиб, оилавий қариндошлик ришталари узилса-да, Чўлпоннинг ўлимидан сўнг ҳам Шарафиддин дўстлигига содиқ қолади ва қанчалик ҳавф-хатар таҳдид солмасин, шоирга доир манбаларни сақлаб қолади.

Шарафиддин Салохий ҳақида адабиётшунос олим Тўхтасин Жалолов шундай деб ёзади: "Ўшда ҳамроҳларим мени Шарафиддин Салоҳий деган эски қадрдонлари уйига бошлаб

бордилар. Шарафиддин ака савдо системасида ишласа ҳам, ғоят шеърфаҳм, ва серзавқ одам экан. Шарафиддин ака классикларимиз ва совет шоирларининг шеърларини бир дафтарга кўчириб, терма баёз қилиб қўйибдилар...” [Т.Жалолов.1963.10-бет]

Адабиётшунос Т.Жалолов шеърият ихлосманди бўлган Ш.Салоҳийни ўзи каби олимларнинг беминнат ёрдамчиси эканлигини, уларга жуда кўп маротаба беғараз кўмак берганини, Ўш шаҳрига борган, уни таниган барча илм аҳли бемалол уйида бир неча кун меҳмон бўлиб, унинг серзавқ, ширин сухбатига интилиши ҳақида гапириб ўтган [Т.Жалолов.1963.10-41-бетлар].

Чўлпон қариндошлиги сабабли эмас, балки юқорида таъкидлаб ўтилган сифатлари туфайли Шарафиддин Салоҳий билан умрининг сўнгига қадар қадрдон бўлгандир. Агар бир-бирларидан олисда бўлсалар, шеърий мактублар орқали ғойибона сухбатлашгандир. Эҳтимол, шеъриятни теран англагани учун ҳам Чўлпон ўз фарзандларидек бўлиб қолган ижод манбаларини йўқ қилмай унинг қўлига ишониб топширгандир.

Шарафиддин Салоҳий шахсий архиви манбалари бугунги кунда Чўлпоннинг синглиси Фоиқа аянинг кенжа қизи Шарифа Мирзахўжаева хонадонида сақланмоқда. Мазкур шахсий архивдан Шарафиддин Салоҳийнинг шахсий ва шеърий хатлари, ўз қаламига мансуб бўлган шеърлари, ўзга шоирлар ижодидан кўчириб олинган қўлёзма манбалари ўрин олган. Мазкур архивдан асосий диққатимизни тортган манбалар: Чўлпон ижодига мансуб асарлар, шоир шеърларининг айнан автографидан кўчирилган нусхаларининг мавжудлигидир.

1.“Мушоара” шеъри. Бу шеър 1934 йилда ёзилган, аммо асл нусхаси бизгача етиб келмаган. Бизнингча, Шарафиддин Салоҳий томонидан Чўлпондаги автограф нусхадан пароканда дафтар варағига кўчирилган, чунки ушбу шеър шоир тўпламларида ёки даврий матбуотда эълон қилинмаган. Бу нусха бугунги кунда шоирнинг жияни Шарифа Мирзахўжаеванинг хонадонида сақланади. Кейинчалик мазкур нусхадан Чўлпон шеърлари ихлосманди, андижонлик шоир ва адабиётшунос олим Восит Саъдулла томонидан кўчирилган қўлёзмаси Андижондаги адабиёт ва санъат музейи фондида сақланмоқда. Ушбу шеър илк

бор Наим Каримов томонидан 1992 йилда “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетасининг 22 май сонида, 1997 йилда “Жаҳон адабиёти” журналининг 1-сонида, 2008 йилда “ХХ аср адабиёти манзаралари” [Н.Каримов.2008.402-403-бетлар] китобида, 2016 йилда “Асарлар” 4 жилдлигининг I жилдида [Чўлпон.2016.309-310-бетлар]; 2009 йилда Урфон Отажоннинг “Мушоара” китобида [У.Отажон.2009.117-118-бетлар]; Ғ.Ғуломнинг “Аруз жилолари” китобида [Ғ.Ғулом.2019.58-59-бетлар] қайта нашр қилинган.

Бу ма со ил дан зе рик дим, сўнг ра ис лоҳ ис та дим,

- **V - - - V - - - V - - - V -**

Сўнг ра ис лоҳ дан қо чиш га ўз га бир роҳ ис та дим.

- **V - - - V - - - V - - - V -**

Фоилотун/ фоилотун/ фоилотун/ фоилун

“Мушоара” шеъри арузнинг рамали мусаммани маҳзуф вазнида, Чўлпон ва Ғафур Ғулом ўртасидаги бадиҳа(экспромт) тарзидаги мушоара натижаси ўлароқ яратилган.

2.“Биринчи мактуб” шеъри. Мазкур шеър 1932 йил февраль ойида Москвада Чўлпон томонидан ўшлик дўсти ва куёви Шарафиддин Салоҳийга мактуб шаклида ёзилган. Ушбу шеърни Н.Каримов Чўлпон дўстининг якқофия шеърларига жавобан ёзганлигини таъкидлаб ўтган [Н.Каримов.2008.399-бет]. Ушбу шеър ҳам пароканда дафтар варағига ёзилган бўлиб, ҳозирги кунда Тошкентда, Шарифа Мирзахўжаеванинг хонадонида сақланади. Бу шеър ҳам Шарафиддин Салоҳий томонидан Чўлпондаги автограф нусхадан пароканда дафтар варағига кўчирилган, чунки ушбу шеър шоир тўпламларида ёки даврий матбуотда эълон қилинмаган. Ўтган асрнинг 50-60 йилларида мазкур нусхадан адабиётшунос Восит Саъдулла кўчириб олган, ёзув машинаси орқали кўчирилган мазкур нусха ҳозирги кунда Андижондаги адабиёт ва санъат музейи фондида сақланмоқда. Ушбу шеърий мактуб андижонлик машҳур ҳажвчи шоир Муҳиб(1848-1920) томонидан Чўлпоннинг отаси Сулаймонқул баззозга ёзган мактубига ғоявий-бадиий ва шаклан жуда ҳам ўхшаш:

Қандоқ бораман мен ўйнамоққа,

Тинмай юраман уёқ – буёққа.

Қасдимда ҳамиша мулла Холис,

Кетдим соладир элни чатоққа [Н.Қобулов.У.Долимов.1979.21-бет].

Ҳар икки шеърий мактуб ҳам аруз вазнининг ҳазажи мусаддаси ахраби мақбузи маҳзуф шаклида ёзилган:

Муҳиб

Қан доқ бо ра ман ме нўй на моқ қа,

- - V V - V - V - -

Тин май ю ра ман у ёқ – бу ёқ қа [Н.Қобулов.У.Долимов.1979.21-бет].

- - V V - V - V - -

Мафъулу/ мафоилун/ фаулун

Чўлпон

Эй аҳ ли Ша раф, о линг қу лоқ қа

- - V V - V - V - -

Юк юк ла ма нгиз бу бе сў лоқ қа [Чўлпон.202016.282-284-бетлар].

- - V V - V - V - -

Мафъулу/ мафоилун/ фаулун

Юқорида келтирилган далиллардан англашимиз мумкинки, Чўлпон ҳажвий шеърий мактуб анъаналарини бевосита давом эттирган.

3.“Иккинчи мактуб” шеъри. Ушбу шеърий мактуб ҳам 1932 йилнинг апрель ойида Москвада Чўлпон томонидан Шарафиддин Салоҳийга атаб ёзилган. Мазкур шеърнинг автограф нусхаси сақланмаган, аммо ҳудди шу нусхадан Шарафиддин Салоҳий дастхати билан кўчирилган нусха бизгача етиб келган, чунки бундай фикрга келишимизга бу шеърнинг Чўлпон шеърий тўпламларида ёки даврий матбуотда эълон қилинмаганлиги асос бўла олади. Ушбу шеър ҳам юқорида санаб ўтилган шеърий манбалар каби пароканда дафтар варағига ёзилган бўлиб, ҳозирги кунда Тошкентда, Шарифа Мирзахўжаеванинг хонадонида сақланади. Мазкур нусхадан адабиётшунос Восит Саъдулла томонидан ёзув машинаси орқали кўчирилган нусха ҳозирги кунда Андижондаги адабиёт ва санъат музейи фондида сақланмоқда.

“Иккинчи мактуб” шеъри ҳам “Биринчи мактуб”даги мумтоз адабиёт анъаналарини давом эттирган ҳолда ёзилган бўлиб, илк бора жорий нашрларда Адабиётшунос Н. Каримов томонидан эълон қилинган. [Н.Каримов.2008.401-бет].

4. “Барча умид сен карамдан, эй карам, қилғил карам” шеъри. Ушбу шеър ҳам 1932 йилда Москвада ёзилган. Мазкур шеър ҳам юксак эҳтимол билан Чўлпон қўлёзмасидан Шарафиддин Салоҳий томонидан кўчириб олинган, чунки бу шеър шоирнинг шеърий тўпламлари ҳамда матбуотда чоп этилган шеърларига киритилмаган. Ш.Салоҳий томонидан кўчирилган нусҳа ҳам пароканда дафтар варағига ёзилган бўлиб, ҳозирги кунда Тошкентда, Шарифа Мирзахўжаевнинг хонадонида сақланади. Мазкур нусхадан адабиётшунос Восит Саъдулла томонидан ёзув машинаси орқали кўчирилган нусха ҳозирги кунда Андижондаги адабиёт ва санъат музейи фондида сақланмоқда.

“Барча умид сен карамдан, эй карам, қилғил карам” шеъри жорий нашрларда илк бор 1991 йилда “Яна олдим созимни” тўпламида [Чўлпон.1991.544], 1994 йилда “Асарлар” 3 жилдлигининг I жилдида [Чўлпон.1994.187-бет], 2016 йилда “Асарлар” 4 жилдлигининг I жилдида [Чўлпон.2016.288-бет] қайта нашр қилинган.

“Барча умид сен карамдан, эй карам, қилғил карам” шеъри арузнинг рамали мусаммани маҳзуф вазнида ёзилган.

Ҳозирги кунга қадар юқорида санаб ўтилган шеърларнинг бош манбаси сифатида Восит Саъдулла томонидан кўчирилган нусха ҳисобланар эди, аммо ишимизнинг аҳамиятли жойи шундаки, илмий изланишларимиздан сўнг адабиёт ихлосмандларига мазкур манбалар Шарафиддин Салоҳий дастхати билан ёзилган нусхадан кўчирилгани маълум бўлади. Наим Каримов таъбири билан айтганда, Чўлпон ижодининг заргар мухлислари орасида шўро тузумининг қаҳридан қўрқмаган, ҳар қандай таъқиб ва таҳдидга қарамай севимли шоирининг асарларини тўплаб, кўз қорачиғидек сақлаган инсон сифатида Шарафиддин Салоҳийни ҳам алоҳида эътироф этишимиз лозим. Юқорида санаб ўтилган шеърий мактублар орқали Шарафиддин Салоҳий Чўлпон учун

наинки куёв сифатида, балки севимли ака, энг яқин дўст ва маслакдош мақомида бўлганлигини кўришимиз мумкин. Ўз ўрнида Шарафиддин Салоҳий ҳам умри давомида халқимизнинг севимли шоири Чўлпонни ўз укаси каби кўрганлигини, унга керакли вақтларда ғамхўрлик қилганлигини, қалбан энг яқин дўсти ва мухлиси бўлиб қолганлигини унинг Шарифа Мирзахўжаеванинг хонадонида сақланаётган шахсий архиви манбаларидан ҳам англаб олишимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Жалолов Т. Бону. Тошкент. "Ёш гвардия" нашриёти. 1963.

2. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.

3. Каримов Н. Чўлпон. – Тошкент: Шарқ, 2003.

4. Отажон У. Мушоара. – Тошкент: Meriyus, 2009.

5. Чўлпон. Яна олдим созимни. Кеча ва кундуз. Ёрқиной. Шеърлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. .

6. Чўлпон. Асарлар. 3 жилдлик. I жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти (Нашрга т-чи: З.Эшонова), 1994.

7. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд – Тошкент: Akademnashr (Нашрга т-чи: Н.Каримов), 2016.

8. Ғ.Ғулом. Аруз жилолари. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2019.

CHO'LPONNING "ZAMONA XOTINI" DRAMASIDA AYOLLAR ERKI TASVIRI

Habibullo Jo'rayev,
FarDU Adabiyotshunoslik kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

Axrorxo'jayeva Parizoda Murodali qizi
Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-bosqich magistranti (O'zbekiston)

Annotatsiya: "Zamona xotini" dramasi Cho'lponning qo'lyozmasi endigina topilgan, hali o'rganilmagan dramasi hisoblanadi. Maqolada dramadagi zamon ayollarining erksizligi, haqiqat uchun kurashi, ayol xarakterining qay darajada shakllantirilgani tadqiq etiladi. Shuningdek, ayollar obrazini yaratishda konfliktning o'rni haqida fikr yuritiladi. Cho'lpon ijodidagi takrorlar, ba'zi bir kamchiliklar, o'xshash va farqli jihatlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Qo'lyozma, konflikt, an'anaviylik, xarakter, fojea, obraz.

Annotation: The drama "Time's Wife" is a drama of Cholpon whose manuscript has just been discovered and has not yet been studied. The article examines the freedom of modern women in the drama, the struggle for truth, and the extent to which the female character is formed. Also, the role of conflict in creating the image of women is considered. Repetitions, some shortcomings, similarities and differences in Cholpon's work are studied.

Key words: Manuscript, conflict, traditionalism, character, tragedy, image.

Аннотация: Драма «Жена времени» — драма Чолпона, рукопись которого только что обнаружена и еще не изучена. В статье рассматривается свобода современной женщины в драматургии, борьба за правду, степень сформированности женского характера. Также рассматривается роль конфликта в создании образа женщины. Изучены повторы, некоторые недостатки, сходства и различия в творчестве Чолпона.

Ключевые слова: Рукопись, конфликт, традиционализм, персонаж, трагедия, образ.

Jadid adabiyotining shakllanishida o‘zining she’rlari, maqolalari, sa’y-harakatlari bilan munosib hissa qo‘shgan Cho‘lpon dramaturgiya sohasida ham barakali ijod qildi. Uning dramaturgiyadagi dastlabki izlanishlari 1919-yilga to‘g‘ri keladi. U shu yilda o‘zining “Temirchi”, “Gunoh”, “Cho‘rining isyoni” kabi kichik sahna asarlarini yozdi. 20-yillarning boshlarida esa, “Yorqinoy, “Xalil farang”, “O‘ldiruvchi”, “Sevgi va saltanat”, “Cho‘pon sevgisi” pyesalari dunyoga keldi. Ammo bu asarlarning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Cho‘lpon faoliyati davomida sahna san’ati va dramaturgiya sirlarini, shunindek, rus tilini yaxshi bilgani uchun 1924-yil Maskvada tashkil etilgan o‘zbek drama studiyasiga adabiy emakdosh etib yuborildi. U rus tilini bilmaydigan vatandoshlariga moskvalik artist va rejissorlarning ma’ruzalarini tarjima qilib berish bilan birga o‘zi ham studiyachilar uchun sahna asarlari (“Yorqinoy”, “Yana uylanaman”, “Qorovul uyqusi” Lev Sverdin bilan hamkorlikda “Uzunquloq bobo” ni yozib, rus va yevropa dramaturglarining pyesalari(K.Gotssi “Malikayi Turandot”, Nikolay Gogol “Tergovchi”, Vladimir Bill Belotserkovskiyning “Labbay”, Molyer “Xasis”) ni tarjima qilib berdi.

Cho‘lpon 1927-yilda Moskva va Boku drama studiyalari qatnashchilari bazasida O‘zbek davlat namuna truppasi (1929-yildan O‘zbek davlt teatri) tashkil etilgach, mazkur truppaning adabiy emakdoshi sifatida faoliyat olib bordi. Shu davrda uning kishilar va jamiyat hayotidagi nuqsonlarni hajv euvchi “Mushtumzo‘r”, “Hujum” (V. Yan bilan hamkorlikda, 1928-yil), “O‘rtoq Qarshiboyev” (1929) kabi asarlari sahna yuzini ko‘rdi. Shu bilan bir qatorda Cho‘lpon teatr tarjimoni sifatida ham samarali ijod qildi. K.Goldonning “Ikki oyga bir qarol”, Lope de Veganing “Qo‘zi buloq”, William Shekspirning “Hamlet”, F.Shillerning “Boshmachilar”, Bill Belotserovskiyning “Po‘rtana”, s.Levitinaning “Hukm”, A.Faykoning “Portfelli kishi”, V.Tretyakovning “Na’rangni tort, Xitoy!”, Vs.Ivanovning “14-69 raqamli poyezd” pyesalarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. O‘zbek teatr ixlosmandlarini dunyo teatr sanati bilan tanishtirdi. Cho‘lpon dramaturg va tarjimon sifatida professional o‘zbek teatri vujudga kelishiga katta hissa qo‘shdi.

Cho‘lponning davr va ijtimoiy hayot aks etgan yana bir dramasi “Zamona xotini” dramasidir. Ushbu drama Cho‘lponning bugunga qadar qo‘lyozmasi topilmagan nodir pyesalaridan biri edi. Qo‘lyozma bugunga qadar Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi “O‘zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxivi fondi”da saqlangan bo‘lib, Fitratga doir manbalar orasida bo‘lgan, unvon varag‘i yo‘qolganligi uchun kimning qaysi asari ekanligi aniqlanmagan va hujjatga nom ham berilmagan. Matn bilan tanishish asnosida uning Cho‘lpon qalamiga mansub “Zamona xotini” asari ekanligi aniqlandi [Cho‘lpon, 2024]. Filologiya fanlari dortori Shahnozaxon Nazarova yozgan so‘zboshida pyesaning qachon, kim tomonidan asralgani, nashr varianti va qo‘lyozma qiyosidagi bir xilliklar, tuzatishlar haqida so‘z boradi.

Cho‘lponning “Shunigina deyman...” nomli so‘zboshisida aytlishicha, drama 8-mart Xotin-qizlar kuni uchun ikki pardadan iborat, komediya janrida yozilgan. Mannon Uyg‘ur tavsiyasi bo‘yicha keyinchalik komediyadan fojeaga aylantirilga va jami uch marta tahrirlangan. Drama 4 parda, 8 ko‘rinish, 63 majlisdan iborat. Boshqa dramatik asalardan farqli ravishda Cho‘lpon har bir ko‘rishiga sarlavha qo‘yib, nom beradi, “Kurash va sevgi”, “Yana bir dushman ortdi”, “Oydin kechalarda”, “Yetilgan qizlar majlisi”, “Alamzadalar” shular jumlasidandir. Har bir qism va boblarga nom berishni biz avvalroq, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida uchratgan edik. Drama ko‘rinishlariga nom berishni esa Cho‘lpon ijodida ko‘rishimiz mumkin.

“Zamona xotini” dramasi halollik, mehnat, inson sha’nini avaylash, yorug‘ maqsadlar yo‘lida sobitqadamlik kabi insoniy va azaliy qadriyatlar ustiga qurilgan. Shuningdek, bolasini bag‘riga bosgancha, yangi ijtimoiy munosabatlar ichiga qisinib-qimtinib kirib borayotgan [Cho‘lpon, 2024: 7], oilada, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilayotgan, o‘z erki va orzulari uchun, sevgisi uchun, haqiqat uchun, xalq uchun kurashayotgan ayollar obrazi ayniqsa ahamiyatidir. Tadqiqotimiz mavzusi ayollar obrazi ekan, albatta ushbu dramada ham ayollar masalasiga e’tibor berishimiz zarur. Ushbu dramadagi konfliktli o‘rinlar ayollar xarakterini ochishda bizga katta yordam beradi.

Harakat bor joyda, tuyg'ular bor joyda, ikki jins vakili bor joyda shubhasiz **konflikt** bo'lishi turgan gap. Chunki drama asosi konfliktlarga quriladi. Bayonchilik boshqa nasriy asarlar, jumladan, hikoya, qissa, romanlarga xos uslub, konflikt esa dramaga xos uslub. Dramada qahramon ahvoloti (yoshi, xarakteri, kasbi, fe'l-atvori) asosan ishtirokchilar bilan tanishtiruv qismida, makon va zamon tasviri har parda va ko'rinish boshlanmasida, qahramonlaring kichik harakatlari esa remarkalarda yoritiladi.

"Zamona xotini" dramasida konfliktlarni quyidagicha aniqlab olishimiz mumkin: a) bir jins vakillari o'rtasidagi konflikt b) ikki jins vakili o'rtasidagi konflik. O'z navbatida har ikki turdagi konfliklar ichki guruhlarga bo'linib ketadi. a.1- ayyollar bilan ayollar: Jahonbu va Rahima; Jahonbu va Sharofat.

a.2- erkaklar bilan erkaklar: Rustam va Abdilahadjon, Zokirjon va Abdilahadjon.

Dramada Rahima va Jahonbu o'rtasidagi konflikt kundoshlik konfliktidir. Jahonbu Rahimaning eri, jamoa ijroqum raisi Rustam akaning qaynonasi. Jahonbuning xarakterida hamma onalar qatori farzandiga yaxshilik qilish, qayg'ularini aritish harakati bor. Qizi uchun Rahima kundosh, kuyovini 1-xotinidan aynitish, sovitish uchun qasd qiladigan, irimlarga ishonadigan ayol. Rahima yo'qligida unga irim qilish bahona, uyidagi gap-so'zdan xabardor bo'lish, qizi ayollarda kamdan kam uchraydigan, go'zallikni tan oladigan ayol, "til-jag'li" ayol. Uning go'zallikni ta olishni xiyla qilib kelib, Jo'ra bilan suhbat chog'idagi nutqidan ham bilish mumkin.

"Jo'ra. Xudog'a shukur, mening xotinim yo'q.

Paranjili xotin. U-chi? Haligi juvon-chi? U... o'ynashingmi?

Jo'ra. Shunga yaqinlash... yo'q... lafzi halol: boshqa birovning o'ynashi...

Paranjili xotin. Yaxshi. Chiroyliq juvon ekan. Har kim olsa arziydi...". [Cho'lpon, 2024:24] Jahonbu "har kim olsa arziydi" deb, birinchi o'rinda Sharofatning husniga havasi ketsa, ikkinchi o'rinda uning yorug' toleyi, ya'ni bu chiroy bilan yaxshi insonga tegishi, baxtli hayotidan umidlanadi. Ammo Sharofatning izini poylashdan ham toymaydi. "Onasini ko'rib qizini ol" deganlaridek, qizining harakatlaridan ayb topib, uni elga yoyib, qizining tarbiyasida onasini, ya'ni,

Rahimani ayblash orqali kuyoviga yomon ko‘rsatishni istaydi. Bu ham albatta **ayol xarakteriga** xos bo‘lib, raqibini yengish, g‘alaba qozonish uchun hech narsadan tap tortmasligiga asos bo‘ladi. Drama ekspozitsiyasi Sharofat va Jo‘raning suhbatidan boshlangan bo‘lsa, Jahonbu bilan Sharofatning to‘qnashuvi harakatning murakkablashuvidir. Biz yuqorida korib o‘tgan to‘qnashuv va ziddiyatlar asarda unchalik ham ahamiyat kasb etmaydi. Dramadagi asosiy ziddiyatlar Rustam va Rahimaning er-xotin munosabatlarida hamda boshqaruv tizimida namoyon bo‘ladi. Rustam ijroqum raisi. Rahima “Qo‘shchi” noibi. Rustam xotinining jamiyatga aralashuvini istamaydi. Modomiki xotini amal egasi bo‘lar ekan undan o‘zib ketishi, amal kursilariga yanada ko‘tarilib ketishi, uning kirdikorlarini fosh etib qo‘yishidan va eriga bo‘ysunmay qolishi, o‘z haqini tanib qolishi, mustaqil ish ko‘rishidan qattiq cho‘chiydi. Rahimani amaldan bo‘shatish uchun “Qo‘shchi” raisi bilan til biriktiradi, qishloqdoshlarga uni yomon ko‘rsatishdan, yuqori amaldorlarga fuqarolar tomonidan Rahimani yomonlab “yumaloq xat” yozishdan ham toymaydi: *“boshini vaa bir qo‘lini ro‘mollar bilan bog‘lag‘on, ranggi o‘chkan Rahima xola kirib keladi. Bog‘lang‘on ro‘mollar qip-qizil qon bilan ho‘llanmishdir”* [Cho‘lpon, 2024:64] bu o‘rinda Rahimning uyishtirilgan holda kaltaklangani, “bu otang nimalarni qilayotibdir” (91-bet) gapi orqali bu ishlar aynan eri tomonidan qilinayotgani anglashiladi. Qizi Sharofat bilan ko‘ngil qo‘ygan Rahimaning tarafdorlaridan biri muallim Abdilahad bilan suhbatda noibning holati, qaishloq ahlining unga bo‘layotgan munosabati yanada yaxshiroq aks etadi. “Darmonim tugab, yana og‘riqlarim kuchayib qoldi. Undan keyin bitta bola yo‘lab-yo‘qlab keltirib qo‘ydi”. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Rahimaning o‘zi yurishga-da holi yo‘q. Bunga kim sabab. Rustam sabab. “Eslik-eslik badraqlardan bir ikkitasi menga g‘alati g‘alati muomila qiladilar. Hayron bo‘ldim”. Bu esa, Rahimaning tarafdorlarini Rustam o‘z tomoniga og‘dirganidan dalolat. Rahimaning Abdilahadga “Kaltakni bekorga yemagan bo‘lsam-a?” deb so‘rashida ham ikkilanish, ishonchsizlik, ham erining qo‘li uzunligi, doktor yozib beradigan guvohnomani-da o‘z foydasiga o‘zgartira olishi mumkinligini bilgani uchun ham ishning taqdiridan xavotirlanadi.3-parda 1-ko‘rinish 8-majlisda Rustamning Rahimaga munosabati yanada yaxshiroq no-

moyon bo‘ladi. “Rahima: ...O‘lmadim, uning bu yog‘i bo‘ldim. Rustam: Shu yomon bo‘ldi. O‘lib keta qolsang – dunyo tinchir edi...”. Anglashiladiki, Rustam uchun xotinining o‘lik-tirigi bir, ahamiyatsiz. Balki, xotini o‘lsa, dushmandan ham, kurashdan ham, mashmashalardan ham qutuladi. Rahimaning “Men o‘limdan qo‘rqmayman. Bir marta o‘lib bo‘lg‘on kishiman” deyishi, uning ko‘ngil iztiroblari, kundoshlik jabri, sevilmaslik, mehrsizlik, hamdard, hamsuhbatsizlik kabi kechmishlarga ishora qiladi. Erining muallim bilan bordi keldi qilmaslik, qizini To‘qtasinboyga berish, Zokirjondan uzr so‘rash, “Qoshchi”dan o‘zi istefo yozib ketish, erim urdi deb hech qayerda, hech kimga aytmaslik kabi shartlariga “Gapiring!” deb takrorlashi dadilligini ko‘rsatsa, “Yana bormi?” deyishi navbat “navbat mengami?” deganiday bo‘ladi. “Bo‘ldingizmi?” degani esa, “endi men gapiraman” degan ma’noni bildiradi. Erining “men xo‘p degan javobni eshitkali keldim” deganiga javoban “bo‘lmasa, indamayman” deyishi o‘z so‘zidan qaytmasligi, bo‘ysunmasligi uning o‘z haqini tanib qolganligi, qanday vaziyatda qanday yechim qilish kerakligi, qaysi paytda kimga murojat qilishni yaxshi bilishi nafaqar Rahima, balki o‘zligini tanib borayotgan, maqsadlari sari intilayotgan, jamiyatga erlar bilan barobar hissa qo‘shayotgan davr xotin-qizlarining aks-sadosi edi. Xotinini gap bilan yengolmagan Rustam pichoq bilan qo‘rqitishi, eriga kuchi yetmay bo‘g‘ilganidan yoqalarini yirta boshlaydi ammo shunda ham bu shartlarga rozi bo‘lmaydi. Saylov komissiyasi daragini eshitib kulishi, uning g‘olibona yurishi edi. Rahimaning saylovdagi nutqi orqali Cho‘lpon zamona ayollari ham amaldor bo‘layotgani, xotinlar ham odam qatori ko‘rilayotgani, ularga ham navbat berilayotgani va eshitilayotgani davrning ayollarga bo‘lgan munosabati o‘zgarayotgani, gender tenglik masalasi endi-endi kurtak otayotganiga ishora qiladi. Ayollarni qimorbozlar, o‘g‘ri amaldorlar changalidan qutqarishga chorlshga da’vat etdi. Cho‘lpon **Rahima obrazi orqali zamonaning ayollarga bo‘lgan munosabati**ni quyidagilarda namoyon etadi:

- Rahima kabi ayollarning amaldor bo‘la olishi;
- Ayollarning ham fikri inbatga olinishi, eshitilishi;
- Qizlar o‘z tengiga, o‘zlari ko‘ngil qo‘yib oila qurishi;
- Nikoh guvohnomasi qizning ham roziligi bilan berilishi;

Cho‘lpon **ayol qalbi**ni yaxshi his etadi. Bu jarayonda u har bir hisni, har bir kechinmani o‘z rangida chizadi. Rahimaning bir o‘rinda eriga achinishi, kutilmaganda kirib kelgan eri qarshisida “voy, sho‘rim!” deb o‘rnidan turib ketishi, hajayonlanishi, taajjublanishi, biz oz bo‘lsada ko‘ngli yumashashi, kundoshining bolalarini qarovsiz qoldirmaslikni-da o‘ylashi, kundoshlik oldida ona qalbining buyukligini tasvirlaydi.

Cho‘lpon ishtirokchilarni tanishtirar ekan, Jo‘rani 50 yoshlarda deydi. Ammo Sharofat unga sen deb murojat qiladi.

“Sharofat:...Qani, aytginchi, otamning oldida nimaga xizmat qilib yurasan?

Jo‘ra: Ha...barakalla! Munday deng!(*Sekin*) Men... otangizning oldida...sizni yaxshi ko‘rganligimdan xizmat qilib yuraman...

Sharofat: (*Ermak bilan*) Meni yaxshi ko‘rganligingdan?

Jo‘ra: ha, sizni yaxshi ko‘rganligimdan...” [Cho‘lpon, 2024:20]. Sharofatning o‘zidan o‘ttiz yosh katta odamni “sen”lashi otasining amaldorligi, Jo‘raning otasi Rustam qo‘lida qorovul bo‘lib ishlashi va yana yosh qizning tantiqligidandir. Rahima Jo‘ra haqida o‘ylar ekan, uni qirq yosh deydi [140]. Drama Cho‘lpon yozgan qo‘lyozma asosida nashr etilganligini e’tiborga olsak, Cho‘lpon Jo‘raning yoshini bir o‘rinda 50, bir o‘rinda qirq deydi va **xatolikka yo‘l qo‘yadi**. Bu esa yana bir o‘ylantiradigan jihat. Sharofat, uning sevgilisi Abdilahadjon Rahima taraf bo‘lib, otasiga qarshi ish ko‘radi. Tadbir qiladi. Bu jihat Cho‘lponning “Yorqinoy” dramasiga o‘xshab ketadi. Aynan bu dramada ham Yorqinoy sevgilisi Po‘latjon taraf bo‘lib, otasiga qarshi ish ko‘radi.

Jo‘raning “birov yubordi” deganidan “cho‘chib tushish”i, “anglag‘on, faqat bilmamishka solinib so‘rash”, jo‘rttaga o‘zganing ismini aytishi, bilib bilmaslikka olishi, u haqida so‘rashi, “o‘sha-da, o‘sha beparvo o‘lgurni...” deb ham erkalash, ham uyalish, ham noz bilan “qizarib”, “yuzini to‘sib” Abdilahadjon haqida so‘rashi yosh qizning xarakterini ochib bergan. O‘quvchi ko‘z oldida yaqqon gavdalantirib bera olgan. Sharofatning “Bizning ham peshonamizga birovning quruq muhabbati-yu boshqa birovning cho‘rilig‘i yozilg‘ong‘a o‘xshaydi” deganda “bizning ham” orqali o‘zining emas, Turkiston xotin-qizlari taqdiriga ishora qiladi. Ko‘nglidagining qurbi,

kuchi yetmagandan keyin, boshqa birovning xizmatini qilib yurganlariga ishora qiladi.

Kuzatuvlarimdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Cho'lpon dramaturgiyasi, umuman olganda jadid adabiyoti nasriy va dramatik asarlarida xotin-qizlar asosan yigitlarga qaraganda dadil, jasoratli, yigitlarni harakatga, kurashga undovchi obraz sifatida gavdalantiriladi. Bu bir hisobdan **an'anaviylik** ham. "Alpomish" dostonida Alpomishni kurashga undagan ham Qaldirg'ochning birgina so'zi emasmi? "Mehrobdan chayon" dagi Ra'no, "Zaharli hayot yohud ishq qurbonlaridagi" Maryam, "Yorqinoy" dagi Yorqinoy va biz tahlil etayotgan "Zamona xotini" dramasidagi Shatofatxon obrazlari fikrimizning isbotidir. Sharofatxonning muallimga "Men siz bo'lsam, albatta qo'rqmas edim"(40-bet), "Siz yiqitib-yiqig'uncha men Azimjon qimorbozning taratiga suv quyaturg'on bo'lib qolaman"(44-bet) deyishi bir hisobdan muallimni kurashga undasa, bir hisobdan yigitlik, erkaklik, oshiqlik g'ururi qo'zg'aydi. Qizning otasiga va uning tarafdorlari bo'lmish RAQIBiga qarshi kurashga undaydi.

Yana bir o'rinda Sharofatxon muallimga "qochish rejasi" ni aytish uchun chora izlagan bir paytda Jo'raning "Bitta qalpoq, bir juft yaxshi etik, bir qator forma kiyim, bitta ko'zoynak, bir quti "papirus" olib kelaman. Kiyimarni kiyasiz, ko'zoynakni taqasiz, papirusni tutatasiz-da, xuftondan keyin ijroqum oldig'a chiqib tong otquncha muallim bilan gaplashasiz. Hech kim tanimaydi, hech kim bilmaydi..." degan maslahati, uning xuddi shunday kiyinib muallim bilan ko'rishishi Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidagi Ra'noning tunda Anvarning oldiga boorish syujetini eslatadi. Shu bilan birga Cho'lpon xotin-qizlarini bo'ysunuvchanlikka emas, orzusiga erishish, dadillikni ishga solishga undaydi.

Cho'lpon erk mavzusini faqatgina Rahima va Sharofatxon obrazlari emas, Sharofatning dugonalari, muallim nutqida ham "qistirib" o'tadi. Shuningdek, muallif drama davomida xalq qo'shiqlaridan unumli foydalangan.

Yuragim choydishmidi?
Choyni solib qaynatdilar.
Avji uyquda edim,
G'amni solib uyg'otdilar.

Muallif har bir voqea, har bir nutq, har bir obraz atrofida ayollar erki haqida so‘zlaydi, so‘zlatadi. Nafaqat obrazlar taqdiri, balki Turkistondagi xotin-qizlar erksizligi, tanlash, so‘zlash, xohlash, o‘zini namoyish etish kabi huquqlardan mosuvoligi, ularni eshitadigan quloq yo‘qligi, bo‘lsa-da qo‘li kaltaligi haqida kuyunib so‘zlaydi.

Aslida zamona xotini Rahimagina emas, Sharofat ham, Qumri ham zamona xotini. Chunki ular ham zamondan, zamon odamlaridan jabr ko‘ryapti. Cho‘lpon Rahima obrazi orqali ayollar ham siyosiy jarayonda ishtirok eta olishi mumkinligi, faqat bu yo‘lda duch keladigan g‘ovlarga taslim bo‘lmaslikka, o‘z maqsadida, o‘z ahdida sobit turib o‘zligini namoyon etishiga, tun ortida albatta yorug‘ik borligiga ishora qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Қуронов Д. Чўлпон насри поетикаси. «Шарқ» нашриёти. Т.: 2004

2. Ризаев Ш. Жадид драмаси. «Шарқ» нашриёти. Т.: 1997

3. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. «Ёзувчи « нашриёти. Т.: 1994

4. Чўлпон. Замона хотини. «ИЖОД МАШР». Т.:2024

ZAMONAVIY O'ZBEK NASRIDA MUNAVVARQORI OBRAZI

Sevara BABAYEVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
(O'zbekiston)

Annotatsiya Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotida yaratilayotgan jadid obrazlarining yaratilishi, tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning uyg'unligi, tarixiy koloritning ifodasida ijodkor badiiy mahorati kabi masalalar tadqiq etiladi. Shuningdek, Munavvarqori Abdurashidxonov hayotiy faoliyati, ijodi va xarakteriga oid ma'lumotlarning badiiy aksi matn asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qissa, jadid, tarixiy shaxs, tarixiy haqiqat, badiiy to'qima, tarixiy kolorit.

Abstract. This article examines issues such as the creation of Jadid images in modern Uzbek literature, the harmony of historical truth and artistic texture, and the artistic skill of the creator in expressing historical color. Also, the artistic reflection of information about the life, work and character of Munavvarqori Abdurashidkhanov is analyzed on the basis of the text.

Keywords: story, Jadid, historical figure, historical truth, artistic texture, historical colort.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida jadidlar obrazini yaratish an'anasi yildan yilga shakllana boshladi. Birgina 2024-yilda Munavvarqori Abdurashidxonov to'g'risida Abbos Said hamda Muhammadxon Yusupovning qissalari e'lon qilindi.

Abbos Saidning "Munavvarqorining so'nggi nidosi" qissasi XX asrning birinchi yarmi jadidchilik harakatlarining turli to'siqlarga uchrayotgan davri voqealari, millat fidoyilaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov umrining so'nggi oylaridagi qiyinchiliklar, ruhiy sitamlari, orzu va armonlari haqida hikoya qiladi.

Asar markazida Munavvarqori hamda uning yaqin shogirdlaridan biri To'lqin Tursunzoda turadi. Qissaning boshida To'lqin Tursun-

zoda ustozining ayanchli taqdiridan darak beruvchi tush ko‘radi va cho‘chib uyg‘onadi. Undagi psixologik holatni muallif quyidagicha tasvirlaydi: “Yuragi qinidan chiqib, ichiga chiroq yoqsa yonmaydigan holda, yig‘lay desa sira yig‘lolmaydigan aftoda, juda ayanchli bir ruhiy iztiroblar iskanjasida anchagacha o‘rnidan qo‘zg‘ololmay o‘tirdi…”[Abbos Said, 2024:3]

Shuningdek, Munavvarqori obrazi diniy ilmdan mukammal darajada xabardor ekanligi yaqqol tarzda tasvirlanadi. Shogirdi bilan bo‘lgan suhbatlarida u hurriyat, ma’rifat, jaholat, din-u diyonat, vijdon va rostgo‘ylik borasidagi deyarli barcha fikrlarini Qur’oni Karim oyatlari bilan asoslashga urinadi. Xususan, “A’rof”, “Yusuf”, “Ar-Rohman”, “Tavba” suralari shular jumlasiga kiradi. Shuningdek, To‘lqin Tursunzoda ham asar so‘nggida Munavvar qorining vafotidan keyin “ul zotning shahid ketganlarini, ruh qushchalari esa illiyun kitobi sari parvoz etib yuqorilagandan-yuqorilayverganini mana endi tushunib…” [Abbos Said, 2024:3] tarzida ifodalaydi. Ushbu tasvirdagi “illiyun kitobi” ham Qur’oni karimdagi “Mutoffifiyn” surasida keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra qiyomat kunida barcha insonlarning nomi ikki kitobda keltiriladi. Do‘zax ahli “Sijjiyn” nomli kitobga, jannatga kiritilishi lozim bo‘lgan insonlar esa “Illiyun” nomli kitobga yozilgan bo‘ladi. Yozuvchi bosh obrazning jannatiy inson ekanligini yuqoridagi tasvir orqali aynan ushbu oyati karimaga asoslangan holda ifoda etadi.

Boshqa obrazlar ham shunga hamohang tarzda tasvirlanadi, jumladan: “Stalindek bir qonxo‘r dajjol” [Abbos Said, 2024:3] ta’rifi ham Stalinning olib borgan siyosati, insonlarga qilgan zulmlari va barcha yovuz amallarini o‘zida to‘liq ifoda etadi.

Badiiy asar tilida davr koloritini ifodalash maqsadida muallif turli arxaizm va istorizmlardan ham mohirona foydalanadi: “jarida”, “sidirg‘a”, “yalangqavat”, “firqa”, “haftiyak”, “abjad”, “chorkitob”, “soqqa quvlash”, “chillak otish” va h.k.

Muhammadxon Yusupovning “Ilk” nomli qissasi ham Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti va faoliyati tasviriga bag‘ishlangan. Qissaning o‘ziga xos jihati shundaki, bosh obraz, ya’ni Munavvarqorining xarakteridagi nozik tomonlar, xususan, jur’atsizlik, qo‘rquv kabi xususiyatlarning uning ruhiyatidagi sakinatning barqa-

rorligida va oldiga qo‘ygan maqsadlarining amalga oshishida ulkan to‘siq bo‘lib turganligi mahorat bilan tasvirlanadi. Bu qo‘rquvning asosini yozuvchi uning bolalik davridagi voqealarga bog‘laydi. Olti yoshida to‘satdan yo‘lidan chiqib oppoq harbiy libos kiygan, otda darg‘azab holda kelib unga qattiq gapirgan rus zobiti oldidagi qo‘rquv uning yuragiga mustahkam o‘rnashib, ham otlarga, ham sobiq sho‘ro hukumatiga nisbatan tahlika solib qo‘yadi. Hatto otasi bilan bo‘lgan so‘nggi sayrda ham: “Munavvar egarni mahkam tutib olib, ko‘zlarini ham hadeganda ochavermagan, axiyri Abdurashidxon uni yana yerga tushirganida, ko‘zlarini ochib, yig‘lab yuborgan edi...” [Abbos Said, 2024:3]

Adib qahramon psixologiyasini shu tarzda mahorat bilan tasvirlaydiki, kitobxon natijada uning qilayotgan xatolarini ham to‘g‘ri deb qabul qilishga “rozi” bo‘ladi. Uning maktab ochish jarayonidagi o‘quvchilarni yig‘ish voqeasi asardagi tugun sanaladi. Do‘sti Abdusomiy maktabga birinchi navbatda faqir-u ehtiyojmand bolalarni jalb etishni xohlasa, undan farqli o‘laroq Munavvarqori o‘ziga to‘q, xalq orasida nufuzga ega bo‘lgan oilalarning farzandlarini yig‘ishga harakat qiladi. Buning asosiy sababi maktabning ochilish va keyingi faoliyatida ularning ota-onasidan ko‘mak ilinji edi. Shu sababdan yoniga kelgan oilasining yagona boquvchisi, biroq ilmga tashna “ilk” o‘quvchisining ismini ham bilishga qiziqmaydi. Bu holat esa Qur’oni Karimdagi “Abasa” surasida keltirilgan payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. holatlarini esga soladi. Ma’lumki, kitobning faqat bir o‘rnidagina Alloh Taolo tomonidan payg‘ambarimizga bir qancha tanbeh beriladi va ularning kamchiligi ko‘rsatiladi. Ya’ni Rosululloh s.a.v. o‘z ta’limotini boy savdogarlar bilan muhokama qilayotgan vaqtlarida yonlariga kelib ularni qayta-qayta savolga tutgan ko‘zi ojiz hamda miskin kishiga qoshlarini chimirib, yuzlarini burishtiradilar. Bundan Yaratganning qahri kelib, quyidagi sura nozil bo‘ladi. “Abasa” – arabchada “qoshini chimirmoq, yuzini burishtirmoq” ma’nolarini anglatadi. Munavvarqorining ham yuqoridagi tutumi natijani Xoliqdan emas, maxluqotdan kutishi, ilmni unga ehtiyoji bor odamga emas, aksincha ilm talabida bo‘lmagan insonlarga berishga urinishi ham Qur’on oyatlari bilan hamohang tarzda tasvirlanadi.

Asarning asosiy g‘oyasi ma’rifat tizimini takomillashtirish,

xalqning til va dinga, ilmga nisbatan munosabatini to‘g‘rilash, uyg‘otish, ezgulikka chorlash kabi bir qator masalalarni o‘zida ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abbos Saidning “Munavvarqorining so‘nggi nidosi” hamda Muhammadxon Yusupovning “Ilk” nomli qissalari xalqimizning eng mudhish davrlaridan birini o‘zida ifoda etganligi, xalq ma’rifatparvari Munavvarqori Abdurashidxonovning fidoyilik harakatlarini o‘ziga xos tarzda ochib berganligi, bosh obrazning ijtimoiy-siyosiy va ruhiy kayfiyati batafsil ifoda etilganligi bilan o‘zbek adabiyotida ahamiyatli sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abbos Said. Munavvar qorining so‘nggi nidosi. – T. Yoshlar matbuoti, 2024.

2. Muhammadxon Yusupov. Deraza ortida. – T. Akademnashr, 2024.

3. Qozoqboy Yo‘ldosh. Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T., 2016.

CHO'LPON SHE'RIYATIDA YO'LSIZLIKDAN YO'L IZLASH TIMSOLLARI

Mehriniso Kenjayeva,
Surxondaryo viloyati Maktabgacha va maktabgacha ta'limi boshqaramasi O'quv jarayonni metodik ta'minlash va darsliklar bo'limi boshlig'i, Mustaqil izlanuvchi.
mexrinoz5225@gmail.com
Tel.:+998905215225
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi o'zbek she'riyatining asoschisi Abdulhamid Sulaymon Cho'lponning XX asrning dastlabki choragida Turkiston sarhadlarida o'rnatilgan siyosiy rejimga qarshi she'riy ko'lamdagi kurashi namunasi bo'lgan she'rlaridagi lirik qahramon – yo'lsizlikdan yo'l topishga intilayotgan yo'lovchi timsoli tadqiqqa tortilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston muxtoriyati, Cho'lpon, yo'lsizlik, yo'lchi, "Go'zal Turkiston", "Yurt yo'li".

Abstract. This article examines the image of the lyrical hero - a traveler striving to find a path through pathlessness - in the poems of Abdulhamid Sulaymon Cholpon, the founder of new Uzbek poetry. These poems serve as examples of his poetic struggle against the political regime established within the borders of Turkistan during the first quarter of the 20th century.

Keywords: Turkestan Autonomy, Cholpon, roadlessness, wayfarer, "Beautiful Turkestan", "Path of the Homeland".

XX asrda Chor imperiyasining qulashi ortidan o'rnatilgan bolsheviklar hukumati, dastavval, boshqa mustamlaka hududlar singari Turkiston o'lkasiga ham suveren maqom berish haqida quruqdan quruq yolg'on va'dalar berib, o'lka musulmonlarini bunga ishontirdi. Shu jarayonda mustaqil bo'lish orzusi xalqning oddiy vakillariga qaraganda millat oydinlarida bir muddat yangi ruh – kelajakka ishonch hislarini uyg'otdi.

Shundan so‘ng Turkiston mintaqasidagi birinchi demokratik hukumat – Turkiston muxtoriyati 1917-yilning 27-noyabrda Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan Butun Turkiston musulmonlarining favqulodda 4-qurultoyida (o‘sha yil 26-28-noyabrda) tashkil etildi.

Ushbu tarixiy sanani Fitrat: “Milliy laylatul qadrimiz”*[Fitrat, Hurriyat, 1917, 5-dekabr]* deb atadi. “Cho‘lpon muxtoriyatni zo‘r quvonch bilan kutib oldi, “El bayrog‘i” gazetasida muxtoriyatning gimni deyishga arzigulik “Ozod turk bayrami” nomli she’rini e’lon qildi. E’tiborlisi shundaki, mazkur she’r ham turkchilik g‘oyalarining mujassami deb qaralishi mumkin. Cho‘lpon muxtoriyatning mustaqillik yo‘lidagi ilk qadam ekanligini, yurtini o‘z qo‘lida tutib turishdan manfaatdor kuchlar unga g‘animlik qilishlari tayinligini teran his qiladi”[Куронов,1997.11]. Shoir bu borada haq bo‘lib chiqdi: “manfaatdor kuchlar g‘animlik qildi” ham.

Ta’kidlash kerakki, mazkur davrda mustamlakachilarning uzoqni ko‘zlab, aniq strategik maqsadlarga asoslangan siyosiy rejimi podsho hukumatiga nisbatan olganda Turkiston musulmonlari uchun fojialiroq kechdi. Bolsheviklar muxtoriyatni o‘zlarining istiqboldagi muxoliflari – milliy ozodlikni da’vo qiluvchi siyosiy organ, muqarrar kuch sifatida hisoblab, mazkur siyosiy organga barham berish payida bo‘ldi va bunga 1918-yilning 19-fevralida erishdi.

Yetmish ikki kun dunyo yuzini ko‘rgan Turkiston muxtoriyati shu tariqa tarix sahnasidan chetga sidirib tashlandi. Mazkur siyosiy organ, o‘lka musulmonlarining, xususan, ziyolilarining millatni saqlab qolish, mustaqil davlat tuzish yo‘lidagi so‘nggi ishongan umidlari edi va bu umid puchga chiqdi. Mazkur umumtushkunlik kayfiyati, dastavval ziyolilar ahli zehniyatiga ta’sir qilgan bo‘lsa-da, ular tushkunlikka tushib qolmadi.

Biz, tadqiqotimiz mobaynida o‘lka taqdiri mahjul bir vaziyatda, tanazzul yoqasida qolgan, millat oydinlari esa baayni dekadentlik kayfiyatida depsinib turgan davrda yaratilgan badiiy va publitsistik matnlarni, ta’bir joiz bo‘lsa, yo‘lsizlikdan yo‘l topish motivi deb atadikki, fikrimizni dastaklaydigan asoslarni Turkiston muxtoriyati bostirilgan davrdagi matbuot sahifalaridan topish qiyin emas.

Xususan, erk va milliy ozodlik shoiri sifatida bir tomondan millatning asl fidoyilari xayrixohligiga sazovor bo‘lgan, ikkinchi to-

mondan esa ayni g‘oyaviy she’rlari tufayli NKVD kabi qattol tashkilotlarning diqqat markazida turgan Cho‘lpon kabi badiiy niyati yuksak insoniy kechinmalar bilan uyg‘un, irodasi mustahkam, butun bir xalqni ortidan ergashtirishga qodir zabardast bir shoirning qalamida ham yo‘lsizlikni poetik idrok etgan lirik qahramonning yo‘l topishga intilishi aks etgan timsollar ko‘zga tashlana boshladi. 1921-yilda bitilgan “Go‘zal Turkiston” she’ri buning yaqqol misolidir.

“Go‘zal Turkiston, senga ne bo‘ldi?
Sahar vaqtida gullaring so‘ldi.
Chamanlar barbod, qushlar ham faryod,
Hammasi mahzun. Bo‘lmasmi dil shod?
Bilmam ne uchun qushlar uchmas
bog‘chalaringda?”

– deya mavjud milliy ahvolning nochorligini tasvirlarkan, shoir o‘laroq umidsizlikka tushmaydi, aksincha, yurtdoshlarini, hammaslak bo‘lishga, kurashlarga kirishga chorlaydi. “...Cho‘lpon yoshligiga qaramay, Turkistonning taqdiri to‘g‘risida, millatning istiqboli haqida chuqur qayg‘urish bilan o‘ylay boshladi. U ham jadidlarga ergashib, xalqni jaholat va nodonlik, erksizlik va qashshoqlik botqog‘idan qutqarib olishning birdan-bir yo‘li ma’rifat degan e’tiqodga keldi”[Шарафиддинов, 1993.48]. Mazkur she’rning quyidagi bandlaridan e’tiboran keskin burilishni payqash qiyin emas:

“Birligimizning tebranmas tog‘i,
Umidimizning so‘nmas chirog‘i,
Birlash, ey, xalqim, kelgandir chog‘i.
Bezansin endi Turkiston bog‘i.
Qo‘zg‘al, xalqim, yetar shuncha jabr-u jafolar!
Ol bayrog‘ingni, qalbing uyg‘onsin.
Qullik, asorat – barchasi yonsin,
Qur yangi davlat, yovlar o‘rtansin.
O‘sib Turkiston, qaddin ko‘tarsin!
Yayrab, yashna o‘z vataning gul bog‘larinda” [Cho‘lpon, 2021.39].

Xalqni qo‘zg‘alishga, birlashishga, zulmga barham berishga chaqiriq ovozi faqat erksevar va dovyurak shoirlar tilidangina yangragan. Cho‘lpon ham jahonning ana shunday toifaga mansub kam sonli

shoirlari sirasida bo‘lib, u uchun yurt qayg‘usiga tomoshabin bo‘lib qarab turish o‘limdan ham og‘ir isnod demakdir.

1922-yilda bitilgan “Yurt yo‘li” she’rida Cho‘lponning hayotiy va ijodiy konsepsiyasi o‘zining aniq va tugal tajassumini topgan deb aytish mumkin.

“Uzoq… og‘ir **yo‘l**g‘a chiqqan **yo‘lchi**men,
Bu **yo‘l**larda qilag‘uzim yulduzdir.
Men yurtimning pok istakli kuchimen,
U yulduzning tugalishi kunduzdir.
Tomirlarim, olov kabi qaynag‘an
Qonlarini kechmishlardan olmishdir.
Bilagimda irg‘ib, chopib o‘ynag‘an
Unutma, kim oyoqlaring tolmishdir.

Katta shiddat va keskin g‘ujur bilan yozilgan bu she’rda og‘ir va uzoq yo‘lga otlangan “pok istakli” (hech kimga zarar yetkazmagan tarzda, bor-yo‘g‘i ona yurtining ozod bo‘lishini istagan insonlarning umumlashma timsoli) yo‘lovchining metindek toblangan irodasi, yo‘lning mohiyatini anglagan donishmand inson da’vati xalq umumruhiyatini olg‘a intilishga – tushkunlik botqog‘idan chiqib, Ona Vatan kelajagini qo‘lga olish uchun kurashga chorlaydi. Lirik qahramon bu maqsadga osonlikcha yetib bo‘lmasligini, kontekstdagi “uzoq yo‘l” birikmasi bir va undan ortiq avlodlar kurashi taqdiri ekanligini bilsa-da, o‘z shashtidan qaytmaydi va istagi bir kuni vojib bo‘lishini komil ishonch bilan shunday bayon etadi: *“Uzoq **yo‘l**ning **yo‘lchi**simen, boramen, Istagimni bu **yo‘l**lardan olamen”* [Cho‘lpon, 2021.40].

Shuningdek, shoirning “Menim yo‘llarimda”, “Sozim”, “Ishq yo‘li”, “Uch-to‘rtta yulduz” kabi she’rlarida ham yo‘l va yo‘lovchi motivlari qabariq tarzda tasvirlangan bo‘lib, muallif lirik qahramon tilidan yo‘lsizlik hukm surgan murakkab bir vaziyatdan yo‘l topish – yo‘lchi yulduz kabi yo‘l ko‘rsatish orqali o‘quvchini yorug‘ kunlarga ilhomlantirgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fitrat. Muxtoriyat – milliy laylatul qadrimiz. // Hurriyat, 1917-yil, 5-dekabr.

2. Қуронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.

3. Шарафиддинов О. Мустафо Чўқай, Чўлпон, Отажон Ҳошим. (Истиқлол фидойилари): – Тошкент: Шарқ, 1993. – 144 б.

4. Abdulhamid Cho‘lpon. Binafsha. – Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti, 2021. – 96 b.

JADID ADABIYOTIDA DAVR RUHIYATI VA HAYOT HAQIQATI

("Uloqda" hikoyasi misolida)

Lolayev Shuxrat Aliqobil o'g'li,
TerDU, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o'qituvchisi
+998933699100, shuxratlolaev94@gmail.com.
(O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid adabiyotida hikoya janri yangilanishi, hikoya va hikoyatlarning xususiyatlari, "Uloqda" hikoyasining realistik hikoya sifatidagi badiiy tahlili hamda bu tahlil orqali jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy holatni eks etishi bilan bog'liq masalalalar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Ma'rifatparvarlik adabiyoti, janr ifodasi, hikoyatlar, hikoyalar, kontrast, didaktik adabiyot, "Uloqda", ijtimoiy-axloqiy qarashlar.

Abstract: This article discusses the renewal of the short story genre in Jadid literature, the characteristics of "hikoya" (stories) and "hikoyat" (tales), a literary analysis of "Uloqda" as a realistic short story, and how this analysis reflects the socio-moral conditions of society.

Keywords: Enlightenment literature, genre expression, tales, short stories, contrast, didactic literature, "Uloqda", socio-moral perspectives.

Ismoilbek Gasprinskiy sa'yi harakatlari natijasida barcha musulmon bo'lgan Turkiston o'lkasida, avvalo, til va din birligi millat tushunchalari umumiy mushtaraklikni hosil qildi, hamda bu umumiy bir g'oyani, maqsadni shakllantirdi. O'zbek jadid adabiyoti davrida umumiy bir g'oya, maqsad sari intilish adabiyotimizda milliy KOLORITni shakllantirdi. Shu asosda yozma adabiyotimizda dramatik tur qaror topishi hamda rivojlanishi, publisistika, lirika va epik janrlar shakllanishi hamda yangilanish revolyutsiyasi muhim hodisa sifatida jadid adabiyoti mazmun mundarijasini hosil qildi. Shu o'rinda jadid adabiyotida janriy yangilanishlar sifatidagi tahlilimizni izohlashdan

avval janr tushunchasi haqida quyidagi iqtiboslarni keltirib o'tamiz: "Janr adabiyot taraqqiyotining har bir yangi bosqichi va shu janrga mansub har bir asarda qaytadan tug'iladi, yangilanadi" [Baxtin, 2002:120]. Zero janr adabiyot taraqqiyoti hamda uning yangilanishi bilan qaytadan tug'ilar ekan, fikrimizni yorqinroq asoslash uchun yana Baxtin iborasidan misol keltiramiz: "Janr hozir bilan yashaydi, biroq hamma vaqt o'zining o'tmishi, ibtidosini yodda tutadi. Janr ijodiy xotiraning adabiyot taraqqiyoti jarayonidagi vakilidir" [Baxtin, 2002:120]. Anglashimiz mumkinki, har qanday janr yangilanishi, albatta, tarixiy o'tmishdan holi emas. XX asr o'zbek adabiyotida hikoya janri yangilanishi ham yuqoridagi mulohazalarni yaqqol isbotlaydi. Adabiyotshunos Muqaddas Tojiboyevaning "Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an'analari va mahorat masalasi" monagrafiyasida hikoya janridagi yangilanishlarini Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" axloqiy-didaktik darsligidagi hikoyalar bilan bog'laydi. Bundan ko'rinadiki, hikoya janrining shakllanish omillarida axloq va didaktika eng asosiy vosita bo'lgan. Qolaversa, "Turkiy guliston yoxud axloq" axloqiy-didaktik darsligi shakllanishida ham Sharq mumtoz adabiyotida pand-nasihat, o'git, ta'lim-tarbiya ruhida didaktik asarlar XI asrda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq" (XII-XIII), Kaykovusning "Qobusnoma" (XII-XIV), Shayx Sa'diyning "Guliston" (XIII) asarlari asosiy dasturulamal bo'lib xizmat qilgan. Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub", Shayx Sa'diyning "Guliston" asarlari tuzilish tarkibi va ifoda shakli ham anchayin o'xshashlikni ifodalaydi, ya'ni yuqoridagi barcha asarlardagi hikoyatlar muallifning axloq-odob, ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarining isboti o'laroq qo'llanilgan. Demak, jadid adabiyoti nasri hikoyachiligining shakllanishi va asosiy g'oyasida axloq masalasi turar ekan, aytishimiz mumkinki, hikoya mumtoz adabiyotimiz hikoyatlari davomchisi sifatida shakllandi.

Jadid nasrida hikoya janri mumtoz adabiyotimiz hikoyatlar davomchisi sifatida shakllangan ekan buni biz faqatgina Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" darsligida emas, balki, jadidlarning o'qish kitobi hisoblangan barcha darsliklarda kuzatamiz. Chunki, hikoya janri hikoyatning davomchisi sifatida shakllanib unda pand-nasihat, axloq odob, ta'lim-tarbiya masalasi bosh omil bo'lib xi-

zmat qilgan va shu hodisalar zaminida shakllangandir. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat-ul atfol" (1908), Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi soniy" (Ikkinchi adib, 1907), Abdulla Avloniy "Ikkinchi muallim" ("Muallimi soniy", 1912) nomli darsliklari, "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Maktab gulistoni" (1917), Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yengil adabiyot" "O'qish kitobi" (1914) va "Qiroat kitobi" (1915) kabi darsliklar tarkibidagi hikoyalarda ham bosh mezon odob-axloq va ta'lim-tarbiya bo'lgan.

Sharq hikoyatlari va XX asr jadid nasri hikoyalaridagi munosabat aloqadorligi, asos genezisi va rivojlanish revolyutsiyasini keltirib chiqargan bir qancha omillarni keltirib o'tamiz:

1.Hikoyatlar mumtoz namuna xususiyati o'laroq an'anaviy mavzu va obrazlarga boy bo'lgan, jadid nasri hikoyalarida oddiy xalqning ma'naviyat ko'zini ochmoq uchun xalqning o'zidan olib yana xalqqa ibrat qilib ko'rsatish bilan shakllangan. 2.Sharq hikoyatlarida qahramonlar asosan boshqalarga ibrat bo'ladigan ma'lum va mashhur shaxslardir. Jadid hikoyalarida esa o'z turmush tarzida uchratishi mumkin bo'lgan yoki real shaxslarni bosh qahramon qilib, ularning kechmishidan o'zimizga ma'lum xulosalar, ibratomuz mushohadalar singdirilgan.

3.Hikoyatlarda asosan qissadan hissa muallif tomonidan to'rtliklar, ruboiy, fardlarda aks ettirilsa, jadid hikoyalarida qissadan hissani o'quvchilarga havola qiladi. Ularda xulosalarni o'quvchilar mushohada yuritish natijasida anglaydilar.

4.Mumtoz hikoyatlar nasr va nazm mushtarakligida ifodalansa, jadid hikoyachiligi faqat nasrda ifodalanadi.

5.Mumtoz hikoyatlarda rivoyaviylik ustunlik qilsa, jadid hikoyalarida qahramonlar nutqi bevosita seziladi.

Umuman olganda jadid hikoyachiligi shakllanishi va rivojlanishida eng asosiy masala jadidlarning umumiy g'oyasi xalq ma'naviyatini uyg'otish, xalqning turmush tarzini o'zlariga oyna qilish orqali ularning ibrat ko'zini ochish, xalqni ilm olishga chorlov, yoshlarni ta'lim olishga undash, axloqiy-didaktik mushohadalar bilan sug'orilgan edi. Jadid adabiyotida hikoya janrining yetuk namunalari, realistik uslubni hikolayalarda boshlab bergan dastlabki namunalar: Cho'lponning "Qurboni jaholat", "Do'xtur Muhammadiyor" [Qosi-

mov va b., 2004: 276] va 20-yillarda nashr etilgan "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", "Oydin kechalarda", "Nonushta", "Gavharoy" [Qosimov va b., 2004:278] hikoyalari, Abdulla Qodiriyning "Juvonboz" (1915), "Uloqda" (1916) [Qosimov va b., 2004: 259] hikoyalari, Abdurauf Fitratning "Qiyomat" (1923) [Qosimov va b., 2004: 247] kabi hikoyalar XX asr jadid adabiyoti nasrida hikoya janrining mukammal namunalaridir. Yuqoridagi hikoyalarda biron fikr-mulohazalarni isboti, ibrati sifatida emas, aksincha xalq ichidagi ayanchli ahvolotini anglatish orqali ularni mushodaga chorlaydi. Realistik adabiyotimiz hikoyalarini o'qiganimizda shaxslarning fojiasiga achinish hissi o'rniga barcha o'quvchilar ushbu mulohazalar orqali hayotida bu illatlarni takrorlamaslikka, shu bilan birgalikda, ilm olishga, axloqiy-tarbiyaviy muhitni shakllantirishga tirishadilar. Aynan shuning uchun ham ma'rifatparvarlik (jadid adabiyoti) deya e'tirof etiladi. Har bir asarda ma'lum tafakkur va mazmun mushtarakligi chizgilari albatta jamiyatga qaratilgan va insonni tarbiyalashga yo'g'rilgandir. Shu jihatdan ham jadid adabiyotida insonni ijtimoiy-axloqiy jihatdan tarbiyalash shuning bilan birgalikda inson ilm bilan baxtli hayotga musharraf bo'lishligi oyinai ibrat ila ko'rsatib berildi. Jadid adabiyotiga keng quloch yozib kirib kelgan yangi realistik nasr shakllari ham o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan emas. Sharq adabiyotining pandnoma, didaktik ruhi bilan sug'orilgan, qadimdan mavjud bo'lib, tajribalar asosida vujudga kelgan "hikoyat" ning qonuniy davomchisi hikoya janrida realistik metodning yaqqol namunasini jadid adabiyotida ko'rishimiz mumkin. XX asr hikoyalaridagi realistik asos nimalar bilan o'lchanadi va mohiyatni ifodalashda qanday imkoniyatlarni beradi? Hikoya janrida endi mumtoz adabiyotimizdan farqli ravishda oqibatlardan xulosalar chiqarishni va bu oyna orqali o'zimizga ibrat olishni maqsad qilib qo'yadi. Misol sifatida, Abdulla Qodiriy uslubini olsak, "Uloqda" hikoyasida realistik metodni kontrast ulusida bayon etgan hamda nazari ibratni esa o'quvchilarga havola qilib qoldirgan. Mohiyatni anglamoqni kontrast vositasi bilan tahlil etsak yaqqolroq va tiniqroq namoyon bo'ladi. Asardagi kontrast sifatida berilgan quvonch va qayg'u aslida nima edi?

Quvonch: Chavandozlik mahorati, butun oila, qolaversa, butun qishloq (yosh-u, qari) ahlining uloqqa bo'lgan qiziqishi, Ulug'lar

(otasi, akasi)dan faxr tuyushi va ularga mos avlod bo'lishga harakat qilib, namuna bo'lishi, o'zbekona urf-odatlar kabi.

Qayg'u: Jamiyat bekorchi narsalarga ko'p vaqt sarflash natijasida o'zligini unutishi, yosh umrini kasb-ilm egallamasdan hobbi ortidan quvib umrini zavol qilishi, umrning bir pallasida Esonboy singari falokatga uchrashi kabi.

Jadid adabiyotida zamonaviy realistik hikoyalar xulosasi o'quvchilarga havola qilinadi. Abdulla Qodiriy ham bu hikoyada o'quvchilar xulosa chiqarishi uchun asar songida keltirgan jumlalar jumboqlarni ochuvchi kalit so'zlar desak ham bo'ladi. "Kecha meni ot qoqqan ekan. O'rnimga kirishim bilan tirrakdek qotib uxlabman. Ertalab oyim: "Tur, tur tezroq, dadang kelsa, naq o'ldiradi!" — deb ustimdan ko'rpani tortib tashladi. Men uyqulik ko'zim bilan: «Dadam bozor ketmadimi?» — deb so'ragan edim, oyim: Esonboyning janozasida! — deb javob berdi. Mening uyqum o'chdi..."[Qodiriy, 2023:19]. Bu yerda uyquning o'chishi haqiqatda uyqusi ochilishi emas, balki boshqa ma'noda anglashilgandir. Uyquning o'chisi bolaning ko'zlari endi ochilganidandir, ya'ni haqiqatni hayotda nima uchun yashayotganini uloqning ortidan quvib chavondozlik qilish qanday oqibatlarga olib kelishini, anglab yetishdagi ko'zning ochilishi – uyquning o'chishidir.

Abdulla Qodiriyning aksar ijodida ko'pkarini salbiy baholamaydi, ammo bir uloqning ortidan minglarcha insonlar yugurishi, uni tomosha qilib o'tirishini qoralaydi. Chunki o'sha davr insonlari ilmni unutib vaqtini bekorchi narsalarga sarflashadi. Asar syujetida "Qush uyasida ko'rganini qiladi" – degan naql ham ishlatilgandek go'yo. Asarda qo'llanilgan kontrast (quvonch) – o'n ikki yasharlik Turg'unboyning o'z akasidan, otasidan, qolaversa, qishloq chavandozlaridan ilhomlanib xuddi ulardek ot choptirishi, ulardek mohir va mashhur chavandoz bo'lish orzusi hattoki o'rtoqlarini bunga da'vat etishi, albatta, quvonarli hodisadir. Chunki yosh avlod yoshligidan aysh-u ishratga boqimandalikka ruju qo'ymasligi, bola tarbiyasida kattalardan ulgi olib axloqi shakllanishi quvonarli hodisa edi. Ammo asardagi kontrast (qayg'u) – yoshlar kattalardan ilm olishga yo'naltirilmagani, millatning, butun jamiyatning ilmsizligidir. Agarda insonlar "Uloq"qa to'plangandek ilm yo'li-

da, millatni yuksaltirish yo'lida birikkanda edi, Esonboy singari insonlar oyoq ostida qolib vafot etmasdi. Turg'unboyning "uyqusi ochilishi" – bu millatni yuksaltirish uchun, insonlarning ma'naviy ko'zini ochish uchun boshqa yo'ldan borib, axloqiy tarbiyani shakllantirish kabi masalalar edi.

Asardagi ijtimoiy-axloqiy mohiyat bu – ulug'lar kichiklarga xobbi emas, balki haqiqiy ilm, kasb o'rgatishi va o'zi ham buni egallagan bo'lib namuna bo'lmog'i lozim degan falsafa singdirilgandir. Ammo muallif ham asarda o'zbek xalqining qadimiy qadriyatlaridan bo'lmish ko'pkarini salbiy yoki ijobiy jihatdan baholashdan chekinadi. Turg'unboy obrazi orqali dunyoni taniyotgan, haqiqatni anglagan, jamiyatdagi hodisalarga guvoh bo'lib tafakkurini o'zgartirayotgan bo'lajak yosh ziyoli obrazini yaratgan deyishimiz ham mumkin. Turg'unboy asarda roviy bo'lib, muallif qahramonni ifodalashda *introspeksiya* (o'zining xulqi muomalasi, tarbiyasi to'g'risida xulosa chiqara biladi) usulidan unumli foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Biz buni yuqorida asar so'ngidagi iqtibos bilan ifodalab o'tdik. Yozuvchi o'z fikr-mulohazalarini asar so'ngidagi qahramon tilidan fojia bilan anglatgandek go'yo. Shuning uchun ham asar jadid adabiyotidagi realistik hikoyaning dastlabkisi deb yuksak e'tirof etildi.

Jadid adabiyotida "Uloqda" hikoyasigacha yaratilgan hikoyalar usuli jadid maktablari uchun yaratilgan darsliklar tarkibida hikoyatlar shaklida namoyon edi va bu hikoyatlarda, albatta, axloqiy, pandnoma shakli ustunlik qilib realistiklik uslubi deyarli sezilmas edi. "Uloqda" hikoyasi bilan bir davrda yaratilgan hikoyalarda ijtimoiy turmushidan olinib, realistik uslub bilan bir qatorda axloqiy-ta'limiy g'oyalar ham keng singdirildi. Shu bilan birgalikda, 20-yillar hikoyalarida adabiy jarayonga xos umumiylik va muallifga xos individuallik ham yuksak ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. “Ijod mashaqqati”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

2. Abdulla Qodiriy. “Diyori bakr”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

3. Бахтин. Собрание сочинений в 7 т.Т.6. – М., 2002.

4. Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

5. Jinlar bazmi: she’rlar va hikoyalar [Matn] / Abdulla Qodiriy. Nashrga tayyorlovchi Xondamir Qodiriy. – Toshkent: Zabarjad Media, 2023.

6. Lolayev Sh. The Genesis of the Novel and the Combination of Methodological and Formal Research. Eurasian Scientific Herald (ESH): Impact Factor: 8.225. ISSN: 2795-7365. – Belgiya, 2022 y april. –№7. geniusjournals.org.

USMON AZIMNING "KUNDUZSIZ KECHALAR" DRAMASIDA CHO'LPON OBRAZI

Badalova Jamila
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
(O'zbekiston)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Usmon Azimning "Kunduzsiz kechalar" dramasidagi Cho'lpon obrazi va ijmoiy muhit manzaralari bilan bog'liq masalalar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: dramaturgiya, obraz, davr, ijtimoiy muhit, dramatik konflikt, psxologik tasvir, tarixiy voqelik, badiiy til, uslub.

Abstract: This article analyzes the image of Chulpan and the issues related to the scenes of the social environment in Usman Azim's drama "Nights Without Daylight".

Keywords: dramaturgy, image, era, social environment, dramatic conflict, psychological image, historical reality, artistic language, style.

Istiqloldan keyingi yillarda o'zbek dramaturgiyasi ufqlari yanada kengaydi. Xususan, istiqlol yo'lida, milliy madaniyatimiz va adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan san'atkorlar, adibu shoirlar obrazini sahnada gavdalantirish uchun bir qator dramaik asarlar yaratildi.

O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim milliy teatrning adabiy emakdoshi sifatida uch adib haqida uch dramatik asar yozdi. Dramatik trilogiyaning birinchisi Cho'lpon hayotining keyingi yillariga bag'ishlangan "Kunduzsiz kechalar" pesasidir. Usmon Azimning "Kunduzsiz kechalar" dramasio'zbek adabiyotidao'ziga xos o'rin tutadi. Bu drama dramaturgning g'oyaviy jihatdan boy va insonning ichki kurashlari bilan to'la asardir. Drama nafaqat Cho'lponning badiiy dunyosiga, balki o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy holatiga ham chuqur kirib boradi. Asarda Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Soliha, Oybek, Botu kabi tarixiy shaxslar va Zamonqul, Tengdosh, Mashshoq va Galdir kabi badiiy to'qima obrazlar ham bor. Drama voqealari Cho'lpon hayotining so'nggi yillarini aks ettiradi. Pyesa voqealari shunday boshlanadi: "Cho'lponning mo'jazgina hovlisi-bog'i. Cho'lpon va do'stlari suhbatga yig'ilganlar. Ulfatlarning oshga tayyorgarlikda ekanligi sezilib turibdi. " [Usmon Azim.2011.14-bet]. Do'stlar

davrasida ko'tarinki kayfiyat, Hofiz va Mashshoq Cho'lpon she'ri bilan aytiladigan mashhur "Galdir" kuyini chalyapti. Shunda birdan hayajonlangancha qo'lida gazeta ko'tarib Oybek kirib keladi. Ayon bo'ladiki, gazetada Cho'lponga qarshi maqola bosilgan. Ushbu maqola o'z davrida juda ommalashgan va Cho'lponga tosh otishga dastak bo'lgan Aynning maqolasi edi. Maqolada u shunday yozadi: "Bu kungacha, Cho'lpon to'g'risida ma'ruzao'qug'onlar, unga madhiya yozg'onlar nima desa desinlar, uni bo'yab ko'rsatsalar ko'rsatsinlar, biz ularga qo'shila olmaymiz. "Cho'lpon kim?" "U kimning shoiri?" degan so'roqqa, qisqacha qilib "Cho'lpon butun kirlikdan ozod bir insondir; bir shoirdir. U yo'qsil xalq shoiridir" deb, chiroylik jumla bilan javob beruvchilar, unga baho qo'yuvchilar oramizda bor" [Cho'lpon va tanqid.2004.29-bet].

Cho'lponshunoslikning dastlabki bosqichida shoir ijodiga oid adabiy-tanqidiy maqolalar taqriz ko'rinishida edi. Ammo 20-yillar oxirida Cho'lponning kimligini, ijodining mohiyatini va mafkurasining qandayligini aniqlash lozim bo'lib qoladi. Bu vazifa Aynning chekiga tushadi. Va shu tariqa yuqoridagi "O'zbek shoirlari, Cho'lpon" nomli maqola 1927 yili 14 fevralda "Qizilo'zbekiston" gazetasida bosiladi. Ushbu dramada Cho'lponning achchiq taqdiri, qatag'on yillarining tahlikali damlari hamda haqiqat, adolat uchun kurashgan yozuvchining fojiasi haqida hikoya qilinadi.o'z jonini saqlash uchun sotqinlikdan ham toymaydigan Sezgir, Zamonqul kabi obrazlar yorqin aks ettirilgan.

Dramadagi yaratilgan har bir personaj nihoyatda nozik va chuqur psixologik tahlilga asoslangan. Har bir personaj o'zining ichki konfliktlari, kurashlari va orzulari bilan ifodalanadi. Cho'lponning shaxsiy hayoti va uning ijodio'rtasidagi zidlik,o'zinio'zi tushunish vao'z hayotini ma'naviy jihatdan yangilash istagi keltirilgan. Dramaturg inson qalbidagi e'zozlanishi zarur bo'lgan nozik qirralarni topa olgan. Cho'lpon uchun yorug' dunyoda Vatanidan, sevimli yoridan azizroq narsa yo'q. Xuddi shu holatni dramadagi Cho'lpon va uning sevimli ayoli Soliha dialoglarida ko'rinadi. Dramadagi bu muloqot hech bir kitobxon yoki tomoshabinni befarq qoldirmaydi.

Cho'lponning bu davrdagi ruhiy holatini, yozgan asarlarining mohiyatini anglashimizda uning "Somon parcha" nomli she'ri muhim

ahamiyatga ega. Shoir unda mavjud sharoitga bo'yin egishga majburligini,o'zini "oqimning yo'liga solgani" yu "har amal har ishni "haq" deb borish"ga majburliginio'kinch bilan yozadi. Ayni paytda,o'zini zo'r dengiz qo'ynidagi somon parcha his qilgan shoir:

Jimgina boradir kirsiz qo'ynimda
Erkin ko'piklarning allaqanchasi!...- deb yozadi.

Dramada muallif nafaqat Cho'lpon fojiasini, balki davr fojiasini, u bilan yonma-yon yashagan ziyolilarning mustabid tuzim davridagi ziddiyatli hayotini ko'rsatib beradi. Dramada, shuningdek, Fayzulla Xo'jayev, Fitrat, Oybek , Botu , Akmal Ikromov kabi turli xil xarakterli tarixiy shaxslarni ko'ramiz.

Ma'lumki, 30-yillardagi ijodiy muhit juda dahshatli edi. Hamma bir-birini sotgan, qatag'on avj olgan paytlar. Sho'rolar hukumati ijod erkinligini cheklagan, ziyolilar faoliyatiga to'siq qo'yilgan edi. Shu yillardan boshlab matbuotda Cho'lponni qoralovchi maqolalar paydo bo'la boshlaydi. Hatto u bilan yaqin bo'lganlar ham unga tosh otadi:

"**Botu**. Sen menga quloq sol. Esingdami, Cho'lpon Turkistonni "Buzilgan o'lka" deb atagan edi. Nima desang de, Cho'lpon eski turmushning shoiri.

Oybek. Bilmadim, har holda men unga ishonaman... Cho'lpon adabiyotimizning yangilangan ijodkorlarlaridan. Adabiyotda unga teng keladigani yo'q [Usmon Azim.2011.20-bet].

Cho'lpon boshiga tushgan savdolar mustamlakachilar davrida o'zbek xalqi boshiga tushgan savdolarning bir qismidir. Chunki mustabid tuzum bu davrda xalqning bir farzandini ikkinchisiga qarshi gijgijladi, uning ustidan har xil xatlar yozishga, kerak bo'lsa tubsiz jarga solishga ham majbur qildi. Ammo muhit har qancha dahshatli bo'lmasin, hamma ham e'tiqodidan, iymonidan voz kechgani yo'q. Ana shunday insonlardan biri Oybekdir. Hamma Cho'lpon ijodini "yoshlar uchung'oyatda zararli", "Cho'lpono'zining shoirlik vazifasini to'g'ri tushunmaydi" deb turganida Oybek boshini qilichga qalqon qilib bo'lsa ham Cho'lpon ijodiga sog'lom nazar bilan qarash kerakligini aytadi. U yuqoridagi maqolaga javob tariqasida "Cho'lpon shoirni qanday tekshirish kerak" nomli maqola yozadi.

Ayn maqolasidagi ayrim haqoratomuz ta'birlar yangi zamon she'riyatining zo'r ixlosmandi bo'lmish Oybekning qalbinio'rtaydi. U o'z maqolasida badiiy asarni tekshirish usuli masalasiga to'xtalib, "sotsiolistik metod"ga ko'ra ish ko'rish lozim, shundagina "adabiy sirlar"dan voqif bo'lish mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Jumladan, u shunday yozadi: "Cho'lpon bizning hozirgi adabiy ehtiyojimizga javob bera olmas, deb undan qo'l yig'amizmi? Menimcha, bu narsa xato. Bu kun rus birodarlarimizga qarasak, ular Pushkinni qanday sevganini ko'ramiz. Pushkinni rus ishchisi, komsomoli, firqalisi, olimi-hammasio'qiydi. Pushkin inqilobdan so'ng ham Pushkin bo'lib qoldi...

Biz ham Cho'lpondan qo'l torta olmaymiz, Cho'lpon yangi adabiyotga yangi narsalar yaratdi. Muvashshah adabiyotio'rniga bu kunning badiiy zavqiga yarasha yoqimli, go'zal she'rlar o'rtaga chiqardi. Bugungi yosh nasl uning sodda tilini, totli uslubini, texnikasini ko'p sevadi. Undan ko'p go'zalliklar oladi. Cho'lponning mafkurasi emas, balki yaratgan badiiy namunalario'qiladi, voz kechilmaydi " [N.Karimov.2003.357-bet]. Shu tariqa yosh Oybek Cho'lponni himoya qiladi. Dramada ham Oybekning o'ziga ustoz deb bilgan Cho'lponni himoya qilishi, uni tushunishi mahorat bilan ko'rsatilgan.

"Kunduzsiz kechalar" dramasi Usmon Azimning yuksak mahorat bilan yozilgan dramasi bo'lib, dramaning badiiy tili va uslubiningo'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Dialoglar va monologlar orqali asar nafaqat o'sha davrning manzaralari, balki adibning falsafiy qarashlarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, drama faqat badiiy jihatdan emas, balki o'z zamonida yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy masalalarga asoslangan yondashuvi bilan ajralib turadi. Usmon Azimning "Kunduzsiz kechalar" dramasi, dramaturgning adabiyotdagi yuksak mahoratini va ijtimoiy masalalarga bo'lgan chuqur munosabatini aks ettirgan asar sifatida o'zbek dramaturgiyasida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Усмон Азим.Адибнинг умри. Драматик асарлар. Cho‘lpon nashriyoti. T. 2011
2. Cho‘lpon va tanqid.O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. “Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti 2004
3. Александр Митта. Кино между адом и раем. – Москва: Издательский Дом “Подкова”, 2016.
4. Karimov N. Cho‘lpon. “Sharq” nashriyoti.T-2003

NOZIMAXONIM JADID SHOIRASI VA PUBLISISTI

Boymatov Boburjon Saydali o'g'li
Mustaqil tadqiqotchi
boymatovbobur0@gmail.com
(O'zbekiston)

Annotatsiya Maqola XX asr boshlarida Turkistonda milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilgan jadidchilik harakati doirasida faoliyat yuritgan Nozimaxonimning (1870–1924) hayoti, ijodi va jurnalistik merosini o'rganadi. Nozimaxonimning jadid sifatida tasniflanishi uchun dalillar keltiriladi. She'rlarining adabiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinib, zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'rni baholanadi. Maqola Nozimaxonim merosining gender tenglik va milliy uyg'onish tadqiqotlaridagi dolzarbligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Nozimaxonim, jadidchilik, ayollar huquqlari, ta'lim, "Taraqqiy", "Afsus" she'ri, publisistika

Annotation: The article examines the life, works, and journalistic legacy of Nozimaxonim (1870–1924), a prominent figure in the Jadid movement, which promoted national awakening and enlightenment in early 20th-century Turkestan. The literary and social significance of her poetry is analyzed, and her role in contemporary Uzbek literature is evaluated. The article highlights the relevance of Nozimaxonim's legacy in studies of gender equality and national awakening.

Keywords: Nozimaxonim, Jadid movement, women's rights, education, "Taraqqiy", "Afsus" poem, publicism

XX asr boshlarida Turkistonda milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalariga asoslangan jadidchilik harakati jamiyatning ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim o'zgarishlarga zamin yaratdi. Jadidlar ta'lim, adabiyot, matbuot va ijtimoiy islohotlar orqali xalqni ma'rifatli va zamonaviy qilishni maqsad qilgan. Matbuot bu jarayonda asosiy vosita sifatida xizmat qildi. "Taraqqiy", "Shuhrat", "Sadoyi Turkiston" va "Turkiston viloyati gazetasi" kabi nashrlar jadid g'oyalarini ommaga yetkazdi, ta'lim, ayollar huquqlari, milliy o'zlik va ijtimoiy adolat masalalarini muhokama qildi [Adeeb Kha-

lid, 1998: 89-95]. Bu gazetalarda erkak mualliflar bilan birga ayollar mualliflarning faoliyati ham sezilarli bo‘ldi, garchi ularning ishtiroki ijtimoiy cheklovlar tufayli kamroq edi. Nozimaxonim (1870–1924) o‘zbek ayollari orasida birinchi jurnalist-publitsist sifatida ushbu jarayonda muhim o‘rin egalladi. Uning she’r va maqolalari jadidchilikning ma’rifiy va ijtimoiy g‘oyalarini targ‘ib qildi, ayollar huquqlari va ta’lim masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

Nozimaxonim 1870-yilda (ayrim manbalarda 1864-yil deb keltiriladi) Toshkentning Beshyog‘och dahasida tug‘ilgan [https://jadidlar.uz]. Uning otasi Mulla Said Ahmad zamonasining peshqadam ziyolilaridan bo‘lib, qizining ma’rifatli va madaniyatli bo‘lib yetishishiga katta e’tibor qaratgan. Nozimaxonim dastlab an’anaviy eski maktabda ta’lim olgan, so‘ngra mahalliy xotin-qizlar uchun ochilgan rus-tuzem maktabida o‘qigan. Bu maktablar unga zamonaviy bilimlar va dunyoqarashni singdirishda muhim rol o‘ynadi. U fors, arab, tatar va rus tillarini mukammal o‘zlashtirgan, shuningdek, Orenburg va Qozonda chiqadigan matbuotni muntazam kuzatib borgan [https://timesca.com]. Nozimaxonim Yevropa adabiyoti va madaniyati bilan tanish bo‘lib, Sa’diy, Hofiz kabi fors mumtoz adabiyoti vakillari asarlarini o‘qigan. Uning 20 yoshlarida “Beshyog‘ochlik Nozimaxonim” sifatida shuhrat qozongani uning o‘zbek jamiyatidagi dastlabki faoliyatini ko‘rsatadi.

Nozimaxonimning ijodi 1900-yildan boshlab mahalliy matbuotda, xususan, “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Sadoyi Turkiston” va “Turkiston viloyatining gazeti”da chop etila boshladi. Uning she’r va maqolalari jadidchilikning asosiy mavzularini – taraqqiyot, ma’rifat, ayollar huquqlari va ijtimoiy adolatni qamrab oldi. “Afsus” she’ri ayollarning nodonlik va ijtimoiy zulmdan ozod bo‘lishiga umid bildiradi: “Zulmat kechasi tugadi, afsus, / Ayollar uchun tong otadi, umid” [https://timesca.com]. Uning maqolalari orasida “Insonga qancha erk darkor?” (1904, “Turkiston viloyatining gazeti”), “Ilm va maorif borasida bir-ikki so‘z” va “Xotinlar huquqiga oid” kabi asarlar alohida e’tibor qozongan. Bu maqolalar ayollarning jamiyatdagi roli, ta’limning ahamiyati va ijtimoiy tengsizlikka qarshi chiqishni targ‘ib qildi.

Nozimaxonimning she’riyati 1905–1917-yillarda o‘zbek adabiyotining yetakchi yo‘nalishlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Uning g'azallari, murabbalari va boshqa she'rlari o'zbek she'riyatining xarakterli xususiyatlarini belgilashga xizmat qildi. Masalan, "O'qing rusi zabonini" she'ri zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish va nodonlikdan xalos bo'lishni targ'ib qiladi: "O'qing rusi zabonin, el aro bu yaxshi xislatdur, / Zaboni bezabon bo'lmoq, biling, bu koni illatdur"[https://ziyouz.com/nozimaxonim-1870-1924]. Uning she'rlari nafaqat adabiy, balki ijtimoiy o'zgarishlarga undov sifatida ham xizmat qildi.

Nozimaxonimning hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar yetarli bo'lmaganligi bois uning nomi ko'p holatlarda soya ostida qolib ketgan. Fanda uning jadid yoki jadid emasligi borasida ishtibohlar mavjud. Ma'lumotlarni saralab, ijodiga baho berganda uning jadid sifatida baholanishi uchun bir qancha asoslar mavjud ekanligini ko'rish mumkin. Jadidchilik harakati ma'rifatparvarlik, ta'lim, ijtimoiy islohotlar va milliy uyg'onish g'oyalariga asoslangan edi. Nozimaxonimning ijodi ushbu mezonlarga to'liq mos keladi:

Uning "O'qing rusi zabonini" kabi she'rlari va "Ilm va maorif borasida bir-ikki so'z" maqolasi ta'limning muhimligini targ'ib qiladi. "Xotinlar huquqiga oid" maqolasi ayollarning ijtimoiy tengligi va huquqlari uchun kurashni aks ettiradi. Boshqa ijod namunalarida ham xuddi shu kabi erk va ma'rifatchilik g'oyalari ilgari suriladi. Ushbu jihat jadidlar maqsadlari bilan hamohanglik kasb etadi.

Begali Qosimovning "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" (2004) kitobida keltirilgan she'rida Nozimaxonim 1905-yil voqealari va ijtimoiy adolatsizliklarni tanqid qiladi: "Bayon et, ey ko'ngul, rozingni har dam, / Eshitsun ahli dilllar, bo'lsa hamdam"[Qosimov, 2004:112.]. Bu she'r "hurriyat va erklik taloshin" qilgan "yurt erlari"ning taqdirini yoritadi.

Qosimovning "Maslakdoshlar" kitobida ta'kidlanishicha, Nozimaxonimning she'rlari 1916-yilgi mardikorlik voqealariga munosabat sifatida milliy ozodlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlagan"[Qosimov, 2000:78.].

"jadidlar.uz" saytida Nozimaxonimning jadidlar ro'yxatiga kiritilgani uning ushbu harakatdagi o'rnini tasdiqlaydi. Biroq, B.Qosimovning tadqiqotlarida uning nomiga izoh berilmagani ilmiy tadqiqotlarda yetarlicha e'tibor qaratilmaganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga,

uning she'r va maqolalaridagi mavzular, tillarni bilishi va zamonaviy bilimlarga intilishi jadidchilikning asosiy tamoyillariga mos keladi. Shunday ekan, Nozimaxonimni jadid sifatida tasniflash uchun yetarli asoslar mavjud.

Nozimaxonimning she'riyati o'zbek adabiyotidagi an'analar va jadidchilikning zamonaviy g'oyalarini uyg'unlashtiradi. Uning g'azallari, murabbalari va didaktik she'rlari o'zbek she'riyatining mumtoz shakllaridan foydalanib, ijtimoiy masalalarni ko'tardi. "O'qing rusi zabonini" she'ri zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish va nodonlikdan xalos bo'lishni targ'ib qiladi. Nozimaxonim rus tilini o'rganishni nafaqat amaliy, balki ma'rifiy nuqtai nazardan muhim deb hisoblagan. She'r jadidlarning ta'lim tizimini isloh qilish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi. "Ko'zi suzuk nigorim" misrasi bilan boshlanuvchi g'azali mumtoz o'zbek she'riyatining lirik an'analarini davom ettiradi, lekin undagi sevgi va hijron mavzulari ijtimoiy tengsizlikka ishora sifatida talqin qilinishi mumkin. Nozimaxonimning g'azallari o'zbek adabiyotidagi ayollar ovozini mustahkamladi.

Nozimaxonimning she'rlari o'zbek adabiyotidagi mumtoz shakllarni zamonaviy ijtimoiy mazmun bilan boyitdi. Uning asarlari ayollar huquqlari, ta'lim va milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib qilishda kashshof sifatida xizmat qildi.

Nozimaxonim o'zbek adabiyoti va jurnalistikasida muhim shaxs sifatida o'z o'rnini egalladi. Uning "Taraqqiy", "Shuhrat", "Sadoyi Turkiston" va "Turkiston viloyati gazetasida" chop etilgan she'r va maqolalari jadidchilikning ma'rifiy va ijtimoiy g'oyalarini targ'ib qildi. "Afsus", "O'qing rusi zabonini" kabi asarlari ayollar huquqlari, ta'lim va ijtimoiy adolat masalalarini ko'tardi. Ijodiy pozitsiyasi, uslubiga nazar tashlab Nozimaxonimning jadid sifatida tan olinishi uchun yetarli dalillar mavjudligini ko'rish mumkin. Uning she'riyati o'zbek adabiyotidagi ayollar ovozini mustahkamlab, zamonaviy gender tenglik va milliy uyg'onish tadqiqotlari uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Kelajakda Nozimaxonimning ijodini chuqurroq o'rganish, ayniqsa, arxiv tadqiqotlari orqali uning saqlanmagan asarlarini topish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov, Begali. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.* – Toshkent: Fan, 2004.

2. Qosimov, Begali. *Maslakdoshlar.* – Toshkent: Sharq, 2000.

3. Khalid, Adeeb. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia.* Berkeley: University of California Press, 1998.

4. "Nozimaxonim." *jadidlar.uz.* Accessed April 28, 2025. https://jadidlar.uz

5. "Uzbekistan's First Female Journalist." *The Times of Central Asia.* https://timesca.com

CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" HAMDA "QOR QO'YNIDA LOLA" HIKOYASIDA AYOLLAR OBRAZI

Nigora Elmurodova Uchqunovna
O'zJOKU
1-kurs tayanch doktoranti
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Cho'lpon qalamiga mansub "Kecha va kunduz" romani hamda "Qor qo'ynida lola" hikoyasidagi bosh ayol qahramonlar obrazi zamonaviy ilmiy qarashlar asosida qayta tahlil qilindi. Jadid adabiyotida o'ziga xos o'rin tutgan mazkur asarlar orqali XX asr boshlaridagi ijtimoiy muhit, ayol shaxsining jaholat qurboniga aylanishi misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ayol, jadid, ma'rifat, jamiyat, tuzum, zo'ravonlik, obraz, qurbon.

O'zbek milliy uyg'onish davri adabiyotida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayoti xotin-qizlar obrazi misolida ham yorqin ifoda etilgan. Xususan, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodida ham o'tmishda ayollarga bo'lgan munosabat, ularning haq-huquqlarining paymol etilishi, ayollarning dard-u hasratlari ta'sirchan motivlar asosida yoritilgan. Masalan, adib ijodida alohida o'rin tutgan "Kecha va kunduz" romani hamda "Qor qo'ynida lola" hikoyasida jaholat qurboni bo'lgan xotin-qizlarning ayanchli taqdiri, ular timsolida jamiyat illatlari ochib tashlangan.

Birinchi o'rinda romanning o'ziga xos "kecha" va "kunduz" kabi ikki ekstremani ifodalovchi tushunchalar bilan nomlanishi tasodifiy emas. "Kecha" zulmat, johillik va an'anaviy jamiyatni, "kunduz" esa ma'rifat, intilish va o'zgarishni ifodalaydi. Bu qarama-qarshilik asardagi ayol obrazlari orqali o'zining badiiy yechimini topadi. O'z orzulari va muhabbatini qalbiga ko'mgan, zamon tubanliklari sabab xiyonat yo'lini tutishga majbur ojizalar taqdiri davrning nechog'li murakkab ekanligi va xotin-qizlarning huquqi past ekanligidan darak beradi.

Zebi — ijtimoiy bosim ostida yashovchi, qobiliyatli, biroq zamonning zayli sabab, iqtidorini qalb qo‘riga ko‘mgan, ota-ona rizosi uchun hattoki muhabbatidan kechgan, davrning og‘ir urf-odatlari qurboni bo‘lgan o‘zbek qizi. Maullif Zebi obrazini ta’riflar ekan, undagi soddadillikni, bolalarcha beg‘uborlikni hamda mustaqil harakat qilishdan butkul mahrum, mutelikni hayot dasturiga kiritgan o‘tmish xotin-qizlarining fojiyaviy taqdiri bilan bog‘laydi.

Barchamizga ma’lum, o‘tmishda qizlarning inon-ixtiyori batamom ota-onasida bo‘lib, ular o‘z farzandlarining taqdirini ularning xohishiga qarab emas, o‘z istaklariga qarab belgilaganlar. Sho‘rlik qizlar esa Zebi kabi qon qaqshab, ba’zan o‘lim hukmidan battarroq ota-ona qaroriga bo‘ysunganlar.

“Bizning so‘fi mo‘min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o‘z halol jufti Qurvonbibini hamma vaqt «Fitna» deb chaqiradi: «Fitna, sallamni ber!», «Fitna, qiz o‘lguring qani?», Fitna, puldan uzat!»*”[Cho‘lpon, 2011.11].*

Yuqorida biz keltirgan iqtibosning o‘ziyoq onasiga bo‘lgan bu kabi munosabatni ko‘rib ulg‘aygan qiz, kelgusi taqdiri uchun kurashga qalbida o‘t yonmasligiga eng katta sabab ekanini ko‘rsatadi. Zebi qo‘shiq kuylashni, qizaloqlarga xos raqs tushishni yaxshi ko‘radi biroq, otasidan o‘lgudek qo‘rqadi. Bir gal Saltanat va Zebining raqsi ustiga kelib qolgan Razzoq so‘fining munosabati o‘smir qalbiga botgan qattiq azobning dalilidir. U shunday deydi:

– Qanjiqlar! – deb baqirdi.

– Yosh narsalar o‘ynashsa, nima bo‘libdi? Muncha endi zabtiga oldingiz?-dedi Qurvonbibi.

– Gapirma, eshak! Qurvonbibi jim bo‘ldi. *[Cho‘lpon, 2011.26].*

Zebi uning kelgusi hayoti otasining qabul qilajak qaroriga bog‘liq ekanini aniq biladi. Bu haqida juda ko‘p o‘ylaydi va o‘ziga hamisha qo‘pol tarzda munosabatda bo‘lgan, jigarporasi qiziqishlariga quloq tutmagan padaridan yaxshilik kutmaydi.

“...U shu topda o‘zining yaqin kelajakdagi qora kunlarini, qay rangda ko‘rinishi ma’lum bo‘lmagan baxti, toleini o‘ylardi. Uning butun baxti Razzoq so‘fining johil vujudiga bog‘liq emasmi? O‘sha sovuq so‘fi shu quvnoq jonni va sayroq qushchani istagan vaqtida baxtli yoki baxtsiz eta olmaydimi? Uning bir og‘iz «ha» yoki «yo‘q»

deyishi qiz bechoraning behad quvnab yayrashiga yoxud xazon yaprog'iday, bir nafasda so'lib, nobud bo'luviga yaramaydimi? Qiz sho'rlik, u bir umr qovog'i, o'yig'liq va yuzi kulmas otadan hech bir xayriyat kutmaydi"[Cho'lpon, 2011.43].

O'sha davrning qizlari xuddi Zebi kabi musaffo, pok qalblari bilan biror yigitga ko'ngil qo'yishi, u bilan baxt saodatga erishishi mutlaqo mumkin emas edi. Zebi ham orzu istaklar ila aravakash yigit O'lmasjonga bo'lgan iliq tuyg'ularini ota-onasiga oshkor eta olmadi. Johil otaning istagi bilan qari, beo'xshov, xotinboz mingboshiga to'rtinchi xotin bo'ldi. U davrning qurboniga aylandi. Uning bu mash'um xabarni eshitgandagi holatiyoq ruhiyatiga bu qaror chuqur iz qoldirganini ko'rsatadi. "Bu o'ylar Zebini jon o'rtog'idan farsaxlarcha yiroqlarga olib ketdilar. Endi u na Saltanatxonning kular yuzlariga ishonadi, na Enaxonning... Shu topda u ojiz bir maxluq, qo'li bog'liq bir qul, hech bir ishonadigan kishisi yo'q, yolg'iz va g'arib..."[Cho'lpon, 2011.86].

Cho'lpon Zebi obrazi orqali ayollar fojeasini ko'rsatib bera olgan. Zebi o'z orzulari va jamiyat bosimi o'rtasida parcha-parcha bo'lib, oxir-oqibat baxtsiz va tushkun holatda taqdiriga tan bergan.

"– Qiz bolaning peshonasi qursin! O'zi xohlab erga tega olarmidi? Meni otam shu qari odamga berdi, deb koyiyman: munga bermasa kimga berardi? O'zim suygan yigitga berarmidi, qalay? Tantiligi tutib ketganda, eshonboboga berib yuborardi... U mundan besh battar! Xo'sh, mingboshining o'zi, odamlar aytganday, juda xunuk va badbashara odammi? Albatta, ko'p erkaklardan xunukroq... O'lgudek qo'pol... Ammo-lekin dunyoda undan ham xunuk, undan ham qo'pol erkaklar bor-ku! Munga bermasalar, o'shalardan biriga ham bermas edilar..."[Cho'lpon, 2011.287].

Butun dunyoda ilm-ma'rifat yo'lini tutib, hayoti uchun xotin-qizlar aniq qarorlarni qabul qilayotgan bir davrda o'zbek qizi bu kabi o'ziga tasalli berishi, ovutishi achinarli edi. Cho'lpon Zebi obrazi orqali minglab Turkiston qizlari peshonasiga bitilgan baxtsizlik tamg'asini ko'rsatib bera olgan. Hattoki Zebining o'z aybsizligini isbotlay olmasdan aybsiz aybdor, mingboshi o'limida ayblanib, Sibirga badarg'a qilinishida ham ramziy ma'no bor. Bu minglab o'z aybini bilmay sovuq yurtlarga yuborilgan xotin-qizlar unsiz nolasi aslida. Bu obraz orqali muallif o'z davrining minglab ayollari taqdirini badii-

ylashtirgan. "...mingboshi katta xotinlari Zebi uchun qazigan «choh»-ga tushibgina qolmay, Zebini ham o'z ortidan tortadi"[Cho'lpon, 2011.327].

Qizining savdosida devona bo'lgan ona, ko'zlari kech ochilgan Razzoq so'fi Eshonni o'ldirish orqali kelajak otalariga o'z qizlarini baxtini o'ylashga ishora bergan bo'lsa ajab emas... Bu orqali rus imperiyasining, feodal tuzumning inqirozidan darak edi.

Shafoat – "qor qo'ynida lola" singari: sovuq, shafqatsiz hayot sharoitida ham pokligidan voz kechmaydigan, go'zalligini saqlab qola olgan qiz obrazidir. Hikoya avvalida muallif uning hali ruhidan ketib ulgurmagan bolalik sho'xliklarini go'zal tasvirlaydi. Mazkur hikoya orqali Cho'lpon o'z davridagi ijtimoiy muhitda ayollarning o'rni va holatini, ularning ichki kechinmalari, orzu-umid va ruhiy kurashlarini ta'sirchan tarzda tasvirlaydi. Samandar savdogarning chiroyda, chevarlikda, sho'xlikda yakka-yu yagona qizi oxir oqibat otasi ixlos qilgan eshonga xotin bo'lishi millat fojeasining jonli tasviridir. Nevarasi teng qizga og'iz solgan eshon o'z nafsi uchun dinni niqob qilgan davrning manfur, riyokor qo'shtirnoq ichidagi qahramoni. O'z omadsizligiga malhamni eshonning fisq-u fasodlarga to'la ma'ruzalariga ko'r-ko'rona ergashishdan topgan Samandar savdogar, bu xatosi badalini ruhidan bolalik sururi ketmagan qizni qurbon qilish bilan to'lagani davrning nechog'li murakkab ekanligidan darak beradi.

"Kuyov pochcha, kuyov pochcha! Taqsirim qanilar? Qoch, qoch,— degan tovushlar ko'tarildi. Bir vaqt oppoq soqolli, qari, bo'shashg'on bir chol (kuyov to'ra) ustiga zarbob to'n kiyib, katta o'rama belbog' bog'lag'oni holda birmuncha oqsoqol muridlari o'rtasida sekingina sudralib aravaga yaqinlashdi"[Cho'lpon. 2022. 156].

Cho'lpon bu orqali o'n gulidan bir guli ochilmagan qizning xazon bo'lgan umriga ishora berish bilan birga o'z davridagi ijtimoiy tuzumga, ayollarga bo'lgan kamsituvchi munosabatni ko'rsatib bergan. Shafoat necha alp yigitlar orzusi edi, biroq otaning odamiylik qiyofasidan uzoqligi uni xazon qildi. Ko'cha yigitlari bu voqelikni muhokama qilib, Shafoatning otasini ayblar ekan, bunga javoban yangragan Mamat qorovulning so'zlari esa o'sha davrning qizlari taqdiri haqida so'zlayotgandek "...Shu choq bir burchakda ko'cha poylab yotg'on Mamat qorovul yig'lag'onday qilib hushtagini chalib

oldi-da:— Nimasini aytasiz, yigitlar, dunyo o‘zi shunday teskari dunyo ekan... Lolaning ustiga qor yog‘di!.."[Cho‘lpon. 2022. 158].

Ramziy ma’noga ega “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi zamonning og‘ir davri sabab, xazon bo‘lgan, erta so‘lgan ayol va xotin-qizlar dardi va hasrati aks-sadosi. Qor – sovuq jamiyat, zulm va haqsizlikni ifodalasa, lola – go‘zallik, noziklik, umid va ayollik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoyadagi asosiy ramziy obraz –lola. “Lola qishning qahraton va sovuq kunlarida ochilib, hayot va umidni ifodalaydi. Qor qo‘ynida paydo bo‘lgan lola hayotdagi go‘zallikni, xayrixohlikni va ezgulikni ifoda etadi.

Cho‘lponning yozish mahorati shundaki, u tabiatdagi oddiy hodisalardan falsafiy va ramziy mazmunlar yaratib, inson qalbining eng chuqur burchaklariga yetib boradi”[Karimov N., 2001.]

Shunday og‘ir muhitda ham lola yashaydi, ya’ni ayol o‘z or-nomusini, mehrini, insoniyligini saqlab qoladi. Cho‘lpon ushbu hikoya orqali o‘z davridagi ijtimoiy tuzumga, ayollarga bo‘lgan kamsituvchi munosabatga tanqidiy yondashadi. U ayolni nafaqat ijtimoiy tizim qurboni, balki ongli, izlanishga, erk va hurriyatga intiluvchi shaxs sifatida tasvirlaydi.

Xulosamiz shuki, “Kecha va kunduz” romani hamda “Qor qo‘ynida lola” hikoyasida ayollar obrazi – XX asr mustabidlik zulmida qolgan Turkiston fojeasi. Bu haqda adabiyotshunos olim, professor Naim Karimov o‘rinli ta’rif etgan: “«Kecha va kunduz» romanida xalqning g‘aflat uyqusida yotgan bir holati Razzoq so‘fi, Qurvonbibi va, albatta, Zebi obrazlari orqali yorqin tasvir etilgan. Bu - o‘zbek jadidlari harakat eta boshlagan davrdagi manzara. Jadidlar ana shu noxush manzarani o‘zgartirish, Zebi fojiasining boshqa takrorlanmasligi uchun uning, Razzoq so‘filarning ko‘zini tirnab bo‘lsa-da ochishni o‘zlariga vazifa qilib qo‘ydilar. Jadid maktablari paydo bo‘ldi. Jadid matbuoti, jadid adabiyoti va jadid teatri vujudga keldi. Turli-tuman yo‘llar bilan kishilar ongini o‘zgartirishga, xalqning basirat ko‘zlarini ochishga kirishildi. Ana shunday qutlug‘ va xayrli ishlar Cho‘lponning faol ishtirokisiz kechmadi” [Cho‘lpon. 2011. 325].

Cho‘lpon kabi ma’rifatparvar jadidlar xotin-qizlarni ma’rifatli, ma’naviyatli, madaniyatli, ziyoli bo‘lishga chorlagan. Aks holda ularni Zebi kabi mutelik, ilmsizlik, erksizlik, huquqsizlik qismati ku-

tayotganligidan ogohlantirishgan. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” hamda “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi muallif ijodining go‘zal badiiy namunalaridan biri. Bu asar bugungi kun o‘quvchisini ham chuqur o‘yga toldiradi va o‘zbek ayolining badiiy qiyofasini teran anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cho‘lpon. “Kecha va kunduz” – T.: Yangi asr avlodi, 2011.
2. Cho‘lpon. Yurt qayg‘usi haqida bebaho asarlar. Toshkent 2022
3. Karimov N. Cho‘lpon ijodiy merosi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ASARLARINING AVTOBIOGRAFIK XARAKTERI

Hamdamov Ulug'bek Hasan o'g'li
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi
+998990570950
E-mail: hamdamov_u95@mail.ru
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek adabiyoti tarixida yetuk ma'rifatchi sifatida o'zining ilmiy, adabiy, siyosiy va pedagogik qarashlari, ilmiy va badiiy merosi, go'zal axloqi va ibratli hayoti bilan o'chmas iz qoldirgan. Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyatiga doir ayrim mulohazalar yuritilgan. Ijodkorning avtobiografiyasi, ya'ni tarjimayi holining o'z asarlarida qay darajada aks etganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifatparvarlar, Behbudiy, tarjimayi hol, avtobiografizm

Abstract. Mahmudxo'ja Behbudiy, as a prominent enlightener, left an indelible mark on the history of Uzbek literature with his scientific, literary, political and pedagogical views, scientific and artistic heritage, beautiful morals and exemplary life. This article presents some reflections on the life and work of Makhmudxo'ja Behbudiy. The extent to which the creator's autobiography, that is, his biography, was reflected in his works, is analyzed.

Keywords: Jadid, Enlightenment, Behbudi, biography, autobiography.

O'zbek milliy uyg'onish davri adabiyoti va ma'rifatparvarlik harakatining zabardast vakili Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) o'zining serqirra faoliyati orqali o'zbek xalqi ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Behbudiy shaxsiy hayoti davomida o'z ko'zlari bilan ko'rgan ijtimoiy adolatsizlik, jaholat va mustamlakachilik oqibatlarini o'z asarlarida chuqur aks ettirdi. Uning adabiy va publitsistik faoliyati, zamonaviy ta'lim va islohotlar tarafdori sifatidagi g'oyalari shaxsiy hayot tajribasi va ma'rifiy idealizmi bilan

chambarchas bog‘liq. Shunday qilib, Behbudiy asarlarida faqat davr ruhiyati emas, balki adibning o‘z hayoti, orzu-umidlari, iztiroblari va kurashlari ham aks etadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘z qo‘li bilan yozgan tarjimayi holi shu kungacha topilgani yo‘q. Ammo tadqiqotchilar Hoji Mu’in, Sadriddin Ayniy va boshqalarning “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon”, “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, “Известия ТуркЦИК”, “Buxoro axbori” gazetalarida, “Inqilob”, “Uchqun”, “Maorif va o‘qituvchi”, “Наука и просвещение” jurnallari va boshqa manbalar zaminida uning tarjimayi holini tiklab e’lon qildilar[Ahmad Sirojiddin, 2014:5].

Mahmudxo‘ja Behbudiy Samarqandda tug‘ilgan va dastlab eski maktabda tahsil olgan. Ammo XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti va Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining kuchayishi unga millatni ma’rifat bilan qutqarish zarurligini anglatdi. U dastlab tog‘asi qo‘li ostida qozilik qiladi, mirzolik bilan shug‘ullanib, shariat ahkomlari bilan tanishadi va fiqh-huquqshunoslik sohasidagi ilmi va malakasini oshirib boradi. U fiqh sohasida jiddiy ilmiy-amaliy faoliyat olib borishi tufayli “mufti”, ya’ni fatvo beruvchi – advokat unvonini olishga sazovor bo‘ladi. Ammo bu sohada uzoq vaqt ishlamaydi. Behbudiy qozilik lavozimidan voz kechib, xalqni uyg‘otish, yangicha fikrni shakllantirish uchun faol harakat qila boshladi. Bu tajribalar uning “Risolayi asbobi savod” risolasida aniq ko‘rinadi, unda u eski maktablarning usullarini qattiq tanqid qiladi va yangi zamonaviy metodikani taklif qiladi [Sharafiddinov, 1999:129].

Behbudiy 1893-yildan Rusiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy gazeta-jurnallarni, kitoblarni jahd bilan o‘qishga tutinadi. Zamona voqealari bilan tanishib, siyosat va ma’rifat sohasida ro‘y berayotgan yangiliklarni sinchkovlik bilan kuzatadi. Xalqning ma’rifatsizligini, ziyolilarning avomlashganini ko‘rib, avvalo, oilasida ma’rifatni kuchaytirishga harakat qiladi. Farzandlari ta’lim-tarbiyasiga jiddiy e’tibor berib, ularning xat-savodli, zamon talabidagi mutaxassis bo‘lib yetishuviga sharoit yaratadi. Farzandlariga xususiy o‘qituvchilar yollab, rus, fransuz va boshqa xorijiy tillarni o‘rgatishga harakat qiladi. Bu xatti-harakatlarining sabab-oqibatini

o‘zining “Ikki emas, to‘rt til kerak” (1913) nomli maqolasida bayon qilgan.

“Padarkush” (1911) dramasida esa ijtimoiy adolatsizlik va ma’rifatsizlikning oqibatlari haqida fikr yuritiladi. Asardagi Toshmurod obrazi orqali Behbudiy yoshlarning ilmga befarqligi va ota-onaga nisbatan befarqligi oqibatlarini fojiali tarzda ko‘rsatadi. Bu fojia Behbudiyning o‘z hayotida guvohi bo‘lgan jamiyatdagi johillik va tarbiyaning buzilishi muammolarining badiiy ifodasidir. Behbudiy o‘zi ko‘rgan ijtimoiy muammolarni badiiy obrazlar orqali ko‘rsatib, tomoshabinning hayoti haqida chuqur o‘ylashiga undaydi. Behbudiy ana shunday mudhish holatni, oqibatni o‘zgartirish uchun, avvalo, millatni ma’rifatlashtirish lozim, degan fikrga kelgan. Behbudiyning mazkur masalaga doir maqolalarini o‘qigan kitobxonlar o‘sha yillarda maktab va madrasalarning ham, muallimlarning ham yetishmaganligini, darslik va o‘quv qo‘llanmalari esa, anqoning urug‘i bo‘lganligini yaxshi bilishadi. Behbudiy shu holni e’tiborga olib, o‘zi maktablar ochdi, o‘zi darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratdi, dunyoviy fanlarning maktab o‘quv dasturlaridagi mavqeini oshirdi.

Behbudiyning millatni ma’rifatlashtirish konsepsiyasi, birinchidan, yangi usul maktablarini ochish, ikkinchidan, bu maktablarda dunyoviy fanlarning ustuvorligiga erishish, uchinchidan, ularni zamonaviy darslik, o‘quv qo‘llanmalari va qurollari bilan ta’minlash, to‘rtinchidan, ota-onalarning to‘y va ma’rakalarga sarflaydigan mablag‘laridan bir qismini mahalliy maktabni bitirgan bolalarining xorijiy mamlakatlardagi dunyoviy va diniy oliy o‘quv yurtlariga yuborish, beshinchidan, ularning turkiy, fors va arab tillaridan tashqari, rus va nemis yoki fransuz tillarini ham o‘zlashtirishiga erishish, oltinchidan, zamonaviy sudya, huquqshunos, injener kabi Turkiston uchun noyob bo‘lgan ixtisosliklar bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash masalalarini o‘z ichiga olgan [Karimov, 2014:33].

“To‘y va ma’raka oqchasidan, – deb yozgan edi Behbudiy, – bolalarni hukumat maktablariga berilsun va bu oqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg‘a va Rusiya dorilfununi va dorilsaltanatlarig‘a yuborib, diniy va dunyoviy odamlar yetishturmoqg‘a sa’y qilinsun. Bizni Turkistonda muallim ozdurki, to‘yu ma’rakag‘a sarf qilinaturg‘on oqcha ila Kafkaz, Qrim, O‘runburg va Qozong‘a usuli

ta'lim o'rganmoq uchun bola yubormoq kerakdur. Hukumat maktablariga kirmoq uchun ruscha bilmoq va imtihon bermoq lozim. Bu imtihonni bermoq uchun har bolani ikki sana ruscha o'qutub, tarbiyat etmoq kerak. Va bu ikki sana uchun har bir bolag'a 600 so'm oqcha kerakdur" [Behbudiy, 1999:159]. Behbudiy "A'molimiz yoinki murodimiz" degan va boshqa maqolalarida ma'rifiy qarashlarini izchil bayon etar ekan, bolalar uchun tarbiyatxona – pansionatlar ochish, bolalarni shu tarbiyatxona va hukumat maktablariga tayyorlash uchun turli jamiyatlarni tashkil etishni lozim, deb hisoblaydi. Zero, Mahmudxo'ja "Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur" ["Samarqand" g., 1913: 12-iyul]. deganida ham haq edi.

Behbudiy o'z hayoti davomida Istanbul, Boku, Tiflis, Moskva va Hindiston kabi shahar va mamlakatlarga sayohat qilgan. Ushbu sayohatlar davomida u zamonaviy dunyo rivoji va musulmon mamlakatlaridagi islohot harakatlari bilan yaqindan tanishdi. Bu taassurotlar uning publitsistik maqolalarida o'z aksini topdi. Hindiston mustamlakachilik ostidagi holatini tahlil qilib, Turkiston xalqini ham ogohlantirishga urindi. Bu sayohatlari davomida nafaqat Rossiya, balki Makka, Madina, Misr, Istanbul, shuningdek, turkiy xalqlar istiqomat qilgan Kavkaz, Qrim, Orenburg, Qozonga borib, shu yerdagi dorilfununlar yordamida ma'rifatli bo'lish, eng muhimi, davlat muassasalarida, tijorat sohalarida ishlay biladigan kadrlarni tayyorlash orqaligina istiqlol uchun kurashish mumkin degan xulosaga keldi.

Sayohat taassurotlarining yana bir yorqin ifodasi sifatida uning "Sayohatnoma" (yozilgan bo'lsa-da, to'liq shaklda bizgacha yetib kelmagan) maqolalari va ayrim eslatmalari tilga olinadi. Tadqiqotchi T.Shodmonov ta'kidlaydi: "Behbudiy uchun sayohat nafaqat geografik manzillarni ko'rish, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlarni his qilish maktabi edi" [Shodmonov, 2011:214].

Mahmudxo'ja Behbudiy diniy bilimlarga asoslangan holda milliy o'zlik va zamonaviylikni uyg'unlashtirish tarafdori edi. Qator maqolalarida islom dinining asl mohiyati haqida to'g'ri va ilmiy yondashu-

vni ilgari suradi. U eskicha e'tiqod va bid'atlarga qarshi kurashadi, aql va ilmni islomning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi[Shodmonov, 2011:217].

Bu yondashuv Behbudiyning shaxsiy hayotidagi diniy tajribalarning natijasidir: u diniy tahsil olgan bo'lsa-da, zamonaviy ilmsizlik va diniy taassub ko'plab muammolarga sabab bo'lishini chuqur anglagan edi. Shunday qilib, Behbudiy diniy islohotchilikni ma'rifatparvarlikning asosiy qismi sifatida ko'radi.

1917-yilgi fevral inqilobidan keyin Behbudiy siyosiy faoliyatini yanada faollashtiradi. Shu davr maqolalari va nutqlarida uning shaxsiy iztiroblari, millat ravnaqi uchun jon kuydirish kayfiyati aniq aks etadi.

Masalan, 1917-yilgi maqolalaridan birida Behbudiy shunday deydi: "Haqiqatni bilmaydurgan, ilmga etmaydurgan millat, mustamlaka zanjirida qolur". Bu g'oya uning butun ijodining va hayot kurashining mohiyatini ifodalaydi.

Behbudiyning asarlarida ko'plab avtobiografik elementlar mavjud. Masalan, "Padarkush"dagi domla obrazida ma'rifatparvar, ilmli insonning jamiyatdagi ijtimoiy kurashini ko'rish mumkin. Ayrim manbalarga ko'ra, domla obrazi Behbudiyning o'z idealining badiiy ifodasi sifatida qaraladi [Karimov, 2007:147].

Shuningdek, "Risolayi asbobi savod"dagi ta'lim tizimini isloh qilish g'oyalari ham to'g'ridan-to'g'ri Behbudiy o'zining o'qituvchilik faoliyati tajribasiga asoslangan.

Mahmudxo'ja Behbudiy ijodi o'zining shaxsiy hayoti, jamiyatdagi o'rni va ma'rifat yo'lidagi kurashining badiiy va publitsistik aksidir. U o'z asarlari orqali o'z zamonasining og'riqli muammolarini ko'rsatish bilan birga, shaxsiy orzularini, iztiroblarini va milliy uyg'onishga bo'lgan sadoqatini ham ifoda etgan. Behbudiyning asarlari bugungi kunda ham ilm, ma'rifat va milliy o'zlik yo'lidagi mashaqqatli, lekin muqaddas kurash ramzi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharafiddinov O. O‘zbek ma’rifatparvarlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999

2. Abdugapparov H. Mahmudxo‘ja Behbudiy va ma’rifatparvarlik harakati. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2017

3. Davron X. Jadidlar. – Toshkent: Cho‘lpon, 2004

4. Shodmonov T. Turkiston jadidlari va diniy islohot. – Toshkent: Ma’rifat, 2011

5. Karimov I. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007

6. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999

7. Behbudiy M. Ehtiyoji millat. – “Samarqand” gazetasi, 1913-yil, 12-iyul

8. Karimov N. Erk va hurriyat jarchisi. //M.Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. Ilmiy maqolalar to‘plami// – T.: 2014

9. Ahmad Sirojiddin. Turkiston xalqining milliy qahramoni. //M. Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. Ilmiy maqolalar to‘plami// – T.: 2014

USMON AZIM SHE'RLARIDA JADIDLAR OBRAZI

Abdunazarova Sevara Oybek qizi
SamDu filologiya fakulteti 1-kurs magistranti
+998 91 512 16 17 ***sevaraabdunazarova802@gmail.com***
(O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodida jadidlar timsolining badiiy talqini tahlil etiladi. Shoirning she'riy obrazlari orqali milliy uyg'onish, tarixiy xotira va ma'naviy meros g'oyalari yoritilishi, jadidlar siymosi orqaligina emas, balki ularning g'oyalari orqali hozirgi davrga murojaat qilinishi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Usmon Azim, jadidlar, tarixiy xotira, milliy uyg'onish, she'riyat, timsol, istiqlol.

Аннотация: В данной статье анализируется художественное воплощение образа джадидов в творчестве Народного поэта Узбекистана Усмона Азима. Через поэтические образы поэта раскрываются идеи национального возрождения, исторической памяти и духовного наследия. Показано, что обращение к современности осуществляется не только через образы джадидов, но и посредством их идей.

Ключевые слова: Усмон Азим, джадиды, историческая память, национальное возрождение, поэзия, образ, независимость.

Annotation: This article analyzes the artistic interpretation of the image of the Jadids in the works of Usmon Azim, People's Poet of Uzbekistan. Through the poet's lyrical imagery, ideas of national awakening, historical memory, and spiritual heritage are explored. It is shown that the appeal to the present day is made not only through the depiction of the Jadids themselves but also through the transmission of their ideas.

Keywords: Usmon Azim, Jadids, historical memory, national awakening, poetry, image, independence.

KIRISH

XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati milliy uyg‘onishning muhim bosqichi bo‘ldi. Bu harakat vakillari ta’lim-tarbiya, milliy o‘zlik, siyosiy erkinlik va ma’naviyat masalalarini ilgari surdilar. Mustaqillik yillarida jadidlarning merosi qayta ochildi va adabiyotda ularning obrazlari yangicha talqinda namoyon bo‘la boshladi. Xususan, zamonaviy o‘zbek she’riyatida jadid shoirlarining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Ulardan katta maktab qoldi. An’anaviy she’riyatning shakllanishida asosiy rol o‘ynadi. Jadid ijodkorlari zamonaviy o‘zbek she’riyatida obraz sifatida olib kirila boshlandi. Ayniqsa, jadidchilik harakati, uning namoyandalari va ularning ma’naviy merosi san’at va adabiyotda yangicha talqin qila boshlandi. Usmon Azim she’riyatida jadidlar siymosi nafaqat tarixiy shaxslar sifatida, balki zamonaviy badiiy timsollar darajasida gavdalanadi.

ASOSIY QISM

Jadidchilik — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan ma’rifatparvarlik harakati bo‘lib, uning asosiy maqsadi millatni uyg‘otish, ta’lim-tarbiyani yangilash, matbuot va adabiyot orqali erkinlik g‘oyalarini targ‘ib qilish edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi siymolar bu harakatning peshqadamlaridan bo‘lgan. Usmon Azim she’riyatida aynan shu tarixiy shaxslar timsoli teran badiiylik bilan gavdalantiriladi. Shoir ularni tarixiy manbalardagi quruq faktlar emas, balki ruhiy-ma’naviy g‘oya tashuvchilari sifatida tasvirlaydi. Milliy o‘zlikni anglatuvchi timsol sifatida aks ettiradi. Ular Usmon Azim she’rlarida nur, haqiqat, ma’rifat ramziga aylanadi. Masalan, shoirning “Muqaddas majnuntol” to‘plamidagi ayrim she’rlarida Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi jadidlarning g‘oyaviy merosi poetik tilda madh etiladi. Shoir jadidlarni “millatning uyg‘oq ko‘zlari” deb ataydi:

“Ko‘zlar uyg‘oq, yuraklarda chiroq
Fitrat o‘qir har satrda iztirob”

Bu misralarda Fitrat shaxsi orqali jadidlarning uyg‘otuvchi va fidokorona faoliyati yuksak baholangan. Usmon Azimning jadidlarga

bag‘ishlangan she’rlarida ular zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyotining ildizi sifatida ko‘rsatiladi. Adib ularga murojaat etar ekan, ularning orzulari bugun ro‘yobga chiqayotganini iftixor bilan ta’kidlaydi.

Usmon Azim ijodida jadidlar obrazining yangicha talqini mavjud. Filologiya fanlari doktori Dilorom Mamarasulova bu haqida quyidagicha yozadi: “Usmon Azim she’rlarida tarix va bugun o‘rtasidagi ruhiy ko‘prik jadidlar timsolida gavdalanadi” [Mamarasulova]. Bu tahlildan ko‘rinib turibdiki, shoir jadidlar siymosida o‘tmish bilan bugun, orzu bilan haqiqat o‘rtasida uzviylikni ta’minlaydi. Shoirning yana bir mashhur satrida:

Avloniy tutgan qalamdan
Tong nurini tuydim, yurtni o‘yladim.

Bu yerda Avloniy qalamining ma’rifiy qudrati, uning zamonaviy o‘zbek tafakkuriga qo‘shgan hissasi madh etiladi. Shoirning “Bahodirlar ruhi”, “Yod oling, fidoyilarim!” kabi she’rlarida jadidlar obrazlari ma’naviy yuksaklik, fidoyilik, millat uchun jon fido qilganlik timsolida beriladi:

Bahodirlar o‘lgan, ammo yuraklarida jon,
So‘zlarida olov, nigohida vijdon...

Bu satrlar jadidlarning hayot yo‘li, kurashi va halokatini nafaqat fojia, balki ma’naviy kuch manbai sifatida ifodalaydi. Shoir bu orqali tarixiy adolatni tiklashga, unutilgan siymolarni xalq ongiga qaytarishga urinadi [Usmon Azim, 2020].

Usmon Azim she’rlarida jadidlar siymosi faqat o‘tmishga tegishli emas. Ular zamonaviylik bilan uzviy bog‘langan obrazlar sifatida ham talqin etiladi. Shoir bugungi kun ziyolilari, yoshlari uchun jadidlar timsolida ibrat, ma’naviy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Jadidlar timsoli orqali u xalqni hushyorlikka, tarixdan saboq olishga, ertangi kun uchun ma’rifatli bo‘lishga undaydi.

O‘zbek adabiyoti tarixida jadidlar harakati o‘ziga xos uyg‘onish davri sifatida baholanadi. Ularning fikriy-ma’naviy kurashi nafaqat siyosiy, balki badiiy adabiyotda ham chuqur iz qoldirgan. Usmon Azim – yangi davr shoiri bo‘lishiga qaramay, o‘z ijodida bu tarixiy qatlamga chuqur munosabat bildirgan ijodkordir. Ayniqsa, uning “Saylanma” to‘plamiga kirgan “Abdulla Qodiriy” va “Jadidlar” she’rlari bu borada alohida ahamiyatga ega. She’rda Qodiriyning fojiali taqdiri

orqali bir avlodning orzusi va kurashi aks ettiriladi. Shoir u obrazni "qalam tutgan qo'l emas, silkinayotgan yurak edi" deb ifodalaydi. Bu yerda qalam faqat yozuv quroli emas, balki ruhiy va siyosiy kurash ramzi sifatida talqin qilinadi:

Sen emas eding dushman, sen eding so'z,
Sen eding kelajak, sen eding ko'z...

Bu misralarda Qodiriy shaxsida milliy kelajak timsollashtiriladi. Shoir tarixiy shaxsni emas, balki ruhiy fenomenga aylangan obrazni yaratadi. "Jadidlar" she'rida esa Usmon Azim bir avlodning umumiy maqsadini, ichki halovatini va tragik yakunini umumlashtiradi. She'r falsafiy ruhda yozilgan bo'lib, unda jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati, xalqparvarligi va mardligi qadrlanadi:

Yana tong otadi, otadi yana,
Lekin sizlarsiz, sizsiz hayot...

Bu satrlarda xalq hayotining ma'naviy yetimligi ifodalanadi. Jadidlar tarixiy emas, ma'naviy fenomen sifatida ko'rsatiladi. Har ikki she'rda ham ramziy ifoda, ichki monolog va lirizm asosiy poetik vosita sifatida xizmat qiladi. "Ko'z" idrok; "qalam" haqiqat; "tong" kelajak timsollaridir. Bu belgilar orqali shoir jadidlar harakatining bugungi kun bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Usmon Azim jadidlar harakatiga faqat tarixiy voqelik sifatida emas, balki ma'naviy ildiz sifatida yondashadi. Uning "Abdulla Qodiriy" va "Jadidlar" she'rlari orqali jadidchilik g'oyalarining zamonaviy badiiy talqini yuzaga chiqadi. Shoir milliy o'zlik, adolat, haqiqat, istiqlol g'oyalarini badiiy timsollar orqali yuksak darajada ifodalaydi.

XULOSA

Usmon Azim ijodida jadidlar obrazining yoritilishi tarixiy ongni shakllantirishga, milliy g'ururni oshirishga xizmat qiladi. Shoir bu timsollar orqali o'zbek xalqining o'tmishdagi fidokor farzandlarini esga soladi va ularning orzularini bugungi mustaqil hayot bilan bog'laydi. Bu esa jadidlar merosining zamonaviy adabiyotdagi dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Usmon Azim ijodida jadidlar timsoli — bu o'zbek adabiyotida tarix, ma'naviyat va milliy o'zlikning badiiy birligi sifatida e'tirof etiladi. Shoir jadidlar ruhini tiriltirib, uni

zamonaviy fikrlar bilan uyg‘unlashtirib, tarixiy xotirani mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu timsollar orqali u o‘quvchini milliy g‘urur, or-nomus, erkinlik va taraqqiyot sari yo‘naltiradi. Usmon Azim she’riyati bugungi avlodni jadidlar ma’naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019.

2. Adabiyotshunoslik ilmiy jurnali. – Toshkent, 2022. – 2-son. – B. 44-47.

3. Qosimova N. Jadidlar merosi va zamonaviylik // Jadidchilik merosi tahlilida. – Samarqand, 2021.

4. Azim U. Muqaddas majnuntol. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2018.

5. G‘ani Karim. Jadidchilik harakati va adabiyot. – Toshkent: Fan, 2001.

6. Usmon Azim. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2020.

7. Abdug‘aniyeva Z. O‘zbek she’riyatida tarixiy timsollar. – Toshkent: Akademnashr, 2022.

IV SHO‘BA.

JADID PEDAGOGIKASI. MILLIY TIL VA IMLO MASALASI

"КИТОБАТ УЛ АТФОЛ"НИ ЁЗИШДАН КЎЗДА ТУТИЛГАН МАҚСАД

Насиба Бозорова,
ТДЮУ, Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, филология фанлари номзоди
bozorova-76@mail.ru

Аннотация. Мазкур мақолада Маҳмудхўжа Беҳбудий томонидан XX аср бошларида жадид мактаблари учун иш юритиш қоидаларини ўргатишга бағишланган "Китобат ул атфол" ("Болалар учун ёзув китоби") дарслиги хусусида сўз юритилган. Дарсликни яратишдан муаллиф назарда тутган ғоялар таҳлил этилиб, асарнинг миллий маданиятимиз тараққиётидаги тарихий аҳамияти ёритилган.

Калит сўзлар: Маҳмудхўжа Беҳбудий, усули жадид мактаблари, "Китобат ул атфол", ҳужжатчилик тарихи, хат, расмий хатлар, давлат бошқаруви, иш юритиш ҳужжатлари.

Annotation. This article discusses the textbook "Kitabat ul atfol" ("Writing Book for Children") by Mahmudkhoj Behbudi, which was dedicated to teaching the rules of business administration for Jadid schools at the beginning of the 20th century. The author's ideas for creating the textbook are analyzed, and the historical significance of the work in the development of our national culture is emphasized.

Keywords: Mahmudkhoj Behbudi, Usuli Jadid schools, "Kitabat ul atfol", history of documentation, letter, official letters, state administration, business documents.

Сани мундин буён Турон кўролурму, кўролмасму?
Санинг мислингни Туркистон тополурму, тополмасму?
Сан, эй устоди олийшон, эдинг ажубаи даврон,
Отингни тилга ҳар инсон буюк ҳурмат-ла олмасму?

С. Айнийнинг "Беҳбудий руҳига ихтоф" марсиясидан

МИЛЛАТ қайғусини англаш ва шу маслакда умр кечириш ҳаммага ҳам насиб этмайди. Бу танланганларгагина ато этилган, қалби салим, иймони бутун, тафаккури кенг зотлар қисмати. Улар ўзларини, том маънода, бирлик ва тўғриликка мойил Иброҳим

миллатининг ворислари, деб билишган ва шу ворислик масъулияти билан умр кечиришган. Айнан шу туйғу уларнинг иродасини букиш, ўз йўлидан чекинишга йўл қўймаган ва ҳар қандай синовга мардонавор туриш, ҳатто ўлимга-да тик боқишга ундаган. Шундай танланган зотлардан бири Туркистон мусулмонларининг биринчи муфтиси Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳазратларидир. Ўз давридаёқ "Туркистоннинг янгилик даври тарихинда ёруғ бир чироғ" дея "Туркистон тарихида зийнатлик мумтоз ўрун олишга муносиб" [Маҳмуд Вадуд, 2007:92] топилган бу зот ўз тақдирида битилган Миллат эртаси, тараққиёти, ислоҳи масаласини шараф билан адо этди. Ёзган асарлари, мақола ва дарсликлари, амалий фаолияти билан мудроқ қалбларни уйғотиб, унга Ватан, Эрк, Дин, Миллат, Маориф, Маданият, Санъат, Тил, Адабиёт, Театр, Сиёсат, Ҳуқуқ, Иқтисод ҳақида қайғурмоқ саодатини солди. Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳаёти ва ижодига доир тадқиқотларда бу хусусда кўп ва хўп гапирилган, очиқланган.

Мазкур мақолада биз Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг жадид усулидаги мактаблар учун яратган "Китобат ул атфол" ("Болалар учун иш юритиш") ўқув қўлланмаси, хусусан, китобда берилган мактублар асосида муаллифнинг ижтимоий муносабатларга оид қарашлари хусусида фикр юритамиз.

Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг "Китобат ул атфол" асарини тадқиқ этган ва унинг тўлиқ табдилини амалга оширган адабиётшунос Н.Авазовнинг эътирофига кўра, мазкур асар ўзбек ва форс тилларида ёзилган бўлиб, Самарқандда дастлаб 1908 йилда кейин эса 1914 йилда қайта нашр этилган [Авазов Н, 107]. Ушбу асар С.Қосимов томонидан ЎзСЭ учун тайёрланган "Беҳбудий" мақоласида адибнинг дарсликлари қаторида санаб ўтилган [ЎзСЭ, 1971:203]. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти муаммолари юзасидан чуқур изланиш олиб борган адабиётшунос Б.Қосимов эса 1999 йилда "Истиқлол қаҳрамонлари" рукни остида Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг танланган асарларларини нашр эттириб, "Китобат ул-атфол" (1908) дан парча эълон қилган [Беҳбудий, 2006:216-221]. Китобнинг 1908 йилдаги нашрига нисбатан тўлиқ бўлган 1914 йилги варианти Н.Авазов томонидан табдил этилиб, 1995 йилда "Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг

ижодий мероси” мавзусидаги номзодлик диссертациясининг 60-84-саҳифаларида берилган. “Китобат ул-атфол”нинг мазкур табдили 2020 йилда “Шарқ юлдузи” журналида, шунингдек, 2022 йилда Н.Авазовнинг “Беҳбудий ижодида миллат ва миллият талқини” номли монографиясида тўлиқ келтирилиши орқали кенг илмий жамоатчилик, китобхонлар оммасига етиб борди [Авазов Н, 2022:118-147]. Манбашунос олим Н.Авазов Беҳбудийнинг “Китобат ул-атфол” асарида авлод тарбияси масаласининг ифодаланишини ўрганар экан, Беҳбудий томонидан XX аср бошларида усули жадида мактаблари учун иш юритиш қоидаларини ўргатиш мақсадида янги услубий қўланма яратилганини ва у XX аср бошида Туркистон ўлкасида давлат бошқарувида ва ҳужжат юритиш соҳасида ислоҳатларни амалга ошириш нуқтаи назаридан тузилганини қайд этади [Авазов Н, 2022:107-108].

“Китобат ул-атфол” 27 саҳифадан иборат кичик ҳажмли қўлланма бўлса ҳам, катта мақсадни кўзда тутиб яратилган. Айтиш мумкинки, тараққийпарвар Беҳбудий ҳазратларининг буюк орзулари, улуғ ғоялари шу китобчада тезис сифатида берилган. Биринчи ва асосий мақсад – МИЛЛИЙ ТИЛ муаммоси. Рисоланинг муқаддимасида ўқиймиз: “Туркистоннинг қадим мактабларидаги болалар 4 - 5 йил ўткаргандан сўнг хат машқ қилиб, баъдинда иншо ёзадурлар. Ўшал иншолар ниҳоят мушкул суратда арабий махлут (аралаш) форсий ва туркий ёзилгандурки, шогирдлар нари турсин, баъзи мактабдорлар зўрға билур. Ўйла, мушкул ибратлик узун иншолар, албатта, бола зеҳнини очмай, балки фикрини йўқ бўлишиға сабаб бўлур” [Авазов Н, 2022:120]. Кўринадики, Беҳбудий ҳазратлари арабча аралашган, форсий ҳамда туркий ёзма нутқни ислоҳ қилиш зарурият эканини урғулаган. Негаки, узун ва мураккаб жумлалар бола зеҳнини очмай, фикрининг йўқ бўлишига сабаб бўлади. Демак, бу қарашлари билан муаллиф арабча, форсча ва туркий сўзлар аралашмасидан иборат мураккаб имломизни соддалаштириш фикрни аниқ, қисқа, изчил ифодалаш усулларини ишлаб чиқиш ғоясини илгари сурган.

Иккинчи мақсад – ИЛҒОР ТАЪЛИМ масаласи. Биламизки, Маҳмудхўжа Беҳбудий жуда кўп жойларга саёхат қилган. Саё-

хатлари натижасида кўпгина ислоҳотлар, янгиликларни ўрганган ва юртга қайтгач, уларни амалга оширган. Шундай янгиликларидан аксари дарсликлар яратиш билан боғлиқ бўлган. "Китобат ул-атфол" дарслиги ҳам хориж тажрибасини ўрганиш асосида тузилган. Бу хулосамизни эса асар муқаддимасида қуйидаги сўзлар тасдиқлайди: "... мамолики исломиянинг мунтазам мактабларидаги болалар учун енгил суратда иншо тайёрланибдурки: ибтидоия, рушдия, эъдодия. Мактаб талабаларининг ҳар бириға мувофиқ суратда ишшо таълим берилур. Яъни шогирдлар ибтидоий мактабға кириб, қалам юргизганидан сўнг ҳар навъ мактуб таълим олмоқ ила батадриж усули таҳрир ва китобати замония ва маҳаллийя ҳам адабиёти миллийя таҳсилини бошлаб, борабора таҳсилларини охириғача маҳорат ҳосил этадурлар" [Авазов Н, 2022:120]. Демак, аёнлашадики, ўқувчиларнинг ёзма нутқини оддийдан мураккабга томон тадрижий равишда шакллантириш лозим. Бу ўша даврда бир қатор ислом давлатлари тажрибасида қўлланиб, яхши натижаларга эришилган. Демак, таълим усулини хориж тажрибасидан оламиз, лекин таълим мазмуни миллий бўлиши лозим. Яъни ёзма нутқни ривожлантириш учун ўқувчиларнинг ёш хусусиятини эътиборга олиб оддий, ўрта, мураккаб матнлар танланади, танланган материал эса Беҳбудий эътироф этганидек, адабиёти миллийядан бўлиши лозим. Аниқроқ айтганда, миллий адабиёт таҳсили орқали ўқувчининг сўз бойлигини ошириш, ёзувини мукаммаллаштириш керак. Негаки, миллий адабиёт таҳсили билан болада миллий тафаккур шаклланади, ўқиш, мушоҳада қилиш жараёнида сўзларнинг руҳи, мазмуни қалбга сингади. Бадиий сўз воситасида миллий дунёқараш шаклланиб, секин-секин башарий қадриятлар ахлоқ, одоб, муомала-муносабатларда ўсиш, улғайиш ҳосил бўлади. Шуни назарда тутган Беҳбудий шаклни ўзга давлатлар тажрибасидан олса ҳам мазмунда миллийликни сақлайди. Бу эса жадид маърифатпарварларининг тараққиётга эришишдаги якдил ёндашуви эди.

Учинчи мақсад – АМАЛДАГИ ИШ ЮРИТИШ ҲУЖЖАТЛАРИНИ ўргатиш. Рисола муқаддимасидаги кириш сўзни ўқишда давом этар эканмиз, муаллифнинг яна бир улуғ мақсади нима эканлигини англаймиз: "Биз ҳам шул қоидаға бино-

ан “Мажмуайи китобат ва иншо” унвона авлоди ватан учун расмий ва хусусий ҳамда Туркистоннинг шаръий ва миллий маҳкамаларина маъмул (амалдаги) барча васойиқ (васиқалар), ҳужжат ва билжумла мусулмон валаснўйи управители (ноҳия мудири) ҳузуринда бўлатургон дознония, протокўл, қабоҳатнома ва расмий ҳар навъ мактуботларни муҳтавий (ўз ичига олган) бир неча жуздан мураккаб бир асар таҳрир ва нашр этмоқ амалинда эдук. Шу мақсадға ушбу “Китобат ул-атфол” нашри ила шуруъ этдим” [Авазов Н, 2022:120]. Асарда хат ёзмоқнинг қоидалари ва шартлари; маҳаллий ҳокимиятга ариза ёзиш; маълумотнома; тасдиқнома; мамлакат фуқаролиги учун ва хорижий паспорт бериш; шаҳодатнома; тилхат, икрорнома каби ҳужжатларнинг ёзилиш тартиби ва қоидаларига намуналар берилган. Демак, ҳар бир замонда давлат бошқарув идоралари, маҳаллий ҳудуд раҳбарлари, бошқарувчи шахслар, оддий фуқаролар маъмурий-идоравий ва юридик ҳужжатларни туза олиши муҳимдир. Негаки, ҳужжат инсон ҳаётининг дахлсизлиги, эрк ва иродаси, хоҳиш ва истакларини ифодалайди. Беҳбудий ўсиб келаётган миллат фарзандларининг ўз ҳақ-ҳуқуқини таниб, истак ва хоҳишини эркин ва қийинчиликсиз баён эта олишини орзу қилган, қолаверса, бировга тобе бўлмай маҳаллий бошқарувда ўз фарзандларимиз фаолият олиб боришини ният қилгани шубҳасиз.

Тўртинчи мақсад – мактуб воситасита ҚАЛБ АМРЛАРИНИ баён этиш. Рисола муқаддимасида яна “Матлабимизнинг асоси болалар ва барча талаба тоқатинча, тавҳиди лисон таъмим ва тафҳими, мактуботи туркия ва форсиядан иборатдур” [Авазов Н, 2022:Б.120] деган муддао баён этилган. Бу мақсад ифодаси учун китобчада каттагина қисм ажратилган. Тилимиз гўзаллиги, бетакрорлиги, ягоналигини англаш учун шу тилда бош қотириб қалам қораламоқ жоиз. Беҳбудий ҳазратлари “Китобат ул-атфол”да хат ёзиш усуллари, одоби ва маданияти, хатларнинг турлари, шахсий ва расмий хат хусусиятини мукаммал баён этиб, инсоннинг турли муносабат билан отасига, онасига, устозига, дўстига, фарзандига ёзиши мумкин бўлган хат намуналарини берган. Шахсий муносабатларни ифодалайдиган хатлар жами 39 та бўлиб, шундан 21 таси туркий 18 таси форсийда битилган. Мактублар

алоҳида тадқиқ этилса, уларда улуғ миллатпарвар Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳазратларининг сўзу муомалада қай даражада зарофатли бўлганларини кўрамиз. Жумладан, хатларнинг "Улуғ тангрим оти ила меҳрибон отажоним хизматларига", "Сабаби вужуду саодатим падари бузруквор ҳузурларига", "Севикли онам ҳузури шарифларина", "Жаноби устози киромим ҳузури анварларина", "Дўстим ва маънавий оғам", "Нури чашмим суюкли ўғлим", "Нури чашму қуввати дилам, фарзанди азизам", "Ҳосили ҳаётим севикли ўғлим", "Боиси иззатим қиблагоҳим, валенеъматим отам хизмати шарифларига", "Сиддиқи муҳтарам жоний биродарам" каби мурожаат шакли билан бошланганининг ўзиёқ хатда сўзларнинг қалбга етиб борадигани саралаб олингани ва улар муаллифнинг гўзал ички оламидан хабар бераётганини исботлайди.

Биламизки, мактуб – дил таржимони. Нома меҳр, муҳаббат, гина, араз, эркалик – барчасини ўзига сиғдира олади. Қувончни ҳам қайғу-изтиробни ҳам эгасидан эгасига етказади. Фақат сўз топилса, бас. Аммо ҳар доим ҳам сўзлар хизматга шай турмайди. Айниқса, қайғу ва ҳасратда қолган дўстинг, биродарингга тасалли бериш учун сўз қайда? Ҳазрат Беҳбудийнинг мактубларидан намуна олсангиз, бундай вазиятда нима демоқ дуруст ва нимани айтмоқ лозим эмаслигини биласиз. Беҳбудий ҳазратлари бундай вазиятда шундай насиҳат қилиб, кўнгилга тасалли беради:

"СИДДИҚИ МУҲТАРАМ ЖОНИЙ БИРОДАРАМ!

Эшитган қора хабарим балойи осмонидек нозил бўлди. Кўзларимдан ёшлар равондур. Барчамиз болаларимизни асиримиз. Фалакни мундай ситамлари ялғуз сизга эмас! На чора, ҳукми қадардур. Севгили ҳазрати пайғамбаримиз ва тожи саримизни неча фарзанди аржумандларида ҳазратдан илгари ва ёшлик ҳангомида вафот этиб пайғамбаримизни хуни жигар этиб эдилар. Оҳ, на чора! Аччиғ сабрдан бошқа илож йўқ. Ёш кетганлар: ҳисоб ва азобдан қутулганлари устида бизу сиздек рўсиёҳларга, иншооллоҳ шафоатчи бўлурлар. Зотан охир ўлим экан, кулфату меҳнат тортиб юргандан ёшлик ўлуми ҳақиқатан яхшидур. Ана буларни ўйлаганда инсон тасалли топар. Жон биродар! Ҳукми худоға бўйсунуб мусибатга таскин беринг! Йиғламангиз, навҳа этмангиз. Қолганлар учун шукур этингиз. Навҳаву нолангиз

марҳумни руҳиға оғирлик ва кулфат келтурганидек сизга ҳам зарар этар. Фарёду фиғон беҳуда. Ҳукми худоға гуё норозиликдур.

Зотан, бу дунё беҳуда ва бесаботдур. Эртаға на биз на бошқалар, худойи зулжалол Қуръони каримда буюрар. "Ла тасаъу ало мафатукум ва ла тафраҳу бимо атакум". Яъни сиздан йўқ қилинган нимарсаларга кўп хурсанд ҳам бўлмангиз! Демоққи, дунёдаги нимарсаларни бору йўқ бўлишига эътибор йўқ. Тангримиз берди, яна олди. Ал – хайрун ма сунъи Аллоҳ. Ҳеч бермаса ва бизни халқ этмаса на қилардук! Хулоса сабру иши – кебойи керак" [Авазов Н, 2022:140].

Ёки падари бузрукворидан айрилган биродарингизга мана бу каби сўзлар билан қалбига малҳам бўлиш мумкин:

"Дунёда сабот йўқ, охири ҳар жамъият паришон, ҳар хона ва рўзғор вайрон бўлғусидур. Жаҳони фоний, ёлғуз биз ила сиз эмас, жонликларнинг барчаси, ҳатто еру кўк ҳукми қазо ила йўқ бўлғусидур. Боқий ва доим фақат зоди зулжалол ҳазратларидур. Бугун ва ё эрта ҳаммамиз тангрининг, "аржаъи" (қайтгин) нидоси ила олами арвоҳға кўчуб ота-бобонинг муқаддас руҳларига қавушармиз. Дунёи дун кулфатидан ва олойишидан қутулармиз. Ўлум навбатдур, ногузирдур ва кўб қўрқулатурган нимарса ҳам эмас, чунки онинг орқасида доимий тириклик бор ва руҳлар боқийдур.

Ўлумнинг илгари ва кейин келишига аҳамият йўқ. Мутлақо бугун бўлмаса эртаға биз-да кетармиз. Онинг учун жаноби қиблагоҳийнинг дорулбақоға риҳлат этканлариға ҳаддан зиёда маъюс ва ғамлик бўлишингиз маъқул ва машуъ эмас. Оллоҳ бошингизни омон этсун. Ота ўлими меросдур. Бизу сиздан дуо ва хайрот керак. Оҳу воҳ лозим йўқ. Мусибатни ўзға олмоқ фойда этмас. Балки зарардир. Имонлик ўлум тўйдур. Оллоҳи таоло кетганларга имон ва қолганларга умру сабр берсун! Энди сизга лозими шулки марҳум қиблагоҳ васиятларининг мўбамў ўрнига келтуруб оилани ўзингиздан рози этмоқ ва оталик ватанини обод ва зиёд этиб қадрига етмоқ ва чироғларини ўчирмаслик лозим. Оилани ўзингиздан рози этиб, ота арвоҳини ёддан чиқармаслик керак, азизим! Шунда ожизона ёзайинки энди ота ўрнига оила учун отадурсиз! Ва бугундан бошлаб бомаънилик ила оталар-

дек бўлишингиз кераклигини дўстона арз этарман! [Авазов Н, 2022:141-142]

Рисоладаги мактублар фақат ёзув намунаси эмас. Улар мактаб ўқувчисининг ёзма нутқини равон бўлиши, ўз фикрини эркин баён этишга ўргатиш билан бирга боланинг иймон-эътиқодли, меҳр-оқибатли, кимгадир таянч бўла олиши, хуш муомаласи билан кимнингдир дардига малҳам бўлиши мумкинлигига ишонтиради.

Хуллас, "Китобат ул-атфол" фақат иш юритиш ҳужжатлари, ёзма саводхонликни оширишга мўлжалланган, тил ислоҳига бағишланган дарслик бўлмай, миллат болаларининг маънавий, руҳий жиҳатдан баркамол бўлиши, ҳақ-ҳуқуқини таниб, ўз Ватани, Миллати, Тарихи, Тили, Дини, Бугуни ва Эртаси учун қайғурадиган чин ўғлон, фидойи инсонларни тарбиялашни мақсад қилган асардир. Беҳбудий ҳазратлари назарда тутган ғояларни амалга ошириш учун мазкур асарни ўрганиш, мактаб дарсларига киритиш ва амалий аҳамиятини исботлаш зарур.

Адабиётлар

1. Маҳмуд Вадуд. Танланган асарлар. – Тошкент, "Маънавият", 2007.

2. Авазов Н. Беҳбудий ижодида миллат ва миллият талқини. –Тошкент: "Fan ziyosi"

3. Ўзбек Совет Энциклопедияси. - Тошкент, "Энциклопедия", 1971.

4. Беҳбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2006.

5. Авазов Н. Беҳбудий ижодида миллат ва миллият талқини. –Тошкент: "Fan ziyosi", 2022.

6. Беҳбудий М. Рисолайи Китобат ул-атфол // Авазов Н. Беҳбудий ижодида миллат ва миллият талқини. –Тошкент: "Fan ziyosi", 2022.

NAVOIY, FITRAT, CHO'LPON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI

Eshnazar JABBOROV,
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
eshnazarjabborov@gmail.com
94 205 78 18
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqolaga mumtoz hamda milliy adabiyotimizda Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon asarlarida ma'rifatparvarlik motivlari: Navoiy o'z asarlarida ilm-fan va ma'rifatning ahamiyatini ta'kidlab, insonning ma'naviy va aqliy rivojlanishini targ'ib qilishi, uning "Xamsa" dostonlarida insoniy qadriyatlar, adolat, haqiqat va ilmga intilish kabi mavzular keng yoritilganligi, "Mahbub ul-qulub" asarida ma'rifatparvarlik va ilmning inson hayotidagi o'rnini muhokama qilinishi, shu bilan birga, ilmning nurli yo'lini johillik va zulmga qarshi kurashishni targ'ib qilishi, ayniqsa, "Lison ut-tayr" asarida ma'rifat va bilimning ahamiyatini, insonning o'zligini anglash va ma'naviy yuksalish motivlari asosiy o'rin tutishi; Abdurauf Fitrat o'z asarlarida ilm-fan, ma'rifat va zamonaviy ta'limning ahamiyatini ta'kidlashi, uning "Munozara" asarida johillik va ortda qolishning sabablari muhokama qilinishi, ilm-fan va ma'rifat orqali jamiyatning rivojlanishi targ'ib qilinishi, "Qiyomat", "Sayyoh hindi", "Oila" asarlarida ham, buzuq va nobop idora usuli, hokimiyat egalarini, ilm-ma'rifatdan uzoqliklari, oilaning millat va jamiyat asosini tashkil etishini, uning davlat, huquq, ma'rifat, tibbiyot bilan bog'liq holdagi ma'rifatparvarlik motivlari yanada kuchli ifodalanishi; Abdulhamid Cho'lpon asarlarida ma'rifatparvarlik va zamonaviylik motivlari keng o'rin olganligi, uning she'rlari va nasrida insonning ma'naviy ozodligi, ilm va ma'rifatning ahamiyati takidlanishi, "Kecha va Kunduz" romanida jamiyatning rivojlanishi, ilm va ma'rifatning inson hayotidagi o'rnini ko'rsatilishi "Qurboni jaholat"da millat boylarini o'z farzandlarining zamon bilan hamnafas bo'lishlari, vaqtli matbuot bilan oshno bo'lishlariga yo'l qo'ymas-

liklari, jaholat botqog'iga botirishlari, "Duxtir Muhammadyor"da oddiy Muhammadyordan vrach, noshir, tarjimon, dramaturg, aktyor, xullas, davlat egasi Do'xtir xodimi millat Muhammadyorga aylanishi kabi ma'rifiy motivlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy asarlarida ma'rifiy motivlar, "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr", Fitrat, "Munozara'", "Qiyomat", "Sayyoh hindi", "Oila" asarlari, Cho'lpon, "Kecha va Kunduz", "Qurboni jaholat", "Duxtir Muhammadyor".

Navoiy, Fitrat, Cho'lpon o'z asarlarida ma'rifatparvarlik (maorifatparvarlik) motivlarini ko'p hollarda ifodalagan. Bu mualliflar o'z davrida ilm-fan, ma'rifat va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish orqali jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shgan. U o'z asarlarida ilm-fan va ma'rifatning ahamiyatini ta'kidlab, insonning ma'naviy va aqliy rivojlanishini targ'ib qilgan.

Navoiyning "Xamsa" dostonlarida insoniy qadriyatlar, adolat, haqiqat va ilmga intilish kabi mavzular keng yoritilgan. Jumladan, Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida ma'rifatparvarlik va ilmning inson hayotidagi o'rni muhokama qilinadi. Navoiy ilmning nurli yo'lini taqib, johillik va zulmga qarshi kurashishni tavsiya qiladi. Navoiy ushbu asarida ham, xuddi boshqa asarlaridagi singari, ilm-ma'rifat, san'at va adabiyot masalalariga, maorif va madaniyat ahllariga keng o'rin beradi. "Maxbub ul-qulub"ning bir necha fasli maorif, ilm-fan va san'at-adabiyot ahllariga bag'ishlagan. Bu fasllarda Navoiy donishmand va murabbiy, ulkan madaniyat arbobi sifatida ilm-fan, san'at va adabiyotning ahamiyatini targ'ib qiladi, malakali, iqtidorli o'qituvchilarni, olimlarni, kotiblarni, shoir va san'atkorlarni maqtaydi, ularni hurmat qilishga va qadrlashga chaqiradi. Shu bilan birga, u maorif, ilm-fan, san'at va adabiyot ahllarining burch va vazifalarini talqin etadi, ulardan o'z sohasini yaxshi egallab olmagan, zimmasiga yuklangan ishga yuzaki qaraydigan, mol-dunyo to'plash yoki mansab-martabaga erishish talvasasiga tushib qolgan kishilarni shafqatsiz tanqid qiladi.

Navoiyning uqtirishicha, o'qish ham, o'qitish ham, og'ir va mas'uliyatli ish; u qunt, havas va mehnatni talab etadi. Bolalarni savobli va bilimli qilmoq uchun o'qituvchi ko'p zahmat va mash-

aqqat chekadi, binobarin, hatto birgina harfni o‘rgatgan kishini ham doimo izzat-ehtirom qilmoq kerak, uni unutmaslik lozim:

Haq yo‘lida kim senga bir harfni o‘qutmish ranj ila, Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz qanj ila.

Shu bilan birga, Navoiy o‘z davridagi maktabdorlarni tanqid qilib, “ko‘pragida tab’i fazilati va tama’ illati padidor...”, deydi. [Qodirov B, 4-72]

Navoiy mudarrislar ta’rifida: “Mudarrisning kerakli g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmni ayturg‘a murtakib bo‘lmasa, xudnamolig‘ uchun dars havzasini tuzmasa va xudsitonlig‘ uchun takallum va g‘avg‘o ko‘rguzmasa, Jahldin dastori boshida ulug‘ va aloqasi uzun bo‘lmasa va mubohot uchun madrasa ayvoni boshi anga o‘run bo‘lmasa...”, deydi. [Qodirov B, 4-81]

Kotiblar faslida xushxat va savodli kotiblarni maqtaydi, bidxat va chalasavod kotiblarni qoralaydi. “Xushnavis kotib, - deydi Navoiy, - so‘zga oroyish berur va so‘zlaguvchiga va ko‘zlaguvchiga osoyish yetkurur...” [Qodirov B, 4-64]

Ilm-ma’rifat va san’at – adabiyot ahllari haqidagi fikr-mulohazalari Alisher Navoiyni buyuk olim, madaniyat homiysi va donishmand murabbiy sifatida gavdalantiradi.

Darhaqiqat, Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida komillikning barcha qirralarini (parametrlarini) yuksak mahorat bilan talqin qila olgan. Farhod, Shirin, Mehinbonu, olim Suhaylo, Shopur, Bahrom boringki barcha ijobiy doston qahramonlarida komillikka, ma’rifatga, insonparvarlikka intilish kuchli. Dunyo adabiyotida Sharq xotin-qizlaridan Mehinbonuga o‘xshash diplomat, ilm-ma’rifat fidoyisi, xalqparvar, vatanparvar timsolini hech kim Navoiychalik maromiga yetkazib ado etolmagan.

Farhoddek mehnatsevar va ijodkor, komil inson obrazini yaratgan Navoiyning o‘zi undan ilhomlanib, qalamining Farhod teshasi kabi o‘tkir va unumli bo‘lishini orzu qiladi:

Bu kon ishqida teshang xora rez et,

Ani Farhod toshi birla tez et. . [Navoiy, A 1-236]

Navoiy bu dostonida xalqlar do‘stligi ma’rifiy motivlarini Farhod, Shirin va Shopur obrazlarida yorqin ifodalagan. Xitoylik yigit Farhod arman qizi Shirinni sevadi. Eronlik Shopur bu sevgiga homiylik

qiladi. Ularning faoliyati, dunyoqarashi, orzu-intilishi bir-biri bilan bog'lanib dunyoviy do'stlik ramziga aylanib ketgan.

Navoiy adolatli shoh obrazini ham jahon adabiyotida ko'plab orzu-umidlar fantaziyasida xalq dardiga malham beruvchi shoirlar idealidagi timsollar qatorida yorqinlik kasb etuvchi Xoqon kabi oliyjanob ota, shoh obrazida hayotiy haqiqatga aylantira oldi. Xoqon odil, ma'rifatparvar hukmdor va mushfiq, mehribon padar sifatida tasvirlanadi. U Farhodning har tomonloma tarbiya olishiga katta e'tibor beradi. Nuri diydasini shod qilish uchun qasrlar qurdiradi, hatto toj-taxtini unga taklif qiladi. Bu bilan u, bir tomondan, ko'zi ochig'ida munosib valiahd yetkazib, uni davlatni boshqarish ishiga tayyorlamoqchi bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'ychanlik va g'amginlikdan yiroqlashtirmoqchi bo'ladi. Xoqon Farhodni odil bo'lishga va elning maslahati bilan ish ko'rishga yo'llaydi:

Nekim elning salohidir, oni qil,
Mening bo'dur salohim, emdi sen bil. [Navoiy, A 1-320]

Navoiy bilimni insonning eng muhim boyligi sifatida ko'radi. U o'z asarlarida bilimga intilish, o'qish va o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Insonning ma'naviy yuksalishi, haqiqiy baxt va erkinklikka erishish uchun ma'rifatga ega bo'lish zarurligi haqida gapiradi. [Qodirov B, 4-68]

Fitrat XX asr boshlarida O'rta Osiyoda ma'rifatparvarlik harakatining yirik namoyandasi bo'lib, u o'z asarlarida ilm-fan, ma'rifat va zamonaviy ta'limning ahamiyatini ta'kidlagan. Uning "Munozara" (1911) asarida johillik va ortda qolishning sabablari muhokama qilinadi, ilm va ma'rifat orqali jamiyatning rivojlanishi targ'ib qilinadi. "Ilmsiz boylik, boylik emas, ilmsiz kuch, kuch emas". Bu fikr ma'rifatning moddiy boylikdan ustun ekanligini ko'rsatadi.

"Qiyomat" asarida ilm va ma'rifatning jamiyatning rivojlanishidagi o'rnini ta'kidlaydi. Unda: "Ilm bilan qurilgan bino botil bo'lmas, ilmsiz qurilgan bino esa qulaydi". Bu jumla ilm va ma'rifatning barqarorlik va rivojlanish uchun zarurligini ko'rsatadi. [Halimov Q. 5-47]

Fitrat, shuningdek, o'z asarlarida ta'lim va ma'rifatning jamiyatdagi o'rni haqida chuqur mulohaza yuritadi. Uning "Ma'rifat" asrida "Har bir inson o'z bilimini oshirish uchun harakat qilishi kerak, chun-

ki ma'rifat – bu insonning haqiqiy qadr-qimmati" deb yozgan. Bu fikr Fitratning ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surishdagi qat'iyligini ko'rsatadi. [Qodirov B, 4-84]

U, shuningdek, "Ilm – bu insoniyat uchun eng qimmatli merosdir" deb ta'kidlaydi, bu orqali u ilm-fanning ahamiyatini va uning jamiyat taraqqiyotidagi rolini ta'kidlaydi.

Fitratning "Yoshlarimiz ma'rifatli bo'lishi kerak, chunki ular kelajakning quruvchilari" degan g'oyani ilgari suradi. Bu, uning yosh avlodga bo'lgan ishonchini va ularning ilm-fan orqali taraqqiyotga erishish imkoniyatlarini yanada oshiradi.

Fitratning publitsistik asarlarida ma'rifatning zamonaviy taraqqiyot uchun ahamiyati ta'kidlangan. Uning: "Ma'rifatsiz millat – qorong'uda qolgan karvonga o'xshaydi" degan ifodalari ma'rifatning millatning rivojidagi rolini ta'kidlaydi.

Masalan, Fitratning ilk asari dramatik publisistikaga moyil "Munozara" zamonaning zayli bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pog'onasida turib qolgan din va dunyo, jamiyat va ma'rifat haqidagi ikki xil ko'z qarashga ega bo'lgan ikki kishining "jadid" va "qadim"ning bahsi asosiga qurilgan.

"Sayyoh hindi" asarida muallif yeri, suvi, havosi, betimsol odamlari g'oyat mehnatkash, hunarmand bir xalqning og'ir turmushidan so'z ochadi, uning sabablarini tahlil etadi. Fitrat fikricha, asosiy sabab idora usuli buzuq va nobop, hokimyat egalari ilm-ma'rifatdan uzoqlar... [Fitrat, A. 3-36]

"Oila" asarida esa, oilaning millat va jamiyat asosini tashkil etishini ta'kidlab, uning davlat, huquq, ma'rifat, tibbiyot bilan bog'liq tomonlarini muhokamaga tortadi.

Abdulhamid Cho'lpon o'z asarlarida ma'rifatparvarlik go'yalarini zamonaviy kontekstda yoritadi. Uning "Kecha va Kunduz" romanida ta'lim va ilm-fan ahamiyati, shuningdek, xalqning ma'naviy o'sishi masalalari o'rganiladi. Cho'lpon o'z asarlarida "Yoshlar - kelajak umidi" degan g'oyani ilgari suradi. U "ilm va ma'rifat yo'lida harakat qilish – har bir insonning burchidir" deb yozgan. Bu fikrlar Cho'lpon ijodida ma'rifatparvarlik motivlarining kuchliligidan dalolat beradi. [Cho'lpon, A 2-113]

Cho‘lpon ma’rifatparvar nosir sifatida ham adabiyotimizda salmoqli o‘rin tutadi. Adib uch jildligining 2-jildiga uning “Kecha va Kunduz” romani bilan birgalikda turli davrlarda yozilib chop etilgan 13 hikoyasi kiritilgan. Ular orasida 1914-yilda e’lon qilingan ilk hikoyalari “Qurboni jaholat” va “Do‘xtur Muhammadyor”dan sovet davrida bosilgan “Kleopatra”(1923) gacha bor.

“Qurboni jaholat”da Eshmurod degan yigitning fojiali taqdiri hikoya qilinadi. Eshmurod – o‘qimishli yigit, lekin atrof zimiston. Hammayoqda jaholat. Hatto o‘z otasi uni gazeta o‘qigani uchun masxara qiladi. Maktab, ilm-fan, ibrat olish uchun degan gaplarga millaatning toqati yo‘q. Eshmurodga mana shu tashvishlar tinchlik bermaydi. Uning ustiga bir voqea yuz beradi-yu Eshmurodning hayoti ostun-ustun bo‘lib ketadi. Eshmurodlarnikiga uning yoshlikdagi tanishlaridan Mo‘minjon kelgan edi. Ko‘zini shamg‘alat qilib, otasining soatini o‘marib ketibdi. Otasiga uni yaqin do‘sti Nazarali so‘fi hadya qilgan edi. Mo‘minjon ketishi bilan izma-iz ular kirib keladilar. Gap aylanib soatga kelib taqaladi-yu, uning yo‘qolgani ma’lum bo‘lib qoladi. Izza bo‘lgan ota o‘g‘liga dashnom berish bilan kifoyalanmaydi,kaltaklaydi. Eshmurod nomus kuchidan yotib qoladi. Bir oycha yotib biroz tuzalgach, qo‘shnisi mingboshining bog‘chasiga chiqib, gazeta varaqlab o‘tirganda yana shunday voqea yuz beradi. Mingboshi uni gazeta o‘qitish uchun mehmonxonasiga taklif qiladi. O‘yinqaroq yoshlardan biri kelib, bu gal mingboshining qoziqqa osib qo‘yilgan tilla soatini o‘g‘irlaydi va uning tuhmati Eshmurodga tushadi. Hech bir gap so‘z yo‘q, mirshablar bostirib kelib, uni qamamoqchi bo‘ladilar. Bularga chiday olmagan Eshmurod o‘zini otib, nobud qiladi, bir-ikki kundan keyin taftishchilar chog‘ida o‘g‘ri aniqlanadi, lekin vaqt kech edi. Shu tariqa u jaholat qurboni bo‘ladi. Asar badiiy jihatdan zaif, lekin unda Turkiston musibatini teran anglashga intilish seziladi.

“Do‘xtur Muhammadyor”da biroz nur bor. Muallif ma’rifatchiligi bir qator yorug‘ bo‘yoqlarda aks etgan. Hikoya markazida Muhammadyor bir dunyo sarguzashtni boshidan kechirgan Hoji Ahmadning o‘g‘li. Hoji Ahmad inson saodati ilm-ma’rifatda ekanligini yaxshi anglaydi, bir guruh johil qimorbozlar qo‘lida jon berarkan o‘g‘liga o‘qishini tayinlaydi. Muhammadyor otasi qotillaridan o‘ch olmaydi.

Hammasiga aybdor jaholat ekanligini tushunib yetadi va bor kuchi bilan o'qishga beriladi.

Jamiyati xayriya vositasi bilan dastlab Bokuda gimnaziyada, so'ng Petrograd universitetida, nihoyat 7 yil Shveytsariyada dorilfunning tibbiyot fakultetida o'qiydi. Yurtiga qaytib kelib, bilimi orqasidan obro'-e'tibor topadi. Xususiy shifoxona ochib, kambag'allarni tekin davolaydi. "Vatan" nomli jurnalni, "Xabar" degan gazetani yo'lga qo'yadi. Oddiy Muhammadyordan "Do'qtur xodimi millat Muhammadyor"ga aylanadi.

Muhammadyor do'qturgina emas, qalam egasi hamdir. Petrogradda ekan, aziz umrlari samarsiz kechayotgan madrasa talabalari turmushidan "Umrlik shogirtlar" degan roman yozadi va rus tiliga tarjima qiladi. Talabaligining so'ngi yillarida esa, Moskva va Petrograddagi turkistonli moskovchi boylar hayotidan "Poytaxt mehmonlari" nomli bir teatr kitobi yozib, "tilsiz", ilmsiz , madaniyatdan uzoq boyonlarimizning ko'cha-ko'yda, mehmonxona nomerlarida ajnabiylar tomonidan haqorat qilinishlarini ko'rsatib beradi. Uni ham o'zi ruschaga tarjima qiladi. Poytaxt teatrlaridan birini ijaraga olib, talaba o'rtoqlari bilan sahnaga qo'yadi. Bosh rolni - Xo'jayinni o'zi o'ynab, olqishlar oladi. Ko'rinayaptiki, Cho'lpon XX asr boshidagi Turkistonning peshqadam kishisi deganda zamonning mana shunday hamma masalalariga javob bera oladigan, barcha jabhada elning koriga yaraydigan, shaxsni tasavvur etadi. Afsuski hikoya ma'rifiy darajada qolgan, badiiylikka ko'tarila olmagan.

Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho'lponning asarlarida ma'rifatparvarlik motivlari insonning ilm, ma'rifat va ma'naviy qadriyatlarga intilishini targ'ib qilish bilan bog'liq. Ularning asarlarida ma'rifatparvarlik insonning ruhiy va ijtimoiy rivojidagi muhim omil sifatida ko'rilgan. Bu mualliflarning ijodiy merosi ma'rifatning insonning kamolotga erishishidagi rolini takidlash bilan birga, zamonaviy zamonda ma'rifatparvarlikning mohiyatini yanada kuchli targ'ib qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy, A. Xamsa. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashryoti, 1991.

2. Cho‘lpon, A. Kecha va Kunduz. –Toshkent: Yosh gvardiya,1989.

3. Fitrat, A. Munozara. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.

4. Qodirov B. O‘zbek adabiyotida ma’rifatparvarlik motivlari. – Toshkent: Fan, 2010.

5. Halimov Q. Ma’rifatparvarlik va o‘zbek adabiyoti. – Toshkent, 2010.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI

Umida Kudratova,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Falsafa kafedrasi dotsenti, (PhD)
Tel.: (91) 134 6375
E-mail: *qudratovaumida132132@gmail.com*
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lim-tarbiya, ma'rifat va madaniy hayot borasidagi asarlari, maqolalaridagi g'oyalar tahlil etilgan. Milliy qoloqlik sabablarini ilmsizlikda deb, unga qarshi ma'rifat orqali kurashadi. Buni ma'rifatlashtirish konsepsiyasi orqali amalga oshiradi. Mutafakkir o'z asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga, muallimlar faoliyatiga, maktablar va ularni rivojlantirish ishiga alohida e'tibor qaratadi.

Tayanch so'zlar: *jadidchilik, ma'rifatlashtirish, ta'lim-tarbiya, yangi usul maktabi, muallim, taraqqiyparvar, millat.*

Abstract. The article analyzes the works of Mahmudkhoj Behbudi on education, enlightenment and cultural life, the ideas in his articles. He believes that the causes of national backwardness are ignorance and fights against it through enlightenment. He does this through the concept of enlightenment. In his works, the thinker pays special attention to educational issues, the activities of teachers, schools and their development.

Keywords: *jadidism, enlightenment, education, school of the new method, teacher, progressive, nation.*

Turkiston xalqining milliy qahramoni, jamoat, madaniyat va maorif arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy nomi faqatgina Turkiston ziyolilariga emas, balki ko'plab Osiyo va Yevropa mamlakatlarida ham ma'lum va mashhur.

XX asrning boshlarida millat tanazulliga qarshi kurashgan ma'rifatparvar o'zbek ziyolilaridan biri Mahmuxo'ja Behbudiy (1874 -1919 y.) o'zbek va fors-tojik tillarida 200 dan ziyod maqola va asarlar yaratgan. Jumladan, "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy jug'rofiya» 1903), «Kitob-ul-atfol» («Bolalar uchun kitob»,

1904), «Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi", 1904), "Amaliyoti islom" (1905), "Rusiyaning qisqacha jug'rofiyasi" (1908) kabi darslik va kitoblar yozgan.

Uning 1901 yildan boshlab «Turkiston viloyati gazeti», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Tujjor», «Osiyo», «Hurriyat», «Turon», «Sadoi Turkiston», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Mehnatkashlar tovushi», «Tirik so'z», «Tarjumon», «Sho'ro», «Vaqt», «Toza hayot», «Samarqand», «Oyna» kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyparvar kishilar, ayniqsa, yoshlarning diqqat-e'tiborini qozongan. U ayni chog'da yangi usuldagi maktablarning asoschisi va targ'ibotchisi, yangi darsliklarning ilk muallifi ham bo'ldi. Xullas, Mahmudxo'ja Behbudiy buyuk ma'rifatparvar-pedagog va yetakchi jadidchi sifatida milliy madaniyatimiz tarixidan mustahkam o'rin egallaydi.

Behbudiy o'z vaqtida chor Rossiyasi va jahon siyosiy sahnasida ro'y berayotgan o'zgarishlarni ziyraklik bilan kuzatadi va vatanparvar inson sifatida Turkistonning kelajagi haqida chin dildan qayg'uradi, u butun kuch g'ayratini millatni uyg'otishga bag'ishladi. Behbudiy millatni qoloqlikdan chiqarish uchun, avvalo, millatni ma'rifatlantirish lozim, degan fikrga kelgan. Uning shu masalaga doir maqolalaridan maktab va madrasalarning ham, muallimlarning ham yetishmaganligini, darslik va o'quv qo'llanmalari esa, yetarli bo'lmaganligini yaxshi bilamiz. Natijada uning o'zi maktablar ochdi, o'zi darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratdi, dunyoviy fanlarning maktab o'quv dasturlaridagi mavqeini oshirdi. Millatni ma'rifatlashtirish masalasi uning izdoshlariga erk va hurriyat uchun kurashning muqaddimasi bo'ldi.

Naim Karimov ta'biri bilan aytganda, Behbudiyning millatni ma'rifatlashtirish konsepsiyasi, avvalo, yangi usul maktablarini ochish, bu maktablarda dunyoviy fanlarning ustuvorligiga erishish, ularni zamonaviy darslik, o'quv qo'llanmalari va qurollari bilan ta'minlash, ota-onalarning to'y va ma'rakalarga sarflaydigan mablag'laridan bir qismini mahalliy maktabni bitirgan bolalarning xorijiy mamlakatlardagi dunyoviy va diniy oliy o'quv yurtlariga yuborish, ularning turkiy, fors va arab tillaridan tashqari, rus va nemis yoki fransuz tillarini ham o'zlashtirishiga erishish, zamonaviy sudya, huquqshunos, injener kabi Turkiston uchun noyob bo'lgan ixtisosliklar bo'yicha malakali

mutaxassislarni tayyorlash masalalarini o‘z ichiga olgan [Каримов H., 2014. 33.].

M.Behbudiy zamondoshlarining saviyasi pastligidan ozor chekadi. “Bizni kemirguvchi illatlar” nomli maqolasida “O‘zlarini zamoncha ilmi va hunari yo‘qki, konturg‘a, mahkamag‘a, bonkag‘a kirib vazifa olsa. Endi noiloj attorlik va yo baqqollik va u bo‘lmasa, muzdurlik va mardikorlik qilib, bu ishlardan faqat alarni qorni to‘yadir”. “To‘y va ta’ziyaga sarf qilinaturg‘on oqchalarimizni biz, turonliklar, ilm va din yo‘lig‘a sarf etsak, anqarib ovro‘poyilardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimizda obruo‘y va rivoj topar” [Беҳбудий, 1997.147-148.]. Behbudiy o‘sha yillarda avj olgan diniy fanatizmni millatni qoloqlik va jaholat botqog‘iga olib kelgan yovuz kuch sifatida keskin qoralaydi.

Behbudiyshunos olim Begali Qosimovning kuzatishlariga qaraganda, jadidlar istiqlolga erishish borasida bir-birlaridan farq qiluvchi uch yo‘ldan borishgan:

1) Rossiyaga tobelikdan zo‘rlik bilan qutulish va kuch bilan mustaqillikka erishish (Dukchi eshon qo‘zg‘oloni, 1916 yil voqealari, “bosmachilik harakati”);

2) ruslar yordamida ma’rifatli bo‘lish va ma’rifat yordamida haq-huquqni olish, milliy o‘zlikni tiklash (I.Gasprinskiy va M.Behbudiy);

3) dastlab chor ma’murlari, so‘ngra sovet hokimiyati bilan birga hamkorlik qilish va imkon tug‘ilishi bilan mustaqillikni qo‘lga kiritish (M.Abdurashidxonov, Hamza va A.Avloniy).

B.Qosimovning fikriga ko‘ra Behbudiy istiqlol uchun kurashning ikkinchi yo‘liga mansub bo‘lib, bu yo‘l tarafdorlari ruslar yordamida ma’rifatli bo‘lish va milliy haq-huquqni qo‘lga kiritish orqali istiqlolga erishmoqchi bo‘lishgan.

Behbudiy, bizningcha, ruslar yordamida emas, balki Turkistonda tashkil etilgan “Nashri maorif” singari milliy tashkilotlar yordamida nafaqat Rossiya, balki Makka, Madina, Misr, Istanbul, pguningdek, turkiy xalklar istiqomat qilgan Kavkaz, Qrim, Orenburg, Qozonga borib, shu yerdagi dorilfununlar yordamida ma’rifatli bo‘lish, eng muhimi, davlat muassasalarida, tijorat sohalarida ishlaydigan, Davlat dumasiga saylana oladigan kadrlarni tayyorlash orqaligina istiqlol uchun kurashish mumkin va lozim deb bilgan. Davlat, sanoat va qish-

loq xo'jaligi, transport, fan va madaniyat sohalarida rahbar lavozimlarda ishlay oladigan kadrlarni voyaga yetkazish Behbudiy ma'rifatparvarlik konsepsiyasining piravard maqsadini tashkil etgan.

Turkiston muxtoriyatini barpo etilishi uning ma'rifiy islohotlari uchun zaruriy vosita sifatida qaraldi. Afsuski, 3-Davlat dumasidagi Rossiya musulmonlariga bo'lgan ishonch va munosabat bu "birinchi qadam"ning "mustaqillikka tomon" [Беҳбудий, 2003. 147.] qo'yilishiga imkon bermadi. Shundan keyin Behbudiy asosiy diqqat-e'tiborini publitsistik maqolalar yordamida vatandoshlarining ijtimoiy ongi va madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirishga uzil-kesil qaratishga kirishdi. 1906-1914 yillarda jadid matbuotida e'lon qilingan adabiy asarlar va publitsistik maqolalar Turkiston aholisining uyg'onishi, unda milliy ozodlik haqidagi orzu va intilishlarning kurtak yozishida muhim omil bo'ldi. [Каримов, 2014. 39.].

XIX asrning ikkinchi yarmidan Rossiyaning bosib olishi natijasida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ma'rifatlashtirish borasidagi tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu "Jadidchilik harakati" faollarining hayoti va faoliyatidagi asosiy maqsadga aylandi. Jumladan, M.Behbudiy millatning asriy qullikdan ozod etish yo'lini, avvalo, xalq ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini o'stirish bilan bog'lab asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratadi.

1.Diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal o'qitadigan yangi jadid maktablarini tashkil qilish;

2.Gazeta, jurnallar tashkil etib ommaning ongini oshirish;

3.Teatr truppalarini tashkil etib, xalqning nomaqbul illatlarini fosh qilish, madaniy saviyasini oshirish;

4.Musulmon dunyosi g'oyalari bilan cheklanib qolmasdan, umumbashariy qarashlar bilan qurollanib yuksak ma'rifiy cho'qqiga chiqish;

5.Sharqning fozillik, donishmandlik g'oyalari bilan G'arbning ishchanlik, serg'ayratlik faoliyatini birlashtirish tarafdori bo'ldi.

M.Behbudiy islohotlarning maktab va madrasalar, xalq hayotining ta'lim-tarbiya bilan bog'liq tomonlarini o'rganish, yaxshilashdan iborat bo'lishi kerakligini ko'rsatdi. Uning ta'lim-tarbiya tizimi aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, diniy tarbiya, estetik tarbiya, huquqiy tarbiyadan iboratdir. Ularning har birini inson hayotidagi ahamiyati

bevosita bolalarga yoshligida berilgan ta'lim-tarbiyaga bog'liqligiga e'tibor qaratadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1893 yildan Rusiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy gazeta-jurnallarni, kitoblarni mutolaasiga qattiq kirishadi. Zamona voqealari bilan tanishib, siyosat va ma'rifat sohasida ro'y berayotgan yangiliklarni sinchkovlik bilan kuzatadi. Xalqning ma'rifatsizligini, ziyolilarning avomlashganini ko'rib, el-yurt va avvalo, oilasida ma'rifatni kuchaytirishga harakat qiladi. Behbudiy o'z farzandlari ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor bergan. Ularning xat-savodli, zamon talabidagi mutaxassis bo'lib yetishuviga sharoit yaratgan. Shu sababli u bolalariga xususiy o'qituvchilar yollab rus, fransuz va boshqa xorijiy tillarni o'rgatishga harakat qilgan. O'zi muharrirlik qilgan nashrlar va asarlari yordamida xalqning ijtimoiy, siyosiy ongini oshirishga, jahon madaniyati, mutaraqqiy mamlakatlar afkor ommasi erishgan yutuqlarga e'tibor qaratishga bor kuch-g'ayrat va mablag'ini, hatto jonini tikkan [Аҳмад С., 2014. 9-10.].

"Hifzi sihat oila" maqolasida, maktabda ustozlar o'zi ta'lim berayotgan kitoblarning mohiyatiga yetib saboq bersinlar, deb ta'kidlaydi. M.Behbudiy va jadidchilik harakati vakillari Turkistonda XX asr boshlarida zamonaviy ta'lim tizimi asoslarini yo'lga qo'yadi. Ular xalqni "qashshoqlik sababi, uning ilmsizligi, o'qish imkoniyatiga ega emasligidir" [Қосимов, ЎзАС. 1989.19 -20 январь], deb jadid maktablari orqali tezkor usulda xalq savodini chiqarishga, muallimlarning yangi zamonaviy avlodini tayyorlash imkoniyatini yo'lga qo'ya oldi. Ularning sa'yi-harakatlari va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ma'rifiy taraqqiyotni zamon talabiga aylantirdi.

O'z-o'zidan ko'rinadiki, aksariyat ijtimoiy-siyosiy rukndagi maqolalarning xulosasida M.Behbudiy Turkiston xalqlarining o'qitilishi va maorifiga e'tibor qaratilishi kerakligiga urg'u beradi. Millatparvar aholining ijtimoiy-siyosiy fikr doirasini kengaytirish, ushbu jarayonlarga jalb etishda, eng avvalo xalqning dunyoqarashida madaniy-ma'rifiy o'zgartirishlar yasashning muhim omili sifatida - maktab islohotini birinchi zaruriyat deb belgilab oldi. "Oh, biz fandan keyin qolganmiz. Xalqi olam usuli jadid va ilmi zamonaviy ila osmonlarg'a uchar. Biz hanuz bir-birimizni takfir va tal'in ila vaqt o'tkararmiz"

[Беҳбудий, 1914. № 13] - deb yozgan edi Mahmudxo'ja Behbudiy.

Taraqqiyparvar o'lkadagi madaniy-ma'rifiy jarayonlarni tahlil etishda boshqa millatlar maorifi va madaniyati darajalari holatiga e'tibor qaratgan va ulardan o'rnak olish zarur, deb hisoblagan. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy: "...yahud, arman, rus bolalari oppoq kiyinib, qo'ltiq-qo'ltiq kitob ila maktablarga kelar ekan, bizni bolalarimiz na uchun kir va yirtiq kiyim, oyoq yalang bir holda eshik baeshik mehnat axtarur, inson bu holatlarga diqqat ila boqsa istiqboldan ma'yus o'lur... bu holatimiz ila boshqa millatlarning maishat, savdo va tiriklik bobinda aslo-aslo barobar bo'lolmaymiz",-deb qayg'uradi. Uning fikricha, "boshqa millatlarga qaralsa ko'rulurki, muntazam maktablari bor va ul maktabda diniy ilm ustinda dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur, chunki dunyoga turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilm va fandan bebahra millat, boshqa millatlarga poymol bo'lur".

Bosh muharrir sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy ko'p hollarda "Samarqand" gazetasining sahifalarida boshqa millat maorifining holatini sharhlovchi qiyosiy faktlarni xalqqa taqdim etishga harakat qilgan. Chunki aynan shu orqali Turkiston ahlining ma'rifiy jihatdan ortda qolayotganligini yaqqol ko'rsatish imkoniyati mavjud edi. Masalan, 1913 yilda Kavkazdagi gimnaziyalarda 590, mavjud maktablarda 558, qizlar gimnaziyasida 154, qizlar maktabida 17, shahar bilim yurtlarida 1263, boshlang'ich rus va musulmon maktablarida 9569, hunar va sanoat maktablarida 191 musulmon farzandlari o'qiyotganligi, shuningdek, musulmon-larning o'ziga maxsus 1541 ta maktablari bo'lib, u yerda 1625 muallim dars berishi, 31533 shogird tahsil olishi ko'rsatilib, "Kavkazda 3 million musulmon bor. Turkistonda 8-9 million. Bu ikki mamlakat musulmonlarini bir-biriga qiyos qilinsa, darajalari ma'lum bo'lur"[Беҳбудий, Самарқанд, 1913. № 32. 2 август], - deb ta'kidlasa, Rossiyada istiqomat qiluvchi 6 mln. 300 ming yahudiylar o'zlarining farzandlarini nafaqat milliy maktablarida, shuningdek, rus maktablarida ham tahsil olish imkoniyatlari kengligi ko'rsatilib, ular (yahudiylar - B.M)ning "1904 yil hisobincha o'z din va tillarni o'qitmoqg'a maxsus bo'lg'an maktablari o'n mingdan ziyodadir. Holbuki, o'shal yilda adadlari yahudiylardan to'rt marotaba ortiq bo'lgan maktablari 900 adoga yetmagan edi"[Беҳбудий,

Самарқанд,1913. № 37.20 август], deya o‘zga millat vakillaridan ibrat olishga chaqiradi.

“Muhtaram yoshlarg‘a murojaat” maqolasida shuningdek, Turkiston yoshlari muallim yetishtirish chorasini topishlari lozim. Turkistonda muallim chiqarish uchun dorulmuallimin bo‘lmasa ham shaharda usuli ta’limdan xabardor bir ikki kishi bordir, ularning oldiga muallimlikka talabgorlarni 3-4 oyga yuborib, muallimlikka tayyorlash mumkin. Agar ular hohlamasalar, muallimlikka havaskor yoshlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri Toshkantga Munavvarqori janoblarining maktabiga yubormoq kerak. Ular bu toliblarni mamnuniyat bilan qabul qiladi. Endi g‘ayrat faqat sizlardan, tavfiq ollodandur [Беҳбудий, 1997. 152-154.], deb murojaat qiladi. Demak, bu davrda jamiyat zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan muallim-o‘qituvchilar tayyorlashga ehtiyoj baland ekanligini izohlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining ilg‘or kishisi sifatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdagi yechilishi lozim bo‘lgan muammo va kamchiliklarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, jamiyat tanazzulini his etdi. Taraqqiyparvar boshqa xalqlar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirmay turib, jahon madaniyatiga, milliy taraqqiyotga erishib bo‘lmasligini, o‘zga millatlar turmush tarzining ibratli jihatlaridan foydalanish zarurligini, taraqqiyotning moddiy asosini mustahkamlashda avvalo iqtisodiy madaniyatni yaratishga asosiy e’tiborni qaratgan holda ma’naviy zaminni mustahkamlash masalasini bosh o‘ringa olib chiqdi.

Aksariyat chiqishlarining asosiy mavzu doirasi Vatan, uning taqdiri va tarixi, erk uchun kurash, milliy manfaatlarga xizmat qilish, qoloq an’analarni qoralash, xalq ma’rifatini ko‘tarish, Chor Rossiyasining avtokratik boshqaruvi hamda uning Turkiston va Buxoro amirligidagi tartibotlarini tanqid ostiga olishdan iborat edi.

Behbudiy mustaqillikka kurashsiz erishib bo‘lmasligini yaxshi bilardi. U ilgari surgan “Haq olinur, berilmas” degan mashhur shior butun millatga da’vat bo‘lib yangradi.

U xalqni yagona millatga birlashtirish uchun yangi usuldagi maktablarni ochishning o‘zi kifoya qilmasligini, balki milliy matbuot va milliy teatrni rivojlantirish zarurligini ham tushunib yetgan edi.

Behbudiy to umrining oxirigacha o‘zining sevimli ishi — ma’ri-

fatga sodiq qoldi, hatto, halok bo‘la turib, ma’naviy vasiyat yozishga va uni erkka chiqarib yuborishga muvaffaq bo‘ldi. O‘z vasiyatida do‘stlarini ma’rifat, madaniyat, fanni rivojlantirishga, taraqqiyotga xizmat qilishga da’vat etdi.

Behbudiy o‘zining so‘nggi maktubida: “Sizlarga vasiyatim shu: Turkiston farzandlari nodon bo‘lib qolishlari mumkin emas. Hamma-hammaga Ozodlik yo‘lini ko‘rsating!” deb yozgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axrorova Z.B. Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik qarashlari va ma’rifiy amaliy faoliyati.\ Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya.Toshkent1997.
2. Behbudiy, Mahmudxo‘ja Tanlangan asarlar. - T.:Ma’naviyat, 1997. - B -147-148.
3. Behbudiy, M. Bizni xollar va ishlar // Oyina. 1914. № 13.
4. Behbudiy , Mahmudxo‘ja Turkiston madaniy muxtoriyati. \“Jaxon adabiyoti”, 2003yil, 8-son. - B.147.
5. Behbudiy, Mahmudxo‘ja Kavkaz musulmonlarida // Samarqand, 1913. № 32. 2 avgust
6. Behbudiy ,Mahmudxo‘ja Yahudiy maktablari // Samarqand, 1913. № 37. 20 avgust.
7. Karimov N. Erk va hurriyat jarchisi / “M.Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati” ilmiy maqolalar to‘plami – T.:”MUMTOZ SO‘Z” 2014. – B -33.
8. Kudratova U.R. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi fenomenining ijtimoiy falsafiy tahlili. / Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya.-Toshkent, 2022.
9. Saifnazarov I., Kudratova U. Yangilanayotgan O‘zbekiston o‘qituvchisi. Monografiya. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
10. S.Ahmad, S. Turkiston xalqining milliy qahramoni - “M.Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati” ilmiy maqolalar to‘plami –T.:”MUMTOZ SO‘Z” 2014, 9-10b.
11. Qosimov B. Behbudiy va jadidchilik \ O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1989. 19 -20 yanvar.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY PUBLISISTIKASIDA YOSHLAR MA'RIFATI MASALASI

Xaitova Yulduz Uktamovna,
Termiz davlat universiteti,
f.f.f.d., (PhD)
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Jadid adabiyoti ma'rifatparvarlik g'oyasi bilan sug'orilganligi jihatidan XX asar adabiyotining o'ziga xosligini namoyon qiladi. Jadidchilik harakatining rivojlanishida esa matbuot sohasi alohida o'rin tutganligi, jadid ma'rifatparvarlaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning matbuotdagi faoliyati va yoshlar ma'rifati masalasidagi qarashlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *jadid adabiyoti, matbuot, maqola, "Oyna", "Samarqand" gazetasi, tarixiy taraqqiyot, ma'rifa.*

Аннотация

Джадидская литература демонстрирует уникальность литературы XX века, поскольку она проникнута идеей просвещения. Изучено особое место, которое пресса играла в развитии джадидского движения, деятельность одного из просветителей-джадидов Махмудходжа Бехбуди в печати, его взгляды на проблему просвещения молодежи.

Ключевые слова: *современная литература, пресса, статья, газета «Ойна», «Самарканд», историческое развитие, просвещение, обращение к молодежи, новое мышление, новое поколение.*

Abstract

Jadid literature demonstrates the uniqueness of 20th-century literature in terms of being imbued with the idea of enlightenment. The special place that the press played in the development of the Jadid movement is studied, as well as the activities of Mahmudkhoj Behbudi, one of the Jadid enlighteners, in the press, and his views on the issue of youth enlightenment.

Keywords: *Jadid literature, press, article, "Oyna", "Samarkand" newspaper, historical development, enlightenment, appeal to youth, new thinking, new generation.*

XX asr boshlarida mustamlaka Turkistonda milliy ozodlik shiori ostida jadidchilik harakati vujudga kelib, jadal sur'atlar bilan rivojlanishda davom etdi. Jadidchilik harakatining bosh g'oyasi ma'rifatparvarlik va milliy ozodlik jadid adabiyotining bosh mavzusi sifatida qaraldi. Jadidchilik harakati ham shaklan, ham mohiyatan butkul yangi adabiyot shakllanishiga sabab bo'ldi. Turkiston ma'rifatparvar ziyolilari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Siddiqiy-Ajziy, Hamza, Kamiy, Xislat, Miskin kabi ijodkorlar ilmsizlik, ijtimoiy qaramlik, ma'naviy-ma'rifiy qoloqlik illatlaridan qutulish va ma'rifatga erishish g'oyalarini o'z asarlarida o'ziga xos tarzda badiiy talqin qilishdi. Maorif sohasini yuksaltirish, ma'rifat orqali xalqni zalolatdan qutqarish davr talabi, hayotiy ehtiyoj sifatida adabiyotning ham bosh mavzusiga aylantirildi. Ayni paytda, maktab-maorif isloh qilish boshlandi. Milliy matbuot yo'lga qo'yildi. Teatr paydo bo'ldi. Yangi adabiyot shakllandi, bir so'z bilan aytganda yangi tafakkur maydonga keldi. Bu millatning o'zligini anglash va mustaqillik mafkura edi. Bu, shubhasiz, millatni keyingi 3-4 asrlik tarixiy taraqqiyotida misli ko'rilmagan hol edi. Uning hayotda uzoq turg'unlikdan keyin yangi bosqich boshlanishiga dalolat edi. Bu davrda Turkistonda boshlangan jadidchilik harakati uch soha bo'yicha o'z faoliyatini yo'lga qo'yadi.

1. **Maorif** - yangi maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash, darsliklar yaratish.
2. **San'at** - badiiy adabiyot hamda teatr orqali ma'rifatga chorlash.
3. **Matbuot** - gazeta, jurnallar vositasida ma'rifat ulashish.

Shu jihatdan millatni ma'rifatga chorlash, o'quvli qilish maqsadida tashkil qilingan jadid maktablari tarmog'ini kengaytirish ishiga o'z hissasini qo'shgan, nashriyotlar tashkil etib, o'quv darsliklari yaratgan ma'rifatparvarlardan biri Mahmudxo'ja Behbudiydir.

U 1913-yil aprel oyida "Samarqand" gazetasini chiqardi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada 2 marta, dastlab ikki, so'ng to'rt sahi-

fada chop etildi. 45 ta sondan so‘ng moddiy tanqislik tufayli chiqish to‘xtadi. O‘sha yilning 20 avgustidan u “Oyna” (Ko‘zgu – Mir’at - Zerkalo) nomli fors, turk, arab va rus tilida jurnal chiqa boshladi. Lekin jurnal asosan forsiy va turkiyda chiqa boshladi. Bu suratli haftalik jurnal ko‘proq o‘zbek tilida: shuningdek, forscha she’r, maqola, ruscha e’lonlardan iborat edi. Boshida haftada bir marta, so‘ng ikkinchi yilda 15 kunda bir marta chiqqan. 20 oy chamasi to 1915-yil oxiriga qadar chiqib, so‘ng to‘xtagan. Biroq gazeta faoliyati davomida dolzarb ahamiyatli maqolalar, yoshlarni ilmli qilish yo‘lidagi qilinishi kerak bo‘lgan ishlar xususida mulohazalar e’lon qilinadi. Adib matbuot vositasida xalqni uyg‘onishga, ilm-ma’rifatga oshno bo‘lib, millatga yetuk shaxslar yetishtirib berishga da’vat etadi. Millatni ma’anaviy yuksalishi uchun bor imkoniyatini ishga solib, bu yo‘lda matbuot sohasidan samarali foydalanadi.

Behbudiy asos solgan jurnallardan “Oyna” jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatishda muhim vosita hisoblangan. Unda millat va uning haq-huquqi, tarixi, til adabiyotiga oid maqolalar, yoshlarni ma’rifatli etish xususidagi qarashlar, dunyo ahvoliga doir qiziqarli ma’lumotlar, baholar berib borildi. Masalan, jurnalning 1913-yil 20-avgustdagi birinchi sonidayoq “Ikki emas to‘rt til lozim” degan maqola bilan chiqdi va har bir ziyoli, o‘qimishli odam arab, fors, rus va turkiy tilni bilish lozim deyiladi. Jurnalning 1915-yil 13-sonida e’lon qilingan maqoladagi fikrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. “Bizni kemirguvchi illatlar” sarlavhasi ostidagi maqola boshlanmasida kishilarni xonavayron va g‘arib etguvchi, inqiroz, tahlika va jahannamg‘a yumalatuvchi bir dard, illat sifatida sil, sil ar-riya yoki maxavlik emas, balki to‘y va azo nomli ikki dushman deya talqin qilinadi. Unda “...to‘y va azo degan yo‘q bo‘lishimizg‘a sabab bo‘lgan odatlarga bor-u yo‘qimizni sarf va isrof etish” oqibatlari, aza bilan bog‘liq qarashlar, nikoh va xatna to‘ylaridagi holatlar xususida bayon qilinadi. Isrof va sarfdan qaytishga chaqiriladi.

Shuningdek, “A’molimiz, yoinki murodimiz” nomli maqolada ham to‘y bilan bog‘liq sarf va orzu-havaslarning o‘rniga yoshlarni uquvli qilish, madrasalarga sarmoya kiritish xususida mulohaza yuritiladi. Maqola davomida tarbiyatxonalar ochish, ularni milliy va diniy ruhda shakllantirish, shu orqali hukumat maktablariga ilmli avlodni

yetkazib berish, natijada esa davlat idoralarining barcha sohalarida xalq ichidan chiqqan o'quvli, ziyoli vakillarni saylash masalasida fikr bildiriladi.

"To'y-u ma'rakag'a sarf qilinaturg'on oqchani eski madrasa va mozor-u masjid hamda maktablarni shikastrextlarig'a sarf qilinsun. To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni hukumat maktablarig'a berilsun va bu oqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg'a va Rusiya dorilfunun va dorulsanoatlarig'a yuborilib diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Bizni Turkistonda muallim ozdurki, to'y-u ma'rakag'a sarf qilinaturg'on oqcha ila Kafkaz, Qirim, O'renburg va Qozong'a usuli ta'lim o'rganmoq uchun bola yubormoq kerakdur" [Behbudiy, 2009. 160.].

"Oyna" jurnalining 1914-yil 21-sonida e'lon qilingan "Yoshlarga murojaat" nomli maqolasi mazmuni ham millat idoralariga o'z ichidan chiqqan shaxslarni saylash, bu uchun uquv va ma'rifatga ega bo'moq masalasi uqtiriladi. Milliy istiqlolga erishish va uni ardoqlash masalalari adib maqolalarining asosiy mavzusidir. Adib matbuotdagi bu kabi ko'plab chiqishlarida asosan bir mavzuni - yoshlar ma'rifati, millat ziyolilarini yetishtirish masalasini ko'tarib chiqadi. "...hozirgi zamon ishlarig'a xoh tijorat va hukumat va san'atxonalarga bo'lsun, kirib vazifa olmoqg'a va ish qilmoqg'a ilmi zamoniy degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan. Bas, siz muhtaramlar ham o'z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko'ra taraqqiy etsa, din va millatg'a xizmat etsa. (Din va millatg'a xizmat ilm va oqcha ila bo'lur.) Shu ilmi zamoniyni tahsil qilmoq uchun harakat qilmog'ingiz lozimdur. Hamvatanlarimiz mulkini sotib to'y qilganidek, siz-da, hatto, lozim bo'lganda mulkingizni sotsangiz-da, o'g'lingizni zamoncha o'qumoqig'a sa'y qilsangiz. To'yga isrof qilinaturgon oqchalami o'qumoq yo'lig'a sarf qilsangiz! Zamoncha o'qutmoq tariqasidan boshqa maqolada arz qilinur" [Behbudiy, 2009.170-171.].

Adib maqolalarida matbuot masalasiga "madaniyat eshigi" va "islohot jarchisi" sifatida qaraladi. Ularda xalqni xususan, yoshlarni ma'rifatga oshno etishga chaqiriqlar yangraydi. Ma'rifatga maqsad sifatida emas, balki vosita sifatida qaragan Behbudiy yoshlar ma'rifatli bo'lsagina saodat darvozalari ochilishi, millat taraqqiy etishi-

ni uqtiradi. "Tamaddun asrida ilmsiz quruq taassub ila ham yashab bo'lmas" deya bong uradi.

Behbudiyning "Oyna" jurnali 1914-yil 41-sonida "Muhtaram yoshlarg'a murojaat" nomli davr muammosini ko'targan maqolasi e'lon qilingan. Unda maktab taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat darvozasi deya talqin qilinadi. Madaniyati hozirdan mahrum millat bora-bora milliyat va diyonatini qo'ldan berib, mahv bo'lib ketadi. Buning oldini olish ma'rifat bilan, ma'rifat esa maktablar ochish bilan, maktablarni ochish yoshlarni uquvli etmak bilan, uquvli etmak esa muallimlarni yetishtirmak bilan ado etiladi. Bu yo'lda yoshlardan vazifa va xizmatni ado etmakka qasd qilmoq so'raladi. "...zamonaning muhlik asbobig'a qarshu muqovamat etadurgon bir narsa bor bo'lsa, ul-da maorifdur. Tahsili maorifni ibtidoiy qismi muntazam maktablar bo'lgan uchun endi biz Turkiston musulmonlarig'a ibtidoiy maktablarni ko'payturmoq lozimdur. Tabiiy, maktab muallimsiz ko'paymas. Hozirda esa Turkistonda muallim oz bo'lub, muallimlarga ehtiyojimiz shadiddur. Chunki bu kunlarda yangi maktab havaskoroni kundan kun ziyodalashmoqdadurki, muallimlar mavjud bo'lgan taqdirda har yil Turkistonda yuzlarcha maktab ochmoq mumkindur" [Behbudiy, 2009.178.].

Mahmudxo'a Behbudiy maqolalari mavzusining aksari millatning ijtimoiy holatini hamda hukumat uchun ziyoli avlodni yetishtirishga qaratilgan. Ularda usuli jadidiya maktablari uchun muallimlarni tayyorlash, ularning salohiyatini oshirish uchun boshqa davlatlarga o'qishga yuborish, aniqroq aytadigan bo'lsak, yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalash masalalari yoritiladi. Xalqning ijtimoiy va siyosiy holatini yaxshilash uchun avvalo, yoshlarni zamonaviy maktablarda so'ng esa chet el dorulfununlarida o'qutmak lozimligini ta'kidlaydi. Behbudiyning publitsistik merosi nihoyatda boy bo'lib, ular davr muammolari, xalq ichida ildiz otgan, milliy taraqqiyotga to'siq bo'luvchi illatlar, ularni bartaraf etish yo'li va milliy qadr va g'ururni yoshlar ma'rifati orqali yuksaltirish masalalarini ifoda etadi.

Adabiyotlar.

1. Rahimjonov N. Jadid adabiyoti tarixi. O'quv-uslubiy majmua. – Guliston, 2020.

2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent:"-Ma'naviyat", 2009.

3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Yoshlarga murojaat, – Toshkent:"-Ma'naviyat", 2002

4. Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. Risola. – Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi, – 2022.

5. Aliyev A. Ijod va izlanishlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.

АДАБИЙ ТАЪЛИМНИНГ ЖАДИД ПЕДАГОГИКАСИДА ТУТГАН ЎРНИ

Ачилова Эмина Саъдуллоевна,
Чирчиқ давлат педагогика университети
Ўзбек адабиётшунослиги
кафедраси ўқитувчиси
(Ўзбекистон)

Аннотация

Ушбу мақолада адабий таълимни такомиллаштириш муаммосининг жадид педагогикасида ўрганилиши ва унинг тадрижий тараққиёти ёритилган. Жадидларнинг таълим соҳасидаги ислоҳотлари юзасидан фикр ва мулоҳазалар келтирилган.

Калит сўзлар: *адабий таълим, усули савтия, адабиёт ўқитиш методикаси, адабий таълимни такомиллаштириш технологияси, адабий таълим мазмуни, шакли ва воситалари.*

Аннотация

В данной статье описывается исследование проблемы совершенствования литературного образования в современной педагогике и его поэтапное развитие. Приводятся мнения и комментарии по поводу реформ в сфере образования джадидов.

Ключевые слова: *литературное образование, методика обучения, методика преподавания литературы, технология совершенствования литературного образования, содержание, форма и средства литературного образования.*

Annotation

This article describes the study of the problem of improving literary education in modern pedagogy and its gradual development. Opinions and reflections on reforms in the field of Jadid education are expressed.

Keywords: *literary education, teaching methods, methods of teaching literature, technology of improving literary education, content, forms and means of literary education.*

Ўз замонининг илғор намоёндалари бўлган жадидлар ғоят мураккаб ва қийин шароитда билим ва маърифат тарқатиш, таълим-тарбия соҳасини тубдан ислоҳ этиш орқали миллий тараққиётга эришиш ғояси билан майдонга чиқдилар. Хусусан, ўзбек адабиётини ўқитиш усулларини тадқиқ килиш ҳам жадидлар зиммасига тушди.

Ўзбек адабиётини ўқитиш муаммолари юзасидан Абдурауф Фитрат, Абдулла Қодирий, Абдулла Авлоний, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий, Абдураҳмон Саъдийларнинг "Адабиёт қоидалари", "Адабиёт парчалари", "Гўзал ёзғичлар", "Амалий ва назарий адабиёт дарслари", "Тил саботлиги" каби асарларида ўша давр методикасининг етакчи тенденциялари ўз аксини топган.

Миллий уйғониш даври адабиёт ўқитиш методикасида Абдулла Авлоний томонидан тузилган "Адабиёт" I ва II жузъларида ўқувчиларни аруз вазнидаги шеърлар ва уларни ифодали ўқиш техникаси билан таништириш кўзда тутилган, бу ўз навбатида мумтоз адабиётни англаш йўлидаги биринчи қадамлардан ҳисобланади. Бу эса замонавий методиканинг долзарб муаммолари қаториги киради.

Авлоний тартиб берган "Мактаб ва Гулистон" дарслигида ифодали ўқишнинг якка ва кўпчилик бўлиб ўқиш, ифодали ўқиш, диалог, драма ҳолига келтириб ўқиш турларини[Зуннунов, 1992. 37.] ажратиб кўрсатадики, буни ўз навбатида методика соҳасида амалга оширилган илк тадқиқот сифатида талқин қилиш мумкин.

Замонавий методика муаммоларига ечим вазифасини ўташи мумкин бўлган тадқиқотлардан бири Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий томонидан олиб борилган изланишлардир. Методист сифатида Ҳамза ифодали ўқиш, матн устида мустақил ишлаш, синфдан ташқари ўқишни ташкил этиш усулларни ёритди. Қисқа давр фаолият юритган "Усули савтия" мактабларида адабиёт дарслари "изоҳли ўқув" методи асосида ташкил этилганлиги ҳам эътиборга лойиқ.

1918 йилда ташкил этилган "Макотиб"[Зуннунов, 1992.41.] методик бирлашма сифатида фаолият юритган уюшмада ҳам замонавий методикага алоқадор бир қанча масалаларни ҳал

этишга ҳаракат қилинди. Жумладан, дарсда адабиёт қонунларини ёритишга, ёзувчи ижодини аниқ тарихий шароит билан боғлиқ ҳолда, унинг асарларини шакл ва мазмун бирлиги асосида ўрганиш йўлга қўйилдики, бу методик ёндашув ҳозиргача ўз "оҳори"ни тўкмаган.

Абдурауф Фитрат адабиёт дарсликларида берилган парчалар ҳақида назарий маълумот берилишига эътибор қаратади:

"Тўрт мисраълигина бўлиб, 1-,2-,4-мисраъи қофиядош, учинчи мисраъи қофиясиз бўлғон тизимларға рубоий дейиладир. Рубоий форсийга махсус бир тизим шаклидир. Бизга форслардан келгандир. Бунинг махсус вазни бордир. Араб-форс арузини чиғатойчада ёзған Навоий рубоий учун "ҳазаж" баҳридан йигирма тўрт вазн борлигини сўйлайдир.

Менинг фикримча, бу йигирма тўрт вазнни бир вазн санамоқ мумкиндир. Озгина ўрганиб турган рубоийга мисол:

Ҳар кимки вафо қилса, вафо топқусидир,
Ҳар кимки жафо қилса, жафо топқусидир.
Яхши киши кўрмагай ёмонлиқ ҳаргиз,
Ҳар кимки ёмон бўлса, жазо топқусидир.

Турк адабиётида рубойининг яна иккинчи бир шакли бордир. Бунга туюқ дейиладир. Туюқ қофия эътибори билан форс рубойиси кабидир. Вазн бошқа, Навоий туюқни рамал баҳридан деб кўрсатадир:

Ё Раб, ул шаҳду шакар ё лабмудур,
Ё магар шаҳду шакар ёлабмудур,
Жонима пайваста ўқин отғали,
Ғамза ўқин қошиға ёлабмидур. *[Фитрат, 2006. 39-40].*

Абдурауф Фитрат ўқувчиларга мавзуни мана шундай назарий маълумотлар билан тушунтириш яхши натижа беришини "Адабиёт қоидалари" асарида таъкидлаб ўтади.

Ўзбек адабиётини ўқитиш методикасига Абдураҳмон Саъдий ўзининг методик қарашлари билан муносиб ҳисса қўшган. Амалга оширилган асосий ишлари қаторига 1922 йилда тузилган ўқув юртлари учун тузилган она тили ва адабиёт дастурини киритиш мумкин. Дастур ўзида ўзбек адабиётни даврлаштиришнинг илк намунасини акс эттириши билан қадрли.

А.Саъдий ҳозирги замон ўзбек адабиётини ўқитишнинг долзарб муаммоларидан бўлган мумтоз адабиёт намуналари, хусусан, лирикани ўқиш ва тушуниш усулларини ёритиб берган. Олимнинг баён этган ўқитиш методлари ҳозирги кунга қадар ифодали ўқиш дарсларида қўлланиши мумкинлиги билан аҳамиятга молик.

А.Саъдий ўзининг "Амалий ва назарий адабиёт дарслари" китобида ёзувчилар ижодига муносабат билдириш билан бирга адабий оқимлар ҳақида ҳам тушунча бериб кетиши ўз даврида адабиёт ўқитиш методикасида янги ҳодиса сифатида эътироф этилган.

Бадиий асарнинг лингвопоэтик таҳлили номли таҳлил тури А.Саъдий томонидан "Адабий-бадиий усталик техникаси"дея юритилиб, унда адабиёт дарсларида асар тилини ўрганиш кўзда тутилган.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, жадидлар қолдирган юксак мазмунга эга педагогик қарашлар ҳозирги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Улар қолдирган педагогик усуллар бугунги кун учун дастуруламал бўлиб келмокда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. *Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент: "Ўқитувчи", 1992.- Б.37.*

2. *Долимов С, Убайдуллаев Ҳ., Ахмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. Тошкент: "Ўқитувчи", 1967.*

3. *Фитрат. Танланган асарлар IV жилд. – Тошкент: "Маънавият", 2006. Б-39-40.*

4. *Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. –T.: 2018 й.*

JADIDCHILIKNING O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI RIVOJIGA TA'SIRI

Najimova Dilnavoz Doniyor qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
najimovadilnavoz@navoiy-uni.uz ORCID: 0000-0003-1181-1856
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Sovet davrida bolalar adabiyoti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda "bolalar adabiyoti" tushunchasining paydo bo'lishi va bolalar uchun ularning yoshi hamda dunyoqarashini hisobga olib yozilgan badiiy asarlar yaratilishi Oktyabr inqilobi bilan bog'liq holda talqin etilgan. Biroq ushbu maqolada chinakam milliy o'zbek bolalar adabiyoti inqilobdan emas, balki ma'rifatparvarlik davri va jadidchilik harakati natijasi sifatida shakllangan hodisa ekanligi asoslanadi. "Bolalar adabiyoti" atamasi ham rus tilidagi "Detskaya literatura" iborasining so'zma-so'z tarjimasi sifatida emas, balki ta'lim islohotlariga zarurat sifatida, ma'rifatparvarlik harakati jarayonida yuzaga kelgan. Maqolada mazkur fikrlar o'sha davrda yozilgan darsliklar tahlili asosida isbotlanishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, ma'rifatparvarlik davri, jadidchilik, darsliklar, Abdurauf Fitrat, "O'quv" darsligi, Hamza Hakimzoda Niyoziy, "Yengil adabiyot" darsligi

Abstract:

Studies of children's literature in the Soviet period often linked the emergence of the concept of "children's literature" in Uzbekistan—and the production of works tailored to children's age and worldview—to the October Revolution. This article, however, argues that the development of a truly national Uzbek children's literature was rooted not in the revolution, but in the Enlightenment period and the Jadid movement. Furthermore, the term "children's literature" did not emerge as a direct calque of the Russian phrase Detskaya literatura, but rather evolved as a response to the educational reforms initiat-

ed during the Enlightenment era. This article supports its argument through an analysis of textbooks produced in that historical context.

Keywords: children's literature, Enlightenment period, Jadidism, educational reform, Abdurauf Fitrat, O'quv textbook, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Yengil adabiyot

O'zbek bolalar adabiyotining adabiyotda o'z o'rniga ega alohida hodisa sifatida shakllanishi XX asr boshlarida yaratilgan alifbolar, adabiyot va o'qish kitoblari bilan bog'liq. Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi bo'lgan. Ushbu maktablar uchun yozilgan ilk darsliklar esa o'z navbatida, bolalar adabiyotiga yo'l ochdi. "Usuli jadid" nomini olgan "usuli savtiya"ga asoslangan maktablar mohiyat e'tibori bilan "rus-tuzem" maktablariga qarshi vujudga keldi. "Usuli jadid" maktablarida milliy ma'naviyati yuksak, millat, Vatan istiqboli uchun jon kuydiruvchi yoshlarni tarbiyalab yetishtirish birinchi o'rinda turgan. Jadid pedagoglarining buyuk xizmatlari shundaki, ular maktablarda *ona tilida ta'lim-tarbiya berishga, milliy adabiyot, musulmon dini va ma'naviyati asoslarini* o'qitishga hal qiluvchi masala sifatida qaradilar. Chunki ular millatning o'zligini saqlovchi asosiy vosita ona tili va milliy adabiyot deb bildilar [Dolimov.2010]

Ammo Ilminskiyning ruslashtirish siyosati o'laroq vujudga kelgan rus-tuzem maktablariga qarshi ochilgan bu turdagi maktablar rus siyosatchilarini cho'chitib qo'ydi. Ilminskiyning o'zi bu haqida shunday degan edi: "Taraqqiyot sari yuz tutib, isloh bo'layotgan musulmonlik G'arb madaniyati keltirib chiqargan texnik imkoniyatlardan foydalansa, shu bilan birga, zamonaviy maktablar ochishga kuchini safarbar etsa, u yangi tarixiy bosqichga chiqadi va nasroniylik uchun jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli Gasprinskiy ilgari surayotgan jadidchilik oqimiga qarshi chiqishga majburmiz. Rus hukumati va ziyolilari jadid maktablarining ochilishiga ruxsat berish bilan o'zlari o'tirgan daraxt shoxini kesmoqdalar" [Mehmet.30].

Natijada, 1909-yilda Turkiston o'quv okrugi qoshida maxsus komissiya "Farmoyish" ishlab chiqdi. Bu farmoyish asosida Turkiston o'lkasidagi bir necha maktablar yopib qo'yildi, o'qituvchilari tintuv qilindi. Usuli jadid maktablari gubernatorlikning mana shun-

day og'ir ta'qib va tazyiqlari ostida faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ldi. Shu sababli XX asr boshida yozilgan darsliklarning aksariyati ko'p nusxada chop etilmagan. Ayrimlari qo'lyozma holda qolib ketgan.

Behbudiyning "Risolai asbobi savod" (1914), "Madxali jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"), (1905), "Muxtasari jug'rofiyai rusiy" ("Rossiyaning qisqacha geografiyasi") (1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Kitobat-ul atfol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi muxtasari islom" ("Islomning qisqacha tarixi")," (1909), *Munavvarqorining* "Adibi avval", "Adibi soniy", "Tavji-al qur'on", "Yer yuzi" singari alifbo xrestomatiya va o'quv qo'llanmalari dunyoga keldi. Ayniqsa, S.M.Graminichkiy (1859-1919) ning qo'llab-quvatlashi va uning tomonidan tuzilgan "Birinchi o'qish kitobi", "Ikkinchi o'qish kitobi"(1898), "Uchinchi o'qish kitobi"(1898) darsliklari ta'sirida bitilgan *Saidrasul Aziziyning* "Ustodi avval" (1902) otlig' birinchi o'zbek alifbosi, *Sadriddin Ayniyning* "Alifbo" (1908), "Tahzibus sibyon" ("Bolalar tarbiyasi") (1910), "Qiz bola yoki Xolida" (1920) "Soli naxustin" ("To'ng'ich yil", 1924), "Tojik alifbesi" (1927), "Qiroat kitobi" (1930); *Fitratning* "O'qu", *Sh.Rahimiyning* "Sovg'a", *Mashriq Yunusov* – Elbekning "Bilim"; "Kattalarga o'qish", *Hamza Hakimzoda Niyoziyning* "Yengil adabiyot', "Qiroat kitobi", "O'qish kitobi"; *Serikboy Oqayevning* "Xrestomatiya, ya'ni terma kitob" (1911), *Qori Usmon ibn Abduxoliq Shoshiyning* "Ta'limi avval"(1910), *Mulla G'ulomiddin Akbariy* (Kabirzoda)ning "Ta'limi soniy"(1912), *Abduvahob ibn Abdullo Ho'qandiyning* "Tahsili alifbo" (1912), *Muhammadjon Rasuliyning* "Bolalar bog'chasi" (1915), *Aliasqar Kalininning* "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" (1903), *Rustambek Yusufbekovning* "Ta'limi avval" (1913), "Ta'limi soniy" (1915); *Abdulla Avloniyning* "Birinchi muallim" (1908) va "Ikkinchi muallim" (1912), "Maktab gulistoni"(1915), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913) shuningdek, to'rt juzdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1909-1915) singari darslik va qo'llanmalari jadid maktablarida asosiy darslik sifatida ishlatilgan.

Ushbu kitoblar, xususan alifbodan so'ng o'qitiladigan majmualar "bolalarning tabiatlariga milliy hasrat va nadomatlardan ibrat o'lan

nasihatlarni o‘rnashdurmak orzusinda” (Avloniy) yaratilgan edi. Ularda keltirilgan she’r va nasriy lavhalar bolalarbopligi bilan ajralib turishidan tasliqari aksariyati I.A. Krilov, A.S.Pushkin, L.N. Tolstoy va K.D. Ushinskiylarning bolalarga atalgan masallari, she’riy ertaklari va hikoyalari tarjimasidan iborat edi. Demak, aytish mumkinki, ana shu darsliklar birinchi marta bola dunyoqarashi, qiziqishlari, tafakkur olami hamda yosh xususiyatlariga muvofiq yozilgan; ulardagi badiiy ijod namunalari ham kichkintoylar tasavvuriga yaqin bo‘lgan. Jadid adiblari va muallimlari ta’sirida ochilgan yangi usuldagi maktablar bolalarni shunchaki xat tanishga o‘rgatishga emas, ijtimoiy-siyosiy savodini chiqarishda ham muhim rol o‘ynagan. Shu tariqa, ma’rifatparvar pedagoglarning darsliklari, yetuk adiblarning bolalarga bag‘ishlangan didaktik hikoyalaridan *bolalarga mo‘ljallangan maxsus adabiyot* sari jadal qadam tashlandi.

Mazkur maqolada jadid pedagogikasida turli yosh va sinfdagi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan darsliklarga badiiy parchalarni tanlashda amal qilingan didaktik va estetik prinsiplarga e’tibor qaratiladi. Tahlil obyekti sifatida Hamza Hakimzoda Niyoziyning kichik sinflar uchun yozilgan “Yengil adabiyot” va Fitratning yuqori sinflar uchun tuzilgan “O‘quv” darsliklari tanlab olingan.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yengil adabiyot” kitobi boshlang‘ich sinflar uchun darslik sifatida

Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yengil adabiyot” darsligi 1-sinf o‘quvchilariga atalgan bo‘lib, o‘sha davrdagi kitoblarda bolalar uchun mavhum, tushunarsiz so‘zlar ko‘p edi. Hamza “Yengil adabiyot”da darsliklardagi bunday mavhumiyatlarni qayta ishlab, bolaga tushunarli tarzda beradi. Kitob 45 ta darsdan iborat bo‘lib, birinchi darsda “Tavhid darsi” – Allohning bir-u borligi, ikkinchi darsda Xudoning ehtiyojsiz zot ekani, Qur’on uning kalomi ekani, uchinchi darsda Allohning Qodir sifatga egaligi, butun dunyoni u yaratgani, to‘rtinchi darsda Payg‘ambarimiz Muhammad S.A.V va ularning oila a’zolari haqida, beshinchi darsda to‘rt choriyorlar va ularning sifatlari, oltinchi darsdan o‘n to‘rtinchi darsgacha, maktabning inson va millat hayotidagi ahamiyati, maktab dinning chirog‘i, millatning ko‘zi, qo‘li,

oyog'i ekani, usiz qolgan millat qo'lsiz, oyoqsiz, ko'zsiz qolgan kishi kabi ekani haqida o'n to'rtinchi darsdan yigirma ikkinchi darsgacha ilmning foydasi va jaholatning zarari, ilm – Haqning rahmati, jaholat esa insonga kufr va balo ofatini olib kelishi haqida she'riy yo'l bilan bayon qilinadi. Xususan, yigirmanchi darsda inson o'zi tug'ilib o'sgan joyni, sho'rxok bir yer bo'lsa-da ilm bilan obod qilishi, farzandlari ilmsiz mamlakat esa jannatmakon o'lka bo'lsa ham ma'rifatsizlik sabab toshloqqa aylanishi mumkinligi haqida quyidagi misralarni kuyunib yozadi:

Ilm bo'lsa royimiz,
Irfon bo'lib soyimiz.
O'qub guliston etar,
Sho'ra vatan joyimiz.
Jahl bo'lsa royimiz,
Qurub faqir, boyimiz,
Biroz zamonda bo'lur
Toshloq vatan joyimiz.[Hamza.325]

Yigirma ikkinchi darsdan yigirma to'rtinchi darsgacha olim bo'lishning foydasi va johillikdan keladigan xo'rliklar, millat yarasini olimlar ilm bilan davolashi mumkinligi, olimlik bilangina bid'atlarni yanchish mumkinligi, johil qolgan millat ko'rmay qadam bosgan so'qir kabi yiqilib, baloga giriftor bo'lishi, fasod ko'payishi haqida bayon qilinadi. Yigirma beshinchi bobdan o'ttizinchi bobgacha jujuqlarni ilmga, o'qishga targ'ib etiladi:

Yo'q uchun vijdonimiz,
Millatga qurbonimiz,
Bizning Turkistonimiz
Har ish so'ngida qolur.[Hamza.328]
Johil qolsangiz ya'ni,
Uzoq o'tmay zamoni,
Islomning shavkat-shoni
So'ngra bizdan yo'qolur.[Hamza.331]

O'ttiz birinchi – o'ttiz oltinchi darslarda yuqoridagi xitoblarga javoban bir maktab bolasining tilidan ilm olishga azm-u qaror qilgani, Turkistonda yaxshi maktablar ochilsa, yaxshi shifokorlar, olimlar, faylasuflar chiqishi mumkinligi, ammo ilmda yo'lboshlovchi

kishining o‘zi yo‘qligi, ilmsizlik millatni mehnatga solgani, Turkiston o‘lkasining avvalgi sharafi yo‘qolgani haqidagi fikrlar masnaviy usulida beriladi. Shuningdek o‘ttiz birinchi darsdan quvnoq, ohangdor she’rlar o‘z o‘rnini salmoqli, aruz vaznining hazaj va ramal vaznida yozilgan she’rlarga bo‘shatadi. Ya’ni bunda she’rlarning ko‘lami o‘quvchi yoshi, dunyoqarashiga qarab o‘sib borganinini ko‘rish mumkin. Masalan, hazaji musaddasi mahzuf (V---/V---/V--) vaznida yozilgan quyidagi g‘azalni olaylik.

Nihoyat bizda maktab, ilm yo‘qtur,
Chiqardi bizdanam ko‘p yaxshi do‘qtur
O‘qimoq bo‘lsa, bizning ishimiz,
Ko‘payur faylasuf, olim kishimiz.[Hamza.333]

O‘ttiz oltinchi dars “Qalam” radifli g‘azal beriladi. O‘ttiz yettinchi bobdan masnaviy shaklidagi “To‘g‘riso‘z bola”, “Ota nasihatining natijasi”, “Qimorning boshi” hikoyatlar beriladi. Hamza bunday she’rlar orqali yosh o‘quvchilarni mumtoz adabiyotimiz an’analaridan uzilib qolmasligi uchun tirishdi. Ba’zi bir hikoyatlarni ham masnaviy– base maydon tarzida berdi. Masalan, masnaviy yo‘lida, ramal bahrida yozilgan to‘g‘ri so‘z bola hikoyasi bir bolaning undan yolg‘on gapirsa pul berishini aytib yo‘lini to‘sgan ikki kishini mot qilgani, rost so‘zni so‘zlab tangaga ega bo‘lgani haqida. She’ri rostgo‘y bolaning ibrati ifodasi tarzida taassurot qoldiradi. Ammo, “Meni – deb yozadi adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulov, – she’rdagi o‘zga masala jalb etdi. Bolaning yo‘lini to‘sgan, qaddi qomati kelishgan, tasavvurimcha, bashang kiyingan ikki kishi kim edi? Nega ular pul berib yolg‘on sotib olmoqchi bo‘ldilar? Qolaversa, iste’dodli Hamzada yolg‘onfurushlar qiyofasini yaratish fikri qachon, qanday paydo bo‘ldi? Olim masalaning shu tomoniga e’tibor qaratgani holda, she’rdagi yangi mazmunni inkishof etadi: XX asrda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida yolg‘onning urchib ketgani, yolg‘on inqiloblar, yolg‘onni suv qilib ichib yuborgan “dohiylar”, yer kurrasining oltidan birida barpo etilajak jannat haqidagi uydirmalar... Xullas, oxiri sarob “izm”lar munaqqidni mushohadaga undaydi. Ya’ni, bolalar uchun yozilgan maktab darsligidagi mazkur she’r ham aslida dolzarb ijtimoiy-siyosiy mazmun ahamiyat kasb etgani anglashiladi. “Qimorning boshi” she’riy hikoyasida esa Hoshimjon-

ning "to'p-tosh" o'yinidan "jumpmi-toq"qa, yong'oqqa, oryolga va nihoyat qimorga mubtalo bo'lgani haqida. Bu orqali Niyoziy ota-onalarni farzandi kichikligidanoq o'ynayotga o'yinlariga, vaqtini nimaga sarflayotganiga e'tibor berishga undaydi.

Fitrat "O'quv" darsligida an'ana va novatorlik

Fitratning "O'quv" darsligi ibtidoiy (boshlang'ich) maktablarning so'ng sinflari uchun mo'ljallangan. Asarda aytilmoqchi bo'lgan fikr hikoya, latifa va qatralar tarzida berilgan. Darslikni o'qib tugatgan kishi Fitrat nazdidagi ma'rifatli kishi qanday bo'lishi lozimligini fahmlaydi; hikoyatlardan chin ma'rifatli kishi tadbirkor (pilla urug'i), o'z ko'zi bilan ko'rmagan, odamlar aytgan har narsani haqiqat deb bilmaydigan (ko'rulmagan narsaga ishonma), ilm olishga intiladigan, savodli (Tursun qanday boy bo'lg'an), tirishqoq (Tirishkanlar ochuni), olgan ilmini kitoblarda emas, yurakda saqlay biladigan (Imom G'azzoliy), erta turadigan va tonggi rizqini qochirmaydigan, (Xurusning so'zi), kattalarning gapiga quloq tutadigan (Sevarning yaramasligi), Geografiya ilmidan xabardor (Fanniy bilgulardan: Yer, Oltun yer ostindadir, fanniy bilgulardan: davlatlar), o'zida boriga shukr qiladigan va o'ziga nima kerakligini yaxshi biladigan (Hirs yomondur), o'zga musulmonni tug'ishganidek ko'radigan (Musulmon sevgisi); o'z tarixi va millat tarixini yaxshi biladigan bo'lishi lozimligi anglashiladi.

Qahramoni podsholar, din vakillari bo'lgan hikoyalardan ko'ra o'zi tengqur bolalar hayotidan olingan ibratli hikoyalar o'sha davr bolalarini ko'proq o'ziga jalb qilishini anglagan Fitrat darsliklarida qahramonlar vazifasini davr bolalari bajaradi. Fitrat qahramon bolalarning bariga Sevar, Tuyg'un, To'g'on, Yarash, Yaxshiboy, O'g'uz, To'xtamish, Esonboy, Qutlug', Tilav, Ergash, Ulug'xon, Toshxon, Ochilboy, Oydin kabi sof turkiycha ismlar qo'yadi. Hatto "Guliston", yoki "Bahoriston" kitoblaridan ta'sirlanib yozilgan hikoyalarga ham o'sha davrning bosh g'oyasi, yoshlarni ma'rifatli va ilmli qilish g'oyasi singdirib yuboriladi. Masalan, biz "Bahoriston" asarida uchratgan tulki va bo'rining uzumzorga o'g'rilikka tushib, oxirida bo'rining kaltaklangani haqidagi hikoyatni Fitrat qayta ishlab "Yasharning o'g'riligi" deb nomlaydi.

Yashar o'n iki yoshinda bir o'g'londir. Otasi uni maktabga qo'ymaydir. Shuning uchun Yasharning butun kuni ishsizliq bilan boradir. Ishsizliq yamonliqlaming buyuk onasidir. Inson ishsiz qoldimi bir yerda o'turib, pinyab o'ynamakdan boshqa ne ish qilsun. Bizim Yasharboy daxi (ham) bir kun choyini ichib, uyidan chiqdi. Ko'chada ariq yonindaki bir og'ochg'a tayanib o'turdi. O'yladi, tushundi, pinyadi, uxladi, ko'b tirishdi shu kunni o'tkazolmadi. O'turmakdan ham o'sondi(zerikdi). Yeridan sakrab qalqdi. Birdan ko'ziga qo'shnining olma og'ochlari erishdi. Biroz o'ylab turdi: "Ishim yo'q. Kecha uzoqda. Bu qurg'ur kunni o'tkarolmadim. Uyga ketsam eshak, inaklarni boqmoq kerak. Biroz shu boqqa kirub, og'ochlarga chiqayin-da ikki-uch chorak olma terayin. Yaxshi bo'lmasmi?" – dedi. O'ziga shu tushunchasi yaxshi ko'rindi. Hayda devorga. Yanashdi. Lekin devor ko'b yuksak edi, Yashar chiqolmadi. U yon-bu yonni qaradi, odam o'ta bilur bir teshuk topdi. Kuch bilan o'tub boqqa kirdi. Olma og'ochlarining biriga chiqub, qo'ynilarini olmadan to'ldirg'ach, "qo'yma o'g'rini!" degan bir tovush eshitdi. O'zini og'ochdan tashlab, teshuk sari qochdi. Boshini teshukdan o'tkardi. Lekin belindan buyog'ini o'tkara olmadi. Chunki qo'yunlari to'la edi. Shu chog'da bog' egasi yetishib keldi. Yasharni teshukdan tortib oldi va olmalami qo'ynidan to'ktirdi. Dedikim: – O'g'lum, sen Turkiston bolasi, Chig'atoy o'g'loni, turk yigiti erursan. O'zingni bilmaysanmi? Senga shundoq ishlar yarashurmi? Eshikdan qo'noq bo'lib kelsang, sanga mundan ko'broq olma bermaymanmi? Yashar chin uyoldi. Yer yorilsa, kirmakchi bo'lib turdi. Bog' egasi Yasharni qo'lindan olib eshikdan chiqardi. To'g'ri otasining yoniga keturib, dedikim: – Tog'a, bolangiz mana shunday ish qildi. Lekin buning yurakinda o'g'rilik o'ylavi yo'qdir. Buni bu yamon yo'lga kelturgan narsa ishsizliqdir. Siz ishqilib, bu bolani maktabga qo'ying. Otasi qabul etdi. Ertasi kundan Yasharni maktabga qo'ydi. Yashar ham bundan so'ng yaxshi bir bola bo'ldi. [Fitrat.106]

Asarning shu kungacha bolalar uchun yozilgan kitoblarda uchramagan pedagogik jihatdan yana bir yangiligi har bir hikoyatdan so'ng savollar beriladi. Masalan, yuqoridagi hikoyadan so'ng quyidagi savollar keladi. *TAMRIN: Yashar qanday bola edi? Qo'shnisining*

bog'iga nechuk kirdi? Yasharning o'g'rilig'iga sabab nima edi? .[Fitrat.107] Savol berish orqali bolani mushohadaga, asarni shunchaki o'qimay, tushunib, anglab o'qishga da'vat etiladi.

"Og'ochlarning osig'i" nomli hikoyada esa odamlarning ilmdan bexabarligi, savodsizligi natijasida sog'ligini yo'qotishi, buning sababini ilmsizligidan emas, jin-u, parilardan ko'rishi qlamga olingan. Unga ko'ra aholisi Jin yotog'i deb nomlab olgan kent – shahar kishilari muttasil kasal bo'ladilar. Ulardan "Nega muncha isitma bo'lasizlar" deb so'ralganda, "kentimizdagi parilar shu kentni bo'shatib olmoq uchun bizlami shu holg'a solalar", deb javob beralar. Odamlar shuning uchun bu yerdagi uylarini arzon-garovga sotadilar. O'n yil Moskvada o'qib qaytgan Berdibek shu yerdan uy olib atrofiga nihollar ekadi. Daraxtlar ko'kargach oilasi bilan ko'chib keladi va ular kasal bo'lmaydi. Kent kishilari "Berdiboyga parining kuchi yetmadi ekan, U ajina duolarini yaxshiroq biladi chog'i" deb shoshib qoladilar va undan shu duolarni o'rgatishini so'raydilar. Berdiboy bu kentda ajina yo'qligini, Isitmaning sababi kent yonida botqoqlik borligi, undan chiqqan bug'lar odamni kasal qilishi, daraxtlar esa zararli bug'larni yutib, toza – suzuk va tinuq havo chiqarishi, u uyi atrofiga ko'plab og'ochlar – daraxtlar ekkani uchun uning oilasi va qo'shnilari isitmaga chalinmaganini aytadi. Oqsoqollar, Berdiboyga ofarin aytib, buni qayerdan o'rganganini so'raganda, u "Maktabdan", deb javob beradi. Hikoya ortidan Jin yotog'i kentining odamlari nega isitmaga tutila(r) edilar? Berdiboyning uyinda nega isitma yo'q edi? Og'ochlaming osig'i nima ekan? Kabi savollar beriladi.

"Yurtimiz" hikoyasida qahramonlar: Arslon va Botirning uyg'onib tongni qarshi olishi, masjidga borib namoz qilgandan so'nggi tong manzarasi tasviri bilan boshlanadi: *Yoy yelining esmasi, qo'shni bog'indan kela turgan chechak islari, og'ochlar uzra uchushub yurgan bulbul va qumrilaring sayramasi bu iki qardoshning gavdalariga kuch va ko'ngillariga ochiqlik berdi.*

Ammo o'ng tomondan "voy Tangrim" degan ovoz keladi. *Qaradilar, qurug'an (bir) og'ochning ko'lgasinda yirtiq bir choponni o'muzlarigacha tortib uzangan va, ehtimolki, qattig' isitma tutgan bir xotunni ko'rdilar.* Holsizligidan yiqilay deyotgan ayolga yordamga

oshiqqan bolalar ayolning farzandlari nima uchun uni bunchalar xorlatib qo'yganlari haqida o'ylaydilar va orada quyidagi dialog vujudga keladi.

Arslon: – Onajon! Biror-bir o'g'lingiz, qizingiz yo'qmidirkim, kelub qo'lingizni tutib holingizni so'rsun.

Xotun: – Bordir o'g'lum, bordir. Bir emas, ko'b o'g'ul-qizlaming onasi erurman. Lekin shundog' yomon kunimda biri daxi qo'limni tutarg'a kelmay turibdur. Arslon: – Nechun kelmaylar? Siz(n)ing shu holingizni onglamagan bo'lsalar kerak. Bizlarga so'rog'larini beringiz, ketub xabar berayluk, kelsunlar.

Xotun: – Yo'q... kerak emas... Unlar manim shu holimni ko'rub turub(di)lar. Menga ojirg'anmaylar. O'z tinchliklarini ko'ra(r)lar. Nega kelsunlar?! Botur bechora xotunning bu so'zlariga chidayolmadi. Yuragini olov bosib ketdi. Qichqirib dediki: – U insofsizlar qayerda turalar, otlari nimadir? Odam o'z onasini shu holda ko'rub kelmazmi? Qanday tosh yurak ekan ular?

Arslon: – Onajon, bolalaringizning otlarini ayting, biz borib kelturayluk.

Xotun: – Bolalarimning otlarini so'raysiz? Butun Chig'atoy ulusi manim o'g'ul-qizlarimdirlar. Manim quchog'imda yotib turdilar, manim quchog'imda ulg'aydilar, tiriklik uchun kerak bo'lgan narsalarning barchasini mandan oldilar. Oqibat mana shu holda qo'ydilar. Tirikligim bilan sog'lig'imni saqlamoq uchun tirishmadilar.

Arslon bu so'zdan shoshib qolib, yana so'radi: – Nima! Butun o'zbeklar sizning bolalaringizmi? – dedi.

Botur: – Onajon! Siz kim bo'lasiz? Otingizni manga aytolmaysiz?

Xotun: – Man butun o'zbeklaming, chig'atoylaming onalari erurman. Otim TURKISTONDIR!

Hikoya yakunida farzandlarning johilligi va Vatan taqdiriga befarqligi sabab hasta bir holga tushgan Ona Turkistonni ilm bilan maorif bilan tuzatmoq mumkinligi anglagan Botur va Arslon maktabga yo'l oladilar.

Xulosa qilganda, "O'quv" darsligining har bir hikoyasida o'qishga va ilmga da'vat ruhi seziladi. Yomg'irning qanday paydo bo'lishi haqidagi hikoyada ham, nima uchun tarixni bilish muhimligi haqidagi hikoyada ham, Amerikani kim topgan nomli hikoyada ham, miqrob

(mikroblar) haqidagi, do'stik haqidagi, Imom G'azzoliy haqidagi hikoyalarda ham ilm, g'ayrat qilish, ilm mashaqqatidan cho'chimaslik, chin ilm egasi xor bo'lmasligi haqida fikrlar bildiriladi. Asosiysi bular shunchaki xulosa sifatida berilmaydi. Hikoyani o'qigan tolib savollarga javob berish mobaynida o'zi xulosa chiqaradi.

Xulosa. O'zbek bolalar adabiyotining O'zbek adabiyotda alohida hodisa sifatida shakllanishi jadid darsliklari bilan bog'liq. Bu darsliklar qadimgi maktab darsliklaridan diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy ilmlar, tadbirkorlik asoslari, geografiya, agrosanoat, ishlab chiqarish kabi sohalarga oid dastlabki bilimlarni nasriy hikoya yoki she'riy hikoya tarzida berilishi bilan ajralib turadi. Ilmsizlik natijasida, bekorchilikdan o'smirlar orasida sodir bo'layotgan jinoyatlar, qimorbozlik, ichkilikbozlik kabi illatlarga yoshlarni ilmli qilibgina, ularni ilmga da'vat etibgina chora topish mumkinligi aytiladi.

1. Badiiy parchalar bolaning yoshiga qarab murakkablashib boradi. Bundan ko'rinib turibdiki, jadid darsliklarida yosh prinsipi muhim hisoblangan.

2. Darsliklarda bolalar o'zi bilan tengqur bolalar hayotidan olingan hikoyalarni o'qishadi. "Guliston", "Bo'ston", "Bahoriston" kabi kitoblardan olingan hikoyalar ham qayta ishlanib, qahramonlar vazifasini bolalarning o'zi bajaradi. Natijada, adabiyot bola ruhiyatiga yaqinlashadi. Va barcha hikoyalarda maktabda o'qishga, ilmli bo'lishga va milliy o'zlikni anglashga undov ruhi seziladi.

3. Avvalgi adabiyotlarda bolalar adabiyoti kattalarning bolaga murojaati, pan-nasihati, bola uchun kattalar tomonidan aytilgan podsholar, ulug' kishilar, hayvonlar haqidagi masallar, hikoyalar tarzida namoyon bo'lgan bo'lsa, jadid darsliklarida lirik qahramon sifatida maydonga bolaning o'zi chiqadi. Bolalar uchun yozilgan hikoya va asarlarda bola timsoli paydo bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dolimov, U. (2010). Jahon adabiyoti jurnali, 1-son.
2. Fitrat, A. (2009). Tanlangan asarlar: Darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar (B. Qosimov, mas’ul muharrir; H. Boltaboyev, nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi). Toshkent: Ma’naviyat.
3. Saray, M. (1987). Türk dünyasında eğitim reformu ve Gaspralı İsmail (s. 30). Ankara.
4. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. (1988). Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том: Шеърлар, педагогик рисолалар, насрий асарлар. Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти.

JADIDLARNING MILLIY TIL HAQIDA QARASHLARI

Ahmedov Hakim Yarashevich,
Termiz davlat universiteti,
f.f.f.d. (PhD)
hakim93@uqituv.chi
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada jadidlarning tilni isloh qilish, adabiy tilni soddalashtirish, turkiy ildizli so'zlardan foydalanish, til birligini ta'minlash hamda uni ta'lim va matbuot orqali ommalashtirish borasidagi sa'y-harakatlari yoritilgan. Shuningdek, ular tilni mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash vositasi sifatida ham baholaganlari ko'rsatilgan. Jadidlarning milliy tilga doir qarashlarini chuqur tahlil etish orqali, ularning bugungi til siyosati va madaniy merosdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, milliy til, til islohoti, adabiy til, ona tili, til va millat, til birligi, ma'rifatparvarlik, til siyosati, matbuot va til rivoji, umumturkiy til g'oyasi.

Istiqlol xalqimiz, milliy madaniyatimizning bu muhim sahifalari bo'lgan jadid adabiyoti va tilini haqqoniy va xolisona o'rganishga imkon yaratdi hamda XXI asr bo'sag'asida bu sohada ancha tadqiqotlar amalga oshirildi, bir qator ilmiy anjumanlar o'tkazildi, jadidchilik harakati namoyandalari merosining ommaviy nashrlari amalga oshirildi.

Jadidchilik harakatining markazida milliy taraqqiyot, milliy-zamonaviy madaniyat va ta'lim, undan keyingina iqtisod va siyosat masalalari turgan. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir" degan jumlalari fikrimiz isbotidir. Tarbiya va ta'lim tizimining asosini esa mafkura, ta'lim tili tashkil etadi. Mafkura nuqtayi nazaridan jadidlar yakdillik bilan milliy-zamonaviy, islomiy, dunyoviy qarashda bo'lsalar-da, ular til masalasida to'la hamfikrlikka ega emas edilar. Jadidlarning millat tili, millat nomi, ta'lim tili haqidagi qarashlari

hali atroflicha va chuqur tahlil etilishi zarur. Bu sohada qilingan ishlar barmoq bilan sanarli. Vaholanki, jadidlarning millat tili va ta'lim tiliga munosabati madaniyatimiz tarixida muhim ahamiyatga egadir. Turkistonlik ziyolilar orasida birinchi bo'lib Mahmudxo'ja Behbudiy Ismoil Gasprinskiyning til birligi g'oyasini keng targ'ib qildi va quvvatladi. Dastlab u o'sha davrning aksariyat musulmon ziyolilari kabi Rossiya musulmonlarining yagona tili bo'lishi kerakligi haqidagi g'oyaga qiziqish bildirdi. Behbudiy bu masala yuzasidan Turkiston shaharlarida o'ziga xos so'rovnoma va tajriba ham o'tkazdi. Bu jihatdan biz Behbudiyni turkistonliklar ichidagi birinchi sotsiolog sifatida ham ko'ramiz.

Jadidlar ayni til borasidagi jihatlarni matbuotda, ayniqsa, "Sadoi Farg'ona" va "Turkiston viloyati gazeti"da alohida e'tibor bilan yorita boshlagan. Bu jarayonda Farg'ona jadidlaridan Ashurali Zohiriyning "Ona tili" nomli maqolasi e'tiborga loyiq. U maqolasida millatning obro'sining ko'tarilishi adabiyotining tutgan o'rni bilan bog'liq ekanligi, adabiyoti past saviyada bo'lgan millatning boshqa xalqlar orasida e'tiborda bo'lmasligi bilan ta'kidlaydi. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati faqat ma'rifatparvarlik emas, balki milliy o'zlikni asrash yo'lidagi harakat sifatida ham namoyon bo'ldi. Bu harakat vakillari til masalasiga alohida e'tibor qaratib, uni millatning ruhi, ma'naviyati va kelajagi bilan bog'lashdi. Ularning fikricha, tilni isloh qilish va adabiy tilni rivojlantirish milliy uyg'onishning ajralmas qismi edi. Jadidlar tilni isloh qilish deganda birinchi navbatda adabiy tilni soddalashtirish, xalq tiliga yaqinlashtirish, begona (arabcha, forscha va ruscha) so'zlarni imkon qadar kamaytirish, tilda aniqlik va tushunarlilikni ta'minlashni nazarda tutganlar. Bu orqali ular ma'rifatni ommaga keng yoyish, darslik va gazeta-jurnallarda oddiy xalq tushunadigan tildan foydalanishni maqsad qilganlar.

Ashurali Zohiriyning "Sadoyi Farg'ona" gazetasida chop etilgan "Ona tili" nomli maqolasi o'zbek tilshunosligi tarixida muhim o'rin tutadi. Zohiriy adabiyot va matbuotni millatning ma'naviy boyligi sifatida ko'radi. Uning fikricha, gazeta va jurnallar nafaqat yangiliklarni yetkazadi, balki ona tilining kengayishi va mukammallashishiga xizmat qiladi. Maqolada Zohiriy o'zbek tiliga arabcha, forscha, rus-

cha va tatarcha so‘zlarning aralashib ketganini tanqid qiladi. U bu holatni milliy tilning sofligiga tahdid deb biladi va ona tilini asrab-avaylash zarurligini ta’kidlaydi. Zohiriy o‘zbek tilining nazariyasi va imlo qoidalari bo‘yicha darsliklarning yo‘qligini muammo sifatida ko‘rsatadi. U bu borada ilk bor imlo nazariyasini yaratishga kirishadi va 1916-yilda boshlang‘ich maktablar uchun “Imlo” darsligini yozadi.

Zohiriy tilni millatning ajralmas qismi deb biladi. Uning fikricha, ona tilini yo‘qotgan millat o‘z dinini va millatini ham yo‘qotadi. Shu sababli, u xalqni ona tilini muhofaza qilishga chaqiradi. Uning tilga bo‘lgan e’tibori va fidoyiligi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. “Prussiyadan maktub” nomli maqolada muallif tarixda “Sharqdan G‘arb o‘rgangan” vaqtlar ham bo‘lganligini, shu tufayli Turkiston xalqi, o‘z tarixi va tiliga e’tibor bilan qarashlari kerakligi alohida ta’kidlab ko‘rsatadi. Umuman olganda jadidlar tilni millatning ruhiy va madaniy asosiy belgisi deb bilganlar. Ular tilni saqlash orqali milliy o‘zlikni, madaniyatni va qadriyatlarni asrash mumkinligini ta’kidlaganlar. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Til masalasi” maqolasida tilni millatning hayot-mamot masalasi deb atagan.

Jadidlar o‘zbek tilini rivojlantirish, uni zamonaviy ilm-fan va texnika sohalariga moslashtirish zarurligini tushunganlar.

Behbudiy, masalan, “ulum”, “funun”, “ulamo” kabi so’zlar o’rniga “ilmlar”, “fanlar”, “olimlar” kabi turkiy so’zlarni ishlatishni tavsiya qilgan. Jadidlar turkiy xalqlar orasida yagona adabiy til yaratish g’oyasini ilgari surganlar. Behbudiy bu borada Ismoilbek Gasprinskiyning “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiorini qo’llab-quvvatlagan. U turli turkiy xalqlar tilini o’rganish va umumturkiy adabiy til yaratish uchun tadqiqotlar o’tkazgan.

Jadidlar tilni mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash vositasi sifatida ko‘rganlar. Ular Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan ruslashtirish siyosatiga qarshi chiqib, o‘zbek tilini rasmiy til sifatida tan olishni talab qilganlar. Masalan, Hoji Muinning 1918-yilda “Hurriyat” gazetasida chop etilgan “Til masalasi” maqolasida ruslashtirish siyosati fosh etilib, muallif maqolada Turkiston turklari uchun ona tilining muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, turkiy tilni saqlash va rivojlantirish milliy o‘zlikni asrashning asosiy omilidi. Maqolada Hoji Muin eski hukumat davrida turkiy tilning ta’lim va rasmiy

idoralarda cheklanganligini tanqid qiladi. U yangi siyosiy sharoitda turkiy tilni rasmiy til sifatida tan olish va uni rivojlantirish zarurligini ilgari suradi. Shuningdek, u bolsheviklar syezdida musulmon tilini rus tili bilan tenglashtirish masalasi ko'tarilganini eslatadi va bu tashabbusni musulmonlar o'zlari ilgari surishi kerakligini ta'kidlaydi. Maqola oxirida Hoji Muin fursatdan foydalanib, turkiy tilni rasmiy hukumat tili qilish uchun harakat qilish zarurligini urg'ulaydi.

Jadidlar adabiy tilni shakllantirishda matbuot, maktab darsliklari va she'riyat orqali faol ish olib bordilar. Ular uchun adabiy til – bu ma'rifat, taraqqiyot va milliy birlik vositasi edi. Jadid matbuoti – "Taraqqiy", "Sadoyi Turkiston", "Hurriyat", "Shuhrat" kabi gazetalar orqali ular adabiy tilni rivojlantirish, uni zamonaviy hayot talablariga moslashtirish, siyosiy va ijtimoiy tushunchalarni ifodalashda yaroqli vositaga aylantirishga erishdilar. Jadidlar yangi usuldagi maktablarni joriy etishda ham ona tilini asosiy vosita sifatida qo'lladilar. Darsliklar turkiy til asosida yozilib, soddalashtirilgan tilda tushuntirildi. Bu orqali ular nafaqat ma'rifatni yoydi, balki til madaniyatini ham rivojlantirdi.Jadidlarning tilni isloh qilish va adabiy tilni rivojlantirish borasidagi qarashlari nafaqat o'z zamonasida, balki bugungi kunda ham dolzarbdir. Ular ona tilining boyligi, sofligi va zamonaviy talablarga javob beradigan darajada rivojlanishi uchun zamin yaratdilar. Bu meros bugungi til siyosati va ta'lim tizimi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Abdirashidov Z. Turkistonda jadidchilik. –Toshkent: Akademnashr, 2023

2. Qosimov B. va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Darslik. –T.: Ma'naviyat, 2004.

3. Ahmedov S. Milliy hurriyat adabiyoti. –T.: Info Capital Group, 2018

JADIDLARDA VATAN VA MILLIY TIL MASALASI

Lafasov Urak Pazilovich,.
TDSHU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,
tel.: +998 93 3754925. lafas1963@gmail.com
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada moziyda Yofasning to'qqiz o'g'lidan tarqalgan ellar turlar deb atalgani, ular Buyuk Turonda, O'kuz va Inju O'kuz oralig'idagi hudud O'kuziya deb nomlangani, shu joyda yashagan to'rt el o'kuzbeklar deb nomlanganligi, o'kuzbeklar lahjasida elkun(vatan) termini ishlatilganligi haqida ma'lumot berilgan. O'kuzbeklar avlodi bolgan jadidlar ona-Vatanning kelajakda to'la-to'kis ozod bo'lishini orzu qilishganligi, ular milliy tilni rivojlantirish uchun xalq og'zaki ijodiga tayanganligi izohlangan. Jadidlarda ona-yurtni sevish, vatanparvarlik, millat kelajagi va Vatan himoyasi kabi birinchi o'ringa qo'yilganligi ta'kidlangan. Shuningdek jadid yozuvchilardan Abdulla Qodiriyning o'zbek milliy romanchilik maktabini yaratganligi, shu asnosida milliy tilimizni har jihatdan rivojlantirganligi sharhlangan. Abdulla Qodiriy o'z romanlariga o'zbek xalq dostonlarini manba qilib olganligi va o'zbek, rus, arab, fors tillarini yaxshi bilganligi uchun jahon adabiyoti namunalarini ham yetarlicha o'rganganligi bayon qilingan. Milliy til borasida Abdulla Qodiriyning ikki buyuk xizmati tahsinga loyiq ekanligi va bu borada har bir o'zbek ul zotdan o'rnak olish darkorligi aytilgan. Adibning birinchi ulug' xizmati milliy adabiy tilimizning ayricha boy badiiy imkoniyatlarini ko'rsatib berish bo'lganligi qayd etilgan. Buning uchun so'z ustasi milliy tilimizdagi tovush tovlanishlari, ikki bor ehtirom va ta'kid ifodalovchi qo'shimchalar, o'zbekona va islomiy so'zlarni o'z o'rnida qo'llash hamda badiiy vositalardan mohirlik bilan foydalanishgacha bo'lgan tizimni kashf qilganligi yoritilgan. Yozuvchining ikkinchi buyuk xizmati milliy adabiy tilimizning yozma shaklining amaliyotdagi jozibasiga urg'u berib, ziyolilarni ona tilimizda ish yuritishga undashi ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Turon, turlar, O'kuziya, xalq og'zaki ijodi, o'kuz-

beklar, jadidlar, vatanparvarlik, nazm, nasr, milliy til, Abdulla Qodiriy.

Abstract. The article provides information that the peoples scattered from the nine sons of Yofas in the poem are called turlar, that they were called O'kuz and Inju O'kuz in Buyuk Turan, the area between O'kuz and Inju O'kuz was called O'kuziya, that the four peoples who lived in this place were called O'kuzbeks, and that the term elkun (homeland) was used in the O'kuz dialect. It is explained that the Jadids, who were descendants of the O'kuzbeks, dreamed of the complete liberation of the Motherland in the future, and that they relied on folk oral literature to develop the national language. It is emphasized that the Jadids put love for the motherland, patriotism, the future of the nation, and the defense of the Motherland in the first place. It is also commented on the creation of the Uzbek national novel school by one of the Jadid writers, Abdulla Qodiriy, who developed our national language in all aspects. It is stated that Abdulla Qodiriy used Uzbek folk epics as a source for his novels and that he studied world literature samples well, as he knew Uzbek, Russian, Arabic, and Persian well. It is stated that Abdulla Qodiriy's two great services regarding the national language are worthy of praise and that every Uzbek should take an example from him in this regard. It is noted that the writer's first great service was to show the exceptionally rich artistic possibilities of our national literary language. For this, it is highlighted that the master of words discovered a system of sound inflections in our national language, double suffixes expressing respect and emphasis, the use of Uzbek and Islamic words in their proper place, and the skillful use of artistic means. It is determined that the writer's second great service is to emphasize the practical appeal of the written form of our national literary language and encourage intellectuals to work in our native language.

Keywords: *Turan, types, O'kuziya, folk folklore, O'kuzbeks, Jadids, patriotism, poetry, prose, national language, Abdulla Qodiriy.*

Moziyda ***Yofas*** alayhissalomning to'qqiz o'g'lidan tarqalgan ellar ***turlar*** deb atalgan va ular Buyuk ***Turon***da yashagan. ***O'kuz*** (*Amudaryo*) va ***Inju O'kuz*** (*Sirdaryo*)ning suvi Kaspiy dengiziga quyil-

gan. Ikkidaryo oralig'idagi hudud nahr nomlariga mengzab ***O'kuziya*** [Lafasov, 295] deb atalgan. Bu joyda turlarning aslzodalari ***o'kuzbek*** (*qutji, qiyot, qo'ngrot, nayman*)lar istiqomat qilishgan. Ularning lahjasida ***elkun*** (*el-joy va Kun-Quyosh*, ya'ni *Quyoshli joy*) termini ***vatan*** ma'nosini bildirgan. Ushbu toponim 3000 yil oldin Xavari azm//***Xorazm*** shaklida forschaga tarjima qilingan. Qoni toza bo'lgan o'kuzbeklar har doim aqlli, insofli va diyonatli insonlar bo'lishgan. Ularning avlodlari orasidan juda ko'p daho zotlar yetishib chiqqan va ular Buyuk Turon, uning markazi bo'lgan O'kuziya (O'zbek//O'zbekiston) har doim gullab-yashnashiga xizmat qilishgan.

Jadidlar ham ona-Vatan, ya'ni Turkistonning kelajakda to'la-to'kis ozod bo'lishini orzu qilishgan. Ularning asarlarida xalq og'zaki ijodi ta'siri sezilib turadi. Jadidlar ijod qilgan har bir misra nazm va har bir satr nasrda vatanparvarlik hissiyoti aks etganini ko'rishimiz mumkin. Milliy til millatning tayanch ustuni, shakllanish poydevori hisoblanadi. Har qaysi millatning beqiyos va bebaho mulki o'zining ona tilidir. Xalq og'zaki ijodi esa o'sha tilning asosiy o'q tomiri, ozuqa manbai bo'lib, uning qadimiyligini belgilab beradi. Shu bois jadid adib va yozuvchilar ijodida folklor asarlarining ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi.

Jadid shoirlaridan Abdulhamid Cho'lpon ijod qilgan ona-yurt, vatanparvarlik va muhabbat ufurgan misralarda ham xalqona ifodalar balqib turibdi. M.: 1. "***Turkistonlik*** – *shonimiz,* ***turonlik*** *unvonimiz,* ***Vatan*** *bizning jonimiz, fido o'lsin qonimiz*" [Cho'lpon, 22]. 2. *Turk beshigi –* ***Turkiston****! Yeri oltun, tog'lari kon! Bolalari* ***qahramon****!* ***Vatan*** *uchun jon berar.* [Cho'lpon, 31] 3. *Qorong'u kechada* ***ko'kka*** *ko'z tikib,* ***Eng yorug' yulduz****dan seni so'raymen, Ul* ***yulduz*** *uyalib, boshini bukub, Aytadir: Meni uni tushda ko'ramen. Tushumda ko'ramen – shunchalar go'zal, Bizdan-da go'zaldir,* ***oydan-da go'zal****.* [Fitrat, 31]

Jadid adabiyoti vakillaridan bo'lgan Abrauf Fitrat ona-Vatan, shu joyda yashab o'tgan ulug' zotlat haqida bitgan misralarida folklorga xos tasvirlar o'z aksini topgan. M.: 1. *Ey Ulug'* ***Turon****, arslonlar o'lkasi! Senga ne boldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding? Ey* ***Chingiz****larning,* ***Temur****larning,* ***O'g'uz****larning,* ***Atilla****larning shonli* ***beshik****lari*! [Fitrat, 41] 2. *Erta sahar tavof qilgil, bu* ***Vatan****imdir, Na vatan bu, sajdagoh-u* ***jonim va tanim****dir, Ko'kda oyim, osoy-*

*ish-u **izzat-sharafim**dir, Ham ka'bamdir, ham qiblamdir hamda **cha-manim**dir* [Fitrat, 41].

Jadid ijodkorlardan Hamza Hakimzoda Niyoziy millatning kelajagi, taraqqiyot yo'lini belgilashda hushyorlik zarurligi haqida kuyunchaklik bilan quyidagi misralarni yozgan. M.: *Bizni **Turkiston** eli dardiga darmon istamas, Zulmat ichra kechsa umri mohi tobon istamas, Uxlama **o'zbek eli** asri taraqqiy vaqtidir... Yasha **Turon**, yasha **Turon**, Sen yashaydirgan zamon. Yo'lchi o'g'li shuhratingdan, Balqisin **ruyi jahon*** [Hamza, 85].

Jadid adiblardan Abdulla Qodiriy millat yakdilligi bo'lishi, Vatan himoyasiga shay turishi uchun millat birlashishi kerakligi ta'kidlab o'zbeklarga murojaat qilgan. M.: "***Burodarlar**! O'rus o'z ichimizdan chiqadig'an fitna-fasodini kutib, darbozamiz tegida qo'r to'kib yotibdur*"... "*Biz shu holda ketadirgan, **bir-birimizning tagimizga suv qo'yadirg'an bo'lsak**, yaqindirki, o'ris **istibdodi** o'zining iflos oyog'i bilan **Turkiston**imizni bulg'atar*". [Qodiriy, 276]

Abdulla Qodiriy o'z asarlarida ona tilimizning barcha jabhalariga alohida e'tibor qaratgan. U uzoq va mashaqqatli mehnatdan so'ng milliy romanchiligimizga tamal toshini qo'yib bergan. Asarlarida milliy tilimizning ayricha xususiyatlarini amalda namoyish eta olgan. Ulug' adib yozuvchilar haqida shunday yozgan edi: "*Yozuvchi o'z xalqining tilini, folklorini kamol o'rganishi shart va bir necha tillarni, ayniqsa, yaqin qo'shni tillarni bilishi fazilat*". [Qodiriy, 72]

Buyuk o'zbek yozuvchisi, jahondagi oltinchi milliy romanchilik maktabi asoschisi Abdulla Qodiriy o'z romanlariga o'zbek xalq dostonlarini manba qilib olgan [Lafasov, 1854]. Dostonlardagi lahja va shevalarimizga tegishli s'oz boyligimizdan unumli foydalangan. Shu bilan birga ko'chirmachilikda ayblamoqchi bo'lgan sho'ro laganbardorlariga qaqshatqich zarba bergan. M.: 1. **Saj**. M.: *Nigor oyim qisqa **bo'liq**, pista **po'choq** targ'il **ko'zlik**, zarcha **tanlik**, yuzidagi onda-sonda chechak o'runlari bo'lmag'anda husndor bir xotin edi* (394-bet). *Yoshi **ellidan oshqan**, kulgusi ichiga **to'lib toshqan** bir xotinni duvurdan chiqib, o'ziga qarab yurganini ko'rgandan keyin donxonag'a kirdi* (51-bet). *Endi ko'rsam miltiqning **o'qidek**, pushti gulning **to'qidek** kelinim bor ekan* (325-bet). 2. **Maqol**. M.: *Ra'no boyag'icha*

uning yonida sufaga suyandi. – Ovoza haqiqat emasdir. – ***Shamol bo'lmasa, terakning boshi qimirlamas emish*** (433-bet). 3. **Matal.** M.: *Bu to'g'rida xotini harchand rad qilsa ham qoplab shalg'am, yigirma-o'ttuzlab qovoq xarid qilishini qo'ymas – "****shalg'am – Bibi Fotimai Zuhraning duolari barakati, qovoq bo'lsa hazrati Yunusning mo'jizalari****" deb bahosi arzon va lekin xosiyati ko'b bo'lg'an bu mablag'lar bilan oshxonani to'ldira berar edi* (390-bet).

So'z ustasi milliy maktab va madrasa [Qodiriy, 29]da tahsil olgani bois ona tilimizni, arab va fors-tojik tillarini a'lo darajada bilgan. Rus tuzem maktabi va Moskvadagi Jurnalistlar instituti [Qodiriy, 29]da o'qigani uchun rus tilini ham yaxshi o'rgangan. Rus til orqali g'arb adabiyoti namunalari bilan tanishgan. Yozuvchi arab, fors va rus tillarini chuqur mushohada qila olish darajasida yaxshi tushungan. Bunga misol ana shu chet tillari orqali arab romannavisi Jorji Zaydon va ingliz milliy milliy romanlari ijodkori Volter Skott asarlari bilan tanishib chiqqan.

Abdulla Qodiriy o'z asarlarida qo'llagan har bir so'zning ma'nosini, har qanday jumla yoki gapning mazmun-mohiyatini butun vujudi bilan chuqur his qila olgan. Shu bois adib "*so'z so'ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak*" deb ta'kidlaydi [Qodiriy, 69]. Demak, yozuvchi o'zi yaxshi bilmagan, ma'nosini chuqur anglamagan lugaviy birlikni ishlatmasligi lozimligini e'tirof etadi.

So'z ustasi har bir til birligini o'z o'rnida qo'llash uchun xalq tili va lahjalarni yaxshi bilish kerakligini ta'kidlagan. O'z fikriga asos sifatida "*so'z qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'ladi*" deb sharhlaydi [Qodiriy, 159]. Milliy til borasida Abdulla Qodiriyning ikki buyuk ishi taxsinga loyiq va bu borada har bir o'zbek ul zotdan o'rnak olish darkordir.

Adibning **birinchi ulug' xizmati** milliy adabiy tilimizning ayricha boy badiiy imkoniyatlarini ko'rsatib berish bo'lgan. Adib milliy tilimizdagi *tovush tovlanishlari, ikki bor ehtirom ifodalovchi qo'shimchalar, o'zbekona va islomiy so'zlarni o'z o'rnida qo'llash hamda badiiy vositalardan mohirlik bilan foydalanish*gacha bo'lgan tizimni kashf qilgan. O'z sarlarida ushbu holatlarni dalillar asosida to'g'ri va aniq aks ettirishga alohida e'tibor bergan.

1. Yozuvchi milliy tilimizga xos ***tovush tovlanishlari***ni xalq og'zaki ijodi va mumtoz asarlarimizda uchratgan hamda ularni ijodiy rivojlantirgan holda romanlariga olib kirgan. Tilimizning ***fonetik sathi***ga xos tovush tovlanishlaridan "*O'tkan kunlar*" romanida mohirlik bilan foydalangan. M.: "***Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tiragi Kumushimga***!" (177-bet). "***Oy yuzlik rafiqam, qunduz qoshlik-mashuqam Kumush xonimga!***" (263-bet). "***Yusuf savdosida beqaror Zulayxo ismidan, Majnun ishqida yig'lag'an Layli otidan – sizga boshimdag'i sochlarimning tuklaricha salom***" (299-bet). Yuqorida keltirilgan misollarda adib o'zbek tilidagi unli va undosh tovushlarning o'zaro bir-birini talab qilgan holda uyg'unlashib tabiiy ta'sirchanlikni yuzaga chiqarishini aks ettirgan.

2. Adib ona tilimizdagi ***ikki bor ehtirom*** va ***ta'sir*** *ifodalovchi qo'shimchalar*ni xalq og'zaki ijodi va mumtoz asarlarimizdan topgan. Tilimizning ***morfologik sathi***ga xos qo'shimchalardan romanlarida ularning nozik ma'nolardan foydalangan holda betakror tasvirlar yaratgan.. M.: – *Kechir**ingiz**, bek aka, – dedi Rahmat, – men sizning Marg'ilon kelganingizni bu kun otamdan eshitdim* (10-bet). *Otabek ularga yuqoridan joy ko'rsatar ekan, yoqimliq bir vaziyatda: – Tinchsizlamad**ingiz**lar, bil'aks quvontird**ingiz**lar, – dedi* (8-bet). *Ra'no ham yo'llakka qarab qizar**inib** ketdi va oldig'a tushib tartibsizlangan sochini orqasig'a tashlab tuzat**indi*** (403-bet). *Anvar qizar**indi**. Javob berish o'rnig'a "natija?" degandek qilib unga savol nazari bilan qaradi* (467-bet). *Chunki Otabek shuning o'ziga ham yaxshigina qizar**inib**, bo'rt**ingan** edi* (27-bet).

3. So'z ustasi milliy tilimizdagi ***o'zbekona so'zlar***ni xalq og'zaki ijodida va ***islomiy kalomlar***ni mumtoz tilimizga oid namunalarida uchratgan. Ushbu lug'aviy birliklar sho'ro davrida adabiy tilimizga ataylab olinmagan. Yozuvchi mazkur so'zlarga jon bash etib ohoriy tasvirlar yaratgan. Tilimizning ***leksik sath***iga xos noyob so'zlardan romanlarida mohirlik bilan foydalangan. M.: – *Albatta. – Xayr, **xudoning panohiga**, Anvar. – **Xo'sh**, Sultonali aka. Ikkisi ajralishdilar* (468-bet). *Bu iltifot ikki do'stning aloqalarini bir-birlariga yana qattig'roq bog'ladi, ayniqsa, maxdumning **dimog'ini chog' qildi*** (422-bet). – *Cho'ringiz **so'z ulashdirish** (g'iybat)ni yomon ko'radir, oyi xonim. – Albatta, shunday bo'lmog'i lozim, – dedi Og'acha oyim*

(489-bet). *Sayidni **kunchilaydi** (rashk qilish, qizg'anish), deb boshingizg'a keltira ko'rmangki, hozir ham men onhazratning bir yuzinchi xotini bo'laman* (490-491-betlar). *Bu qiz suratida ko'ringan **malak** qutidorning qizi – Kumushbibi edi* (29-bet). *Kumushbibining sezilar-sezilmas kulimsirashidan yoqutdek **irin**lari ostidagi **sadafdek** oq tishlari ko'rinib ketdi ersa-da, biroq uning bu holi tezlik bilan **tundliq**qa alishindi* (32-bet). *... kunlardan bir kun **taqdir shamoli** yuradir-da bir kimsaning **iffat pardasi** ostida o'lturgan qizining yuzidagi niqobini ko'tarib ikkinchi tomondan bizning Otabekni shu **afifa**ga ro'baro' qiladir* (43-bet).

4. Yozuvchi tilimizning xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz tilimizga tegishli boy ifodalaridan so'z birikmalari ijod qilgan. Tilimizning ***sintaksis sathi***ga mansub birikmalardan romanlarida mohirlik bilan foydalangan. M.: *Saroy ahli **kunduzgi ish** kuchlaridan bo'shab hujralariga qaytqanlar, ko'b hujralar **kechlik osh** pishirish ila mashg'ul* (7-bet). *...chapka yurilsa birinchi martaba kirganimizdek **ulug' bir havli**ga chiqarmiz* (28-bet). *Otabek xatni ochdi: **katta qog'oz**da, **yo'g'on qalam** bilan yozilg'an **uzun bir maktub** edi* (35-bet).

5. Adib milliy tilimizga xos badiiy vositalarini ijod qilishda xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz tilimizga oid namunalaridan ta'sirlangan. Ular asosida o'zgacha ohoriy tasvirlar yaratgan. Tilimizning ***uslub sathi***ga oid turli badiiy vositalardan romanlarida mohirlik bilan foydalangan. M.: 1. **Kinoya**: *Mulla Abdurahmon ham Safarboy "**do'sti**" bilan birga yurishni xohlamadi shekillik tez-tez adim tashlab hamrohlik aloqasini uzmoqchi bo'ldi* (461-bet). *Bir necha qarindoshlarning titrab-qaxshab qilg'an ziyofatlari bilan "**uydan uyga o'tib ne'matlar ichida suzib yurish**" xayoli ham "**bir xayol**" bo'lib qoldi* (445-bet).

2. **O'xshatish**: *Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig'a tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jinggila kiprak ostidag'i timqora ko'zlari bir nuqtag'a tikilgan-da, nimadir **bir narsani ko'rgan kabi**... qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyig' qoshlari chimirilgan-da, nimadir **bir narsadan cho'chigan kabi**... to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg'a aylangan-da, **kimdandir uyalg'an kabi**...*(29-bet). *Bu holdan yana imomning fe'li aynab, yo'l ustida birdan to'xta-*

di va Safarning aftiga ***bir turli mushuk qarashi qildi*** (461-bet). *Jilovxonaning to'rida o'lturgan qora to'nlik, o'ttuz yoshlar chamasida rangsiz va yoshlig'iga qaramasdan quyuq soqolini bahaybat o'sturib,* ***bir burdagina yuziga ot to'rba osqan kabi*** *bir kishi edi* (435-bet).

Abdulla Qodiriyning **ikkinchi buyuk xizmati** milliy adabiy tilimizning yozma shaklining amaliyotdagi jozibasiga urg'u berib, ziyolilarni ona tilida yozishga undash bo'lgan. Adib ushbu holatga "***Mehrobdan chayon***" romanida alohida e'tibor qaratgan. Milliy tilimizning ish yuritish shaklini rivojlantirish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi. Misol uchun: "*Xudoyor(xon) muhr bosish asnosi yozilg'an yorlig' va nomalarni o'qutib eshitar, munshiylarning eshitilmagan arab va fors so'zlari orqaliq to'qug'an yarim turkiy jumlalariga aksar vaqt tushunmas:* ***"Enalaring' arapqa tekkanma?"*** *deb mirzo, muftilarni koyir edi. Ammo Anvarning yozg'an har bir jumlasini musiqiy kabi rohatlanib, tushunib tinglar va "****shu bala barilaring'dan ham o'qig'anroq chiqar****! deb, boshqa mirzolarning yuragiga o't yoqar edi*" (429-430-betlar). Mazkur matnda milliy tilimizda ish yuritish asnosida o'z qatlamga bepisand qaraydigan va o'zbekcha-turkiy so'zlarni qo'llashni istamaydigan ruhiyati va tiynati boshqa, milliy g'ururi va vijdoni yo'q "*soxta o'zbek*"larni keskin tanqid ostiga olgan. Adib bu bilan ona tilimizning ish yuritish shakliga sayqal berish, takomillashtirish masalasini ko'targan. Har qanday milliy tilda ish yuritishda, avvalo o'z qatlamga oid qo'shimchalar, so'zlar va so'z birikmalari milliy qolip asosida qo'llanishi lozim. Keyinochiq ochiq joy qolsa, o'n foizgacha o'zlashgan qatlamdan foydalansa bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, jadid adiblarning ijodi har birimiz uchun o'rnak maktabidir. Yozuvchi Abdulla Qodiriy o'z oldiga qo'ygan har ikkala maqsadiga ham tom ma'noda erishgan. Ammo bebaho oliy maqsad va orzularni amal oshirishdek muqaddas burchni kelajak avlodlarga meros sifatida qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lafasov U.P. Okuzbeks, Their Language, Place in Society and Culture. İmgelem | Sayı: Özbekistan Özel Sayısı | Eylül 2024 | – P. 293-310.

2. Ғўлпон Абдулҳамид. Асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: “Академнашр”, 2016. – 360 бет.

3. Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 1-jild. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2000. – 106 bet.

4. Ниёзий Ҳамза Ҳакимзода. Шеърлар. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1989. – 108 бет.

5. Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. – Тошкент: “Адабиёт ва санъат”, 1994. – 654 б.

6. Қодирий Шеркон. Қодирийни қўмсаб (Ёднома). – Тошкент: “Халқ мероси”, 1994. – 78 бет.

7. Lafasov U.P. The King of Uzbek Prose. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020. – P. 1851-1862.

8. Қодирий Ҳабибулла. Отамдан хотира. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2005. – 414 бет.

9. Қодирий Шеркон. 37-хонадон. – Тошкент: “Davr press”, – 2009. – 191-бет.

CENTRAL ASIAN JADED EFFORTS TO ENLIGHTEN THE NATION

PhD Karimova D.Sh.
Department of Foundations of Education
Faculty of Educational Studies
University Putra Malaysia (UPM

Associate Professor Dr. Nor Aniza Ahmad (A.A.P)
Contact: +6019-9555864
E-mail: anizamidie@gmail.com
Andijan State Pedagogical Institute
Doctor of Philosophy in Philology,
Contact: +998900600661
E-mail: karimovadilorom15@gmail.com

Abstract: The cultural and social landscape of Central Asia underwent significant transformations in the late nineteenth and early twentieth centuries. During this period, Jadedism arose as a progressive force alongside the development of new bourgeois relationships, leading to a cultural, spiritual, and moral revival within Central Asian society. The Jadeds understood the necessity of engaging with secular sciences to stay informed about Western progress, enhance development, and bridge the gap with European advancements. The relevance of discussing the Jadeds' attempts to foster a secular society and their views on the significance of Islam in contemporary life has never been more critical.

Key words: Jadeds, Enlightenment, Education, Religious Traditions, Islam, Innovation, Modernity, Culture, Reforms, Reformers, Clergy, Religion.

ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЕ ДЖАДЕДСКИЕ УСИЛИЯ ПО ПРОСВЕЩЕНИЮ НАЦИИ

PhD Каримова Д.Ш.
Кафедра основ образования
Факультет педагогических исследований
Университет Путра Малайзия (UPM
Доцент д-р Нор Аниза Ахмад (A.A.P)
Контакты: +6019-9555864
E-mail: anizamidie@gmail.com
Андижанский государственный педагогический институт
Доктор философии по филологии,
Контакты: +998900600661
E-mail: karimovadilorom15@gmail.com

Аннотация: Культурный и социальный ландшафт Центральной Азии претерпел значительные трансформации в конце девятнадцатого и начале двадцатого веков. В этот период джадедизм возник как прогрессивная сила наряду с развитием новых буржуазных отношений, что привело к культурному, духовному и моральному возрождению в центральноазиатском обществе. Джадеды понимали необходимость взаимодействия с светские науки, чтобы быть в курсе западного прогресса, способствовать развитию и сократить разрыв с европейскими достижениями. Актуальность обсуждения попыток джадедов способствовать светскому обществу и их взглядов на значение ислама в современной жизни никогда не была более критической.

Ключевые слова: джадеды, Просвещение, Образование, Религиозные традиции, Ислам, Инновации, Современность, Культура, Реформы, Реформаторы, Духовенство, Религия.

MARKAZIY OSIYONING XALQNI MA'RIFAT YO'LIDAGI SA'Y-HARAKATLARI

PhD Karimova D.Sh.
Ta'lim asoslari bo'limi
Pedagogik fanlar fakulteti
Putra Malayziya universiteti (UPM
Dotsent doktor Nor Aniza Ahmad (A.A.P)
Bog'lanish uchun: +6019-9555864
Elektron pochta: anizamidie@gmail.com
Andijon davlat pedagogika instituti
Filologiya fanlari doktori,
Murojaat uchun: +998900600661
E-mail: karimovadilorom15@gmail.com

Annotatsiya: Markaziy Osiyoning madaniy-ijtimoiy landshafti XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu davrda jadedizm yangi burjua munosabatlarining rivojlanishi bilan birga progressiv kuch sifatida vujudga keldi va Markaziy Osiyo jamiyatida madaniy, ma'naviy va axloqiy tiklanishga olib keldi. Jadedlar G'arb taraqqiyoti haqida xabardor bo'lish, rivojlanishni kuchaytirish va Evropa yutuqlari bilan bo'shliqni bartaraf etish uchun dunyoviy fanlar bilan shug'ullanish zarurligini tushundilar. Jadedlarning dunyoviy jamiyatni rivojlantirishga urinishlari va ularning islomning zamonaviy hayotdagi ahamiyati haqidagi qarashlarini muhokama qilishning dolzarbligi hech qachon bu qadar muhim bo'lmagan. **Kalit so'zlar: Jadelar**, Ma'rifat, Maorif, Diniy an'analar, Islom, Innovatsiya, Zamonaviylik, Madaniyat, Islohotlar, Islohotchilar, Ruhoniylar, Din.

Introduction. The Jadeds raised important points about the roles of education, art, theater, and music in Central Asia during the early 1900s, which remain significant in present-day Uzbekistan. Recently, the issues that the Jadeds highlighted in the late 19th and early 20th centuries have been revisited across Central Asia. They advocated for the best approaches to enhance the welfare of the various populations in Central Asia. Essentially, the Jadeds' movement laid the founda-

tion for national theater, professional music, and visual arts. Today, Uzbekistan is experiencing global transformations in numerous aspects of life. Thus, the brave and strong ideas of the Jadeds could inspire progressive growth and motivate a new group of Uzbek leaders. Tursunov R. stated, "the Jaded movement today holds significance not just historically but also in contemporary times" [1]. The Jadeds aimed to spread their innovative and fresh thoughts to all social classes. Unfortunately, due to the World War, the tumultuous period of the Soviet revolution, subsequent repressions, and various other influences, the ideas of the Jadeds were implemented only in part. For political reasons, the names and deeds of the Jadeds were erased or misrepresented for many years, yet they did not fade away, even if they were momentarily stalled. Therefore, the Jadeds' principles regarding how to remain faithful to the rich and varied cultural heritage of Central Asian nations while welcoming new ideas are more crucial today than ever. Moreover, regarding religion, reviving the Jadeds' legacy may strengthen the dialogue between traditional Islam and modernity. Since gaining independence in 1991, there has been a resurgence of traditionalism throughout many aspects of life. Islam, in particular, has been continually revived in Central Asian nations since that time. P. Bobohanov expressed that "The Jadeds could not have foreseen that in a century... the ancient rules of Sharia, an outdated religious perspective in society, would be defended vehemently, as representatives of kadimism once did" [2]. Discussions surrounding the Jadeds' pursuit of a secular society, along with their views on Islam's role and placement in modern society, have become increasingly significant.

Literature analysis. Remarkable forebears could have spearheaded the nation's Third Renaissance in the 1900s, particularly the Jadeds educators. These selfless and highly knowledgeable individuals committed themselves to the concept of national revival. They put all their energy and skills into lifting the country from ignorance and backwardness, aiming to free the nation from the chains of lack of knowledge, and many even sacrificed their lives to achieve this noble objective. Posthumously, prominent Central Asian Jadeds like Abdulla Avloni (1878–1934), Mahmudhoja Behbudi (1875–1919), and Munavvar Qori Abdurashidhonov (1878–1931) were awarded the

Distinguished Service Order by presidential decree for their unwavering dedication to the struggle for independence and for their exceptional contributions to creating a national education and upbringing system. Nowadays, Uzbekistan honors the Jadeds with erected statues and dedicated museums as a symbol of profound respect and honor.

In terms of reform, a group of Muslim thinkers from Central Asia, including Munavvar Qori Abdurashidkhonov, Majid Qodiri, and Abdullah Qodiri, among others, believed it was their responsibility to advance their country and promote the enlightenment of its people. This movement comprised youth educated in Western principles. The Jadeds were influenced by European political ideologies, especially regarding constitutional matters. They aimed to introduce democracy to the Central Asian nations through education and enlightenment, striving to develop them into thriving states. However, understanding that such large changes would take time, the Jadeds felt it was vital to begin with educational reforms, as significant gaps were especially noticeable in that area. One key Jadeds figure, Hoji Muin Shukrullaev, emphasized that knowledge is essential for the survival and happiness of a society, comparing nations without knowledge to fish out of water.

These young reformers mainly focused on improving public education for Muslims. They recognized the urgent need for skilled professionals in culture and science within the nation. They argued that the existing educational structures, cultural beliefs, and the governing system required reform. Nonetheless, the goals of the Jadeds were not to simply copy European educational methods developed over centuries but to incorporate the insights of European civilization to benefit their national culture. As Ziyo Kukalp (1876–1924), the founder of national ideology and sociology in Turkey, noted, modernization involves the capability to produce and use technology like Europeans do, without needing to imitate their lifestyle.

Ultimately, the Jadeds contended that to meet the demands of the modern world, there must be a connection between education, modernity, and literacy. Their beliefs stemmed from the understanding that the nation's backwardness was rooted in misinterpreted Islamic traditions. Traditionalists within Islam fiercely resisted any changes,

as they believed any modifications to religious foundations would conflict with long-held Muslim practices. In contrast, a poet using the name Tavvalo illustrated this mindset by comparing an airplane to a traditional flying kite and a car to an old Kokand cart. The Jadeds held that knowledge was vital for the survival of the Turkestan people and strongly advocated that reforms in education would yield benefits. They believed that by educating the local populace, a new form of national capital would emerge, contributing to the advancement of the economy, industry, and agriculture within Central Asia. Their ultimate vision was to elevate living standards and enhance the well-being of the underprivileged.

Discussion. Often, the Jaded mullahs were educated, forward-thinking individuals who adapted to contemporary society. Their aim was to demonstrate to the traditional mullahs and followers the advantages of modern progress. Essentially, they believed it was essential to convey to believers that the meaning of Sharia had become stagnant and required development. Behbudy, an influential thinker of Jadedism from 1875 to 1919, stated, "Islam is an incredibly powerful and capable faith, and with more knowledge, a person's belief in Islam grows stronger. For instance, many highly learned European scholars practiced Islam. Therefore, science not only poses no threat to modern Islam but is even advantageous. " The Jaded community included many notable figures such as poets, authors, musicians, playwrights, literary critics, artists, and scientists from diverse fields. They maintained that by improving the education level of the younger generation, they could prepare themselves for a better understanding of European culture. They emphasized the necessity of opening the "gates of jihad" to tackle the challenges that European civilization presented to Muslims, ultimately striving against ignorance and fanaticism.

Present-day Uzbekistan is engaged in revitalizing Islam. Yet, even now, some people argue that Islam should resist modernization, asserting that, unlike other religions, it is more "correct" and does not require reforms. Munavvar Qori Abdurashidkhanov, a figure in the Jaded movement from 1878 to 1931, spoke about what he viewed as essential for every Muslim: "Learn various sciences and languages,

acquiring knowledge essential for everyday life and faith." Thus, the Jaded thinkers argued that it is a duty for every Muslim to pursue education and embrace the sciences. They encouraged seizing every chance to gain knowledge and confront what they regarded as humanity's greatest enemy: ignorance. The Jaded community posited that Sharia calls on Muslims to engage with knowledge that aids humanity. They believed fighting against ignorance was paramount, seeing it as the most severe adversary. During that period, people primarily received education in religious institutions, with few exceptions. Consequently, the Jaded faced significant resistance from society, which was deeply religious. The opposition from conservative clergy was stronger and more impactful, often leading to public attacks on schools initiated by groups of mullahs. The Jaded argued that the clergy had been educated through outdated methods, which were perpetuated through generations. Kemper M. noted that the conventional ways of teaching Arabic and Islamic subjects were overly complex and illogical, according to the Jaded perspective. They aimed to reform educational practices and introduced alternative approaches to align with modern trends. In the view of the Jaded, a critical perspective on history, science, and art was compatible with Islam.

Thus, when individuals from poor backgrounds receive education, they can later support themselves while maintaining their self-respect. Typically, individuals such as tramps, beggars, the homeless, and other marginalized groups found themselves living on the streets, occasionally receiving assistance from mosques and other religious institutions. Rather than merely offering charity to beggars and the homeless, the Jadeds established shelters for street children, arranged charitable meals for those in need, and sometimes offered additional complimentary services, such as medical care among others. The Jadaids promoted the concept of a healthy way of living. Abdullah Avloni emphasized the importance of physical education for fostering a healthy mind, virtues, knowledge, and learning. He stated, "Maintaining a healthy body is crucial for any individual. A strong and healthy body is necessary for reading, studying, and gaining knowledge. " This was not grounded in religious beliefs but was rooted in humanistic values. Jadedism was not simply a phenomenon of Central Asia;

it emerged as a modern movement across the Muslim world during the late nineteenth century. The Jadeds' extensive travels around the globe allowed them to gain deeper insights into the differences between progressive Europe and underdeveloped Central Asia. They underscored the importance of acquiring skills from the West and.

Conclusion. As a movement that focused on culture and education, Jadedism showed that in order to bring about societal modernization, it is essential to start with the weakest link—education. Despite facing many restrictions and challenges from the local government, the outcomes of this modernization were evident in the history of Jadedism. The Jaded took the lead in modernizing society, particularly in relation to Islam. A significant amount of time was necessary to update Islam, aligning it with the standards of the secular society of that era. This effort drove the advancement of culture, especially in the field of music, which traditionalists fiercely opposed. In 1923, Abdulrauf Fitrat began the establishment of the Sharq Musiqiy Maktab, or Eastern Music School, which was intended to develop into institutions comparable to European conservatories. Today, thanks to this legacy, the State Conservatory of Uzbekistan accommodates approximately 1,500 students every year. These students come from diverse backgrounds, including those who are disabled, blind, or visually impaired. Musical art thrives in Uzbekistan, a nation where about 94 percent of the population are Muslims. Nonetheless, the Jadeds had limited knowledge, resources, experience, and time. Therefore, it is crucial to thoroughly examine the historical roots, socio-economic conditions, political influences, and the foundational ideas behind Jadedism in Central Asia so that it can be reintegrated into the revival of traditionalism that has begun across various aspects of Uzbek society. They did not intend to abandon Islam, even as the Bolsheviks, who took control at that time, dismantled most religious establishments. Consequently, the social structure hindered the Jadeds from realizing their lofty aspirations. The vision of national revival was, at that moment, a dream just out of reach for our people. Now, however, all the necessary conditions are present.

References

[1]. Tursunov, R. (2019). The research analysis of the socio - economic issues of the Turkestan Jadeds in the beginning of the 20th century. Central Asian Problems of Modern Science and Education.

Electronic Journal of actual problems of modern science, education, and training. https://uzjournals.edu.uz/capmse/vol4/iss2/203/

[2]. Bobokhonov, R. (2015). DJadedizm - kak shkola modernizatsii islama v sentralnoy Azii (kones XIX – nachalo XX vv) [Jadedism - as a school of modernization of Islam in Central Asia (End of the XIX – beginning of the XX centuries)]. https://centrasia.org/ne wsA.php?st=1424558880.

[3]. Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at a solemn meeting dedicated to the Day of teachers and mentors. https://uza.uz/ru/posts/vystuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziye-30-09-2020.

[4]. Hoji Muin. (1913). Istiqbol qayg'usi [Sorrow of the Future]. Oyna jurnali [The Mirror Magazine], No 2. https://ziyouz.uz/matbuot/Jaded-matbuoti/hoji

- muin – istiqbol – qaygusi - 1913/.

[5]. Ziyo Ko'kalp - Turkiya madaniyat arbobi, shoir, olim, faylasuf [Ziya Kokalp - Turkish cultural figure, poet, scientist, philosopher]. Turklashmoq, islomlashmoq [Turkification, Islamization], Istanbul,1974, p.12. https://kh - davron.uz/kutubxona/Jadedlar - kutubxona/boymirza

- hayit – turkistonda – Jadedchilik – va – uning - tugatilishi.html).

[6]. Kliment, V. (2015). Prizyvy k reformam v Zakaspii: turkmenskie posledovateli dJadedizma [Calls for Reforms in the Transcaspian Region: Turkmen Followers of Jadedism]. Central Asian Analytical Network. (CAAN). https://www.caa - network.org/archives/6324.

[7]. Boymirza Hayit. (2017). Turkistonda Jadedchilik va uning tugatilishi

[Jadedism in Turkestan and its end]. https://kh davron.uz/kutubxona/Jadedlar

- kutubxona/boymirza – hayit – turkistonda – Jadedchilik – va – uning -tugatilishi.html.

[8]. https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1067144.pdf.

[9]. Bobokhonov, R. (2015). DJadedizm - kak shkola modernizat-sii islama v sentralnoy Azii (kones XIX – nachalo XX vv) [Jadedism - as a school of modernization of Islam in Central Asia (End of the XIX – beginning of the XX centuries)]. https://centrasia.org/ne wsA. php?st=1424558880.

[10]. Behbudi Mahmudhoja. Yoshlarga bag'ishlangan maqolalar [Articles dedicated to Youth]. Oyna jurnali [The Mirror], No 21, 1914, - p. 390

O'ZBEK JADID SHE'RIYATIDA "VATAN" VA "MILLAT" BADIIY KONSEPTLARI

Xudayberdiyev Akram Akbarovich
Qo'qon universiteti Andijon filiali izlanuvchisi
+99891-614-11-68; e-mail: akromandijoniy@gmail.com
(O'zbekiston)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek jadid she'riyatida "vatan" va "millat" badiiy konseptlarining shakllanishi, mazmuniy rivoji va ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Jadid adabiyoti kontekstida "vatan" tushunchasi avvalgi diniy va tasavvufiy qarashlardan farqli o'laroq, milliy uyg'onish, ijtimoiy islohotlar va mustaqil tafakkur bilan boyitilgan yangi badiiy mazmun kasb etgani ko'rsatiladi. Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Behbudiy, Cho'lpon, Hamza kabi jadid shoirlar ijodida "vatan" va "millat" tushunchalari o'zaro uyg'un holda talqin qilinib, xalqni ilmga, taraqqiyotga, va milliy o'zlikni anglashga undovchi kuchli ruhiy-estetik mezonga aylangan.

Kalit so'zlar: Vatan, millat, jadid adabiyoti, badiiy konsept, Turkiston, milliy uyg'onish.

Abstract: This article explores the artistic concepts of "homeland" (vatan) and "nation" (millat) in Uzbek Jadid poetry, focusing on how these ideas evolved in response to historical, cultural, and ideological transformations. The study analyzes how early Jadid poets such as Fitrat, Abdulla Avloni, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Behbudiy, Chulpon, and Hamza redefined the concept of homeland beyond its traditional religious and mystical connotations, transforming it into a symbol of national awakening, educational reform, and cultural identity. The concepts of "homeland" (vatan) and "nation" (millat) are deeply interconnected, forming a unified poetic vision that encourages self-awareness, patriotism, and commitment to progress among the people.

Keywords: Homeland, nation, Jadid literature, artistic concept, Turkestan, national revival.

Аннотация: В этой статье рассматриваются художественные концепции «родины» (ватан) и «нации» (миллат) в узбекской

джадидской поэзии, уделяя особое внимание тому, как эти идеи развивались в ответ на исторические, культурные и идеологические трансформации. В исследовании анализируется, как ранние поэты-джадиды, такие как Фитрат, Абдулла Авлони, Мунаввар-кори Абдурашидханов, Бехбудий, Чулпон и Хамза, переосмыслили концепцию родины за пределами ее традиционных религиозных и мистических коннотаций, превратив ее в символ национального пробуждения, образовательной реформы и культурной идентичности. Концепции «родины» (ватан) и «нации» (миллат) глубоко взаимосвязаны, образуя единое поэтическое видение, которое поощряет самосознание, патриотизм и приверженность прогрессу среди людей.

Ключевые слова: Родина, нация, джадидская литература, художественная концепция, Туркестан, национальное возрождение.

Kirish

O'zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlarida "vatan" va "millat" tushunchalari markaziy g'oya sifatida shakllanib kelgan. Ayniqsa, XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati doirasida ushbu tushunchalar o'ziga xos badiiy, falsafiy va ijtimoiy yuklama kasb etdi. Jadid shoirlari asarlarida vatanni nafaqat geografik hudud, balki xalq va millatning ruhiy, madaniy, ma'naviy hayoti bilan bog'liq uzviy tushuncha sifatida talqin qilishga urindilar. Ushbu maqolada o'zbek jadid she'riyatida "vatan" va "millat" konseptlarining shakllanishi, rivojlanishi, badiiy talqini va o'zaro bog'liqligi ilmiy tahlil qilinadi.

Materiallar va metodologiya

Maqola yozishda tarixiy-funksional yondashuv, kontseptual tahlil, komparativ metod, semantik va poetik tahlil uslublaridan foydalanildi. Manba sifatida Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza kabi jadid ijodkorlarining she'riy asarlari, zamonaviy adabiyotshunoslarning tadqiqotlari, milliy uyg'onish davriga oid ilmiy maqola va monografiyalar asos qilib olindi.

Natijalar

Jadid adabiyotida “vatan” tushunchasi yangi mazmun kasb etdi. U ilgari shoirlar ijodida ko’proq geografik va diniy anglash darajasida ifodalangan bo’lsa, jadidlar uni milliy o’zlik, ijtimoiy uyg’onish, ma’rifat va istiqlol g’oyalari bilan bog’ladilar.

Matbuotda muntazam yoritilgan “vatan” va “millat” mavzulari milliy adabiyot, ayniqsa, she’riyatga ta’sir ko‘rsatdi. She’rlarda turkiy xalqlarning shonli o‘tmishi, davlatchilik g‘oyalari aks etib, millat va vatan konseptlari boyidi. “Vatan” tushunchasi an’anaviy talqindan chiqib, millatning hududi, tili, tarixi va kelajagi bilan uzviy bog‘liq holda yoritildi.

“Vatan” konseptining mumtoz adabiyotdagi an’anaviy talqini milliy uyg‘onish davrida shakllangan va faollashgan yangi mazmunidan farq qiladi[18]. “Vatan” so‘zi [وَطَنٌ – ko‘pligi أَوْطَانٌ] arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “tug‘ilgan joy”, “ona yurt” ma’nolarini anglatadi[19]. Shu bilan birga, “inson u yerda xoh tug‘ilgan, xoh tug‘ilmagan bo‘lsin, istiqomat qiladigan va maskan tutgan yer” ma’nosida ham qo‘llanadi. “V,T,N” (وطن) moddasi ostida “Vatan” so‘ziga mashhur arab lug‘atlari va qomuslarida yuqoridagidek, ya’ni deyarli bir xil ta’rif berilgan[20]. Mumtoz adabiyotda ham “vatan” konseptining an’anaviy talqini ayni shunday bo‘lib, “yashash joyi” (maskan) ma’nosi tushunchaning yadrosini tashkil qiladi. Ammo XX asr boshlarida jadidlar tomonidan milliylik va istiqlol g‘oyalari targ‘iboti jarayonida tabiiy ravishda “vatan” konsepti “chegaralangan muayyan milliy hudud” ma’nosida talqin etilib, ayni ma’nosi targ‘ib qilina boshlandi. Maktab darsliklarida ham bunga alohida e’tibor qaratildi.

Darsliklarning birlda Avloniy “Vatan”ni shunday ta’riflaydi: *“Vatan. Har bir kishining tug‘ilib o‘skan shahar va mamlakatini shul*

---

[18] Қўшимча маълумот учун *қаранг*: Муфтий Нуриддин домла Холиқназаров. Исломда Ватан тушунчаси. – Тошкент: “Shamsuddinxon Boboxonov”. 2022. – Б.12.

[19] Анарбой, Абдумажид. Ан-Наъим. Арабча-ўзбекча луғат. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент: 2003., Б.921.

[20] Муфтий Нуриддин домла Холиқназаров. Исломда Ватан тушунчаси. – Тошкент: “Shamsuddinxon Boboxonov”. 2022. – Б.11.

kishining vatani deyilur"[21]. Bundan an'anaviy konsept: "yashash joyi" ma'nosi anglashilayotgani aniq. Ammo Avloniy fikrlari bayonida "Vatan tuyg'usi" haqida so'z ochadi. U hayvonlarda ham o'z yashash hududiga intilish hissi mavjudligini ta'kidlab, bu his inson tabiatida ham borligini qayd etadi. Darhaqiqat, hayvonlarning tarqalish hududi, moslashgan joyi ular uchun vatandir. Ular muayyan bir hududda ko'payib, rivojlanib hayot kechirishadi. Garchi ilmiy adabiyotlar hayvonlarda vatan tushunchasi "makon", "hudud" sifatida mavjudligini tasdiqlasa-da, hayvondan farqli o'laroq, inson bu tushunchaga ongli ravishda munosabatda bo'ladi. Zero, hayvonot sifatlari inson vujudi binosida ham yaratilgan. G'azzoliy agar inson bu sifatlarni o'ziga bo'ysundirib, undan ulov va qurol tariqasida foydalana olsa, saodatga erishishini aytadi. Bu ma'niga yeta olmaganlar esa haqiqatni anglay olmaydilar, deydi[22]. Demak, inson vatanga bo'lgan hisni "hayvoniy his", deb inkor etishi uning o'zligini anglashdan, o'z haqiqatini mushohada qilishdan to'sadi. Avloniy ta'kidlaganidek, insondagi vatan hissi "hayvoniy" bo'lsa-da, hayvondan farqli o'laroq, inson bu his va tushunchaga ongli yondashadi. Shunday ekan, inson va vatan o'rtasidagi bog'liqlik shunchaki hududiy yoki geografik tushuncha emas, balki chuqur tarixiy, madaniy va ma'naviy ildizlarga ega bo'lgan munosabatdir. Bu bog'liqlik insonning o'zligini anglashiga, milliy ongining shakllanishiga va ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Avloniy turkistonliklarning vatanparvarligini ta'kidlab, arablar va eskimoslarning ham o'z yurtlarini boshqalardan ortiq sevishini misol keltiradi. U Arabistonga hijrat qilgan hojilarning aksariyati yana vatanga qaytishini qayd etadi. Shuningdek, ilgari "Ibrohim alayhissalom millati" deb umumlashtirilgan qavmlarning endi "arab", "turk" kabi etnik nomlar bilan atalishi va ularning vatanlari "Arabiston" hamda "Turkiston" sifatida farqlanayotgani kuzatiladi. Shu tariqa, yangi talqindagi "vatan" va "millat" tushunchalari o'zaro bog'liq hol-

[21] Авлоний, Абдулла. Танланган асарлар: 2 жилдлик. 2-нашри. 2-жилд. Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари (Истиқлол хотиралари). – Тошкент: "Маънавият". 2006. – Б.55.

[22] Ғаззолий, Абу Ҳомид. Кимёи саодат: (руҳ ҳақиқати). – Тошкент: "Адолат", 2005. – Б.30.

da ifodalanib, Arabiston – arablarning, Turkiston esa turkistonliklarning vatani sifatida e'tirof etiladi.

Avloniy Vatan hissini muayyan hudud bilan bog'lab tushuntirishga urg'u berishida milliyatchilik g'oyalariga yo'naltirilgan maqsad yotgani seziladiki, u o'quvchini Vatandan ketmaslikka, undan ayrilmaslikka chaqiradi, hatto o'z vatanida o'lim topmoqlik kishi uchun bu dunyodan g'amsiz o'tmog'i bilan barobar ekanini fikrlari yakunida she'riy parcha orqali asoslaydi[23].

Jadidchilik mafkurasida taraqqiy (va istiqlol) g'oyalari markaziy o'rinda turar ediki, ayni shu g'oyalarni o'quvchiga yetkazishga uringan Avloniy "vatan"ni milliyatchilik g'oyalari asosida, "millat" bilan bog'liq ravishda tushuntiradi, o'quvchi shuuriga "milliy vatan" tushunchasini singdirishni maqsad qiladi.

"Vatan muhabbati"ni inson Vatanda qolishining obyektiv sababi sifatida keltirgan Avloniy so'zining isboti o'laroq Payg'ambar s.a.v. tilidan bir "hadis" keltiradi: *"Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: "Hubbul-vatani minal-imoni – Vatanni suymak imondandir", – demishlar"*[24], deydi. Milliyat yuzasidan Vatanga ta'zim qilishni aytgan Muftiyzoda ham fikrlari isboti o'laroq mazkur "hadis"ni tilga oladi: *"Payg'ambarimiz hazratlarining "Vatan muhabbati imondir" degan muborak so'zlari ma'lumdir. U ila esa biz musulmon va turklarga vatanimizni sevmak din yuzindan, milliyat yuzindan vijdon va aql hukmlari bilan vojibdir"*[25].

Bu davrda mazkur islomiy hikmat ko'pincha Payg'ambar s.a.v. hadisi sifatida e'tirof etilgan[26]. Bu jadidlar taraqqiyot va istiqlol g'oyalarini targ'ib etish jarayonida shakllangan bo'lib[27], millat tafakkurida diniy qarashlarning ustuvor ahamiyatini ko'rsatadi. Jadidlar ushbu hikmat orqali xalq e'tiborini Vatan taqdiri va istiqlolga qaratishga in-

---

[23] Авлоний, Абдулла. Танланган асарлар: 2-жилд. Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари (Истиқлол хотиралари). – Тошкент.: "Маънавият". 2006. – Б.56.

[24] Ўша асар. Б.56.

[25] Муфтийзода, Абдураҳмон. Дин, ватан, замон. // Ҳуррият. 16.12.1917. №59.

[26] Ҳуббил ватан аз, иймон аст // Ойна. 2.11.1915. №11; Cho'lpon. Kecha va Kunduz. Roman. Birinchi kitob. – Toshkent: "Sharq". 2013. – B.14.

[27] Rizouddin bin Faxriddin. "Javome ul-kalim" sharhi. Qozon: Tatariston kitob nashriyoti, 1911 (2-nashri: 1916).

tilganlar. Bugungi kunda ham uni hadis sifatida tilga oluvchilar bor, ammo u sahih hadislar qatorida uchramaydi. Ba'zi ulamolar uni "zaif hadis", boshqalari esa "islomiy hikmat" deb baholaydilar[28].

Shu tariqa ilk jadid darsliklarida Rusiya davlatining bir viloyati sifatida tilga olingan "Turkiston" nomi[29] yillar davomida "millat" bilan bog'langan muayyan hudud – "milliy vatan" tushunchasini o'zida aks ettirgan konsept sifatida o'zlikni anglash vositasiga aylanib bordi.

"Vatan" so'zini turk o'g'illariga turk tilida anglatish maqsadi e'lon qilindi[30]. Matbuotda "din", "vatan" va "zamon" tushunchalarining ahamiyati targ'ib etilib, ularning uyg'unligi xalqlarning saodatli yashashiga asos ekani ta'kidlandi. Muftiyzodaga ko'ra, Vatan – insonni voyaga yetkazuvchi ona, hayot saboqlarini o'rgatuvchi muallim va barcha orzu-tilaklarning beshigidir. Uning izzat va saodati xalqning ravnaqiga bog'liq[31].

Vatanga bo'lgan hurmat diyonatga bo'lgan e'tiqod bilan teng qo'yilib, uni rivojlantirish har bir fuqaroning burchi ekani uqtirildi. Olloh nomini zikr etish kabi "Vatan", "Turon", "Turkiston" so'zlarini takrorlash targ'ib qilindi. Vatan esa sevikli yorga o'xshatilib, unga bo'lgan muhabbat fano martabasiga yetuvchi ishq sifatida tasvirlandi[32].

Ijtimoiy hayot talabi bilan Vatan e'tiqod darajasiga ko'tarilib, jadidlar uni targ'ib etishga intildi. Bu esa yangi o'zbek adabiyotida Vatan konseptining yangilanishiga va ustuvor mavzuga aylanishiga sabab bo'ldi. Istiqlol orzusi tufayli adib va shoirlar uchun Vatan mavzusi ijodiy va ruhiy ehtiyojga aylandi. Natijada, an'anaviy tushunchadan farqli ravishda, Vatan "muayyan millat yashaydigan hudud" sifatida anglanib, "milliy vatan" konsepti shakllandi va she'riyatga olib kirildi.

---

[28] "Vatanni sevmoq iymondandir" hadisining roviysi kim? // URL: https://namozvaqtlari.com/savol-javoblar/6263-vatanni-sevmo-ijmondandir-adisining-rovijsi-kim.html (murojaat etilgan sana: 31.12.2022); Яна *қаранг*: Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 1-жуз. Тошкент: "Hilol-Nashr", 2020 й. – 109-бет.

[29] Калинин, Ал-Асқар. Муаллим ус-соний. Дарслик. – Тошкент: 1908. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Шарқ қўлёзмалари хазинаси, асосий фонд, тошбосма. Инв. №358. Б.90.

[30] Убайдуллоҳ. Мақсад ва маслак // Садойи Туркистон. 04.04.1914. №1.

[31] Муфтийзода, Абдураҳмон. Дин, ватан, замон // Ҳуррият. 16.12.1917. №59.

[32] Ўша манба.

Fitrat she'riyatida "vatan" konsepti misolida ham ayni shu holni kuzatamiz. "Sayha"[33] ("Chorlov") to'plamidagi she'rda shoir Buxoroni madh etadi:

Ey modari azizi man, ey xittai Buxor,
Ey bo tu iftixoramu v-ey bo tu e'tibor.
Ey ko'hi ilm, bahri shahomat, fazoi fayz,
Sahroi majd, bog'i hunar, sohai viqor[34].

Shoir Buxoro bilan faxrlanadi. Buxoro u uchun ulug'vor dengiz, ilm tog'i. Fitrat Vatanni e'tiborining cho'qqisidagi "aziz Ona"ga qiyoslaydi.

Turkiyadagi tahsili davomida yozilgan bu she'r shoirning yurtiga sog'inch izhorlaridan iborat. Buxoro Fitrat uchun "Vatan, jonu tan, Ka'ba va qibla" edi:

Binmo sahare azmi tavofi vatani man,
Ax-ax, chū vatan sajdagahi jonu tani man.
Ham ma'mani osoishu izzu sharafi man,
Ham Ka'bai man, qiblai man, ham chamani man[35].

Misralarda "vatan" konsepti muayyan hudud – Buxoroni ifodalaydi. She'r kontekstida "vatan" va "Buxoro" so'zlari kontekstual sinonim o'laroq qo'laniladi.

Avval birason az tarafam arzi duoro,
V-on gah binamo lobavu bargo'y: "Buxoro!"[36].

Bu yerda ham "vatan" konsepti yuqoridagidek talqinda: "Buxoro" muayyan hudud sifatidagi "vatan" ma'nosini ifodalaydi. Demak, Fitratning ilk ijodida "millat" – Buxoro musulmonlari, "vatan" esa Buxoro amirligi ma'nosini anglatgan.

Hamzaning ilk ijod namunalarida ham an'anaviy konsept talqinlari uchraydi. Uning "Ko'zni oching, qardoshlar" she'ri[37] mana bu band bilan boshlanadi:

---

[33] 1911-йилда Туркиянинг Истанбул шаҳрида нашр этилган. Ундан форс тилида ёзилган ватанпарварлик руҳидаги шеърлар жой олган.

[34] Айний С. Намунаи адабиёти тоҷик. Нашриёти "Адиб". Душанбе. 2010. Б.355.

[35] Ўша манба. Б.355.

[36] Ўша манба. Б.356.

[37] Ниёзий, Ҳамза Ҳакимзода. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: "Фан", 1988 й. – Б.11.

Ko'zni oching, qardoshlar, ibratlashaylik,
Uyqu bitsun, dindoshlar, g'ayratlashayluk.
Ijlos etib har yerda hasratlashayluk,
Milliy xizmatlar uchun himmatlashaylik.

Bunda murojaat ko'proq "dindoshlar"ga qaratilgani (bu "qardoshlar"ga nisbatan umumiy) va "milliy xizmatlar"ga da'vat etilayotgani, bizningcha, "millat" konseptida an'anaviylik (diniy talqin) ustuvorligini ko'rsatadi. She'rning oxirgi bandi ham "millat" ayni shu yo'sin tushunilayotganini tasdiqlaydi:

Tashlab Nihon ko'ngilda bo'lgan illatni,
Kinu bug'zu adovat, fisqu g'iybatni,
Sunniy, shiiy so'zlarni barbodlashaylik,
Millat yo'lin ko'plashub obodlashaylik.

Ko'rib turganimizdek, shoir muammolar ildizi millat, ya'ni musulmonlar orasidagi bo'linishda deb biladi, ularni firqalarga bo'linmay, birlikda harakat qilishga chaqiradi, chunki musulmonlarning hammasi uchun "millat yo'li" bitta, ularning hammasini bitta millat deb hisoblaydi.

"Darmon istariz" nomli she'ri[38] ham musulmonlarga murojaat bilan boshlangan. Biroq bundagi "millat" konseptining ma'no ko'lami birmuncha torroq:

Ey musulmonlar, qachon biz darda darmon istariz,
Bu qorong'u kechamizga mohi tobon istariz,
Biz vatan avlodina ilm ila urfon istariz,
Yodgori qolg'udek isloma unvon istariz.
Ey musulmonlar, kelinglar xatmi qur'on istariz?
Millata shavkat, tarqqiy, sha'nu davron istariz?

Murojaat obyekti bo'lmish "musulmonlar" matnda "millat" va "vatan" konseptlari bilan bog'liq holda qo'llangani ma'noning konkretlashuviga xizmat qiladi. Gap "vatan avlodi" haqida borgani uchun murojaat muayyan hududda – Turkistonda yashovchi musulmonlarga qaratilgan deyishga asos beradi. Modomiki turkistonlik musulmonlar "millata shavkat, taraqqiy" istarga targ'ib qilinayotgan ekan, bundan shoir "millat" tushunchasini hududiy jihatdan chegaralayotgani, "millat" va "vatan" konseptlarini bir-biri bilan uzviy bog'liq talqin qilayotgani

[38] Ўша манба. – Б.13.

anglashiladi. Biroq bu hali to'la yangilangan konsept emas, u o'rni bilan an'anaviy konsept bilan almashinib turadi. Jumladan, "*Bizni Qur'ondan taraqqiyga yetushdi g'ayrilar, Bizni mullolar xurofot ila umr o'tkardilar*" tarzidagi misralar zidligida yana "musulmon millati" bilan "g'ayrilar" haqida gap boradiki, bu yerda hududiy chegaralar olib tashlanadi. Keyingi banddagi "*Bizcha millatlar ichida bemaorif zod yo'q*" misrasida "millatlar" deyish bilan yana millatlardan biri – Turkiston musulmonlari haqida so'z borayotgani ma'lum bo'ladi. Bir she'r doirasida "millat" va "vatan" konseptlarining ham an'anaviy, ham yangicha talqinlari mavjud ekanligi Hamzaning bu boradagi izlanishlari yakuniga yetmaganini ko'rsatadi.

Cho'lpon "Turkistonli qardoshlarimizga" nomli ilk she'rida[39] hali millat sifatida shakllanmagan xalqni tasvirlaydi:

Ilmu ma'rifat ham hunardan qoldi mahrum bizni xalq,
Ma'rifatsizlik balosiga yo'liqqan bizni xalq.

"Millat" tushunchasini ifodalovchi "bizni xalq" – Turkiston xalqidir. She'r sarlavhasida murojaat "Turkistonli qardoshlar"ga qaratilganligi ham bunga aniqlik kiritadi. "Bizni xalq"ning "qardoshlar" ekanligi bir oilaga mansublikni anglatib, "millat" tushunchasida etnik jihatning ustuvorligini ko'rsatsa, ular "Turkistonli qardoshlar" ekanligi "millat" tushunchasining muayyan hudud Turkiston – "vatan" bilan bog'liq holda talqin etilganini anglatadi. Ammo Cho'lpon e'tiroficha, xalq hali millat sifatida shakllanmagan:

Bir kishi millatparast o'lsa deyurlar dahriy deb,
Bir kishi millatni so'ksa, izzat aylar bizni xalq.

Millat haqida gapirgan, unga o'zligini anglatishga uringan kishini xalq "dahriy"ga chiqarishi – "bizni" xalq hali o'zini "millat" sifatida anglamaganligidan dalolat. Xalqqa achinish va o'kinch hissi bilan yo'g'rilgan she'r so'ngigacha o'quvchi bunga amin bo'lib boradi. Biroq Cho'lpon ilmdan mahrum xalq yuziga oyna tutsa-da, qalbining tub-tubida uni millat sifatida ko'rish orzusi bor.

Hamzaning "Yaxshi holin yo'qotgan oqibatsiz Turkiston" she'rida[40] "millat" va "vatan" konseptlari shoirning avvalgi qarash-

[39] Туркистонли қардошларимизга // Садои Туркистон. 18.04.1914. №3.

[40] Ниёзий, Ҳамза Ҳакимзода. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: "Фан", 1988 й. – Б.17.

lariga nisbatan mazmunan boyigani, to'lishgani va konkretlashgani kuzatiladi:

Esiz, esiz, Turksiton, qani avvalgi holi?
Olamga ziyo bergan ul xurshidi iqboli?
Abri g'aflat qurshadi, tun bo'ldi istiqboli,
Xo'r bo'lsa millatimiz, tutmasmukin uvoli.

Band mazmunidan kelib chiqilsa, bu yerda Turkiston muayyan hudud sifatidagi "vatan" ma'nosini beradi va shu hududda yashovchilar – "millat" tushunchasi bilan uzviy bog'liq talqin etilayotgani anglashiladi. She'r kontekstida "Turkiston" va "vatan" so'zlari kontekstual sinonim o'laroq ishlatilgani ham buni tasdiqlaydi. Eng muhimi, bu yerda "vatan" konsepti Turkistonning avvalgi holini – "o'tmish" tushunchasini ham qamrab olayotir. Bu bilan shoir "vatan"ning bugungi ahvoli uchun o'tmish, ya'ni ajdodlar oldida javobgarlik borligini ta'kidlaydi. Qaysiki, mana bu ahvol uchun:

Og'la, og'la, Nihoniy, kecha bo'ldi kunduzlar,
Falakda ko'rinmayur mohtob ila yulduzlar.
Vatanga molik bo'ldi nobakoru to'ng'izlar,
Oyog' ostida qoldi necha sandek dilso'zlar?

Hamza "nobakoru to'ng'izlar" qo'lida qolib, kunduzlari kechaga aylangan vatan – Turkiston uchun javobgarlikdan ogoh etadi. Harakatga da'vat etarkan, milliy ozodlik va taraqqiyni sog'inarkan, shoir vatani ertasining qayg'usini qilayotgani ham ravshan. Ma'lum bo'lyaptiki, "vatan" konsepti endi muayyan "hudud", shu hududda yashovchi "xalq", shu xalq "o'tmishi" va ertangi "istiqboli" tushunchalarini qamrab olayotir.

Jadidlar she'riyatida kuzatilgan yuqoridagicha izlanishlar taraqqiy (va milliy istiqlol) maqsadlariga "millat" va "vatan" konseptlarining an'anaviy talqinlariga muvofiq bo'lmay, ularni shu maqsadlarga mos yangilash zaruratini teran his qilishidan turtki oladi. Eng muhimi, ular oldida bu konseptlarni yangicha anglashgina emas, ommaga yangicha anglatish vazifasi ham ko'ndalang bo'lgan, bu mazkur maqsadga erishishning muhim shartlaridan edi. Shoir Sidqiy bunda o'quvchiga "Vatan"ni anglatishning qulay "savol-javob" usulidan foydalanadi:

Savol: Ul nimadurkim ko'zg'a yaxshi ko'rinur?

Javob: Tug'ulg'on yer (vatan).

Tug'ulg'on yer agarchi kultefa bo'lsun, bo'lur issig',

Ko'rung'ay Sidqiyning qishlog'i ham o'z ko'zig'a gulzor[41].

Sidqiy "tug'ilgan yer"ni "vatan" deb anglatar ekan, qay holatda bo'lmasin ushbu Vatan o'zga yerlardan chandon afzal ekanini ta'kidlaydi. Uning "Vatan nadir"[42] deya boshlanadigan she'ri ham to'laligicha Vatan tavsifiga bag'ishlangan:

Vatan nadir, tuqqan yerim, turg'on yerim,

O'sib-unib, o'ynab-kulib yurg'on yerim.

Vatan – shoirning tug'ilib, unib-o'sib, o'ynab-kulib yurgan yeri. Vatan uning tarbiya topgan oilasi, issiq-sovuq kunda qo'rg'oni, sog'lom yashab yurgan joyi, qayda bo'lsa-da talpingan makoni. Vatan – hatto shoirning joni, tanu ko'zi. Shoir uchun Vatanining xoru xasi chet shaharning gulzoridan afzal. Garchi bu yerning mehnati ko'p bo'lib, mashaqqati ezsa-da, umrguzorligi-yu davru davroni shu yer bilan bog'liq.

Jonim vatan, tanim vatan, ko'zim vatan,

Esdan chiqar oni ko'rg'och, ko'rg'on yerim.

Shoir vatan tuprog'i muqaddas va har nedan aziz ekanligini o'quvchiga tushuntiradi. U Vatanni balandparvoz va jimjimador so'zlar bilan emas, har bir inson har kuni ko'zi ila ko'rib anglay biladigan turmush va tani ila sezib, his qila oladigan hayot orqali anglatadi, o'quvchiga tanitadi. Har kuni ko'radigan hayot va boshidan kechiradigan umrni shu "yer" – tuproq bilan bog'laydi. Shuning uchun shoirning "joni" ham "vatan", "tani" ham "vatan", ko'rgan-kechirgani – "ko'zi" ham shu "yer".

Chet shaharning gulzoridan ko'zga yaxshi,

O'roq birla xoru xasin o'rg'on yerim.

Bu o'rinda shoirning "yer"i – vatani "chet shaharning gulzoridan" afzalligi yashab turgan yeriga muhabbatidan darak beradiki, o'quvchi ham "vatan"ga muhabbatli bo'lishi kerakligi urg'ulanadi. Sidqiy vatan tushunchasida islomiy talqin ustuvorligini e'tirof etgani holda,

---

[41] Хондайлиқий, Сидқий. Танланган асарлар. – Тошкент: "Маънавият", 1998 й. – Б.224.

[42] Ўша асар. Б.79.

uning "kichik vatan" orqali "katta Vatan"ni anglatish yo'lini tutganini ta'kidlash lozim. Ma'rifatchi sifatida u soddadan murakkabga tomon boradi. Muhimi, u Vatanning o'zga yerlardan afzalligini singdirishga intiladi. Shoir yurtdagi jaholat haqida qayg'urib yozganini ham yodda tutmoq kerak. Ya'ni avval Vatanga beg'araz muhabbat bo'lishi – uni bor holicha sevish kerak, shundan keyingina kamchiliklarni muhokama qilish mumkinki, bu isloh qilishga olib keladi.

Hamzaning "Jonlarni jononi Vatan" she'ri[43] ham yuqoridagidek mazmun aks etgan, boshdan-oyoq anglatish maqsadiga qaratilgan she'rlardan biri.

Vatan, vatan der edilar, na der erdim bilmay ani,
Endi bilsam Vatan erkon bu tanlarning shirin joni.

Bizningcha, bu izhor she'r (avtopsixologik) bo'lmay, balki ma'lum ma'noda ijroviy lirika namunasi hamdir. Zero, undagi o'y-kechinmalar egasi – lirik qahramon shoirning o'zigina emas, balki endi ma'rifat yo'liga kirayotgan, Vatan neligini tanib boshlagan yoshlarning hammasi – "biz"dir. Lirik qahramon – Vatanning "chin tug'mish ona" ekanligini, tirik bo'lsa boqadigan, o'lganda-da bag'riga oladigan ma'voligini kechikib bo'lsa-da anglagan odam. U endi Vatanni tanimay o'tgan vaqtlarini "ko'rlik" deb baholaydi. Shu ko'rlik tufayli ham noqobil farzandlar uning "ko'z yumib o'q otib", "qo'lin bog'lab yovuzlarga sotdilar". Ular "buning evaziga nima oldilar?" degan savol qo'yadi shoir va bu bilan hech narsaga erishmaganlarini ta'kidlaydi, ya'ni "sotish" manfaat uchun emas, "ko'rlik" – anglamaslik sabab sodir bo'lgan. Hamzaga ko'ra, Vatanni tanitishga mas'ullar "tonutmadi", "nelargadir aldanib tangri buyruqin tutmadi". Vatanni tanitmoq tangrining buyrug'i edi, deyilishidan shoir buning uchun ulamolar mas'ul deb bilgan ko'rinadiki, ummatga to'g'ri yo'l ko'rsatish olimlarga meros qilingani yodga olinsa, shunday hisoblashga asos borligi ayon bo'ladi. Xullas, Hamza Vatan-onaning ohu vohiga quloq solinmagani sababini "bilimsizlik"dan degan xulosaga olib keladi. Tabiiyki, "bilimsizlik" uchun yoshlarning o'zi aybdor, she'r yakunida shoirning Vatan-onadan kechirim so'rashi shundan:

[43] Ниёзий, Ҳамза Ҳакимзода. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: "Фан", 1988 й. – Б.45.

Nihon yig'lab qon yutunur, kechmog'lig'ingni o'tunur,
Mundin buyon o'g'lonlaring chandon tonurg'a tutunur.

Hamzaning mazkur so'zlari faqat uzrxohlik emas, ular ayni paytda va birinchi navbatda Vatanni tanimoqqa, uni qutultirmoq va xizmatiga shay bo'lmoqqa da'vat hamdir. Shu bilan birga, ular Hamzaga hamfikr yosh bo'g'in – jadidchilik g'oyalari ta'siridagi "yosh sartlar" Vatanni tanishga qat'iy jahd qilganlaridan ham dalolat beradi. Avloniyning "Vatan" she'rida[44] ham shu fikrni tasdig'ini ko'ramiz. Shoir "Vatan" nomi dunyoda muqaddas ekanini ta'kidlarkan, buni tushunmagan va qadrini bilmaganlarni "aqli past" sanaydi. Undagi bor noz-ne'matu, jonzotlar insonga xizmat qilish uchun yaratilganini aytib, undan vatandoshlari yetarlicha to'g'ri foydalanmayotgani uchun afsuslarini izhor qiladi. Bu holga tushish sababini tarbiyatsizlik, ilmsizlik va jaholatda, deb biladi. Bu hol to'xtamasa, ma'rifatga rag'bat uyg'onmasa, "g'am selobi" kelib, Vatandan ayrilib qolish mumkinligidan barchani ogoh etadi.

Jadidlar izlanishlari misolida shuni aytishimiz mumkinki, 1917 yildagi fevral inqilobiga qadar Turkistondagi jadidchilik harakati xalqni uyg'otishga, jamiyatni isloh qilishga qaratilgan ma'rifiy-madaniy harakat bo'lib keldi. Inqilobdan keyin esa harakatning rus davlatidan siyosiy haq-huquqlarni talab qilish darajasiga yetganini ko'ramiz. Bu jarayonlarda "millat" va "vatan" konseptlari mazmunan boyib, konkretlashib bordi.

XX asr boshlarida Turkiston jadidchiligi dastlab ma'rifiy-madaniy uyg'otuvchanlik harakati sifatida yuzaga chiqdi. Ammo 1917-yilgi fevral inqilobi bilan siyosiy maydonga chiqqan jadidlar harakati yangi bosqichga o'tdi. Endilikda ular siyosiy erkinlik va muxtoriyat uchun kurashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishdi. Bu jarayonda "vatan" va "millat" tushunchalari ideologik hamda emotsional mazmun bilan boyib bordi.

1917-yilga kelib Fitratning "vatan" tushunchasi Buxorodan kengroq bo'lgan "Turon"ga, ya'ni barcha turkiy xalqlar vatani sifatidagi ideallashtirilgan makonga ko'chdi. Fitrat asarlarida[45]

[44] Авлоний, Абдулла. Танланган асарлар. (Шеърлар, ибратлар). 2 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: "Маънавият". 1998 й. – Б.196.

[45] Фитрат. Юрт кайғуси // Ҳуррият. 28.07.1917. №26. Б.2.

Vatan endilikda ona siymosida, ma'sum va himoyaga muhtoj timsol sifatida tasvirlanadi[46]. Unga bo'lgan muhabbat faqat hissiy emas, balki fidokorlik va o'zini qurbon qilishga tayyorlikda namoyon bo'ladi.

Cho'lpon esa Turkiston muxtoriyatining tashkil topishini millat uyg'onishining ramzi sifatida kuylaydi. Uning "Ozod turk bayrami" she'rida[47] "Turkiston" va "vatan" so'zlari kontekstual sinonim sifatida ishlatilgan bo'lib, turkchilik g'oyasi doirasida vatan himoyasi va millat birligi g'oyalari ilgari suriladi. Bu g'oyalar xalqni ozodlikka yetaklovchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Fitratning quyidagi misralari:

"Temur bila Chingiz qoni toshdi tomrimizdan,
Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?"[48]

etnik birlik, tarixiy avlodlik va qon-ma'nodagi yaqinlik asosida xalqni Vatan himoyasiga chorlaydi. Chingizxon va Temurning ajdod sifatida ko'rsatilishi turkchilik mafkurasini mustahkamlaydi va bunday birlik tarixiy asosga tayangan milliy g'ururni uyg'otishga xizmat qiladi.

Xulosa

XX asr boshlarida jadidlar ilgari surgan, zamon va muhit talabi bilan yuzaga kelgan taraqqiyot (va istiqlol) hamda turkiylik g'oyalari nafaqat millatning o'zligini anglash vositasi o'laroq qo'llanildi, balki "millat" konseptining yangi mazmun ifoda etishida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Zero, "millat" konsepti bir oilaga mansublik, ya'ni turkiylik doirasida etniklashtirildi, qolaversa, millat yashaydigan hudud bilan bog'liq holda ifoda etilib, yangi mazmunga ega bo'ldi. Shuningdek, "vatan" konsepti ham millat va u yashab turgan yaxlit hududni ifoda etgani holda ular bir-biri bilan uzviy bog'liq tarzda talqin etildi. Bu ana shu davr tafakkuri uchun yangi tushuncha sifatida matbuot va adabiyotda o'z aksini topdi.

---

[46] Фитрат. Юрт қайғуси // Ҳуррият. 29.12.1917. №62. Б.4.

[47] Чўлпон. Озод турк байрами // Эл байроғи. 16.12.1917. №13.

[48] Фитрат. Юрт қайғуси (бир ўзбек йигитининг тилиндан) // Ҳуррият. 18.08.1917. №31. Б.2-3.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Vatanni sevmoq iymondandir” hadisining roviysi kim? // URL: https://namozvaqtlari.com/savol-javoblar/6263-vatanni-sevmo-ijmondandir-adisining-rovijsi-kim.html (murojaat etilgan sana: 31.12.2022)

2. Rizouddin bin Faxriddin. “Javome ul-kalim” sharhi. Qozon: Tatariston kitob nashriyoti, 1911 (2-nashri: 1916).

3. Авлоний, Абдулла. Танланган асарлар. (Шеърлар, ибратлар). 2 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: “Маънавият”. 1998 й.

4. Авлоний, Абдулла. Танланган асарлар: 2 жилдлик. 2-нашри. 2-жилд. Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари (Истиқлол хотиралари). – Тошкент: “Маънавият”. 2006.

5. Авлоний, Абдулла. Танланган асарлар: 2-жилд. Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари (Истиқлол хотиралари). – Тошкент.: “Маънавият”. 2006.

6. Айний С. Намунаи адабиёти тоҷик. Нашриёти “Адиб”. Душанбе. 2010.

7. Анарбой, Абдумажид. Ан-Наъим. Арабча-ўзбекча луғат. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент: 2003.

8. Ғаззолий, Абу Ҳомид. Кимёи саодат: (руҳ ҳақиқати). – Тошкент: “Адолат”, 2005.

9. Калинин, Ал-Аскар. Муаллим ус-соний. Дарслик. – Тошкент: 1908. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Шарқ қўлёзмалари хазинаси, асосий фонд, тошбосма. Инв. №358.

10. Муфтий Нуриддин домла Холиқназаров. Исломда Ватан тушунчаси. – Тошкент: “Shamsuddinxon Boboxonov”. 2022.

11. Муфтий Нуриддин домла Холиқназаров. Исломда Ватан тушунчаси. – Тошкент: “Shamsuddinxon Boboxonov”. 2022.

12. Муфтийзода, Абдураҳмон. Дин, ватан, замон. // Ҳуррият. 16.12.1917. №59.

13. Ниёзий, Ҳамза Ҳакимзода. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: “Фан”, 1988 й.

14. Туркистонли қардошларимизга // Садои Туркистон. 18.04.1914. №3.

15. Убайдуллоҳ. Мақсад ва маслак // Садойи Туркистон. 04.04.1914. №1.

16. Фитрат. Юрт қайғуси (бир ўзбек йигитининг тилиндан) // Ҳуррият. 18.08.1917. №31.

17. Фитрат. Юрт қайғуси // Ҳуррият. 28.07.1917. №26. Б.2.

18. Фитрат. Юрт қайғуси // Ҳуррият. 29.12.1917. №62. Б.4.

19. Хондайлиқий, Сидқий. Танланган асарлар. – Тошкент: "Маънавият", 1998 й.

20. Ҳуббил ватан аз, иймон аст // Ойна. 2.11.1915. №11; Cho'l-pon. Kecha va Kunduz. Roman. Birinchi kitob. – Toshkent: "Sharq". 2013.

21. Чўлпон. Озод турк байрами // Эл байроғи. 16.12.1917. №13.

Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. 1-жуз. Тошкент: "Hilol-Nashr", 2020 й.

QAYDLAR UCHUN

Ilmiy to'plam

MILLIY ADABIYOT SHAKLLANISHIDA JADIDCHILIKNING O'RNI

(Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari) 2025-yil, 20–21-may, Termiz

Muharrir:
Shahzoda Hakimova

Texnik muharrir:
Fayzulla Azizov

Dizayner:
Vasiliy Bursev

"Muharrir nashriyoti"

6908

Terishga 2025-yil 02-mayda berildi.
Bosishga 2025-yil 11-mayda ruxsat etildi.
Bichimi: 84x108 1/32. "PT Serif" garniturasida
ofset bosma usulida ofset qog'ozida bosildi.
33,25 shart. b.t. 30,92 hisob nashr. tab.
Adadi 25 nusxa. 27-son buyurtma.

"Muharrir nashriyoti" matbaa bo'limida chop etildi.
100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 20A-mavzei,
So'galli ota ko'chasi, 5-uy. E-mail: muharrir@list.ru